O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,

FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

M.E. PO‘LATOV, Q.J. MIRZAEV, T.S. SHARIPOV,
S.B. BOBOQULOV, SH.S. SHARIFOV

IQTISODIY O‘SISH

DARSLIK

SAMARQAND 2023

UO'K: 330.35(075)
I 98
KBK: 65.011ya7

M.E.Po'latov, Q.J.Mirzaev, T.S.Sharipov, S.B.Boboqulov, Sh.S.Sharifov. ***Iqtisodiy o'sish*** *[Matn]:* *Darslik / Samarqand iqtisodiyot va servis instituti – Samarqand.: "FAN BULOG'I" Nashriyoti, 2023 – 380 bet.*

Ushbu darslikda raqamli iqtisodiyotga o'tish sharoitida mamlakatimiz iqtisodiyotini o'sishi, uning tarkibi, xususiyatlari, turlari, omillari, modellari, mexanizmlari va ularning amal qilish qonuniyatlari, davlatning makroiqtisodiy o'sishi va rivojlanish siyosati hamda uning asosiy yo'nalishlari, iqtisodiy o'sish to'g'risidagi turli xil qarashlar, ularning asoslari va manbalarini, iqtisodiy o'sishni ta'minlashda davlat hamda nodavlat sektorining ahamiyatini xususiyatlarini o'rgatadi, shuningdek, iqtisodiy rivojlanishning asosiy tushunchalarini, iqtisodiy qonunlar va tamoyillarini, iqtisodiy o'sish va rivojlantirishni solishtirishda chuqur tahlil qilish, iqtisodiy o'sishda nazariy va empirik yondashuvlarni, iqtisodiy o'sish modellarini va ulardan foydalanishning nazariy va metodologik asoslarini yoritishgaasosiy e'tibor qaratilgan.

Darslik 70310102–Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) magistr yo'nalishlarida ta'lim olayotgan magistrlarga mo'ljallangan. Undan oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari, ilmiy xodim-izlanuvchilar, mustaqil- izlanuvchilar, talabalar, malaka oshirish kurslari tinglovchilari, soha rahbarlari va mutaxassislar ham foydalanishlari mumkin.

SamISI ilmiy kengashining 2023 yil "28"apreldagi majlisida (9-sonli majlis bayoni) qarab chiqildi va darslik sifatida nashr qilishga tavsiya etildi.

Taqrizchilar:
i.f.d., professor **Sh.T.Xasanov**
i.f.f.d., dotsent v/b **A.A.Ayubov**

ISBN: 978-9910-9863-5-2

© M.E.Po'latov, Q.J.Mirzaev, T.S.Sharipov, S.B.Boboqulov, Sh.S.Sharifov. SamISI 2023 y.
©"Fan bulog'i" Nashriyoti. 2023 y.

KIRISH

Bugungi kunda dunyoda qashshoqlik va kambag‘allikka barham berish hamda barqaror rivojlanishni ta’minlash muammolari markaziy o‘rinda turibdi. Soni o‘sib borayotgan aholi uchun mos, to‘yimli va xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlaridan foydalana olishni ta’minlash deyarli barcha xalqlar to‘qnash kelayotgan eng murakkab muammolardan biri hisoblanadi. O‘zbekistonni 2030-yilgacha ijtimoiy- iqtisodiy rivojlantirish konsepsiyasida makroiqtisodiy barqarorlikni va iqtisodiy o‘sish barqarorligini ta’minlash, iqtisodiyot tarmoqlarining raqobatbardoshligini, investitsion va eksport salohiyatini oshirish, tadbirkorlikni rivojlantirish va himoya qilish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, mehnat bozorida keskinlik darajasini pasaytirish, aholi daromadlari o‘sishi va kam ta’minlanganlikni qisqartirish nazardatutiladi.

Davlat tomonidan olib boriladigan har qanday iqtisodiy siyosat, mamlakat obro‘sini xalqaro hamjamiyat oldidagi o‘rnini ko‘tarish, yoki aholi turmush darajasini ko‘tarishga qaratilgan iqtisodiy siyosat bo‘lmasin, mamlakat iqtisodchi olimlari oldida milliy iqtisodiyotni barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta’minlash kun tartibining asosiy masalalardan biriga aylanadi. Buning uchun esa, mamlakatning uzoq muddatli barqaror iqtisodiy o‘sishga erishishini ta’minlashni taqazo etadi. Bu esa o‘z navbatida iqtisodiy o‘sishga ta’sir etuvchi omillarni o‘rganish, iqtisodiyotni barqaror o‘sishini ta’minlovchi mavjud imkoniyatlardan to‘liq samarali foydalanish kabi bir qator masalalarni tadqiq etish vazifalarini o‘zida mujassamlashtiradi. Natijada esa, davlat tomonidan olib borilayotgan iqtisodiy siyosatning samaradorligi, kelajakda mamlakat iqtisodiyoti qay holda bo‘lishi mumkinligi va taxmin qilinayotgan salbiy oqibatlarni bartaraf etish yo‘llarini ishlab chiqish imkonini yaratadi.

Iqtisodiy o‘sish, jumladan uning sifati to‘g‘risidagi masala mamlakat, uning mintaqalari, umuman biror-bir ijtimoiy tizimning rivojlanish istiqbollarini aniqlash uchun ham juda muhim. Iqtisodiy o‘sish jamiyatning rivojlanish istiqbollarini prognozlash imkonini beradi. Bundan tashqari, iqtisodiy o‘sish resurslarning cheklanganligi muammosini hal etish uchun sharoit yaratadi. Ushbu fan asosida magistrlarga iqtisodiy o‘sish, uning tarkibi, xususiyatlari, turlari, omillari, modellari, mexanizmlari va ularning amal qilish

qonuniyatlari, davlatning iqtisodiy o‘sish va rivojlanish siyosati hamda uning asosiy yo‘nalishlari,iqtisodiy o‘sish to‘g‘risidagi turli xil qarashlar, ularning asoslari va manbalarini, iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda davlat hamda nodavlat sektorining ahamiyatini o‘rgatadi.

Shuning uchun fanning eng dolzarb vazifalaridan bo‘lib o‘tkazilayotgan tahlillarga asoslanib magistrlarga empirik usullarni baholay olishni; iqtisodiy o‘sishga taalluqli bo‘lgan eng samarali adabiyotlarni ajratib ola bilishni; nazariy modellami tahlil qila olish va asosiy mexanizmlarni tushunishni, iqtisodiy o‘sish mavzusiga tegishli ma’lumotlarni yig‘ishni va o‘tkazilayotgan tahlillarda o‘zlarining empirik bilimlarini qo‘llay olishni, o‘z fikrini bildira olishi va ularni himoyalay olishni; iqtisodiy o‘sish bilan bog‘liq bo‘lgan ma’lumotlarni tahlil qila olishni o‘rgatadi.

Biroq, mavjud salohiyat, uning milliy iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida qo‘llanilishiga qaramay, O‘zbekistonning potensial va real imkoniyatlarini baholash imkonini beruvchi, bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy o‘sish va uning oqibatlarini idrok etishni ta’minlovchi sifat jihatidan yangi mexanizmni yaratish talab etiladi. Bundan kelib chiqib, iqtisodiy o‘sish sifatini oshirish, uning muvozanati muammolari tahlili amalda adekvat yechimini topmaydi, shuningdek uning o‘sish paradigmalari mazkur muammo bo‘yicha ushbu darslikni yozishgaundaydi.

“Iqtisodiy o‘sish” fani bo‘yicha o‘zbek tilida tayyorlangan mazkur darslik, ilk adabiyotlardan hisoblanib, magistrlarga iqtisodiy o‘sish, uning tarkibi, xususiyatlari, turlari, omillari, modellari, mexanizmlari va ularning amal qilish qonuniyatlari, davlatning iqtisodiy o‘sish va rivojlanish siyosati hamda uning asosiy yo‘nalishlari, iqtisodiy o‘sish to‘g‘risidagi turli xil qarashlar, ularning asoslari va manbalarini, iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda davlat hamda nodavlat sektorining ahamiyatini o‘rgatadi. Shu sababli, mualliflar jamoasi darslikni takomillashtirish bo‘yicha bildirilgan har qanday taklif va mulohazalarni minnatdorchilik bilan qabul qiladi.Ushbu darslik 18 bobdan iborat bo‘lib, unda iqtisodiy o‘sish nazariyasi va modellari jumladan: keynscha, neokeynscha, neoklassik va yangi iqtisodiy o‘sish nazariyalari modellari va iqtisodiy o‘sishni baholash hamda kelajakda ssenariyli prognozlashni o‘rganish uchun iqtisodiy matematik va ekonometrik modellar o‘z aksini topgan.

Mazkur darslik magistratura bosqichidagi 70310102 - iqtisodiyot

yo‘nalishi uchun mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan tasdiqlangan namunaviy o‘quv dasturi asosida tuzilgan. Mazkur darslik magistratura iqtisodiyot yo‘nalishdagi talabalar, iqtisodiy o‘sish mavzusi bilan qiziqqan mustaqil o‘rganuvchilar, katta ilmiy izlanuvchi xodimlar va ushbu fan bo‘yicha dars o‘tuvchi o‘qituvchilar uchun mo‘ljallangan.

I BOB. “IQTISODIY O‘SISH” FANIGA KIRISH

1.1. “Iqtisodiy o‘sish” fanining mohiyati.
1.2. Iqtisodiy o‘sishning dastlabki shartlari.
1.3. Iqtisodiy o‘sish va jamoat institutlari iqtisodiyoti tarkibidagi o‘zgarishlar.

***Tayanch iboralar**: Iqtisodiy o‘sish, makroiqtisodiy o‘sish, mikroiqtisodiy o‘sish, YaIM, o‘sish sur’atlari, bazis qo‘shimcha o‘sish sur’ati, zanjirli qo‘shimcha o‘sish, iqtisodiy davr, buyumlashgan va qiymat ifodasidagi ko‘rsatkichlar, miqdoriy ko‘rsatkichlar, taqsimlash omillari, taklif omillari, ekstensiv va intensiv omillar.*

1.1. “Iqtisodiy o‘sish” fanining mohiyati

Iqtisodiy o‘sish zamiridagi zamonaviy iqtisodiy nazariyada odatda tabiiy ahamiyatga ega bo‘lgan ishlab chiqarish hajmining real tushib ketishi va qisqa muddatli ravnaqi emas, balki, uzoq muddatli vaqt oralig‘idagi ishlab chiqaruvchi kuchlar rivojlanishiga bog‘liq bo’lgan ishlab chiqarish real hajmining tabiiy darajasining uzoq muddatli o‘zgarishi tushuniladi. Bunday hollarda o‘qitish predmeti bir uzoq muddatli muvozanat holati boshqasiga tomon xarakatlanishi bilan izohlanadigan ishlab chiqarish potensial hajmining o’sishi hisoblanadi. Bunday yondashuvda iqtisodiy o‘sish su’rati va takliflar omili diqqat markazida turadi.

Real iqtisodiy o‘sish tahlilida o‘qitish predmeti iqtisodiy dinamikani aniqlovchi omillargina emas, shuningdek tarmoqlar va takror ishlab chiqarish proporsiyasining o‘zgarishi, iqtisodiy o‘sish jarayonidagi institutsional tuzilmalar transformatsiyasi, o‘sish su’ratlarini tiyib turish yoki rag‘batlantirish bo‘yicha davlat siyosati, real ishlab chiqarish potensial ishlab chiqarish hajmidan ortda qolishi sabablari va boshqalar ham bo‘lishi mumkin. Real iqtisodiy o‘sish mohiyati iqtisodiyotining asosiy ziddiyatlarining yangi darajasida qayta tiklash va ruhsat berishdan iborat bo’lib, ishlab chiqarish resurslarining cheklanmaganligi va jamiyat ehtiyojlarining cheklanmaganligi orasida vujudga keladi.

Shuningdek, iqtisodiy o’sishning mazmuni, ahamiyatini yoritishda bir qator ta’riflar berilgan bo’lib jamiyat rivojida o’zining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati bilan ajralib turadi.

Iqtisodiy o‘sish - ishlab chiqarishni takomillashtirish, iqtisodiyotda progressiv o‘zgarishlar va qayta qurishlarning muhim shart-sharoitidir. U taraqqiyotning ajralmas qismi, ijtimoiy rivojlanishning asosini tashkil qiladi. Iqtisodiy o‘sish - aholining moddiy faravonligini oshirish vositasi hisoblanadi. Shu sababli u davlat iqtisodiy siyosatining negizi bo‘lib qoladi. Iqtisodiy o‘sish nafaqat ishlab chiqarish, balki taqsimot munosabatlarini takomillashtirish, mehnat resurslarining bandligini ta’minlash, investitsion faollikni oshirish va pirovard natijada davlat byudjeti daromadlarining ko‘payib borishini ta’minlash manbai hisoblanadi. U ko‘pgina ichki va xalqaro darajadagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni muvaffaqiyatli hal etishimkonini beradi.

Iqtisodiy o‘sish mamlakat aholisining turmush darajasini oshirishga, ekologiya, mudofaa muammolarini hal etishga imkoniyat tug‘diradi. “Global inqiroz sharoitida iqtisodiy va siyosiy barqarorlikni ta’minlash, joylardagi mavjud muammolarni manzilli hal etish ko‘makka muhtoj yurtdoshlarimizni qo‘llab-quvvatlash, yoshlarimizning orzu-umidlarini ro‘yobga chiqarish Prezidentdan boshlab barcha darajadagi rahbarlarning bosh vazifasi bo‘lmog‘i darkor”.

Iqtisodiy o‘sish - to‘liq bandlik bilan mujassamlashgan ishlab chiqarish real hajmining uzoq muddat mobaynida o‘sishidir. Iqtisodiy o‘sish YaIM, davlat iqtisodiy qudrati va insonlar farovonligining o‘sishida o‘z ifodasini topadi. Shuningdek, iqtisodiy o‘sish bevosita yalpi milliy mahsulot miqdorining mutlaq va aholi jon boshiga hamda iqtisodiy resurs xarajatlari birligi hisobiga ko‘payishi hamda sifatning yaxshilanishida va tarkibining takomillashuvida ham ifodalanadi. Hozirgi kunda iqtisodiy o‘sish nazariyasida iqtisodiy o‘sish sur’atlariga ma’lum muddat oralig‘ida erishishgina emas, balki uni uzoq muddat davomida o‘sish sur’atlarida saqlash ko‘zda tutilmoqda. Ya’ni o‘sishni barqarorligini ta’minlovchi

omillarni aniqlab ularni takomillashtirish ustida ish olib borish zamonaviy iqtisodiyot nazariyasining oldida turgan asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Demak yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib barqaror iqtisodiy o‘sishga quyidagicha ta’rif beriladi:

Barqaror iqtisodiy o‘sish - bu uzoq vaqt davomida iqtisodiyotni yuqori sur’atlar bilan o‘sib borishidir. Makroiqtisodiyot nazariyasi va jahon amaliyoti ko‘rsatishicha mamlakatlarni yillik YaIMni o‘sish

sur’ati 7% dan kam bo‘lmasa YaIMning hajmi 30 yilda 2 marta ko‘payadi. Aksincha YaIMning yillik o‘sish sur’ati 10% dan kam bo‘lmasa, mamlakat YaIM hajmi 7 yilda 2 marta ko‘payadi. Iqtisodiy o‘sish zamiridagi zamonaviy iqtisodiy nazariyada odatda tabiiy ahamiyatga ega ishlab chiqarish hajmining real tushib ketishi va qisqa muddatli ravnaqi emas, balki uzoq muddatli vaqt oralig‘idagi ishlab chiqaruvchi kuchlar rivojlanishiga bog‘liq ishlab chiqarish real hajmi tabiiy darajasining uzoq muddatli o‘zgarishi tushuniladi. Bunday hollarda o‘qitish predmeti, bir uzoq muddatli muvozanat holati boshqasi tomon harakatlanishi bilan izohlanadigan ishlab chiqarish potensial hajmining o‘sishi hisoblanadi. Bunday yondashuvda iqtisodiy o‘sish sur’ati va takliflar omili diqqat markazida turadi.

Real iqtisodiy o‘sish tahlilida o‘qitish predmeti iqtisodiy dinamikani aniqlovchi omillargina emas, shuningdek tarmoqlar va takror ishlab chiqarish proporsiyasining o‘zgarishi, iqtisodiy o‘sish jarayonidagi institutsional tuzilmalar transformatsiyasi, o‘sish sur’atlarini to‘xtatib turish yoki rag‘batlantirish bo‘yicha davlat siyosati, real ishlab chiqarish potensial ishlab chiqarish hajmidan ortda qolishi sabablari va boshqalar ham bo‘lishi mumkin. Real iqtisodiy o‘sish mohiyati iqtisodiyotni asosiy ziddiyatlarning yangi darajasida qayta tiklash va ruxsat berishdan iborat bo‘lib, ishlab chiqarish resurslarining cheklanganligi va jamiyat ehtiyojlarining cheklanmaganligi o‘rtasida aniqlanadi.

Bu qarama-qarshilik ikki asosiy usulda bo‘ladi:

- ishlab chiqarish quvvatining oshishi hisobiga;
- ishlab chiqarish quvvati va jamiyat ehtiyojlari rivojlanishiga ega bo‘lgan samarali foydalanish hisobiga. Biroq bu jarayonda har bir yangi bosqichda ishlab chiqarish imkoniyatlari kengayishidagi rivojlanishda barcha jamiyat ehtiyojlari qondirilmaydi. Jamiyat ehtiyojlari ishlab chiqarish resurslariga munosabatda doimo birinchi bo‘lsada, bu ehtiyojlarni qondiruvchi ishlab chiqarish mahsulotlari ma’lum mamlakatning ishlab chiqaruvchilari yoki import mahsulotlari vositalari o‘zlashtirilganda vujudga keladi. Buni shu bilan tushuntirish mumkinki, ehtiyojlarning vujudga kelishi qadam - baqadam ommaviy tus oladi va ishlab chiqarishning uzluksiz rivojlanishini nazarda tutadi.

Ishlab chiqarish imkoniyatlarining rivojlanishi jamiyat ehtiyojlari o‘sishi miqdori bilangina emas, ularning tuzilmasida bir

ehtiyoj ulushining ortishi va boshqasining ulushi pasayishi bilan shartlanadi. Ishlab chiqarish resurslari va ishlab chiqarish tuzilmasi, qoidaga muvofiq ehtiyojlar tuzilmasi kabi tez o‘zgarishi mumkin emas. Mahsulot yoki xizmatga yangi ehtiyoj tug‘ilishi uchun uning bir vaqtda ishlab chiqarishni o‘zlashtirish va bozorda iste’molchilar talablariga mos, to‘lash qobiliyatiga ega o‘z sifati va narxi bilan ular talabiga javob beradigan yangi mahsulotning paydo bo‘lishi dalili yetarli. Shu bilan birga ma’lum tovar ishlab chiqarishni ommaviy o‘zlashtirish uchun ma’lum muddat zarur. Ishlab chiqaruvchilar ortda qolishni kamaytirishgagina erishishlari mumkin, lekin uni butunlay eskirtira olmaydilar.

Bundan kelib chiqadiki, iqtisodiyot asosiy subyektlarining iqtisodiy o‘sishi tomon intilishi jamiyatda qanday rivojlanish darajasiga erishilganga bog‘liq bo‘lmagan holda mavjud bo‘ladi. Biroq ishlab chiqarishning real shartlari o‘sish salohiyatini amalga oshirishga har doim ham yo‘l qo‘ymaydi. Bunday sharoitlarda depressiya yoki xuddi ichki iqtisodiy omillar kabi milliy iqtisodiyotga munosabatdagi ichki omillar (masalan, urushlar, ichki va xalqaro siyosatdagi o‘zgarish va boshqalar) bilan izohlanishi mumkin bo‘lgan iqtisodiy tanazzul boshlanadi. Iqtisodiyotda iqtisodiy o‘sishning yuzaga kelishi shakllari izohida ikki asosiy yondashuv mavjud.

Ulardan keng tarqalgani iqtisodiy o‘sishni YaIM (MD) real hajmi o‘sish sur’ati yoki bu ko‘rsatkichlarni aholi ehtiyoji hisobida oshirish sur’ati bilan o‘lchanadigan aniq vaqtda milliy iqtisodiyot rivojlanishining jami tavsifi bilan tushunish hisoblanadi. Iqtisodiy o‘sishni hisoblashning u yoki bu uslubini qo‘llash zarurati, odatda tadqiqot masalalari bilan bog‘liq. Iqtisodiy o‘sishni hisoblashning birinchi usuli, odatda, mamlakatning iqtisodiy salohiyati kengayish sur’atlarini baholashda qo‘llaniladi, ikkinchidan esa aholining qulay sharoiti dinamikasi tahlilida yoki turli hududlar va mamlakatlarning hayotiylik darajasini solishtirishda foydalaniladi. Hozirgi vaqtda o‘sish nazariyasida ikkinchi hisoblash usuli afzal deb qaraladi. Iqtisodiy o‘sishda real milliy daromad oshishi sur’atlari aholi o‘sishi sur’atlarini oshiradigan milliy iqtisodiyot rivojlanishi nazarda tutiladi. Bu o‘sish muammolarini tashqi kuzatuvchi nuqtai nazaridan emas, mamlakat aholisi pozitsiyasidan turib ko‘rib chiqishni taqozo etadi.

Iqtisodiy o‘sishni ishlab chiqarish real hajmining oshish sur’atlari nuqtai nazaridan qarab chiqishda, odatda (aniq va noaniq

shaklda) iqtisodiyotda chuqur tuzilmaviy va institutsional o‘zgarishlar yuz bermasligi taxmin qilinadi. Ishlab chiqarish tuzilmasi va institutsional muhit murakkab va o‘zgarmas hisoblanadi. Bunday rivojlanish xarakteri tashqi muhit bilan o‘zaro ta’sirda balanslangan va yaxlitlik xususiyatiga ega bo‘lgan iqtisodiy tizim uchun o‘ziga xos. Iqtisodiy o‘sish nazariyasidagi boshqa yondashuv industrial va postindustrial jamiyatni takror ishlab chiqarishda qo‘llaniladi.

Bu nazariyalar qachonki, o‘zgarishlarga hokimlik, boshqaruv, infratuzilma obyektlari, iqtisodiyotdagi tuzilmaviy o‘zaro ta’sir va uning tashqi muhit bilan o‘zaro aloqasining asosiy institutlari duch kelganda, “yuqori uzun” davrda iqtisodiy dinamika muammolarini tahlil qiladi. Ta’kidlash kerakki, “uzoq muddatli” va “yuqori uzun” davrlar tushunchalari dinamika nazariyasida iqtisodiy vaqt haqida gap borar ekan, xuddi o‘zining vaqtinchalik masofasi va konseptual yo‘nalish kabi farqlanadi (hodisalar sodir bo‘lish tezligi).

“Yuqori uzun” davr o‘zining vaqtinchalik masofasi hodisalari qatorida uzoq muddatli davr va uning an’anaviy tushunchasida qisqa bo‘lishi mumkin. Xususan, bu mamlakatimiz rivojlanishining zamonaviy bosqichida, uning uchun xarakterlidir. Bunda tuzilmaviy, institutsional va funksional o‘zgarishlar ishlab chiqarish real hajmi tabiiy o‘sish jarayonini aniqlaydigan ishlab chiqarishning tekis ommillari o‘zgarishidan ko‘ra tezroq yuz beradi. Yuqori uzun davrdagi iqtisodiy o‘sish tahlilining ikki asosiy xususiyatini ajratish mumkin:

– iqtisodiy o‘sish iqtisod rivojlanishining tashkiliy elementi sifatida qaraladi. U bir tomondan rivojlanishning siklik xarakterini ifodalaydi, ikkinchi tomondan o‘zi pasayish va depressiya davrlariga tayyorlovchi o‘zgarishlar natijasi hisoblanadi. Shuning uchun asosiy e’tibor iqtisodiy o‘sish sur’atlariga emas, balki iqtisodiyotdagi global o‘zgarishlar, barqaror tendensiya va qonunchiliklar va ularning yangi sifat o‘zgarishlariga qaratiladi.

Makroiqtisodiy tanaffuslar qatorida iqtisodiy rivojlanishning industrial asoslari, tadbirkorlik muammolari, ishlab chiqaruvchilar qiziqishlari ziddiyatli siljishlari, iste’molchilar va davlat hokimiyati institutlari iqtisodiy faoliyat samaradorligini oshishiga yo‘l qo‘ymaydigan yangi iqtisodiy tuzilmaning shakllanishi va uning tashqi muhit o‘zgaruvchanligi sharoitidagi barqarorligini tekshiradi. Jamiyat a’zolarining xilma-xil va yuksalib borayotgan ehtiyojlarini

qondirishning birdan bir vositasi iqtisodiy o‘sishdir. Agar iqtisodiy o‘sish bo‘lmasa hech qanday jamiyat rivojlana olmaydi, eski iqtisodiy tizim o‘rniga yangisi kelmaydi, xullas, ijtimoiy taraqqiyot yuz bermaydi. Bu obyektiv qonuniyat bo‘lib, aholi o‘sishi va fan-texnika jarayonlari bilan bog‘langan. U milliy iqtisodiyot rivojlanish harakatini ko‘rsatadi va shu sababli vaqtning ma’lum davrlariga (chorak, yil va undan uzoq vaqtga) makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni (YaIM va SMM) taqqoslash yo‘li bilan o‘lchanadi.

Iqtisodiy o‘sish deganda, odamlarning talab - ehtiyojini qondirish uchun zarur bo‘lgan moddiy mahsulot va xizmatlarni, ya’ni barcha noz ne’matlarni ishlab chiqarishning ko‘payib borishi tushuniladi. Iqtisodiy o‘sish nafaqat iste’mol buyumlari, balki ishlab chiqarish vositalari, ya’ni resurslarni ham ko‘plab ishlab chiqarishni anglatadi, chunki o‘sish jamiyat a’zolarining joriy iste’molini qondirish bilan cheklanmay, kelajakda ishlab chiqarishni rivojlantirish orqali bo‘lg‘usi iste’molni qondirishni ham mo‘ljallaydi. Ishlab chiqarish faoliyati jamiyat hayotining birlamchi asosi bo‘lganidan iqtisodiy o‘sish ijtimoiy taraqqiyot uchun moddiy zamin yaratib beradi. Jamiyatdagi chuqur va sifatli o‘zgarishlar iqtisodiy o‘sish sur’atlariga qarab yuz beradi. Hozirgi bosqichda jamiyat hayotidagi shiddatli o‘zgarishlar barqaror o‘sish natijasidir. Iqtisodiy o‘sish jamiyatdagi ishlab chiqarish hajmini yoki aholi jon boshiga yaratilgan mahsulotlar va xizmatlar hajmini ortib borishi bilan o‘lchanadi. Uni albatta real yalpi milliy mahsulot yoki real milliy daromadning ko‘payishi ifoda etadi.

Makroiqtisodiy o‘sish - butun jamiyat miqyosidagi, masalan, mamlakat miqyosidagi iqtisodiyotni o‘sishidir. U jamiyat ishlab chiqarish faoliyatining natijasi bo‘ladi, turli korxona va tarmoqlardagi makroiqtisodiy o‘sishning mazmuni sifatida yuzaga keladi. Mikroiqtisodiy o‘sish bu korxona, xo‘jalik firma va tarmoq doirasidagi o‘sishdir, shu doiradagi mehnat qiluvchilar iqtisodiy aniqrog‘i guruhiy faoliyatning natijasidir.

1.2. Iqtisodiy o‘sish va unga erishishning dastlabki shartlari

Iqtisodiyot boylik haqidagi fan ekan, tabiiyki, avvalambor uning paydo bo‘lishi bilanoq iqtisodiy o‘sish muammosi diqqat markazida turadi. Bu muammoni yechish iqtisodiyotning doimiy o‘sishda bo’lgan aholi hayot darajasini oshirishni ta’minlaydigan, rivojlanish omillarini

qidirishni bildiradi. Ma’lumki, inson ehtiyojlari chegaralanmagan: inson bir ehtiyojini qondirishi bilan keyingisi tug‘ilaveradi. Shu bilan birga Yer aholisi uzluksiz o‘sib boradi. Insoniyatning 1 mlrd.ga yetishi uchun 10 ming yil kerak bo‘ldi. (Bu 1850 yilda edi), 2 mlrd.ga yetishi uchun esa 80 yilgina kerak bo‘ldi (1930). 45 yilda esa bu raqam ikki baravarga ko‘paydi (1975). 2000 - yilda Yer yuzida 6 mlrd. kishi yashagan. 2020 - yilda esa aholi 8 mlrd.ni tashkil qilishi mo‘ljallanmoqda.

Darhaqiqat, XIX asr o‘rtalarida boshlangan aholining bunday tez o‘sishi odamlar ehtiyojini jamiyat va individual qondirilishiga olib boruvchi mahsulot tannarxining ilgarilab o‘sishi bilan yonma-yon kechadi. Amerikalik iqtisodchi

E. Meddison eramizning 500-yilidan boshlab iqtisodiy o‘sish tarixini o‘rganar ekan, qiziqarli natijalarga erishdi. So‘nggi 1500 yil oralig‘ida bir kishi uchun yetarli bo‘lgan mahsulot chiqarish o‘sishi va aholi o‘sishi orasidagi aniq bog‘liqlik bo‘lgan doiradagi 4 davr ko‘rsatiladi. 1.1-Jadval So‘nggi 15 yil ichida aholi o‘sishi va aholi ehtiyojida mahsulot ishlab chiqarish.

1.1-Jadval

O‘rtacha yillik o‘sish sur’ati %

Davr	**Aholi o‘sishi**	**Aholi ehtiyojida mahsulot ishlab chiqarish hajmining o‘sishi**
Agrarianizm (500-1500 y.)	0,1	0,0
Rivojlangan agrarianizm (1500-1700 yillar)	0,2	0,1
Savdo kapitalizmi (1700-1800 yillar)	0,4	0,2
Zamonaviy kapitalizm (1820-1980)	0,9	1,6

Ma’lumotlardan ko‘rinadiki, aholi ehtiyojiga ko‘ra ishlab chiqarish 1000 yil oralig‘ida o‘smagan va aholi shu davr mobaynida o‘rtacha yillik sur’atda 0,1 %ga o‘sgan. Ayrim ko‘rsatkichlar o‘sishi keyingi uch yuz yillik mobaynida kuzatilgan, lekin ularning o‘sish sur’ati juda pastligicha qolgan. Shiddatli sakrash zamonaviy

kapitalizm davrida yuz bergan. Bunda aholi ehtiyoji bo‘yicha ishlab chiqarishning o‘sish sur’ati 1,6 %gacha ko‘tarilgan, aholi soni esa yiliga taxminan 1 %ga o‘sgan.

Boshqa amerika tadqiqotchisi, iqtisodiy o‘sishni tushuntirishga miqdoriy yondashuv asoschisi S. Kuznets Angliya, Germaniya, AQSh kabi mamlakatlardagi iqtisodiy o‘sish sur’atlari tezligi sanoat burilishi va kapitalizmning yetakchi iqtisodiy tizimga aylangan davri bilan bog‘liq deb hisoblaydi. Kapitalizm mohiyatan, kapitalistik rivojlanish yo‘lida turgan mamlakatlar iqtisodiy o‘sishida o‘zakli o‘zgarish bilan ta’minlaydigan birinchi iqtisodiy tizim bo‘lib qoldi.

Bu tarixiy fenomen olimlar tomonidan turlicha tushuntirilgan. Shu mavzuga bag‘ishlangan ommaviy nazariyalardan biri din va iqtisodning o‘zaro aloqasini yetarli sabab deb hisoblovchi M.Veber tomonidan ishlab chiqilgan. U kapitalizm o‘z rivojlanishi uchun tiklanish davrida faqat din berishi mumkin bo‘lgan baquvvat ma’naviy stimulga muhtoj deydi. SHunday din sifatida XVI asrning birinchi yarmida xristian islohotchilari M. Lyuter va J. Kalvinning teologik ta’minoti – protestantizm bo‘ldi. Protestantizm va u orqali yuzaga kelgan kasbiy etika, Veber fikriga ko‘ra, Sharq dini Xitoy, Hindiston kabi mamlakatlarda industrial ko‘tarilishga mone’lik qiluvchi barer sifatida xizmat qilganda, G‘arb iqtisodiy ko‘tarilishi va zamonaviy G‘arb sivilizatsiyasining jiddiy omili bo‘ldi.

Protestant ta’limining markazi taqdir haqidagi g‘oyalar hisoblanadi: har bir kishiga tug‘ilmasidan oldin uning taqdiri – qutilish yoki abadiy tashvish belgilangan bo‘ladi. Kishilarning har qanday intilishlari yoki cherkov yordami hech nimani o‘zgartira olmaydi. Barchasi Xudo tomonidan u olamni yaratgan paytda belgilab qo‘yilgan, hech kim bu olam nima uchun yaralganini bilmaydi. Taqdir haqida g‘oya osmondagi “yaxshi ishlar” yordamida yoki monastirlik, olamdan tashqari askezlarga olib boruvchi yo‘lni berkitib qo‘ydi[2]. Insonga umid va tanlash haqida guvohlik beradigan yutuqlarga erishishi uchun tabiiy mashg‘ulot, kasbiy faoliyat bo‘lib qoldi. Boshqa barcha narsadan voz kechildi, modomiki u boylik orttirishga, ishdagi muvaffaqiyatga xalaqit beradi. Yerdagi insonning muvaffaqiyati, uning intilishi yaxshilanishlarga yo‘naltirilganligi, Xudoning insonga berilgan qutqaruvchilik belgisi, Xudoning inoyati. Yalqovlik, muvaffaqiyatsizlik kambag‘allikni esa har kim la’nat tamg‘asi deb qabul qilishi lozim.

Bundan tashqari, prtestantizm psixologiyada o‘z-o‘zini anglashdan uzoqlashuv deb ataladigan tushunchaga taqlid qiladi. U insonga o‘z xatolarini o‘zi muhokama qilish huquqini beradi. Buning uchun cherkovga borish shart emas. Modomiki, xudo insonni har doim va har joyda ko‘rar ekan, har bir odam o‘z javobgarligini uning oldida his qilishi kerak. Natijada insonlarga jamiyat va bir - birlari oldida personal javobgarlik shakllanadi.

Xudoga, mehnatga yaqinlashishdagi yangi munosabatlarning birdan-bir yangimaqsadi bo‘lgan Yevropada protestantizm kengayishi davrida insonlarda yuz bergan katta psixologik siljishga olib keldi. Avvalgi vaqtlarda, jumladan, o‘rta asrlarda mehnatga munosabat o‘zgacha edi. M.Veberning yozishicha, kapitalistik davrga qadar an’anaviy hayot darajani ushlab turish zaruratidan tashqari ko‘p ishlash stimuli bo‘lmagan edi. Odamlar ishlashlari kerak bo‘lgani uchun ishlardilar va bu zarurat chetdagi, iqtisodiy ehtiyojdan tashqari bosim bilan shartlashgan bo‘ladi. Kapitalistik jamiyatda yangi xususiyatlar paydo bo‘ldi: insonlar xuddi ichki ehtiyojlar kabi tashqi bosim uchun ham ishlay boshladilar. Ular shunday muddat javobgarlik va intensivlik bilan ishlay boshladilarki, bunday holat oldingi jamiyatlarda bo‘lishi mumkin emas.

Inson qobiliyati va kuchini mobilizatsiya qilish uchun har qanday tashqi bosimdan ko‘ra ichki ehtiyoj juda samarali. Tashqi ehtiyojlar pasaytiradigan psixologik jiddiyatlarni yuzaga keltiradi va aql instiativ va javobgarlikni oshirish talab qilingan paytda kishilarni passiv, muammolarini yechishda qobilyatsiz qilib qo‘yadi.

“Agar inson energiyasini bir qismi ishga yo‘naltirilganida, kapitalizm rivojlana olmas edi. Bunga shubha yo‘q,- deb yozgan mashhur g‘arb psixologi

E.F. Romm, - tarixda erkin kishilar o‘z energiyalarini butunligicha yagona maqsad

– ishga bahsh etgan boshqa davr yo‘q. Doimiy mehnatga intilish bosh ishlab chiqarish kuchiga aylanadi. Bug‘ va elektr kabi bizning sanoat tizimimiz rivojlanishuchun muhimdir”.

G‘arb iqtisodiy o‘sishini ayrim tadqiqotchilar bosh rejaga boshqa omillarni ham kiritadilar. Xususan, fan va tadqiqotlar, tabiiy resurslar va iqtisodiy stimullar, kolonial ekspluatatsiya va imperialistik eksponsiya. Biroq bu omillarning muhimligi darajasini baholash qiyin. Agar, masalan, fan va tadqiqotlar, - G‘arb boyligi o‘sishining yetarli

sababi bo‘lsa, nima uchun xuddi shunday o‘sish XVI asrgacha shu darajada liderlik qilgan Xitoy yoki Islom mamlakatlarida kuzatilmagan.

Iqtisodiy o‘sishni tushuntirishda kichik bo‘lmagan ahamiyatini ayrim avtorlar ta’kidlagan tabiiy resurslarga kelsak, tarixiy haqiqat XIX asrning oxiri va XX

asrning boshlarida (Niderlandiya va Shveysariya gullagan davrida) bu tezis reputatsiyasini qo‘porib tashladi. Unga so‘nggi zarbani Yaponiyaning ko‘rinmas o‘sishi va gullashi, Janubiy Koreyaning iqtisodiy muvaffaqiyatlari va qator yangi industrial mamlakatlar berdi. Bunga yana misol qilib, Ikkinchi jahon urushidan keyin cheklangan tabiiy resurslarga ega bo‘lgan Yevropa mamlakatlari qashshoqlikdan boylikka intiluvchan siljishni yuzaga keltirganliklarini va xuddi shu vaqtning o‘zida ayrim “uchinchi olam” mamlakatlari yirik tabiiy resurslarga ega bo‘la turib ham, haligacha qashshoqlikda yashayotganligini keltrish mumkin.

K.Marks G‘arb iqtisodiy o‘sishini tushuntirishda raqobatning harakatlanuvchi kuchlari, psixologik motivatsiya, xarajat ketidan quvishga katta ahamiyat beradi. Biroq, M.Veber bu fikrning ahamiyatini inkor etadi: “Iqtisodiy qiziqishlar tangligining boshqa davrlardan farq qiladigan bizning ratsionalistik va kapitalistik zamonga muvofiq tasavvur sodda tasavvurdir: zamonaviy kapitalistlar, masalan, sharq savdogarlaridan, unchalik katta bo‘lmagan darajadagi tamagarlikdan qo‘rqishlari bilan ajralib turadilar. Iqtisodiy qiziqishlarda o‘zboshimchalik qilish o‘z-o‘zidan faqatgina irratsional natijalarga olib kelish mumkin.”

Boshqa bir ishida M.Veber yozadi: “Tadbirkorlikka intilish, tekin foydaga intilish, pul yaroqligida o‘z-o‘zidan kapitalizm bilan hech qanday aloqasi yo‘q. Bunday intilish ofitsiantlarda, shifokorlarda, kucher, rassom, koketka (fohisha), poraxo’r, chinovnik, soldat, qaroqchi, qizil burunlar, qimorxona qatnashchilari va qashshoqlarda kuzatilgan va kuzatilyapti. Kapitalizmning mohiyati haqidagi shu kabi sodda tasavvurlar tarix madaniyatini o‘rganish mobaynida butunlay voz kechishni ko’zlaydigan haqiqatga tegishli. Tekin daromad ishlarida tiyiqsiz ochko‘zlik hech qanday me’yorda kapitalizmga o‘xshamaydi va uning “ruhi”ga muvofiq emas. Kapitalizm bu irratsional intilishga ortiqcha tashvish bo‘lishi mumkin, har holda uning ratsional bo‘ysunishiga yordam beradi. Kapitalizm,

shubhasiz, uzluksiz faoliyat yurituvchi ratsional kapitalistik korxona doirasida tekin daromadga va daromadning uzluksizligiga rentabellikka intilishi jihatdan moskeladi”.

M.Veber xususiy tadbirkorlik xo‘jaligi ishlab chiqaruvchanligiga yo‘naltirilgan yangi xo‘jalik ahloqi va mantiq asosan ular ortiqchalik qilganlarida o‘zining qat’iyligi bilan boylikdan bevosita bahra olishni rad qilishini va talabni qisqartirishga intilishlarini ko’rsatdi. Shu bilan birga ular molparastlikni an’anaviy etikaning psixologik og‘irligidan xalos qildi, uni faqatgina qonungina emas, xudo nuqtai nazariga ham to‘g‘ri keladigan bilimlarga aylantirib, kishanlarni yechdi. Bir so‘z bilan aytganda, boylik kasbiy faoliyat natijasi sifatida oqlandi, Xudoning rag‘bati sifatida qaraldi. Agar ehtiyojlarga puritancha munosabat tekin daromadga intilish bilan qo’shilsa, unda buning obyektiv natijasi ehtiyotkorlik natijasida kapital jamg‘arish bo‘ladi. “Boylik orttirish ehtiyoji yo‘lidagi to‘siq, - ta’kidlaydi M.Veber investorlangan kapital sifatida uning ishlab chiqarishda qo‘llanishiga muqarrar xizmat qilishi lozim”.

Shu bilan birga yangi etika g‘arb mamlakatlari hayoti uchun oddiy kapital jamg‘arishdan ko‘ra muhimroq natijaga ega. “Puritan tinchlik tuyg‘usi tasdiqlangan har bir joyda, har qanday sharoitda u hayot tarzining iqtisodiy nuqtai nazaridan ratsional, burjuaziya tiklanishiga imkon tug‘diradi va albatta, kapital qo‘yilmalarining oddiy stimullashtirishdan ko‘ra ko‘proq ahamiyatga ega. Puritanizm zamonaviy “iqtisodiy inson” manbaida turibdi”[3].

Yangi shaxs yuzaga kelishi va kapitalning jamg‘arilishi xo‘jalik hayoti o’suvchi avtomatizatsiyasi bo‘lib qoldi. Iqtisodiy munosabatlar qadam - baqadam butunlay integrarlashgan va yuqori tashkillashgan so‘nggi o‘rta asrlar davridagi feodal jamiyat uchun xarakterli bo‘lgan diniy va siyosiy nazorat ostiga kira boshladi. Iqtisodiyotning ustidagi bunday nazoratning bo‘shashi turli shakllarda yuz berdi: boshqarilmaydigan narxlar bo‘yicha savdo hajmi o‘sib ketdi, o‘z qo‘llari bilan ishlab chiqargan mahsulotlarini sotadigan hunarmandlardan farqli ravishda oldi - sotdi hisobiga yashovchi va boyuvchi savdogarlar sinifi paydo bo‘ldi; qadam- baqadam ko‘pgina iqtisodiy qarorlar markazi bo‘lgan yangi korxonalar tashkil etilishi bilan hukumat va gildiylar tomonidan nazoratning yo‘q bo‘lishi, bu qarorlardagi kirim va chiqim esa korxonaning shaxsiy egasi tomonidan tan olindi. Bu barcha o‘zgarishlar sifatli yangi iqtisodiy

mexanizmni qurishda, milliy iqtisodiyot tashkilotlari samaradorligini oshirishda katta rol o‘ynaydi. “Iqtisodiyotning samarali tashkiloti,- deb ta’kidlaydi amerikalik iqtisodchi D.Nore – iqtisodiy o‘sish kalitidir. Uning G‘arbiy Yevropada vujudga kelishi G‘arbning kutarilishiga shartlangandir. Samarali tashkilot o‘zining ketidan individual kirim shakillarini jamiyat kirim shakillariga yaqinlashtiruvchi iqtisodiy aktivlik ko‘rinishlari oqimidagi individual iqtisodiy zo‘riqish yo‘nalishi uchun stimullarni tashkil qiladigan shaxsiy huquq tuzilmasi va institutsional tuzilma qurishni ergashtiradi.”[4]

Keyingi 10 - 15 yil ichida ko‘pgina iqtisodchilar diqqati Janubiy-Sharqiy mamlakatlarning iqtisodiy o‘sish bilimlariga borib taqalmoqda. Bu mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishlaridagi yutug‘i haqiqatan ham afsonaviy xarakterga ega. Boshqa hech qanday rivojlanayotgan mamlakatlar guruhi bunday o‘sish su’rati, qashshoqlikni pasayishi darajasi, jahon bozoriga integratsiyasi, shuningdek, hayotiylik darajasining oshishi bo‘yicha o’rnak bo‘la olmaydi. Keyingi 25 yil ichida bu yerda aholi talabi deyarli 4 barobar oshdi. Qashshoqlikda yashayotgan aholi qismi taxminan 2-3 hajmda kamaydi, aholi o‘sish su’rati tez tushib ketdi, ta’lim darajasi va salomatlik ko‘rsatkichlari sezilarli yaxshilandi. “Osiyo yo‘lbarslari”(Janubiy Koreya, Singapur, Gankong, Tayvan) ning ketidan “ikkinchi avlod” (Indoneziya, Malaziya) bordi, hozir esa ratsional o‘sishning yangi harakati sifatida Xitoy nomoyon bo‘ldi.

Yangi industrial mamlakatlar (NIS) iqtisodiy yutug‘i sabablari nimada?

Bu savolga javob berish uchun xalqaro bank tomonidan uch guruh omillar ta’sirini aniqlashni uddalashga qaratilgan kengaytirilgan tadqiqot olib borildi:

1) Siyosiy va makroiqtisodiy barqarorlikka erishish;
2) Inson resurslariga investitsiyalar;
3) Tashqi bozorga yo‘naltirilganlik.

Bu mamlakatlarning asosiy yutug‘i u yoki bu iqtisodiy siyosat shakillanishidagi progmatizm galasidir. Buning zamirida, modomiki, NIS birinchi avlodining gullashi davlatning iqtisodiyotga faol aralashuvi bilan bo‘lsa, bir vaqtning o‘zida ulardan keyingi mamlakat yutug‘i davlat iqtisodiy siyosatining erkinligi bilan shartlanganligini nazarda tutish lozim. Lekin u yoki bu holda ham makroiqtisodiy

siyosat yuqori fiskal dissiplina, jamg‘arma va investitsiyalar, shuningdek tashqi orientirlangan savdo siyosatining adekvat stimullashuvi bilan xarakterlanadi. Iqtisodiy o‘sishdagi makroiqtisodiy barqarorlik quyilmasi davlat byudjeti defitsiti barqaror va past darajasi bilangina emas, shuningdek boshqa rivojlanayotgan mamlakatlar ko‘rsatkichlariga muvofiq YaIM ikki-uch barobar oshiradigan xususiy investitsiyalar ulushining katta tezlikda o‘sishida hamjoylashadi[1].

Tajriba ko‘satadiki, ishlab - chiqarish investitsiyalarining va kapital qo‘yilmalarining samaradorligi mehnat resurslarining unumdorligiga bog‘liq. NISda mehnatning roli iqtisodiy o‘sish omili sifatida o‘ta jiddiy. Ishchi kuchi bu yerda yuqori intizomlilik, texnologik va tashkiliy o‘zgarishlarga osongina moslashish, ta’lim va malakaning yuqori darajasi bilan farqlanadi. Janubiy - Sharqiy Osiyo mamlakatlari iqtisodiy o‘sishida xorij kapitalining oqib kirishi va mo’tadil proteksionistlik import siyosatining eksportni stimullashtirish bilan bir vaqtda olib borilishi asosiy rol o‘ynaydi. To‘g‘ri xorijiy investitsiyalar uchun qulay iqlimni transmilliy korporatsiyalar (TNK) nazorati ostida bo‘lgan filialllar va qo‘shma hamda litsenziyali korxonalar shaklidagi kapitalning keng masshtabda jalb qiluvchilar yaratdilar. Bugungi kunda xuddi shunday yutuqqa Xitoy erishmoqda.

Shu tarzda Janubiy – Sharqiy Osiyo mamlakatlari tajribasi bu yerda iqtisodiy o‘sishni hal qiluvchi hech qanday sabab yo‘q. Ularning yutug‘i - ularda iqtisodiy o‘sishni faqat zarurat yuzasidangina emas, balki jismoniy imkoniyatlarni ham hisobga olgan qator omillarning yaxlit kombinatsiyalangan natijasi hisoblanadi. Biroq, ko‘rsatib o‘tilgan omillarga qo‘shimcha qilib, yana bir – ruhiy xarakter omilini kiritish lozim.

Bu mamlakatlarning barchasida, jumladan, Yaponiya va Xitoyda butun umri

davomida kishilar Konfutsiy ta’limini oladilar. Bu ta’limga amal qilish uchun har bir kishi “uch sifat va beshta yaxshi fazilatga” ega bo‘lishlari kerak. Uch sifat - bu ehtiyotkorlik, mehribonlik va jasurlik. Beshta yaxshi fazilat - bu o‘z-o‘zini hurmat qilish, dunyoqarashning kengligi, to‘g‘rilik, g‘ayratlilik va sahovatlilik. Bularning hammasida hech qanday g‘ayri tabiiylik yo‘q, lekin ijobiy ta’sir etuvchi siyosiy sharoitlarda ko‘rsatilgan sifat va yaxshi fazilatlar jamiyatning ijtimoiy

[1] M.A.Mamatov. Iqtisodiy o‘sish. O‘quv qollanma. - T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2021-384 b.

– iqtisodiy progressida katta rol o‘ynash qobiliyatiga ega. Jamiyat hayotidagi Konfutsiya ta’limi materializatsiyasi uchun boshlang‘ich ahamiyatga ega bo‘lgan, Konfutsiya g‘oyalari mavjudligining barcha masofasidagi kuchli davlat hokimiyatigina balki keyingi 20- 30 yildagina rivojlangan va tan olingan. Bu yaqindagina federal qaloqlik sharoitida bo‘lgan mamlakatlarning iqtisodiy va sotsial yuksalishining natijasidir.

1.3. Iqtisodiy o‘sish va jamoat institutlari iqtisodiyoti tarkibidagi o‘zgarishlar

Iqtisodiy o‘sish jarayoni jamiyatdagi bir qator miqdoriy va sifat jihatdagi o‘zgarishlar bilan kuzatiladi. Shulardan birinchi navbatda iqtisodiyotning tarkibiy transformatsiyasini alohida ko‘rsatish kerak. Iqtisodiy o‘sishni ko‘zlagan mamlakatlarda birinchi navbatda qishloq xo‘jaligining milliy mahsulot va bandlikdagi ulushini kamaytirish xarakterlidir. Mavjud ma’lumotlarga ko‘ra, AQShda 1920 - yilda ishchi kuchining 70% i qishloq xo‘jaligida band bo‘lgan, bu ulush 1941 - yilga kelib 20% dan kamni va 1987 - yilga kelib atigi 3% ni tashkil qilgan. Yaponiyada qishloq xo‘jaligida band bo‘lgan ishchi kuchining ulushi 1879 - yildagi 72% dan, 1930 - yillarga kelib 30% gachani, 1980 - yillarning oxirlarida 8% ni tashkil qilgan. Belgiyada 1846 – yilda qishloq xo‘jaligida ishchi kuchining 51% ishtirok etgan bo‘lsa, 1947 - yilda -12,5%, 1970 - yilda 7%ni tashkil qilgan.

Ushbu ko‘rsatkichlar iqtisodiy o‘sish nafaqat qishloq xo‘jaligining umumiy, milliy ishlab chiqarishdagi ulushi qisqarishi bilan balki, ushbu jarayonning tezlashuvi bilan ham kuzatiladi. Agarda, qishloqdagi band bo‘lganlarning ulushini 50% gacha kamaytirish uchun bir necha yuz yilliklar talab qilinsa, ko‘pgina rivojlangan mamlakatlarda uning oxirgi 100 yil ichida 40-50% ga qisqarishi tarkibiy transformatsiyaning yuqori tezligiga guvohlik beradi.

Bunday holatning asosiy sababi, avvalambor, iqtisodiyotning aksar sohasidagi mehnat samarasi o‘sishi uchun ko‘p miqdorda zahiralarning jamlanganligi, ya’ni bir xil sharoitda ma’lum bir turdagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini kam ishchi kuchi sarflagan holda ishlab chiqarish imkonini beradi. Boshqa tomondan, oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tovarlarini iste’mol qilinishi chegaralangan bo‘lib, bu axoli jon boshiga daromadlarning o‘sishi bilan iste’mol talabi

tarkibidagi oziq-ovqatga qilinadigan xarajatlar ulushi kamayishini anglatadi. Bunday xulosa o‘tgan asrda nemis statitistigi E.Engel tomonidan berilgan va Engel birinchi qonuni nomini olgan. (Engelning ikkinchi qonuni sanoat iste’mol tovarlari va qimmatbaho buyumlarga taalluqli bo‘lib, aholining jon boshiga bo‘lgan daromadi ko‘paygani sari, uy xo‘jaliklarining ushbu tovar guruhiga xarajatlarining ulushi ham ortadi.)

Keyinchalik ingliz iqtisodchisi K.Klark yangi empirik ma’lumotlar asosida Engel xulosalarini tasdiqladi va agrar sohasi ulushining kamayishi boshidasanoat ulushining ko‘payishi hisoblanib, keyin esa xizmat ko‘rsatish sohasining o‘sishi hisoblanadi. Ushbu sohalardagi, avvalambor xizmat ko‘rsatish sohasidagi ishlab chiqarishni rivojlantirish xarajatlarining elastik o‘sish koeffitsienti yalpi ichki mahsulotning o‘sishiga bog‘liq holda 1 dan yuqori bo‘ladi.

Bu YaIM o‘sishiga bog‘liq holda xizmat ko‘rsatish sohasidagi xarajatlar iqtisodiyotning boshqa sohalaridagi xarajatlarga nisbatan tez sur’atlar bilan o‘sadi. Misol uchun, AQShda YaIMda ularning ulushi 1929 yilda (joriy narxlarda) 34,7%, 1960 yilda - 38,1%, 1976 yilda - 45,6%ni tashkil qilgan. Shu bilan birga, xizmat ko‘rsatishning ulushi shaxsiy iste’mol xarajatlarida ham ko‘payadi: AQShda 1950 yilda 51,5%, 1960 yilda 50,4%, 1975 yilda 60,2%dan iborat bo‘lgan. 1990 yillarda rivojlangan mamlakatlarda xizmat ko‘rsatish sohasining YaIMdagi ulushi 55%gacha va shaxsiy iste’mol xarajatlaridagi ulushi 70%gacha ko‘paydi.

Jamiyat tomonidan ishlab chiqariladigan va iste’mol qilinadigan xizmatlar

turli xildagi kategoriyalarga bo‘linadi: maxsus bilimlarni talab qiluvchi intellektual xizmatlar (ta’lim berish, vositachilik, reklama faoliyat turlari);

- sog‘liqni saqlash, ta’lim bilan bog‘liq xizmatlar;
- mehmonxona va restoranlar faoliyati bilan bog‘liq xizmatlar;
- aloqa vositalari (transport, pochta, telekommunikatsiya);
- moliyaviy xizmatlar (banklar, tomonidan taqdim qilinadigan kredit va boshqa xizmatlar, sug‘urtalash);
- jamiyat himoyasini ta’minlovchi va uning a’zolari o‘rtasidagi aloqalarni tartibga solib turuvchi umumiy xizmatlar

(mamlakat mudofaasi, jamoat tartibini saqlash, adliya, milliy va mahalliy darajadagi umumiy boshqaruv).

Iqtisodiyot jabhalaridagi o‘zgarishlar ijtimoiy institutlar, insonlar xatti- harakatlari va mafkuralarida sezilarli o‘zgarishlarga olib keladi. Mazkur o‘zgarishlar modernizatsiya deb yuritiladi. Shved iqtisodchisi G. Myurtal «uchinchi dunyo» mamlakatlari iqtisodiy taraqqiyotiga bag‘ishlangan «Osiyo dramasi» nomli kitobida modernizatsiyaning quyidagi tamoyillarini ko‘rsatib o‘tgan:

1. Ratsionalizm. An’anaviy fikrlash tarzi va ishlab chiqarish shaklini o‘zgartirish, jamoatchilik va inson faoliyatining barcha sohalarida yangi metod va modellarni qo‘llash
2. Iqtisodiy rejalashtirish. Xo‘jaliklar taraqqiyotini oshirish maqsadida qo‘llaniladigan iqtisodiy siyosat
3. Tenglik. Barcha uchun yanada teng ijtimoiy va huquqiy mavqe, daromadlar va hayot tarzining yaratilishini ta’minlash.
4. Ijtimoiy institutlar va aql-idrokdagi o‘zgarishlar. Bu yerda mehnat unumdorligini oshiradigan, raqobatni rivojlantirib tadbirkorlikka yo‘l ochadigan, ma’lum bir ma’noda insonlar xohish va imkoniyatlaridan foydalanishga zamin yaratadigan o‘zgarishlar to‘g‘risida fikr yuritiladi.

Institutsional o‘zgarishlar o‘z ichiga yer islohotlari, monopoliyaga qarshi kurash, ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimini takomillashtirish va davlat boshqaruvining o‘zgarishini oladi.

Xulosa qilib aytganda, jamoa mafkurasini modernizatsiyalash mehnatsevarlik, samaradorlik, haqiqatparvarlik, oqillik va o‘z kuchiga tayanish, o‘zgarishlarga tayyorlik va shu kabi xislatlarni kuchaytirish demakdir.

Asosiy xulosalar

1. Iqtisodiy o‘sish - to‘liq bandlik bilan mujassamlashgan ishlab chiqarish real hajmining uzoq muddat mobaynida o‘sishidir. Iqtisodiy o‘sish YaIM, davlat iqtisodiy qudrati va insonlar farovonligining o‘sishida o‘z ifodasini topadi. Shuninguchun iqtisodiy o‘sish yechimi har bir davlat makroiqtisodiy siyosati to‘rt maqsadidan biri («sirli to‘rtlik») hisoblangan vazifasiga kiradi.
2. Iqtisodiy o‘sish tahlilining muhim tomonlaridan biri uning asosini o‘rganishdir. Iqtisodiy o‘sishning tarixiy ildizlari shundan darak beradiki zamonaviy iqtisodiy o‘sish tushunchasi XIX asrning

birinchi yarmida G‘arbiy Yevropada vujudga kelgan. Ayrim mualliflarning fikrlariga qaraganda ishlab chiqarishdagi tub o‘zgarishlar, kapitalizmning yetakchi iqtisodiy tizim shaklida vujudga kelishi bunga asos bo‘lib xizmat qilgan. Boshqa mualliflar (masalan M. Veber) g‘arbdagi keskin iqtisodiy o‘sishning yanada chuqurroq ma’nosini anglashga harakat qiladilar va protestant mazhabini uning sabalaridan biri sifatida qayd etadilar. Protestant etikasi va ruhiyati mavjud bo‘lgan barcha hududlarda oqilona, burjua hayot tarzi va shu bilan birgalikda xo‘jalik faoliyatini samarali yuritishga harakat qiladigan «iqtisodiy inson» vujudga kelgan. Iqtisodiy inson kapitalning to‘planishi va tejamkorlikni yuzaga kelishiga ijobiy ta’sir o‘tkazdi. Iqtisodiy o‘sish asoslari sifatida shuningdek xususiy mulkchilik, raqobatchilik va iqtisodiy rag‘batlantirish, ilm-fan taraqqiyoti va kashfiyotlar, tabiiy va inson resurslarining mavjudligi, kolonial ekspluatatsiya va imperialistik ekspansiya ham ko‘rsatib o‘tiladi.

Muhokama uchun savollar

1. Iqtisodiy o‘sishni qanday tushunasiz?
2. Makroiqtisodiy o‘sish haqida fikringiz?
3. Mikroiqtisodiy o‘sish haqida fikringiz?
4. Iqtisodiy o‘sish sur’atlari qo‘shimcha o‘sish sur’atlaridan nima bilanfarqlanadi?
5. Iqtisodiy rivojlanishni iqtisodiy o‘sishdan farqi nimada?
6. Makroiqtisodiy darajada iqtisodiy o‘sishning qiymat ko‘rsatkichlariniizohlang
7. Iqtisodiy o‘sishga ta’sir etuvchi taklif omillarini izohlang
8. Iqtisodiy o‘sishdagi taqsimlash omillarini izohlang
9. Iqtisodiy o‘sishni ekstensiv omili haqida fikringiz
10. Iqtisodiy o‘sishni intensiv omili haqida fikringiz

II BOB. IQTISODIY O‘SISHNI ASOSIY OMILLARI, TURLARI VA KO‘RSATKICHLARI

2.1. Iqtisodiy o‘sishga ta’sir etuvchi omillar.
2.2. Iqtisodiy o‘sish turlari.
2.3. Iqtisodiy o‘sish ko‘rsatkichlari.

Tayanch iboralar: *o‘sish, iqtisodiyot, omillar, endogen, egzogen, manba, iqtisodiy o‘sish, iqtisodiy o‘sish turlari, intensive, ekstensiv, ko‘rsatkichlar, tendensiya, dinamika, samaradorlik.*

2.1. Iqtisodiy o‘sishga ta’sir etuvchi omillar

Iqtisodiy o‘sishga ta’sir etuvchi omillarni shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruh omillar iqtisodiyotning miqdoriy o‘sish layoqatini belgilab beradi, ular taklif omillari deb ham ataladi.

Bu omillar quyidagilar:

1. Tabiiy resurslarning miqdori va sifati;
2. Ishchi kuchi resurslari miqdori va sifati;
3. Asosiy kapital (asosiy fondlar) ning hajmi va sifati;

Texnologiya va fan – texnika taraqqiyoti.

Iqtisodiy o‘sishga taqsimlash omillari ham ta’sir qiladi. Ishlab chiqarish potentsialidan maqsadga muvofiq foydalanish uchun nafaqat resurslar iqtisodiy jarayonga to‘liq jalb qilingan bo‘lishi, balki juda samarali ishlatilishi zarur. Resurslarning o‘sib boruvchi hajmidan real foydalanish va ularni kerakli mahsulotning mutloq miqdorini oladigan qilib taqsimlash ham zarur bo‘ladi.

Iqtisodiy o‘sishga ta’sir etuvchi taklif va taqsimlash omillari o‘zaro bog‘liq va bir birini taqozo qiladi. Masalan, resurslar miqdorining o‘sishi va sifatining yaxshilanishi, texnologiyani takomillashtirish iqtisodiy o‘sish uchun imkoniyat yaratadi. To‘liq bandlik va resurslarni samarali taqsimlash omillari ham o‘z o‘rniga ega bo‘ladi bu muammoni tahlil qilishda asosiy e’tibor taklif omillariga qaratilishi zarur.

Mehnat unumdorligining o‘sishga olib keluvchi omillarni to‘laroq ko‘rib chiqamiz.

Fan – texnika taraqqiyoti mehnat unumdorligi va iqtisodiy o‘sishni ta’minlovchi muhim omil hisoblanadi. Texnika taraqqiyoti o‘z

ichiga nafaqat ishlab chiqarishning butunlay yangi usullarini, balki boshqarish va ishlab chiqarishni tashkil qilishning yangi shakllarini ham oladi.

Umuman aytganda fan – texnika taraqqiyoti deyilganda pirovard mahsulot chiqarishni ko‘paytirish maqsadida mavjud resurslarni yangicha uyg‘unlashtirishni taqazo qiluvchi yangi usullarning topilishi ham tushuniladi. Amaliy texnika taraqqiyoti va kapital qo‘yilmalar (investitsiyalar mustahkam o‘zaro bog‘liq, texnika taraqqiyoti ko‘pincha yangi mashina va uskunalarga investitsiyalar qo‘yishga olib keladi. Masalan, atom energiyasidan foydalanish bo‘yicha texnologiyani qo‘llash uchun atom loktrestentsiyalarini qurish zarur bo‘ladi. Birinchi qarashda texnika taraqqiyoti tarixiy va shiddatli ro‘y berish xususiyatiga ega bo‘ladi. Gaz va yoqilg‘i dvigetellari, konveyer va yig‘ma liniyalar bizning yangi hayotga o‘tishimizni eng muhim yutuqlari sifatida kirib keldi. Quyidagi chizmadan ko‘rinadiki, real mahsulotni ikki asosiy usulda ko‘paytirish mumkin:

Respublika oldida texnika taraqqiyoti sohasidagi asosiy vazifa, ishlab chiqarishga yangi texnika va texnologiyani qo‘llash, ishlab chiqarishni tashkil qilish va boshqarishning yangi usul va shakllarini joriy qilish hisoblanadi.



Mehnat unumdorligining o‘sishini aniqlab beruvchi asosiy omil har bir ishlovchiga to‘g‘ri keluvchi asosiy kapital hajmi hisoblanadi. Ma’lum vaqt ichida kapitalning hajmi mutloq ko‘payishi mumkin, ammo ishchi kuchi soni tezroq o‘ssa, mehnat unumdorligi pasayadi, chunki har bir ishchining asosiy kapital bilan qurollanganlik darajasi

kamayadi.

1) Ulardan ancha unumli foydalanish yo‘li bilan real mahsulotni ko‘paytirishhajmini jalb etish;

Ta’lim va malaka tayyorgarligi mehnat unumdorligini oshiradi va natijada ancha yuqorilashgan haqqa ega bo‘lish imkoniyatini beradi. Inson kapitaliga investitsiyalar qo‘yish mehnat unumdorligini oshirishning muhim vositasi hisoblanadi. O‘z - o‘zidan aniqki, ishchi kuchi sifatining eng oddiy ko‘rsatkichi ta’lim darajasi hisoblanadi. Hozirgi davrda Respublikamiz iqtisodiyotida band bo‘lganlarning 80 foizga yaqini oliy va o‘rta mahsus ta’limga ega.

Amaliy hayotda iqtisodiy o‘sishni suratini pasaytiruvchi omillar ham mavjud bo‘ladi. Ularga mehnat muhofazasi, atrof muhitni ifloslanishdan saqlash ximoyasi va shu kabi holatlar.

Mahsulot o‘sish sur’ati bilan ishlab chiqarish omillari miqdorining o‘zgarishio‘rtasidagi nisbat iqtisodiy o‘sishning ekstensiv va intensiv yo‘llarini belgilab beradi.

Ekstensiv iqtisodiy o‘sishga ishlab chiqarishning avvalgi texnikaviy asosisaqlanib qolgan holda ishlab chiqarish omillari miqdorinning ko‘payishi tufayli erishiladi. Aytaylik, mahsulot ishlab chiqarishni ikki hissa ko‘paytirish uchun mavjud korxona bilan bir qatorda o‘rnatilgan uskunalarning quvvati, miqdori va sifati, ishchi kuchining soni va malaka tarkibi bo‘yicha xuddi o‘shanday korxona quriladi. Ekstensiv o‘sishda agar u sof holda amalga oshirilsa, ishlab chiqarish samaradorligi o‘zgarmay qoladi.

Intensiv iqtisodiy o‘sish sharoitida mahsulot chiqarish miqyoslarini kengaytirishga, ishlab chiqarish omillarini sifati jihatidan takomillashtirish : yanada progressivroq ishlab chiqarish vositalarini va yangi texnikani qo‘llash, ishchi kuchi malakasini oshirish , shuningdek mavjud ishlab chiqarish potentsialidan yaxshiroq foydalanish yo‘li bilan erishiladi. Intensiv yo‘l ishlab chiqarishga jalb etilgan resurslarning har bir birligidan olinadigan samaraning, pirovard mahsulot miqdorining o‘sishida , mahsulot sifatining oshishida o‘z ifodasini topadi. Bunda mahsulot ishlab chiqarishni ikki hissa oshirish uchun mavjud korxonaga teng bo‘lgan yana bir korxona qurishga hojat yo‘q. Bu natijaga ishlab turgan korxonani rekonstruktsiya qilish va texnika bilan qayta qurollantirish, mavjud resurslardan yaxshiroq foydalanish hisobiga erishish mumkin.

Real hayotda ekstensiv va intensiv omillar sof holda, alohida –

alohida mavjud bo‘lmaydi, balki muayyan uyg‘unlikda, bir – biri bilan qo‘shilgan tarzda bo‘ladi. Shu sababli ustuvor ekstensiv va ustuvor intensiv iqtisodiy o‘sish yo‘llari tahlil qilinadi.

2.2. Iqtisodiy o‘sish turlari

Iqtisodiy fan iqtisodiy o‘sishning birinchi marta K.Marks tomonidan ko‘rsatilgan ikki shaklini farqlaydi. Ular ishlab chiqarish natijalari va omillari nisbatibilan farqlanadi.

Birinchi shakli iqtisodiy resurslarning hajmini o‘sishi bilan xarakterlanadi (ishlab chiqarish omillari), ya’ni yangi korxonalarni, elektr tarmoqlari, yo‘llar qurilishi, foydalaniladigan yangi yerlarni, tabiiy va mehnat resurslarini va h.k. o‘zlashtirilishi. Bu shakl ekstensiv iqtisodiy o‘sish nomini olgan. Bu shakldagiiqtisodiy o‘sishda YaIM ni o‘sishi tirik va ijtimoiy mehnat hajmini o‘sishi hisobiga erishiladi, shu bilan birga jamiyatdagi mehnat unumdorligi o‘zgarmasdan qoladi.

Buni quyidagicha ifodalash mumkin. Aytib o‘tilganidek, iqtisodiy o‘sishningo‘lchovi bo‘lib YAIM ni ma’lum bir davr ichida o‘sish jadalligi xizmat qiladi:

$$Y = Yt\text{-}Yt\text{-}1/Yt\text{-}1 \quad (2.1);$$

Bu yerda;

Yt - YAIMning t davr ichida o‘zgarishi Yt-1YaIM ning o‘tgan davrdagi hajmi Shunda ekstensiv o‘sishni quyidagi formula bilan ifodalash mumkin.

$$Yt/Nt = SONST \text{ yoki } Ý t = Ň t, \quad (2.2);$$

Bu yerda N_t -foydalanilayotgan resurslar soni (masalan, band bo‘lganlar soni);Ňt,- resurslarning ma’lum davrda o‘sishi.

Iqtisodiy o‘sishning ikkinchi shakli intensiv o‘sish deb atalib, bunda YaIMning o‘sishi foydalanilayotgan resurslar hajmini o‘sishiga qaraganda tezroq bo‘ladi.

$$Ý t > Ň t \quad (2.3);$$

Ma’lumki, iqtisodiyotning intensiv o‘sishi jamiyat taraqqiyotining asosi hisoblanadi. Shu bilan birga ekstensiv o‘sish iqtisodiy o‘sishning sodda shakli hisoblanadi.

Uning asosiy afzalligi xo‘jalik rivojlanish sur’atini oshirishning oson yo‘li ekanligi hamda mamlakat iqtisodini nisbatan tez va arzon o‘sishni ta’minlaydi. Ekstensiv o‘sish tarixan intensiv o‘sishdan oldin kechadigan jarayon. Har bir mamlakat o‘z vaqtida ekstensiv o‘sishni boshdan kechiradi. Misol uchun G‘arb mamlakatlari XX asrning

birinchi yarmida ekstensiv o‘sishdan intensiv o‘sishga o‘tganlar. Golland iqtisodchisi Ya. Tintergenning ma’lumotlariga ko‘ra 1870-1914 yillarda ekstensiv va intensiv o‘sishning o‘zaro nisbati quyidagi ko‘rinishda bo‘lgan (2.1-jadval)

2.1-Jadval

Iqtisodiy o‘sishda ekstensiv va intensiv omillarning nisbati

Mamlakat	**O’sishning ekstensiv / intensiv omillari %**
Buyuk Britaniya	80/20
Germaniya	60/40
AQSH	73/27

Keyinroq amerikalik iqtisodchi R. Solou AQShda 1909-1949 yillarda YaIMning 80%dan ortiq o‘sishiga texnika taraqqiyoti, ya’ni intensiv o‘sishni sababbo‘lganini aniqladi.

Turli omillarning iqtisodiy o‘sishga ta’sirini hisoblash bo‘yicha katta tadqiqotchilardan biri bo‘lib amerikalik iqtisodchi E. Denisov tanilgan. U iqtisodiy o‘sishni izohlovchi omillarni ikki toifaga ajratadi. Birinchi toifaga ishlab chiqarishning jismoniy omillari (mehnat va kapital), ikkinchi toifaga mehnat unumdorligini oshishi kiritildi.

Inson faktorining ta’sirini hisoblashda faqat ishchi kuchining soninigina emas, balki ishchilarning jinsi, yoshi, ma’lumoti va kasbiy tayyorgarligidan kelib chiqadigan mehant unumdorligini hisobga olgan. Kapital omili ta’sirini hisoblashda ham u bir qator o‘zgartirishlar kiritgan, ya’ni turar joy, ishlab chiqarish dastgohlari, sanoat inshoatlari, tovarlar zahirasi, xorijiy investitsiyalar ta’sirini ham hisobga olgan. Shularni hisobga olgan holda har bir alohida omilning iqtisodiy o‘sishga qo‘shgan hissasini aniqlagan.

Mehnat unumdorligining iqtisodiy o‘sishga ta’sirini hisoblashda, E.Denison fikricha bu ta’sir quyidagi jarayonlar natijasida hosil bo‘ladi:

1. Texnologik bilimlarni chuqurlashuvi yoki ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish sharoitni yaxshilanishi;
2. «Qo‘ldan berilgan imkoniyatni qayta tiklash», bu yuqori rivojlangan mamlakatlar tomonidan qoloq mamlakatlarga o‘z bilim va tajribalarini berish va buorqali ularni optimal nuqtaga etkazish;
3. Ishlab chiqarishning jismoniy omillarini yaxshilanishi, bu omillarni ko‘proq foyda keltiradigan soha va mintaqalarga

sarflanishi. Qachon omillarni joylashtirishda optimal holat yuzaga kelsa, ishlab chiqarish o‘sadi.

Denisonning fikricha bu xildagi optimallashtirishning quyidagi imkoniyatlarimavjud:

a) qishloq xo‘jaligini intensivlashuvi natijasida hosil bo‘lgan ortiqcha ishchi kuchini joylashtirilishi natijasida yig‘ilgan kapitalni yaxshiroq ishlatilishini ta’minlanadi;

b) kichik, mustaqil ishlab chiqaruvchilar sektorini qisqartirish (qishloq xo‘jaligidan tashqari band bo‘lganlar) orqali agrar sektorda bo‘layotgan o‘xshash o‘zgarishlarga erishish;

v) xalqaro savdodagi mavjud cheklovlarni bekor qilish orqali xalqaro mehnattaqsimotini yaxshilash.

d) ishlab chiqarishni maxsuslashuvi va milliy bozorlarning kattalashuvi orqaliiqtisodiyot masshtablarining o‘sishi.

E.Denison tomonidan keltirilgan tahlil AQSh, G‘arbiy Yevropa va Yaponiyadagi iqtisodiy o‘sish suratlaridagi farqni tushuntirib beradi. AQShda iqtisodiy o‘sish nisbatan sezilarsiz bo‘lishi bilan birga (1948 yildan 1969 yilga qadar AQShda iqtisodiy o‘sish 3,87%, G‘arbiy Yevropada 4,78% hamda Yaponiyada 8,81%ni tashkil etgan) bu o‘sish boshqa omillar ta’sirida ro‘y bergan. AQShda iqtisodiy taqqoslanayotgan mamlakatlarga nisbatan ko‘proq mehnat va kapital sarfini oshirishga asoslangan bo‘lib, mehnat unumdorligini oshirilishiga e’tibor sust qaratilgan. 1970 yillar boshidan esa AQShda mehnat unumdorligini oshirish iqtisodiy o‘sishga kuchsiz ta’sir o‘tkaza boshlagan, sababi atrof muhitni himoya qilish va inson yashash muhitini rivojlantirishga mablag‘ ajratila boshlagan. G‘arbiy Yevropa va Yaponiyada esa sharoit umaman boshqa bo‘lgan. G‘arbiy Yevropa mamlakatlaridagi iqtisodiy o‘sish 2/3 qismi mehnat unumdorligi hisobiga ro‘y bergan[2]. Bunda G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida AQShni quvib yetishga bo‘lgan harakat, shuningdek ishlab chiqarishni zamonaviylashtirish, ishchi kuchlarini samarali joylashtirish

(yashirin ishsizlikni qisqartirish va ishchi kuchlarini qishloq xo‘jaligidan boshqa sohalarga yo‘nalitirilishi hisobiga) asosiy omilga aylandi. Yevropa mamlakatlarida iqtisodiy o‘sishga bo‘lgan ijobiy yalpi talabni oshishiga olib keldi.

[2] M.A.Mamatov. Iqtisodiy o‘sish. O‘quv qollanma. - T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2021-384 b

Yaponiyada iqtisodiy o‘sishning 50% mehnat va kapital sarfi xarajatlarini oshirish hisobiga qolgani mehnat unumdorligini o‘stirish hisobiga ro‘y berdi.

E. Denisonning fikricha Yaponiyadagi iqtisodiy o‘sishning asosiy omili bu kapital qo‘yilmalarning hajmini oshishiga bog‘liq bo‘lgan. Bu omil hisobiga 1948-1969 yillardagi yillik 8,81% iqtisodiy o‘sishning 2,1% to‘g‘ri kelgan. Texnologik rivojlanish hisobiga 1,97%, ishlab chiqarishning kengaytirilishi hisobiga 1,94%, iqtisodiy resurslarning samarali joylashtirilishi hisobiga 0,94% to‘g‘ri kelgan. Oxirgi omilning ta’sirini yuzaga kelishiga sabab qishloq xo‘jaligining iqtisodiyotdagi salmog‘ini tahlil qilinayotgan oraliqda 35,6% dan 14,6% ga qisqarishihisoblanadi.

E.Denison tahlili juda qiziqarli va kutilmagan xulosalarga boy, mantiqiy ketma-ketliqda va aniq edi, shunga qaramay bu tahlil e’lon qilingach juda ko‘p tanqidiy fikrlar paydo bo‘ldi. Tadqiqotlarning asosiy kamchiligi – Denison tomonidan omillarning iqtisodiy o‘sishga ta’sirini alohida o‘rganganligida va bunda ularning o‘zaro bog‘liqligi va o‘zaro ta’sirini e’tibordan chetda qoldirganligida bo‘ldi.

1970 yillarda AQSh va boshqa rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotning o‘sishi sekinlashdi. Bunga asosiy sabab mehnat unumdorligani o‘sish sur’ati pasayganligi bo‘ldi. 1980-1990 yillarda bu sur’at bir muncha o‘sgan bo‘lsada, lekin «tez iqtisodiy o‘sishning oltin davri» deya ta’riflangan 1960 yillardagi darajaga yeta olmadi. Mehnat unumdorligini o‘sishining pasayishini iqtisodchilar qator sabablar ta’siri bilan izohlaydilar:

- ishchi kuchini jinsiy yoshi tuzilmasi holatini yomonlashishi bilan (yoshlar sonini nisbatan ko‘payishi, urushdan keyingi yillarda tug‘ilganlar sonini ko‘payishi, va qisman ish bilan bandliklarni sonini ko‘payishi).
- atrof muhitni yaxshilash uchun sarflarni ko‘payishi,
- shu davrda dunyo bozorida neftga narxlarni oshib ketishi (10-11 barobar)
- yangiliklarni kiritishning kamayib ketishi,
- davlat iqtisodiyotini tartibga solishning zo‘rayishi.

Ba’zi mualliflarning ta’kidlashlaricha, neft narxlarining oshishi natijasida mavjud kapitalning qadrsizlanishi va yangi sarmoyalar ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish o‘rniga mazkur kapitalni qoplashga yo‘naltirilishi sababli iqtisodiy o‘sish sur’atlariga ta’sir

ko‘rsatadi. Shubhasiz, bunday argument tahlil qilinayotgan davrga nisbatan to‘g‘ri bo‘lishi mumkin, biroq, energiya jamg‘arish tarmoqlarida energetik texnologiyalarni almashtirgandan so‘ng iqtisodning teskari rivojlanishi - ishlab chiqarish sur’atlarining o‘sishi kuzatiladi (80-90 yillar bunga misol bo‘la oladi).

Ba’zi olimlarning fikricha, davlat nazoratining kuchayishi esa barcha tarmoqlarda iqtisodiy o‘sishga salbiy ta’sir ko‘rsatgan. Shuningdek, R.Dornbush va S.Fisher bu to‘grisida shunday adolatli fikrni bildirganlar: «Davlatning aralashuvi, masalan iflosgarchilikni oldini olishga qaratilgan harakatlari atrof muhitning tozaligiga va millatning sog‘ligiga katta hissa qo‘shadi, ammo YaIM o‘sishida hech qanday ta’siri bo‘lmaydi».

Sobiq Ittifoq davrida o‘sish sur’atlarining ekstensiv shaklidan intensiv shakliga o‘tishi faqatgina 80-yillarning oxiri va 90-yillarning boshida rejalashtirilgan edi. Ushbu harakat 80-yillarning o‘rtasida boshlangan qayta qurish davrining eng asosiy vazifalaridan biriga aylanishga ulgurgan edi. 10 - va 11 - besh yilliklarda (1975 -1980, 1981-1986 y.y.) mamlakatda iqtisodiy o‘sish deyarli to‘xtab qolgan edi. Bunga sabab, iqtisodiy o‘sishning ekstensiv faktorlari, ya’ni ish kuchining oqimi, tabiiy boyliklarining qazilishi, korxonalar daromadlarining va davlat moliyaviy resurslarining o‘sishi to‘xtab qolganligidir.

Shuning uchun, 1985 yilda SSSRda ijtimoiy-iqtisodiy o‘sish vazifasi e’lon qilindi. Bunda, iqtisodiy o‘sishning intensiv shakliga o‘tish nazarda tutilgan edi. Bu maqsadlarda quyidagi 3 ta instrument ko‘zda tutilgan:

- inson faktorini jadallashtirish va bu ko‘rsatkichning iqtisodiy o‘sishdagi ulushi, olimlarning fikricha, 10% bo‘lishi kerak edi;
- o‘sish sur’atini 20% ko‘rsatkichida ta’minlashga mo‘ljallangan xo‘jalik mexanizmini takomillashtirish;
- iqtisodiy o‘sishning 70% ulushini tashkil etishi ko‘zda tutilgan ilmiy- texnik rivojlanish sur’atlarini jadallashtirish.

Dastlabki bosqichlarda SSSRda inson faktorlarining jadallashuvi barcha tabaqalarda - mehnat jamoalari va umumdavlat pog‘onalarida - propaganda tadbirlarini amalga oshirish orqali ro‘y bergan. Keyinchalik moddiy manfaatdorlikni ham hisobga olgan holda xo‘jalik mexanizmini takomillashtirish oydin masalaga aylanib

qoldi. Bu esa iqtisodiyot ilmida bahs- munozaralar hamda ishlab chiqarishda xo‘jalik eksperimentlarini yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan. Natijada xo‘jalik mexanizmini qayta qurishda asosiy vazifalardan biri ishlab chiqarishning pudratchilik shaklidan foydalanish ekanligi tan olindi. Pudratchilik iqtisodiyotni xususiylashtirish va mehnat jamoalariga kengroq iqtisodiy erkinlik yaratilishini anglatadi: bunda ishlab chiqarish manbalariga bo‘lgan yuridik huquq davlatga tegishli bo‘lib, mehnat jamoalari esa ishlab chiqarilgan mahsulotlarning to‘la huquqli egalari hisoblangan. Ularning shartnomalar tuzishda, narxlarni belgilashda, mahsulot hajmlari va yetkazib berish muddatlarini aniqlashda erkin ekanliklari xo‘jalik turining yangi shayuti - bozor mexanizmini yaratish va rivojlantirishga asos solgan.

Vaholanki, 90-yillarning boshida SSSRda, keyinchalik Rossiyada davlat mulkini to‘liq xususiylashtirish jarayoni boshlanganligi sabali, pudratchilik bozor munosabatlariga o‘tishda o‘zining afzalliklarini oqlay olmadi. Xususiylashtirish jarayonining jadallashuvi va uning vaucherlar (bepul) asosida amalga oshirilishi butun iqtisodiyotda va jamiyatda tuzilmaviy nuqsonlarni kelib chiqishiga sabab bo‘ldi: asosiy va aylanma kapitalning samaradorligi pasaydi, milliy xo‘jalikning makroiqtisodiy boshqarilishi susaydi investitsiyalar va ishlab chiqarish keskin ravishda pasaydi. Xususan, 1993 yilda Rossiyada metall va metallga ishlov beruvchi uskunalarning hajmi 1989 yilga nisbatan 30%ga pasaydi, go‘sht va go‘sht mahsulotlari, sut va sut mahsulotlari, mato va poyafzallarning ishlab chiqarish hajmi 50 - 60% ga pasaydi. Mamlakatning YaIM hajmi 1990 yildan 1992 yilgacha deyarli 2 baravarga qisqardi.

Shunday qilib, 90 - yillar boshida Rossiya bozor islohotlarini amalga oshirishga kirishganda, mamlakatda iqtisodiy o‘sish nuqtai nazaridan vakuum hosil bo‘ldi - o‘sishning ekstensiv faktorlari batamom tugatilgan edi, intensiv faktorlar esa hali tayyorlanmagan edi. Bundan tashqari, qayd etish kerakki, o‘tmishdagi o‘sishning ekstensiv faktorlari mamlakatga yangi sharoitlarda xo‘jalik yuritish uchun obyektiv va subyektiv imkoniyatlarni tayyorlash imkonini bermadi. Gap shundaki, o‘sishning ekstensiv usulining nafaqat ijobiy tomoni (oddiy va arzon o‘sish, ma’lum bir chegaralargacha) balki salbiy tomoni ham mavjud:

– mahsulot ishlab chiqarishning miqdoriy o‘sishi texnik-iqtisodiy progress bilan kuzatilmaganligi sababli, unga texnik qotib

qolishlik xususiyatlidir;

– aksariyat hollarda ishlab chiqarishning o‘sishi xarajatli xarakterni o‘ziga qabul qiladi.

Bu iqtisodiyotning o‘sish templari ishlab chiqarishda iqtisodiy resurslarni ko‘paytirish va ularni jalb qilish templaridan orqada qolishini anglatadi. G‘arb mutaxassislarining fikriga ko‘ra, AQSh va boshqa rivojlangan mamlakatlarga qaraganda Rossiyada har bir mahsulot soniga 2-3 marta ko‘p bo‘lgan xomashyo, materiallar va energiyalar to‘g‘ri keladi. Ekstensiv o‘sishning bahosi shunday.

Unda asosiy kapitalga va materiallarga xarajatlarning o‘sishi mamlakat YaIM o‘sishidan ko‘pligi ko‘rsatilgan, va faqat ishchi kuchining tabiiy chegaralanganligi uning yirik masshtablarda foydalanishiga yo‘l qo‘ymayapti.

Intensiv o‘sish modeli bir qator yangi tavsiflarga, xususiyatlarga va ustunliklarga ega:

– iqtisodiyot o‘sishining bir muncha qiyin usuli bo‘lib, unda ilmiy- texnik rivojlanish hal qiluvchi o‘rinni egallaydi. Shunga muvofiq, u ishlab chiqarish kuchlari, texnika, texnologiyalarning yuqori darajada o‘sishini va xodimlarning yuqori ma’lumotini va mutaxassisligini nazarda tutadi.

– iqtisodiyotning aynan mana shu o‘sish usuli resurslarning chegaralanganlik muammosini hal etish imkonini beradi. Bu esa, aynan mana shu

usulda iqtisodiyot o‘sishining asosiy manbalaridan biri bo‘lib resurslarni tejash,

hisoblanadi, bu jamiyat uchun resurslar o‘sishiga qaraganda bir muncha arzonga tushadi. Misol uchun, 1t yoqilg‘ini tejash (7 ming kilokaloriy), 1t yoqilg‘ini qazib chiqarishga qaraganda 3 - 4 marotaba kam xarajatni talab qiladi.

Biroq, iqtisodiyotning intensiv o‘sish usuliga o‘tish oson ish emas. Iqtisodiyot tarkibini progressiv qayta qurish, ilmiy sohalar ulushini ko‘paytirish, ishchi kuchini tegishli tayyorlash, ishlab chiqarishning iqtisodiyotda ko‘chib yurishidagi yengillik va boshqalar talab qilinadi. Shu sababdan, bozor islohotlari yo‘lidan harakatlanish iqtisodiyot o‘sishining intensifikatsiyalash (kuchaytirish) shartlaridan biridir.

2.3. Iqtisodiy o‘sish ko‘rsatkichlari

Davlatning iqtisodiy o‘sish darajasini aniqlash uchun birinchi navbatda hisoblash nuqtasini o‘rnatish lozim.

Ko‘pgina davlatlar o‘zini darajasini AQSH bilan tenglashtiradi. Turli xildagi ishlab chiqarish omillarini birikishi hamda har-xil davlatlarning rivojlanishi sharoiti, iqtisodiy rivojlanish darjasini belgilab berishga yo‘l qo‘ymaydi, degan bir fikr mavjuddir. Buning uchun bir qator asosiy ko‘rsatkichlar qo‘llaniladi:

1. Aholi soniga to‘g‘ri keladigan YaIM
2. Aholi soniga to‘g‘ri keladigan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning turlari
3. Aholini turmush darajasi va sifati
4. Iqtisodiy o‘sish ko‘rsatkichlarining natijasi

Aytib o‘tish joizki iqtisodiy rivojlanish darajasi bu tarixiy tushuncha bo‘lib,

milliy iqtisodiy rivojlanishning har bir pog‘onasi hamda jahon hamjamiyatiga uningasosiy ko‘rsatkichlariga ozmi-ko‘pmi o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

Aholi soniga to‘g‘ri keladigan YaIM ko‘rsatkichi iqtisodiy rivojlanish darajasining tashxisini aniqlab beruvchilardan hisoblanadi. Shu biz bir qancha rivojlangan davlatlar 90 - yillarning o‘rtalarida ABA da aholi soniga YaIM ko‘rsatkichi juda yuqori darajada boshqa rivojlangan davlatlarga solishtirganda, lekin boshqa ko‘rsatkichlarga qaraganda iqtisodiyot sohasining tizimi aholi soniga to‘g‘ri kelgan ishlab chiqaradigan mahsulotlarning turlari va boshqalar bunday davlatlar rivojlangan davlatlar sarasiga kirmaydi. Boshqa ko‘rsatkichlar xalqaro ko‘lamda keng qo‘llaniladigan, iqtisodiyot sohasining tizimi hisoblanadi, tizimlarga bo‘lib chiqarilib unga YaIM asnosida tashxis qo‘yiladi.

Birinchi navbatda xalq xo‘jalik sohasida yirik tizimlardan ya’ni moliyaviy va moliyaviy bo‘lmagan mahsulotlar orasidagi farq o‘rganilib chiqiladi.

Bu solishtiruv birinchi navbatda i/ch ni umumiy belgilab beradi. Boshqa sohalarning tizimini o‘rganib chiqish ham katta ahamiyatga ega. Shunday qilib, i/chsohasidagi tashxis natijalari shuni ko‘rsatadiki, mashinasozlik hamda ximiya sohalari qanday ahamiyatga ega va boshqa sohalar ilmiy-texnikaviy o‘sishni ta’minlab beruvchi.

Masalan: ishlab chiqarishdagi oldinga borayotgan davlatlarda

mashinasozlik sohasidagi ko‘rsatkichlar 150 - 200 undan ham yuqori ko‘rsatkichi past bo‘lgan iqtisodiy rivojlanish darajasi 10 - 15 daraja past bo‘lgan davlatlar hamda boshqa turdagi sohalarning egallagan yangi yirik xo‘jalik yoqilg‘i-energiyasi, agrosanoat, qurilish hamda xomashyo, harbiy bo‘linma va h.k.

Davlatning iqtisodiy rivojlanish darajasi uning asosiy ishlab chiqarayotgan mahsulotiga qarab belgilanadi (milliy iqtisodiyotning tayanchi hisoblangan mahsulotlarni). Shu asosiy ishlab chiqarilgan mahsulotlarning qanchalik davlatuchun ehtiyojini qondirayotganligiga qarab beriladi. Birinchi o‘rinda bunday asosiy ishlab chiqarishga yetarli darajada elektr quvvati olinadi. Elektr quvvati rivojlanish asosida yotadi, hamda buning orasida yana bir soha chambarchas yotadi ya’ni texnikaviy rivojlanish hamda bularning ishlab chiqarish sifati soni va xizmat ko‘rsatish e’tiborga molikdir va h.k.

Hozirgi vaqtda rivojlangan hamda rivojlanish past bo‘lgan davlatlarda bu ko‘rsatkich 500 ta ga 1 ta to‘g‘ri keladigan, ba’zi hollarda undan ham ko‘proq. Bu aholi soniga to‘g‘ri keladigan asosiy ishlab chiqarilayotgan mahsulotdir. Statistika shuni ko‘rsatadiki ya’ni mis ishlab chiqarish, metall eritish, stanoklar, avtomobillar, mineral o‘g‘itlar, hillik tolalar va bir qator boshqa mahsulotlar. Davlatda ishlab chiqarilayotgan mahsulot aholi soniga to‘g‘ri keladigan asosiy iste’molmahsulotlaridan quyidagilardir:

Don mahsulotlari, sut mahsulotlari, go‘sht mahsulotlari, shakar, kartoshka va h.k. FO yoki Milliy Instituti ishlab chiqarilayotgan me’yorlarga asosan bu ishlab chiqarilgan mahsulotlarning sifatini belgilashga yordam beradi, ya’ni bir qancha muhim ko‘p muddatga yetadigan mahsulotlardan bu muzlatgich, kir yuvish mashinasi, televizor, yengil avtomobil, vidioapparat va boshqalar. Aholining yashash darajasining davlatdagi YaIMning ham yo‘lga qo‘yilganiga bog‘liq. Uzoq muddatga yetadigan mahsulotning iste’molchi tomonidan qancha ko‘p olinsa bu aholining yashash sharoiti yaxshiligidan dalolat beradi va bu aholining yashaydigan davlat ancha iqtisodiy tomonidan yaxshi rivojlangan hisoblanadi.

Odatda aholining turmush darajasining quyidagi 2 ta ko‘rsatkichlari o‘zaro bog‘liqligi orqali belgilanadi.

Yashash sharoitining darajasi quyidagi ko‘rsatkichlar orqali ham belgilanishi mumkin:

- mehnat resurslarining holati o‘rtacha hayot kechirishning

davomiyligi aholining savodxonligi darajasi, aholi soniga to‘g‘ri keladigan asosiy mahsulotlarning iste’mollik darajasi, mehnat resurslarining kvalifikatsiyalilik darajasi 10 ming aholi sonining ichidan qanchasi o‘qiyotgani va talablarining soni YaIM dagi bilimlarni oshirishdagi sarf harajatlarning soni soha xizmatlarining rivojlanishi (10 mingta aholiga to‘g‘ri keladigan shifokorlar soni 1 ming aholiga to‘g‘ri keladigan shifoxonadagi o‘rinlar soni, aholining uy-joy bilan ta’minlaganligiuy jihoz va h.k.).

Oxirgi yillarda jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, turmush sifatini aniqlash uchun o‘z ichiga ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlarni hamda aholining savodxonligini oshishi hayot kechirish davomiyligi ayrim ko‘rsatkichlardan yoki bo‘lmasada umumjamiyatning rivojlanishini ta’minlovchi indekslarni va boshqalarni o‘z ichigaqamrab olgan.

Shu ko‘rsatkichlarga alohida to‘xtalib o‘tiladi, eng muhimlarini aytib o‘tishimiz lozim:

- mehnat bilan ta’minlash (ishlab chiqarish va agrar xo‘jaligi, ishlabchiqarishning alohida sohalari).
- yaim kapital sig‘imining birligi yoki aniq bir ishlab chiqarish ko‘rinishi.
- fondlarning asosiy fond taqsimlash birligi
- yaim ning xomashyo sig‘imi birligi va asosiy ishlab chiqarish ko‘rinishi. Oxirgi yillarda Xalqaro Valyuta Fondi hamda MDH da qabul qilingan keng qamrovli raqobatbardosh ko‘rsatkichlardan foydalanilmoqda, bir qator ko‘rsatkichlar narx - navoni o‘sishini o‘lchash uchun hamda davlatda ishlab chiqarilgan mahsulotni qolib ketishini va boshqa rivojlangan davlatlarda nisbatan solishtirish ko‘rsatkichlaridir.
- maosh to‘lash uchun ketayotgan sarf xarajatlar (1ta ishlab chiqarilganmahsulotning hisobiga)
- bir ish kuni ketadigan me’yoriy sarf xarajatlar (1ta ishlab chiqarilganmahsulotning hisobiga)
- narx-navo ustiga qo‘shilgan elementlarning darajasi va h.k. birinchi ishlab chiqarish faktorlarini sarf xarajatlarning ko‘rsatkichlari.
- mahsulotning chakana narxining solishtirish darajasi.

Eksport qilinadigan tovarning solishtirish darajasi. Albatta bu sistema davlatning iqtisodiy rivojlanishining to‘laqonli ko‘rsatib bera olmaydi, lekin ayrim faoliyati sohasi xalqaro bozorda

raqobatbardoshligi yaqqol ko‘rsata oladi.

Iqtisodiy o‘sish 2 usul bilan aniqlanadi va o‘lchanadi.

1- usul real YaIM ni (YaMM, SMM) o‘tgan davrga nisbatan o‘zgarishi sifatida aniqlanadi va mamlakatning umumiqtisodiy imkoniyatlari harakatini ifodalash uchun ishlatiladi.

2- Usul real YaIM ni (YaMM, SMM) o‘tgan davrga nisbatan aholi jon boshiga o‘zgarishi sifatida aniqlanadi va mamlakat ijtimoiy rivojlanishi darajasini va harakatining sifat o‘zgarishlarini ifodalash uchun foydalanadi. Iqtisodiy o‘sish suratlari va qo‘shimcha o‘sish sur’atlari bir - biridan farqlanadi:

$$\textit{A) bazis o‘sish sur’ati} = \frac{Y_i}{Y_0} \qquad \textit{(2.1.);}$$

$$\textit{B) zanjirli o‘sish sur’ati} = \frac{Y_i}{Y_{i-1}} \qquad \textit{(2.2);}$$

Qo‘shimcha o‘sish sur’atlari qo‘yidagi formula bo‘yicha aniqlanadi.

$$\textit{A) bazis qo‘shimcha o‘sish sur’ati } Y0 = \frac{Y_i - Y0}{Y0 - Y_{i-1}} \qquad \textit{(2.3.);}$$

$$\textit{B) zanjirli qo‘shimcha o‘sish sur’ati } Y0 = \frac{Y_i - Y0}{Y0 - Y_{i-1}} \qquad \textit{(2.4.);}$$

Bunda, Y_0 – bazis yildagi real YaIM Y_i- shu yildagi real YaIM Y_{i-1} - bundan avvalgi yildagi real YaIM

Ko‘pchilik mamlakatlarning tarixiy tajribasida tasdiqlangan qonuniyat borki, unga ko‘ra iqtisodiy o‘sishning ko‘lami va sur’atlari o‘zaro teskari mutanosiblikda o‘zgaradi, ya’ni o‘sish ko‘lami miqdoran oshgan sari, uning sur’atlari pasayishga moyil bo‘ladi. Iqtisodiy o‘sishning nafaqat miqdoriy, balki sifat me’yori ham mavjud.

Iqtisodiy davrlarining xususi va ko‘rinishi. Iqtisodiy taraqqiyot doimiy tebranishlarga uchrab turadi – pasayishi, tanglilik davrlari iqtisodiy faollik va ko‘tarilish bilan almashadi. Iqtisodiy o‘sishning davriylik xususiyati fan – texnika taraqqiyoti bilan bog‘liq. Shu tufayli

asosiy fondlarni saqlash yo‘li bilan yangilanishi yuz beradi, yangi texnologik jarayonlar tatbiq etiladi, milliy daromad, iste’mol, jamg‘arish va investitsiyalar o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlik o‘zgaradi. Iqtisodiy o‘sish holatida ishlab chiqarishning hajmini vaqti-vaqti bilan bo‘lib turadigan bunday kengayishi yoki qisqarishi iqtisodiy davr deb ataladi. Iqtisodiy davrlar davom etish muddatiga ko‘ra quyidagilarga bo‘linadi:

- qisqa (3- 4 yil) muddatli, tovar – moddiy zaxiralarning o‘zgarishi bilan asoslangan;
- o‘rta (7 – 8 yil) muddatli asosiy fondlar asbob – uskunalarni almashtirishsifatidagi o‘zgarishlaridan kelib chiqadi;
- Kuznets davri (15 – 20 yil) qurilish davr nazariyasining asoschisi Amerika iqtisodchisi Saymon Kuznets nomi bilan atalgan. Bu davr turar joylarni vaba’zi ishlab chiqarish inshootlarni vaqti - vaqti bilan ommaviy ravishda yangilanishi bilan bog‘liq bo‘lgan tebranishlardir;
- uzun to‘lqinlar (50 – 60 yil), infrastrukturani yangilanishi va tubdan yangi texnologik jarayonlarni kiritish bilan asoslanadi va rus tadqiqotchisi N. Kondratev nomi bilan nomlanadi;

Iqtisodiy davrni o‘rganish davlat tomonidan davriylikka qarshi qaratilgan chora – tadbirlarni amalga oshirishi va barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash uchunzarurdir.

Asosiy xulosalar

1. Iqtisodiy o‘sish jarayonini soni va sifati o‘zgarishi.
2. Jamiyatda hamda iqtisodiyotning soni va sifati o‘sishi bilan iqtisodiy o‘sish jarayoni belgilanadi.

Iqtisodiy jarayonlardagi o‘zgarishlar o‘zi orqali boshqa katta o‘zgarishlarga sabab bo‘ladi, ya’ni, institutlardagi ijtimoiy o‘zgarishlarni olib keladi. Gap modernizatsiya haqida bormoqda, iqtisodiy reja ijtimoiy va huquqiy tenglikni ta’minlash.

Fuqarolarning ishlab topgan sof foydasi instituttsion reformalar, yer bo‘yicha savodxonligi, salmoqni saqlash, davlatni yuritish, mehnatsevarlikni ta’minlash, haqiqiylik o‘z-o‘ziga ishonish, o‘zgarishlarga tayyorlik.

3. Iqtisodiy o‘sish jarayoni bir qancha faktorlar orqali belgilanadi:

a) taklif faktorlari (ishchi kuchining soni va sifatining o‘sishi,

mablag‘, tabiiy xomashyo, texnologiyani yaxshilanishi va ishlab chiqarishni tashkillashtirish,ishbilarmonlikka moslilik)

b) talab va taqsimlash faktorlari (bozorda monopoliya darajasining tushib ketishi, soliq yaxshi yo‘lga qo‘yilishi, talabning ko‘payishi, investitsion va davlatning xarajatlari ko‘payishi).

Iqtisodiy klasifikatsion o‘sish faktorlari 2 kategoriyaga bo‘linadi:
a) ishlab chiqarishning fizik faktorlari

b) mehnatni i/ch faktorlarning o‘sishi

v) quyidagi faktorlar iqtisodiy o‘sish turini belgilab beradi. Iqtisodchilar 2 ta turni ajratishadi: ekstensiv qachonki iqtisodiy ham oliy sifatli ko‘rinishda tortiq etilsalar va intensiv, lekin to‘g‘ridan - to‘g‘ri bu turlarning bittasi ham alohida yakka holda uchramaydi, shuning uchun gap faqat bu turlarning vakolatlari haqida borishi mumkin. Intensiv o‘sish o‘zini alohida vakolatlariga ega:

a) bu jarayon ilmiy texnikaviy o‘sish orqali namoyon bo‘ladi, shuning uchunko’p ish mahoratli ishchini talab etadi.

b) xomashyo kamayib ketishi muammosining oldini oladi uning uchun bu turning asosiy ko‘rinishi xomashyo saqlash manbai hisoblanadi.

v) jamiyatning yaxshi yashashiga yordam beradi.

Muhokama uchun savollar

1. Asosiy ishlab chiqarish faktorlari ko‘rsatish va hamda ularningjamiyatni iqtisodiy o‘sishga yordam beradigan tomonini baholab beradi.
2. Intensiv va ekstensiv o‘sishni tushuntrib berishda nima degan, ular sofyakka holda uchramaydi.
3. Nima uchun 1960 yillar G‘arbiy Yevropa iqtisodiyotida oltin davrhisoblangan. Uning 1970 yillardagi o‘sishini susayishi sababini tushuntirib bering.
4. Insonning jamg‘armasiga sarflanayotgan investitsiyalar iqtisodiy o‘sish faktorlari hisoblanadimi.
5. Nima uchun Sobiq Ittifoq davrida intensiv iqtisodiy o‘sish muammolari 1980 – yillardagi kabi ko‘tarildi.
6. Rossiyadagi iqtisodiy o‘sishga yo‘naltirilgan asosiy iqtisodiy faktorlarni aytib o‘ting.

III BOB. IQTISODIY O‘SISH EVOLYUTSIYASI

3.1. Iqtisodiy o’sishga erishishda neoklassik ishlab chiqarishfunksiyasi nazariyasi
3.2. Makroiqtisodiy subyektlardan boshlab bozorning shakllanishi
3.3. Iqtisodiy o‘sish omillarini hisobga olinishining nazariy asoslari

Tayanch iboralar: *o‘sish, iqtisodiyot, omillar, endogen, egzogen, manba, iqtisodiy o‘sish, iqtisodiy o‘sish turlari, omillar, hisoblash, konvengensiya, nazariya, klassik, neoklassik, funksiya.*

3.1. Neoklassik ishlab chiqarish funksiyasi

Nima sababdan ba’zi bir davlatlarda barqaror iqtisodiy o‘sish mavjud, ba’zilarda esa yo‘q? – iqtisodchilar tomonidan javob topilishi kerak bo‘lgan asosiy savollaridan biri hisoblanadi. Umuman olganda uzluksiz iqtisodiy o‘sish mamlakatni boy qiladi. Masalan, 1870 - yilda AQSh da jon boshiga to‘g‘ri kelgan daromad 2,244 dollarni va 1990 - yilda esa bu ko‘rsatkich 18,258 dollarni tashkil qilgan. Shunday qilib real daromad 120 yil davomida har yili 1,75 foizga va aholi jon boshiga sakkiz barobar o‘sib kelgan.

Yuqoridagi o‘sish sur’atlaridan kelib chiqib AQSh 1990 - yilda dunyoning eng boy mamlakatlaridan biriga aylandi. O‘sish sur’atlari ahamiyati qanchalik yuqori bo’lishini ko’rish uchun, faraz qilamiz agarda AQSh da 1870 - yilda bu ko‘rsatkich 1,75 ni emas balki, 0,75 ni tashkil qilganda nima bo‘lar edi. Bu holda ushbu ko‘rsatkich aholi jon boshiga 1990 yilda 5,519 dollarni tashkil qilgan bo‘lar edi. Boshqacha qilib aytganda AQSh nafaqat boy davlat hisoblanmagan bo‘lar edi, balki bu davlat daromad darajasi Meksika yoki Vengriya davlatlari ko‘rsatkichlari bilan barobar bo‘lib hamda Gretsiya yoki Portugaliya davlatlariga nisbatan ming dollarga kam bo‘lgan bo‘lar edi.

Endi faraz qilaylik yillik o‘sish sur’ati 1,75 va 2,75 foizni tashkil qilgan bo‘lsin. Bu holda aholi jon boshiga real daromad 60, 841 dollarni tashkil qilgan bo’lar edi. Aslida biz bu o‘sish sur’atlariga erishgan davlatni faraz qilishimiz qiyin, chunki hozirgi vaqtgacha bu o‘sish sur’atlariga erishgan bironta bir davlat yo’qdir. Lekin shu narsa ma’lumki 120 yil davomida o‘sish sur’ati 1 foizdan yuqori bo‘lgan.

Yiliga 2,75 foizga erishilishini faraz qilishi qiyin, lekin aynan mana shu ko‘rsatkich Yaponiya va Tayvan kabi mamlakatlarida kuzatilgan.

Bu misol, uzoq vaqt davomida o‘sish sur’atlarini oshirish qanchalik zarur ekanligini ko‘rsatadi. Qashshoqlik darajasi hamda aholi jon boshiga to‘g‘ri kelgan daromadga ham ta’siri sezilarli darajada emas deyish mumkin. Bunga qaramasdan, iqtisodiy o‘sishga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar tahliliga yaxshi e’tibor qaratilgani yo’qdir.

Birinchi iqtisodchi-klassiklar - Adam Smit, David Rikardo hamda Tomas Maltus – asosan o‘z izlanishlarini asosan uzoq muddatli iqtitsodiy o‘sish jarayonini tushinishga qaratishgan. Huddi shu narsani 20 - asrning birinchi yarimidagi iqtisodchi-klassiklar haqida deyish mumkin, jumladan Djozef Shumpeter (1934) va Frenk Remzi (1928). Djona M. Keynsdan boshlab (bu asosan o’zining «oxir oqibat biz hammamiz o’lamiz» iborasi bilan tanilgan), iqtisodiy o‘sish omillari, tsikllari hamda siyosatni ishlab chiqishga qaratilgan bo‘lib, o‘z oldiga maqsad qilib bunga ta’sir etuvchi sikllarni bartaraf etishni qo’yadi.

Iqtisodiy o‘sishning uzoq muddatli jarayoniga qiziqish 50 - yillarda yana paydo bo‘lib, u o‘z navbatida Robert Solouning (1956) va Trevor Svon (1956) kabi iqtisodchilar tomonidan kashf etilgan edi. Bu modellardan foydalanish neoklassik- kashfiyotchilarni 19 - asr iqtisodchi-klassiklar fikrlarini maqullashlariga to‘g‘ri kelgan. Bu fikrlarda, agar iqtisodiy o‘sish fizik kapitali orqali erishilgan bo‘lsa, u holda barqaror iqtisodiy o‘sishga erishib bo‘lmaydi va faqatgina ilm-fan taraqqiyoti asosida barqaror iqtisodiy o‘sishga erishish mumkin xolos.

50 - va 60 - yillarda iqtisodiy o‘sish nazariyasiga bo‘lgan e’tibor kamayib ketdi. Asosiy sabablaridan biri bu o’sha vaqtlarda iqtisodiy o‘sish nazariyasining texnik aspektlariga qaratilgan bo‘lib, o‘z navbatida haqiqat bilan uzoqlashib borildi. 80-yillarga kelib Pol Roumer (1986) dissertatsiyasidan keyin, iqtisodiy o‘sish nazariyasi kelib chiqdi va uni «endogen iqtisodiy o‘sish» deb atay boshladilar. Endi iqtisodchilar iqtisodiy o‘sishning empirik aspektlariga e’tiborlarini qarata boshladilar. Ma’lumotlarning mavjudligiga asoslanib hamda iqtisodchi-amaliyotchilar bilan o’zaro muloqotda bo‘lib, hozirga kelib iqtisodiy o‘sish muammolarini hal etish borasidagi olib borilayotgan tadqiqotlar yanada qiziqish orttirdi.

Iqtisodiy o‘sish neoklassik nazariyasining asosiy elementlaridan, ishlab chiqarish funksiyasi hisoblanadi. Faraz qilamiz, ishlab chiqarish

omillari uchta asosiy kategoriyalarga bo‘linadi: kapital, mehnat va texnologiya. Ishlab chiqarish funksiyasi yuqoridagi uchta omilning iqtisodiyotda qanday qilib o‘zaro bog‘liqliginiko‘rsatib o’tadi.

Osonlashtirish maqsadida biz YaIMni pechene sifatida ko‘rib chiqamiz. Ya’ni, pecheneni tayyorlash uchun biz uchta omildan foydalanishimiz kerak bo‘ladi:

1. Kapital. Pecheneni tayyorlashimiz uchun bizga un, shakar, kakao va duxovka kerak bo‘ladi. Bu ishlab chiqarish omillariga kapital deyiladi. Kapital butun bir fizik omillardan tashkil topgan bo‘lib ular, asbob-uskuna, yo’l, kompyuter, bur va bino. Bu mahsulotlarning bir-biriga o’xshash tomonlari shundan iboratki, ular fizik mahsulot hisoblanib, bular oldindan ishlab chiqarilgan bo’lishi kerak, ya’ni biz bu mahsulotlardan foydalanib biron bir mahsulotni yaratamiz (bizning misolimizda- pechene). Boshqacha qilib aytganda ular oldingi ishlab chiqarilgan mahsulot, ammo ishlatilmay keyingi mahsulotlarni yaratish uchungina xizmat qiladilar. Bu fizik mahsulotlarni sotib olish investitsiya deb ataladi. Shunday qilib kapital bu ishlab chiqarish omili sifatida tashkilotlar tomonidan sotib olinadi. «***K***» harfi bilan biz jami kapitalni ishlab chiqarish omili sifatida belgilaymiz.

2. Mehnat. Pecheneni tayyorlash uchun bizga konditerlar ham zarur. Bu konditerlar o‘z mehnatlarini yoki kapitalini sarflab pecheneni tayyorlaydilar. Bu asosiy omilni biz mehnat deb ataymiz.

Biz mehnatni ma’lum bir vaqt davomida ishlab faoliyat yuritishgan bir guruh insonlarga nisbatan ta’riflaymiz va ular o‘z navbatida iqtisodiyotda o‘zlarining mehnatlarini sarf qilib biron - bir mahsulot yaratadilar. Ba’zi bir odamlar biron-bir sabablarga ko‘ra (pensionerlar, bolalar, ishsizlar, nogironlar) YaIMni yaratishda qatnasha olmaydilar.

Misol uchun, ko‘p mamlaktlarda ayollar ishlab chiqarish jarayonlariga jalb qilingan bo‘lib, ular o‘z navbatida YaIMni hisoblashda kiritilmaydilar. Chunki, ularning mehnat faoliyatlari uy xo‘jaliklarida ko‘rsatiladi (uy hayvonlariga qarash, bolalarga qarash).

Ammo ba’zi bir ishchilar malakasi boshqalarnikiga nisbatan yuqori bo‘lishi mumkin. Shu sababdan malakasi past bo‘lgan ishchilarning malakalarini oshirish uchun bu ishchilarga investitsiya kiritiladi, ya’ni ularni malakalarini oshirishda o‘qitish, tajriba orttirish kabi jarayonlarni amalga oshirish mumkin. Bunday investitsiyalar inson kapitali deb yuritiladi. Bunday investitsiyalar

asosan o‘qitish yoki sog‘likni saqlashda ko‘proq kiritiladi. Albatta ma’lumotlar maktabda o‘qish jarayonida olinadi, lekin buni ishlab chiqarish jarayonidan uzoqlashmasdan ham olish mumkin. *L* harfi bilan biz sarflangan mehnatni belgilaymiz. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda sarflangan mehnatni «***L***» odamlar sonini «***N***» ularning malakasiga «***e***» ko‘paytmasiga keltirishimiz mumkin. Shunday qilib, L = Ne.

3. Texnologiya yoki bilim. Pecheneni ishlab chiqarishdagi uchinchi komponentlarilan biri bo‘lib uni tayyorlash retsepti hisoblanadi. Hattoki malakali konditerlarni pecheneni tayyorlash uchun ular, pecheneni qay usulda tayyorlash kerakligini bilishlari kerak bo‘ladi. Pecheneni tayyorlashdagi retsept, yoki plan, texnologiya yoki bilim deb ataladi. Bizga ma’lumki pecheneni tayyorlashda u yoki bu bilim yoki formulalardan foydalaniladi. Retsept samaradorligini oshirish – texnologik taraqqiyot deb ataladi.

Texnologiya yoki bilim – bu «mahsulot» bo‘lib u o‘ziga xos xususiyatlarga egadir. Iqtisodchilar buni raqobatchilikka ega bo‘lmagan mahsulot deyishadi, chunki huddi shu bilimlarni har xil odamlar ishlatishi mumkin. Ishchilar yoki kapitalhaqida bunday deyish mumkin emas: chunki Nyu-Yorkda ishlatilayotgan kompyuterni huddi shu vaqtning o‘zida Vashingtonda ishlatib bo‘lmaydi. Agarda bugun bir ishchi Nyu-Yorkda soat 9:00 dan to 10:00 gacha ishlayotgan bo‘lsa, u holda huddi shu ishchi boshqa shaharda ishlay olmaydi. Ammo retsept, yoki go‘yo ko‘pchilik odamlar tomonidan har xil joylarda bir vaqtning o‘zida ishlatilishi mumkin. Masalan men qo‘shish tushunchasidan foydalanishim mumkin, ya’ni 2+2 nechchi bo‘lishini bilishim uchun. Xuddi shu operatsiyani boshqa odamlar tomonidan shu vaqtning o‘zida bajarishga halaqit bermaydi. Shu sababdan biz bilim yoki texnologiya raqobatlashmaydigan tovar deb aynan shu narsani nazarda tutamiz, lekin kapital va ishchi kuchi raqobatli mahsulot hisoblanadi.

Ammo raqobatli mahsulot har doim ham cheklangan mahsulot hisoblanavermaydi. Agarda boshqa odamlar tomonidan biron bir mahsulotni ishlatilishi cheklangan bo‘lsa u holda iqtisodchilar bu mahsulotni cheklangan deydilar. Masalan shaxsiy kompyuterimdan boshqa bir insonning foydalanmasligini cheklashim uchun, men o‘z kabinetimni qulflab kompyuterga parol o‘rnatishim mumkin. Ammo odamlarga 2 ni 2 ga qo‘shishni ta’kidlab bo‘lmaydi, agarda ular buni

qay usulda amalga oshirishlarini bilishsa.

Biz har kuni uchratib yurgan mahsulotlar raqobatga ega va cheklangan mahsulotlar qatoriga kiradi. Bularga nafaqat guruch, qalam va kompyuterlar kiradi, balki ishchilar mehnati ham kiradi. Yana bir qiziq kategoriyalardan biri, bu raqobatga ega, ammo cheklanmagan mahsulotlar mavjud. Bular qatoriga dengizdagi baliq yoki turli joylarda o‘sib turgan o‘tlar kiradi. Hech kim menga dengizga chiqib baliq ovlashga halaqit bera olmaydi. Shu sababdan bunday mahsulotlar cheklanmagan hisoblanadi, lekin men tomonimdan ovlangan baliq huddi shu vaqtning o‘zidayoq boshqa bir inson tomonidan tutilishi mumkin, shuning uchun bu mahsulotlar raqobatga ega mahsulot deyiladi.

Raqobatga ega bo‘lmagan mahsulotlar cheklanganlik darajasi bilan bir biridan farq qiladilar. Bir tomondan cheklangan mahsulotlar mavjud (sputnik antennalari yoki kabel televideniyasi). Kabel televideniyasi kompaniyasi sizga biron bir ko‘rsatuvlarni ko‘rsatishni ta’qiqlab qo‘yishi mumkin. Shunday qilib kabel televideniyasi dasturlariga chiqish cheklangan bo‘ladi. Ammo boshqa millionlab insonlar bir vaqtning o‘zidayoq bir xil dasturni ko‘rishlari mumkin, shuning uchun bunday mahsulotlar raqobatga ega bo‘lmagan mahsulotlar hisoblanadi. Boshqa tomondan ba’zi raqobatga ega bo‘lmagan mahsulotlarga (bilim va x.k.z.) chek qo‘yilmagan. Hech kim bizlarga raqamlarni qo‘shishni ta’qiqlab qo‘yolmaydi. Shu sababdan, ko‘pchilik insonlar bir vaqtning o‘zida shu operatsiyani bajara oladi.

Xuddi shu kategoriyaga kiradigan boshqa bir mahsulotlar Tobin tomonidan talab va taklif asosida ishlab chiqilgan formula hisoblanib, u ildiz ostiga asoslangan bo‘lib, Eynshteyn yoki Lun tomonidan ishlab chiqilgan nisbiylik nazariyasi kabi mahsulotlar hisoblanadi. Shunday mahsulotlar borki ulardan foydalanish qisman man etilgan, masalan Windows 98 programmasidir. Shuningdek, bu kodlar cheklangan mahsulotlarga kiradi. Ammo bu dastur sotib olingan bo‘lsa, u holda dastur egasi tomonidan boshqa bir insonga bu dasturdan foydalanmaslikni ta’qiqlab qo‘yish qiyin. Shunday qilib bunday mahsulotlardan foydalanish to‘liq cheklangan deb bo‘lmaydi.

Endi ishlab chiqarish funksiyasiga qaytamiz. Iqtisodiyotning ishlab chiqarish imkoniyatlarini, ishlab chiqarishning uch omili formulasi orqali ko‘rsatsa bo‘ladi:

Y=F(K,L,A) (3.1);

Neoklassik nazariyasida F funksiyasi bir necha xususiyatlarga ega. Bulardan bittasi bu masshtabning o‘zgarmas effektini ko‘rsatishi kerak. Bu degani, agarda biz kapital va mehnatni ikki barobarga oshirsak, u holda bizda ishlab chiqarish hajmini ham ikki barobarga oshirish imkoniyatlariga ega bo‘lamiz. Faraz qilamizki Ayova shtatining biron bir tashkiloti pechene ishlab chiqarishda kapital va mehnatdan hamda ma’lum bir retseptdan foydalanadi. Agarda xuddi shu ko‘rinishdagi tashkilotni biz boshqa bir shtatda ko‘rsak, u holda bu tashkilot ham yuqoridagi tashkilotga o‘xshab bir xil hajmdagi mahsulot ishlab chiqaradi. Shunday qilib agar biz kapital va mehnatni ikki barobarga oshirsak, u holda ishlab chiqarish hajmini ikki barobarga oshirish imkoniyati tug‘uladi. SHuni aytib o‘tish kerakki, biz faqatgina kapital va mehnatni ko‘paytirmoqdamiz, ammo tayyorlash retsepti o‘zgarmagan holda qolaveradi.

Agar biz kapital hajmini bir dona bir birligiga ko‘paytirsak, ammo ishchi kuchi o‘zgarmas holda qolsa, u holda pechene ishlab chiqarish hajmi oshadi. Biz kambag‘al bo‘lsak va bizda ishlab chiqarish vositalari kam bo‘lsa u holda ishlab chiqarish vositalarini bir donaga oshishi sezilarli ko‘payishga olib keladi. Lekin biz juda ham boy bo‘lsak va bizda ishlab chiqarish vositalari ko‘p bo‘lsa, u holda ishlab chiqarish vositalarini bir donaga oshishi deyarli ishlab chiqarishning o‘sish darajasida sezilarli bo‘lmaydi.

Neoklassik ishlab chiqarish funksiyasiga misol bo‘lib bizga yaxshi ma’lum bo‘lgan Kobba-Duglasning ishlab chiqarish funksiyasi hisoblanadi:

***Y=AKαLα-1* (3.2);**

Bu yerda *α* milliy daromadning bir qismini, va *α-1* ishchilar tomonidan olingan qismini bildiradi.

Bu ishlab chiqarish funksiyasiga ko‘ra iqtisodiyotda pechene hajmi uch sababga ko‘ra oshishi mumkin: kapitalning o‘sish darajasi, ishchi kuchining o‘sish darajasi yoki texnologiyani yaxshilash orqali. Biz odatdagiday ishlab chiqarish hajmini aholi jon boshiga yoki bir ishchiga nisbatan. Bizning yuqoridagi belgilarga qaytgan holda ishlab chiqarish omilini mehnat ko‘rinishida L harfi bilan belgilaymiz, ishchilarning umumiy sonini, N harfi bilan, va ularning sifatini yoki malakasini, e harfi bilan.(2) Tenglamaning ikki tarafini N bo‘lamiz va Y/N, aniqlaymiz yoki bir ishchiga to‘g‘ri keladigan ishlab chiqarish

hajmini bilamiz:

u=Akle, (3.3);

bu yerda $u = Y/N$ bir ishchiga to‘g‘ri keladigan ishlab chiqarish hajmi, $k = K/N$ - bir ishchiga to‘g‘ri keladigan kapital hajmi.

(3.3) Tenglama bir ishchiga to‘g‘ri keladigan ishlab chiqarish hajmini uch usuldan bittasi yordamida oshirishni ko‘rsatadi:

– bir ishchiga to‘g‘ri keladigan kapital hajmini oshirish orqali -*k*, investitsiya va kapitalni to‘plash orqali -*l*;

– ishchilarning malakasini oshirish yo‘li orqali - *e*, yoki texnologiya darajasini oshirish orqali - *A*.

Neoklassik nazariyasiga ko‘ra, iqtisodiyot faqatgina investitsiyani oshirish orqali o‘smaydi. Boshqacha qilib aytganda, agar iqtisodiy o‘sishni investitsiyani ko‘paytirish orqali amalga oshirilsa, u holda uzoq muddatda iqtisodiyot o‘smaydi. Qisqa muddatda kapital, bundan kelib chiqqan holda ishlab chiqarish hajmi ham oshadi. Ammo kapitalning o‘sish darajasi oshgan sayin, o‘sish sur’ati sekin asta pasayib va oxir oqibatda umuman to‘xtaydi.

Bu xulosa daromadning pasayib ketish qonuniyatidan kelib chiqadi.

Ozroq kapitalga ega bo‘lgan biron-bir qashshoq davlatni ko‘rib chiqamiz. Faraz qilamiz bu mamlakat iqtisodiyotida texnologiya - *A*, ta’lim - *e*, kapital o‘smaydi, *A*:, ya’ni iqtisodiyot umuman o‘smaydi. Endi faraz qilamiz fizik kapitaliga 5 emas, 20 foiz YaMM kiritildi. Boshlanishida investitsiyani ko‘paytirish natijasida kapital hajmi ko‘payadi. Iqtisodiyotdagi kapital hajmi kam bo‘lganligi uchun YaMM o‘sishiyuqori ko‘rinish beradi.

Keyingi yilda davlat yana 20 foiz YaMM investitsiya kiritadi. Ammo kapital yig‘indisi keyingi yilgiga nisbatan oshgan bo‘ladi chunki keyingi yilda investitsiya kiritilgan. Shuning uchun YaMM ko‘rsatkichining foizdagi ifodasi keyingi yilgiga nisbatan kam bo‘ladi. Bu davlat yuqoridagi jarayon yo‘qqa chiqmaguncha investitsiya kirishni davom etaveradi. Bu vaqtga qadar iqtisodiyot boyib ketadi, lekin o‘sishni to‘xtatadi. Shunday qilib fizik kapitaliga kiritilgan investitsiya normasini oshirish cheksiz davom etmaydi.

3.2. Makroiqtisodiy subyektlardan boshlab bozorning shakllanishi

Bu yerda quyidagi ketma-ketlik rivojlanadi: birinchi navbatda moliyaviy kapital vujudga keladi, so'ngra davlat ichki qarz subyekti

sifatida iqtisodiyotga "kirishadi", shundan so'ng ishlab chiqarish kapitali shakllanadi. Jarayon bank muassasalarini shakllantirish, aholi ommasini moliyaviy va pul muomalalariga moliyaviy subyekt sifatida jalb qilish bilan yakunlanishi kerak. Ushbu o'zgarishlar zanjirida inqirozlar Keynsga ko'ra bozor muvozanatining buzilishini va shuning uchun institutsional rivojlanishni tegishli tuzatish zarurligini ko'rsatadi.

Kapital va uning aylanishining prototipi sifatida pul oqimlarining spetsifikatsiyasidan foydalanish. Moliyaviy kapitalning shakllanishi dastlab valyuta va pul bozorlari va valyuta va pul aylanmalarining rivojlanishiga, davlatning bozor subyekti sifatida shakllanishiga - DQM va boshqa davlat qimmatli qog'ozlari aylanmasiga tayangan. Shunga ko'ra, ishlab chiqarish kapitalini shakllantirish bank kapitali asosida korporativ aktsiyalarning ommaviy bozorini, shu jumladan mulkiy hujjatlarning aylanmasini (aktsiyalarning nazorat paketlari va boshqalar), garov bilan ta'minlangan investitsiya kreditini rivojlantirmasdan amalga oshirib bo'lmaydi.

Daromadning bozor muvozanatining tarkibiy qismi sifatida shakllanishi daromadlar

aylanishi doirasidagi daromadlar va jamg'armalarning aylanishini o'z ichiga oladi. Asosan, har qanday funksional kapitalning shakllanishi uning muomalasi, ya’ni o‘zining reproduktiv bazasi, bank instituti va investitsiya mexanizmiga ega bo‘lgan barqaror, belgilangan pul muomalasining shakllanishi bilan bir vaqtga to‘g‘ri keladi. Bundan kelib chiqadiki, aylanishlarning tizimli birligi belgilangan pul aylanmalarining markazdan qochma tendentsiyalarini zaiflashtiruvchi mexanizmlarga asoslanishi kerak.

Bozorni o'zgartirish jarayonida monopollashtirish bozorni erkinlashtirishdan kam rol o'ynamaydi. Aniqroq aytganda, harakat monopollashtirishdan liberallashtirishga va pirovardida oligopolistik bozorlar tizimini shakllantirishgacha boradi. Buning sababi shundaki, boshlang'ich institutlar o'zlarining davrlari bilan bog'langan holda, ularning tizimli munosabatlari mustahkamlanganda, birinchi navbatda makroiqtisodiy bozor muvozanati tuzilmalarini quradilar (Keyns bo'yicha), so'ngra ularni munosib raqobat bozorlariga joylashtiradilar. Aynan monopoliya tuzilmalari, birinchi navbatda, jahon moliyaviy kapitali bilan tashqi iqtisodiy aloqalar subyektiga aylanadi. Rossiya

iqtisodiyotining ochiqligi va uning globallashuv jarayonlaridagi ishtiroki, o'z navbatida, raqobatbardosh bozorlarni rivojlantirish yoki, boshqacha aytganda, iqtisodiyotni liberallashtirish uchun kuchli yordam beradi.

Bozorni o'zgartirish uchun boshlang'ich shart-sharoitlarni yaratish uchun xususiylashtirishning bepul to'lanishi muhim emas, lekin uning ommaviy xarakteri va obyekti - daromadi juda muhimdir. Ijobiy ijtimoiy roli islohotlarning liberal yo'nalishini shakllantirishning asosi sifatida ommaviy xususiylashtirish Rossiya ilmiy hamjamiyati tomonidan deyarli tushunilmaydi. Xususiylashtirish samarali mulkdor nuqtai nazaridan baholanadi, uni shakllantirish muammosi esa sotsialistik asosiy ishlab chiqarish fondlarini ishlab chiqarish kapitaliga aylantirish vazifalari bilan bog'liq. Ommaviy xususiylashtirish mulkchilikning universal pul shaklini yaratdi, u ma'lum institutsional shartlarga ko'ra daromadlarni osongina qoplaydi va ommaviy moliyaviy subyektning shakllanishining boshlanishi bo'lib xizmat qiladi.

Bundan tashqari, xususiylashtirish daromadlar va ish haqini «ajrashdi», uning kapitallashuvi hisobiga daromadlar darajasini oshirish uchun shart-sharoit yaratdi, busiz makroiqtisodiy bozor muvozanatining elementi sifatida daromadlar aylanishini shakllantirish mumkin emas edi. Bu ommaviy xususiylashtirishning birinchi iqtisodiy funktsiyasidir.

Nihoyat, ommaviy xususiylashtirish yangi global taqsimotni (kapital - daromad) shakllantirdi va shu tariqa ularni birlashtiruvchi Keynsga ko'ra aylanmalar tizimini va bozor muvozanatini yaratishga birinchi g'isht qo'ydi. Ommaviy xususiylashtirishning ana shu ikkinchi iqtisodiy funktsiyasi asosiy makroiqtisodiy ahamiyatga ega. Rahmat yangi tuzilma taqsimlanishi natijasida mikroiqtisodiyotning tarmoqlararo yaxlitligi buzildi va inflyatsion va samarasiz tarmoq tuzilmasidan samarali tuzilmaga o‘tish boshlandi. Bu yerda jadal sotsialistik sanoatlashtirish jarayonida rivojlangan tarmoq sanoat yadrosi va ishlab chiqarish periferiyasi o'rtasidagi qarama-qarshilik uni hal qilish mexanizmini olganligi muhimdir. Endi yana bir qarama-qarshilik dolzarb, me'yoriy va yashirin iqtisodiyot o'rtasida. Bu institutsional (konvergent) yondashuvning ustuvorligi sharti bilan hal qilinadi. Qiyinchilik shundaki, bu yondashuv "byudjet" iqtisodiyoti uchun maqbul emas va moliyaviy kapital boshchiligidagi universal

investitsion pul tizimini shakllantirishni o'z ichiga oladi. Hukumat moliyaviy kapital (va umumaniqtisodiyot) va davlat o'rtasida muloqot zarurligini anglashi kerak.

Islohotlar boshida ularning alfa va omega xususiylashtirish edi, hozirgi bosqich bozor transformatsiyasi - institutlar tizimini shakllantirish va ichki yaqinlashuvni rivojlantirish. Liberal rivojlanish istiqbollari nuqtai nazaridan jamiyat ongini shakllantirish mexanizmi sifatida ijtimoiy institutlar tizimini shakllantirish juda katta rol o'ynaydi. Bu yerda shaxs haqiqiy liderdir, chunki u ijtimoiy ongning tanqidiy baholash funktsiyasining tashuvchisi hisoblanadi. Shaxsga erkinlikning barcha to'liqligi kerak - jamoadagi iqtisodiy erkinlik, kapitalizm tajribasi G'arbiy nasroniy sivilizatsiyasiga olib keldi, va jamoadan tashqarida chuqur shaxsiy fikrlash va baholash erkinligi, ya'ni asosiy ruhiy mavjudot tajribasi, sotsializm G'arbiy xristian sivilizatsiyasiga olib keldi.

Yuqorida tashqi konvergentsiya ratsional bozor munosabatlarining ustuvorligiga asoslanadi, deb aytgan edik. Bu ustuvorlik hech qachon chayqalishidargumon, chunki u jahon bozorini qattiq ratsional tuzilmaga aylantiradigan globallashuvga olib keladi. Shu bilan birga, tashqi konvergentsiya subyekt (davlatlararo) shakldan bozorlarning integratsiyalashuv darajasidan qat'i nazar, oqilona makonni himoya qilish uchun foydalanadi. Bundan tashqari, bozor integratsiyasining chuqurlashishi bilan davlatlarga va ular orqali ichki bozorlarga bosim o'tkazadigan, ularni ochiqlikka undaydigan xalqaro bozor institutlari paydo bo'ladi.

Milliy institutsional markazlar tizimi sifatida tashqi yaqinlashuv va davlatlararo o'zaro ta'sirning ijtimoiy "qutbi" ga kelsak, bu makonda shaxsning jamiyatdagi yetakchi rolini ro'yobga chiqarish va ikkinchisini uning doirasida o'zini o'zi identifikatsiya qilishga olib keladigan infratuzilma shakllantirilmoqda. yagona g'arbiy xristian sivilizatsiyasi. Shu bilan birga, rivojlanish yo'lidagi sinfiy to'siqlar bartaraf etiladi. ijtimoiy munosabatlar liberalizm yo‘nalishida, bu neoklassik yondashuv asosida mumkin emas (sinfiy tuzilma ishlab chiqarish omillari tuzilishidan kelib chiqadi). Shu bilan birga, liberalizmning rivojlanishi uchun zarur bo'lgan ijtimoiy sohani iqtisodiyotdan ajratish to'liq bo'lishi mumkin emas va bo'lmasligi kerak. Ularning o'rnatilishi tovarlar, pul va moliya iste'molchisi sifatida shaxs darajasida, ya'ni daromadning ommaviy moliyaviy

subyekti darajasida amalga oshirilishi muhimdir. Bularning barchasi Rossiya iqtisodiyotining ochiqligi va uning tashqi siyosiy aloqalar sohasidagi faolligi islohotlar uchun juda muhim ijobiy shart ekanligini ko'rsatadi. Davlat ochiqlik siyosatidan voz kechish, jamiyatda yangrayotgan talablarga berilib ketsa, tuzatib bo'lmas xatoga yo'l qo'ygan bo'lardi.

G'arb tsivilizatsiyasining tarixiy xotirasida sotsializmning huquqiy bo'lmagan totalitar davlat sifatidagi dramatik tajribasi abadiy qoladi, ammo bu jamiyat uchun qiyin yoki xavfli vaziyatlardan chiqish yo'lining ekstremal sivilizatsiya shakli bo'lishi mumkin, ijtimoiy inqiroz bilan chegaradosh. Ammo konvergentsiya nuqtai nazaridan, bizning tushunishimizcha, sotsializm har doim jamoatchilik tanlovi bo'libqoladi.

Bugungi kunda sotsializmga qaytish yana Rossiyaga tahdid solmoqda, chunki sotsialistik an'analar va ularning tarafdorlari, kommunistik va unga yaqin partiyalar, davlat va iqtisodiy o'zgarishlarning boshqa subyektlarining bozor xatti-harakatlari mexanizmlari hali ishlab chiqilmagan, hali ham tirik. Ammo vaziyat umidsiz emas. Tahlilning konvergent jihati mamlakatimiz uchun quvonarli istiqbollarni ochadi.

Yana bir neoklassik nazariyasining tushunchalaridan biri konvergensiya hisoblanadi. Faraz qilamiz ikki davlatda ishlab chiqarish funksiyasi teng. Ammo birdavlatda boshqa davlatga nisbatan kapital kamroq. Bu jarayonda ishlab chiqarishning o‘sish sur’atlari boy davlatlarga nisbatan yuqori bo‘ladi, ammo huddi shu jarayonni biz boy davlatda o‘tkazgan bo‘lganimizda o‘sish sur’atlari pas bo‘ladi. Shuning uchun boy bo‘lmagan davlatda iqtisodiy o‘sish sur’ati, boy davlatga nisbatan yuqori bo‘ladi. Bu nazariya absolyut konvergensiya girotezasi bilan tanilgan. Bu gipoteza ma’lumotlar orqali isbotlanishi mumkin.

Ishlab chiqarish hajmini ko‘paytirishga, vositalarning bir-biriga kiritilgan investitsiya ko‘rsatkichi past bo‘lgan davlatda maqsadga muvofiq bo‘ladi. Lekin o‘sish sur’ati nafaqat qo‘shimcha ishlab chiqarish vositalari bilan, balki real kiritilgan investitsiyalar bilan ham ifodalanadi.

Iqtisodiy o‘sish past bo‘lgan davlatlarda, iqtisodiy o‘sish yuqori bo‘lgan davlatlarga nisbatan investitsiya kiritilsa o‘sish sur’atlari yuqori bo‘ladi. Ammo rivojlangan mamlakatlarda buning o‘rniga

ko‘proq investitsiya kiritilishi mumkin va natijada huddi shu jarayon rivojlanishi pas bo‘lgan davlarda bo‘lsa, rivojlangan davlatlarda o‘sish sur’atlari yuqori bo‘lib qolaveradi. Shuning uchun boy davlatlarda, qashshoq davlatlarga nisbatan investitsiya ko‘paytirish imkoniyati yuqoriroq bo‘ladi. Bu vaziyatlardan biri hisoblanib – bu yerda boy davlatlarda mablag‘ni to‘plash normasi yuqoriligi sabablidir. Shu sababdan absolyut konvergensiyaning dastlabki gipotezalaridan biri – bu ikkala davlatlarda ham mablag‘ni to‘plash normasi bir xilligidir. Agarda biz ikkala davlatlardagi mablag‘ni to‘plash normasini bir-biridan farq qilganligini inobatga olsak, u holda neoklassik nazariyasiga ko‘ra buni taxminiy konvergensiya deb atashimiz mumkin.

3.3. Iqtisodiy o‘sish omillarini hisobga olishning nazariy asoslari

Bizni davlatdagi iqtisodiy o‘sish omili nima hisobiga amalga oshishi qiziqtiradi, chunki ba’zi davlatlardagi iqtisodiy o‘sish yuqori bo‘ladi, ba’zilarda esa pas. Masalan, iqtisodiyot yuqori o‘sish sur’atlari bilan rivojlanishi mumkin. Ammo investitsiyani oshirib borayotgan davlat iqtisodiy o‘sishi kamayib borishi ehtimoldan holi emas. Ammo boshqa tomondan iqtisodiyot rivojlanishni davom ettiraveradi, agarda ishlab chiqarish unumdorligi ko‘paysa, chunki bilim cheksizligibunga yana bir isbot bo‘lishi mumkin.

Buni ko‘rsatishimiz uchun biz, texnologiya rivojlanishining o‘sish sur’atini hisoblab chiqishimiz kerak. Ammo texnologiyani hisoblash qiyin bo‘lganligi uchun, biz u holda texnik taraqqiyotning o‘sish sur’atlarini hisoblab chiqamiz. Buning uchun YaMMning o‘sish sur’atini quyidagi tenglama orqali hisoblab chiqamiz:

$$Au/u = AA/A + aAk/k + (1 - a)Ae/e. \quad (3.4);$$

(3.4) tenglama shuni bildiradiki, YaIM ni o‘zgarishi uchta asosiy qismlarga bog‘liqligi, ya’ni texnologiya rivojlanishi, bir ishchiga to‘g‘ri keladigan kapitalni o‘sish sur’atlari va malaka yoki ta’lim darajasini oshirishning o‘sish sura’tlaridir. Biz uchrayotgan muammo shundan iboratki *A* o‘sish sur’atlari ko‘rsatkichini o‘lchash imkoniyati yo‘qligidir. Boshqa tenglamalar esa juda oddiy: *Au/u* – bu bir ishchiga to‘g‘ri keladigan yalpi o‘sish sur’atlari ko‘rsatkichi (milliy hisoblar tizimida hisoblanadi), *Ak/k* – kapital o‘sish sur’ati ko‘rsatkichi (bu ham milliy hisoblar tizimida hisoblanadi), hamda *Ae/e* - ishchi kuchi malakasi (bilimi) o‘sish sur’atlari ko‘rsatkichi (yoki malakasini

bildiradigan boshqa ko‘rsatkich) buni ham hisoblash mumkin. Yuqorida aytib o‘tilganidek a koeffitsenti, ishchilar tomonidan daromad bo‘lib, bu milliy daromadning bir qismi hisoblanadi va u ish haqi fondi ko‘rsatkichiga bo‘lingan shuning uchun a bu – milliy daromadning bir qismi hisoblanadi. (4) tenglamadagi biz hisobga olmaydigan birdan-bir o‘zgaruvchi ko‘rsatkich *A* o‘sish sur’atlar ko‘rsatkichidir. Robert Solouning (Robert Solow) asosiy fikrlaridan biri bu *AA/A* ko‘rsatkichini qiyosiy hisoblash imkoniyatiga ega bo‘lamiz, agarda tenglamadagi ko‘rsatkichlarni quyidagicha tuzib chiqsak:

AA/A = Au/u-aAk/k-(1 -a) Ae/e. ***(4.5);***

Shunday qilib, ishlab chiqarish ko‘rsatkichi quyidagicha hisoblanishi mumkin, ya’ni YaIM o‘sish sur’atidan ayrilgan ishlab chiqarish omilining ikki omilio‘sish sur’atlarini anglatadi.

Asosiy xulosalar

Neoklassik nazariyasiga qaraganda iqtisodiyot faqatgina investitsiya hisobiga rivojlana olmaydi. Boshqacha qilib aytganda, iqtisodiy o‘sishni investitsiya hisobidan amalga oshirish mo‘ljal qilinayotgan bo‘lsa, u holda uzoq muddatda iqtisodiyot rivojlanmaydi. Qisqa muddatda esa investitsiya ko‘payib bu o‘z navbatida iqtisodiyotning rivojlanishiga olib keladi. Ammo investitsiya o‘sish sur’atiko‘paygan sari, o‘sish sur’ati pasayib va oxir oqibatda iqtisodiy o‘sish to‘xtaydi.

Agar biz kapital hajmini bir dona bir birligiga ko‘paytirsak, ammo ishchi kuchi o‘zgarmas holda qolsa, u holda pechene ishlab chiqarish hajmi oshadi. Biz kambag‘al bo‘lsak va bizda ishlab chiqarish vositalari kam bo‘lsa, u holda ishlab chiqarish vositalarini bir donaga oshishi bizda sezilarli ko‘payishga olib keladi. Lekin biz juda ham boy bo‘lsak va bizda ishlab chiqarish vositalari ko‘p bo‘lsa, u holda ishlab chiqarish vositalarini bir donaga oshishi deyarli ishlab chiqarish o‘sish darajasida sezilarli bo‘lmaydi.

Bizni davlatdagi iqtisodiy o‘sish omili nima hisobiga amalga oshishi qiziqtiradi, chunki ba’zi davlatlardagi iqtisodiy o‘sish yuqori bo‘ladi, ba’zilarda esa pas.Masalan, iqtisodiyot yuqori o‘sish sur’atlari bilan rivojlanishi mumkin. Ammo investitsiyani oshirib borayotgan davlat iqtisodiy o‘sishi kamayib borishi ehtimoldan holi emas. Ammo boshqa tomondan iqtisodiyot rivojlanishni davom ettiraveradi, agarda

ishlab chiqarish unumdorligi ko‘paysa, chunki bilim cheksizligi bunga yana bir isbot bo‘lishi mumkin.

Nazorat savollar

1. Uzoq muddatli iqtisodiy o‘sish jarayoni haqidagi ilk ta’limotlar qaysi olimlarga tegishli ?
2. Iqtisodiy o‘sish omillari.
3. O‘sish sur’atlari ko‘rsatkichi qanday o‘lchanadi.
4. R. Solouning iqtisodiy o‘sish modeli.
5. Konvergensiya nazariyasi.
6. Neoklassik ishlab chiqarish funksiyasi.
7. Kobba-Duglasning nazariyasi.
8. Adam Smit, David Rikardo hamda Tomas Maltus iqtitsodiy o‘sishnazariyasi.
9. Iqtisodiy o‘sishga ta’sir qiluvchi omillar
10. Iqtisodiy o‘sishning intensive turi nima?

IV BOB. IQTISODIY O‘SISHNI YANGICHA NAZARIYASI

4.1. Iqtisodiy o‘sishda inson kapitalining ahamiyati
4.2. Iqtisodiy o‘sishda texnologiya
4.3. Iqtisodiy o‘sishda hukumatning o‘rni
4.4. Konvergensiya oldidagi baxslar

Tayanch iboralar: *o‘sish, iqtisodiyot, nazariy, mohiyat, inson omili, inson kapitali, texnologiya, innovatsiya, davlat, tashkilot, konvergensiya, munozora, iqtisodiy o‘sish, iqtisodiy o‘sish turlari, intensive, ekstensiv, unumdorlik.*

4.1. Iqtisodiy o‘sishda inson kapitalining ahamiyati

Neoklassik nazariyasiga ko‘ra, bunda neoklassik texnologiya va raqobatchilik iqtisodiy o‘sishning asosiy omillari deb belgilangan. Ammo iqtisodchilar qaysi yo‘l bilan fan-texnika taraqqiyotiga erisha oladi. 80 - yillardan boshlab ko‘pchilik iqtisodchilar iqtisodiy o‘sishning aniq omillarini topishga o‘z izlanishlarini bag‘ishlaganlar. Natijada «iqtisodiy o‘sishning yangi nazariyasi» yoki «endogen iqtisodiy o‘sish» kabi ishlar qilingan. Albatta bunday ishlar mazmunini bir mavzuda qisqacha yoritib berish qiyin, shuning uchun izlanish predmetini uchta keng kategoriyaga bo‘lib chiqiladi.

Yuqorida aytilganidek mehnat unumdorligi yoki malakasining oshishi faqatgina ularga kiritilgan investitsiya orqali ko‘payishi mumkin. Bu jarayon ta’lim (bilim) deya yuritiladi, ammo aytib o‘tganimizday bu jarayonni ishdan uzluksiz ravishda ham olish mumkin. Biz daromadning qisqarib ketish qonuniyatini rad etishimiz mumkin, agarda, bir vaqtning o‘zida investitsiyani inson kapitaliga hamda fizik kapitaliga kiritsak. Bu model doimiy samaradorlikni nazarda tutganligi uchun (fizik va inson kapitallarining yig‘indisidan olinadigan doimiy daromad), unda agar fizik va inson kapitalini ikki barobarga oshirsak, u holda bizda ikki barobar ko‘p daromad olish imkoniyatlari bo‘ladi.

Inson kapitalini yoki malakani oshirishning asosiy omili bo‘lib uzluksiz ravishda olib boriladigan ta’lim sistemasi hisoblanadi. Insonlar maktab va boshqa o‘quv muassalarida ta’lim olib ish haklaridan voz kechkanlar deb hisoblaymiz. Chunki agarda ular ta’lim olish o‘rniga biron-bir korxonada ishlab yurganlarida ma’lum bir

maosh olishgan bo‘lishar edilar. Bunday jarayonni iqtisodchilar inson kapitaliga kiritilgan investitsiya deb yuritadilar.

Ammo fuqorolarga qanday ta’lim berishni ta’minlash kerak? Boshqacha qilib aytganda iqtisodiy o‘sishni qaysi alternativ yo‘lini tanlashimiz lozim? Birinchi variantni biz elitizm deb atagan edik: ma’lum bir guruh insonlar yaxshi ma’lumot oladilar, chunki iqtisodiyot rivojlanishi ularning qay darajada davlatni boshqarishiga bog‘liq. Bu nazariyaga ko‘ra agar yetakchilar yaxshi ma’lumotga ega bo‘lsalar u holda mamlakat barqaror rivojlanadi deb yuritiladi.

Ikkinchi variantni biz universalizm deb atadik: har bir inson minimum bilim olishi kerak. Bu variantning mazmuni shundan iboratki, har bir ishchidan iqtisodiy o‘sish yangi texnologiyalarni tez ravishda kiritilishi kerak ekanligidadir. Oxirgi 30 yillar ichidagi Sharqiy Osiyodagi iqtisodiy o‘sish avval tikuvchilik, keyin soatlar va radio mahsulotlar ishlab chiqarishdan boshlangan. Sifat darajasi bu davlatlarda asta -sekinlik bilan oshib bordi, va undan keyin esa bu davlatlar boshqa davlatlarga moliyaviy yordam ko‘rsatishni boshladilar.

Bunday iqtisodiy tizimda har bir ishchi turli xil kasblarni egallashi lozim. Shuning uchun bunday sharoitlarda, shunday ta’lim sistemasi tuzilishi kerakki, bu ta’lim sistemasi ishchilar uchun turli xil kasblarni egallashiga ko‘maklashishi kerak. Oxirgi 30 yillar ichida inson kapitalini to‘plash modeli universalizmga asoslangan bo‘lib, u elitizmga asoslangan modeldan ko‘ra afzalroqdir.

4.2. Iqtisodiy o‘sishda texnologiyalar

Texnologiya yoki bilimlarning iqtisodiy aspektlari shaxsiy iste’mol mahsulotlarning iqtisodiy aspektlaridan deyarli farq qilmaydi. Biz aytib o‘tganimizdek bilim raqobatga ega bo‘lmagan mahsulot hisoblanadi, chunki bir vaqtning o‘zida bu mahsulot turi bilan foydalanish mumkin. Bilimning raqobatga ega bo‘lmagan tomonining asosiy ahamiyati, bu mahsulotni bir marta ishlab chiqarishdayoq bilinadi. Siz iste’mol qilayotgan mahsulotingizni boshqa bir inson iste’mol qilmaydi, shuning uchun shu mahsulotni ishlab chiqargan firmalar o‘sha inson uchun va siz uchun ishlab chiqadilar. Ammo mahsulotni kerak bo‘lgan retseptni bir marta yaratish mumkin, va bundan keyin bu retseptdan ko‘pchilik foydalanishi imkoniyatiga ega. Bu shuni bildiradiki, texnologiya rivojlanishi belgilangan xarajatlarni

belgilab beradi va bir marotaba foydalaniladi.

Misol uchun Microsoft Excel programmasini yaratish uchun, ko‘pchilik odamlarning kecha-kunduz ishlashlariga to‘g‘ri kelar edi. Ammo bu programmalarni yaratilishi bilanoq, uni kompakt-disklar yordamida ko‘paytirish mumkin bo‘ladi. Xuddi shunday qilib, Blek va Sholezlar (Black and Scholes) bir necha yillar davomida formulani yaratish bilan shug‘ullandilar va bu formulani yaratgandan keyingina boshqa odamlar tomonidan kalkulyatsiya qilish osonlashdi. Buni yaratishdagi boshlang‘ich xarajatlar yuqori bo‘lgan, keyin esa ulardan nusxa olishdagi ketgan xarajatlar kamayib borgan.

Bilim ko‘rinishidagi yaratilgan mahsulotlar qiymati qimmat bo‘ladi, chunki firmalar raqobatga ega bo‘lmagan mahsulotlarni yaratishga ko‘proq e’tibor beradilar. Yangi nazariyaning va neokllasik nazariyasining farqlari shundan iborat:

– dunyodagi real vaziyat tubdan farq qiladi, chunki ba’zi bir firmalar raqobatchilik sharoitiga amal qilmaydilar. Mikroiqtisodiyot nazariyasiga ko‘ra biz shuni bilamizki, belgilangan harajatlar borligida, o‘sib borayotgan xarajatlardan ko‘ra yuqori bo‘ladi. Raqobatchilik sharoitida odatda narx o‘sib borayotgan xarajatlarga teng bo‘lib qoladi.

Demak har qanday firmada bilim ko‘rinishida yaratilayotgan mahsulot narxi qimmat bo‘ladi va o‘z navbatida zarar ko‘rib boradilar. Shuning uchun firmalar mahsulot ishlab chiqarishlaridan oldin uni boshlang‘ich xarajatlarni qoplashga yordam beruvchi qonuniy hujjatlarni paydo bo‘lishiga ko‘proq e’tibor beradilar. Bu sharoitda bilimning ikkinchi tomoni kelib chiqadi, ya’ni bilim olishning qiyinligidir. Shuning uchun hukumat shunday bir me’yoriy hujjat tuzishlari kerakki, biron - bir mahsulot yaratuvchi shaxs yoki firma shu mahsulotga to‘liq egalik qilish imkonini berishlari kerak. Shunday qilib biron-bir mahsulotni biron bir shaxs tomonidan yaratilishi qonuniy asosga ega bo‘lishi lozim: Microsoft Excel programmalarini piratlar tomonidan nusxa ko‘chirib ularni sotishlari mumkin, agarda Microsoft kompaniyasining mualliflik huquqi himoya qilinmasa. Ammo boshqa mahsulotlarga ega bo‘lishni cheklash imkoniyati bo‘lmasa (masalan bilim olish), u holda davlat tomonidan shu institutlarga subsidiyalar ajratishlari kerak.

Ba’zi bir iqtisodchilar texnik revolyutsiyasining kelib chiqishi ko‘proq davlatlarga bog‘liq bo‘lgan, chunki ular mahsulot

yaratuvchilar uchun qat’iy qonuniy-me’yoriy hujjatlar yaratib berdilar. Shuning uchun bilimga va uzoq muddatli iqtisodiy o‘sishga erishish uchun davlat tomonidan mualliflik huquqini himoya qiluvchi hujjatlarni qabul qilishadilar. Agarda bu huquqlar vaqtida belgilanmaganda edi ko‘pchilik yaratilgan yangiliklar bo‘lmagan bo‘lar edi. Muallif huquqini himoya qilish idoralarini tuzishda, hukumat ikki omilni inobatga olishi lozim. Mahsulot ishlab chiqarilgandan keyin uni monopol ishlab chiqarishga imkonbermaslik.

Iqtisodiy o‘sishga global sharoitda erishish uchun mualliflik huquqini himoya qilishni nafaqat bir davlatda balki butun dunyoda amalga oshishligi bunga kafolat beradi. Boshqa so‘z bilan aytganda O‘zbekistonda ishlab chiqarilgan mahsulotni butun dunyoda sotish imkoniyatiga ega bo‘lish kerak ammo huddi shu mahsulotni biron - bir davlat tomonidan yaratilishi qonun bilan himoya qilinishi kerak. Bu ta’rif hamdasavdo kelishuvidagi maqsadlardan biri hisoblanadi.

4.3. Iqtisodiy o‘sishda davlat siyosati

Ko‘pchilik iqtisodchilar qanday qilib hukumat iqtisodiy o‘sish sur’atlariga ta’sir qiladi deb savol beradilar. Ma’lumki hukumat iqtisodiyotda juda katta imkoniyatga va kuchga ega bo‘lgan iqtisodiy vositalaradan hisoblanadi, shuning uchun uni harakatlari katta ahamiyatga ega. Xukumat iqtisodiyotga turli xil yo‘llar bilan ta’sir qilishi mumkin va bunga misol pastda ko‘rsatib o‘tilgan.

- Hukumat qonuniy hujjatlarni belgilashga ko‘maklashadi va bu narsa o‘z navbatida mahsulot yaratuvchilariga katta imkoniyat tug‘diradi. Agarda hukumat bunday sharoitlarni yaratib berolmasa u holda shu mamlakat iqtisodiy o‘sishi deyarli yuqori bo‘lmasligi mumkin.
- Hukumat makroiqtisodiy sharoitlarga ta’sir qilishi mumkin, chunki firmalar inflyatsiyasi yuqori bo‘lgan davlatda mahsulot ishlab chiqarilishiga qiyinchilik tug‘diradi.
- Hukumat iqtisodiy o‘sishning o‘sish sur’atlariga ta’sir qilishi mumkin, ya’ni turli xil vositalardan foydalangan holda (monetar siyosat, fiskal siyosat va x.k.z.). Davlat harajatlari strukturasi ham katta ahamiyatga egadir.

Iqtisodiy o‘sishga qaratilgan ko‘pchilik ishlarda yuqoridagi aspektlar tahlili berilgan bo‘lib unda qaysi aspektlarning biri ko‘proq iqtisodiy o‘sishga ta’sir qilishi ko‘rsatilgan.

IV. Iqtisodiy o‘sish manba’lari: empirik tahlillarning natijalari A. Iqtisodiy o‘sish omillarini inobatga olinadi.

Al hamda A6 jadvallarida (Bosvort va Kollinzlar ishlaridan (Bosworth and Collins, 1998)) 88 davlatlarda to‘rtta davrdagi iqtisodiy o‘sish omillari ko‘rsatilgan: 1960-70, 1970-80, 1980-86 va 1986-90 - yillarda. Masalan A1 jadvalning birinchi qatorida, Xitoydagi o‘rtacha o‘sish sur’atlari 1960-yil 1970-yillar davri ichida 1,7 foizni tashkil qilgan. Kapital iqtisodiy o‘sish omili sifatida - Ak/k tenglamasining qismi (4) nolga teng bo‘lgan - (1 - a) Ae /e xuddi shu tenglamaning qismi - 0,4 foizga teng bo‘lgan. Iqtisodiy o‘sish sur’atlarining boshqa qismlari - 1,3 fozni tashkil qilgan – va bu texnologiya rivojlanishiga bog‘liq bo‘lganligidandir.

Elvin Yang (Alwyn Young, 1994)) Sharqiy Osiyo davlatlarida yuqori iqtisodiy o‘sish omillarining to‘planganligini aytgan birinchi iqtisodchilardan hisoblanadi. Masalan, Singapurdagi 1960 - yilidan 1970 - yiligacha aholi jon boshiga to‘g‘ri kelgan 5,6 foizni tashkil qildi va bu fizik kapitalning to‘planishi, 0,3 foizi esa inson kapitaliga to‘g‘ri kelgan. Agar biz fizik hamda inson kapitalini inobatga oladigan bo‘lsak, Singapurdagi iqtisodiy o‘sish sur’atlari nolga teng bo‘lgan. Xuddi shunday natijalar 1970 - yildan 1980 - yilgacha va 1980 - yildan 1986 - yilgacha bo‘lgan davrda kuzatilgan. Shu ma’lumotlarga asoslangan holda Yang Singapurdagi iqtisodiy o‘sishning asosiy omili faqat harakat va qattiq mehnat degan xulosaga kelgan.

Bu qilingan xulosa, bundan oldingi qilingan xulosalardan mutloq farq qiladi, chunki oldingi xulosalarga qaraganda Sharqiy Osiyodagi iqtisodiy o‘sishga faqatgina texnologiyani yaxshilash orqaligina erishilgan deb aytilgan. Aslida esa mana shu davlatlardagi iqtisodiy o‘sishning paydo bo‘lishi faqatgina fizik kapitalning to‘planganligidandir. Shuni aytib o‘tish joizki, agarda yuqoridagi davlatlarda texnologiyalar takomillashtirilmaganda, u holda kamayib borayotgan daromad qonuni iqtisodiy o‘sishni yo‘qqa chiqarar edi. 1994 - yilda Yangning bashoratiga ko‘ra Sharqiy Osiyoda ro‘y bergan o‘ta yuqori rivojlanishning pasayib ketishini aytgan. Singapurning baxtiga, ishlab chiqarish o‘sish sur’atlari 1986 - yildan 1992 -yilgacha oshib keldi, va o‘rtacha yiliga 7,4 foizni tashkil etdi. Bu ko‘rsatkichdan faqat 2,6 foizi kapital yig‘ilmasi bilan belgilanadi va 0,6 foizi - ta’lim. Shunday qilib texnologiya bir yilda 4 – foizga oshgan.

4.4. Iqtisodiy o’sishda konvergensiyaga asoslangan qarashlar

Iqtisodiy birliklardan qat’iy nazar konvergensiya iqtisodiy nazariyada asosiy va tortishuvlarga xos bir masalalardan biri hisoblanadi. Yuqorida aytib o‘tilganidek neoklassik model boy va qashshoq davlatlar o‘rtasidagi taxminiy konvergensiyani ko‘rsatib o‘tadi.

Xuddi shu savollar makroiqtisodiy nazariyasi va iqtisodiy o‘sish tarafdorlarini ham qiziqtirib kelmoqda. Ammo ular uchun tahlil obyektlari bo‘lib uy- xo‘jaliklari emas balki butun bir davlatlar qiziqtiradi. Masalan ular qashshoq davlatlar qashshoqligicha qoladimi yoki yo‘qmi, boy davlatlar esa o‘n yillardan keyin ham boy bo‘lib qoladimi yoki yo‘qmi shuni bilishni istaydilar. Bu asosiy savollar konvergensiya haqidagi asosiy tortishuvlarga aylangan. Aslida bu masalalar oldindan qiziqish uyg‘otgan bo‘lsada, lekin makroiqtisodiyotchilar va ekonomitristlarda 80- yillarga kelib katta qiziqish paydo bo‘ldi.

Konvergensiyaning ikki asosiy konsepsiyalari klassik ishlarda namoyon etilgan. Ularni r-konvergensiya va o-konvergensiya deb atashadi. Bizningcha, agar konvergensiya ro‘y bersa u holda qashshoq davlatlar boy davlatlarga nisbatan yuqori iqtisodiy o‘sish tendentsiyaga moyilligi borligini aytamiz.

R-konvergensiyasiga misol qilib, uy xo‘jaliklari yoki mamlakatdagi o‘sish sur’atlari retsessiya koeffitsenti, boshlang‘ich daromadlarga nisbiy ta’sirini o‘tkazadi. Masalan, 1(a) chizmada, ma’lum bir davlatlar guruhida R-konvergensiyasi 1960 dan 1997-yilgacha olingan. Bu chizmadan shuni kuzatish mumkinki,1960 yilda R- konvergensiyasi kuzatilgan rivojlangan davlatlarda, yildan-yilga iqtisodiy o‘sish sura’tlari, rivojlanayotgan davlatlarga nisbatan yuqori bo‘lgan 4.1 – chizma.



4.1- Chizma. **Iqtisodiy o‘sish sur’atlarining konvergensiyasi, 1960-97 yillar**[3]

Iqtisodiyotda konvergensiya, aholi jon boshiga to’g’ri keladigan real YaMM asta-sekin oshib borilishida kuzatiladi. Demak, agar biz tarqalish koeffisentini yiliga 0, keyin yiliga 5 ta, keyin esa yiliga 10 ta deb olsak, u holda ma’lum vaqt ichida tarqalish darajasi kamayib borishini kuzatishimiz mumkin, va bu holatda F – konvergensiya bo‘ldi deyishimiz mumkin.

Asosiy xulosalar

Iqtisodiy nazariya masalalarida konvergensiya barcha iqtisodiy birliklardagi asosiy savollardan biri bo‘lib qolmoqda. Yuqorida aytib o’tilganidek neoklassik modeli boy va qashshoq davlatlardagi taxminiy konvergensiyani bashorat qiladi. Ishchi kuchi, davlat moliyasi va iqtisodiy o‘sish aspektlarini o’rganib kelgan iqtisodchilar uchun, hozirda qashshoq oilalar yoki boy davlatlar yaqin bir yuz yillardan keyin ham o’zgarishi yoki o’zgarmasligi qiziqtirib keladi. Ular vaqt davomida tengsizlikning o‘zarish yoki o‘zgarmasligini bilishni istaydilar.

Inson kapitalini yoki malakani oshirishning asosiy omili bo‘lib uzluksiz ravishda olib boriladigan ta’lim sistemasi hisoblanadi. Insonlar maktab va boshqa o‘quv muassasalarida ta’lim olib ish haqlaridan voz kechganlar deb hisoblaymiz. Chunki agarda ular ta’lim olish o‘rniga biron bir korxonada ishlab yurganlarida ma’lum bir maosh olishgan bo’lishar edilar. Bunday jarayonni iqtisodchilar inson kapitaliga kiritilgan investitsiya deb yuritadilar.

Iqtisodiy o‘sishga global sharoitda erishish uchun mualliflik

[3] Manba: Barro va Sala-i-Martin, 1995.

huquqini himoya qilishni nafaqat bir davlatda balki butun dunyoda amalga oshishligi bunga kafolat beradi. Boshqa so‘z bilan aytganda O‘zbekistonda ishlab chiqarilgan mahsulot butun dunyoda sotilish imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak ammo huddi shu mahsulotni biron- bir davlat tomonidan yaratilishi qonun bilan himoya qilinishi kerak. Bu ta’rif hamda savdo kelishuvidagi maqsadlardan biri hisoblanadi.

Hukumat makroiqtisodiy sharoitlarga ta’sir qilishi mumkin, chunki firmalarga inflyatsiya yuqori bo‘lgan davlatda mahsulot ishlab chiqarish qiyinchilik tug‘diradi.

Iqtisodiy birliklardan qat’iy nazar konvergensiya iqtisodiy nazariyada asosiy va tortishuvlarga boy masalalardan biri hisoblanadi. Yuqorida aytib o‘tilganidek neoklassik model boy va qashshoq davlatlar o‘rtasidagi taxminiy konvergensiyani ko‘rsatib o‘tadi.

Muhokama uchun savollar

1. Iqtisodiy o‘sish sur’atlarining konvergensiyasi
2. Elvin Yangning iqtisodiy o‘sish kontsepsiyasi
3. Iqtisodiy o‘sish omillari
4. Iqtisodiy o‘sish manba’lari
5. Neoklassik texnologiyalar
6. Iqtisodiy o‘sish tendentsiyaga moyilligi
7. Inson kapitali nima?
8. Inson kapitalini ko‘rsatkichlari nimalardam iborat?
9. Elektron hukumatning iqtisodiy xususiyatlari
10. Konvergensiya qanday baxslar mavjud
11. Konvergensiyaning turlari

V BOB. IQTISODIY O‘SISH DVIGATELI

5.1. Iqtisodiy o‘sishning texnologik modeli va g‘oyalari. P.Romer,R.Lukas va U.Nordxaus g‘oyalari
5.2. Iqtisodiy o‘sishning endogen nazariyasi
5.3. Endogen o‘sish omili sifatida innovatsiyalarning turlari va ularningendogen xususiyatlari
5.4. Iqtisodiy o‘sishda “Texnologik turtki” gipotezasi va texnologikukladlar
5.5. Innovatsion investitsion iqtisodiy o‘sishning turlari va unitavsiflovchi belgilari

Tayanch iboralar: *Innovatsiyalar, ishlab chiqarish sohasidagi innovatsiyalar, innovatsion jarayonlar, innovatsion faoliyat, innovatsion faollik, innovatorlar, konservatorlar, tadbirkor, innovatsiyalarning tasnifi, takomillashtiruvchi innovatsiyalar, qo‘poruvchi innovatsiyalar, jarayonli innovatsiyalar, innovatsion faoliyatning asosiy tamoyillari, bazisli innovatsiyalar, texnologik ukladlar, innovatsion biznes, innovatsion mahsulotlar va xizmatlar bozori, innovatsion loyiha, innovatsion marketing, bozor segmenti, innovatsion biznes, inson omili, inson kapitali, innovator, motivatsiya, mehnatni rag‘batlantirish.*

5.1. Iqtisodiy o‘sishning texnologik modeli va g‘oyalari. P.Romer, R.Lukas vaU.Nordxaus g‘oyalari

Asrimizning so‘nggi yillarda iqtisodiy o‘sish ta’limotida neoklassik nazariyalarga nisbatan e’tirozlar kuchayib bordi. Bu jahon mamlakatlarida iqtisodiy rivojlanish darajalarida keskin farqlarni kuchayishi va rivojlanayotgan davlatlarda, davlatning qarzdorlik inqirozini kuchayishi bilan bog‘liq muammolardir. Bu davrda Jahon banki va XVJ rivojlanayotgan davlatlarda erkin bozor munosabatlarini shakllantirish, iqtisodiy o‘sish va aholi turmush farovonligini oshirishda investitsiyalar muhim omil sifatida tavsiya etilgan edi. Biroq investitsiyalarni o‘sishi rivojlanayotgan davlatlarda kutilgan darajada iqtisodiy o‘sish va aholi turmush farovonligiga olib kelmadi. Jahon banki va XVJ ko‘rsatmalariga ko‘ra ichki va tashqi bozomi erkinlashtirish ham rivojlanayotgan mamlakatlarda kutilgan darajada xorijiy investitsiyalarni jalb etish imkonini bermadi. Ushbu

muammolarni yechimini endogen o‘sish nazariyasi maktabi tushuntirishga harakat qildi.

Endogen o‘sish nazariyasida (amerikalik iqtisodchilar P.Romer, R.Lukas va boshqalar) uzoq muddatli davrda texnologik taraqqiyot iqtisodiy o‘sishning yagona sababi hisoblanmaydi. Ular iqtisodiy o‘sish sifati darajasi quyidagi omillargabog‘liqligini ilmiy asoslashdi:

- inson kapitalining sifati, insonni rivojlantirishga (ta’lim, sog‘liqnisaqlash va hokazolarga) investitsiyalar;
- mukammal bo‘lmagan raqobat sharoitlarida intellektual mulk huquqini himoya qilish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish;
- fan va texnologiyalarni rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash;
- qulay investitsiya muhitini yaratish va yangi texnologiyalarnio‘zlashtirish.

P.Romerning fikricha, “bugungi iste’mol bilan ertaga qilinadigan iste’molni kengaytirish uchun foydalanilishi mumkin bo‘lgan bilimlar o‘rtasida ayirboshlash mavjuddir”[4]. P. Romeming nazariyasida iqtisodiy o‘sishning sur’atlari yangi bilimlarni egallash sohasida markazlashgan inson kapitali miqdoriga bevosita bog‘liqdir. Amalda bu ilmiy tadqiqotlar sohasi iqtisodiyotga birgina amaliy g‘oyalar va ishlanmalar bilangina ta’sir ko‘rsatmasligini anglatadi. Ushbu nazariyaga muvofiq, jamg‘arilgan inson kapitali hajmi katta bo‘lgan mamlakatlar iqtisodiy o‘sishda yuqoriroq sur’atlarga erishadilar.

Demak, erkin xalqaro savdoning rivojlantirilishi ham o‘sish sur’atlarini oshirishga yordam beradi, chunki mahsulotlar bilan ayirboshlash iqtisodiy tizim chegaralarini kengaytiradi va shu tariqa inson kapitali jamlanmasi ko‘payishiga xizmat qiladi.

R. Lukasning nazariyasiga ko‘ra inson kapitalini jamg‘arish muayyan resurslarni talab etadigan hamda muqobil chiqimlar sabab bo‘lgan faol iqtisodiy jarayondir. Olimning hisoblashicha, odamlar vaqtdan foydalanishning ikki yo‘lidan birini tanlashlari mumkin, ya’ni joriy ishlab chiqarishda ishtirok etish yoki inson kapitalini jamg‘arish. Mohiyat jihatidan bu ikki muqobil yo‘l o‘rtasida vaqtni taqsimlash iqtisodiy o‘sish sur’atlarini belgilaydi. Masalan, tovarlar ishlab chiqish uchun sarf qilinayotgan vaqtning kamayishi joriy mahsulot

[4] M.A.Mamatov. Iqtisodiy o‘sish. O‘quv qo‘llanma. - T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2021-384 b.

ishlab chiqarishni kamaytiradi, biroq ayni paytda insonga kapital qo‘yilmalar jadallashadi va shu tariqa mahsulot ishlab chiqarish ko‘payadi. Shunday qilib, endogen o‘sish nazariyasining xususiyati ta’lim va inson kapitali omilini ishlab chiqarish funksiyasiga qo‘shishdaniboratdir.

Endogen iqtisodiy o‘sish sifatining dastlabki modellari asosan o‘z vaqtidan ancha ilgarilab ketgan va o‘sha davrda deyarli ehtiyoj bo‘lmagan, 1960-yillar davomida amalga oshirilgan tadqiqotlar, xususan inson kapitali nazariyasi sohasidagi tadqiqotlar, K. Errou va G. Uzavalarning modellariga asoslangan edi. Yangi to‘lqinning birinchi davri uchun tegishli bo‘lgan eng muhim tadqiqot ishlarining mualliflari P.Romer, R.Lukas va S. Rebelolar hisoblanishadi. Ular tomonidan ishlab chiqilgan modellarda iqtisodiy o‘sish sifati manbalari tashqi samaralar yordamida tasvirlab beriladi. Aynan ushbu modellardan soddalashtirilgan yondashuvdan farqli o‘laroq, endogen o‘sishni talqin qilishda bazaviy modellar sifatida foydalanila boshlandi.

Yangi to‘lqin modellarining keyingi guruhi texnik taraqqiyotning vujudga kelishini tushuntirishga va innovatsiyalarning vujudga kelishi tuzilmasi va ularni amalga oshirishni batafsil o‘rganishga butun e’tiborini qaratadi. Endogen o‘sishning bunday modellar guruhi Research & Development deb atalgan.

F.Agion, P. Xauitt, D. Grossman va E.Xelpman kabi olimlarning asarlarida bayon qilingan modellar o‘ziga xos klassik modellar hisoblanadi.Endogen iqtisodiy o‘sish sifati modellarini izohlashning barcha matematik o‘ziga xosliklariga katta e’tibor qaratmagan holda, ulardan kelib chiquvchi asosiy xulosalarni keltirib o‘tamiz:

- doimiy barqaror iqtisodiy o‘sish sifati, faqatgina ta’lim vositasida jamg‘arilgan inson kapitali asosidagina mavjud bo‘lishi mumkin;
- iqtisodiy o‘sish sifati sur’atlariga innovatsiyalarni yaratish sohasida jamlangan inson kapitalining rivojlanish darajasi to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatadi. ya’ni, ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik sohasi iqtisodiyotga nafaqat bevosita, balki yangi amaliy ishlanma va g‘oyalar yordamida ham ta’sir ko‘rsatadi;
- bilimlar hosil bo‘lishi va jamg‘arilishini cheklash ertami, kechmi makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarda aks etadi, bunda ilmiy-tadqiqot, tajriba- konstruktorlik sohasida to‘plangan inteliektual

kapital salohiyati qisqaradi;

– fanning o‘zigina emas, balki bilimlarning shakllanishi va ulardan foydalanish, o‘z navbatida inson salohiyatining rivojlanishiga xizmat qiluvchi, investitsion talabning muhim omili hisoblanadi.

Endogen o‘sish nazariyasiga ko‘ra bilimlarni jamg‘arilishi, ishlab chiqarish xarajatlarini kamayishi, yangiliklar va innovatsiyalar iqtisodiy o‘sish sifatining muhim omillari bo‘lib hisoblanadi. Bugungi kunda bozor iqtisodiyoti rivojlanishining asosiy xususiyati iqtisodiyotda ekstensiv o‘sishning barcha imkoniyatlari va zaxiralaridan foydalanib bo‘lindi. Bugungi globalizatsiya davrida bozor iqtisodiyoti rivojlanishining asosiy yo‘nalishi yuqori mehnat sifati va FTTda kapital tejamkor texnologiyalarga va ekologik cheklovlarga asoslanib iqtisodiy o‘sishda yakuniy sifat natijalariga erishish hisoblanadi.

Iqtisodiy o‘sishning sur’atlari yangi bilimlarni egallash sohasida markazlashgan inson kapitali miqdoriga bevosita bog‘liqdir. Amalda bu ilmiy tadqiqotlar sohasi iqtisodiyotga birgina amaliy g‘oyalar va ishlanmalar bilangina ta’sir ko‘rsatmasligini anglatadi. Ushbu nazariyaga muvofiq, jamg‘arilgan inson kapitali hajmi katta bo‘lgan mamlakatlar iqtisodiy o‘sishda yuqoriroq sur’atlarga erishadilar. Demak, erkin xalqaro savdoning rivojlantirilishi ham o‘sish sur’atlarini oshirishga yordam beradi, chunki mahsulotlar bilan ayirboshlash iqtisodiy tizim chegaralarini kengaytiradi va shu tariqa inson kapitali jamlanmasi ko‘payishiga xizmat qiladi.

Inson kapitalining jamg‘arish muayyan resurslarni talab etadigan hamda muqobil chiqimlar sababi bo‘lgan faol iqtisodiy jarayondir. Endogen o‘sish nazariyasiga ko‘ra bilimlarni jamg‘arilishi, ishlab chiqarish xarajatlarini kamayishi, yangiliklar va innovatsiyalar iqtisodiy o‘sish sifatining muhim omillari hisoblanadi. Bugungi kunda bozor iqtisodiyoti rivojlanishining asosiy xususiyati iqtisodiyotda ekstensiv o‘sishning barcha imkoniyatlari va zaxiralaridan foydalanib bo‘lindi.

Bugungi globalizatsiya davrida bozor iqtisodiyoti rivojlanishining asosiy yo‘nalishi yuqori mehnat sifati va FTTda kapital tejamkor texnologiyalarga va ekologik cheklovlarga asoslanib iqtisodiy o‘sishda yakuniy sifat natijalariga erishish hisoblanadi. XXI asrga kelib iqtisodiyotda jiddiy o‘zgarishlar yuz berdi. Mazkur o‘zgarishlar birinchi navbatda, resurslardan foydalanishning tabiat

in’om etgan chegaralariga iqtisodiyot yetib borayotganligi natijasida iqtisodiy o‘sish sifatida an’anaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlari vaqt o‘tgan sari cheklanib borayotganligi bilan bog‘liqdir.

Endogen iqtisodiy o‘sish nazariyasini yuqori rivojlanish darajasiga olib chiqqan olimlardan biri Uilyam Nordxaus hisoblanadi. Uning “Integrallashgan baholash modelida” (IAM) iqlim o‘zgarishlari bilan iqtisodiy o‘sish modelini bir- biri bilan bog‘ladi. U.Nordxaus ishlab chiqarish fimksiyasi modeliga ikki yangi o‘zgaruvchini kiritdi: tabiiy resurslar va ekologik zarar. Tabiiy resurslar ishlab chiqarish funksiyasi modelida ishchi kuchi, kapital, asosiy fondlar kabi ishlab chiqarish omili sifatida olingan; ekologik zarar birdan kichik bo‘lgan ko‘paytiruvchi bo‘lib u ishlab chiqarish hajmini kamaytiradi. Bu modelda barcha omillar texnologik taraqqiyot natijasida o‘sib borsa ekologik zarar esa birdan kichik bo‘lgan ko‘paytiruvchi hisobiga atmosferani ifloslanish darajasiga qarab kamayib boradi.

Endogen iqtisodiy o‘sish nazariyasi maktablarining quyidagi xulosa va takliflari innovatsion iqtisodiyotga o‘tish sharoitida O‘zbekiston Respublikasi uchun foydali deb hisoblaymiz. Ularga:

– iqtisodiy o‘sishni ta’minlash iqtisodiyotda erkin raqobatni, ishchi kuchi harakatchanligiga, firmalarni bozorga kirish va undan chiqish imkoniyatlariga, o‘z mahsulotlari va texnologiyalarini doimo takomillashtirib, yangi innovatsion tovarlarni taklif etib bozorda o‘z o‘rinlariga ega boiish shart-sharoitlariga bog‘liq. Bu tovar va texnologiyalar keyinchalik butun iqtisodiyotga tarqalib umumiy mehnatunumdorligining o‘sishini rag‘batlantiradi;

– jadallashgan iqtisodiy o‘sishni ta’minlash iqtisodiyotning ochiqligiga, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish hisobiga zamonaviy texnologik tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish imkoniyatlariga bog‘liq. Jahon ta’lim tizimiga va faniga integratsiyalash, rivojlangan g‘arb mamlakatlarining yetakchi mutaxassislarini takror ishlab chiqarish jarayoniga jalb qilish zarur;

– ta’lim tizimida kadrlar tayyorlashni rivojlantirish jarayonida uni bozor ta’lablariga moslash, zamonaviy texnologiyalar va birinchi o‘rinda raqamli iqtisodiyotga kadrlar tayyorlash mehnat unumdorligini o‘sishining zaruriy shartidir;

– iqtisodiy o‘sish atrof-muhitga tabiatga nisbatan hurmatda bo‘lishni talab etadi. Atrof-muhit ifloslanishi nafaqat aholi turmush

darajasini yomonlashuviga olib keladi, balki iqtisodiyot uchun ham og‘ir yuk bo‘ladi;

– iqtisodiyotda samarali faoliyat olib boruvchi bozor institutlarini vujudga keltirish lozim. Iqtisodiyotni rivojlantirish uchun unda samarali faoliyat olib boruvchi, xususiy mulk manfaatlarini himoya qiluvchi bozor institutlarisiz katta miqdorda investitsiyalarni jalb etib bo‘lmaydi. Bunday institutlar raqobatbardosh, qonun ustuvorligini va barqarorligini ta’minlovchi qarama-qarshi tuzilmalarga ega bo‘lgan siyosiy tizim mavjud bo‘lishini talab etadi.

Biroq barcha endogen iqtisodiy o‘sish nazariyasi ta’limoti-modellarini umumlashtirgan holda tahlil etadigan bo‘lsak, bugungi kunda ayni bir modelning iqtisodiyotda to‘liq samara berib qo‘llanilayotganligini kuzatishning iloji yo‘q. Bugungi kunda iqtisodiy o‘sish ta’limotida innovatsion iqtisodiy o‘sish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Innovatsion iqtisodiy o‘sish bozor munosabatlari tizimida tadbirkorlik tashabbuskorligiga, FTT va tashkiliy-iqtisodiy faoliyatga asoslanadi. Bu kuchli raqobatbardosh texnologik platformalar va klasterlar yadrosini shakllantiradigan tizimli innovatsion loyihalarni amalga oshirishga, davlat xarajatlari salmog‘ini kamaytirish va ko‘proq rag‘batlantirishning bilvosita vositalaridan foydalanadigan xususiy investitsiyalarning o‘sishi, cheklangan miqdordagi loyihalarga resurslarni jamlash, risklarni taqsimlash asosida innovatsion sohada xalqaro kooperatsiyani rivojlantirishga qaratilgan.

XXI asrga kelib iqtisodiyotda jiddiy o‘zgarishlar yuz berdi. Mazkur o‘zgarishlar birinchi navbatda, resurslardan foydalanishning tabiat in’om etgan chegaralariga iqtisodiyot yetib borayotganligi natijasida iqtisodiy o‘sish sifatida an’anaviy resurslaridan foydalanish imkoniyatlari vaqt o‘tgani sari cheklanib borayotganligi bilan bog‘liqdir. Yuqorida aytilganlarga bog‘liq tarzda, bundan buyon investitsiya jarayonlari, yangi texnologiyalar va o‘z navbatida yangi tovar va xizmatlar yaratish bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan ilmiy bilimlar tizimi iqtisodiy o‘sish sifatining zamonaviy modelini yaratishning asosiy elementi bo‘ladi.

Agar barcha modellarni umumlashtirgan holda o‘rganadigan bo‘lsak, bugungi kunda ayni bir modelning iqtisodiyotda to‘liq samara berib qo‘llanilayotganligini ko‘rishning iloji yo‘q. Keynschilar bu borada iqtisodiy o‘sish sifatini modellashtirishda asosiy e’tiborni

investitsiya va davlat boshqaruviga qaratsa, neoklassiklar davlat boshqaruvini inkor etgan holda barcha ishlab chiqarish omillarining samaradorlik jihatlarini ustuvor, deb hisoblashadi.

Bugungi kunda jahonda har bir davlat barqaror iqtisodiy o‘sish yo‘lida mamlakatning tabiiy qazilma boyliklari, mehnat resurslarining salohiyati, an’analari, va mentalitetidan, mamlakatning geografik joylashuvidan kelib chiqib, endogen iqtisodiy o‘sish nazariyasi ta’limoti modellarining taklif va tavsiyalaridan foydalanib o‘z iqtisodiy rivojlanish modelini ishlab chiqishi lozim. Bunga misol sifatida Prezidentimiz tashabbusi bilan ishlab chiqilgan «2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini»ni keltirishimiz mumkin.

Harakatlar strategiyasi dasturida endogen iqtisodiy o‘sish nazariyasining qator taklif va tavsiyalari o‘z ifodasini topgan bo‘lib uning maqsadi olib borilayotgan islohotlar samaradorligini tubdan oshirish, davlat va jamiyat har tomonlama jadal rivojlantirish, milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash va erkinlashtirish asosida iqtisodiy o‘sish sifatini oshirish va aholi turmush farovonligini ta’minlash va O‘zbekistonni 2030-yilga kelib jahonning 50 ta ilg‘or mamlakatlari qatoriga olib chiqishdan iboratdir.

5.2. Iqtisodiy o‘sishning endogen nazariyasi

Iqtisodiy o‘sish, uning omillarining hozirgi zamon nazariyasining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri, shunday o‘sishning har qanday turdagi modellarini qo‘llash

hisoblanadi. XX asrning so‘nggi-yillarida iqtisodiy o‘sish ta’limotida neoklassik nazariyalarga nisbatan e’tirozlar kuchayib bordi. Bu jahon mamlakatlarida iqtisodiy rivojlanish darajalarida keskin farqlarni kuchayishi va rivojlanayotgan davlatlarda, davlatning qarzdorlik inqirozini kuchayishi bilan bog‘liq muammolardir. Bu davrda Jahon banki va XVF rivojlanayotgan davlatlarda erkin bozor munosabatlarini shakllantirish, iqtisodiy o‘sish va aholi turmush farovonligini oshirishda investitsiyalar muhim omil sifatida tavsiya etilgan edi.

1980-yillarning o‘rtalariga kelib, iqtisodiy o‘sish sifati nazariyalarining yangi to‘lqini, deb nom olgan jarayonning yuz berishi natijasida iqtisodiyot nazariyasida o‘ziga xos inqilob yuz berdi. Dastlabki nazariyalar diqqat-e’tiborini doimiy o‘sish sifatining ichki

manbalarini aniqlashga yo‘naltirganlari holda uni modelning xulq-atvor o‘lchamlari imkoniyatlariga bog‘lab ko‘rsatishadi. Iqtisodiy o‘sish modelining ichki manbalari nuqtai nazaridan kelib chiqib tasvirlanadi. Iqtisodiy o‘sishning ichki manbalar va omillar nuqtai nazaridan yuzaga chiqishini tushuntiruvchi modellar esa, iqtisodiy o‘sish sifatining endogen nazariyalari nomini oladi.

Endogen iqtisodiy o‘sish sifatining dastlabki modellari asosan o‘z vaqtidan ancha ilgarilab ketgan va o‘sha davrda deyarli ehtiyoj bo‘lmagan, 1960-yillar davomida amalga oshirilgan tadqiqotlar, xususan inson kapitali nazariyasi sohasidagi tadqiqotlar, K. Errou va G. Uzavalarning modellariga asoslangan edi. Yangi to‘lqinning birinchi davri uchun tegishli bo‘lgan eng muhim tadqiqot ishlarining mualliflari P.Romer, R.Lukas va S.Rebelolar hisoblanishadi. Ular tomonidan ishlab chiqilgan modellarda iqtisodiy o‘sish sifati manbalari tashqi samaralar yordamida tasvirlab beriladi. Aynan ushbu modellardan soddalashtirilgan yondashuvdan farqli o‘laroq, endogen o‘sishni talqin qilishda bazaviy modellar sifatida foydalanila boshlandi.

Yangi to‘lqin modellarining keyingi guruhi texnik taraqqiyotning vujudga kelishini tushuntirishga va innovatsiyalarning vujudga kelishi tuzilmasi va ularni amalga oshirishni batafsil o‘rganishga butun e’tiborini qaratadi. Endogen o‘sishning bunday modellar guruhi Research & Development deb atalgan. F.Agion, P. Xauitt,

D. Grossman va E.Xelpman kabi olimlarning asarlarida bayon qilingan modellar o‘ziga xos klassik modellar hisoblanadi.Endogen iqtisodiy o‘sish sifati modellarini izohlashning barcha matematik o‘ziga xosliklariga katta e’tibor qaratmagan holda, ulardan kelib chiquvchi asosiy xulosalarni keltirib o‘tamiz:

- doimiy barqaror iqtisodiy o‘sish sifati, faqatgina ta’lim vositasida jamg‘arilgan inson kapitali asosidagina mavjud bo‘lishi mumkin;
- iqtisodiy o‘sish sifati sur’atlariga innovatsiyalarni yaratish sohasida jamlangan inson kapitalining rivojlanish darajasi to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatadi. Ya’ni, ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik sohasi iqtisodiyotga nafaqat bevosita, balki yangi amaliy ishlanma va g‘oyalar yordamida ham ta’sir ko‘rsatadi;
- bilimlar hosil bo‘lishi va jamg‘arilishini cheklash ertami,

kechmi makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarda aks etadi, bunda ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik sohasida to‘plangan *intellektual* kapital salohiyati qisqaradi;

– FTTning o‘zigina emas, balki bilimlarning shakllanishi va ulardan foydalanish, o‘z navbatida inson salohiyatining rivojlanishiga xizmat qiluvchi, investitsion talabning muhim omili bo‘lib hisoblanadi.

Innovatsion investitsiyalar iqtisodiy o‘sish sifatida ustuvor tendensiyaga egaligi bilan tavsiflanadi va bilimlar ishlab chiqarish sektoriga innovatsion investitsiyalarning ko‘payishi, mehnat tashkil etish va rag‘batlantirish, texnologik asosdagi innovatsiyalar, ishlab chiqarish omillarining sifat jihatdan takomillashuvi hisobiga makroiqtisodiy indikatorlar (YaIM, MD hajmlarining va aholi jon boshiga YaIM (MD) ning o‘sishi) miqdoriy ko‘rsatkichlarining ortishi bilan aniqlanadi. Innovatsion investitsiyalar iqtisodiy o‘sish samaradorlik va raqobatbardoshlik omillari hisobiga innovatsion investitsion talabning ustuvorliklari va yo‘nalishlarini o‘zgartirish asosida innovatsion jamg‘arilishni kengaytirish yo‘li bilan ta’min etiladi.

Innovatsion investitsiyalarning iqtisodiy o‘sish sifatiga ta’siri mamlakat YaIMning o‘sishi va uning tarkibini takomillashishi, foydalanilayotgan ishlab chiqarish omillarining sifat jihatdan yangilanishi, texnika-texnologiyaning mukammallashuvi inson va inteliektual kapital mavqeyining ortishi evaziga sodir bo‘ladi. Ustun omillar innovatsiyalar, investitsiyalar, rag‘batlantirish, bilim va ko‘nikma rivojlanish institutlari. Texnologik bazisga ega yangiliklardan keng foydalanish ishlab chiqarish va iqtisodiy faoliyatni tashkil etishni rag‘batlantirish, ichki xo‘jalik tizimida innovatsion investitsiyalar faoliyatiga undovchi institutsional va raqobat muhitining amalda mavjudligini belgilab beradi.

Innovatsion investitsion talab o‘zida sifat jihatdan kun sayin o‘zgarib borayotgan hozirgi sharoitda biznesning takror ishlab chiqarish va kapital (jumladan insoniy va inteliektual kapital) jamg‘arilishi uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratishga tayyorligi va unga bo‘lgan layoqat va ehtiyojlarga asoslanuvchi, samarali talabning muhim tashkil etuvchisini ifoda etadi. Innovatsion-investitsion talab yuqorida tilga olib o‘tilgan bilvosita omillar bilan birgalikda iqtisodiy o‘sish sifatining bazaviy omillariga, birinchi navbatda esa kapitalga

ta’sir ko‘rsatadi.

Innovatsion investitsiya - bu takror ishlab chiqarish va umuman iqtisodiy o‘sishning moliyaviy manbayi, ishlab chiqaruvchi kuchlar va iqtisodiy munosabatlar tizimi rivojlanishini belgilovchi omildir. Innovatsion investitsiya fan va texnika taraqqiyoti, yutuqlarini amaliyotga joriy qilishni va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonini ta’minlaydi. U iqtisodiy o‘sish sifatini va aholi turmush farovonligini to‘xtovsiz oshirib borishning ham zaruriy sharti hisoblanadi.

Biroq investitsiyalarni o‘sishi rivojlanayotgan davlatlarda kutilgan darajada iqtisodiy o‘sish va aholi turmush farovonligiga olib kelmadi. Jahon banki va XVF ko‘rsatmalariga ko‘ra ichki va tashqi bozorni erkinlashtirish ham rivojlanayotgan mamlakatlarda kutilgan darajada xorijiy investitsiyalarni jalb etish imkonini bermadi. Ushbu muammolarni yechimini endogen o‘sish nazariyasi maktabi tushuntirishga harakat qildi. Endogen o‘sish uzoq muddatli davrda texnologik taraqqiyot iqtisodiy o‘sishning yagona sababi hisoblanmaydi. Unda iqtisodiy o‘sish sifati darajasi quyidagi omillarga bog‘liq:

- inson kapitalining sifati, insonni rivojlantirishga (ta’lim, sog‘liqni saqlash va hokazolarga) investitsiyalar;
- mukammal bo‘lmagan raqobat sharoitlarida intellektual mulk huquqini himoya qilish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish;
- fan va texnologiyalarni rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab- quvvatlash;
- qulay investitsiya muhitini yaratish va yangi texnologiyalarni o‘zlashtirish.

Iqtisodiy o‘sishning sur’atlari yangi bilimlarni egallash sohasida markazlashgan inson kapitali miqdoriga bevosita bog‘liqdir. Amalda bu ilmiy tadqiqotlar sohasi iqtisodiyotga birgina amaliy g‘oyalar va ishlanmalar bilangina ta’sir ko‘rsatmasligini anglatadi. Ushbu nazariyaga muvofiq, jamg‘arilgan inson kapitali hajmi katta bo‘lgan mamlakatlar iqtisodiy o‘sishda yuqoriroq sur’atlarga erishadilar. Demak, erkin xalqaro savdoning rivojlantirilishi ham o‘sish sur’atlarini oshirishga yordam beradi, chunki mahsulotlar bilan ayirboshlash iqtisodiy tizim chegaralarini kengaytiradi va shu tariqa inson kapitali jamlanmasi ko‘payishiga xizmat qiladi.

Inson kapitalini jamg‘arish muayyan resurslarni talab etadigan hamda muqobil chiqimlarga sabab bo‘lgan faol iqtisodiy jarayondir.

Endogen o‘sish nazariyasiga ko‘ra bilimlarni jamg‘arilishi, ishlab chiqarish xarajatlarini kamayishi, yangiliklar va innovatsiyalar iqtisodiy o‘sish sifatining muhim omillari hisoblanadi. Bugungi kunda bozor iqtisodiyoti rivojlanishining asosiy xususiyati iqtisodiyotda ekstensiv o‘sishning barcha imkoniyatlari va zaxiralaridan foydalanib bo‘lindi.

Bugungi globalizatsiya davrida bozor iqtisodiyoti rivojlanishining asosiy yo‘nalishi yuqori mehnat sifati va FTTda kapital tejamkor texnologiyalarga va ekologik cheklovlarga asoslanib iqtisodiy o‘sishda yakuniy sifat natijalariga erishish hisoblanadi. XXI asrga kelib iqtisodiyotda jiddiy o‘zgarishlar yuz berdi. Mazkur o‘zgarishlar birinchi navbatda, resurslardan foydalanishning tabiat in’om etgan chegaralariga iqtisodiyot yetib borayotganligi natijasida iqtisodiy o‘sish sifatida an’anaviy resurslaridan foydalanish imkoniyatlari vaqt o‘tgani sari cheklanib borayotganligi bilan bog‘liqdir.

Endogen iqtisodiy o‘sish nazariyasini yuqori rivojlanish darajasiga olib chiqqan olimlardan biri Uilyam Nordxaus hisoblanadi. Uning “Integrallashgan baholash modelida” (IAM) iqlim o‘zgarishlari bilan iqtisodiy o‘sish modelini bir- biri bilan bog‘ladi. U.Nordxaus ishlab chiqarish funksiyasi modeliga ikki yangi o‘zgaruvchini kiritdi: tabiiy resurslar va ekologik zarar. Tabiiy resurslar ishlab chiqarish funksiyasi modelida ishchi kuchi, kapital, asosiy fondlar kabi ishlab chiqarish omili sifatida olingan; ekologik zarar birdan kichik bo‘lgan ko‘paytiruvchi bo‘lib u ishlab chiqarish hajmini kamaytiradi. Bu modelda barcha omillar texnologik taraqqiyot natijasida o‘sib borsa ekologik zarar esa birdan kichik bo‘lgan ko‘paytiruvchi hisobiga atmosferani ifloslanish darajasiga qarab kamayib boradi.

Endogen iqtisodiy o‘sish nazariyasi maktablarining quyidagi xulosa va takliflari innovatsion iqtisodiyotga o‘tish sharoitida O‘zbekiston Respublikasi uchun foydali deb hisoblaymiz. Ularga:

– iqtisodiy o‘sishni ta’minlash iqtisodiyotda erkin raqobatni, ishchi kuchi harakatchanligiga, firmalarni bozorga kirish va undan chiqish imkoniyatlariga, o‘z mahsulotlari va texnologiyalarini doimo takomillashtirib, yangi innovatsion tovarlarni taklif etib bozorda o‘z o‘rinlariga ega bo‘lish shart-sharoitlariga bog‘liq. Bu tovar va texnologiyalar keyinchalik butun iqtisodiyotga tarqalib umumiy

mehnatunumdorligini o‘sishini rag‘batlantiradi;

– jadallashgan iqtisodiy o‘sishni ta’minlash iqtisodiyotning ochiqligiga, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish hisobiga zamonaviy texnologik tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish imkoniyatlariga bog‘liq. Jahon ta’lim tizimiga va fanini integratsiyalash, rivojlangan g‘arb mamlakatlarining yetakchi mutaxassislarini takror ishlab chiqarish jarayoniga jalb qilish zarur;

– ta’lim tizimida kadrlar tayyorlashni rivojlantirish jarayonida uni bozor talablariga moslash, zamonaviy texnologiyalar va birinchi o‘rinda raqamli iqtisodiyotga kadrlar tayyorlash - mehnat unumdorligi o‘sishining zaruriy shartidir;

– iqtisodiy o‘sish atrof-muhitga tabiatga nisbatan hurmatda bo‘lishni talab etadi. Atrof-muhitni ifloslanishi nafaqat aholi turmush darajasini yomonlashuviga olib keladi, balki iqtisodiyot uchun ham og‘ir yuk bo‘ladi;

– iqtisodiyotda samarali faoliyat olib boruvchi bozor institutlarini vujudga keltirish lozim. Iqtisodiyotni rivojlantirish uchun unda samarali faoliyat olib boruvchi, xususiy mulk manfaatlarini himoya qiluvchi bozor institutlarisiz katta miqdorda investitsiyalarni jalb etib bo‘lmaydi. Bunday institutlar raqobatbardosh, qonun ustuvorligini va barqarorligini ta’minlovchi qarama-qarshi tuzilmalarga ega bo‘lgan siyosiy tizim mavjud bo‘lishini talab etadi.

Biroq barcha endogen iqtisodiy o‘sish nazariyasi ta’limoti-modellarini umumlashtirgan holda tahlil etadigan bo‘lsak, bugungi kunda ayni bir modelning iqtisodiyotda to‘liq samara berib qo‘llanilayotganligini kuzatishning iloji yo‘q. Bugungi kunda jahonda har bir davlat barqaror iqtisodiy o‘sish yo‘lida mamlakatning tabiiy qazilma boyliklari, mehnat resurslarining salohiyati, an’analari, va mentalitetidan, mamlakatning geografik joylashuvidan kelib chiqib, endogen iqtisodiy o‘sish nazariyasi ta’limoti modellarining taklif va tavsiyalaridan foydalanib o‘z iqtisodiy rivojlanish modelini ishlab chiqishi lozim. Bunga misol sifatida Prezidentimiz tashabbusi bilan ishlab chiqilgan «2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini»ni keltirishimiz mumkin.

5.3. Endogen o‘sish omili sifatida innovatsiyalarning turlari va ularningendogen xususiyatlari

Iqtisodiyotni innovatsion taraqqiyot yo‘liga o‘tkazish muammosi - iqtisodchi olimlarning diqqat markazida turgan asosiy muammolardan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi uchun rivojlangan davlatlarining iqtisodiy taraqqiyot va aholi turmush farovonligi darajasiga erishishning birdan bir yagona yo‘li innovatsion yo‘naltirilgan iqtisodiy tizimga o‘tish hisoblanadi. Bu innovatsiya kategoriyasini ko‘rib chiqishni dolzarbligini yanada oshiradi.

Innovatsiya termini inglizcha “innovation” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, so‘zma-so‘z taijima qilganda “yangiliklarni joriy etish” ma’nosini anglatadi.

Innovatsiyani yangi ilmiy-texnikaviy, tashkiliy-iqtisodiy, ishlab chiqarish yoki boshqa yechim va qarorlarni amaliyotda birinchi bo‘lib, joriy etish sifatida ta’riflash mumkin. Agar so‘z faqat, texnologik innovatsiya haqida borsa, u holda uni, ishlab chiqarishda yoki xizmat ko‘rsatish jarayonida yoxud bozorda sotish uchun mo‘ljallangan mahsulotda yangi texnik yechimning qo‘llanilishi sifatida tavsiflash mumkin. Innovatsiya - bu oldingilarga nisbatan birmuncha past xarajatlar va yuqori sifat bilan tavsiflanuvchi mahsulotni yaratish maqsadida sarf-xarajatlarning ishlab chiqarishga transformatsiyalanish jarayonidir. Innovatsiyalarni ta’riflashda ikki xil yondashuvni ajratib ko‘rsatish mumkin:

- jarayonli (takror ishlab chiqarish) yondashuv. innovatsion g‘oyalarni amalga oshirish yoki ularni tayyor natijaga aylantirish jarayoni sifatida.
- obyektli yondashuv. innovatsiyani biror-bir obyektga joriy etilgan, yakuniy natija sifatida tasavvur qilinadi.

Innovatsiyaga berilgan ta’rifda innovatsiyalarni yaratuvchi emas, balki innovatsiyalarni o‘z faoliyatida qo‘llovchi korxonalar nuqtayi nazaridan ifoda etilgan. Mazkur ta’rif innovatsiyalarni tarqatish jarayonlarini aks ettiradi, chunki innovatsiyalar nafaqat ularni yaratishni, balki ularni amalda qo‘llashni ham ko‘zda tutadi. Innovatsion korxonalar nimani yaratsalar, ular bozorga joriy etilguniga qadar yangilik bo‘lib qolaveradi. Aynan tarqatish bosqichida yangiliklar innovatsiyalarga aylanadi.

Innovatsiyadan farqli o‘laroq, takomillashtirish — bu tizimning ichida amalga oshadigan va tizim amalda bo‘lishining o‘zgarishiga

sezilarli ta’sir ko‘rsatmaydigan siljishdir. Takomillashtirish tizimning me’yorida amalda bo‘lishiga ta’sir ko‘rsatmaydi, u obyekt rivojlanish dinamikasiga nisbatan sust ta’sir ko‘rsatishi bilan tavsiflanadi. Innovatsiya esa ko‘p funksional tavsifga ega bo‘lib, eski qoidalarni parchalaydi, yangi “sifat” sakrashlarini yaratadi, obyektni tizimdan tashqari chiqib ish ko‘rishga majbur etadi. Tijoriylashtirish bosqichining mavjudligi innovatsiyani yanglikdan farqlab turadi. Shunga bog‘liq tarzda joriy etish bosqichi yetarlicha uzoq bo‘lib, ko‘pincha bir necha yillarni o‘z ichiga oladi, yangilikni joriy etishni ishlab chiqish jarayoni yanglikni yaratish jarayoniga nisbatan birmuncha qimmat turadi.

Yangiliklarni joriy etish bilan bog‘liq muammolarni tadqiq qilgan iqtisodchi olimlar o‘rtasida nemis olimi Gerxard Mensh alohida o‘rin tutadi. U iqtisodiy o‘sish sur’atlari va davriylikni bazisli yangiliklarning paydo bo‘lishi bilan bog‘lashga harakat qiladi hamda aynan turg‘unlik fazasida innovatsiyalarni yaratish va joriy etish uchun rag‘batlantiruvchi omillar vujudga keladi, deb hisoblaydi. G.Menshningfikriga ko‘ra, texnologik pasayish holati qachonki bazisli yangiliklar o‘z imkoniyatlarini to‘laligicha sarflab bo‘lgan paytda vujudga keladi va bu esa iqtisodiy rivojlanishdagi turg‘unlik holatini belgilab beradi. Sanoat rivojlanishi o‘z mohiyatiga ko‘ra bir texnologik holatdan ikkinchi bir holatga o‘tishini anglatadi.

G.Mensh bazisli, takomillashtiruvchi va psevdoinnovatsiyalarni ajratgan holda innovatsiyalarni tasniflashni taklif etadi. Bazisli yangiliklar texnologik yangi tarmoq va bozorlarni vujudga keltiruvchi hamda notexnologik madaniy, ijtimoiy xizmatlar va boshqaruv sohasidagi o‘zgarishlarga javob beruvchi turlarga bo‘linadi. SHunga bog‘liq ravishda innovatsiyalarning har bir turi ma’lum mehnat va kapital xarajatlarini talab etadi, yangiliklar o‘rtasida resurslar uchun raqobat kurashi vujudga keladi.

Bazisli innovatsiyalar - bu yangi ilmiy tamoyillarga asoslangan ilgari ma’lum bo‘lmagan yangi mahsulot va jarayonlarga yo‘l ochib beruvchi yirik ixtirolar bazasida vujudga kelgan innovatsiyalardir. Misol tariqasida bug‘ mashinasi, elektr toki, atom energetikasi, kserografiya, vakuum trubkasi, tranzistorlar va shu kabilarni keltirib o‘tishimiz mumkin. Bazisli innovatsiyalar katta investitsiyalarni talab etadi, ularni ishlab chiqish jarayonlari uzoq muddatli hisoblanib, ularning tijoriylashishi, ya’ni bozorlarga kirib borishi yangi texnologik

ukladlarning paydo bo‘lishiga olib keladi.

Takomillashtiruvchi innovatsiyalar - bu kichik, ammo mahsulot, servis va jarayonlarning muhim bo‘lgan takomillashuvidir. Misol uchun, telefonning komponenti (qismi)ga aylangunga qadar, vacuum trubkasini ixtiro qilish vakuum yaratish bo‘yicha ishlarni takomillashtirishni talab etgan.

Psevdoinnovatsiyalar - bu mahsulot yoki jarayonlarning iste’mol tavsiflarini o‘zgartirmagan holda, ularning tashqi ko‘rinishlarini o‘zgartirishdir.

Bazisli innovatsiyalardan takomillashtiruvchi innovatsiyalarga va so‘ngra psevdoinnovatsiyalarga o‘tish jarayoni bir texnologik bosqichdan boshqasi tomon harakatlanish hisoblanadi. G.Menshning fikricha, yangi bazisli yangiliklarni yaratishga maksimal darajadagi tayyorgarlikka turg‘unlik davrida erishiladi. Bazisli innovatsiyalarni yaratish uchun strategik jihatdan fikr yuritish, uzoq muddatli rejalashtirishni amalga oshirish lozim, zero, uzoq muddatli davrda katta qo‘yilmalarni amalga oshirishni talab etuvchi bazisli innovatsiyalarga qisqa muddatli davrda daromad olish ishtiyoqi o‘zaro mos kelmaydi. G.Menshning fikricha, bozorning kamchiliklari bazisli yangiliklar oqimidagi tanaffuslarning sababchisi hisoblanadi. Bunday kamchiliklar sirasiga G.Mensh birinchi navbatda bozorning “eski” tarmoqlardan “yangi” tarmoqlarga resurslar oqimini qayta yo‘naltira olmasligini, yangiliklarga sarf-xarajatlarda firmalarning tejashlarini rag‘batlantira olmasligini kiritadi.

Innovatsiyalarni belgilariga ko‘ra, turli xil tasniflash mumkin. Tasniflashlarning asosiy mezonlari sifatida yangilik darajasi, takror ishlab chiqarish jarayonidagi o‘rni, tub burilish darajasi, qo‘llanilish sohasi, innovatsion jarayonlar samaradorligiga ta’sir darajasi, mazmuni, foydalanish tavsifi, ko‘lamliligi, tartibga solish va boshqarish holati, ijtimoiy maqsadlar tavsifi, paydo bo‘lishga undovchi omil va shu kabilardan foydalaniladi.

Predmetiga ko‘ra innovatsiyalar: innovatsion-mahsulot (mutlaqo yangi yoki takomillashgan ko‘rinishdagi tayyor buyum yoki mahsulot bo‘lib yetarlicha katta investitsiyalarni talab etadi); innovatsion - jarayon (texnik, ishlab chiqarish yoki boshqaruv jihatdan takomillashtirish); innovatsion-servis (korxonadan tashqarida mahsulotlardan foydalanishga xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq holda, masalan, kompyuterlarning dasturiy ta’minoti)ga bo‘linadi.

Innovatsion-jarayon va innovatsion-mahsulotlar o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, ular bir-birlariga o‘tib borishlari ham mumkin. Masalan, agar biror bir asbob-uskuna ishlab chiqilsa va undan tovarlar ishlab chiqarishda foydalanish nazarda tutilsa, bu-innovatsion jarayon, agar maqsad sotish bo‘lsa, bu-innovatsion mahsulot hisoblanadi. Joriy etish samaradorligiga ko‘ra innovatsiyalar quyidagicha tasniflanadi: tovarning iste’mol xususiyatlarini yaxshilovchi, resurslar tejalishiga imkon yaratuvchi va ekologik samara keltiruvchi innovatsiyalar.

Ma’muriy resurslardan foydalanish bilan bog‘liq ravishda innovatsiyalarning alohida tipi sifatida biznes-innovatsiyalarni ajratib ko‘rsatish mumkin. Biznes - innovatsiyalar - bu korxona va tashkilotlar tizimining institutsional asoslarini chetlab o‘tgan holda, o‘z faoliyatlarini amalga oshirish uchun qulay shart-sharoit yaratishga bo‘lgan harakat va intilishlaridir. Bunda korxona va tashkilotlar sherik hamkorlar izlab topish, shartnoma-kontraktlar tuzish, ularning ijrosi bilan bog‘liq bo‘lgan transaksion xarajatlarini qisqartirishga intilishlari va yoki o‘z raqobatchilarining transaksion xarajatlarini oshirishga harakat qilishlari mumkin.

Jamiyat hayotida sezilarli o‘zgarishlarga olib kelgan ijtimoiy innovatsiyalarga oid bir qator misollar keltirib o‘tish mumkin. Mehnat xavfsizligi va gigiyenasi sohasida innovatsion faoliyat bugungi kunda favqulodda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu o‘rinda innovatsiyalar natijalari bo‘yicha quyidagi quyi guruhlarni ajratish mumkin: kasb kasalliklari va ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar sonining keskin kamayishi, mehnat xavfsizligi va gigiyenasi sharoitlarining yaxshilanishi, sog‘liq uchun zararli bo‘lgan va og‘ir ishlarning istisno etilishida namoyon bo‘luvchi ijtimoiy natijalar; mahsulot ishlab chiqarishning o‘sishi, foydaning oshishi, mehnat unumdorligining ko‘payishida aks etuvchi iqtisodiy natijalar; ishlab chiqarishda to‘xtab qolishlar sonining qisqarishi, texnologik jarayonlarning kechishi va mehnatni tashkil etish ishlarining takomillashuvi, asbob-uskuna, buyumlarning texnik o‘lchamlarining yaxshilanishi ko‘rinishidagi texnik natijalar.

Tashkiliy tuzilmadagi yangilanishlar ko‘proq mavjud tuzilmalarning yangi kombinatsiyalaridan iborat bo‘ladi. Shunday qilib, kim avvalroq mavjud tuzilmalarning yangi kombinatsiyalarini ixtiro qila olsa, o‘sha iqtisodiy tanazzul paytida ko‘proq yashab qolish imkoniyatiga ega bo‘ladi deb ta’kidlaydi. Innovatsiyalarning muhim

yana bir jihati - ularga xos bo‘lgan dolzarb mavzular, tirik mavjudotni, atrof-muhitni muhofaza qilish, tibbiyot, axborot texnologiyalari sohasidagi ishlanmalarni, multimediyali ta’lim mahsulotlarini, energiya tejovchi va muqobil energiya manbalarini olish texnologiyalarini kiritishimiz mumkin.

XXI asrga kelib iqtisodiyotda jiddiy o‘zgarishlar yuz berdi. Mazkur o‘zgarishlar birinchi navbatda, resurslardan foydalanishning tabiat in’om etgan chegaralariga iqtisodiyot yetib borayotganligi natijasida iqtisodiy o‘sish sifatida an’anaviy resurslaridan foydalanish imkoniyatlari vaqt o‘tgan sari cheklanib borayotganligi bilan bog‘liqdir. Yuqorida aytilganlarga bog‘liq tarzda, bundan buyon innovatsion-investitsiya jarayonlari, yangi texnologiyalar va o‘z navbatida yangi tovar va xizmatlar yaratish bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan ilmiy bilimlar tizimi iqtisodiy o‘sish sifatining zamonaviy modelini yaratishning asosiy elementi bo‘ladi. Shundan kelib chiqib, nafaqat innovatsiyalarga, balki iqtisodiy o‘sish omillari sifatida innovatsiyalar va investitsiyalarning o‘zaro bog‘liqligiga ham qiziqish ortib bormoqda.

Patent huquqining rivojlanishi, tijorat siri to‘g‘risidagi qonun va boshqa normativ aktlarning qabul qilinishi evaziga rag‘batlantiruvchi omillarning kuchayishi inovatsion-investitsiyalarning foydaliligini oshishiga olib keldi. Ixtirolarning sanoatlashuvi va zamonaviy g‘arb dunyosining iqtisodiy rivojlanishi jarayonlariga innovatsion-investitsiyalarning integratsiyalashuvi sodir bo‘ldi, bu esao‘z navbatida ikkinchi sanoat inqilobining amalga oshishiga turtki bo‘ldi.

AQSH, Yaponiya, Germaniya va Fransiya kabi davlatlarda innovatsion- investitsiyalar faolligi bilan ularning iqtisodiy o‘sish sifati o‘rtasida to‘g‘ridan- to‘g‘ri bog‘liqlik mavjudligi hamda sanab o‘tilgan mamlakatlarning deyarli barchasida iqtisodiy o‘sish sifatining intensiv tavsifga egaligi va uning asosi bo‘lib ishlab chiqarish omillarining yangi kombinatsiyalari, yangi mahsulotlar, yangi bozorlar, yangi texnologiyalar kabi innovatsion-investitsiyalar hisoblanadi.

Innovatsiyalarni moliyalashtirishda bankining o‘rni katta, chunki yangilik yaratuvchiga o‘z maqsadlariga erishish uchun unga moliyalashtirish suv va havodek zarur. Shunga bog‘liq tarzda, kredit mablag‘larini taqdim etishi mumkin bo‘lgan bankir, yangilik yaratuvchi shaxsning faoliyat ko‘rsata olishi, bir so‘z bilan aytganda,

uning keyingi faoliyati ko‘p jihatdan unga bog‘liq bo‘lib qolgan shaxs hisoblanadi. Bankir kredit taqdim eta turib, butun jamiyat nomidan yangi kombinatsiyalarning amalga oshirilishiga ijozat beradi. Iqtisodiy yuksalish birinchi navbatda asosiy vositalarini ishlab chiqarishda kuzatiladi, yangi korxonalarga ko‘proq sarmoya kiritilishi va bu yerdan chiquvchi impulslarning xomashyo, mehnat, asbob-uskunalar bozorlari va boshqalar orqali tarqalishi esa yuksalishning asosiy sabablaridan biri hisoblanadi.

Takror ishlab chiqarish nuqtayi nazaridan innovatsiyalarni o‘rganish alohida e’tiborga loyiqdir. Innovatsiyalar energiya va resurs tejovchi texnologiyalarni joriy etilishiga olib keladi, buning natijasida esa takror ishlab chiqarish jarayoni uchun zarur bo‘lgan vosita va mablag‘lar hajmi qisqaradi. Innovatsiyalarga qo‘shilgan qiymatning o‘sish manbai sifatida intellektual mehnatning yuqori ulushiga ega bo‘lgan yuqori texnologiyali tovar va xizmatlar ishlab chiqarish bilan tavsiflanadi, bunda esa, yuqori iste’mol qiymatiga ega bo‘lgan sifati yaxshilangan mahsulotning bozorlarda sotilishi o‘z navbatida foydaning o‘sishiga zamin yaratadi.

Iqtisodiy institutlar iqtisodiy o‘sish sifati uchun ahamiyatlidir, chunki ular jamiyatda asosiy iqtisodiy subyektlarning xulq-atvorlarini shakllantiradi, xususan, ular ishlab chiqarishga, inson kapitaliga va texnologiyalarga investitsiyalarga, shuningdek, ishlab chiqarishni tashkillashtirishga ham o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Iqtisodiy institutlar orasidagi farqlanishlar iqtisodiy o‘sish sifati va farovonlikni ta’minlashdagi mamlakatlar o‘rtasidagi tafovutlarning asosiy manbai hisoblanadi.

Innovatsiya iqtisodiy kategoriya sifatida ishlab chiqarish subyektlarida texnologik, ijtimoiy-ekologik va boshqa xususiyatlarning umumlashgan holatdagi o‘zgarishlarini ifoda etsa, innovatsion investitsiyalashtirish o‘zida faqat ishlab chiqarish va ijtimoiy xizmatlarni tashkil etish jarayonida bo‘layotgan yangi sifat o‘zgarishlarini ifoda etadi. Innovatsiya-yangiliklarni ishlab chiqarishga joriy etish, resurslardan samarali foydalanishga asoslangan iqtisodiy o‘sishdir. Uning yetakchi omili fan va texnika taraqqiyotining so‘ngi talablariga javob beradigan dastgoh, yangi texnologiyalar bilan ishlab chiqarishni qayta jihozlash yoki ishlab chiqarish maydonini kengaytirish hisobiga emas, balki unda qo‘llaniladigan resurslarning sifatini oshirish orqali erishilmoqda.

Chunki, innovatsiya natijalari ilm-fan va texnika sohasida iqtisodiyot yangiliklarining nazariy kashf etilishi va amaliyotda qo‘llanilishi natijasida samarali rivojlanishi mumkin.

Innovatsion faoliyat (yangiliklarni joriy etish) ishlab chiqarish yangi texnologiyalari negizida raqobatbardosh mahsulot (tovar) turlarini yaratish jarayoni. Bu jarayon g‘oyaning paydo bo‘lishi, uning maqsadini aniqlash va amalga oshirishdan to ishlab chiqarishni tashkil etish, mahsulot ishlab chiqarish, uni sotish va iqtisodiy samara olishgacha bo‘lgan ishlarni o‘z ichiga oladi. Innovatsiya kategoriyasi bo‘yicha quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

– innovatsion faoliyat innovatsiya, innovatsion jarayonga nisbatan keng ma’noga ega bo‘lib, ilm-fan va texnika yangiliklarini ishlab chiqarishga tatbiq etilishini ifoda etadi. Innovatsion faoliyat innovatsiya va innovatsion jarayonni to‘liqqamrab oladi;

– innovatsiya ishlab chiqarish jarayonini takomillashtirish uchun yo‘naltirilgan investitsiya mablag‘larining asosiy qismi bo‘lib, ishlab chiqarish subyektlarining asosiy ishlab chiqarish mablag‘larida mujassamlashadi;

– innovatsiya ishlab chiqarishning ichki subyektlari o‘rtasidagi munosabatlarning takomillashib borishiga ta’sir etadi. U ishchi o‘rinlarini ko‘paytirish, ishlab chiqarish xodimlarini mehnat qilish sharoitlarini yaxshilash, ularni har tomonlama yetuk xodim sifatida faoliyat olib borishlari uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy infratuzilmaning takomillashib borishida ifodalanadi;

– innovatsiya ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning mikro va makroiqtisodiy darajada jadallashishini ta’minlovchi yetakchi omil hisoblanadi;

– innovatsiya kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq bo‘lgan ishlab chiqarish tarkibiy tuzilishining takomillashuviga ta’sir etishi asosida mikro va makroiqtisodiy barqarorlikni va foyda miqdorini oshib borishini ta’minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, innovatsiya ishlab chiqarish jarayonida band bo‘lgan, ma’naviy va jismoniy eskirgan asosiy ishlab chiqarish vositalari, texnika va texnologiyalarni yangilashni, ilm-fan va texnika yutuqlariga asoslangan holda amalga oshirishni ta’minlaydi. Uning natijalari innovatsion jarayon orqali yaratilgan innovatsiyalarni ishlab chiqarish jarayonida qo‘llash asosida yangi qiymatga, sifatga ega

bo‘lgan mahsulotlarda ifodalanadi. Innovatsiyalar asosan yangi mahsulotlarga, ishlab chiqarish texnikalariga yoki ishlab chiqarish texnologiyalariga qo‘shiladi, iste’mol mahsulotlari sifatida ko‘rinishi innovatsion jarayonning asosiy omili hisoblanadi.

5.4. Iqtisodiy o‘sishda “Texnologik turtki” gipotezasi va texnologik ukladlar

Texnologik ukladlarning ketma-ket almashinuvi asosida bazisli innovatsiyalar yotadi. Ma’lum bir paytda texnologiyalarning jamlanmasi ijtimoiy ishlab chiqarishning umumlashtiruvchi siklini ifoda etuvchi texnologik ukladlar orqali ifodalanishi mumkin. Ularning har biri mazkur texnologik ukladda bazisli texnologiyalarning amalda bo‘lishining o‘ziga xos jihatlarini aks ettiradi. Iqtisodiyot fanida ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan asoslab berilgan beshta asosiy texnologik uklad, hamda endi shakllanayotgan istiqbolli oltinchi uklad farqlanadi.

5.1-jadval.

Texnologik ukladlarning almashinishi[5]

1-uklad	Mexanik tizimlar
2-uklad	Bug‘dan foydalanishga asoslangan texnologiyalar
3-uklad	Elektr tokidan foydalanishga asoslangan texnologiyalar
4-uklad	Avtomatlashtirish va kimyolashtirishga asoslangan texnologiyalar
5-uklad	Biotexnologiya, kompyuterlashtirish, elektronika
6-uklad	Nanotexnologiya, gen injeneriyasi, multimediali interfaol axborot tizimlari

Bugungi kunda dunyoda ustuvor bo‘lgan texnologik uklad o‘tgan asming 50- 60-yillarida yaxlit takror ishlab chiqarish tizimi sifatida shakllana boshlagan va 70- yillardagi tarkibiy inqirozdan keyingi davrda rivojlangan davlatlarda iqtisodiy o‘sishning texnologik bazasini tashkil etganligi iqtisodchi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida o‘z ifodasini topdi. Mikroelektronika, dasturiy ta’minot, kompyuter texnologiyalari va axborotni qayta ishlash, ishlab chiqarish va

[5] M.A.Mamatov. Iqtisodiy o‘sish. O‘quv qollanma. - T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2021- 384 b.

boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirish, kosmik va optik tolali aloqa sohasida erishilgan yutuqlar beshinchi texnologik ukladning asosiy tashkil etuvchilari hisoblanadi.

XXI asming ikkinchi o‘n-yilligiga qadar mazkur texnologik ukladning ijobiy iqtisodiy ta’siri saqlanib turdi. Undan so‘ng esa gen injeneriyasi sun’iy aql tizimlari, global axborot tarmoqlari, yuqori tezlikda ishlovchi integratsiyalashgan va tejamkor transport tizimlari kabi tarkibiy qismlar bilan ajralib turadigan yangi texnologik ukladning boshlanishi bashorat qilinmoqda.

Jamiyat taraqqiyotini boshqarishning asosiy vazifasi yangi texnologik ukladning texnologiyalarini takror ishlab chiqarishni kengaytirish uchun tegishli shart-sharoitlar yaratib berishdan iboratdir. Texnologik ukladning rivojlanishi pirovardida uning samaradorligini ta’min etuvchi tizimning ichki muvozanati bilan tavsiflanishi lozim. “Muvozanat holati” o‘zaro aloqada va o‘zaro ta’sirlashuvda bo‘lgan texnologiyalarning barcha jihatlari va qirralarini shuningdek, yangi xodim va ijtimoiy mehnatni yangidan tashkillashtirishni ham o‘z ichiga qamrab olishi lozim. Shu sababli asosini yangi texnologiyalar tashkil etuvchi yaxlit tashkiliy- iqtisodiy tuzilmalarni qarab chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Rivojlanishini texnologiyalar S - ko‘rinishli mantiqiy bog‘liqlikdagi harakatlanishda bo‘ladi degan tasavvurda tadqiq qilish imkonini beradi. Mazkur qonuniyatni tahlil qilar ekanmiz bunda o‘zaro bog‘liq bo‘lgan ikki asosiy: S - shakldagi mantiqiy egri chiziq va “texnologik uzilish (chegara)” tushunchalariga e’tibor qaratishimiz talab etiladi. S - shakldagi mantiqiy egri chiziq yordamida texnologiyalarning almashinish va diffuziya jarayonlari ifoda ettirilishi mumkin. Biror bir asosiy ko‘rsatkich yoxud integral kompleks ko‘rsatkich asosida baholanuvchi texnologiyaning mantiqiy egri chiziq bo‘ylab harakatlanishi texnologiya samaradorligining bosqichma-bosqich oshib borishini ko‘rsatadi.

Yuqori samaradorlik va yuqori iste’mol xususiyatlariga ega mahsulotlar mantiqiy egri chizig‘ining biridan ikkinchisiga o‘tishi, bir texnologiya avlodining ikkinchi avlod texnologiyasiga o‘tishini ham anglatadi. Bunda yangi avlod texnologiyalari o‘zlarining yuqori ko‘rsatkichlari bilan ajralib turadi. Rivojlanishni texnologiyalarning mantiqiy egri chiziq bo‘ylab harakatlanishi orqali tasavvur etish bizga quyidagi qarama-qarshilikni hal qilishga imkon

beradi. Bir tomondan, rivojlanish kumulyativ jarayon hisoblansa (bugungi kunda erishilgan har bir natija kelgusidagi katta muvvafaqiyatlarning asosi hisoblanadi), boshqa bir tomondan esa, texnologiyalarning vaqt bo‘yicha rivojlanishi o‘zining ichki mantig‘iga ega ekanligibilan ajralib turadi.

Texnologiyalar taraqqiyotining S-shaklli egri chiziq bo‘ylab harakatlanishi obyektning ichki mantig‘iga bog‘liq holda, hozirgi avlod texnologiyasining modernizatsiyalanishini ifoda etadi. Innovatsiyalarning kumulyativ tavsifga egaekanligi to‘plangan tajriba va bilimlardan kelib chiquvchi yangi avlod texnologiyalarining, ya’ni yangi egri chiziqlarning paydo bo‘lishida o‘z ifodasini topadi.

S - shakldagi mantiqiy egri chiziqlarni tahlil qilish asosida shunday xulosagakelish mumkinki, har bir texnologiya rivojlanishining ma’lum bir chegarasi mavjud bo‘lib, texnologiya ana shu chegaraga yetganda o‘zining barcha imkoniyatlarini to‘laligicha sarflab bo‘ladi va korxonaning mazkur texnologiya asosida o‘z ishlab chiqarish samaradorligini oshirish salohiyati deyarli yo‘qqa chiqadi. Mazkur holatda korxonalar raqobatli bozor muhitida yashab qolishlari uchun o‘z qo‘llarida mavjud texnologiyalarning eng samaralisini tanlashga majbur bo‘ladilar.

5.5. Innovatsion va investitsion iqtisodiy o‘sishning turlari hamda unitavsiflovchi belgilari

Iqtisodiy o‘sishning innovatsion investitsion tipi mamlakat iqtisodiyotida innovatsion jarayonlarni rivojlantirish va keng ko‘lamli institutsional modernizatsiyalashni rag‘batlantiruvchi, samaradorligi yuqori bo‘lgan raqobatchilikva institutsional muhitning shakllanishiga va pirovardida innovatsion iqtisodiyotning talablariga monand tarzda iqtisodiy o‘sish sifati omillari va manbalari o‘zgartirishga imkon yaratib beradi.

Innovatsion investitsiyalar iqtisodiy o‘sish sifatiga eng avvalo bilimlarga asoslanishi bilan tavsiflanadi, ammo bilimlarning amalda “ishlashi” uchun davlat va xususiy sektorning sherikchligini rivojlantirish, ilmiy muassasalarning vakolatlarini kengaytirish, tegishli me’yoriy - huquqiy hujjatlarning qabul qilinishini ko‘zda tutuvchi zaruriy institutsional muhit talab etiladi.

Ilmiy va o‘quv adabiyotlarida iqtisodiy o‘sishning ekstensiv va intensiv tiplari haqida ko‘plab tadqiqotlar olib borishadi. Ekstensiv

iqtisodiy o‘sish - takror ishlab chiqarishning eng oddiy va tarixan shakllangan birlamchi yo‘li sifatida qabul qilingan. Uning afzalligi shundan iboratki, ekstensiv usul orqali xo‘jalik rivojlanish sur’atlarini osongina oshirish mumkin. Uning yordamida tabiiy resurslarni tezda o‘zlashtirish amalga oshadi, shuningdek nisbatan tez fursatlarda ishsizlikni qisqartirish yoki yo‘qotishga erishiladi, ishchi kuchini butunlay band qilish imkoniyatlari paydo bo‘ladi.

Boshqa bir tomondan esa, ishlab chiqarishni ko‘paytirishning mazkur usuli uchun bir qator kamchiliklar ham xos, xususan, unga mahsulot ishlab chiqarish hajmlarining miqdoran o‘sishi texnik-iqtisodiy taraqqiyot bilan birgalikda kuzatilmaydi. Foydalanilayotgan asosiy fondlar, moddiy resurslar va xodimlar sonining o‘sib borishiga mos ravishda mahsulot ishlab chiqarish hajmlari ham ortib borsada, fond qaytimi, mehnat unumdorligi va material sig‘imi kabi iqtisodiy ko‘rsatkichlarning miqdoriy qiymatlari o‘zgarmasdan qoladi.

Iqtisodiy o‘sishning bir muncha murakkab tipi-intensiv (lotincha - intensio, fransuzcha-intensiv so‘zlaridan olingan bo‘lib, kuchlanish, kuchayish ma’nolarini anglatadi) iqtisodiy o‘sish tipidir. Bu yerda eng muhimi ishlab chiqarish texnologiyalarini takomillashtirish, asosiy ishlab chiqarish omillaridan foydalanish samaradorligini oshirishdir. Iqtisodiy o‘sish sifatining eng muhim omili va tashkil etuvchisi - bu resurs tejamkorlik va mehnat unumdorligi darajasini oshirishdir.

Iqtisodiy o‘sishning mazkur tipi samaradorligi yuqori bo‘lgan va sifat jihatdan takomillashgan ishlab chiqarish omillaridan keng foydalanishga asoslangan holda, mahsulot ishlab chiqarish ko‘lamlarini oshirish bilan tavsiflanadi. Ishlab chiqarishning o‘sishiga, amalda xodimlar malakasini oshirish, bir muncha tejamkor resurslar va yuqori unumli texnikalardan keng foydalanish, shuningdek ilm-fan yutuqlari va ilg‘or texnologiyalarni keng qo‘llash hisobiga ta’minlanadi. Ushbu omillar hisobiga resurs tejamkorlikka, mahsulot sifatining yaxshilanishi, mehnat unumdorligining o‘sishi kabi bir qator ijobiy natijalarga erishiladi.

Industrial taraqqiy etgan mamlakatlarda iqtisodiy o‘sishning birinchi yoki ikkinchi tipini sof holatda uchratish mumkin emas: ular albatta ma’lum nisbatlar uyg‘unligida uchraydi. Tovar va xizmatlar ishlab chiqarishning qaysi usuli katta mavqega ega bo‘lishiga bog‘liq ravishda intensiv, ekstensiv va aralash iqtisodiy o‘sish tiplari haqida gapirish mumkin bo‘ladi.

Iqtisodiy o‘sish omillarining turli ko‘rinishlarini bir qolipga keltirish va tadqiqotchi olimlar tomonidan asosiy omil sifatida bilimlarning jamg‘arilishi, ijtimoiy taraqqiyotning hozirgi bosqichida iqtisodiy o‘sishning alohida tipi- iinovatsion iqtisodiy o‘sish borasida tadqiqotlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqligi to‘g‘risida gapirish imkonini beradi.

Innovatsion investitsiyalar iqtisodiy o‘sish sifati samaradorlik va raqobatbardoshlik omillari hisobiga investitsion talabning ustuvorliklari va yo‘nalishlarini Texnologik bazisga ega yangiliklardan keng foydalanish, ishlab chiqarish va iqtisodiy faoliyatni tashkil etishni rag‘batlantirish, ichki xo‘jalik tizimida innovatsion faoliyatga undovchi institutsional va raqobat muhitining amalda mavjudligini belgilab beradi. Ishlab chiqarish bazasini uzluksiz tarzda yangilab borish va muttasil yangi mahsulotlar ishlab chiqarishni ta’min etuvchi innovatsion investitsiyalar barqaror iqtisodiy o‘sish sifatiga erishish va pirovardida jamiyat farovonligini oshirishda muhim o‘rin egallaydi. Innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish ishlab chiqarish faoliyatining o‘ziga qo‘shimcha mulkiy, pul va aqliy qo‘yilmalarsiz amalda mumkin bo‘lmagan ishlab chiqarishni yangilashga asoslanadi.

Yangiliklarni joriy etish o‘zida tovarlarni ishlab chiqarish usulining yuqori texnologik darajadagi o‘zgarishini ifoda etadi. Yangiliklarni joriy etish ishlab chiqarish omillarining yangi kombinatsiyalarini va eski ishlab chiqarish funksiyasidan birdaniga voz kechib yangi ishlab chiqarish funksiyasiga o‘tishni anglatadi. Har bir yangiliklarni joriy etishda chegaraviy xarajatlarning avvalgi egri chizig‘i ahamiyatini yo‘qotgan holda yangisiga almashadi. Yangiliklarni joriy etish chegaraviy unumdorlik egri chizig‘ining siljishini bildiradi.

Yirik yangiliklar va ularni amaliyotga joriy etish natijasida yangi korxonalar barpo bo‘lsa, yangi asbob - uskunalar yaratilsada, ammo har bir yangi korxona ham o‘zida yangiliklarni mujassamlashtira olmaydi. “Yirik kapital qo‘yilmalarga tashqaridan ehtiyoj aynan yangiliklarning vujudga kelishi bilangina paydo bo‘ladi”. Ya’ni shunday katta ko‘lamdagi kapital qo‘yilmalarga ehtiyoj tug‘iladiki, natijada bu ehtiyojlarni xo‘jalik faoliyatidan olingan yalpi daromad yoki qarz mablag‘lari bilan qoplab bo‘lmaydi.

J.M. Keyns tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan “kapitalning

chegaraviy samaradorligi” kategoriyasi innovatsion investitsion talabning keynsscha nazariyasining asosi bo‘lib hisoblanadi. Amalda mavjud bo‘lgan kapitalga qo‘shimcha bo‘lganligi uchun ham u kapitalning chegaraviy samaradorligi deb yuritiladi.

Innovatsion investitsiyalashning maqsadga muvofiq yoki muvofiq emasligini aniqlash maqsadida investitsion bozor ishtirokchilari investitsion loyihalarni amalga oshirishdan kutilayotgan sof daromadlar oqimini investitsion xarajatlar bilan solishtiradilar. Mazkur jarayonning murakkabligi vaqt omilini baholashda ko‘rinadi, chunki asosiy xarajatlar investitsion loyihalarni amalga oshirishning dastlabki yillariga to‘g‘ri kelsada, ulardan kutilayotgan daromadlarning asosiy qismi keyingi yillarga to‘g‘ri keladi. Shu bois, tadbirkor investitsion loyihalarga sarmoya kiritar ekan, u birinchi navbatda kiritilayotan sarmoyalarni boshqa muqobil loyihalarga qo‘yish orqali olishi mumkin bo‘lgan foizli daromadlarni va shuningdek xavf-xatardarajasini ham inobatga oladi.

Neoklassik konsepsiyaga muvofiq, bozor ishtirokchilari mavjud texnologiyadan foydalangan holda eng yuqori foyda darajasini ta’min etuvchi kapitalning maqbul o‘lchamiga erishish maqsadida innovatsion investitsiyalashni amalga oshiradilar. Mukammal raqobat sharoitida mablag‘lardan kapital sifatida foydalanishning muqobil xarajatlarini ifoda etuvchi moliyaviy aktivlar bo‘yicha foizstavkalari va amortizatsiya normalaridan iborat bo‘lgan chegaraviy xarajatlar bilan kapitalning chegaraviy unumdorligi mos tushgan holatda, foyda eng yuqori darajadabo‘ladi.

Chegaraviy xarajatlarning belgilangan qiymatining o‘zgarishi holatida maqbul bo‘lgan kapital ko‘rsatkichining qiymati ham o‘zgaradi. Agar ilmiy - texnikaviy taraqqiyot tufayli kapitalning chegaraviy unumdorligi oshsa, u holda kapitalning maqbul bo‘lgan hajmi ham ortadi. Shunday qilib, innovatsion investitsion talabni kapital chegaraviy unumdorligining o‘suvchi funksiyasi sifatida va (amortizatsiya normasining belgilangan qiymatida) foiz stavkasining kamayib boruvchi funksiyasi sifatida aniqlashtirishimiz mumkin.

Zero, mamlakatlar iqtisodiyotining bundan buyon jadal taraqqiy etishi, ilmiy texnikaviy taraqqiyot natijalarining qay yo‘sinda bo‘lishi ishchi kuchining sifat o‘lchamlariga bog‘liqligi ayon bo‘lib qoldi. Bularning barchasi bir tomondan insonning aqliy qobiliyatlari va ko‘nikmalari bilan bog‘liq bo‘lgan ta’lim, kasbiy tayyorgarlik va shu

kabi tarmoq va sohalarning rivojlanishiga muhim turtki bo‘lgan bo‘lsa, ikkinchi bir tomondan esa mazkur sohalarga kapital qo‘yilmalarning samaradorligini tadqiq qilishni rag‘batlantirdi.

Inson kapitaliga foydalilik darajasi vaqt o‘tgan sari bilim va tajribalar boyib borishi bilan ortib boruvchi uzoq muddatli iqtisodiy resurs sifatida qarala boshlandi. Hisob - kitoblar natijasida shu narsa ayon bo‘ldiki, ta’limga kiritilgan sarmoyalar milliy daromadning 30%dan ortiq o‘sishini ta’min etar ekan. Bularning barchasi o‘z navbatida ishchi kuchining yangicha sifatlarini, xususan uning intellektual salohiyati, ijodiy faolligini shakllantiruvchi soha va tarmoqlarga davlat va xususiy innovatsion investitsiyalar ko‘lamining ortishiga olib kelgani holda, pirovardida bu fuqarolarning sog‘ligini mustahkamlash, kasbiy tayyorgarligini oshirish, ta’lim olishlari borasidagi shaxsiy xarajatlarining ham keskin o‘sishiga olib keldi.

Inson kapitaliga innovatsion investitsiyalar inson hayotining sifat ko‘rsatkichlarini, birinchi navbatda uning ishchi kuchi (savodxonlik darajasi, aqliy va ijodiy salohiyatni rivojlantirish, jismoniy va ruhiy sog‘lomlik, xohish va istaklar tizimi, axloqiy qarashlar) sifatining yaxshilanishini ta’min etuvchi tarmoq va sohalarga mablag‘larning maqsadli yo‘naltirilishidir.

Innovatsion investitsiyalarga bo‘lgan talab YaIMning eng ko‘p o‘zgaruvchan tashkil etuvchisi sanaladi, u foiz stavkasi va kutilayotgan foyda me’yori, YaIM hajmi, soliqqa tortish darajasi, texnologik o‘zgarishlar va tadbirkorlarning kutishlari kabi bir qator omillarga bog‘liq. Innovatsion investitsion talab innovatsion tipdagi iqtisodiy o‘sish sifatini rag‘batlantirishi lozim.

Iqtisodiyotda ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik ishlanmalarini amalda qo‘llashning daromadlilik ehtimoli innovatsion investitsiyalar va umumiy tarzda iqtisodiy o‘sish sifati xususiyatlarini belgilab beradi. Buning natijasida iqtisodiy o‘sish yuz beradi yoki korxona o‘lchamlari qisqaradi. Innovatsion investitsiyalar va boshqa me’zonlar o‘rtasidagi bu xil bog‘liqlikning bejiz emasligi investitsiyalarning ilmiy - tadqiqot, tajriba konstruktorlik ishlanmalari natijalari va ularga yo‘naltirilgan xarajatlarga funksional bog‘liqligini ko‘rsatib turibdi.

Innovatsion tipdagi investitsiyalarning muntazam ishlab chiqarilishini texnologik jihatdan modemizatsiyalash, inson va intellektual kapitalni rivojlantirish va pirovardida esa innovatsion

tipdagi iqtisodiy o‘sish sifatini ta’minlashga yo‘naltirilgan maqsadli qo‘yilmalar tashkil etadi.

Yuqorida tilga olib o‘tilganlar asosida innovatsion investitsion talabni aniqlashtirishga harakat qilib ko‘ramiz. Innovatsion investitsion talabni ilg‘or texnika va texnologiyalarni yaratish va ulardan oqilona foydalanish, yuqori intellektual salohiyatli inson kapitalini jamg‘arish va uni har tomonlama rivojlantirish, xo‘jalik yuritish uchun qulay shart sharoitlar yaratish, investitsion - iqtisodiy xavfsizlikning birlamchi ko‘rsatkichlariga erishish asosida mehnat sig‘imli ishlab chiqarishlarni kapital sig‘imli ishlab chiqarishlar bilan almashtirish va ijtimoiy ishlab chiqarishni intensivlashtirish uchun iqtisodiyotning innovatsion sohalariga biznes vakillarining uzoq muddatli qo‘yilmalarni amalga oshirishga layoqati va tayyorligi sifatida qarab chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Innovatsion investitsion talabni shakllantirishning asosiy nazariy-uslubiy tamoyillari quyidagilarni ko‘zda tutadi:samaradorlik (xarajatlar va natijalarni maqbullashtirish);

- yaxlitlik (xo‘jalik - ishlab chiqarish faoliyatining barcha yo‘nalishlari bo‘yicha ijtimoiy - iqtisodiy taraqqiyotni ta’minlash, innovatsion investitsiyalar uchun ustuvor bo‘lgan yo‘nalishlarni ajratib olgan holda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini jadal rivojlanishiga erishish);
- innovatsion (bilim, axborot, texnologiyalar va shuningdek ularni amalda qo‘llash bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan ishlab chiqarish, tashkiliy rivojlantirish);
- iqtisodiy, moliyaviy va boshqa turdagi innovatsion investitsiyalar talabning ajralmas unsurlari bo‘lib hisoblanadi);
- institutsionallik (innovatsion investitsiyalar maqsadlarini ro‘yobga chiqarishning institutlar tizimining mavjudligi);
- iqtisodiy javobgarlik (innovatsion investitsion tavakkalchilik va xavf- xatarlarni taqsimlashda investitsion jarayon ishtirokchilarining javobgarligi).

Innovatsion investitsion talabni shakllantirishda yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan tamoyillarning amalga oshirilishi investitsion faoliyatni to‘laqonli tarzda amalga oshirish uchun zaruriy shart - sharoitlarni vujudga keltirish va investitsion faoliyat barqarorligi xavfsizlikning maqbul me’zonlariga erishishga yo‘naltirilgan, zero bunday shart-sharoitlarsiz va xavfsizlikning maqbul me’zonlarisiz

milliy iqtisodiyotning innovatsion taraqqiyoti haqida so‘z yuritishimiz mushkuldir.

Iqtisodiy adabiyotlarda ishlab chiqarishning texnik darajasi atroflicha o‘rganilgan bo‘lsada, ishlab chiqarishning ilmiy-texnikaviy darajasi kam o‘rganilgan, innovatsion taraqqiyot indikatorlari borasidagi masalalar esa amalda umuman o‘rganilmagan. Innovatsion investitsion taraqqiyot indikatorlari tarkibiga korxonaning istiqbolda ilmiy-texnikaviy ishlanmalarga bo‘lgan ehtiyoji, ilmiy - texnikaviy va tajriba - konstruktorlik xarajatlari tuzilmasi; korxona imkoniyatlari va ehtiyojlarining o‘zaro nisbati, korxonaning bozordagi o‘rnini mustahkamlashning istiqbolli imkoniyatlarini aniqlash imkonini beruvchi ko‘rsatkichlar kiradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda yangi iqtisodiy munosabatlar tizimiga o‘tish sharoitida iqtisodiyotning turli bo‘g‘inlari (mikro, mezo va makro daraja)da yangiliklarni innovatsion investitsiyalash o‘lchamlariga qo‘yiluvchi talablarni aniqlash imkonini beruvchi indikativ ko‘rsatkichlar tizimi yuqoridagi jadvalda taklifetilgan.

Innovatsion investitsion talabning asosiy ustivorliklari bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

- brendlar bozori, korxonaning bozordagi mashhurligi va boshqa ishlab chiqaruvchi va xizmat ko‘rsatuvchilar bilan o‘zaro mustahkam aloqalari bilan tavsiflanuvchi savdo, bilimlar ishlab chiqarish sektoriga investitsiyalar. Bularning barchasi biz yuqorida tilga olib o‘tgan innovatsiyalar va investitsiyalarning o‘zaro bog‘liqligidan kelib chiqadi;
- resurslarni tejash, atrof-muhitni muhofazalash, mamlakat iqtisodiyoti raqobatbardoshligini oshirishni ta’min etuvchi ekologik jihatdan sof va resurs tejamkor va samarali texnologiyalarni yaratish bilan bog‘liq bo‘lgan innovatsion investitsiyalar;
- inson kapitali va intellektual salohiyatni har tomonlama taraqqiy ettirish va pirovardida mehnat resurslaridan foydalanishning intensivligini oshirish;
- energiya tejamkorlik va energiyadan foydalanish samaradorligi nuqtai nazaridan mehnat tejamkorligiga erishish.

Innovatsion investitsion talabni faollashtirish borasidagi siyosatni ishlab chiqishda davlat xalqaro tavsifga ega bo‘lgan bir qator qoidalarga amal qiladi. Bu qoidalarga davlat tomonidan strategik

ahamiyatga ega bo‘lgan obyektlarni (energiya ta’minoti, atrof-muhitni muhofaza qilish va boshqalar) moliyalashtirishga ustuvorlik berish va yangi texnologiyalarni rivojlantirish uchun resurslarni maqsadli yo‘naltirish kabilar kiradi.

Ammo shuni esdan chiqarmaslik lozimki, innovatsion investitsion o‘zgarishlarning bosh subyekti bo‘lib korxona hisoblanadi, shu sababli ham innovatsion investitsion talab, davlat va xususiy sektoming o‘zaro sherikchiligini nazarda tutadi. Davlat va xususiy sektoming o‘zaro hamkorligi umum ahamiyatga ega bo‘lgan masalalarni o‘zaro manfaatli shartlar asosida hal etish borasidagi davlat va biznes vakillarining o‘rta va uzoq muddatli hamkorligi shakllarining umumiy yig‘indisini ifoda etadi. Davlat va xususiy sektor o‘zaro sherikchiligining asosiy shakllari bo‘lib, davlat va xususiy sektor hamkorligining har qanday o‘zaro manfaatli ko‘rinishlari hisoblanadi. Bularga davlat kontraktlari, ijara munosabatlari, moliyaviy ijara (lizing), davlat va xususiy mulk ishtirokidagi korxonalar, konsession bitimlar, mahsulotni bo‘lish to‘g‘risidagi kelishuvlar kiradi.

Innovatsion iqtisodiy o‘sish sifatiga erishish uchun innovatsion investitsiyalash sohasida uzoq muddatga mo‘ljallangan va o‘z oldiga iqtisodiyotda yuqori texnologik taraqqiyot darajasini shakllantirish vazifasini qo‘yuvchi davlat siyosatini amalga oshirish zarur. Bu xil siyosat fan sig‘imli ishlab chiqarishlarni qo‘llab - quvvatlash, insonning inteliektual salohiyati va kapitalini rivojlantirish kabilarni o‘z ichiga qamrab olishi zarur. Bu borada iqtisodiyotni rivojiantirishning uzoq muddatli maqsad va yo‘nalishlarini, milliy iqtisodiy xavfsizlik o‘lchamlarini inobatga olgan holda ilm-fanga kapital qo‘yilmalarni rag‘batlantirishning aniq chora - tadbirlarini belgilab olish kerak bo‘ladi.

Shunisi e’tiborliki, yuqoridagi jadvalda keltirilgan me’zonlar innovatsion investitsion talabni va investitsion xavfsizlikni ta’minlash borasida asosiy kapitalni jamg‘arish va takror ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan moliyaviy va qarz mablag‘larining kapitallashuvi jarayonida xo‘jalik faoliyatini investitsiyalash chog‘ida vujudga keluvchi investitsion xavf-xatarlarni ko‘zda tutadi. Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish asnosida innovatsion investitsion tavakkalchiliklar matritsasining tuzilmasini aks ettirishga harakat qilindi.

Innovatsion investitsion talab va investitsion-iqtisodiy

xavfsizlikni shakllantirish imkonini beruvchi me’zonlar va ko‘rsatkichlar - indikatorlarning tahlili mazkur indikatorlar va innovatsion tipdagi investitsiyalarni ajratib olishning me’zonlari ko‘p jihatdan o‘zaro bog‘liq, ammo birinchi guruh ko‘rsatkichlari bir muncha aniq va miqdoriy ifodaga ega hisoblanadi. Bu innovatsion tipdagi investitsion talab va investitsion-iqtisodiy xavfsizlikni shakllantirish va ta’min etish imkonini beruvchi me’zonlardan innovatsion-investitsion rivojlanish ko‘rsatkichlari sifatida ham foydalanishimiz mumkinligidan dalolat beradi.

Asosiy xulosalar

Harakatlar strategiyasi dasturida endogen iqtisodiy o‘sish nazariyasining qator taklif va tavsiyalari o‘z ifodasini topgan bo‘lib uning maqsadi olib borilayotgan islohotlar samaradorligini tubdan oshirish, davlat va jamiyat har tomonlama jadal rivojlantirish, milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash va erkinlashtirish asosida iqtisodiy o‘sish sifatini oshirish va aholi turmush farovonligini ta’minlash va O‘zbekistonni 2030-yilga kelib jahonning 50 ta ilg‘or mamlakatlari qatoriga olib chiqishdan iboratdir.

Xulosa qilib aytganda, innovatsiya ishlab chiqarish jarayonida band bo‘lgan, ma’naviy va jismoniy eskirgan asosiy ishlab chiqarish vositalari, texnika va texnologiyalarni yangilashni, ilm-fan va texnika yutuqlariga asoslangan holda amalga oshirishni ta’minlaydi. Uning natijalari innovatsion jarayon orqali yaratilgan innovatsiyalarni ishlab chiqarish jarayonida qo‘llash asosida yangi qiymatga, sifatga ega bo‘lgan mahsulotlarda ifodalanadi. Innovatsiyalar asosan yangi mahsulotlarga, ishlab chiqarish texnikalariga yoki ishlab chiqarish texnologiyalariga qo‘shiladi, iste’mol mahsulotlari sifatida ko‘rinishi innovatsion jarayonning asosiy omili hisoblanadi.

Texnologiyalar taraqqiyotining S-shaklli egri chiziq bo‘ylab harakatlanishi obyektning ichki mantig‘iga bog‘liq holda, hozirgi avlod texnologiyasining modernizatsiyalanishini ifoda etadi. Innovatsiyalarning kumulyativ tavsifga ega ekanligi to‘plangan tajriba va bilimlardan kelib chiquvchi yangi avlod texnologiyalarining, ya’ni yangi egri chiziqlarning paydo bo‘lishida o‘z ifodasini topadi.

Strategik motivlar gipotezasi xorijiy investitsiyalar motivatsiyasi kompaniyani rivojlantirish borasida yangi bozorlar va resurs manbalari, faoliyat samaradorligini oshirish imkoniyatlari, yangi axborotlar kabi yangi strategik resurslarni izlab topish bilan izohlaydi. Mazkur gipoteza asosida S.Xaymer 1960-yilda oligopolistik xulq-atvor nazariyasini ilgari suradi. S.Xaymer xorijiy investitsiyalarni tovar bozorlaridagi nomukammal raqobatning klassik modellari bilan o‘zaro uyg‘unlikda o‘rganish lozim, deb hisoblaydi. Ushbu nazariyaga muvofiq, bo‘lg‘usi monopolist yoki oligopolist sifatida raqobatni cheklash yoki raqobatbardoshlikni himoya qilish maqsadida xorijiy

bozorlarga ekspansiyani amalga oshiradi.

Psixologik motivlar gipotezasi to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalashga bo‘lgan moyillikni kompaniyaning muhim sotish bozorlarini boy berishdan xavfsirashi va bunday xatarlarni boshqa bozorlarga chiqish yo‘li bilan pasaytirishga bo‘lgan intilishlari bilan tushuntiradi. R.Agion tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar menejerlarning shaxsiy qarashlari va alohida shaxslar guruhining ehtiyojlariga asoslangan psixologik motivlarning ikki asosiy tipi mavjudligini ko‘rsatdi. Investitsion qarorlarning tashqi rag‘batlariga quyidagilar kiritiladi:

8. Istiqbolli bozorlarni boy berishdan xavfsirash.
9. Investitsiyalarni amalga oshirish borasida taklif kiritgan shaxslarnufuzining ta’siri.
10. Raqobatchilarning xorijiy bozorlarda samarali faoliyat ko‘rsatishi.
11. Milliy bozorlarda faoliyat ko‘rsatuvchi xorijiy korxonalarning raqobatbosimi.

Muallifning fikricha, yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan motivlar investitsion qarorlar qabul qilinishini tezlashtiruvchi katalizator sifatida xizmat qilsada, birlamchi to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarni amalga oshirishga bevosita sabab bo‘la olmaydi. Makroiqtisodiy gipotezalar guruhi investorlar tashqi muhitining makroiqtisodiy omillarini baholashga yo‘naltirilgan. Shunga bog‘liq ravishda mamlakatlarning siyosiy va iqtisodiy belgilari bo‘yicha ularni bir-biridan farqlashni ko‘zda tutuvchi to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning motivlariga asoslangan gipotezalar guruhini o‘rganish, mazkur tadqiqot doirasida muhim o‘rin egallaydi.

Makroiqtisodiy gipotezalar:

1. Rentabellik darajasi.
2. Ishlab chiqarish sikli va bozor omillari.
3. Ishlab chiqarish xarajatlari.
4. Valyuta kursi kabi omillarni aks ettiradi.

Makroiqtisodiy gipoteza 1969-yilda S.Xaymer tomonidan transmilliy kompaniyalar nazariyasi doirasida ochib berilgan va Ch.Kindlberger tomonidan yanada rivojlantirilgan. Mazkur nazariyaga ko‘ra, monopolistlarning boshqa davlatlar tomonidan amalga oshiriluvchi iqtisodiy siyosatning himoya to‘siqlariga qarshi tura olganliklari bois, xorijiy investitsiyalar aksariyat holatlarda

monopolistlar tomonidan amalga oshirilsada, lekin bu o‘rinda investor uchun bevosita naf ko‘rish (ko‘lam samarasi, arzon resurslar) asosiy shart hisoblanadi.

R.Vemonning xalqaro tovar ishlab chiqarish sikli paradigmasi to‘g‘ridan- to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni amalga oshirishni ishlab chiqarish jarayonining ayrim elementlarini xorijiy bozorlarga ko‘chirish hisobiga ishlab chiqarish siklini maqbullashtirishga bo‘lgan intilish orqali asoslaydi. Mazkur nazariya xorijiy bozorlarga ekspansiya qilish orqali tovarning hayotiylik siklini uzaytirish va transmilliy kompaniyalarning raqobat mavqeyini mustahkamlash imkoniyatlarini alohida ta’kidlaydi. R.Vernon tadqiqotlariga ko‘ra korporatsiyalar tovarning bozordagi hayotiylik sikli bosqichiga qarab o‘z rivojlanish strategiyasini o‘zgartiradi va ular quyidagi yo‘nalishlarga asoslanadi:

- o‘z uyida tovar ishlab chiqarish;
- tovarni eksport qilish;
- ishlab chiqarishni chet el bozorlariga ko‘chirish.

Korporatsiyaning tanlagan rivojlanish strategiyasi shakli, unga mos keladigan ishlab chiqarish xarajatlari va daromadlar nisbatiga bog‘liq.

Bunda bosqichlar

1) innovatsion mahsulot ishlab chiqarish bosqichi;

2) mahsulotni yetuklik, ya’ni uni mukammal ishlab chiqarish shakllangan bosqichi;

3) mahsulotni ommaviy tarzda ishlab chiqarish va chetga sotish bosqichi.

Valyuta makoni gipotezasi L.Alfaro tomonidan ilgari surilgan bo‘lib, investitsion qarorlarning retsipiyent mamlakat milliy valyutasi va uning o‘zgarishiga qay tarzda ta’sir ko‘rsatishini asoslashga xizmat qiladi. Ushbu gipoteza loyihani baholashda qo‘llaniluvchi, kapitalning talab etiluvchi qaytimini ko‘paytiruvchi va xatar uchun mukofotga qo‘shiluvchi valyuta mukofoti konsepsiyasini aks ettiradi. Gipotezaga muvofiq, milliy valyutaning mustahkamlanishi sharoitida kapital eksporti oqimlari, milliy valyutaning qadrsizlanishi holatida esa to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar oqimi kuchayadi.

Biznesni diversifikatsiyalash ishlab chiqarish va sotishni geografik yoki tarmoq jihatdan taqsimlash evaziga bozor xatarlari darajasini pasaytirish imkonini beradi. Bunday yondashuv Portfel gipotezasida o‘z aksini topgan bo‘lib, u rentabellik gipotezasining

o‘ziga xos davomi hisoblanadi. Portfel gipotezasi R.Romer (1973-yil) tomonidan xorijiy investitsiyalar muammosini ochib berish doirasida yanada kengaytirilgan. Portfel gipotezasi o‘zining dastlabki shaklida faqatgina portfel investitsiyalarga nisbatan qo‘llanilgan. Dastlab, to‘g‘ridan-to‘g‘ri va portfelli investitsiyalarning daromadlilik va tavakkalchilik darajalari o‘rtasidagi farqlar milliy kapital bozorlarining takomillashmaganligi bilan bog‘liq, degan fikrlarilgari surilgan. Romer portfelli investitsiyalarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar bilan almashtirish nafaqat uyushgan kapital bozori mavjud bo‘lmagan rivojlanayotgan bozorlarda, balki daromadlilik darajasining haddan tashqari tebranuvchanligi sharoitida rivojlangan bozorlarda ham mavjud bo‘lishini ta’kidlaydi. Uning fikricha, to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarni amalga oshirish sharoitidagi tavakkalchilik darajasiga nisbatan qimmatli qog‘ozlar daromadlilik darajasi ta’sirchanligining yuqoriligi investorlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar foydasiga qaror qabul qilishga undaydi.

Bozor muhitining o‘zgarishiga V.Aitkenning oligopolistlarning javob reaksiyasi gipotezasida o‘z aksini topgan. U oligopolistik bozordagi ulushni yo‘qotish xatarining mavjudligi sharoitida kompaniya uchun eng maqbul bo‘lgan strategiya bu xorijiy bozorlarda raqobatchilarga taqlid qilishdan iborat ekanligini ko‘zda tutadi. 1948-1967-yiIlar davomida AQShning 187 ta transmilliy kompaniyalari xorijiy faoliyatining empirik tahlili xorijiy bozorlarda investitsiyalarni amalga oshirgan oligopolistik sohalardagi bozor yetakchilari orqasidan ularning lokal raqobatchilarga ergashganligini ko‘rsatgan. Birlamchi investitsiyalarni amalga oshirishning dastlabki uch yilida kuzatishlarning 45 foizi holatida “yetakchi orqasidan ergashish” strategiyasi kuzatilgan bo‘lsa, 75 foiz holatda esa keyingi yetti yil davomida mazkur holat kuzatilgan.

R.S.Bukle va I.T.Vender tomonidan 1953-yilda ishlab chiqilgan likvidlik gipotezasi asosida likvidlik va investitsion faollik o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqliknazariyasi yotadi. Yuqorida nomlari tilga olib o‘tilgan mualliflarning hisoblashicha, kompaniyalar qarz kapitaliga nisbatan o‘z kapitallarini bir muncha arzon hisoblaydilar va ortiqcha mablag‘larning paydo bo‘lishi bilan xorijiy investitsiyalarni amalga oshirish borasida qaror qabul qiladilar. Ch. Kindlberger, S.Xaymeming konsepsiyasini kengaytira borib, transmilliy kompaniyalar vertikal integratsiya orqali olishlari mumkin to‘rtta

asosiy afzalliklarni ajratib ko‘rsatadi:

- tovar siyosati (marketing, imij, tovar guruhlarini differensiyalash);
- ishlab chiqarish omillari (arzon resurslarga egalik qilish, bevositanazoratni amalga oshirish, malakali personal);
- ko‘lam hisobiga tejash;
- tartibga solish borasida davlat siyosati (davlatning aralashmasliksiyosati).

Bozor tuzilmalarining tarmoq nazariyasini rivojlantirish doirasida 1966-yilda J.P.Bakli tomonidan intemalizatsiya (baynalmilallashuv) nazariyasi ishlab chiqilgan bo‘lib, mazkur nazariya keyinchalik M.Kasson (1981-yillar) va A.Rugman (1985-yillar) tomonidan yanada boyitilgan. Mualliflar agar eksportga nisbatan boshqa bir davlatning hududida o‘zining tuzilmasiga ega bo‘lish nafliroq bo‘lsa, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni amalga oshirishni maqsadga muvofiq, deb hisoblaydilar. Ushbu nazariya amalda bozor tuzilmalari tarmoq nazariyasining o‘ziga xos davomi hisoblanadi.

Nazariyaga muvofiq, yirik transmilliy kompaniyalar yaxlit ichki tuzilmaga ega bo‘lishlari holatida o‘zlarining xorijiy bozorlardagi faoliyatlarini kengaytirishlari mumkin. Mualliflar transmilliy kompaniyalarni yetakchi kompaniyaga aylantirish va ularni to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar yordamida tashqi bozorlarda samarali faoliyat olib borishlariga imkoni beruvchi marketing resurslari, insoniy resurslar va moliyaviy menejment darajasi kabi ustuvorliklariga alohida e’tibor qaratishgan.

K.Akamatsu (1930-yillar), K. Kodzima (1978-yil) va T. Ozava (1995-yil) lar tomonidan ishlab chiqilgan “parvoz qilayotgan g‘ozlar paradigmasi” mamlakat bozorlarida xorijiy ta’minotchilarning paydo bo‘lishi asnosida u yoki bu tovar ishlab chiqarishning o‘sishini va keyinchalik mazkur tovarlarni eksport qilish imkoniyatlarining vujudga kelishini tushuntirib berishga xizmat qiladi.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalash jarayonlarini tadqiq qilish borasida eng mukammal majmuali yondashuvlardan biri-bu J.Danning (1981-yillar)ning eklektikparadigmasi hisoblanadi. Mazkur paradigma investor va retsipiyent mamlakatning OLI ustunliklari to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni amalga oshirishda eng muhim jihat hisoblanadi, deb uqtiradi:

– O (ownership) - o‘ziga xos nomoddiy aktivlarga va ichki imkoniyatlargaegalik qilish bilan bog‘liq bo‘lgan ustunliklar;

– I (internalization)- baynalmilallashuv doirasida kompaniya tuzilmalari va xususiy tarmoqlarining yuqori salohiyati bilan bog‘liq bo‘lgan ustunliklar;

– L (location)-retsipiyent mamlakatning nafaqat bozorlar va resurslari, balki investitsion iqlimni davlat tomonidan boshqarilishi bilan bog‘liq bo‘lganustunliklar.

Eklektik paradigma nazariyasiga ko‘ra, retsipiyent mamlakatlar xorijiy investitsiyalarni jalb etishda faqat resurslarning arzonligiga tayanmasliklari lozim. Milliy iqtisodiyot uchun zarur xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda ushbu omilning o‘zi yetarli emas. Shuning uchun asosiy e’tibor qulay investitsiya muhitini yaratishga qaratilishi kerak. Shunday qilib, eklektik nazariya firma bir vaqtning o‘zida barcha uch ustunlikdan foydalana olgan taqdirda xorij bozorida to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar yordamida muvaffaqiyatli ish yuritishi mumkinligini asoslab beradi. Masalan, firma faqat mulkchilik yoki joylashuv nuqtai-nazaridan ustunlikka ega bo‘lsa, u xorijiy bozorda eksport yoki franchayzing kabi o‘zgacha xizmat ko‘rsatish uslublarini qo‘llashi mumkin bo‘ladi.

J.Danning va R. Narula (1994-yillar) tomonidan eklektik paradigma asosida ishlab chiqilgan investitsion rivojlanish nazariyasi doirasida mualliflar investitsion oqimlarning yo‘nalishi milliy tizimlarning rivojlanish darajasiga bog‘liq ekanligini tushuntirishga harakat qiladilar. Mazkur nazariya to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar oqimi doirasida mamlakatlar rivojlanishining (bir muncha past rivojlangan mamlakatlardan yuksak darajada rivojlangan mamlakatlargacha bo‘lgan) 5 ta bosqichi mavjudligini ko‘zda tutadi.

Unga muvofiq, kapitalni eksport qilish, dastlab kapitalni import qilish hisobiga amalga oshadi. Texnologiyalar va intellektual resurslar taraqqiyotining dastlabki bosqichida mamlakat resurslar tanqisligiga duch kelsa, rivojlanishning keyingi bosqichlarida davlat asta-sekinlik bilan moliyaviy ekspansiyani amalga oshirish imkoniyatini qo‘lga kiritadi. M. Porter tomonidan ishlab chiqilgan va 1990-yilda omma e’tiboriga havola qilingan millatning raqobat ustunliklari nazariyasi global bozorda milliy iqtisodiyotlarning raqobat afzalliklari va investitsiyalash borasida transmilliy kompaniyalarning strategiyalari o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatadi. Portemining

“milliy romb” afzalliklariquyidagi 4 ta guruhga ajratiladi:

- korporativ boshqaruv afzalliklari;
- resurslardan foydalanish borasidagi afzalliklar;
- talab va taklif omillarining o‘ziga xos tavsifi;
- ko‘makchi va yondosh tarmoqlarning afzalliklari.

M.Porter ushbu omillar sintezini «raqobat afzalliklari brillianti» deb nomladi va ular kapitalni chetga chiqarishning muvaffaqiyatini kafolatlashini nazarda tutadi. Qo‘shimcha omillar sifatida esa davlatning oqilona investitsiya siyosati va «omadli vaziyatlar»ni keltiradi.

Yuqoridagi to‘rtta omil bir qatorda model ikkita tashqi omillar davlatning ilmiy asoslangan siyosati va voqea-hodisalarning ijobiy kechishini inobatga oladi. Ta’kidlash lozimki, yuqorida tilga olib o‘tilgan tashqi omillar u yoki bu darajada 4 ta omilga ta’sir ko‘rsatadi. Nazariyaning eng muhim g‘oyasi shundan iboratki, raqobatbardoshlikning mustahkamlanishiga xizmat qiluvchi omillar me’ros qilib olinmaydi, aksincha bunday omillar milliy iqtisodiy tizimlar tomonidan yaratiladi. Romb modeli doirasida hukumat katalizator vazifasini bajarishi va raqobat samaradorligining o‘sishiga zamin yaratib berishi lozim.

Qulay investitsion iqlimni shakllantirish borasidagi davlatning ilmiy asoslangan siyosati to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish borasida milliy tizimlarning afzalliklarini ta’minlash talab etadi. Transmilliy kompaniyalar nazariyasi va xalqaro to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar, shu jumladan investitsion rivojlanishning nazariy asoslari va empirik ma’lumotlarga asoslangan holda, UNCTAD bugungi kunda transmilliy kompaniyalarning xorijiy bozorlarga ekspansiyani amalga oshirishi borasidagi qarorlariga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar tizimini ishlab chiqqan. Xalqaro miqyosda ekspansionistik faoliyat chora- tadbirlarini amalga oshirish borasida firmaning raqobat ustunliklarini shakllantirish va faoliyatni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqishga undovchi xalqaro raqobatning tobora kuchayib borishi sharoitida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar transmilliy kompaniyalarni rivojlantirish strategiyasining muhim tashkil etuvchilaridan biri hisoblanadi. Ochiq iqtisodiyot sharoitda raqobatbardoshlikni oshirish, kompaniyaning bozordagi ulushini saqlab qolish yokiuni ko‘paytirish, pirovardida esa, eng yuqori foyda darajasiga erishish, transmilliy kompaniyalar uchun

xorijiy bozorlarda xorijiy investitsiyalarni joylashtirishdan ko‘zlangan asosiy maqsad eng katta ijobiy samara hisoblanadi.

Investitsion yechimlarning yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan strategiyalari va motivlari doirasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar ko‘lami va yo‘nalishlariga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar xorijiy investitsiyalar kiritilgan mamlakatlardan xorijiy investitsiyalarni “siqib chiqaruvchi” va qabul qiluvchi mamlakatlarga “jalb qiluvchi” omillarga ajratiladi. Yuqoridagilarga qo‘shimcha tarzda, UNCTAD transmilliy kompaniyalarni tashqi bozorlarga chiqishga undovchiikkita omilni ajratib ko‘rsatadi.

Bu birinchi navbatda, Xitoy va Hindiston kabi mamlakatlarda kuzatilayotgan jadal iqtisodiy o‘sish natijasida rivojlanish va xalqaro bozorlarga kirib borish uchun muhim ishlab chiqarish omillari va resurs zaxiralarining tugashi bilan bog‘liqdir. Mazkur dalil tabiiy resurslar sohasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarni strategik jihatdan rag‘batlantirishda o‘z ifodasini topadi. Ikkinchidan, jahon iqtisodiyotining globallashuvi va erkinlashishining tobora kuchayib borishi sharoitida transmilliy kompaniyalar o‘rtasida xorijiy mamlakatlarda o‘z imkoniyatlarini kengaytirish va xalqaro maydonda sodir bo‘layotgan iqtisodiy jarayonlarni oldindan ko‘ra olish borasida xulq-atvor qoidalarining o‘zgarishi sodir bo‘lmoqda.

Transmilliy kompaniyalar ekspansiyasining maqsad, motivlari va shuningdekto‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarni amalga oshirishning usul va vositalarini e’tiborga olgan holda retsipiyent mamlakatlar uchun investitsiyalarni jalb qilishning quyida bayon qilingan ijobiy va salbiy oqibatlarini aniqlashtirishimiz mumkin. Shu tariqa, ayrim mamlakatlar iqtisodiy rivojlanish darajasining pastligi va davlat tuzilmalarining tarqoqligi bois, investitsiyalarning turli mamlakatlar iqtisodiyotiga turli xil ta’sir ko‘rsatishi mumkinligi borasidagi dalillar muhim ahamiyat kasb etadi.

7.3. Investitsiyalarni iqtisodiy o‘sishga ta’siri

Bugungi globalizatsiya davrida jahon iqtisodiyotining rivojlanish bosqichlarini kuzatish natijasida shu narsaga amin bo‘lish mumkinki, investitsiyalarhar qanday jamiyat milliy iqtisodiyotining rivojlanishida asosiy poydevor bo‘lib hisoblanadi. Ammo, shuni alohida qayd etish joizki, investitsiyalarning harakat

ko‘larni rejali iqtisodiyot davrida qisman cheklangan bo‘lib,

ularning iqtisodiy samaradorligiga nisbatan, ijtimoiy samaradorligi ustuvor bo‘ladi.

Bozor munosabatlari asosida o‘z iqtisodiyotini tartibga soladigan davlatlarda investitsiyaning iqtisodiy imkoniyati misli ko‘rilmagan darajada keng va ahamiyatli bo‘ladi. Buning isboti o‘laroq birgina mamlakatda yaratilayotgan yalpi ichki mahsulot(YaIM)ning o‘sishiga nazar soladigan bo‘lsak, investitsiya faoliyatining samarali tashkil etilishigina YaIMning o‘sishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Agar YaIMning o‘tgan yilga nisbatan o‘sishi past bo‘lsa, bunday holat investitsion faoliyatning sust tashkil qilganidan dalolat beradi.

Bu esa o‘z navbatida, investitsion faoliyatni ilmiy asosda tashkil etishni taqozo etadi. Investitsiya so‘zi nemischa «Investition», lotincha «Investtio» so‘zlaridan olingan bo‘lib, u kapitalni uzoq muddatli qo‘yilmalar tariqasida sanoat, qishloq xo‘jaligi, transport va boshqa tarmoqlarga sarf etiladigan xarajatlar yig‘indisidir. Xorijiy investitsiyalar esa, xorijiy investorlar tomonidan yo‘naltiriladigan investitsiyalar bo‘lib, xorijiy mulkdorlarning boshqa mamlakat iqtisodiyotining turli tarmoqlariga daromad olish maqsadida muayyan muddatga qo‘yilgan kapitalidir. Xorijiy investitsiyalar boshqa iqtisodiyotdan milliy iqtisodiyotga jalb qilingan kapital bo‘lib, ularning ichki investitsiyalaridan tubdan farqlanishi xatar bilan bog‘liqdir.

Investitsiyalar iqtisodiy yoki ijtimoiy samara keltiradigan va tadbirkorlik, ishbilarmonlikning davlat tomonidan ta’kidlanmagan faoliyatlariga jalb qilinadigan(sarflanadigan) barcha turdagi mulkiy va intellektual boyliklariga aytiladi. Samara keltiradigan mulkiy va intellektual boyliklar, ya’ni investitsiyalar quyidagi shakllarda bo‘lishi mumkin:

- pul mablag‘lari, banklardagi maqsadli jamg‘armalar, paylar, aksiyalar vaboshqa qimmatbaho qog‘ozlar;
- harakatdagi va harakatda bo‘lmagan mulklar (binolar, inshootlar,asbob-uskunalar);
- mualliflik huquqi, ixtirolardan foydalanish huquqlaridan («nou-xau»)

tashkil topgan mulkdorlik huquqlari, boshqa intellektual boyliklar;

- yer va boshqa tabiiy resurslardan foydalanish huquqlari hamda mulkchilik huquqlari;

– boshqa boyliklar.

Investitsiyalarni shartli ravishda moliyaviy va real investitsiyalarga ajratish mumkin. Moliyaviy investitsiyalar shaxsiy kompaniyalar va davlat idoralari tomonidan muomalaga chiqarilgan aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa qimmatbaho qog‘ozlarga hamda bank depozitlariga uzoq muddatga jalb qilingan qo‘yilmalardir. Moliyaviy investitsiyalar qimmatli qog‘ozlar bozorida sarflanishi va shu bozorda qatnashishini anglatadi. Moliyaviy investitsiyalar erkin bozor infratuzilmasi rivojlangan mamlakatlarda, qimmatbaho qog‘ozlar bozori kapitalining sohalar bo‘yicha taqsimlanishida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan davlatlarda ko‘proq tarqalgan. Moliyaviy investitsiyalar o‘z navbatida, mulkiy shakli jihatidan davlat va xususiy investitsiyalarga bo‘linadi.

Xususiy investitsiyalar tadbirkorlar, xususiy firmalar, kompaniyalar, konsernlar, aksiyadorlik jamiyatlari yoki boshqa shakldagi mulk egalarining foyda (daromad), samara olish maqsadida davlat tomonidan ta’qiqlanmagan faoliyatlariga sarflaydigan moddiy va intellektual boyliklarini bildiradi. Real investitsiyalar esa moliyaviy investitsiyalardan farq qilib, ular asosiy kapital va moddiy boyliklarni o‘stirishga sarflanadigan qo‘yilmalarda namoyon bo‘ladi. Real investitsiyalar sarfi asosiy fondlarning o‘sishiga, yangilanishiga, moddiy boyliklarning ko‘payishiga olib keladi.

Fan-texnika taraqqiyotining kuchayishi bilan intellektual potensial ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish uchun sarflanadigan qo‘yilmalar ham o‘sib boradi. Shuning uchun ham bugungi kunda real investitsiyalar tarkibida ilmiy izlanishlar, fan, ta’lim, kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash uchun sarflanadigan xarajatlar miqdori o‘sib bormoqda. O‘z navbatida real investitsiyalar ham davlat va xususiy investitsiyalarga bo‘linadi. Rivojlangan mamlakatlarda real investitsiyalarning asosiy qismini xususiy investitsiyalar tashkil etadi.

Davlat sektorida ham real investitsiyalar sarfi muhim ahamiyatga ega. Iqtisodiy muvofiqlashtirish siyosati asosida kreditlar, subsidiyalar ajratiladi hamda davlat tomonidan kapital qo‘yilmalar muvozanatlashtiriladi va real investitsiyalar o‘zlashtiriladi. Davlat tomonidan o‘zlashtiriladigan investitsiyalar, avvalo, bozor infratuzilmasini va u bilan bog‘liq bo‘lgan tarmoqlarni rivojlantirishga sarflanadi. Investitsiyalar samaradorligini oshirish ko‘proq, asosiy kapitalning aktiv elementlarini vujudga keltirish va

o‘stirish hisobiga amalga oshiriladi.

Mamlakatimizda bugungi kunda xorijiy investorlar uchun qulay investitsiya muhiti barpo etilmoqda. Bu qulayliklar ular uchun yaratilgan turli hukumat kafolatlari va imtiyozlarda o‘z aksini topmoqda. Har bir mamlakatning investitsiya muhiti, birinchi navbatda, uning siyosiy barqarorligidadir. Xuddi ana shu omil chet ellik investorlarning boshqa mamlakatga uzoq muddatli shartnomalar asosida resurslarni jalb qilish imkoniyatini kengaytiradi. O‘zbekiston Respublikasi qulay investitsiya muhitini yaratish bo‘yicha izchil chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda. Ularning negizida ikkita asosiy omil yotadi:

– iqtisodiy barqarorlik;

– inflatsiya jarayonlarini tartibga solish va milliy valyuta so‘mning to‘lov qobiliyatini oshirishga yo‘naltirilgan makroiqtisodiy siyosat.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida investitsiya moliyaviy munosabatlarining ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan zarurligi milliy iqtisodiyotda yangi turdagi mulkchilik shakliga asoslangan ishlab chiqarish jarayonining shakllanishini ko‘rsatadi. Investitsiyalarning shakllanish jarayonida turli mulkchilik shakllariga asoslangan yuridik va jismoniy shaxslar qatnashadi. Natijada investitsiyaning turli shakllari rang-barang yuridik va jismoniy shaxslar mablag‘lari asosida vujudga keladi. Investitsiya turli mulkchilikka asoslangan yuridik va jismoniy shaxslarning mablag‘lari hisobiga shakllansada, u iqtisodiy mohiyati jihatidan respublika iqtisodiyoti tarmoqlarini rivojlantirish va aholining ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarini yaxshilashga qaratiladi.

Odatda, investitsiya ko‘proq aholining zaruriy miqdordagi iste’mol qiymatidan ortiqcha mablag‘i hisobiga jamg‘ariladi. Tadbirkorlar oldida doimo mablag‘ ishlab chiqarishni olib borish, uni kengaytirishlari uchun takroriy kengaytirilgan ishlab chiqarishni tashkil etish zarurati turadi. Zero investitsiyalarga bo‘lgan zarurat esa talab va taklifga bog‘liqdir. Investitsiyalarni jalb etish qisqa va uzoq muddatda amalga oshiriladi. Ammo tadbirkor uchun uzoq muddatga investitsiya olish iqtisodiy jihatdan ahamiyatliroqdir.

Fikrimizcha, buning asosiy sabablari, quyidagilardan iborat:

– qisqa muddatli investitsiya vakillari bo‘lgan jismoniy shaxslar tomonidan omonat kassalariga qo‘yilgan pullar tez daromad keltirishi zarur;

– qisqa muddatli investitsiyaning moddiy manfaatdorligi uni tezlik bilanqoplanishida namoyon bo‘ladi;

– jamg‘arilgan investitsiyani talab va taklif asosida kelishilgan taqsimlashtizimini ishlab chiqarilishiga bog‘liq.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida investitsiya jarayoni ishlab chiqarish tarmoqlarining tarkibiy o‘zgarishlari va moliya resurslariga bo‘lgan talab va taklifga bog‘liq bo‘ladi. Ayrim iqtisodchilar esa, investitsiyani “...bu ishlab chiqarishni kengaytirish, mahsulot sifatini oshirish uchun sarf etilgan xarajat”, deb hisoblaydilar. Investitsiya milliy ishlab chiqarish hajmiga, ish bilan bandlikka, fondlarga va iqtisodiy o‘sishga ta’sir etadi.

Yu.V.Bogatin va V.A.Shenderlar: “Investitsiya har qanday tadbirkor loyihasini amalga oshirish shartidir, u pul shaklida bo‘lib, yangi ishni tashkil etish uchun zarur bo‘lgan resurslarni sotib oladi”, - deb fikr bildiradilar. “Investitsiya - bu pul, qimmatli qog‘ozlar va aylanma fondlar, mulklar, kengaytirilgan ishlab chiqarishni tashkil etish uchun, uni kengaytirish uchun sarflangan, aholining o‘sib borayotgan iste’molini qondirish va ularning iqtisodiy sharoitlarini yaxshilash uchun sarflanayotgan pul mablag‘larini o‘zida ifoda etgan iqtisodiyotning rivojlanish omilihisoblanadi”.

Investitsiya va moliya mablag‘laridan foydalanish, fondlarining tashkil topishi kichik va xususiy ishlab chiqarishlarda investitsiyalardan samarali foydalanishni ta’minlaydi. O‘zaro fondlardan foydalanish odatda tijorat yoki investitsiya banklari tomonidan chiqarilgan qimmatli qog‘ozlar orqali tartibga solinadi va boshqariladi.

Investitsiyalarning mamlakat iqtisodiy o‘sishini ta’minlashdagi roli to‘g‘risida Prezidentimiz Oliy Majlisga qilgan murojaatida ta’kidlab o‘tdiki, chuqur ilmiy- amaliy tadqiqotlar asosida aniqlangan va barcha imkoniyatlarga ega bo‘lgan sanoat tarmoqlari tarkibidagi neft-gaz, metallurgiya, mashinasozlik, elektrotexnika, farmatsevtika, qurilish materiallari, to‘qimachilik, charm-poyabzal kabi sohalaraynan iqtisodiyotimizning “drayverlari”ga aylanishi uchun 2021-yilda qanday ishlarni amalga oshirish borasida ham o‘z fikrlarini bayon etib quyidagilarga alohidato‘xtalib o‘tdilar, xususan:

– raqobatbardosh sanoat zanjirlarini yaratishda ishtirok etuvchi sohalarda jami qiymati 23 mlrd. dollarga teng bo‘lgan investitsiyalar o‘zlashtirilishi va 226 ta yirik sanoat va infratuzilma

obyektlari ishga tushirilishi;

– investitsiya siyosatida davlat ishtirokini pasaytirish, xususiy va to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar ulushini oshirishning ustivorligini ta’minlash;

– 2021-yilning 1-apreliga qadar istiqbolli sanoat klasterlari ro‘yxatini aniqlash hamda ularni rivojlantirish bo‘yicha alohida dastur ishlab chiqilishiniamalga oshirish;

– “Bojxona hududida qayta ishlash rejimi” da sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish ko‘paytirilishi;

– mamlakatimizda geologiya-qidiruv sohasida 50 ta kon va istiqbolli maydonlar auksionlar orqali investorlarga sotilishi qayd etib o‘tildi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida 2022-yilda “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili” Davlat dasturi doirasida bajarilgan ishlar natijasi amalda o‘zining ijobiy natijalarini berdi. Xususan, mamlakat iqtisodiy o‘sishini ta’minlash va raqobatbardosh sanoat zanjirlarini yaratishda investitsion loyihalarni ko‘paytirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan, mamlakatimiz resurslar imkoniyatini hisobga olgan holda investitsion loyihalarni ishlab chiqish va samarali joriy etish aynan sanoat tarmoqlarida tarkibiy o‘zgartirishlarni chuqurlashtirishga, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modemizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Mamlakatimizda, shu jumladan mahailiy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash va yuqori qo‘shilgan qiymatga ega tayyor mahsulot ishlab chiqarishni ta’minlovchi yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni modernizatsiya qilish va tashkil etishga qaratilgan investitsiya siyosatini yanada faollashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Investitsiya loyihalarini amalga oshirish mexanizmlarini tubdan takomillashtirish va soddalashtirish, investitsiyalarni, avvalo, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va o‘zlashtirishni kengaytirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi.

Ushbu qaror doirasida O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi tomonidan manfaatdor vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlar bilan birgalikda ishlab chiqilgan, quyidagilarni o‘z ichiga oluvchi O‘zbekiston Respublikasining 2020-2023-yillarga mo‘ljallangan Investitsiya dasturi asosida 850,5 trln so‘m

investitsiyalar, shu jumladan 35,5 mlrd AQSh dollari miqdoridagi xorijiy investitsiyalar o‘zlashtirilishini nazarda tutuvchi 2020 - 2023 yillarda kapital qo‘yilmalarni o‘zlashtirishning yig‘ma prognoz parametrlari, shuningdek, 2020- 2023-yillarda investitsiyalar va kreditlarni o‘zlashtirish hamda jalb qilish, 206 ta yangi ishlab chiqarish quvvatlari va 31 mingdan ziyod ish o‘rinlari yaratilishini nazarda tutuvchi 2020-yilda yirik ishlab chiqarish obyektlari va quvvatlarini ishga tushirish masalalari belgilab berildi.

Unga ko‘ra respublikamizda sanoat tarmoqlarini rivojlantirish va to‘g‘ridan- to‘g‘ri investorlarni jalb qilish borasida hukumatimiz ko‘magida ijobiy ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Xususan, Jahon banki, Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot banki, Islom va Osiyo taraqqiyot banklari, boshqa xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikdagi investitsiyalar doirasidagi munosabatlar ijobiy tomonga o‘zgarmoqda. Shuningdek, 2020-yilda o‘zlashtirilgan xorijiy investitsiyalar 6.6 mlrd. AQSh dollarini tashkil etgan holda asosiy kapitalga yo‘naltirilgan.

Bugungi kunda aynan investitsiya loyihalarini ishlab chiqish va joriy etish investorlar qatori mamlakatimiz uchun ham katta ahamiyatga ega. Shu jihatdan, investitsiya majburiyatlarini bajarishda asosan 2-bosqichda amalga oshirilishi belgilab berilgan. Bugungi kunda har bir davlat uchun investitsiya loyihalarini amalga oshirish dolzarb ahamiyatga egadir. Investitsiya - bu “iqtisodiyot drayveri” sifatida “iqtisodiyotning yuragi”, harakatga keltiruvchi kuch desak mubolag‘a qilmaymiz. Mamlakat iqtisodiy o‘sishini ta’minlashda investitsiya bilan birga turli soha va tarmoqlarga, shuningdek, hududlarga ham yangi texnologiyalar, ilg‘or xorijiy tajribalar, yuksak malakali mutaxassislar kirib keladi, kichik biznes vatadbirkorlik faoliyati jadal rivojlanadi.

Iqtisodiyotning barcha sohalarida erkinlashtirishga katta erk berilishi investitsiya faoliyatining jonlanishiga, barqaror faoliyat ko‘rsatuvchi bozor munosabatlarini barpo etish orqali ishlab chiqarish samaradorligining oshishiga va tadbirkorlikning rivojlanishiga qulay zamin yaratadi, Bu esa o‘z navbatida ularni eski usullarda, ya’ni davlat mablag‘lari hisobiga amalga oshirish endlikda mumkin emasligini ko‘rsatadi.

7.4. O‘zbekistonda xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiyo‘sishga ta’siri

Jahon iqtisodiyotida rivojlangan davlatlarda AKTga asoslangan raqamli iqtisodiyotni rivojlanishi, fan-texnika taraqqiyoti sur’atlarini, kapital va inson resurslaridan foydalanish imkoniyatlari belgilab bermoqda. “Hisob-kitoblarning ko‘rsatishicha jahon ilmiy-texnika salohiyatining 90% va global yuqori texnologiyalar bozorining 80% Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT)ga a’zo bolgan rivojlangan davlatlar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda”.

Natijada rivojlanayotgan davlatlarda quvib yetish siyosati asosida ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik taraqqiyot asosi bo‘lgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarga ta’lab oshib bormoqda. «Rivojlanayotgan davlatlarga investitsiyalarni kirib kelishi, 2% o‘sish bilan barqaror qoldi. Bu o‘sish natijasida, rivojlangan davlatlarga investitsiyalarni kirib kelishi anomal darajada kamayishi, global xorijiy investitsiyalarda rivojlanayotgan davlatlarning ulushi rekord darajada 54%ga o‘sishiga olib keldi”.

Mamlakatimizda va uning mintaqalarida so‘nggi yillarda qulay investitsiyaviy va ishbilarmonlik muhitini shakllantirish, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarga keng yo‘l ochish, qonunchilik barqarorligini ta’minlash, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, investitsion muhitni tubdan yaxshilash borasida amalga oshirilayotgan tizimli ishlar iqtisodiyotimizga yo‘naltirilgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmining oshishiga muhim asos bo‘lmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev qayd qilib o‘tganlaridek: “Iqtisodiyotni yuqori sur’atlar bilan rivojlantirish uchun faol investitsiya siyosatini izchil davom ettirish zarur”[7].

Investitsiya muhiti investitsiya resurslarini joylashtirish uchun umumiy mezon bo‘lib, birinchi navbatda, kapital mablag‘larning daromadliligini ta’minlab beradi. “Investitsiya muhiti deganda mamlakat iqtisodiyoti va uning ma’lum bir hududiga kiritiladigan investitsiyalarning samaradorligini va xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan iqtisodiy, ijtimoiy, tashkiliy, huquqiy, siyosiy, ekologik, madaniy va boshqa shart-sharoitlar majmuasi tushuniladi”. U

[7] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev “2022—2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonningTaraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF-60-son Farmoni. Toshkent sh., 2022 yil 28 yanvar, www.lex.uz

muayyan hududga investitsiyalar kiritishning maqsadga muvofiqligi va jozibadorligini belgilaydigan shart-sharoitlarning mavjud ijobiy va salbiy tomonlarini anglatadi. “Mamlakatning investitsion jozibadorligi - ma’lum investorning maqsadlariga mintaqaning mos kelish darajasi bo‘lib, xususan, tavakkalchilikni mos darajasida investitsiyalashni o‘ziga xos imtiyozlari sharoitida, investitsiya qilgan kapitalidan maqsadli daromad olish imkoniyati ifodalovchi majmuali tavsif bo‘lib hisoblanadi”

Milliy iqtisodiyotning investitsion jozibadorligiga, birinchidan, uning nisbatan barqaror va mintaqaviy darajada boshqaruv qarorlariga ta’sir etmaydigan uning ba’zaviy shart-sharoitlari bo‘lib hisoblanadi. Ularga mintaqani geograflk joylashuvi, tabiiy ob-havo darajasi, qazilma boyliklari, tabiiy xomashyo resurslari vashu bilan birga uning transport infratuzilmasi obyektlari holati bo‘lib hisoblanadi. Ikkinchidan, milliy iqtisodiyotning investitsion jozibadorligiga ta’sir etuvchi omillarga mintaqada uzoq vaqt davomida shakllangan investitsion muhit. Uni baholash milliy iqtisodiyotning investitsion jozibadorligiga bog‘liq ya’ni investitsion jozibadorlik bilan investitsion muhiti o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqlik mavjud.

Investitsion muhitga ma’lum malaka va ta’lim darajasiga ega bo‘lgan mehnat resurslari, ishlab chiqarish, moliyaviy va innovatsion salohiyati, institutsional muhiti va bozor infratuzilmasi bilan ta’minlanganligiga bog‘liq. Uchinchi guruhga investitsion tavakkalchilik bilan bog‘liq omillar bo‘lib investitsion jozibadorlikka nisbatan qisqa va o‘rta muddatda, katta ta’sir etish imkoniyatlariga ega. Milliy iqtisodiyotni investitsion jozibadorligini baholash uchun uning iqtisodiy, ijtimoiy, moliyaviy, boshqaruv, ekologik, krimogan, va siyosiy tavakkalchiliklarini ham hisobga olish maqsadga muvofiq. “Xuddi ana shu omillar xorijlik investorlarga uzoq muddatli shartnomalar asosida boshqa mamlakatga o‘z resurslarini kiritish imkonini beradi. Bunday muhit uzoq muddatli investitsiya rejalarini amalga oshirishda juda muhimdir”.

“Investitsiya muhiti bu murakkab va ko‘p o‘lchamli tushuncha bo‘lib, u muayyan mintaqaga investitsiya kiritish jozibadorligi va maqsadga muvofiqligini ko‘rsatuvchi ijtimoiy, iqtisodiy, tashkiliy, huquqiy, siyosiy va boshqa shart- sharoitlar yig‘indisi shaklida namoyon boladi. Shuning uchun investitsiya muhitini baholash bitta ko‘rsatkich bilan emas, balki ko‘p sonli ko‘rsatkichlar tizimi orqali

amalga oshiriladi. Bu esa investitsiya muhitini miqdoriy baholash yondashuvlarining ham turli tavsifga ega bo‘lishiga sabab bo‘ladi”.

O‘zbekistonda investitsiya muhitining yaxshilanib borishi va uning investitsion jozibadorligini baholashning eng samarali usullaridan biri bu uning reytinglarini baholash bo‘lib hisoblanadi. Jahon banki mutaxassislari tomonidan har yili 190 ga yaqin mamlakatlar bo‘yicha tuziladigan Jahon banki va Xalqaro moliyaviy korporatsiyaning “Biznesni yuritish” yillik hisobotini e’lon qilib boradi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi “Jahon banki va xalqaro moliya korporatsiyasining “Biznes yuritish” yillik hisobotida O‘zbekiston Respublikasining reytingini yangilashga doir chora-tadbirlar to‘g‘risidagi PQ-4160 sonli qaroriga ko‘ra O‘zbekistonni reytingini oshirish bo‘yicha yo‘l xaritasi ishlab chiqilib, unga ko‘ra 2020-yilda 66-o‘rin, 2021-yilda 33-o‘rin, 2022-yilda 20-o‘ringa ko‘tarish uchun chora-tadbirlar belgilab qo‘yilgan. Mazkur reytingni baholash metodologiyasi korxonalarni ro‘yxatdan o‘tkazish, qurilishga ruxsat olish, elektr tarmog‘iga ulanish, mulkni ro‘yxatdan o‘tkazish, kredit olish, investorlarni himoya qilish, soliqqa tortish, xalqaro savdo, shartnomalarning bajarilishini ta’minlash, to‘lovga noqobillikni hal qilish kabi o‘nta yo‘nalishdagi ko‘rsatkichlarni hisoblashga asoslanadi.

Bank va tadbirkorlar o‘rtasida ishonchning ortib borishi, yosh tadbirkorlarning qo‘llab-quvvatlanishi, kichik biznes subyektlariga kredit olishning qulaylashtirilganligi, kredit majburiyatlar bo‘yicha yagona “Garov reyestri”ning tashkil topishi kabi islohotlar kredit olish bo‘yicha xalqaro reytingda keskin o‘sish imkoniyatini berdi. O‘zbekistonda investitsiya muhitining yaxshilanib borishi natijasida so‘nggi yetti yil davomida ushbu xalqaro reytingdagi 10 ta ko‘rsatkichdan 7 tasi bo‘yicha, ayniqsa, kredit olish (+87 pog‘onaga ko‘tarildi), elektr manbalariga ulanish (+133 pog‘onaga ko‘tarildi), mulkni (+70 pog‘onaga ko‘tarildi) va korxonani (+79 pog‘ona ko‘tarildi) ro‘yxatdan o‘tkazish, investorlarni himoya qilish (+100 pog‘onaga ko‘tarildi), soliqqa tortish (+96 pog‘onaga ko‘tarildi), xalqaro savdoga imkoniyatlar yaratib berish (+37 pog‘onaga ko‘tarildi) yo‘nalishlaridasalmoqli va yuqori bo‘ldi.

Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 25-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reytinglar va

indekslardagi o‘rnini yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”dagi PQ-4210-sonli Qarori bilan mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarni baholashning yaxlit va mustaqil tizimini shakllantirish, shuningdek, respublikaning xalqaro reytinglardagi o‘rnini yaxshilashni ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi va Adliya vazirligining O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reytinglardagi o‘rnini monitoring qilish va baholash milliy tizimi joriy etildi.

O‘zbekiston Respublikasida “Koronavirus pandemiyasi va global inqiroz holatlarining iqtisodiyot tarmoqlariga salbiy ta’sirini yumshatish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5969-son Farmoni bilan iqtisodiyot tarmoqlariga koronavirus pandemiyasi va global inqiroz holatlarining salbiy ta’sirlarini yumshatish bo‘yicha choralar to‘plami tasdiqlandi. Mazkur yig‘ma jildda investitsiyalar dasturini qayta ko‘rib chiqish asosiy tarmoqlar mutanosibligini ta’minlashda tashqi moliyaviy manbalarni shakllantirish masalasiga ham alohida e’tibor qaratilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining investitsion muhit ko‘rsatkichlarini yaxshilanishi natijasida milliy iqtisodiyotga katta miqdorda xorijiy investitsiyalar kirib kelmoqda. 2019-yilda jami 86653,1 mlrd so‘m (9,8mlrd dol) yoki 2018-yilga nisbatan 2,5 marta ko‘p asosiy kapitalga xorijiy investitsiyalar o‘zlashtirildi. Asosiy kapitalga qilingan investitsiyalarda xorijiy investitsiyalar ulushi 45,7%ni tashkil qildi. Xorijiy investitsiyalarning salmoqli ulushi Qashqadaryo viloyatida 71%, Surxondaryo viloyatida 61,8%, Buxoro viloyatida 52,9%, Jizzax viloyatida 47,0%, Sirdaryo viloyatida 46,5%, va Namangan viloyatida 43,6% kuzatildi. Yalpi ichki mahsulotga nisbatan xorijiy investitsiyalar 16,9%ni tashkil etdi. O‘zlashtirilgan jami 9803,5 mln dollar xorijiy investitsiyalarning 4205 mln yoki 42,9%, to‘g‘ridan- to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar tashkil etdi. Xorijiy investitsiyalar faoliyat yo‘nalishlaribo‘yicha tarkibi:

- Qayta ishlash sanoati - 33%;
- Elektr, gaz ta’minlash - 19%;
- Tog‘-kon sanoati - 18%;
- Qurilish -2%;
- Sog‘liqni saqlash - 2%;
- Axborot va aloqa - 2%;
- Tashish va saqlash 3%;

– Boshqalar 21%.

Qo‘shma korxonalar tashkil etish orqali xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning keng ommalashgan shakllardan biri bo‘lib hisoblanadi. “O‘zbekiston Respublikasida qo‘shma korxona deganda, nizom kapitalining kamida 30% xorijiy investorga tegishli bo‘lgan va xorijiy investor faqat yuridik shaxs bo‘lgan, nizom kapitalining eng kam miqdori 150000 AQSh dollariga teng bo‘lgan ekvivalent summani tashkil etgan korxonalarga aytiladi.

Qo‘shma korxonalar sonini ko‘payishi xorijiy investitsiya oqimining kuchayishidan va mamlakatda ishlab chiqarish imkoniyatlari kengayishidan hamda iqtisodiy o‘sish sur’atlarining jadallashuvidan dalolat beradi. Bu Harakatlar strategiyasida iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeyini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishini rag‘batlantirishga qaratilgan institutsional va tarkibiy islohotlar natijasi deb baholash mumkin.

Mamlakatimizda yaratilgan qulay investitsion muhit hisobiga 2019-yilda 10382 tadan ziyod qo‘shma korxonalar ro‘yxatdan o‘tib, ularning aksariyati mamlakatimizda yaratilayotgan yalpi ichki maxsulotning o‘sishida, mehnatga layoqatli ishchi va xizmatchilarni yangi ish o‘rinlari bilan ta’minlashda, aholi daromadlarini shakllanishida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuningdek, ular respublikadagi asosiy ishlab chiqarish vositalarining yangilanish darajasini, ya’ni ma’naviy va jismoniy eskirish koeffitsiyentini pasaytirishga, yuridik va jismoniy shaxs soliq to‘lovchilari qatorida soliq yukini pasaytirish bilan birga, davlat budjetining daromadini to‘ldirishda, import o‘rnini bosib, eksportga yo‘naltirilgan tovarlar ishlab chiqarishda, xizmatlar ko‘rsatishda va nihoyat, erkin valyutani tejash bilan bir qatorda, ularning milliy iqtisodiyotga tushumini ko‘paytirib, milliy valyutaso‘mning barqarorligini oshirishda yaqindan xizmat ko‘rsatib kelmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida aholi soni barqaror o‘sib bormoqda. Bu o‘sish O‘zbekistonning Harakatlar strategiyasi dasturida iqtisodiyotni texnik-texnologik jihatdan modernizatsiya qilish, tarkibiy o‘zgarishrlarni amalga oshirish, mamlakat eksport salohiyatini kengaytirish va investitsiyalarni va unda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish masalalariga alohida e’tibor

qaratilganligi sababli 2017-2019-yillarda soni 188,2%ga o‘sdi va 2019-yilga kelib 10382 tani tashkil etdi. Tadqiq qilinayotgan davrda O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga jalb etilgan xorijiy investitsiyalarning asosiy 62,2% ulushiga to‘g‘ri kelayotganini ko‘rish mumkin. 2019-yilda XIQK tomonidan mamlakatimiz YaIM ni hamda sanoat mahsuloti ishlab chiqarishda roli ortib bormoqda. Masalan 2019-yilda XIQK tomonidan 95,1 trln so‘mlik, o‘sish sur’ati 135,8%, mahsulot ishlab chiqarildi. Bu umumiy sanoat mahsulotining 28,7%ni tashkil etadi.

Respublika XIIK tomonidan sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng yuqori ulushlar Toshkent sh. 17,7%, Toshkent viloyati 16,3%, Navoiy viloyati 13,5%, Andijon viloyati 10,0%, Qashqadaryo viloyati 6,2% va Farg‘ona viloyati 5,9% xissasiga to‘g‘ri keladi. Eng past ko‘rsatkich Surxondaryo viloyati 1,3% hamda Jizzax viloyati 1,4% ulushiga to‘g‘ri kelmoqda.

XIIKlar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi 2005-yilda 3,2 trln so‘mdan 2019-yilga kelib 95,1 trln so‘mni tashkil qilmoqda. Bu 2019-yilda yalpi sanoat mahsulotining 28,7%ni tashkil qilmoqda. XIIK ning mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarish hajmi o‘sishi bilan birga ushbu sohada band bo‘lgan ishchilar soni ham o‘sib bormoqda. XIIKda band bo‘lganlar soni 2005-yilda 7,5 ming ishchidan 2019-yilga kelib 49,6 ming ishchi mehnat qilmoqda va bu Respublikada band mehnat resurslarining 2,61%ni tashkil etadi.

XIIK mamlakatimizning barcha mintaqalarida tashkil etilgan bo‘lib, ular viloyat, tuman va shaharlarniing ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmasini davr talabiga mos ravishda shakllantirishda yaqindan ko‘mak berib kelmoqda.

Shuni alohida qayd etish kerakki, xorijiy investitsiyalarga asoslangan qo‘shma korxonalarning hududlar bo‘yicha taqsimlanishi va ularning umumiy xorijiy investitsiyalardagi ulushi bir tekisda bo‘lmay, balki nomunatosiblik mavjud. Ayrim mintaqalarda aholi jon boshiga nisbatan keragidan ortiq bo‘lsa, ayrimlarida juda pastligi namoyon bo‘lmoqda. Jadval ma’lumotlaridan ma’lum bo‘lyaptiki, 2010-2019-yillarda XIQK Respublikamizda mintaqalar bo‘yicha notekis joylashgan. Birgina Toshkent shahrini oladigan bo‘lsak, bu yerda respublikada faoliyat ko‘rsatayotgan qo‘shma korxonalarning qariyb 2010-yilda 73,6% to‘g‘ri kelgan bo‘lsa 2019-yilga kelib 56,9% to‘g‘ri kelgan. Qolgan o‘n uchta mintaqaga esa mos ravishda 26,4%

va 43,1% XIQK to‘g‘ri kelmoqda.

Bizningcha, Respublika bo‘yicha ushbu holatning yuzaga kelishiga ta’sir etgan bir qator obyektiv sabab va omillar mavjud bo‘lib, ularning asosiylari quyidagilar hisoblanadi. Jumladan:

- poytaxtda qo‘shma korxonalar ishlab chiqarayotgan tovarlar, bajarayotgan ishlar va ko‘rsatayotgan xizmatlarga talabgor bo‘lgan iste’molchilarning boshqa hududlarga nisbatan to‘lov qobiliyati yuqori ekanligi;
- poytaxtda moliyaviy va ijtimoiy infratuzlmalarning nisbatan yaxshi tashkil etilganligi;
- temir yo‘l, aeroport va vazirlik hamda qo‘mitalarning aksariyati poytaxtda joylashganligi sababli, qo‘shma korxonalarning ro‘yxatdan o‘tishi va xomashyo hamda materiallarni import yoki tayyor mahsulotlarni eksport qilishdagiyaratilgan qulayliklar;
- korxona takror ishlab chiqarish maqsadida investitsion faoliyatini amalga oshirishi uchun moliyalashtirish manbalarining nisbatan yetarliligi va boshqalar.

O‘zbekiston Respublikasida MDH davlatlarining kapitali ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni oshib bormoqda. Ularning asosiy ulushi Rossiya Federatsiyasi 17,6%, Qozig‘iston Respublikasi 7,8%, Ozarbayjon Respublikasi 1,7%, Qirg‘iz Respublikasi 1,5% va Tojikiston Respublikasi l,6%ga to‘g‘ri kelmoqda.

Bizga tadqiqotchi A.E.Qobilov tomonidan XIIK faoliyatini tashkil etish va rivojlantirishda mavjud muammolarni aniqlash bo‘yicha faoliyat olib borayotgan 42 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalari katta qiziqish uyg‘otadi. So‘rovnoma natijalariga ko‘ra investitsiya kiritishning dominant strategik maqsadi sifatida “bozor izlash” omili baholangan. Investitsiya kiritishdan sabablari o‘rganilganda, XIQKning rag‘batlantiruvchisi sifatida “resurs izlovchi” omili mintaqadagi arzon ishlab chiqarish omillari (ishchi kuchi, energiya, xomashyo zaxiralari) baholangan. So‘rovnomada xorijiy investorlarning mintaqadagi o‘zlarining iqtisodiy faoliyatini 1-5 ballar shkalasi oralig‘ida baholashda, so‘rovnomada qatnashgan 42 ta korxonalarning o‘rtacha natijasi 4.1 ballni tashkil qilgan. Bundan xulosa qilish mumkinki XIIK manfaatidan kelib chiqib, fan sig‘imi yuqori bo‘lgan raqobatbardosh tovarlar va xizmatlar ishlab chiqaruvchi raqamli

iqtisodiyot tarmoqlariga investitsiya kiritish emas, balki mintaqadagi arzon ishlab chiqarish omillari, ishchi kuchi, energiya, xomashyo zaxiralarini qazib chiqarish va qayta ishlovchi tarmoqlarga investitsiya kiritishustunlik qilmoqda.

XIIK faoliyatini tashkil etish va rivojlantirishda keyingi muhim muammolarga bizga ma'lumki 2019-yilda 10382 ta XIKK 5105 tasi qo‘shma korxona va 5276 tasi xorijiy korxona bo‘lib hisoblanadi. Demak 5105 ta XIKK tashkil etishda birinchi bosqichda investitsion loyihalar ishlab chiqiladi. Biroq investitsion loyihalarni moliyalashtirishda asosiy muammo bu investitsion loyihalarni investitsiya oldi fazasida bajariladigan texnik-iqtisodiy asosnomani talab darajasida ya'ni unga ta'sir etuvchi barcha omillarni hisobga olgan holda baholash masalasidir. Investitsion loyihalarni texnik-iqtisodiy asoslarini ishlab chiqish va baholash jarayonini takomillashtirish hamda uning texnik-iqtisodiy asoslarni ishlab chiqishdagi mavjud muammolarni aniqlash va ularni samarali hal etish jarayoni bilan muvofiq holda amalga oshirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni samarali jalbetishning ustuvor yo‘nalishlarga:

Iqtisodiy yo‘nalishlar:

- mintaqa iqtisodiyotini tarkibiy tuzilmasini takomillashtirish vatexnik-texnologik jihatdan modernizatsiyalash;
- xorijiy investitsiyalarni raqobatbardosh yuqori texnologik bilimlar iqtisodiyotiga yo‘naltirish asosida raqamli iqtisodiyotni shakllantirish;
- bozor va ishlab chiqarish infratuzilmasi institutlarini rivojlantirish vakengaytirish;
- tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish va eksportni rag‘batlantirish.

Me'yoriy-huquqiy yo‘nalishlar:

- korporativ boshqaruv sohasidagi yondashuvlarni tubdan o‘zgartirish vaikkilamchi qimmatli qog‘ozlar bozorini rivojlantirish;
- institutsional islohotlar asosida xorijiy investitsiyalarni tartibga soluvchidavlat va bozor institutlari sifatini oshirish;
- xorijiy investitsiyalarni faol o‘zlashtirishda kadrlar sifatini hamdaijtimoiy mehnat unumdorligini oshirish;
- mintaqada qulay ishbilarmonlik va tadbirkorlik

erkinligini ta’minlash hamda investitsiya faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilikni takomillashtirish.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotga o‘tish sharoitida istiqbolda AKT, bio va nanotexnologiyalar, kimyo, farmatsevtika, mashinasozlik va metallni qayta ishlash, mikroelektronika, nozik kimyo texnologiyalari, axborot-kommunikatsiya va lazer-optik texnologiyalar, tiklanadigan energetika yutuqlaridan foydalanish, yangi materiallar ishlab chiqarish va SL kabi sanoat tarmoqlarini rivojlanishiga olib keluvchi sohalarda tashkil etish maqsadga muvofiq bo‘ladi. O‘zbekiston Respublika qazilma boyliklarni , qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, qurilish materiallari, to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan sanoat klaster korxonalarni tashkil etish uchun imkoniyatlar va salohiyatga ega. Mavjud bo‘sh turgan ishlab chiqarish maydonlari, mehnat tabiiy resurslardan foydalanish mintaqaning modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlangan korxonalarida yoki yangi tashkil etilgan xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarda tashqi bozorlarga tovarlar va xizmatlarni eksport qilish uchun o‘tish qiymatli, sifatli mahsulot ishlab chiqarish quvvatini ta’minlash imkoniyatiga ega.

Asosiy xulosalar

1. Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiyot bilan bog‘liq holda bank faoliyatini takomillashtirib borish uchun marketing tadqiqotlarini muntazam ravishda olib borish maqsadga muvofiqdir. Faqat shunday usul bilan investitsiya bozorida samaradorlikni oshirish va barqarorlikka erishish mumkin.

2. Eklektik nazariya firma bir vaqtning o‘zida barcha uch ustunlikdan foydalana olgan taqdirda xorij bozorida to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar yordamida muvaffaqiyatli ish yuritishi mumkinligini asoslab beradi. Masalan, firma faqat mulkchilik yoki joylashuv nuqtai-nazaridan ustunlikka ega bo‘lsa, u xorijiy bozorda eksport yoki franchayzing kabi o‘zgacha xizmat ko‘rsatish uslublarini qo‘llashi mumkin bo‘ladi.

3. Transmilliy kompaniyalar ekspansiyasining maqsad, motivlari va shuningdek to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarni amalga oshirishning usul va vositalarini e’tiborga olgan holda retsipiyent mamlakatlar uchun investitsiyalarni jalb qilishning quyida bayon

qilingan ijobiy va salbiy oqibatlarini aniqlashtirishimiz mumkin. Shu tariqa, ayrim mamlakatlar iqtisodiy rivojlanish darajasining pastligi va davlat tuzilmalarining tarqoqligi bois, investitsiyalarning turli mamlakatlar iqtisodiyotiga turli xil ta’sir ko‘rsatishi mumkinligi borasidagi dalillar muhimahamiyat kasb etadi.

4. “Investitsiya muhiti bu murakkab va ko‘p o‘lchamli tushuncha bo‘lib, u muayyan mintaqaga investitsiya kiritish jozibadorligi va maqsadga muvofiqligini ko‘rsatuvchi ijtimoiy, iqtisodiy, tashkiliy, huquqiy, siyosiy va boshqa shart- sharoitlar yig‘indisi shaklida namoyon bo‘ladi. Shuning uchun investitsiya muhitini baholash bitta ko‘rsatkich bilan emas, balki ko‘p sonli ko‘rsatkichlar tizimi orqali amalga oshiriladi. Bu esa investitsiya muhitini miqdoriy baholash yondashuvlarining ham turli tavsifga ega bo‘lishiga sabab bo‘ladi”.

5. Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotga o‘tish sharoitida istiqbolda AKT, bio va nanotexnologiyalar, kimyo, farmatsevtika, mashinasozlik va metallni qayta ishlash, mikroelektronika, nozikkimyo texnologiyalari, axborot-kommunikatsiya va lazer-optik texnologiyalar, tiklanadigan energetika yutuqlaridan foydalanish, yangi materiallar ishlab chiqarish va SL kabi sanoat tarmoqlarini rivojlanishiga olib keluvchi sohalarda tashkil etish maqsadga muvofiq bo‘ladi. O‘zbekiston Respublika qazilma boyliklarini, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, qurilish materiallari, to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan sanoat klaster korxonalarni tashkil etish uchun imkoniyatlar va salohiyatga ega.

Muhokama uchun savollar

1. Investitsiya bozorini qanday shakllantirish mumkin?
2. Moliyaviy islohotning asosiy maqsadi haqida fikringiz?
3. Pul bozori va investitsiya bozori o‘rtasida qanday farqlar mavjud?
4. Xorijiy investitsiyalar deganda nimani tushunasiz?
5. Moliyaviy va real investitsiyalarni qanday tushunasiz?
6. O‘zbekistonda qulay investitsiya muhitini yaratish uchun qaror, chora-tadbirlar amalga oshirilyaptimi?
7. Qisqa va uzoq muddatli investitsiyalarni tushuntiring.
8. Chet ellik investorlarning investitsiyalarini O‘zbekiston

Respublikasihududiga jalb etish qanday yo‘llar bilan amalga oshiriladi?

9. Investitsiyalar joylashuvini barqarorlashtirish qanday amalgaoshiriladi?

10. Barqaror iqtisodiy o‘sishning asosiy yo‘nalishlari nimalardan iborat?

11. O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni samarali jalb etishning ustuvor yo‘nalishlari haqida gapiring

12. 2020-yilda o‘zlashtirilgan xorijiy investitsiyalar qancha mlrd. AQShdollarini tashkil etgan?

VIII BOB. TUTASH AVLODLAR IQTISODIY O‘SISH MODELI

8.1. Tutash avlodlar iqtisodiy o‘sish modelida jamg‘arishning mohiyati vaomillari

8.2. Iqtisodiy o‘sishda uy xo‘jaliklari jamg‘armalari va investitsiyalari

8.3. Raqobatbardoshlik kategoriyasining mohiyati va metodologikasoslari

8.4. Milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini iqtisodiy o‘sishga ta’siri

Tayanch iboralar: *Tutash avlodlar, jamg‘arish, iste’mol, investitsiya,jamg‘arish normasi, uy xo‘jaliklari, aholi jamg‘armalari, samaradorlik, raqobatbardoshlik, xalqaro raqobat, mezon darajadagi raqobatbardoshlik, firma, tarmoq, mahsulot, raqobat kurashi, strategik marketing, narx-navo, iqtisodiy o‘sishda ijtimoiy iqtisodiy modellar, inson kapitali, daromad, sog‘liqni saqlash, axborot resurslari, milliy qadriyatlar, ijtimoiy himoya, mexnat, tadbirkorlik.*

8.1. Tutash avlodlar iqtisodiy o‘sish modelida jamg‘arishning mohiyati vaomillari

AQShning Masachuset texnologiya institutining professori Nobel mukofoti laureati Piter Daymond tomonidan ishlab chiqilgan modelga ko‘ra iqtisodiyotda mehnat resurslari hayot faoliyati davomida bir necha bosqichlarda amal qiladi. Ular asosan ikki davrdan, mehnatga layoqatli davr va nafaqa davrlardan iborat.

Ushbu ketma-ketlikda avlodlar faoliyat olib boradi. Har-bir bosqichda yangi yoshlar avlodlari kirib keladi va oldingi yosh avlod esa asta-sekin nafaqaga chiqadi.Shu nuqtai nazardan iqtisodiyotda ikki tutash avlod yashaydi va mavjud bo‘ladi. Hayotining birinchi davrida mexnat resurslari mavjud ishlab chiqarish quvvatlari asosida mexnat qiladi, daromad topadi va uning bir qismini nafaqaga ajratib qoldiradi. Ushbu mablag‘lar jamlanib iqtisodiyotga investitsiya qilinadi va ular asosida yangi ishlab chiqarish quvvatlari shakllantiriladiki ular yordamida yangi keyingi yosh avlodga yanada ko‘proq daromad topishga imkon yaratiladi.

Shunday qilib iqtisodiyot o‘sadi, unda jamg‘arish normasi

individning maksimallashtirish vazifasidan kelib chiqib ya’ni ikkala hayotiy davrda bir xil darajada iste’molni ta’minlash maqsadida endogen aniqlanadi.

Piter Daymond tomonidan ishlab chiqilgan model iqtisodiyotda pensiya tizimini isloh qilishda juda foydali hisoblanadi. Biroq iqtisodiy o‘sish modeli sifatida oldinga harakat qilishga imkon bermadi. Uning mantig‘i R.Solov modeli mantig‘iga olib keladi.

Keyingi mahsulot birligini ishlab chiqarish unumdorligining pasayish sharoitida har bir avlodning investitsiyasi kam samaradorlikka ega bo‘lib boradi. Ishlab chiqarish quvvatlarining amortizatsiyasini to‘ldirib turish uchun xarajatlar o‘sadi. Iqtisodiyotda barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash uchun ekzogen texnik taraqqiyot talab etiladi.

Jamg‘arish iqtisodiyotdagi yalpi sarflarning tarkibiy qismlaridan biri hisoblanib, investitsion tavsifdagi tovarlarga talab darajasini belgilab beradi. Investitsiyalar jamg‘arishning amalda namoyon bo‘lish shakli bo‘lganligi sababli dastlab, tahlilni jamg‘arishning mohiyati, omillari va samaradorligini nazariy jihatdan asoslash bilan boshlaymiz.

Jamg‘arish -milliy daromadning bir qismi (jamg‘arma) asosiy va aylanma kapital olami, shuningdek, ehtiyot zaxiralarini ko‘paytirish uchun sarflanishidir. Ishlab chiqarish va noishlab chiqarish maqsadidagi jamg‘arish bir-biridan farqlanadi. Jamg‘arilgan mablag‘larning moddiy ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalarining asosiy kapitallarini va aylanma mablag‘larini kengaytirishga ketadigan qismi ishlab chiqarish sohasidagi ***jamg‘arish summasini*** hosil qiladi. Ishlab chiqarish sohasidagi jamg‘arish iqtisodiy o‘sishning muhim omilidir.

Ijtimoiy-madaniy sohadagi jamg‘arish (noishlab chiqarish jamg‘arishi) uy- joy fondini, kasalxonalar, o‘quv muassasalari, madaniyat, sog‘liqni saqlash, sport muassasalari, ya’ni nomoddiy soha va tarmoqlarni kengaytirish, rekonstruksiyalash, yangilashga sarflanadi. Noishlab chiqarish sohasini kengaytirish ham ishlab chiqarishni rivojlantirishning zarur shartidir.

Klassik iqtisodchilar nuqtai nazaridagi eng markaziy holat - bu ular tomonidan foiz stavkasining ham investitsiyaning, ham jamg‘armaning funksiyasi sifatida qaralishi hisoblanadi.

Klassik modelni tuzishda tik o‘q bo‘yicha real foiz stavkasi,

yotiq o‘q bo‘yicha esa jamg‘arma va investitsiya hajmi ko‘rsatkichlari joylashtirilgan. Investitsiya va foiz stavkasi o‘rtasida teskari funksional bog‘liqlik mavjud: foiz stavkasi qanchalik yuqori bo‘lsa, investitsiya hajmi shu qadar past bo‘ladi va aksincha. Jamg‘arma esa to‘g‘ri, o‘suvchi funksional bog‘liqlikka ega, ya’ni foiz stavkasining yuqori bo‘lishi jamg‘arma darajasining ham yuqori bo‘lishiga olib keladi.

Iqtisodiyotdagi investitsiya va jamg‘arma hajmlari o‘rtasida muvozanat (E nuqta)ga erishish uchun foiz stavkasining ro darajasi ta’minlanishi lozim. Foiz stavkasi darajasining muvozanat darajasidan chetlanishi investitsiya va jamg‘arma hajmi o‘rtasidagi muvozanatning buzilishiga olib keladi. Foiz stavkasining n darajasida investorlar uchun qulay narxlarning vujudga kelishi investitsion resurslarga bo‘lgan talabni oshiradi, biroq bunday darajada jamg‘arma uchun rag‘bat pasayib ketadi. Natijada investitsion resurslar taqchilligi paydo bo‘ladi. Gg darajada esa barcha subyektlar uchun jamg‘armaning nafliligi oshadi, biroq bunday foiz darajasida barcha investorlar ham o‘z faoliyatining foydaliligini ta’minlay olmaydilar. Natijada jamg‘armaning ahamiyatli qismi investitsiyalarga aylana olmaydi.

Keynschilarning investitsiya va jamg‘arma o‘rtasidagi muvozanat modeli o‘z tuzilishiga ko‘ra klassik modeldan farq qiladi. Bunda eng markaziy nuqta - J.M.Keyns tomonidan jamg‘arma foiz stavkasining emas, balki daromadning funksiyasi deb qaralishi hisoblanadi: $S = S(Y)$. Investitsiya esa, klassik modeldagi singari, foiz stavkasining funksiyasi deb olinadi: $I = I(r)$. Ya’ni, keynscha konsepsiyaning asosida jamg‘arish va investitsiya darajalarining boshqa-boshqa omillar ta’sirida o‘zgarishi yotadi. Keynscha modelning mohiyatini quyidagi rasm orqali izohlash mumkin (10.3-rasm).

Rasmdan ko‘rinadiki, grafik ko‘rsatkichlarining joylashuvi ham klassik modeldan farq qiladi. Tik o‘qda jamg‘arma (S) va investitsiya darajasi, yotiq o‘qda esa milliy daromad darajasi (NI) joylashgan. Iqtisodiyotdagi jamg‘arma darajasi milliy daromad hajmiga bog‘liq holda o‘zgaradi. Milliy daromad hajmi amalda investitsiya darajasiga ham ta’sir ko‘rsatsa-da, mazkur modelda uni milliy daromadga bog‘liq bo‘lmagan, ya’ni avtonom holda beriladi. Grafikda investitsiya va jamg‘arma egri chiziqlari e nuqtada kesishadi. Agar

iqtisodiyotdagi to‘la bandlik holatiga milliy daromadning F darajasida erishiladi deb tasavvur qilsak, u holda bu darajada investitsiya va jamg‘arma muvozanatini (E F nuqta) ta’minlash uchun investitsiya I F darajada bo‘lishiga erishish lozim bo‘ladi. Biroq, Keyns talqiniga ko‘ra, investitsiya va jamg‘arma darajasining muvozanati to‘la bandlik bo‘lmagan sharoitda ham ta’minlanishi mumkin: grafikdagi milliy daromadning N hajmida aynan shu holatga (E nuqta) erishiladi.

Investitsiya va jamg‘arma darajalari muvozanatining klassik va keynscha modellari o‘rtasidagi farq quyidagilar orqali namoyon bo‘ladi:

birinchidan, klassik modelda bu muvozanat ro‘y berishi uchun iqtisodiyotning doimiy ravishda to‘la bandlik holatida bo‘lishi taqozo etiladi. Keynscha modelda esa, yuqorida ko‘rib chiqilganidek, bu muvozanatga to‘la bandlik bo‘lmagan holatda ham erishish mumkin;

ikkinchidan, klassik modelda narx mexanizmi juda harakatchan bo‘ladi.

Keynscha modelda narxning bunday moslashuvchanligi inkor etiladi;

uchinchidan, yuqorida ta’kidlanganidek, klassik modelda jamg‘arma foiz stavkasining funksiyasi sifatida, keynsvha modelda esa daromad funksiyasi sifatida qaraladi. Demak, yuqoridagilardan ko‘rinadiki, jamg‘arma va investitsiya o‘rtasidagi muvozanatning keynscha modeli klassik modelga nisbatan asoslangan, real hayot, ya’ni iqtisodiyotning to‘la bandligi mavjud bo‘lmagan holatga nisbatan ham tatbiq etilib, takomillashtirilgan model hisoblanadi. Shunga ko‘ra, biz ham makro darajadagi boshqa muammolami ko‘rib chiqish va tahlil qilishda, asosan, ushbu modeldan foydalanamiz.

8.2. Iqtisodiy o‘sishda uy xo‘jaliklari jamg‘armalari va investitsiyalari

Bir qator mamlakatlar tajribasi iqtisodiyotning o‘sish sur’atlari bilan uy xo‘jaliklarining tasarrufdagi daromadlarida jamg‘armalarning ulushi o‘rtasida yaqqol ifodalangan o‘zaro bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatadi. Mamlakatimiz iqtisodiyotida ham uy xo‘jaliklarining jamg‘armalarini investitsiyalarga aytantirish borasida bir qator muammolar mavjud bo‘lishiga qaramasdan, uy xo‘jaliklarining jamg‘arilgan moliyaviy resurslariga muhim investitsion manba sifatida qaraladi.

Aholi daromadlarining o‘sishi uy xo‘jaliklarining jamg‘armalaridan investitsion resurslar sifatida foydalanish imkoniyatlarini ko‘rsatib beruvchi muhim ko‘rsatkich hisoblanadi.

Bozor munosabatlari sharoitida davlat va shuningdek, moliya va fond bozorlarining subyektlari ‘arish jarayonlarining zaruriy tomonlari hisoblanadilar. Mazkur subyektlar talab va taklif mexanizmi asosida jamiyatni taraqqiy ettirish uchun amaldagi qonunchilik asosida jamg‘armalarni investitsiyalashga qayta taqsimlashni amalga oshiradilar. Jamg‘armalarni turli omonatlarga va moliyaviy vositalarga jalb qilish - shaxsiy iste’mol sohasiga pul muoamalasining naqdsiz hisob -kitoblar tizimini, elektron o‘tkazmalar va shu kabi shakllarini joriy etishni tashkillashtirishdagi muhim bosqich hisoblanadi. Jamg‘armalarning tashkiliy shakllari muomala sohasida tejashga imkon bergani holda, kassa xarajatlarini kamaytirish imkonini beradi.

Rossiyalik tadqiqotchi I.P. Xominichning ta’kidlashicha, fond bozorlarida uy xo‘jaliklarining investitsion faolligining past darajasi moliya - kredit institutlarining tarkibiy jihatdan yetarlicha rivojlanmaganligi, turli investorlar uchun mo‘ljallangan rang-barang moliyaviy instrumentlar taklifining mavjud emasligi, investitsiyalash borasida yetarlicha axborotlar bazasining yo‘qligi, investitsion faoliyat borasida uy xo‘jaliklarida tajribaning yetarlicha emasligi, mamlakat aholisida jamg‘armalami investitsiyalash borasida madaniyatning to‘liq shakllanmaganligi kabi sabablar bilan izohlanadi.

Taraqqiyot yo‘lidan ildam harakat qilayotgan barcha mamlakatlar jamg‘armalardan investitsiyalami moliyalashtirishning muhim manbai sifatida keng ko‘lamda foydalanganliklariga guvoh bo‘lamiz. Aholi jamg‘arish jarayonining asosiy subyekti hisoblanadi, chunonchi aholi jamg‘armalar, shu jumladan uzoq muddatli jamg‘armalarning asosiy manbai bo‘lgan pul mablag‘lariga egalik qiladi. Shu sababli ham, uy xo‘jaliklari boshqa institutsional sektorlar, eng avvalo korxonalarga nisbatan sof kreditor hisoblanadi. Shu tariqa, aholining jamg‘arilgan aktivlari yangitdan barpo etilayotgan kapitalning asosiy manbai hisoblanadi.

Mamlakatimizda investitsiyalashni tashkil etish va uni moliyalashtirish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilayotganligiga qaramasdan aholi jamg‘armalarini iqtisodiyotning real sektoriga jalb qilish ishlari yetarlicha samara

berayotgani yo‘q. Jamg‘armalarning bugungi kunda yetarlicha investitsiyalarga aylanmayotganligi natijasida asosiy fondlarning yangilanishi, o‘sishi va mehnat unumdorligining ortishiga asoslangan iqtisodiy taraqqiyotning jadallashuvi o‘ta sust kechmoqda. Keyingi yillarda ijobiy iqtisodiy o‘sish sur’atlari kuzatilayotgan bo‘lsada, u ko‘proq ekstensiv tavsifga ega bo‘lib, asosan ichki talabni kengaytirishga asoslanadi. Bunday holatda iqtisodiy o‘sish sur’atlari sekinlashishi tabiiy hol hisoblanadi.

Uy xo‘jaliklari faoliyati samaradorligini tahlil qilishda uy xo‘jaligining samaradorligi o‘zini o‘zi keltirib chiqaruvchi ko‘rsatkich emasligiga e’tibor qaratishimiz lozim, zero uy xo‘jaligi faoliyatining samaradorligini oshirishga bir qator omillar va mavjud tartibga solish mexanizmining qay yo‘sinda tashkil etilganligi ta’sir ko‘rsatadi.

Iqtisodiy kategoriya sifatida uy xo‘jaliklari faoliyat ko‘rsatishining samaradorligi bir tomondan, uy xo‘jaliklari o‘rtasidagi, ikkinchi tomondan esa - ishlab chiqarish omillaridan xo‘jalikning o‘zida oqilona foydalanish va ma’lum bir aniq shart-sharoitlarda mazkur omillarni bozorda samarali sotishni tashkil etish borasida bozor, davlat va *korxonalar* o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarning umumiyligi bilan aniqlanadi. Uy xo‘jaliklari faoliyatining umumiy samaradorligi xo‘jalik faoliyatining natijalari bilan tashqi va ichki omillarning ta’sirini inobatga olgan holda amalga oshirilgan xarajatlar o‘rtasidagi nisbati sifatida namoyon bo‘ladi. Umumiy ko‘rinishda uy xo‘jaliklari faoliyat ko‘rsatishining samaradorligini quyidagicha ifodalashimiz mumkin:

S uy xo‘j = Natija - Xarajat

“Uy xo‘jaligi - bozor” aloqalari tomonidan uy xo‘jaliklari faoliyat ko‘rsatishining samaradorligini qarab chiqamiz. Uy xo‘jaligining bozor aloqalariga jalb qilinganligini ko‘rsatuvchi ko‘rsatkich ular tomonidan olingan daromad hisoblanadi. Bu daromad miqdori ichki va tashqi daromadlar miqdoriga bog‘liq bo‘ladi. Uy xo‘jaligining ichki daromadlari tartibga soluvchi mexanizmlar ta’siri ostida bo‘lgani holda, uy xo‘jaligining o‘zida shakllanadi va iste’mol qilinadi. Ichki daromad uy xo‘jaligining o‘z ehtiyojlari uchun qondiriluvchi iste’mol mahsulotlari va ishlab chiqarish omillari ko‘rinishidagi mablag‘ va vositalarda ifodalanadi.

Tashqi daromadlar bevosita bozorning tartibga soluvchi roli ta’siri ostida shakllangani holda, ishlab chiqarish omillari va ishlab

chiqarish natijasi bo‘lgan mahsulotlarni bozorda naq pulga sotish yoki natural ko‘rinishda ayirboshlash natijasi va shuningdek, qaytarib bermaslik sharti asosida olinuvchi daromadlarning umumiyligi sifatida namoyon bo‘ladi. Tashqi daromadlar quyidagi tartibga soluvchi subyektlar evaziga ham shakllanadi[8]. Bular qatoriga uy xo‘jaliklari korxonalardan oluvchi ish haqi va bir qator imtiyozlarni, davlat tomonidan taqdim etiluvchi bir qator ijtimoiy transfertlar va imtiyozlar (bepul ta’lim, bepul tibbiy xizmatlar va shu kabilar) ni kiritishimiz mumkin.

O‘z navbatida ularning har biri bevosita yoki bilvosita ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. Uy xo‘jaliklarining bevosita yoki to‘g‘ridan - to‘g‘ri daromadi tovar va xizmatlarni, ishlab chiqarish omillarini sotishdan olinuvchi daromad manbalarini o‘zida ifoda etadi. To‘g‘ridan - to‘g‘ri ko‘rinishdagi ichki daromad - uy xo‘jaliklarining ichki ehtiyojlarini qondirish uchun xo‘jalikning o‘zida ishlab chiqarish omillaridan foydalanilgan holda ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlardan olingan daromadni o‘zida ifoda etadi. To‘g‘ridan - to‘g‘ri ko‘rinishdagi tashqi daromad bozorda ishlab chiqarish omillarini, tovar va xizmatlarni sotishdan olingan daromadlarni o‘zida aks ettiradi.

Uy xo‘jaliklarining bilvosita daromadlari bilvosita manbalardan shakllanuvchi daromadlarni ifoda etadi. Bilvosita ko‘rinishdagi ichki daromadlar - uy xo‘jaligi sektori ichida tekin asoslarda olinuvchi turli daromad manbalaridan tashkil topadi. Bilvosita ko‘rinishdagi tashqi daromadlar davlat, korxonalar tomonidan uy xo‘jaligi a’zolariga tekin asosda to‘lab beriluvchi daromadlarni ko‘zdatutadi.

Uy xo‘jaliklarining samaradorligini bevosita va bilvosita olingan daromadlar qiymatini bevosita va bilvosita ko‘rinshdagi sarf-xarajatlar qiymatiga nisbati sifatida qarab chiqish maqsadga muvofiq sanaladi. Tegishli chora - tadbirlar tizimini amalga oshirish hisobiga uy xo‘jaliklari faoliyat ko‘rsatishining samaradorligini oshirishga erishishimiz mumkin. Bu xil chora - tadbirlarni quyidagi turlarga bo‘lishimizmumkin:

– xo‘jalikning o‘zini takomillashtirish borasidagi chora-tadbirlar;

– tartibga solishning bozor mexanizmini takomillashtirish

[8] M.A.Mamatov. Iqtisodiy o‘sish. O‘quv qollanma. - T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2021-384b.

borasidagichora-tadbirlar;

– korxonalar va uy xo‘jaliklari o‘rtasidagi munosabatlami takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar;

– davlat tomonidan tartibga solish mexanizmini takomillashtirishga oidchora-tadbirlar.

Mazkur tizimning tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, uy xo‘jaliklarini davlat tomonidan tartibga solish mexanizmini takomillashtirish hisoblanadi. Bizning flkrimizcha, uy xo‘jaliklari faoliyatini rejalashtirishda davlat quyidagi chora - tadbirlami amalga oshirishi maqsadga muvofiq hisoblanadi: mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorini yashash minimumi darajasigacha ko‘tarish ta’lim vasog‘liqni saqlashga davlat budjeti xarajatlarini oshirish.

Uy xo‘jaliklari ijtimoiy takror ishlab chiqarishning barcha to‘rt bosqichida ishtirok etadi. Ishlab chiqarish bosqichida, tovar va xizmatlami ishlab chiqarishda uy xo‘jaligi a’zolarining ishtiroki amalga oshadi. Taqsimlash bosqichida uy xo‘jaligi ma’lum bir daromadga egalik qiladi va olingan daromadlardan soliq to‘laydi, daromadning ma’lum bir qismini vaziyatdan kelib chiqqan holda jamg‘aradi. Uy xo‘jaliklari o‘z ixtiyorlaridagi resurslami sotishdan daromad olar ekan, turli iste’mol ne’matlarini xarid qilish uchun cheklangan daromadlarni taqsimlash borasida qarorlar qabul qiladilar.

Naflilikni maksimallashtirish uy xo‘jaliklarining bosh iqtisodiy manfaati hisoblanadi. Iste’mol ne’matlarini tanlash asnosida uy xo‘jaliklari bozor talabini shakllantiradilar. Ayirboshlash bosqichida uy xo‘jaligi qimmatli qog‘ozlar bilan bog‘liq operatsiyalarda ishtirok qiladi, kommunal xizmatlar uchun to‘lovlarni to‘laydi, kreditlardan foydalanadi, xo‘jaliklararo transfertlami amalga oshiradi. Iste’mol bosqichida uy xo‘jaliklari ichki ishlab chiqarish jarayonida resurslardan foydalanadi va iste’mol talabini shakllantira borib, ishlab chiqarish jarayoni natijasisifatida olingan ne’matlarni o ‘z a’zolarining ehtiyojlarini qondirish uchun sarflaydi.

8.3. Raqobatbardoshlik kategoriyasining mohiyati va metodologik asoslari

Iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlari raqobatbardoshligini oshirishda zaxiralarning ichki va tashqi imkoniyatlaridan samarali foydalanish ko‘p jihatdan bilimlarga asoslangan iqtisodiyotning shakllanishi bilan bog‘liq. Shuningdek, iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan

o‘zgartirish, yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi korxona va ishlab chiqarish tarmoqlarining jadal rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlarning tub mazmun-mohiyati milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini ta’minlashning shart-sharoitlari va asosiy yo‘nalishlarini shakllantirishga qaratilinganligi bilan alohida ahamiyatga egadir.

Milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan izchil islohotlar davomiyligi va samaradorligini ta’minlash, raqobatbardoshlik kategoriyasiningmohiyati va metodologik asoslarini hozirgi zamon iqtisodiyoti nuqtai nazaridan talqin etishni taqozo etadi. Tahlil natijalari jahon iqtisodiyotining globallashuvi, integratsion jarayonlarning kuchayishi, innovatsiyalarning jadal rivojlanishini shakllantirish hisobiga milliy iqtisodiyotning xalqaro raqobatbardoshlikka erishishi va jahon bozorida mustahkam mavqega ega bo‘lishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Raqobatbardoshlik o‘z navbatida raqobat kategoriyasi bilan o‘zaro uzviy aloqadorlikda bo‘ladi.

Korxonalar baholardan tashqari raqobatda tovarning quyidagi jihatlariga e’tibor beradilar va evaziga firmaning bir tekis rivojlanishiga erishadilar:

- tovarning texnik jihatdan yangiligi, uning avtomatlashtirilishi;
- tovarlarning yangidan-yangi ehtiyojlarni qondirish imkoniyatlari;
- o‘xshash tovarlarga nisbatan ishlab chiqarilayotgan tovarning chidamli,ishonchliligi, sifatining yuqorilik darajasi;
- tovarlami sotib olgan xaridorlarga ko‘rsatiladigan xizmatlarning xilma-xilligi;
- tovarlarning tejamliligi, ixchamligi, energo resurslarni kamroq xarajati;
- atrof-muhit uchun ekologik toza bo‘lishi va hokazolar.

Raqobatning noformal, jamiyat tomonidan qoralanadigan turi ham mavjud. Bu o‘rinda “g‘irrom raqobat” to‘g‘risida ham so‘z yuritishimiz kerak. Raqobat firmalar uchun hayot-mamot masalasi bo‘lgani uchun, ular ayrim hollarda raqobat kurashida g‘ayriqonuniy usullardan ham foydalanadilar. Bunda ular davlat tomonidan raqobat kurashini tartibga soluvchi turli qonun va qoidalarga xilof ravishda ish ko‘radilar. G‘ayriqonuniy usullarga quyidagilarni kiritish mumkin:

– baholar bo‘yicha bir nechta firmalarning o‘zaro kelishib olishlari;

– boshqa firmalar tovarlarining nomlari, tashqi ko‘rinishi, tovarnishonasidan o‘zboshimchalik qilib ruxsatsiz foydalanish;

– raqobatchilar to‘g‘risida noto‘g‘ri axborot yoki to‘g‘ri bo‘lsa hamularning obro‘siga ziyon beradigan ma’lumotlar tarqatish;

– reklamada tovarlami nojo‘ya solishtirish, axborot berish;

– raqobatchilarga nisbatan reket, shantaj va hokazolar yordamidazo‘ravonlik qilish;

– raqobatchining tijorat sirlarini pinhona bilib olish;

– konfedensial va maxfiy ma’lumotlarni ovoza qilish;

– tovarning sifati, xususiyatlari kabi masalada xaridorlarni aldash,noto‘g‘ri axborot berish va reklama qilish.

M.Porterning fikricha, raqobatning asosiy maydoni bu tarmoqdir, ya’ni bir xil yoki o‘xshash tovar ishlab chiqaruvchi yoki xizmat ko‘rsatuvchi va o‘zaro raqobat qiluvchi bir tarmoqdagi raqobatchilar guruhi hisoblanadi.

Tarmoqdagi raqobatga beshta omil ta’sir qiladi:

– yangi raqobatchilarning paydo bo‘lishi;

– o‘rinbosar tovar va xizmatlarning paydo bo‘lishi;

– yetkazib beruvchilarning savdolashish qobiliyati;

– xaridorlarning savdolashish qobiliyati;

– mavjud bo‘lgan raqobatchilarning o‘zaro raqobati.

Yuqoridagi besh omil tarmoqning daromadliligini belgilaydi. Chunki, ular bahoga, xarajatga, kapital qo‘yilmalarga va boshqalarga ta’sir qiladi.

Firmaning tarmoqdagi o’rni, avvalo, raqobat ustunligi bilan aniqlanadi. Agar firma barqaror raqobat ustunligiga ega bo‘lsa, u o‘z raqiblarini ortda qoldiradi:

– firmaning raqobatchilariga nisbatan kam xarajatlar bilan tovarlami ishlab chiqara olish va sota bilish qobiliyati haqida dalolat beruvchi, juda past xarajatlar;

– tovarlar differensiyasi, ya’ni firmaning iste’molchi ehtiyojini qondira olish qobiliyati.

Firmaning tarmoqda tutgan o‘rniga ta’sir qiluvchi boshqa bir muhim omil - bu firmaning o‘z tarmog‘i doirasida mo‘ljalga oluvchi raqobat muhiti, firma maqsadining kengligi hisoblanadi. Firma o‘zi uchun necha turdagi tovarlarni ishlab chiqarishini, qanday sotish

kanallaridan foydalanishini, qanday xaridorlarga xizmat ko‘rsatishini, qaysi joylarda o‘z mahsulotini sotishini va qaysi milliy tarmoqlarda raqobatlashishini hal qilib olishi kerak.

Xalqaro raqobatning xususiyatlari. Raqobat va raqobat strategiyasi haqida yuqorida ta’kidlanganlarning barchasi ichki bozor bilan bir qatorda tashqi bozorga ham taalluqlidir. Lekin shu bilan birga xalqaro raqobat ba’zi bir o‘ziga xos xususiyatlarga ham ega.

M.Porter mavjud raqobatning o‘ziga xosligiga ko‘ra ikki turdagi tarmoqlami ajratadi:

Ko‘p milliy tarmoqlar. Ushbu tarmoqlar uchun alohida mamlakatlarda raqobatning turlicha kechishi xosdir. Bunday tarmoqlarda yagona strategiyani qo‘llash mumkin emas. Misol uchun, jamg‘arma banklari.

Global tarmoqlar. Ushbu tarmoqlar dunyo bo‘yicha yagona raqobat maydoniga ega bo‘ladilar. Aynan shunday tarmoqlarda oddiy raqobat ustunligini emas, bali global raqobat ustunligini yaratish kerak bo‘ladi. M.Porter global strategiya sharoitida raqobat ustunligiga erishishning va undan foydalanishning ikki usulini ajratadi[9]:

Faoliyatni tartibga solish *(konfiguratsiya),* ya’ni o‘ziga xos xususiyatlaridan foydalanish maqsadida turli mamlakatlarda faoliyatning turli ko‘rinishlarinijoylashtirish.

Faoliyat turlarini davlat quyidagi mezonlardan kelib chiqib joylashtiradi:

- omillarning minimal qiymati;
- ITTKI22 ni o‘tkazish uchun zarur sharoitlarning mavjudligi;
- maxsus birikmalarning mavjudligi;
- mijozlar bilan munosabatlarning rivojlanganlik darajasi va boshqalar.Filiallar faoliyatini muvofiqlashtirish.
- bu o‘z ichiga axborot almashinuvini;
- javobgarlikni taqsimlashni;
- xatti-harakatlarni kelishishni qamrab oladi.

Makro darajadagi raqobatbardoshlikni baholash. Mamlakatning raqobatbardoshligi erkin va halol raqobat sharoitida mamlakatning jahon bozori talablarini qondiruvchi tovarlarni ishlab chiqarish va

[9] M.A.Mamatov. Iqtisodiy o‘sish. O‘quv qollanma. - T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2021-384b.

xizmat ko‘rsatish qobiliyatisifatida ta’riflash mumkin.

Mamlakatning raqobatbardoshlik ko‘rsatkichi, birinchi galda mamlakatning jahon bozoridagi mavqyeni tavsiflovchi, shuningdek, tovar va tovar ishlab chiqaruvchining hamda tarmoqning raqobatbardoshligini birlashtiruvchi umumiy ko‘rsatkich hisoblanadi.

Mezodarajadagi raqobatbardoshlikni baholash. Firmaning raqobatbardoshligini baholash. Iqtisodiyotni globallashtirish va baynalmilallashtirish davrida uning samaradorligi va ishlab chiqarilayotgan mahsulot talabgorligining yagona mezoni bo‘lib raqobatbardoshlik hisoblanadi. Hozirgi vaqtda *“raqobatbardoshlik”* tushunchasining yagona ta’rifi mavjud emas. Ushbu tushuncha talqinlarining ko‘p bo‘lishi ehtimolini belgilab beruvchi asosiy omillar bu iqtisodchilarning turli xil boshlang‘ich pozitsiyalari hamda ishlab chiqaruvchi sifatida faqat alohida korxona, tarmoq yoki butun iqtisodiyotning ko‘ribchiqilishidir.

Raqobatbardoshlik - nisbiy tushuncha, chunki bir turdagi bozorlarda muvaffaqiyatli raqobatlashuvchi tovar boshqa bozorlarda umuman raqobatbardosh bo‘lmaydi. Bu hol tashqi va ichki bozorlarda raqobatbardoshlikni chegaralash zaruratini keltirib chiqaradi.

Shunday qilib, raqobatbardoshlik sohasida umumiy konsepsiyani shakllantirish uchun mazkur holatning barcha tomonlarini hisobga olish lozim. Biroq qator mamlakatlar tajribasiga ko‘ra ichki bozordagi raqobat xalqaro raqobatning asosi hisoblanadi.

Raqobat munosabatlarining barcha xili uchta bosqichda amalga oshiriladi:

- mahsulot, ishlab chiqarish va korxonaning muayyan mikro turlari;
- mezotarmoqlar, korxonalarning tarmoq korporativ birlashmalari vagorizontal integratsiyalashgan firmalar;
- tarmoqlararo integratsiyalashgan makroiqtisodiy majmualar.

Har qanday sanoat firmasi, har qanday tovar ishlab chiqaruvchi u tashkil etilgan vaqtdan boshlab va butun faoliyati davomida o‘zi uchun zarur bo‘lgan raqobatbardoshlik muammolarini hal etishiga to‘g‘ri keladi. Jahonning ko‘plab mamlakatlari iqtisodiyoti jahon xo‘jaligi aloqalariga jalb etilgan, milliy bozor va uning talablari esa jahon bozori va xalqaro raqobatbardoshlikning faol ta’siri ostida shakllanadi.

O‘zi uchun yangi hisoblangan bozorga kirib borish, ishlab chiqarishni kengaytirish yoki uni qisqartirish, texnologik jihozlarni modernizatsiya qilish, yoxud ishlab chiqariladigan mahsulotni yangilash maqsadida investitsiyalarni amalga oshirishda, albatta, ishlab chiqaruvchi yoki korxonaning raqobatbardoshligini baholash talab etiladi.

Korxona strategiyasi, ya’ni oldinga qo‘yilgan maqsadlarga erishish yo‘llarini belgilab beruvchi asosiy omillarni aks ettirishdan iborat:

1. Qo‘llaniladigan ilmiy yondashuvlar va boshqaruv usullarining soni vachuqurligi nuqtai nazaridan boshqaruv tizimining kuzatuvi sifatini tahlil qilish:

- o‘z fan-texnika taraqqiyoti tizimi;
- ITTKIning moddiy-texnika bazasi;
- mutaxassislarning ijodiy salohiyati;
- yangiliklarni joriy etishga undash;
- raqobat va korporatsiya motivlari;
- o‘zgartirishlar kirituvchi yangiliklar;
- o‘zgartirish kiritmaydigan yangiliklar;
- bozor talablariga moslashish;
- mahsulot tizimini rivojlantirish;
- texnologiyani rivojlantirish;
- binolar va inshootlarni loyihalashtirish.

2. Tizimning chiqish komponentlarini, ya’ni tashkilot strategiyasining sifatini tahlil qilish, uning ichki zaif va kuchli tomonlari, tashqi tahdidlar va imkoniyatlardan kelib chiqib madsadni aniqlashtirishdan iborat *(“SWOT-tahlil”).*

3. Tashkilot chiqishidagi asosiy raqobatchilar faoliyat ko‘rsatishining raqobatbardoshligi, samaradorligi va barqarorligi, tashqi tahdidlar va imkoniyatlar, raqobatchilarning ichki kuchli va zaif tomonlari.

4. Tarmoqda raqobat qonuni, monopoliyaga qarshi qonun xujjatlari, amal qilish mexanizmi, tarmoqda raqobat shakli va kuchining tahlili.

5. Tashkilotga ijobiy va salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi mamlakat makro muhiti omillari.

6. Tizimga kirishda raqobat qonuni, monopoliyaga qarshi qonun xujjatlari amal qilish mexanizmi, tashkilot yetkazib

beruvchilari o‘rtasida raqobat kuchining tahlili.

7. Boshqaruv tizimining boshqariladigan kichik tizimi sifatini tovarlar sifati va resurs talab qilishi, ularga servisning sifati, bozor infratuzilmasi, faoliyatning ushbu yo‘nalishlari samaradorligi tahlilini tashkil qilish.

8. Tashkilotni boshqarish tizimining boshqaruvchi kichik tizimlarini strategik va taktik boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish va amalga oshirish bo‘yichaxodimlarni boshqarish nuqtai nazaridan tahlil qilish.

9. Strategik marketing, innovatsion va ishlab chiqarish menejmenti, taktik marketing tizimida aloqalar tarkibi, mazmuni va sifatini tahlil qilish, uning zaif va kuchli tomonlarini aniqlash.

10. Ishlab chiqariladigan tovarlar, yangiliklar va bajariladigan xizmatlar, xodimlar va texnologiyalar, umuman, tashkilotning raqobatbardoshligini tahlil qilish.

11. Resurslardan foydalanish samaradorligi va ishlab chiqarish rentabelliginitahlil qilish.

12. Tashkilot faoliyat ko‘rsatishining barqarorligini tahlil qilish.

13. Tovarlar raqobatbardoshligi, ular asosida tashkilot strategiyasini ishlab chiqish uchun uning faoliyat ko‘rsatishi samaradorligi va barqarorligining strategik va taktik omillarini belgilash.

Mintaqaning raqobat jihatdan ustunliklari quyidagilar bilan aniqlanadi:

– *birinchi bosqichda*-ishlab chiqarish omillari: tabiiy resurslar, tovarlarishlab chiqarish uchun qulay shart-sharoitlar, malakali ishchi kuchi hisobidan;

– *ikkinchi bosqichda*-ta’lim, texnologiya, litsenziyaga tajovuzkorinvestitsiyalash asosida;

– *uchinchi bosqichda* - “romb”ning barcha tarkibiy qismlarining amal qilishi yo‘li bilan mahsulotning yangi turlarini, ishlab chiqarish jarayonlarini tashkiletish, tashkiliy qarorlar va boshqa innovatsiyalar hisobidan;

– *to‘rtinchi bosqichda* - tashkil etilgan boylik hisobidan va to‘liq foydalanmayotgan barcha determinantlarga tayanadi.

Raqobatni kuzatib borish tizimi quyidagi to‘rt asosiy savolga javob topishga asoslanadi:

– raqobatchilar asosiy maqsadlari nimalardan iborat?

– ushbu maqsadlarga erishish uchun ayni paytdagi joriy strategiya qanday?

– raqiblar o‘z strategiyasini amalga oshirish uchun qanday vositalargaegalar?

– ular kelgusida qanday strategiyalarni ilgari surishlari mumkin?

14. Dastlabki uch savolning javobi kelgusi strategiyalarni avvaldanprognozlashga imkon beradi.

To‘rtta savolning barchasi bo‘yicha to‘plangan ma’lumotlarni tahlil qilish natijasida raqiblarning faoliyati to‘g‘risida to‘liq tasavvurga ega bo‘lish mumkin. Ko‘plab yirik firma va kompaniyalar raqobatni kuzatishga katta e’tibor berib, kerakli ma’lumotlarni to‘plash uchun katta mablag‘larni sarflaydilar. Tovarlar raqobatbardoshligini ta’minlovchi unsurlar quyidagi rasmda keltirilgan.

– ko‘pgina katta firmalar boshqa firmaga birlashib, lider darajasiga chiqish uchun aniq choralar qabul qilishi asosida raqobat kuchayadi.

– tovarga bo‘lgan talab sekin o‘sganda raqobat kuchli bo‘ladi.

– qachon tarmoqda xo‘jalik yuritish sharoitlari firmani narxinipasaytirishga olib kelsa yoki sotish hajmini oshirishdan boshqa vositalari qo‘llanilsaraqobat kuchayadi.

15. Qachon xaridor xarajatlari bitta marka iste’molidan uncha kattabo‘lmagan boshqasiga o‘tayotganda raqobat kuchayadi.

16. Qachon bitta yoki bir necha firmalar o‘zining bozor ulushidanqoniqmagan bo‘lsa raqobat kuchayadi.

17. muvaffaqqiyatli strategik qarorlarning foydaning o‘sishi bilan proporsional holatida raqobat kuchayadi.

– qachon bozordan chiqish xarajatlari katta bo‘lganda to‘siqlar yuqori bo‘lganda raqobat kuchayadi.

– qachon strategiyalar, resurslar, tashkiliy xususiyatlar, firma missiyalari yuqori darajada farq qiladagan bo‘lsa raqobatning borishini aytish mumkin.

Firma raqabatbardoshlik xususiyatlarini tashkil etnvchilari

Raqobatbardoshlikka ta’sir etuvchi omillar:

– raqobatchi firmalar soni;

– raqiblar harakatining diversifikatsiyalashuvi darajasi;

- bozordagi talab hajmini o‘rganish;
- mahsulotni tabaqalashuvi darajasi;
- iste’molchining bir ishlab chiqaruvchidan boshqasiga ko‘chishharakatlari;
- bozordan chiqib ketish to‘siqlari va ularning darajasi;
- bozorga kirib kelish va uning darajasi;
- yondosh tarmoq bozorlaridagi vaziyat;
- raqiblar strategiyasidagi farqlar.

Tarmoqni raqobatbardoshligini baholashda quyidagi ko‘rsatkichlar tahlil etiladi. Tarmoq raqobatbardoshligi mazkur tarmoqda ishlab chiqariladigan tovarning raqobatbardoshligiga bevosita bog‘liq. Korxonalar raqobatbardoshligi tarmoqdagi holatiga va uning mavqeyiga ta’sir ko‘rsatadi, lekin aynan tovarning raqobatbardoshligi, o‘z navbatida, korxonalarning raqobatbardoshligiga bevosita ta’sir ko‘rsatgan holda ular uchun ham hal qiluvchi omil hisoblanadi. Tarmoq va korxona *(firma)*ning raqobat jihatdan ustunliklari bir - biriga o‘xshash bo‘lib, ular tashqi va ichki ustunliklarga bo‘linadi.

Tarmoq va firmaning tashqi raqobat ustunliklariga quyidagilar kiradi:

- mamlakat raqobatbardoshligining yuqori darajasi;
- kichik va o‘rta biznesning davlat tomonidan faol qo‘llab-quvvatlanishi;
- mamlakat iqtisodiyoti faoliyat ko‘rsatishining sifatli huquqiy tartibgasolinishi;
- jamiyat va bozorlarning ochiqligi;
- mamlakat iqtisodiyotini boshqarishning yuqori ilmiy darajasi;
- standartlashtirish va sertifikatlash milliy tizimining xalqaro tizim bilanuyg‘unlashuvi;
- fan va innovatsiya faoliyatining davlat tomonidan tegishlicha qo‘llab-quvvatlanishi;
- mamlakatni boshqarishni axborot bilan ta’minlashning yuqori sifati;
- mamlakat ichida va jahon hamjamiyati doirasida integratsiyalashuvningyuqori darajasi;
- mamlakatda past soliq stavkalari;
- qulay va arzon resurslarning mavjudligi;

– mamlakatda boshqaruv kadrlarini tayyorlash va qayta tayyorlashningsifatli tizimi va boshqalar.

Tarmoq (firma)ning ichki raqobat ustunliklariga quyidagilar kiradi:

– tovarga bo‘lgan yuqori ehtiyoj;

– jamlash, ixtisoslashuv va kooperatsiyaning optimal darajasi;

– boshqaruvning yuqori sifatli axborot va me’yoriy-uslubiy asosi;

– yetkazib beruvchilarning raqobatbardoshligi;

– sifatli xomashyo va boshqa resurslardan foydalanish imkoniyatiningmavjudligi;

– resurslardan foydalanish samaradorligini optimallashtirish ishlariningbajarilishi;

– tub yangiliklarning yuqori darajasi *(patentlangan tovar, texnologiyalar,axborot tizimlari va h.k.)*\

– menejerlarning raqobatbardoshligi;

– tovarning eksklyuzivligi;

– ko‘p ilm talab qiluvchi tovarlar eksportining yuqori ulushi;

– raqobatbardosh tashkilotlar va tovarlarning yuqori salmog‘i va boshqalar.

Mamlakat faoliyat ko‘rsatishining umumiy ko‘rsatkichlariga o‘z ichiga YaIM, aholi, aholi jon boshiga YaIM, aholi jon boshiga YaIMning real o‘sishi, ishsizlik darajasi hamda aholining bandligi ko‘rsatkichlarini oladi. Xalqaro tashkilotlar (banklar)ga esa o‘z navbatida Jahon banki (JB) ning biznesni rivojlantirishda investitsiyalarning samaradorligi, Jahon bankining mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda investitsiyalarning samaradorligi, Xalqaro valyuta fondi (XVF)ning biznesni rivojlantirishda investitsiyalarining samaradorligi, XVFning mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga investitsiyalarining samaradorligi, Mintaqaviy Tiklanish va taraqqiyot banklari (TTB)ning biznesni rivojlantirishga investitsiyalarining samaradorlig, Mintaqaviy TTBning mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga investitsiyalarining samaradorligi kiradi.

18. Jahon Iqtisodiy Forumining metodikasiga muvofiq har bir mamlakat uchun iqtisodiy o‘sish nuqtai nazaridan eng muhim bo‘lgan

makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar asosida o‘lchanadigan o‘zining raqobatbardoshlik indeksi ishlabchiqiladi.

19. Mamlakat raqobatbardoshligi omillari (ko‘rsatkichlari)ning tahlili milliy iqtisodiyotlar rivojlanishning jahon tendensiyalaridan kelib chiqqan holda ular ichidan mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishiga va uning raqobatbardoshligini oshirishga katta ta’sir ko‘rsatuvchi asosiylarini aniqlash imkonini beradi, xususan inson salohiyatini rivojlantirish (ta’lim, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy soha), fan-texnika inqilobi, innovatsiyalarni rivojlantirish va h.k.

20. Mamlakatning raqobatbardoshligini baholash uchun dastlab axborotni yig‘ish va uning ishonchliligini tekshirish, so‘ngra keyingi bosqichda mamlakat unga intilishi lozim bo‘lgan raqobatbardoshlik darajasining me’yorlarini belgilash zarur. Ushbu holatda biz milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish uchun qaysi yo‘nalishda ish olib borish lozimligini aniqlash maqsadida jahondagi eng yaxshi hisoblangan me’yorlami ko‘zda tutish lozim.

21. Shuni ta’kidlash lozimki, turli ko‘rsatkichlar jahondagi eng yaxshi ko‘rsatkichlarga qaraganda katta yoki kichik qiymatga ega bo‘lishi mumkin, chunki har bir mamlakat o‘z xususiyatiga va mamlakat uchun qandaydir optimal qiymatga ega, ya’ni mamlakat barcha ko‘rsatkichlar bo‘yicha raqobatbardosh bo‘lishi mumkinemas.

AQSh misolida ko‘rgazmali hisob-kitoblarni amalga oshiramiz. Nima uchun biz ushbu mamlakatni tanladik? Buning bir necha sabablari mavjud: birinchidan, bu jahonning bozor iqtisodiyotiga ega bo‘lgan eng rivojlangan mamlakati, ikkinchidan, so‘nggi yillarda u JIFning jahonda mamlakatlarning raqobatbardoshligi bo‘yicha reytingida yuqori mavqelarni egallagan. Aynan AQShda iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish bo‘yicha 2015-yilgacha mo‘ljallangan strategik dasturlar qabul qilinganligi va AQSh ma’muriyati tomonidan mazkur dasturlarning amalga oshirilishiga juda katta e’tibor qaratilishi ham muhim omil hisoblanadi. Ushbu dasturlarda barcha ko‘rsatkichlarni, ayniqsa inson salohiyatini rivojlantirish va ITTKI bo‘yicha ishlarni ko‘paytirishga doir ko‘rsatkichlarni yaxshilash chora- tadbirlari ko‘zda tutilgan.

Ko‘rsatkichlarning ushbu tarkibidan dastlabki uchtasi eng muhim, chunki ular jamiyat rivojlanishining harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi, demak, ular milliy iqtisodiyotning rivojlanish darajasini

belgilab beruvchi strategik ko‘rsatkichlardir. Lekin ko‘rsatkichlar qiymatini baholashda «Mamlakat aholisi turmushining sifati» ko‘rsatkichini biz jamiyatni rivojlantirishdan maqsad aholining farovonligini oshirishdan iboratligidan kelib chiqqan holda uchinchi ko‘rsatkichdan yuqoriga qo‘ydik. Shunday qilib, mamlakat aholisi turmushining sifati muhim samarali ko‘rsatkich hisoblanadi.

Iqtisodiyotni globallashtirish va baynalminallashtirish davrida uning samaradorligi va ishlab chiqarilayotgan mahsulot talabgorligining yagona mezoni bo‘lib raqobatbardoshlik hisoblanadi. Hozirgi vaqtda «raqobatbardoshlik» tushunchasining yagona ta’rifi mavjud emas. Ushbu tushuncha talqinlarining ko‘p bo‘lishi ehtimolini belgilab beruvchi asosiy omillar - bu iqtisodchilarning turli xil boshlang‘ich pozitsiyalari hamda ishlab chiqaruvchi sifatida faqat alohida korxona, tarmoq yoki butun iqtisodiyotning ko‘rib chiqilishidir.

Raqobatbardoshlik - nisbiy tushuncha, chunki bir turdagi bozorlarda muvaffaqiyatli raqobatlashuvchi tovar boshqa bozorlarda umuman raqobatbardosh bo‘lmaydi. Bu hol tashqi va ichki bozorlarda raqobatbardoshlikni chegaralash zaruratini keltirib chiqaradi. Shunday qilib, raqobatbardoshlik sohasida umumiy konsepsiyani shakllantirish uchun mazkur holatning barcha tomonlarini hisobga olish lozim. Biroq qator mamlakatlar tajribasiga ko‘ra ichki bozordagi raqobat xalqaro raqobatning asosi hisoblanadi. Iqtisodchi olimlarning fikricha, raqobat munosabatlarining barcha xili uchta bosqichda amalga oshiriladi:

– mahsulot, ishlab chiqarish va korxonaning muayyan mikro turlari;

– mezotarmoqlar, korxonalarning tarmoq korporativ birlashmalari va gorizontal integratsiyalashgan firmalar;

– tarmoqlararo integratsiyalashgan makroiqtisodiy majmualar va h.k.

Har qanday sanoat firmasi, har qanday tovar ishlab chiqaruvchi u tashkil etilgan vaqtdan boshlab va butun faoliyati davomida o‘zi uchun zarur bo‘lgan raqobatbardoshlik muammolarini hal etishiga to‘g‘ri keladi. Jahonning ko‘plab mamlakatlari iqtisodiyoti jahon xo‘jaligi aloqalariga jalb etilgan, milliy bozor va uning talablari esa jahon bozori va xalqaro raqobatbardoshlikning faol ta’siri ostida shakllanadi.

Hozirgi vaqtda yuzaga kelgan vaziyat mulkchilikning turli shakllari subyektlarining iqtisodiy munosabatlari ishtiroki bilan tavsiflanadi: davlat, munitsipal, xususiy. Bozorning aksariyat ishtirokchilari manfaatlari ishlab chiqarishomillarini mustaqil ravishda jalb etuvchi, ulardan foydalanuvchi va olingan mahsulotni taqsimlovchi kompaniyalar atrofida guruhlanadi. Iqtisodiy hodisalar markazlarining makro darajadan mikro darajaga o‘tishi firma ichidagi qarorlarni qabul qilish mexanizmlarini ishlab chiqishni talab qiladi. U yoki bu qarorni qabul qilish jarayonining asosiy bosqichi muqobil variantlarni tahlil qilish va ular ichidan oldinga qo‘yilgan maqsadlarga to‘liq javob beruvchi variantni tanlashdan iborat. Bunda mamlakat ichida bozor munosabatlarining shakllanishi hamda uning jahon xo‘jalik aloqalariga jalb etilishiga qarab raqobatbardoshlik masalalariga bo‘lgan qiziqish korxonaga va moddiy ishlab chiqarish tarmog‘iga ko‘chadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida o‘z tovarini tashqi va ichki bozorga chiqaruvchi firma sifatning jahon darajalarini, tovarni yaratish va sotish xarajatlarini hisobga olmasdan, o‘z strategiyasida faqat tovarning raqobatbardoshlik ko‘rsatkichlariga tayangan holda uzoq vaqt mobaynida barqaror mavqeni egallab turolmaydi.

O‘zi uchun yangi hisoblangan bozorga kirib borish, ishlab chiqarishni kengaytirish yoki uni qisqartirish, texnologik jihozlarni modernizatsiya qilish yoxud ishlab chiqariladigan mahsulotni yangilash maqsadida investitsiyalarni amalga oshirishda albatta ishlab chiqaruvchi yoki korxonaning raqobatbardoshligini baholash talab etiladi.

Umuman olganda barcha bozorlardagi yoki alohida bozorlar va ularning sektorlariga nisbatan faoliyat yig‘indisi bo‘yicha raqobatbardoshlik mezonlari marketing majmuyining alohida elementlari bo‘yicha guruhlanadi:

22. Mahsulot.
23. Narx-navo.
24. Mahsulotni iste’molchigacha yetkazish.
25. Mahsulotni sotuvga chiqarish (marketing kommunikatsiyalari).
26. Hisoblash uchun miqdoriy ko‘rsatkichlardan foydalaniladi.

Bundan tashqari, ishbilarmonlik faolligi va firma faoliyatining

samaradorligiko‘rsatkichlari tizimidan foydalaniladi.

Mamlakatning raqobat jihatdan ustunliklari quyidagilar bilan aniqlanadi:

– birinchi bosqichda-ishlab chiqarish omillari: tabiiy resurslar, tovarlar ishlab chiqarish uchun qulay shart-sharoitlar, malakali ishchi kuchi hisobidan (bir determinant bilan ta’minlanadi);

– ikkinchi bosqichda-ta’lim, texnologiya, litsenziyaga tajovuzkorinvestitsiyalash asosida (bir deteminant bilan ta’minlanadi);

– uchinchi bosqichda - «romb»ning barcha tarkibiy qismlarining amal qilish yo‘li bilan mahsulotning yangi turlarini, ishlab chiqarish jarayonlarini tashkiletish, tashkiliy qarorlar va boshqa innovatsiyalar hisobidan;

– to‘rtinchi bosqichda tashkil etilgan boylik hisobidan va to‘liq foydalanmayotgan barcha determinantlarga tayanadi.

8.4. Milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini iqtisodiy o‘sishga ta’siri

Globalizatsiya jarayonining chuqurlashuvi sharoitida milliy iqtisodiyotlarningo‘zaro bog‘liqligining kuchayishi, jahon bozorlarida raqobat va moliyaviy-iqtisodiy beqarorlikning ortishi, mamlakatlarning raqobatbardoshligini o‘stirish hisobiga barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta’minlash yo‘llarini topishga undaydi.

Raqobatbardoshlikning yuqori darajasi mamlakat iqtisodiy salohiyatini oshiradi, aholining turmush darajasi o‘sadi va sifatining yaxshilanishini ta’minlaydi. Iqtisodiyotning tarkibi, infratuzilmasi, boshqaruvi, geoiqtisodiy holati, milliy qiymatliklari hamda tarixidagi tafovutlar barchasi u yoki bu darajada mamlakat va uning korxonalar raqobatbardoshligiga ta’sir qiladi.

Globalizatsiya jarayonida milliy tovar va xizmatlarning raqobatbardoshliginita’minlovchi tashqi omillar miqyosi va tarkibida salmoqli o‘zgarishlar yuz beradi. Raqobatbardoshlikning tashqi omillariga makroiqtisodiy muhit, rivojlanishning innovatsion yo‘lini tanlash, milliy institutlar va infratuzilmalarning holati, inson kapitalining sifati, milliy iqtisodiyotning hududiy va tarmoq jihatdan balanslashganlik darajasi kiritilib, ular ichki omillarga o‘zgaruvchan ta’sir o‘tkazadi.

O‘zbekistonda bozor islohotlarini amalga oshirishning barcha bosqichlarida ichki va tashqi raqobatbardoshlikni oshirish tarkibiy

o‘zgartirishlarning ustuvor vazifasi edi. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida ushbu masalani hal etishning dolzarbligi yanada ortdi va u iqtisodiyotni erkinlashtirish hamda modernizatsiyalashning davomiy strategik yo‘nalishi sifatida qaralmoqda.

Mamlakat raqobatbardoshligining muhim ko‘rsatkichlaridan biri - barqaror iqtisodiy o‘sish va makroiqtisodiy balanslashuvning ta’minlanishidir. Bizning mamlakatimizni global inqirozning to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’siridan himoya qilgan makroiqtisodiy muvozanatlashuvning asosiy omillari qatoriga 2005-yildan boshlab kuzatilayotgan budjet profitsitining ta’minlanishi, oltin-valyuta rasmiy zaxiralarining yuqoriligi va davlatning tashqi qarzlarining past darajasi, barqaror bank tizimi va xalqaro moliya bozorlaridagi ehtiyotkorona aloqalar kabilami kiriti- shimiz mumkin.

Milliy iqtisodiyotni raqobatbardoshligini oshirish bo‘yicha tizimli tadbirlar belgilangan bo‘lib, unda dastlab real sektordagi tovar va mahsulotlarni eksport qiluvchi korxonalarni qo‘llab-quvvatlash, ularni tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligini ta’minlash, qat’iy tejamkorlikni qo‘llash, mahsulot tannarxi va xarajatlarini pasaytirishni rag‘batlantirish, shu jumladan, energiya tejamkorligini samarali tizimini qo‘llash va energiya sig‘imini qisqartirish bo‘yicha choralar, ichki bozorda yalpi talabni rag‘batlantirish va boshqalar belgilangan edi.

Ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirish bo‘yicha choralarning amalga oshirilishi, xomashyoni qat’iy tejash tizimining qo‘llanishi mahsulot tannarxining 15-20 foizga pasayishini ta’minladi. 2012-yilda mahsulotning energiya sig‘imkorligi va moddiy xarajatlarning 10-15 foizga qisqartirilishiga erishildi.

Real sektorda yuqori qo‘shilgan qiymatga ega bo‘lgan tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarish, raqobatbardosh tarmoqlarni rivojlantirish maqsadida xomashyoni chuqur qayta ishlovchi tarmoqlar ulushini oshirishga qaratilgan iqtisodiyotdagi tarkibiy o‘zgarishlar O‘zbekiston korxonalarining tashqi bozordagi barqaror holatini ta’minlaydi.

O‘zbekiston iqtisodiyotini uzoq muddatli istiqbolda raqobatbardoshligini oshirish uchun quyidagi yo‘nalishlarga kuchlarni va resurslarni qaratish lozim:

– iqtisodiyotni modernizatsiyalash va tarkibiy o‘zgarishlarni chuqurlashtirish, iqtisodiy o‘sishning innovatsion omillarini oshirish,

YaIMda moddiy va energiya sig‘imini 2 barobar pasaytirish hisobiga mamlakat iqtisodiyotini sifat jihatdan yangi bosqichga o‘tishi orqali iqtisodiy o‘sishning barqaror yuqori darajasini ta’minlash (8%);

- modernizatsiyalashning birinchi navbatdagi obyekti bo‘lib innovatsion mahsulotga bo‘lgan talabni ta’minlashga qodir tarkiblar, davlat ta’lim standartlariga rioya qilish, innovatsiya infratuzilmasi rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan qulay investitsion muhit va boshqa barqaror iqtisodiy o‘sish elementlari bo‘lishi lozim;
- o‘ta yangi mahsulot turlari va yuqori texnologiyalarni ishlab chiqishni o‘zlashtirish asosida tashqi bozorda mahalliy tovarlarning raqobatbardoshligini oshirish; sanoat ishlab chiqarishi, biotexnologiya, informatika va nanotexnologiyadagi yangi kashfiyotlarni qo‘llashga asoslangan hamda milliy iqtisodiyotning ko‘pgina tarmoqlari va sohalarida katta salohiyatga ega bo‘lgan energiya va suv tejaydigan texnologiyani joriy etish;
- milliy iqtisodiyotni jahon moliyaviy-iqtisodiy tizimiga integratsiyalashuvini chuqurlashtirish, uni tashqi iqtisodiy bozor konyukturasiga bog‘liqligini pasaytirish uchun tashqi bozorda raqobatbardosh tayyor mahsulotlar ulushini oshirish hisobiga eksport tarkibini diversifikatsiyalash;
- mamlakatning yoqilg‘i-energetik balansini mustahkamlash va takomillashtirish, chunki iqtisodiyotni energiya ta’minotida tabiiy gazning ulushi me’yordan ancha yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lgani uchun istiqbolli energiya tejovchi texnologiyalarni faol ishlab chiqish va xalqaro ayirboshlash, energiyaning muqobil manbalaridan keng foydalanish zarur.

Mamlakat miqyosida raqobatbardoshlikni aniqlashda asosiy e’tibor yaratilgan makroiqtisodiy muhitga (inflatsiyaning belgilangan me’yori, soliq og‘irligi, kredit resurslarini olish imkoniyati, milliy valyuta kursining dinamikasini bilish va uning eksportga mo‘ljaIlangan mahsulotlarni ishlab chiqaruvchilar manfaatlariga mos kelishi), davlat institutlarining sifati, infratuzilmaning rivojlanish darajasi, inson kapitali va ta’lim tizimining sifati, tadbirkorlik muhiti, tovar, moliya va mehnat bozorlarining rivojlanishiga qaratiladi.

Qulay makroiqtisodiy muhit bilan mahsulotni raqobatbardoshligi o‘rtasida barqaror o‘zaro bog‘liqlikning mavjudligi zamonaviy iqtisodiy nazariyani asosiy qoidalariga mos keladi va ko‘p sonli amaliy tadqiqotlar tomonidan isbotlangan. Masalan, inflatsiyaning

yuqori darajasi iqtisodiyotni investitsiyalashning mavjud manbalarini so‘ndiradi, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash sur’atlarini ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatgan holda cheklaydi, ishlab chiqaruvchilar xarajatlarini ko‘paytiradi va baho raqobatbardoshligini pasaytiradi. Tovarlarning raqobatbardoshligiga yuqori byudjet defitsiti va soliq yuki, valyuta kursining beqarorligi, ishlab chiqarishning yuqori material sig‘imkorligi va iqtisodiy o‘sishning kapital sig‘imkorligi darajasi ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

O‘zbekiston raqobatbardoshligining ustunligi infratuzilmani rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, unda temir yo‘l tizimining rivojlanganligi asosiy o‘rin tutsa (ming kvadrat kilometrga 9,5 kilometr bo‘lib, etalon davlatlarda o‘rtacha ming kvadrat kilometrga 9,3 kilometr ko‘rsatkich to‘g‘ri keladi), yana bir ustun jihati aholini boshlang‘ich va o‘rta ta’lim bilan qamrab olish darajasi jahonda yuqori ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi. “Global Innovation Index and Report 2008- 2009” ma’lumoti bo‘yicha aholini ta’lim bilan qamrab olish bo‘yicha O‘zbekiston 26 o‘rinda bo‘lib, Xitoy, Chexiya, Ispaniya, Ukraina, va Turkiyadan oldingi o‘rinni egallaydi.

Iqtisodiyot raqobatbardoshligi barcha bo‘g‘inlari (makrodarajada) bir-biri bilan bog‘liq. Ulardan birining rivojlanmaganligi boshqalariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, innovatsion salohiyatni yuqori texnologiyalarni foydalanishga moslashtiruvchi yaxshi rivojlanmagan oliy ta’lim tizimisiz va hamda ishlanma va tadqiqotlarni moliyalashtiruvchi samarali amal qiluvchi moliya tizimisiz amalga oshirib bo‘lmaydi. Adolatli raqobat shart-sharoitlarining mavjud emasligi va rivojlanmagan tovarlar bozori innovatsion mahsulotga bo‘lgan barqaror talabni va ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini oshirishga rag‘batlarni ta’minlamaydi hamda milliy innovatsion tizimlar va infratuzilmalarini, ilmiy-texnik ishlanmalarning kommersiatsiyalashuvining rivojlanmaganligi ularni pirovard istemolchiga yetib borishiga imkon bermaydi.

O‘zbekiston sanoatining rivojlanish xususiyati sanoat tarmoqlarining qayta ishlash sohalarida fond qaytimi va mehnat unumdorligining jadal o‘sish tendensiyasiga erishganligi hisoblanadi. Mehnat unumdorligining o‘rtacha yillik o‘sishi sanoat bo‘yicha 2005-2011-yillarda 9 foizni tashkil qildi. Mashina qurilishi, yengil, oziq-ovqat tarmoqlarida o‘sish darajasi ancha yuqori bo‘lgan (o‘rtacha 15,4

foiz), yoqilg‘i-moylash tarmoqlarida 3,4 foizni tashkil qildi. Qayta ishlanish darajasi yuqori bo‘lgan mahsulotlar ishlab chiqarishga mo‘ljallangan tarmoqlarda fond qaytimi jadal o‘sish darajasida ijobiy tendensiya kuzatilgan. Bu tarmoqlarda fond qaytimi o‘rtacha 1,8 marta, shu jumladan, mashina qurilishida 2,0 marta, yengil sanoatda 1,5 marta, oziq-ovqatda 1,7 marta ortgan.

Qayta ishlash tarmoqlarida birinchi kategoriyali kuchli raqobatbardosh guruhga sanoatning quyidagi xomashyo va qazib chiqarish sektorlari kiradi: neft- gaz, rangli metallurgiya, paxtani qayta ishlash sanoati. Ushbu tarmoqlar hissasiga mamlakat sanoat eksportining 70 foizdan ortig‘i to‘g‘ri keladi. Tashqi bozorda tarmoqni raqobatbardoshligini aks ettiruvchi ko‘rsatkich hisoblangan umumiy sanoat ishlab chiqarish hajmida eksport mahsulotlari ulushi o‘sish tendensiyasiga ega: rangli metallurgiyada 72 dan 85 foizga, qora metallurgiyada 28,2 dan 55 foizga, neftegazda 20,1 dan 47 foizga, paxta tozalashda 87 dan 90 foizga o‘sgan. Ushbu tarmoqlarning raqobatbardoshlik indikatori boshqa ishlab chiqarish turlariga nisbatan ancha yuqori hisoblanadi.

Ikkinchi guruh raqobatbardoshlik salohiyatiga ega bo‘lgan istemol tovarlari ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan tarmoqlarga quyidagilar kiradi: yengil sanoatningqayta ishlash tarmoqchalari, oziq-ovqat sanoati, avtomobilsozlik. Mahalliy istemol tovarlari raqobatbardoshligi indeksi xomashyo ishlab chiqarishdagi shakllangan raqobatbardoshlik ko‘rsatkichiga nisbatan birmuncha past. Umumiy ishlab chiqarish hajmida eksport mahsulotlarini yengil sanoatdagi ulushi 35 foiz, mashinasozlikda 25,5 foiz, oziq-ovqat sanoatida 5 foiz. Ushbu tarmoqlarning tashqi bozordagi raqobatbardoshligi sanoatning o‘rtacha darajasidan taxminan 20-25 foiz past hisoblanadi.

Umuman olganda sanoat tarmoqlarining raqobatbardoshligining pastligi muammosi saqlanib qolmoqda. Qayta ishlash sektori tarmoqlaridagi asosiy mahsulotlarni ishlab chiqarishning ichki xarajatlari jahondagi o‘rtacha narx darajasiga yaqinlashib qolgan holda, ba’zi mahsulotlar turlari bo‘yicha o‘rtacha jahon bahosiga nisbatan yuqori. Ushbu tendensiya moddiy texnika va energetika xarajatlari ulushini yuqori darajada saqlanib qolayotganligi bilan belgilanadi.

Sanoatda innovatsiyalarni rivojlantirishda foydalanilmagan quyidagi imkoniyatlar mavjud: sotilgan sanoat mahsulotining umumiy

hajmida innovatsion mahsulot ulushi 2,8 foizni tashkil etadi.

Sanoat ishlab chiqarishini umumiy hajmida yuqori texnologik maxsulot ishlab chiqarish ulushi 2011-yilda 10,8 foizni tashkil etdi. Bu esa sanoat jihatdan taraqqiy etgan mamlaktlarga nisbatan past hisoblanadi (30-35 foizdan kam emas).

Yuqori texnologik sektorning rivojlanishida radiosanoat, hisoblash texnikasi sanoati, tibbiy, fiziologiya va biologiya asboblari, optik va optik-mexanik asboblar va apparaturalar, texnologik jarayonlarni nazorat qilish va tartibga solish asboblari, fizikaviy, mikrobiologiya sanoati, kimyoviy tola va iplar tadqiqoti uchun *asboblar* ishlab chiqarishning pasayish tendensiyasi kuzatilmoqda. Ushbu holat sanoatning umumiy raqobatbardoshlik darajasiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta’minlashda mamlakat sanoati yetakchi o‘rin tutadi. Shuning uchun mamlakat sanoatning raqobatbardoshligini oshirish va barqaror o‘sish sur’atlarini ta’minlash uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur:

– texnologik jarayonlarni takomillashtirish hamda xornashyo, material va energiya resurslari sarf me’yorini 10-15% ga tushirish hisobiga tannarxni pasaytirish va ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish, 2015-yilga borib sanoatda sarflanadigan energiya ulushini kamida 30% kamaytirish;

– ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasini va sanoat bo‘yicha yiliga mehnat unumdorligini 6-7% ga oshirish, foydalanish va noishlab chiqarish xarajatlarni qisqartirish, xodimlar sonini optimallashtirish;

– sanoat tarmog‘ida faoliyat ko‘rsatayotgan yirik korxonalardagi ma’naviy va jismoniy jihatdan eskirgan ishlab chiqarish vositalarini yangilashni jadallashtirish, ishlab chiqarish quvvatlarini yanada modernizatsiyalash hamda korxonalarda jahon andozasi talablari darajasida muvaffaqiyatli sinovdan o‘tgan zamonaviy texnologiyalarni jadal joriy etish;

– ishlab chiqarishni samarali diversifikatsiyalashuvi va an’anaviy tarmoqlar eksportini (neft-gaz sanoati, rangli metallurgiya, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, shu jumladan paxtani) ta’minlovchi xomashyo resurslarini qayta ishlashni chuqurlashtirish yo‘nalishlariga innovatsiyani qo‘llash;

– kichik biznes va xususiy tadbirkorlar ishtirokida fan

sig‘imkorligi yuqori bo‘lgan, yuqori texnologik loyihalar doirasida innovatsiyalarni moliyalashtirishfondini yaratish;

– yirik korxonalarga investitsiyalarni jalb qilish va yuqori texnologik mahsulot eksportini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha samarali xalqaro innovatsion hamkorlikka jalb qilish mexanizmlarini yaratish;

– mahalliy mahsulotlar sotish bozorlarini o‘rganish va ularning mos bozor segmentlaridagi o‘mini aniqlash yo‘nalishida marketing tadqiqotlarini amalga oshirish;

– bozor “signallari”ning doimiy mavjud masshtabi va turli xil tovar vaxizmatlarga istiqboldagi talab, ularning texnik, iqtisodiy va ekspluatatsion darajasiga talablar monitoringini (ichki va tashqi) tashkil etish;

– texnologiyalar transferti sohasida xalqaro hamkorlikning huquqiymexanizmlarini yaratish;

– yuqori texnologik mahsulotlar ishlab chiqarishni rag‘batlantirish uchun bojxona qonunchiligini va ma’murchiligini takomillashtirish;

– korxonalar moliyaviy faoliyati samaradorligini oshirish: sanoat tarmoqlari korxonalari tarkibining moliyaviy menejer va boshqaruvchilar tayyorlash darajalarini oshirish.

Asosiy xulosalar

Xalqaro raqobatning xususiyatlari. Raqobat va raqobat strategiyasi haqida yuqorida ta’kidlanganlarning barchasi ichki bozor bilan bir qatorda tashqi bozorgaham taalluqlidir.

Raqobatbardoshlik - nisbiy tushuncha, chunki bir turdagi bozorlarda muvaffaqiyatli raqobatlashuvchi tovar boshqa bozorlarda umuman raqobatbardosh bo‘lmaydi. Bu hol tashqi va ichki bozorlarda raqobatbardoshlikni chegaralash zaruratini keltirib chiqaradi.

Mezodarajadagi raqobatbardoshlikni baholash. Firmaning raqobatbardoshligini baholash. Iqtisodiyotni globallashtirish va baynalmilallashtirish davrida uning samaradorligi va ishlab chiqarilayotgan mahsulot talabgorligining yagona mezoni bo‘lib raqobatbardoshlik hisoblanadi.

Milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta’minlashda mamlakat sanoati yetakchi o‘rin tutadi. Shuning uchun mamlakat sanoatning raqobatbardoshligini oshirish va barqaror o‘sish sur’atlarini ta’minlash uchun quyidagi chora- tadbirlarni amalga

oshirish zarur:

– texnologik jarayonlarni takomillashtirish hamda xornashyo, material va energiya resurslari sarf me'yorini 10-15% ga tushirish hisobiga tannarxni pasaytirish va ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish, 2015-yilga borib sanoatda sarflanadigan energiya ulushini kamida 30% kamaytirish29;

– ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasini va sanoat bo'yicha yiliga mehnat unumdorligini 6-7% ga oshirish, foydalanish va noishlab chiqarish xarajatlarni qisqartirish, xodimlar sonini optimallashtirish;

– sanoat tarmog'ida faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalardagi ma'naviy va jismoniy jihatdan eskirgan ishlab chiqarish vositalarini yangilashni jadallashtirish, ishlab chiqarish quvvatlarini yanada modernizatsiyalash hamda korxonalarda jahon andozasi talablari darajasida muvaffaqiyatli sinovdan o'tgan zamonaviy texnologiyalarni jadal joriy etish.

Muhokama uchun savollar

1. Iste'mol, jamg'arma va investitsiyalarning iqtisodiy mazmuniniqisqacha ta'riflang.
2. Iste'mol va jamg'armaning miqdorini aniqlovchi asosiy omillarnisanab ko'rsating.
3. Iste'mol va jamg'arma funksiyalarining grafikdagi tasvirini chizib,ularga shartli raqamlar qo'llagan holda tushuntiring.
4. Jamg'arish normasi qanday aniqlanadi? Unga qanday omillar ta'sirko'rsatadi?
5. lste'molga va jamg'armaga o'rtacha moyillik deganda nimanitushunasiz?
6. Iste'mol va jamg'armaga qo'shilgan moyillik qanday aniqlanadi?
7. Investitsiyaning iqtisodiy mazmunini qisqacha ta'riflang.
8. Investitsiyalarga sarflarning darajasini qanday omillar belgilabberadi? Ularning qisqacha tavsifmi bering.
9. Yalpi investitsiya va amortizatsiya nisbat o'zgarishining iqtisodiyotgata'siri qanday?
10. Jamg'arma va investitsiya o'rtasidagi muvozanat klassik modelining mohiyatini tushuntirib bering.
11. O'zbekistonda hozirgi paytda ishlab chiqilayotgan

davlatning tarkibiy- investitsiya dasturlari qanday yo‘nalishIarga qaratilgan?

12. Iqtisodiy institutlar, ularning milliy iqtisodiyotda raqobat muhitinishakllantirishdagi roli qanday?

13. Raqobatni rivojlantirishning muhim strategik maqsadi nimalargaasoslanadi?

14. O‘zbekistonda raqobat munosabatlarini shakllantirishning iqtisodiyinstitutlari.

IX BOB. IQTISODIY O‘SISH JARAYONIDA FISKAL SIYOSAT

9.1. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning nazariy asoslari, maqsadi, usullar, vositalar va ularning iqtisodiy o‘sishdagi o’rni
9.2. Iqtisodiy o‘sishni davlat tomonidan tartibga solishni takomillashtirish
9.3. Davlatning fiskal siyosati, uning maqsadi va iqtisodiy dastaklari
9.4. O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini barqaror o‘sishida davlat fiskal siyosatining o‘rni

Tayanch iboralar: *Davlat boshqaruvi organlari, markaziy hukumat, kassa tamoyili, davlat statistikasi ma’lumotlari, tushumlar, yalpi sof tushumlar, transfertlar, davlat boshqaruv sektori tushunchasi, davlat organlari operatsiyalari hajmining miqdoriy o‘zgarishi, davlat organlari operatsiyalarini tavsiflash,daromadlar va xarajatlar, davlat jamg‘armalari va investitsiyalari tushunchalari, byudjet disbalansini o‘lchash.*

9.1. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning nazariy asoslari,maqsadi, usullar, vositalar va ularning iqtisodiy o‘sishdagi o’rni

Milliy iqtisodiyotning yuqori samaradorligiga asosan quyidagi yo‘llar orqali erishiladi:

- iqtisodiyotni tartibga solishning bozor usullarini qo‘llash;
- iqtisodiyotni faqat davlat tomonidan markazlashgan holda boshqarish;
- takror ishlab chiqarish jarayoniga davlatning aralashuvi va bozor usullarini uyg‘unlashtirish.

Hozirgi davrda O‘zbekistonning milliy iqtisodiyoti rivoji uchun ko‘proq uchinchi yo‘l xususiyatli hisoblanadi.

Davlatning iqtisodiyotdagi roli masalasi ilmiy asosda birinchi marta A.Smit tomonidan ko‘rib chiqilgan. Uning «Xalqlar boyligining tabiati va sabablarini tadqiq qilish haqida» (1776) nomli asarida iqtisodiyotning bozor usullari orqali o‘zini o‘zi tartibga solishining zarurligi ta’kidlab o‘tilgan. A.Smitning fikricha, xususiy tovar ishlab

chiqaruvchilar bozori davlat nazoratidan to‘liq ozod bo‘lishi zarur. Ana shundagina iste’molchilar talabiga mos ravishda ishlab chiqarishni tashkil qilish imkoni mavjud bo‘ladi. Bunda bozor vositasida tartibga solish, har qanday chetdan aralashuvsiz, ishlab chiqaruvchilarni butun jamiyat manfaatlari uchun harakat qilishga majbur qiladi.

A.Smit davlatning iqtisodiy jarayonlarga har qanday aralashuvi oxir-oqibatda faqat vaziyatni yomonlashtiradi deb hisoblaydi. Masalan, davlat tomonidan belgilangan tashqi savdo tartib-qoidalari milliy iste’molchilarga faqat zarar keltirishi mumkin. Haqiqatdan ham importga boj to‘lovi milliy ishlab chiqaruvchilarga ustunlik berib, ularning chet ellik sheriklariga nisbatan raqobatlashuv qobiliyatini oshiradi. Ammo bu oxir-oqibatda ishlab chiqarishning ancha yuqori xarajatlari va past sifatining saqlanib qolishiga olib keladi. Bundan past sifatli va narxi qimmat tovarlarni sotib olishga majbur bo‘lgan milliy iste’molchilar zarar ko‘radilar.

A.Smitning «Tinch qo‘yish» nazariyasi 1929-1933-yillarda bozor iqtisodiyotiga asoslangan deyarli barcha mamlakatlarni qamrab olgan iqtisodiy inqiroz davrida tanqidga uchradi. Iqtisodiy tanazzul va ommaviy ishsizlik davlatning iqtisodiy jarayonlarga aralashuvini kuchaytirishni taqozo qildi.

Davlatning iqtisodiyotdagi rolini oshirish masalasi J.M.Keynsning «Ish bilan bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi» (1936) nomli asarida o‘z aksini topdi. Unda muallif davlat fiskal (xazinaviy) va kreditli tartibga solish vositalaridan foydalanib, jamiyatning yalpi talabini rag‘batlantirishni va aholining ish bilan bandligini ta’minlashi zarurligini isbotlaydi. Amalda gap davlatning uzluksiz ravishda inqirozga qarshi siyosat o‘tkazishi, iqtisodiy inqirozning salbiy oqibatlarini tugatish va sanoat siklining o‘zgarishini bartaraf etish haqida ketadi. Keyns nazariyasi ancha tugal shaklda AQShda amalga oshirildi. Urushdan keyingi davrda Keyns nazariyasidagi ko‘rsatmalar u yoki bu darajada bozor iqtisodiyoti amalda ustun bo‘lgan barcha mamlakatlarda foydalanildi. Shu bilan birga davlatni iqtisodiyotdagi rolining yanada ko‘proq oshib borishi ro‘y berdi. Hozirgi davrda davlat tomonidan tartibga solishning muhim maqsadi sifatida nafaqat siklga qarshi tartibga solish va ish bilan bandlikni ta’minlash, balki iqtisodiy o‘sishning yuqori darajasini va yaxlit takror ishlab chiqarish jarayonini optimallashtirishni

rag‘batlantirish tan olinadi.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish deganda davlatning jamiyat a’zolari ehtiyojlarini qondirish darajasini oshirish uchun cheklangan iqtisodiy resurslaridan yanada samarali foydalanishni ta’minlovchi, umumiy iqtisodiy muvozanatga erishishga yo‘naltirilgan, ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish bo‘yicha faoliyati tushuniladi.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning asosiy maqsadi iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, mavjud tizimni mamlakat ishida va xalqaro maydonda mustahkamlash va uni o‘zgarib turuvchi sharoitga moslashtirish hisoblanadi.

Davlatning iqtisodiy vazifalaridan quyidagi ikki turini ajratib ko‘rsatish mumkin:

- bozor tizimining samarali amal qilishiga imkon tug‘diruvchi huquqiy asos va ijtimoiy muhitni ta’minlash hamda raqobatni himoya qilish.

Davlatning boshqa vazifalari iqtisodiyotni tartibga solishning umumiy tamoyillaridan kelib chiqadi. Bu yerda davlatning uchta vazifasi alohida ahamiyatgaega:

- daromad va boylikni qayta taqsimlash;
- resurslarni qayta taqsimlash;
- iqtisodiyotni barqarorlashtirish, ya’ni iqtisodiy tebranishlar vujudga keltiradigan inflatsiya va bandlilik darajasi ustidan nazorat qilish hamda iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish.

Davlat milliy iqtisodiyotni tartibga solishda bir qator usullardan foydalanadi.

Bu usullarni umumlashtirib quyidagicha guruhlash mumkin:

- bevosita ta’sir qilish usullari;
- bilvosita ta’sir qilish usullari;
- tashqi iqtisodiy usullar.

Markazdan boshqarish tartibi ustun bo‘lgan mamlakatlarda davlatning iqtisodiy jarayonlarga aralashuvida bevosita ta’sir qilish usullari ustun bo‘lsa, bozor iqtisodiyoti esa asosan iqtisodiy jarayonlarni bilvosita tartibga solish bilan bog‘langan. Shu bilan birga barcha mamlakatlarda iqtisodiyotning davlat sektori mavjud. Davlat sektorini boshqarish mulkchilikning davlat shakliga asoslanib, u asosan quyidagi uchta yo‘l orqali shakllanadi:

- ishlab chiqarish vositalari egalariga pul yoki qimmatli

qog‘ozlar bilantovon to‘lash orqali mulkni milliylashtirish;

- davlat budjeti mablag‘lari hisobiga yangi korxonalar, ba’zi hollardayaxlit tarmoqlarni barpo etish;
- davlat tomonidan xususiy korporatsiyalarning aksiyalarini sotib olish vaaralash davlat-xususiy korxonalarini tashkil etish.

Iqtisodiyotni bilvosita tartibga solishda iqtisodiy dastak va vositalarga ustunlik beriladi. U davlatning pul-kredit va budjet siyosatida o‘z ifodasini topadi.

Pul-kredit siyosatining asosiy vositalari quyidagilardan iborat bo‘ladi:

- hisob stavkasini tartibga solish;
- moliya-kredit muassasalarining Markaziy bankdagi zaxiralari minimal hajmini o‘rnatish va o‘zgartirish;
- davlat muassasalarining qimmatli qog‘ozlar bozoridagi operatsiyalari (davlat obligatsiyalarini chiqarish, ularni sotish va to‘lash).

Davlatning pulga bo‘lgan talab va taklifini o‘zgartirish borasidagi siyosati monetar siyosat deb yuritiladi.

Davlat byudjet siyosati uning daromadlar va xarajatlar qismini o‘zgartirishga qaratiladi. Davlat xarajatlarini qoplash uchun moliyaviy mablag‘larni jalb qilishning eng asosiy dastagi soliqlar hisoblanadi. Ulardan xo‘jalik subyektlari faoliyatiga va ijtimoiy barqarorlikka ta’sir ko‘rsatishda ham keng foydalaniladi.

Soliqlar yordamida davlat tomonidan tartibga solish tanlangan soliq tizimiga, soliq stavkasi darajasiga hamda soliq turlari va soliq to‘lashda berilgan imtiyozlargabog‘liq bo‘ladi.

Davlat iqtisodiyotni tartibga solish vositasi sifatida budjet xarajatlaridan ham foydalanadi. Bunga birinchi navbatda, davlat kreditlari, subsidiyalari va kafolatlari, hamda xususiy sektordan tovarlarni sotib olishga qilinadigan sarflar misol bo‘ladi.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish tashqi iqtisodiy usullar yordamida ham amalga oshiriladi. Bunda maxsus vosita va dastaklar orqali mamlakatning tashqi dunyo bilan amalga oshiriladigan xo‘jalik aloqalariga bevositata’sir ko‘rsatiladi.

9.2. Iqtisodiy o‘sishni davlat tomonidan tartibga solishni takomillashtirish

Davlatning iqtisodiy vazifalari ko‘p va turli xildir. Bular,

birinchidan, davlatning ayrim iqtisodiy vazifalari bozor tizimi rivojlanishini yengillashtirish va qo‘llab-quvvatlash maqsadiga ega. Bunday vazifalar sirasiga quyidagi ikki faoliyatni kiritishimiz mumkin: bozor tizimi samarali faoliyat ko‘rsatishini ta’minlaydigan huquqiy baza va ijtimoiy muhitni ta’minlash raqobatni himoya qilish. *Ikkinchi* guruh vazifalarini bajarishda davlat bozor tizimi faoliyatini kuchaytiradi va turlaydi. Bu yerda davlatning quyidagi uchta vazifasi asosiy ahamiyatga ega. Ular quyidagilar;

- daromad va boyliklami qayta taqsimlash;
- milliy mahsulot tarkibini o‘zgartirish maqsadida resurslar taqsimotinitartibga solish;
- iqtisodiyotni barqarorlashtirish.

Ya’ni iqtisodiy konyukturaning egiluvchanligi natijasida paydo bo‘ladigan ishsizlik va inflatsiya darajalarini nazorat qilish hamda iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish. Davlat bozor iqtisodiyotining samarali faoliyat ko‘rsatishi uchun asos bo‘ladigan ayrim xizmatlami va huquqiy bazani ta’minlash vazifalarini o‘z zimmasiga oladi. Huquqiy bazani ta’minlash asosan xususiy korxonalarga haq-huquqlar berish, xususiy mulkchilikni aniqlash va shartnomalar bajarilishini nazoratqilish, shuningdek, boshqalarda namoyon bo‘ladi.

Bozor iqtisodiyotida raqobat asosiy tartibga soluvchi mexanizm hisoblanadi. Bu ishlab chiqaruvchilar va resurslarni yetkazib beruvchilarni o‘ziga bo‘ysundiradigan yagona kuchdir. Bozor tizimiga bo‘ysunadigan ishlab chiqaruvchilar raqobat natijasida foyda olishni rejalashtiradi. Kimki bu qonunni buzsa, zarar ko‘radi va oqibatda batomom tugatilishi mumkin. Monopoliya raqobat bilan almashinar ekan, sotuvchilar bozorga ta’sir qilishi mumkin yoki o‘z manfaatlaridan kelib chiqqan holda narxlarni oshirish orqali mamlakatga zarar olib keladi.

Bozor tizimi rivojlanishi bilan mamlakat aholisi oladigan daromadlar va qiladigan xarajatlar o‘rtasida nomutanosibliklar paydo bo‘ladi. Bu kabi muammolami hal qilishda davlat asosiy ahamiyatga ega. Ya’ni, davlat jamiyatdagi daromadlar nomutanosibligini kamaytirish vazifasini bajaradi. Bu vazifalar bir nechta siyosiy tadbirlar va dasturlarda o‘z yechimini topgan.

Birinchidan, transfert to‘lovlari orqali yordamga muhtoj, boqimanda, nogiron va ishsizlarni nafaqalar bilan ta’minlaydi. Ikkinchidan, davlat bozorga aralashuvi orqali daromadlar

taqsimlanishini o‘zgartiradi. Fermerlarga kafolatlanadigan baho va minimal ish haqi to‘g‘risidagi qonunchilik davlatning aholi ayrim guruhlari daromadlarini tenglashtirish maqsadida bahoni tartibga solib turishga misol bo‘la oladi.

Bundan tashqari aholidan olinadigan daromad soliqlarining foizlar bo‘yicha tabaqalanishi ham aholining kam ta’minlangan qismini qo‘llab-quvvatlash maqsadida olib borilayotgan dasturlardan biridir. Iqtisodchilarga bozor faoliyati buzilishining ikki holati ma’lum. Birinchidan, kerak bo‘lmagan tovar va xizmatlarni ishlab chiqarishda qanday resurslar bo‘lishidan qat’i nazar, iqtisodiy jihatdan foydaliligini aniq ajratib ko‘rsata olmaydi. Birinchi holatda resurslarni tuslanishi yoki qo‘shimcha samaraga, ikkinchidan esa, davlat yoki ijtimoiy manfaatga bog‘liq. Oldingi mavzularda ko‘rdikki, raqobatli bozor tizimining qulayliklaridan biri resurslarni samarali taqsimlashdan iborat. Boshqacha aytganda, har bir turdagi tovar va xizmatni ishlab chiqarishda resurslar to‘g‘ri yoki maqbul taqsimlanadi.

Raqobatli bozordagi resurslarning samarali taqsimlanishida yashirincha ravishda kamchiliklar ham mavjud. Chunonchi, har xil turdagi tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish yoki iste’mol qilishda qo‘shimcha samara yoki tovlanish bo‘lmaydi, deb hisoblanadi. Tovlanish tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish yoki is’temol qilish bilan bog‘liq bo‘lgan imkoniyat va xarajatlar uchinchi tomonga, ya’ni bevosita sotuvchi yoki sotib oluvchi bo‘lmagan tomonga o‘tadi. Tovlanish, shuningdek, qo‘shimcha samara deb ham yuritiladi.

Chunki, u bozor oldi-sotdisida qatnashayotgan individ yoki guruhlar hisobiga to‘g‘ri keladigan imkoniyat va xarajatlarni bildiradi. Tovarlami ishlab chiqarish yoki iste’mol qilishda uchinchi bir tomondan kutilmagan xarajatlar paydo bo‘lishi tovlanish xarajatlarini anglatadi. Bu xarajatlarning ko‘pgina qismi atrof- muhitning ifloslanishi bilan bog‘liq. Davlat xarajatlar tovlanishi natijasida resurslar nomutanosib taqsimlanishining oldini olish uchun qonunlar qabul qiladi, va o‘ziga xos soliqlar joriy etadi.

O‘zbekistonning bozor iqtisodiyoti rivojlanishiga aralashuvidan asosiy maqsadi, iqtisodiyotga yangi demokratik usullar bilan rahbarlik qilish, barcha xorijiy mamlakatlar bilan samarali iqtisodiy integratsiyaga o‘tish, ITT yutuqlaridan samarali qo‘llash asosida resurslardan unumli foydalanishni yo‘lga qo‘yish vaaholining turmush

darajasini yuksaltirishdir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat mamlakat iqtisodiyotiga bevosita aralashadi. Davlatning mamlakat iqtisodiyotiga aralashuvi makroiqtisodiy siyosat orqali amalga oshiriladi. Bu siyosatga asosan quyidagilarni kiritamiz: byudjet; pul- kredit; dotatsiya; subvensiya; subsidiya; xalq xo‘jaligi balansi; soliq mexanizmi; chegaralangan baholar va boshqalar.

Davlat byudjet xarajatlarini (davlat xarajatlari va transfert to‘lovlarini) ko‘paytirish yoki qisqartirish orqali mamlakat iqtisodiyotiga aralashadi.

Davlat tomonidan tartibga solishning bevosita usullari yoki byudjet siyosati tovar va xizmatlarning davlat xaridi, YaMM ni taqsimlash va qayta taqsimlash, ijtimoiy dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, davlat byudjetining daromadlar va xarajatlar qismidagi mutanosiblikni ta’minlash, ishlab chiqaruvchilarga moliyaviy yordam shakllarini ko‘rsatish, narxlar ustidan nazorat o‘rnatish, eksport va import qilinadigan tovarlarga kvotalar o‘rnatish va shuningdek, mamlakat aholisini himoya qilish maqsadida olib borilayotgan chora-tadbirlar majmuasidan iborat.

Avalambor, u mamlakatda pul massasini tartibga solishga qaratilgan va uning asosiy vazifasi narxlar va real milliy ishlab chiqarish hajmining o‘sishiga mos keladigan pul emmisiyasi hisoblanadi.

Pul-kredit siyosati deganda to‘liq bandlik sharoitida jami mahsulotlarni ishlab chiqarishga inflatsiyani ta’sirini kamaytirish yoki bartaraf etish maqsadida muomaladagi pul miqdorini o‘zgartirish tushuniladi. Uning yordamida har qanday davlat mamlakatda iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash vazifasini hayotga tatbiq etadi. Hozirda hamma mamlakatlarda pul miqdorini tartibga solishda ochiq bozorda operatsiyalarni, ya’ni davlat qimmatli qog‘ozlarini taklif qilish usulidan keng foydalanilmoqda.

Ushbu operatsiyalarni Markaziy bank asosan nufuzi katta banklar guruhi bilan birgalikda amalga oshiradi. Bozorda Markaziy bank xazina qimmatli qog‘ozlarini sotish yoki xarid qilish yo‘li bilan pul taklifiga ta’sir etadi, ya’ni pul bozorida talab va taklif muvozanatini ta’minlaydi.

Pul bozorida muomalada pul miqdori ortiqchaligini mavjud deb faraz qilamiz. Tabiiyki, Markaziy bank ortiqcha pul massasini

kamaytirish yoki yo‘q qilishga harakat qiladi. Buning uchun, u ochiq bozorda o‘zining qimmatli qog‘ozlarini aholi va banklarga taklif etadi, ular esa uni xarid qila boshlaydilar. Davlat qimmatli qog‘ozlarining (sotish yoki xarid qilish yo‘li bilan) taklifi oshib borgan sari, uning bahosi pasayadi, o‘z navbatida unga bo‘lgan xarid (ya’ni qimmatli qog‘ozlarni sotib olganlarga foiz shaklida haq to‘lanadi)oshadi, bu esa unga bo‘lgan talabni oshiradi. Banklar va aholi qimmatli qog‘ozlarni ko‘proq xarid qila boshlaydilar, pirovard natijada banklarning zaxiralari qisqaradi, o‘z navbatida, bu hol pul taklifi bank multiplikatoriga teng nisbatda qisqarishiga olib keladi. Bu bank zaxirasi va pul taklifming ortishiga olib keladi.

O‘zbekitonda pul-kredit siyosatining quyidagi yo‘nalishlari mavjud: davlat tomonidan pul massasini oldindan bilish, uni doimiy nazorat qilish;

Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining operatsiyalarini pul bilan ta’minlash pul muomalasi sohasini nazorat qilishga imkon beradi; kredit va byudjet tizimlari o‘rtasida o‘zaro munosabatlar vositasini takomillashtirish, kredit berish, budjet kamomadi sharoitida uni pul chiqarish hisobiga emas, balki davlatning qimmatli qog‘ozlarini sotish hisobiga qoplash zarur.

Bu siyosatning asosiy vositasi, Markaziy bank tomonidan amalga oshiriladigan hisob stavkasini tartibga solish, tijorat banklarining majburiy ravishda Markaziy bankda saqlaydigan zaxira me’yorini o‘zgartirish, qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha ochiq bozordagi operatsiyalarni yo‘lga qo‘yish va boshqa tadbirlardan iborat. Davlat tomonidan xo‘jaliklarga ko‘rsatiladigan moliyaviy yordamlar dotatsiya, subvensiya va subsidiya shakllarida olib boriladi.

Dotatsiya -budjet va budjetdan tashqari fondlardan qaytarib olmaslik sharti bilan xo‘jaliklarning zararlarini qoplash, shuningdek, mahalliy budjetlar mutanosibligini ta’minlash uchun ajratilgan pul mablag‘laridir.

Subvensiya - qat’iy maqsadlar uchun beriladigan dotatsiya turi bo‘lib, foydalanish sharti buzilganda uni qaytarib olish mumkin.

Subsidiyalar - bu pul yoki natural ko‘rinishidagi yordam turi bo‘lib, byudjet vabyudjetdan tashqari fondlardan ko‘rsatiladi.

Subsidiyalar bevosita va bilvosita bo‘lish mumkin. To‘g‘ri subsidiyalar - kapital qo‘yilmalar, ilmiy tadqiqotlar, kadrlarni qayta tayyorlashga ajratilgan mablag‘lar, egri subsidiyalar soliq imtiyozlari,

imtiyozli shartlarda kreditlar berish, pasaytirilgan bojxona bojlari va hokazolardir. Bundan tashqari davlat aholini davlat transfertlari ko‘rinishida himoya qiladi.

9.3. Davlatning fiskal siyosati, uning maqsadi va iqtisodiy dastaklari

Davlatning fiskal siyosati siklik tebranishlarni bir maromga keltirish va yuqori bandlik hamda past inflatsiya sharoitida barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash maqsadida soliqqa tortish va davlat xarajatlarini tartibga solishga qaratiladi.

Fiskal siyosat rag‘batlantiruvchi yoki turg‘un tavsifga ega bo‘lishi mumkin. Rag‘batlantiruvchi fiskal siyosati (fiskal ekspansiya) qisqa davrda davlat sarflarini ko‘paytirish, soliqlar stavkalarini pasaytirish yoki bu choralarni o‘zarouyg‘unlashtirish yo‘li bilan siklik tanazzulni yengib o‘tish maqsadida ishchan iqtisodiy faoliyatni rag‘batlantirishga yo‘naltiriladi. Uzoq davrda soliq stavkalari pasayishi iqtisodiy o‘sish sur’atining barqaror jadallashuvi va iqtisodiy salohiyatning mustahkamlanishiga olib kelishi mumkin.

Davlatning, turg‘un fiskal siyosati qisqa davrda iqtisodiyotning “qizib ketish”ni bartaraf etish maqsadiga ega bo‘ladi. U davlat xarajatlarini taqozo etib iqtisodiy o‘sish va talab inflatsiyasi sur’atini pasaytirishga imkon beradi.

Davlat fiskal siyosati - bu davlat byudjeti daromadlari va xarajatlari tarkibiy qismini o‘zgartirish orqali milliy iqtisodiyotga ta’sir qilishni anglatadi.

“Fiskal” lotincha so‘zdan olingan bo‘lib, xazina degan ma’noni bildiradi. Bu o‘z navbatida “xazina siyosati” degan tushunchani ham yuzaga keltiradi. Fiskal, ya’ni xazina siyosatiga insoniyat tarixida o‘tgan yirik davlat arboblaridan biri, o‘rta asrlarda buyuk saltanat barpo qilgan Amir Temur katta e’tibor qilgan. U davlatni idora qilish tizimini yuzaga keltirishda asosan xazinani to‘ldiruvchi soliqlarga tayangan.

Fiskal siyosatdan iqtisodiyotni tartibga solish va uning muvozanatliligini ta’minlash dastagi sifatida foydalanish haqidagi fikr ingliz iqtisodchisi D.M.Keynsga mansubdir. U iqtisodiyotga davlatning aralashuvi bandlik va milliy daromad hajmiga ta’sir ko‘rsatadi deb hisoblaydi va bunda davlat fiskal va pul kredit siyosati investitsiyalarni rag‘batlantirishda namoyon bo‘ladi, deb ko‘rsatadi.

Soliqlarni fiskal siyosatning bir qismi sifatida G‘arb iqtisodiy fanida ko‘rsatib uni rag‘batlantiruvchi va to‘sqinlik qiluvchi dastak sifatida ifodalashga alohida e’tibor qaratadi.

“Fiskal siyosatning asosiy maqsadi, - ishsizlik va inflatsiyani yumshatishdan iboratdir. Tanazzul davrida kun tartibida rag‘batlantiruvchi fiskal siyosat to‘g‘risidagi masala paydo bo‘ladi.

U quyidagilami o‘z ichiga oladi: (1) davlat xarajatlarining ko‘payishi yoki (2) soliqlarning pasayishi, yoxud (1) va (2)ni birga qo‘shib olib borish.

Agar iqtisodiyotda ortiqcha talab tufayli paydo bo‘lgan inflatsiya sodir bo‘lsa, bunga to‘sqinlik qiluvchi fiskal siyosat mos keladi. Bunday fiskal siyosat quyidagilarni o‘z ichiga oladi: (1) hukumat xarajatlarining kamayishi, yoxud (2) soliqlarning ko‘payishi, yoxud (1) va (2)ning birga qo‘shib olib borilishi. Fiskal siyosat bashartida iqtisodiyot oldida inflatsiya ustidan nazorat qilish muammosi turadigan bo‘lsa, hukumat byudjetining ijobiy qoldig‘iga tayanishi lozim”.

Iqtisodiyotning siklik rivojlanishi va inqirozlarni bartaraf etishning asosiy dastagi bu - davlat xarajatlaridir. Keynsning fikricha, uning shakllanishi, tuzilishi va o‘sishi “samarali talab”ga erishishdagi muhim omildir.

Fiskal siyosat oldiga qo‘yilgan maqsad va vazifalardan kelib chiqib, uning uchta yo‘nalishi, ya’ni iqisodiy o‘sishni rag‘batlantirish, barqarorlashtirish va iqtisodiy faoliyatni chegaralash siyosatlarini alohida ajratib ko‘rsatish mumkin.

Iqtisodiy o‘sish maqsadlaridan kelib chiqilgandi, fiskal siyosat bandlik darajasini va shu orqali YaIM real hajmini oshirishga qaratiladi. Bunda rag‘batlantiruvchi fiskal siyosatning dastaklari davlat xarajatlarining o‘sishi va soliqstavkalarining pasayishi hisoblanadi

Boshqacha aytganda, hozirgi davrda davlatning byudjet barqarorligini ta’minlashga qaratilgan moliyaviy siyosati iqtisodiy inqiroz yoki turg‘unlik davrida byudjet taqchilligini bartaraf etish maqsadlariga qaratilishi zarur.

Iqtisodiyotning siklli rivojlanishini tartibga solish orqali makroiqtisodiy muvozanatlikni ta’minlab borishga qaratilgan fiskal siyosat bir qator moliyaviy vosita va iqtisodiy dastaklar yordamida amalga oshiriladi. Qo‘llaniladigan bu barcha moliyaviy vosita va dastaklar birgalikda tartibga solishning moliyaviy mexanizmini tashkil

qiladi.

Ma’lumki, iqtisodiyot nazariyasi va amaliy hayotda fiskal siyosatning ikkita turi ajratiladi:

- diskretsion fiskal siyosat yoki bevosita davlat tomonidan amalga oshiriladigan siyosat;
- nodiskretsion fiskal siyosat yoki avtomatik ravishda barqarorlashtiruvchisiyosat.

Nodiskretsion fiskal siyosat deyilganda, soliq tizimining mustaqil barqarorlashtiruvchi bir qator layoqatlari, ya’ni uning mamlakatdagi iqtisodiy faollikni qandaydir boshqaruvchi organlarning bevosita aralashuvlarisiz tartibga solish imkoniyatini beruvchi ayrim xususiyatlari tushuniladi.

Diskretsion fiskal siyosat - bu milliy ishlab chiqarish real hajmini o‘zgartirish, bandlik darajasini ushlab turish va inflatsiya ustidan nazorat o‘rnatish hamda iqtisodiy o‘sishni ta’minlash maqsadida soliqlar bilan birga, davlat xarajatlarini ongli ravishda manipulyatsiya qilish tushuniladi.

Diskretsion fiskal siyosatning asosiy dastaklari quyidagilar hisoblanadi:

- davlat sarflari bilan bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy ishlar va boshqa dasturlari;
- davlat buyurtma va xaridlari;
- davlat investitsiyalari;
- transfert yoki qayta taqsimlash turidagi xarajatlarni o‘zgartirish;
- soliqlarni boshqarish.

Shunday qilib, davlat tomonidan amalga oshiriladigan fiskal siyosat, milliy xo‘jalikda tashkil qilingan soliq tizimining asosiy qoidalariga javob berishi va iqtisodiyotdagi ichki o‘zaro munosabatlarni samarali tartibga solishi zarur. Bunda asosiy e’tibor:

“...xarajatlarning ijtimoiy yo‘naltirilganligini saqlagan holda davlat, byudjetining barcha miqyoslarida muvozanatni saqlash, mahalliy byudjetlarning daromad qismini mustahkamlashga yo‘naltirilgan byudjetlar aro munosabatlarni takomillashtirish” ga qaratilishi maqsadga muvofiq.

9.4. O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining barqaror o’sishida davlat fiskal siyosatining o‘rni

Davlat, iqtisodiy o‘sishni ta’minlash maqsadida byudjetining barcha miqyoslarida muvozanatni saqlash, mahalliy byudjetlarning daromad qismini mustahkamlashga yo‘naltirilgan fiskal siyosat olib boradi. Byudjet kodeksi 2 ta(umumiy va maxsus) qism, 9 ta bo‘lim, 28 ta bob va 192 ta moddadan iborat. Unda bundan oldin amalda bo‘lgan byudjet jarayonini tartibga soluvchi “Byudjet tizimi to‘g‘risida”gi va “Davlat byudjetining g‘azna ijrosi to‘g‘risida”gi qonunlar, qonunostihujjatlari mujassamlashtirilgan. Shu asosda byudjet jarayonini tartibga soluvchi ayrim normalar qonun darajasiga ko‘tarildi.

Byudjet kodeksi butun byudjet jarayonini (davlat byudjetini shakllantirish, tasdiqlash, ijro etishni hamda nazoratni ta’minlashni) yagona va yaxlit qonun hujjatida tizimlashtirishni, davlat byudjetini ham, budjetdan tashqari maqsadli jamg‘armalarni ham tartibga solishning yagona prinsiplarini qo‘llashni, byudjet jarayoni barcha qatnashchilarining vakolatlarini hamda ularning o‘zaro hamkorligi mexanizmlarini belgilashni, shuningdek, byudjetlar aro munosabatlarni takomillashtirib, mahalliy budjetlarning daromadlar manbalarini mustahkamlab qo‘yishni, barcha darajalardagi byudjetlar o‘rtasida vakolatlarni taqsimlashni va ularning o‘zaro hamkorligini nazarda tutadi.

Byudjet kodeksida Germaniya, Fransiya, Janubiy Koreya, Yaponiya kabi rivojlangan mamlakatlarning byudjet qonunchiligi tajribalari inobatga olingan. Kodeksning har bir moddasi milliy iqtisodiyotimizning o‘ziga xos jihatlari bilan taqqoslab chiqilgan. Byudjet tizimi rivojlanish davrida amaliyotda o‘zini oqlagan, davlat boshqaruvi tizimi islohoti bilan mutanosib ravishda taraqqiy topib borgan va shakllangan me’yoriy-huquqiy bazaning asosi saqlab qolinib, jahonda umume’tirof etilgan byudjet tizimi tamoyillari, byudjet tasnifi, o‘rta muddatli byudjetni rejalashtirish yoki natijaga yo‘naltirilgan byudjetlashtirish kabi normalar kodeksda o‘z aksini topdi.

Bundan tashqari, byudjet vakolatlarining kengaytirilishi orqali nafaqat nazoratorganlari, balki to‘g‘ridan-to‘g‘ri byudjet mablag‘larini oluvchilar, byudjet tashkilotlari hamda byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar vakolatlari ham batafsil yoritib berildi. Byudjet

kodeksi amaldagi me’yorlarni kengaytirish bilan bir qatorda, davlat tomonidan mablag‘ jalb qilish, byudjet ijrosi ustidan nazorat va byudjet qonunchiligini buzganlik uchun javobgarlikni aks ettiruvchi yangi moddalar bilan ham ahamiyatlidir.

Umuman olganda, byudjet jarayoni bosqichlari, ya’ni davlat byudjetini tayyorlash, ko‘rib chiqish, tasdiqlash hamda ijro etish, ijro ustidan nazorat va hisobot tayyorlashni amalga oshirish funksiyalari belgilandi. Byudjet kodeksining yana bir muhim jihati shundaki, endi davlat byudjeti va mahalliy byudjetlarning asosiy ko‘rsatkichlari ommaviy axborot vositalari hamda Moliya vazirligining veb saytida e’lon qilinib, onlayn rejimda savollar va takliflar berish imkoniyati paydo bo‘ladi.

Xulosa o‘rnida aytganda, Byudjet kodeksi - respublikamiz byudjet tizimini hamda davlat byudjetini rejalashtirish, ko‘rib chiqish, qabul qilish, ijro etish, hisob va hisobotini olib borish, nazoratini yuritish hamda uning ochiqligini yanada takomillashtirish, davlat moliyaviy tizimini boshqarish samaradorligini sifat jihatidan yuqori bosqichga ko‘tarish imkonini beruvchi yagona me’yoriy hujjat sifatida yurtimiz ravnaqi, xalqimiz turmush farovonligini yanada yuksaltirishga xizmat qilishi, shubhasiz.

O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 25-dekabrdagi “2021-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-657-son qonuni mazmuni. Ushbu qonunga muvofiq:

- 2021-yil uchun O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va 2022 -2023-yillarga maqsadli mo‘ljallar;
- 2021-yil uchun O‘zbekiston Respublikasi Konsolidatsiyalashgan byudjetining jamlanma parametrlari hamda 2022 -2023-yillarga byudjet mo‘ljallari;
- 2021-yil uchun O‘zbekiston Respublikasini rivojiantirishning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va 2022-2023-yillarga maqsadli mo‘ljallar;
- 2021-yil uchun Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjetining, viloyatlar hamda Toshkent shahar mahalliy byudjetlarining daromadlari va xarajatlari prognozlari;
- 2021-yil uchun respublika byudjetidan Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika byudjetiga va viloyatlarning viloyat byudjetlariga ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlar aro transfertlar

miqdorlari;

– 2021-yil uchun davlat maqsadli jamg‘armalarining hamda O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasining daromadlari prognozi hamdaxarajatlari;

– 2021-yil uchun respublika byudjeti daromadlari prognozi;

– 2021-yil uchun respublika byudjetidan birinchi darajali byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlaribelgilandi. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 30-dekabrdagi “2021-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining davlat byudjeti to‘g‘risida”gi qonuni ijrosini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risidagi PQ-4938-sonli qarorining qisqa mazmuni. Ushbu hujjatga asosan: 2021-yil 1-fevraldan boshlab byudjet muassasalari va tashkilotlari xodimlarining ish haqi hamda stipendiyalar miqdori 1,1 barobarga oshirildi:

– mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdori - oyiga 747 300 so‘m; bazaviy hisoblash miqdori - 245 000 so‘m.

Bundan tashqari PQ-4938-sonli qarorga muvofiq:

– 14 yoshgacha bolalari bo‘lgan oilalarga nafaqa, bola ikki yoshga to‘lgunga qadar bola parvarishi bo‘yicha nafaqa, kam ta’minlangan oilalarga beriladigan moddiy yordam hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyatidagi muhtoj oilalarga bir martalik moddiy yordam miqdorlari;

– 2021-yilda ikkinchi darajali byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan byudjet mablag‘larining cheklangan miqdorlari;

– 2021-yil uchun O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjeti daromadlari prognozi;

– Foyda solig‘i to‘liqligicha O‘zbekiston Respublikasi respublika byudjetiga yo‘naltiriladigan yirik soliq to‘lovchilar ro‘yxati;

– ”Navoiy kon-tog‘ metallurgiya kombinati” DK va “Olmaliq kon-tog‘ metallurgiya kombinati” AJ uchun foyda solig‘i stavkalari;

– 2021-yil uchun davlat dasturlari va byudjet xarajatlarining maqsadli indikatorlari belgilab berilgan.

2021-yil 1-yanvardan boshlab ijtimoiy soliq tushumlari quyidagicha taqsimlanadi:

a) byudjet tashkilotlari bo‘yicha:

byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga - 99,2 foiz; Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasiga - 0,4 foiz;

O‘zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasi kengashiga - 0,4 foiz;

b) boshqa to‘lovchilar bo‘yicha:

byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga - 98,4 foiz; Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasiga - 0,8 foiz;

O‘zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasi kengashiga - 0,8 foiz.

Quyidagi soliq turlari bo‘yicha daromadlar prognozining oshirib bajarilgan qismi to‘liq hajmda Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika byudjeti, viloyatlar byudjeti va Toshkent shahri byudjetida qoldiriladi: jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i; qo‘shilgan qiymat solig‘i; foyda solig‘i.

Bunda, soliq turlari bo‘yicha daromadlar prognozining oshirib bajarilgan qismini hisoblashda yirik soliq to‘lovchilardan tushumlar(mazkur qarorning 4- ilovasida ko‘rsatilgan yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan soliqlar bundan mustasno) inobatga olinadi.

Asosiy xulosalar

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish deganda davlatning jamiyat a’zolari ehtiyojlarini qondirish darajasini oshirish uchun cheklangan iqtisodiy resurslaridan yanada samarali foydalanishni ta’minlovchi, umumiy iqtisodiy muvozanatga erishishga yo‘naltirilgan, ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish bo‘yicha faoliyati tushuniladi.

Shunday qilib, davlat tomonidan amalga oshiriladigan fiskal siyosat, milliy xo‘jalikda tashkil qilingan soliq tizimining asosiy qoidalariga javob berishi va iqtisodiyotdagi ichki o‘zaro munosabatlarni samarali tartibga solishi zarur. Bunda asosiy e’tibor:

“...xarajatlarning ijtimoiy yo‘naltirilganligini saqlagan holda Davlat, byudjetining barcha miqyoslarida muvozanatni saqlash, mahalliy byudjetlarning daromad qismini mustahkamlashga yo‘naltirilgan byudjetlar aro munosabatlarni takomillashtirish” ga qaratilishi maqsadga muvofiq.

Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining operatsiyalarini pul bilan ta’minlash pul muomalasi sohasini nazorat qilishga imkon

beradi; kredit va byudjet tizimlari o‘rtasida o‘zaro munosabatlar vositasini takomillashtirish, kredit berish, byudjet kamomadi sharoitida uni pul chiqarish hisobiga emas, balki davlatning qimmatli qog‘ozlarini sotish hisobiga qoplash zarur.

Quyidagi soliq turlari bo‘yicha daromadlar prognozining oshirib bajarilgan qismi to‘liq hajmda Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika byudjeti, viloyatlar byudjeti va Toshkent shahri byudjetida qoldiriladi: jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i; qo‘shilgan qiymat solig‘i; foyda solig‘i.

Byudjet kodeksi respublikamiz byudjet tizimini hamda davlat byudjetini rejalashtirish, ko‘rib chiqish, qabul qilish, ijro etish, hisob va hisobotini olib borish, nazoratini yuritish hamda uning ochiqligini yanada takomillashtirish, Davlat moliyaviy tizimini boshqarish samaradorligini sifat jihatidan yuqori bosqichga ko‘tarish imkonini beruvchi yagona me’yoriy hujjat sifatida yurtimiz ravnaqi, xalqimiz turmush farovonligini yanada yuksaltirishga xizmat qilishi, shubhasiz.

Muhokama uchun savollar

1. Davlatning iqtisodiyotdagi roliga turlicha qarashlarini baholang.
2. Davlatning iqtisodiyotga aralashuvi to‘g‘risidagi qanday nazariyalarni bilasiz?
3. Davlatning asosiy iqtisodiy vazifalarini sanab chiqing va ularning qisqacha tavsifmi bering.
4. Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning zarurligini nima taqozo qiladi?
5. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish o‘z oldiga qanday maqsad va vazifalarni qo‘yadi?
6. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning bevosita va bilvosita usullariga tavsif bering.
7. Tartibga solishning ma’muriy va iqtisodiy vositalarini sanab ko‘rsating.
8. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishda davlat sektori qanday rol o‘ynaydi?
9. Davlat ijtimoiy-iqtisodiy dasturlari nima va ular qanday amalga oshiriladi?
10. O‘zbekiston iqtisodiyotida davlat sektorining ulushi dinamikasini tahlil qiling. Yillar davomida tarmoq va sohalar bo‘yicha

davlat sektori ulushining o‘zgarishini izohlang.

11. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning tashqi iqtisodiy usullari mazmunini tushuntiring.
12. Byudjet tizimi xususiyatlari va asosiy prisiplarini tushuntiring
13. Umumiy qilib aytganda ko‘pchilik demokratik davlatlarda byudjet nechta bosh maqsadni amalga oshirishi lozim?
14. Byudjet munosabatlari va byudjet tizimi amal qilishining qonuniy-huquqiy asosini qaysi qonuniy hujjat tashkil etadi?
15. Davlat byudjetining ahamiyatli tomoni nimada?
16. Bozor munosabatlari rivojlangan byudjet tizimini boshqarish hamda ularning natijalarini ta’minlash qanday tizim orqali amalga oshiriladi?
17. O‘zbekistonda o‘rta muddatli rejalashtirishga o‘tish shart sharoitlarininimalar bilan izohlash mumkin

X BOB. IQTISODIY O‘SISHDA BILIMLAR IQTISODIYOT

10.1. Inson kapitaliga investitsiyalar
10.2. Bilimlar iqtisodiyotida texnologiyalarni rivojlantirish
10.3. Intellektual mulk va kapital

Tayanch iboralar: *Inson kapitali va texnologiya, iqtisodiy o‘sishning sodda, endogen modeli, ta’lim va endogen iqtisodiy o‘sish, inteliektual mulk, inteliektual huquq, inteliektual faoliyat, mulk huquqi, inteliektual faoliyat natijalari, inteliektual mulk obyektlari, tovar belgisi, litsenziya, patent, mualliflik huquqi, patent huquqi, turdosh huquqlar, sanoat namunasi, ixtiro, foydali model, litsenziya turlari, royalti,inteliektual mulkni boshqarish.*

10.1. Inson kapitaliga investitsiyalar

Ma’lumki, Respublikamiz innovatsion iqtisodiyot sari harakatlanmoqda, bu barcha resurslardan hozirgi va kelgusi avlodning farovonligi uchun oqilona foydalanish demakdir. Bu maqsadga odam resursi – “inson kapitali”ga, ya’ni, ilmiy kadrlarning intellektual qobiliyati, injener-texnik xodimlar, biznes vakillari va sanoatchilar, birinchi navbatda venchur kapitali (*qaltis korxonalar va ilmiy-texnika taraqqiyotini rag‘batlantirishda yangi uslub, g‘oya va loyihaga investitsiya ajratiladi*) bilan shug‘ullanuvchilar bilan sheriklik qilish orqali erishish mumkin.

Ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekistonda tadqiqot xarajatlariga ajratmalar hissasi juda past: 2016 - yilda yalpi ichki mahsulotning - 0,21 foizini, 2017 yilda – deyarli ikki marta ko‘p bo‘lsada, u Koreya Respublikasida – 4,2, Yaponiyada – 3,3, AQSh va Germaniyada – 2,8 foizni tashkil qilgan. Yuqorida qayd etilgan strategiyaga muvofiq, 2021 yilgacha uni 0,8 foizga oshirish belgilangan. Boshqa dolzarb yo‘nalish sohalar va milliy doirada - kooperatsiyani rag‘batlantirish va innovatsion klasterlar yaratish belgilangan. Shu bilan birga, intellektual mulkni mukammallashtirish o‘z mevasini beradi.

Boshqa mamlakatlarning innovatsion rivojlanishga o‘tish yo‘lidagi tajriba va xatolari tahlil qilinsa, investitsiyalar aktiv va passivga bo‘linadi degan xulosaga kelish mumkin. *Birinchisi* – sifatning o‘sishi va mehnat unumdorligi va bilim berish,Ilmiy-Tadqiqot va Tajriba-Konstruktorlik ishlari *(NIOKR— yangi tayyor mahsulot*

yoki texnologiya yaratishga qaratilgan, yangi bilim va uni amaliy qo‘llashdagi jami ishlar), informatsion-kommunikatsiya texnologiyasi *(IKT*) va uskunalar, faol yashash, hayot davomiyligini uzaytirish va shunga o‘xshash. *Ikkinchisi* – talab etilmagan hashamatli va boshqa qurilishlar qilish. Faollikni keskin oshirish va vaqtincha passivini to‘xtatish, o‘z muddatini oqlashini hisob-kitobini yuritish va har so‘mning to‘la unum keltirishini, suv, yer, yer osti boyliklari, materiallar va energiyani chiqarilgan mahsulot va xizmat ko‘rsatish birligiga xarajatlarini qisqartirish. Shuni ta’kidlash o‘rinli, Yevropada qo‘yilgan mablag‘ni samaradorligi, jumladan, kapital va uy-joyni gorizontaliga emas, aksincha, vertikaliga, har binoni yer sathidan 20-30 qavat va uch-besh qavat yer ostiga qurish. Bu bilan yer resurslarini va infrastrukturani *(bizda ularni qisqartirishga intiladilar)* ma’lum darajada iqtisod qilinadi, axir, bir qavatli uylar tom qismi uchun ko‘p miqdorda metallni, garaj, kanalizatsiya, suv-gaz uzatgich quvurlari, elektr tarmoqlarini talab etadi.

Iqtisodiyotda innovatsiyaning darajasi, informatsion kommunikatsiya texnologiya*(IKT*)sini va jamiyatga raqamlashni kirib kelishi bilan aniqlanadi. Barcha inson kapitali ko‘rsatkichlaridan eng katta korrelyatsiyalash (bu *ehtimollik nazariyasining asosiy terminlaridan biri, ikki va undan ko‘p tasodifiy o‘lchamlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatuvchi o‘lchov)* IKTni rivojlanishi bilan, tadqiqotda qatnashuvchilar hissaga ega bo‘ladi, ommalashtirishning muhim omiliga aylanadi va joylarda eng oliy yechimlardan foydalaniladi. Ya’ni, fandagi tartib-qoidalar faqat bilim va texnologiyalarni yetkazib berishdan iborat emas. Olimlarning ilg‘or fikrlari, qarashlari, nuqtai nazarlarini jamlab, yetkazishga yordam beradi.

Hozir turli sohalarda “aqlli” texnologiyalar – davlat boshqaruvi, iqtisodiyot, uy-joy-kommunal xo‘jaliklarda, ijtimoiy sektorda, shahar infrastrukturasi biznesda joriy etilmoqda. Lekin barcha bunday ishlanmalar, bino va uskunalar – omilkorlik bilan foydalanilmas ekan, u o‘lik to‘planilgan narsaga aylanadi. Ilgarilab harakat qilishning asosiy manbasi – “aql boyligi”*(kapital mozga)*, yoki intellektual boylikka (*intellektualnыy kapital*) erishish. Shuning bizda bilim berish sifatini oshirish va shu bilan barcha darajada qamrab olish ustuvorligi, kadrlarni uzluksiz tayyorlash tizimini kuchaytirish, iqtisodiyot talabidan kelib chiqib, uning egiluvchanligini ta’minlash juda muhim.

“Aqlli” ta’limga o‘tish zarur – bolalarda o‘ziga xos, asl bilimlar mexanizmini yaratishni shakllantirish, innovatsiya va uning o‘z oilasi farovonligi uchun samarali qo‘llash zarur. Uni o‘zbek xalqiga va hududlarda yashayotgan aholiga to‘laligicha qo‘llash darkor. Har bir bolani yoshligidan iste’dodli (matematika, kimyo, rassom, musiqachi ...) ekanligini aniqlash va ularning mantiqli ilmini yaxshilash omillarini kompleks tahlili asosida, kelajakda yuqori malakali ong-bilim darajasida, saviyasi yuqori, mutaxassis bo‘lishi uchun xotirasi va fikrlash tezligi tarbiyalash kerak. Yangi avlodning eng yorqin vakillariga, katta ishonchlar bildirib, o‘ziga xos va alohidaligini e’tiborga olib, xuddi Germaniya, AQSh, Koreya Respublikasi va boshqalar kabi ular uchun alohida kiritilgan dasturlarda tayyorlash mumkin. (*Prezidentimizning Xorazm viloyatiga tashrifida tanishtirilgan mental arifmetika sinfi, maktab., shuningdek, bu borada “Prezident maktab”larini ochish bo‘yicha ko‘rsatmalaridan “namuna” sifatida foydalanish kerak).*

Bu yerda nafaqat davlat asosiy rol o‘ynashi, ota-onasi, bobo va buvisi har kuni bolalar uchun vaqt topishi kerak, chunki o‘qitish va tarbiyalash, qobiliyatini yaxshilash, an’analarni yetkazish, bilim, muammoni yechimida tajriba va ko‘nikma, doimo omillarni tahlil qilish va uning rivojlanishiga shart-sharoit yaratish kerak. Shunday qilish kerakki, bolalar iste’dodidan to‘g‘ri foydalana olsin va munosib faoliyat yo‘nalishini topib olsin. Axir mevadan daraxti ko‘p hosil olish uchun yerni yaxshilab, yumshatiladi, o‘g‘itlab ekish, sug‘orib turish talab etiladi. Innovatsiyadan ham yuqori natijalarga erishish uchun miya qobiliyatiga investitsiya yo‘naltirish kerak bo‘ladi.

Ba’zi oilalar bolalariga faqat bog‘ yaratib berish, mol ko‘paytirish, uy-joy qurib berishni, asosiy boylikka ega qilish deb hisoblaydilar. Ammo bu bilan bolalarining miya qobiliyatini o‘stirishga yetarlicha e’tibor bermaydilar. Agar farzandlarning miya qobiliyatini o‘stirsak, ularning o‘zi bizga qaraganda, bir necha bor ko‘p bog‘-rog‘, mol-hol, hashamatli qasrlar qurishi mumkin. Buning uchun oilalarda tarbiyani ushbu qirrasiga e’tiborni kuchaytirilishi, ta’lim va sog‘liqni saqlash sohalari tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqib, joriy etsalar ayni muddao bo‘lar edi.

Ta’limga innovatsiyalarni joriy etish, maktab hayotiga, pedogogik kollektivning ishiga, har bir o‘qituvchi va o‘quvchilarning ongi va faoliyatiga, maktab va ota-ona hamkorligiga ozmi-ko‘pmi

o‘zgarishlar kiritadi. Bu o‘zgarishlar ta’lim sifatini, tarbiyaviy ish natijalarini, maktabni boshqarishni, o‘qituvchilarning saviyasini, maktabning oila va jamoatchilik bilan o‘zaro munosabatlarini yuqoriroqpog‘onaga ko‘taradi.

Uzoq yillar davomida munosib ravishdagi kadrlarni, shu jumladan, tadbirkor va muallim, o‘qituvchi (*pedogog)*larni tayyorlash uchun katta to‘siq, g‘ov oliy o‘quv yurtlariga abiturientlarga kirish sinovining sifati bo‘lib keldi. Barcha bolalar uchun adolatli va teng bo‘lishi uchun jahon amaliyotidagi qabul qilish usuli, ya’ni, munosib bilimi, arzigulik, xizmati, mehnat qilgan bo‘lsa, yagona kam o‘tadigan ballda qabul qilishga murojaat qilish mumkin edi.

Bunda Toshkentdagi Xalqaro Vestminster universitetidagi qo‘llanib kelinayotgan Buyuk Britaniya tajribasi ham qiziqarli. U yerda oliy o‘quv yurtining birinchi kurs talabalari, o‘xshash fanlardan yagona “Foundation Year” rejasi (*ijodiydan boshqa*) bazaviy dasturi asosida shug‘ullanadi. Bir yil o‘qishgandan so‘ng, qobiliyati, qiziqish va ishtiyoqi aniqlanib, shundan so‘ng ularni bakalavriyat yo‘nalishi bo‘yicha taqsimlanadi.

Magistraturaga maqsadli qabul ham dolzarb, u yerga puxta saralash, shu jumladan, mnemonika(*xotirani yaxshilash usuli*) mantiqchilikni (*logika)* va chet tillarini (*lingvistlik*) bilish (*chet ellarning GMAT, SAT, TOEFL, IELTS testlari va boshqalar*) qobiliyatlarini tekshirish kerak. Germaniya, Janubiy Koreya va boshqa rivojlangan mamlakatlarda bilim berishning ushbu darajasi, ko‘pincha ingliz tilida tashkil etilgan, bu yoshlar uchun katta istiqbol ochadi. U yerda o‘quv yurtini bitirishdagi malaka ishlarini chet tillarida himoya qiladi, joriy etilgan ilg‘or loyihalar yoki ularni O‘zbekiston sharoitiga moslashtirgan talabalarni ham qabul qilishlari mumkin. Ularning ilmiy rahbar bilan shug‘ullanishi, bakalavriatda boshlagan ishlarini, tadqiqotlarini amalda tugallagan bo‘lsa, bu kabilarga kompaniyalar qiziqish bildirib, tadbirkorlariga homiylik qilishlari mumkin.

O‘zbekiston televideniesi dasturlarida namoyish etilgan, mamlakatimizdagi bir nechta oliy o‘quv yurtlarining talabalari bilan suhbatlarni ko‘rib, ayrim talabalarning xotirasi pastligini, xatto kechagi o‘qilgan ma’ruzalar mavzularini ham eslay olmagani, o‘z mutaxassisligi bo‘yicha bilimi darajasi o‘rganilganda, ular kelgusida amalda foydalanishi kerak bo‘lgan asbob-uskunalarning ishlash prinsiplarini xatto jo‘yali tushuntirib berolmaganligi, kishini

afsuslantiradi.

Innovatsion iqtisodiyotda oliy ma’lumotlilar, ayniqsa magistrlarning 60 foizidan ortig‘i band bo‘lmog‘i kerak. Mamlakatimiz rahbari Shavkat Mirziyoev allaqachon qabul kvotasini oshirgan, shu bilan birga, uning tashabbusi bilan davlat- xususiy hamkorligi asosida oliy o‘quv yurtlari tashkil etilmoqda, byudjetdan uncha ko‘p bo‘lmagan xarajat evaziga va yoshlarni keng qamragan holda qabul qilinishi, ularning o‘z holiga tashlab qo‘yilmay, yot g‘oyalarga berilib ketmasligini ta’minlaydi. Bunda eng muhimi, yuqorida qayd etilganidek, AQShdagi kabi jiddiy nazorat bo‘lishi lozim.

Xalqning hayot darajasini yaxshilanishi, intellektual va kasbiy (professional)qobiliyatini o‘sishi, shuningdek, faol hayotini o‘rtacha davomiyligini belgilab beradi. Bu yerda “aqlli” tibbiyotga mablag‘ sarfini ko‘paytirmasdan bo‘lmaydi.

“Inson kapitali”, genofond to‘liq, ko‘p sabablarga ko‘ra, sog‘likning pasayishi bilanbog‘liq. Ularning ichida: avloddan avlodga meros bo‘lib qolayotgan kasalliklar, shu jumladan, yangi yosh oila qurish va bolalar tug‘ilishida oldindan mavjud xastalikni davolamaslik, foydali mikroelementlar, aminokislotalar va vitaminlarning ratsionda yetishmasligi, alkogol va tamakini keragidan ortiq iste’mol qilish, surunkali toza kislorod va suvning yetishmasligi, noto‘g‘ri tanlangan sport turi va u bilan shug‘ullanish me’yori, doimiy ruhiy zarba va yomon uyqu keng tarqalgan. Bunga qo‘shimcha fikrlashni rivojlantirish va bilimni umumiy sog‘-salomatlikni yetishmasligi, unchalik ommaviy ravishda aqli uchun “fizkultura”, xotira mashqi qo‘llanilmasligini ham qo‘shish mumkin. Bu kabi bo‘shliqni yo‘qotish uchun ta’limva sog‘liqni saqlash sohalari vakillari bir bo‘lib (tandem), hal etishlari kerak.

Har bir insonga ovqat, taom organizmning normal hayoti uchun xuddi qurilish materiali va energiya kabi manba hisoblanishini yaxshi biladi. Vrachlar tasdiqlashicha, ratsional ovqatlanish – kattalar uchun yuqori ish qobiliyati va bolalar uchun esa o‘sish va rivojlanishida muhim sharoitdir. Organizmning normal o‘sishi, rivojlanishi va hayot faoliyatini zarur maromda ushlab turish uchun oqsil, yog‘, uglevodlar, vitaminlar va mineral tuzlar kerak miqdorida bo‘lishi zarur. Muvofiq tarzda (neratsional) ovqatlanmaslik – yurak va tomirlarning, ovqat hazm qilish organlarida kasalliklar paydo bo‘lishi, shuningdek, modda

almashishi bilan bog‘liq kasalliklarga bosh sabab hisoblanadi. Muvofiq tarzda (ratsional) ovqatlanish – nafaqat modda almashinuvi, xatto boshqa ko‘pgina kasalliklarning oldini olishda muhim va zaruriy shartdir. Birlashgan Millatlar Tashkiloti ma’lumotiga ko‘ra, 33 foizdan ortiq aholi, yuqorida qayd etilgan: kalsiy, magniy, temir, yod kabi mikroelementlarning yetishmasligidan, yashirin ocharchilik bilan bog‘liq intellektual rivojlanishning yetarli darajada emasligidan qiynalmoqda.

Natijada – bilim olishga va mos ravishdagi kasbida “*muvaffaqiya*t” uchun qobiliyati past. Eng kam iste’mol savatidagi bu yetishmaslikni, ayniqsa, bolalar o‘rtasida bartaraf etishi kerak. Sog‘lom avlodni shakllantirish uchun butun ovqatlantirish sifatli, ekologik toza, zararli aralashmalar va konservantlarsiz bo‘lishi lozim. O‘rni kelganida shu aytish kerakki, fuqarolarning hayotini munosib ravishda iste’mol savati huquqiy ta’minlanishini qo‘llab-quvvatlash “Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalar yili” Davlat dasturining bandlaridan biriga kiritilgan. Bu aholini manzilli himoya nuqtai nazaridan – nafaqat bolalar, aksincha,kam ta’minlangan oilalar, pensionerlar uchun ham muhim. Lekin ushbu hujjat vaqtincha e’lon qilinmadi.

Hozirning o‘zida barcha omillarni hisobga olish kerak, chunki O‘zbekiston aholisi o‘smoqda, tabiiy resurslar va boshqa resurslar kamayib bormoqda. Boshqa mamlakatlarning yo‘l qo‘ygan xatosini takrorlamay, bilimni to‘g‘ridan-to‘g‘ri iqtisodiyotga yo‘naltirishga intilish, respublikada turli sohalar uchun yangi yaratilgan, patentlar asosida ularni chet ellarga chiqarish (*eksport)* zarur. Yoki boshqa variant – iqtisodiy va huquqiy asosda malakali ishchi kuchlarini, unga talab, bo‘sh ishchi o‘rni bo‘lgan *(vakansiya)* holda va katta maosh to‘laydigan davlatlarga (*Xitoy tajribasi va Hindistonni IKT sohasida*) ishga yuborishga tayyorlash zarur. Olingan daromadni boshqa tovar va xizmatlarni sotib olish va import qilishga yo‘naltirish kerak.

Respublikamizni innovatsion yo‘lga (*rels*) o‘tkazilishi bilan nimaga erishiladi? Uning milliy iqtisodiyotining rivojiga keng yo‘laklar ochilib, tadqiqot markazlarining faoliyati kengayadi, ishlanmalar va fanga asoslangan *(naukoemkix)* texnologiyalarni qo‘llash, bilim darajasi va “*inson kapitali*”ning sifati oshiriladi. Bularning barchasi mamlakatni yaqin hamda olis istiqboldagi mustahkam rivojlanishini muvozanatga keltirishga xizmat qiladi.

Amerikalik iqtisodchi I. Ben-Poratning tasniflashiga ko‘ra, inson kapitali quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

– inson kapitalini yaratishda ishtirok etayotgan odamlarning sifat xususiyatlari va qobiliyati;

– bozorda taklif etilayotgan hamda boshqa ashyoviylar ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatishga kiritilgan kapital qismi iste’dod, shuningdek olingan ta’lim va malakadan iborat” deb ko‘rsatgan.

Ayrim olimlar inson kapitali tarkibiga uning egasining ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etish imkoni nuqtai nazaridan yondashadilar. Jumladan O.Nordxoug quyidagilarni ta’kidlaydi: “Tahlil etish nuqtai nazaridan, bir tarafdan, xodimlarning sog‘ligi va malakasini, ikkinchi tomondan, ularning motivatsiyasi va firmaga sodiqligini farqlash foydalidir. Dastlabki ikki unsur alohida bir xodimning topshiriqni bajarish, ya’ni mehnat qilish bo‘yicha asosiy qobiliyatini tashkil etadi. Inson kapitalining keyingi ikki unsuri esa mazkur xodim o‘z malakasiga ko‘ra, ishda qanday faoliyat olib borishini aks ettiradi. Qobiliyat va xohish birgalikda mazkur xodimning mehnatga qobiliyatini shakllantiradi”[10].

I.V.Uinskiy inson kapitali, ta’lim kapitali, sog‘lik kapitali va madaniyatkapitalidan iborat deb hisoblaydi[11].

Inson kapitali tarkibini kengroq tahlil etish uchun funksiyaviy yondashuv prinsipini hisobga olish lozim. Funksiyaviy yondashuvning metodologik prinsipi hodisani faqat uning ichki tarkibi bo‘yicha emas, balki uning funksiyaviy maqsadi, pirovard foydalanish maqsadi nuqtai nazaridan ko‘rib chiqishni talab etadi.

Rossiyalik iqtisodchi S.A.Dyatlov ushbu prinsip bo‘yicha inson kapitali investitsiyalar natijasida shakllantirilgan va inson tomonidan jamlangan sog‘lik, bilimlar, ko‘nikmalar, qobiliyat, motivatsiyaning muayyan zaxirasidir degan fikrni bildiradi. Bu zaxira ijtimoiy ishlab chiqarishning u yoki bu sohasida maqsadga muvofiq foydalanar ekan, mehnat unumdorligini va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga yordam beradi, bu bilan mazkur insonning ish haqi (daromadi) ko‘payishiga ta’sir ko‘rsatadi.

V.T. Smimov va, I.V. Skoblyakova esa inson kapitalini alohida

[10] M.A.Mamatov. Iqtisodiy o‘sish. O‘quv qollanma. - T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2021-384b.

[11] M.A.Mamatov. Iqtisodiy o‘sish. O‘quv qollanma. - T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2021-384b.

inson, alohida korxona yoki korxonalar guruhi darajasida baholash lozimligini ko‘rsatadilar Inson kapitalini tahlil etish va ular turlariga turlicha yondashuvlarni umumlashtirish bu iqtisodiy kategoriyani 2.7-rasmda aks ettirilgandek tassavur etish imkonini beradi:

Salomatlik (biofizik) kapitali. Jismoniy kuch, chidamlilik, ishchanlik, mehnat faoliyatining davomiyligi har bir inson uchun har qanday ishlab chiqarish faoliyatidajuda muhimdir. Salomatlik kapitali inson kapitalining ajralmas qismi bo‘lib, unga investitsiyalar kiritish xodimlar kasallanishining kamayishi hisobiga mehnat qobiliyatini saqlab qolishda o‘z ifodasini topadi.

Mehnat kapitali. Mehnat qanchalik murakkab bo‘lsa, xodimning malakasi, bilimi, tajribasi, va ma’suliyatiga talab ham shu qadar yuqori bo‘ladi. Malakali mehnat oddiy mehnatga qaraganda samaraliroqdir, shuning uchun unga yuqoriroq xaq to‘lanishi kerak. Korxonalarda mehnat kapitali malakali xodimlarning mehnatida mujassam bo‘Iib, ularning salmog‘i qo‘llanilayotgan texnologiyaga bog‘liqdir.

Ta’lim kapitali. U tajriba, mehnat ko‘nikmalari va eng muhimi bilim to‘planishi natijasida butun hayot davomida shakllanib boradi. Ta’lim malakali xodimlarni takror hosil qilishning asosiy vositasi hisoblanadi.

Intellektual kapital. Intellektual faoliyatning mahsuloti muallifning mutlaq mulki sifatida mualliflik huquqi bilan patentlanadi va mustahkamlanadi. Bu kapitaldan iqtisodiyotda qanday foydalanish yo‘nalishlarini va shakllarini belgilash huquqi muallifga tegishlidir. Intellektual mulk obyektlari xo‘jalik aylanmasiga korxonalarning moddiy aktivlari sifatida jalb etiladi hamda ularning, shuningdek ushbu aktiv egalarining daromadlarini ko‘paytiradi.

Tashkiliy-tadbirkorlik kapitali. Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish yoki korxona personalini boshqarish uchun tashkilotchilik qobiliyati, yuksak mas’uliyat, ishbilarmonlik, yangilikka intilish, tejamkorlik, iroda, oqilona tavakkalchilik qilish talab qilinadi. Ana shu kapital — nou-xau, tijorat sirlariga ega bo‘lish ularni tashkiliy-tadbirkorlik kapitaliga aylantirish imkonini beradi. Ishbilarmonlik darajasi xususiy va nazorat qilinadigan kapital miqdorida o‘z ifodasini topadi. Bu esa kichik, o‘rta vayirik biznesni ajratib ko‘rsatish imkonini beradi.

Yuqorida qayd qilingan inson kapitalining turlari mazkur

iqtisodiy kategoriyaning *ajratib berilmaydigan* turlariga taalluqlidir.

Ajratib beriladigan inson kapitali turlariga esa quyidagilar kiradi:

– *ijtimoiy-madaniy inson kapitali*. Bu kapital xodimlar madaniy sifatlari va qobiliyatlarining integratsiyalashishi va kooperatsiyalashishini, ijtimoiy takror hosil qilish tarkibida doimiy axborot, ilmiy, ta’lim, texnologik oqimlar mavjud bo‘lishini aks ettiradi;

– *sotsial kapital*. Sotsial normalar, ishonch va hokazolar uning unsurlari hisoblanadi. Sotsial kapital har bir iqtisodiy subyekt u yoki bu tarzda ijtimoiy munosabatlar tizimiga integratsiya qilinganligi bilan bog‘liqdir. Inson kapitalining ushbu turi qator o‘ziga xos xususiyatlarga egadir;

– birinchidan, bu hamisha tashkillashtirilgan o‘zaro munosabatlar mahsulidir, shuning uchun shaxsiy emas, balki ijtimoiy shaklga egadir; ikkinchidan, sotsial kapital tashkiliy-ijtimoiy tizim amal etishining unsuri sifatida xususiy mulk bo‘lishi mumkin emas, ya’ni ijtimoiy ne’mat hisoblanadi.

A.I.Merko sotsial kapital axborot, g‘oyalar, ishonch, kooperatsiya, hissiy qo‘Ilab-quvvatlash va tashkiliy darajaning boshqa unsurlarini qamrab olgan deb hisoblaydi. Bundan kelib chiqqan holda u ijtimoiy kapitalning ikki darajasini ajratibko‘rsatadi.

Tarkibiy kapital - bu xo‘jalik yurutuvchi subyektning bozorning o‘zgarib boradigan kon’yunkturasiga moslashgan hamda buni korxona uchun manfaatli yo‘nalishga qaratgan holda o‘z tashkiliy tuzilmasini boshqarish qobiliyatidir.

Hozirgi davr iqtisodiyotida firmalar ish ko‘radigan raqobat muhiti innovatsiyalar ta’siri ostida muttassil o‘zgarib turadi. Bunday o‘zgarishlarning yuqori sur’ati korxona muvaffaqiyatga erishishi mumkin bo‘lgan sharoitlarni murakkablashtiradi. Ana shunday sharoitlardan biri - korxonada salmoqli darajada tarkibiy kapital mavjud bo‘lishidir.

Tashkiliy kapital. Mohiyat jihatidan bu xo‘jalik yuritishning tizimga solish malakasi hamda tashkiliy imkoniyatlardir. Tashkiliy kapital quyidagilarni qamrab oladi:

– *innovatsiyalar kapitali* - ularga muhofaza qilgan tijorat huquqlari, intellektual mulk hamda boshqa nomoddiy aktivlar va firmani yangilanishga qodirligini ta’minlaydigan qadriyatlar kiradi;

– *jarayonlar kapitali* - ularga, masalan, ishlab chiqarish, mahsulotni sotish, maxsulot sotishdan so‘ng servis xizmati ko‘rsatish tizimlarini, ya’ni ular natijasida mahsulot qiymatini shakllantiradigan kapitalni kiritish mumkin.

Shu bilan birgalikda *mijozlar kapitali (brend-kapital)* ham farqlanadi. Mijozlar kapitaliga ega bo‘lgan korxona faoliyatini mahsulot yoki xizmatdan foydalanuvchini “iste’mol qiymatini birgalikda yaratish va takomillashtirishga jalb etish” korxonasi deb atash mumkin. Bunda xaridor korxona tomonidan yaratilgan barcha mahsulotlar va xizmatlarning oliy hakami vazifasini bajaradi.

Inson kapitalining yuqorida qayd qilingan tarkibi mazkur iqtisodiy kategoriya insonning o‘zi serqirra ekanligi bilan izohlanadi. Ishlab chiqarish kapitali doirasidagi ashyoviy va inson kapitali yaxlitligi va ajralmasligiga qaramasdan inson kapitali tobora mavqeyi ortib, yetakchi ro‘l o‘ynamoqda. Bevosita inson kapitali iste’mol qilinayotgan jismoniy kapitalning tovarlardagi qiymatini saqlab turadi hamda ish kuchi qiymatini qoplaydigan va kapital egalariga foyda keltiradigan yangiqiymat yaratadi.

Professor Q.X. Abdurahmonovning fikricha, “Inson kapitalini ahamiyati tabiiy resurslar, moddiy boylik va vositalarga qaraganda yuqoriroqdir”. Shuning uchun inson kapitali iqtisodiy o‘sish va samaradorlikning asosiy omilidir. Inson kapitalining iqtisodiy kategoriyasi sifatidagi tushunchasi jahon axborot hamjamiyati va “bilimlar iqtisodiyoti” rivojlanishi bilan birgalikda muntazam ravishda kengayib bormoqda. Hozirgi davrda inson kapitali intellektual va boshqaruv mehnatini, yashash va mehnat faoliyati muhitini qamrab oladigan iqtisodiyotni, jamiyat va oilani rivojlantirishning intensiv ishlab chiqarish omilidir. Bu inson kapitalini rivojlantirishning ishlab chiqaruvchi omili sifatida samarali va oqilona amal etishini ta’minlaydi[12].

Inson kapitali nazariyasiga muvofiq, inson kapitalining to‘planishi turli shakllarda amalga oshirilishi mumkin. Ularning eng asosiylari ta’lim olish hamda kasbiy tayyorgarlik davomida qobiliyatlarni rivojlantirish asosida kapitalni to‘plashdir. Odatda bu qatordan oiladagi tarbiya ham o‘rin oladi.

Shu bilan birga kapitalni to‘plashning boshqa shakllari ham

[12] M.A.Mamatov. Iqtisodiy o‘sish. O‘quv qollanma. - T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2021-384b.

mavjuddir. O‘z sog‘ligi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilish (investitsiya kiritish), migratsiya, iqtisodiyot, mehnat bozori amal etishi to‘g‘risida axborot olish hamda insonning intellektual va jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirishni, bu qobiliyatlardan foydalanish mehnat samaradorligini oshirish imkoniyatini ta’minlaydigan boshqa shakllar shular jumlasidandir.

Inson kapitalining shakllanishi manbalaridan (davlat, oila, xususiy shaxslar va boshqalar) qat’i nazar undan foydalanish va bevosita daromad olish insonning o‘zi tomonidan nazorat qilinadi.

Alohida shaxsning inson kapitali uning salomatligi, sog‘lig‘i, qobiliyati, bilimi va ko‘nikmalaridan iboratdir. “Insonning qiymati” uning hayoti bosqichlarida ortib boradi, bu qiymatdan mehnat unumdorligini oshirish maqsadida foydalaniladi, ayni paytda shaxsiy kapital daromadlarini ko‘paytiradi va insonni o‘z qobiliyatini yanada oshirishga shaxsiy investitsiyalar kiritishga rag‘batlantiradi.

Korxonaning inson kapitalida hozirgi vaqtda savdo belgisi, personal va yangi texnologiyalar sifatidagi nomoddiy aktivlar alohida rol o‘ynaydi. Bu kapitalga, shuningdek shaxsiy inson kapitali aktivlarini (litsenziyalar, patentlar, mualliflik guvohnomalari), firmaning nomoddiy aktivlarini (tovar belgilari) tashkiliy kapital, tarkibiy, kapital, brend-kapital va ijtimoiy kapitalini kiritish mumkin.

Milliy inson kapitali ijtimoiy, siyosiy kapitalni, milliy intellektual ustuvorliklarni, milliy raqobat ustunliklarini va millatning tabiiy salohiyatini qamrab oladi. Milliy inson kapitali har bir rivojlanayotgan mamlakat milliy boyligining yarmidan ko‘prog‘ini, jahonning taraqqiy etgan davlatlarida esa 70,0-80,0 % dan ortig‘ini tashkil etadi.

O‘rni kelganda inson kapitali nazariyasida ham amaliy, ham nazariy darajada qator bahsli masalalar mavjudligini ham ko‘rsatish lozim. Nazariyaga ko‘ra har bir shaxs inson kapitaliga kiritilgan investitsiyalar kelgusida ish haqi ortishi hisobiga qoplanishini to‘g‘ri baholaydi deb hisoblanadi. Ammo bunda muayyan ko‘nikma va kasblarga ega bo‘lganda, ish haqi miqdoriga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan juda ko‘pgina iqtisodiy va hatto siyosiy omillar hisobga olinmaydi.

Ikkinchi muammo inson kapitali nazariyasining empirik ahamiyati bilan bog‘liqdir. Ayrim tadqiqotchilar ta’lim sohasi kabi inson kapitaliga xarajatlar odamlar ish haqi miqdori o‘zgarishiga ta’sir

ko‘rsatishi mumkinligini isbotlagan. Agar motivatsiya kabi omillar hisobga olinmaydigan bo‘lsa inson kapitalga investitsiyalar kiritilishining kelgusida o‘zini qoplashiga ortiqcha baho berib yuborilishi mumkin.

Odatda faqat ishlab chiqarishni rivojlantirish maqsadida kiritiladigan investitsiyalar shaklidagi jismoniy kapitaldan farqli ravishda inson kapitaliga investitsiyalar qisman samarasiz foydalanilishi mumkin. Shuning uchun bu xarajatlarning hammasini investitsiyalarga kiritib ham bo‘lmaydi. Masalan, tarix, tasviriy san’at va adabiyot bilan shug‘ullanadigan studentlarning ko‘pchiligi buni o‘z mehnati samaradorligini oshirish maqsadida qilmaydi. Bu kabi masalalar inson kapitaliga kiritilgan mablag‘larning qiymati va ularning qoplanishini hisoblab chiqishni murakkablashtiradi.

Shu bilan bir qatorda har qanday investitsiyalar bozori kabi inson kapitali bozori ham kamchiliklardan holi emas:

- ish kuchining nisbatan erkin harakatlanishi ish beruvchilarni ish kuchini rivojlantirishga mablag‘ sarflashga intilishlarini kamaytiradi;
- ayniqsa yoshlar o‘rtasida ta’limning qiymati to‘g‘risidagi axborot yetishmasligi inson kapitaliga yetarli bo‘lmagan darajada yoki noto‘g‘ri investitsiyakiritilishiga olib keladi;
- aholining kattagina qismida o‘ziga investitsiya kiritish uchun mablag‘ yetishmaydi.

Inson kapitaliga investitsiyalar bozorining bu va ayrim boshqa kamchiliklari sababli bozor mexanizmlari o‘z-o‘zidan buni eng maqbul tarzda tartibga soladi, degan fikrga olib kelmasligi kerak. Shuning uchun ham davlatning inson kapitaliga investitsiyalar kiritishda bevosita ishtirok etishi nihoyatda muhimdir.

Bunday yondashuvning alohida muhimligini Jahon bankining tadqiqotlari isbotlab turibdi. Jahon banki ekspertlari 192 mamlakatda amalga oshirgan tadqiqotlari natijasida quyidagi xulosalarga kelgan:

- iqtisodiy o‘sish umumiy miqdorining 64,0% dan ko‘prog‘i inson kapitalibilan bog‘liqdir;
- mamlakatning tabiiy resurslari iqtisodiy o‘sish umumiy miqdoriningfaqat 20,0% gacha bo‘lgan qismini ta’minlaydi;
- o‘tish iqtisodiyotiga ega davlatlarda mamlakatning ishlab chiqarishsalohiyati iqtisodiy o‘sish umumiy miqdorining faqat 16,0 % ni ta’minlaydi.

Ushbu dalillar hozirgi davr jamiyatida inson kapitalining roli va ahamiyatiniyaqqol ko‘rsatib turibdi.

10.2. Bilimlar iqtisodiyotida texnologiyalarni rivojlantirish

Texnologiya yoki bilimlarning iqtisodiy jihatlari shaxsiy iste’mol mahsulotlarning iqtisodiy jihatlaridan deyarli farq qilmaydi. Bilim raqobatga ega bo‘lmagan mahsulot hisoblanadi, chunki bir vaqtning o‘zida bu mahsulot turi bilan foydalanish mumkin. Bilimni raqobatga ega bo‘lmagan tomonining asosiy ahamiyati, bu mahsulotni bir marta ishlab chiqarishdayoq bo‘linadi. Siz iste’mol qilayotgan mahsulotingizni boshqa bir inson iste’mol qilmaydi, shuning uchun shu mahsulotni ishlab chiqargan firmalar o‘sha inson uchun ishlab chiqaradilar. Ammo mahsulotni kerak bo‘lgan retseptni bir marta yaratish mumkin, va bundan keyin bu retseptdan ko‘pchilik foydalanish imkoniyatiga ega. Bu shuni bildiradiki texnologiya rivojlanishi belgilangan xarajatlarni belgilab beradi va bir marotaba foydalaniladi.

Misol uchun Misrosoft Exsel dasturini yaratish uchun, ko‘pchilik odamlarning kun-u tun ishlashiga to‘g‘ri kelar edi. Ammo bu dasturlari yaratilishi bilanoq, uni kompakt-disklar yordamida ko‘paytirish mumkin bo‘ladi. Xuddi shunday qilib, Blek va Shoulzlar (Blask and Ssholes) bir necha yillar davomida formulani yaratish bilan shug‘ullandilar va bu formulani yaratgandan keyingina boshqa odamlar tomonidan kalkulyatsiya qilish osonlashdi. Buni yaratishdagi boshlang‘ich xarajatlar yuqori bo‘lgan, keyin esa ulardan nusxa olishga ketgan xarajatlar kamayib borgan.

Bilim ko‘rinishida yaratilgan mahsulotlar qiymati qimmat bo‘ladi, chunki firmalar raqobatga ega bo‘lmagan mahsulotlami yaratishda ko‘proq e’tibor beradilar. Yangi nazariyaning va neoklassik nazariyasining dalillari shundan iborat: dunyodagi real vaziyat tubdan farq qiladi, chunki ba’zi bir firmalar raqobatchilik sharoitiga amal qilmaydilar.

Raqobatchilik sharoitida, odatda narx o‘sib borayotgan xarajatlarga teng bo‘lib qoladi. Demak har qanday firma bilim ko‘rinishida yaratib borayotgan mahsulot narxi qimmat bo‘ladi va o‘z navbatida zarar ko‘rib boradilar. Shuning uchun firmalar mahsulot ishlab chiqarishlaridan oldin uni boshlang‘ich xarajatlarni qoplashga yordam beruvchi qonuniy hujjatlarni paydo bo‘lishiga ko‘proq e’tibor

beradilar. Bu sharoitda bilimning ikkinchi tomoni kelib chiqadi, ya’ni bilim olishning qiyinligidir. Shuning uchun hukumat shunday bir me’yoriy hujjat tuzishlari kerakki biron-bir mahsulot yaratuvchi shaxs yoki firma shu mahsulotga to‘liq egalik qilishi imkonini berishlari kerak. Shunday qilib biron-bir mahsulotni biron-bir shaxs tomonidan yaratilishi qonuniy asosga ega bo‘lishi lozim: Misrosoft Exsel dasturlarini piratlar tomonidan nusxa ko‘chirib ularni sotishlari mumkin, agar Misrosoft kompaniyasining mualliflik huquqi himoya qilinmasa. Ammo boshqa mahsulotlarga ega bo‘lishni cheklash imkoniyati bo‘lmasa (masalan bilim olish), u holda davlat tomonidan shu institutlarga subsidiyalar ajratishlari kerak.

Ba’zi bir iqtisodchilar texnik revolyutsiyasining kelib chiqishi ko‘proq davlatlarga bog‘liq bo‘lgan, chunki ular mahsulot yaratuvchilar uchun qat’iy qonuniy-me’yoriy hujjatlar yaratib berdilar. Shuning uchun bilimning va uzoq muddatli iqtisodiy o‘sishga erishish uchun davlat tomonidan mualliflik huquqini himoya qiluvchi hujjatlarni qabul qilishlaridir. Agar bu huquqlar vaqtida belgilanmaganda edi ko‘pchilik yaratilgan yangiliklar bo‘lmagan bo‘lar edi. Muallif huquqini himoya qilish idoralarini tuzishda, hukumat ikki omilni inobatga olishi lozim. Mahsulot ishlab chiqarilgandan keyin uni monopol ishlab chiqarishga imkon bermaslik.

Iqtisodiy o‘sishga global sharoitda erishish uchun mualliflik huquqini himoya qilishni nafaqat bir davlatda, balki butun dunyoda amalga oshishi bunga kafolat beradi. Boshqa so‘z bilan aytganda O‘zbekistonda ishlab chiqarilgan mahsulot butun dunyoda sotilish imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak, ammo xuddi shu mahsulotning biron-bir davlat tomonidan yaratilishi qonun bilan himoya qilinishi kerak. Bu ta’rif hamda savdo kelishuvidagi maqsadlardan biri hisoblanadi.

Ko‘pchilik iqtisodchilar qanday qilib hukumat iqtisodiy o‘sish sur’atlariga ta’sir qiladilar deb savol beradilar. Ma’lumki hukumat iqtisodiyotda juda katta imkoniyatga va kuchga ega bo‘lgan iqtisodiy vositalardan hisoblanadi, shuning uchun uning harakatlari katta ahamiyatga ega. Hukumat iqtisodiyotga turli xil yo‘llar bilan ta’sir qilishi mumkin va bunga misol pastda ko‘rsatib o‘tilgan. Hukumat qonuniy hujjatlarni belgilashga ko‘maklashadi va bu narsa o‘z navbatida mahsulot yaratuvchilarga katta imkoniyat tug‘diradi. Agar hukumat bunday sharoitlarni yaratib beraolmasa u holda shu mamlakat

iqtisodiy o‘sishi deyarli yuqori bo‘lmasligimumkin.

Hukumat makroiqtisodiy sharoitlarga ta’sir qilishi mumkin, chunki firmalarga inflatsiya yuqori bo‘lgan davlatda mahsulot ishlab chiqarish qiyinchilik tug‘diradi. Hukumat iqtisodiy o‘sishning o‘sish sur’atlariga ta’sir qilishi mumkin, ya’ni turli xil vositalardan foydalangan holda (monetar siyosat, fiskal siyosat va h.k.). Davlat xarajatlari tarkibi ham katta ahamiyatga ega.

Iqtisodiy o‘sishga qaratilgan ko‘pchilik ishlarda yuqoridagi jihatlar tahlili berilgan bo‘lib unda qaysi jihatlarning biri ko‘proq iqtisodiy o‘sishga ta’sir ko‘rsatishi keltirilgan.

Masalan, Singapurda 1960-yildan 1970-yilgacha bo‘lgan davrda aholi jon boshiga 5,6 foiz fizik kapitalga, 0,3 foizi esa inson kapitaliga to‘g‘ri kelgan. Agar biz fizik hamda inson kapitalini inobatga oladigan bo‘lsak, Singapurdagi iqtisodiy o‘sish sur’atlari nolga teng bo‘lgan. Xuddi shunday natijalar 1970-yildan 1980- yilgacha va 1980-yildan 1986-yilgacha bo‘lgan davrda kuzatilgan. Shu malumotlarga asoslangan holda Singapurdagi iqtisodiy o‘sishning asosiy omili faqat harakat va qattiq mehnat degan xulosaga kelgan.

Bu xulosa, bundan oldingi xulosadan mutlaq farq qiladi, chunki oldingi xulosalarga qaraganda Sharqiy Osiyodagi iqtisodiy o‘sish faqatgina texnologiyani yaxshilash orqaligina erishilgan deb aytilgan. Aslida esa mana shu davlatlardagi iqtisodiy o‘sishning paydo bo‘lishi faqatgina fizik kapitalning to‘planganligidandir. Shuni aytib o‘tish joizki, agar yuqoridagi davlatlarda texnologiyalar takomillash-tirilmaganda, kamayib borayotgan daromad qonuni iqtisodiy o‘sishni yo‘qqa chiqarar edi. 1994-yilda Sharqiy Osiyoda ro‘y bergan o‘ta yuqori rivojlanish pasayib ketishini aytgan. Singapurning baxtiga, ishlab chiqarish o‘sish sur’atlari 1986-yildan 1992-yilgacha oshib keldi, va o‘rtacha yiliga 7,4 foizni tashkil etdi. Bu ko‘rsatkichdan faqat 2,6 foizi kapital yig‘ilmasi bilan belgilanadi va 0,6 foizi - ta’lim. Shunday qilib texnologiya bir yilda 4 foizga oshgan.

10.3. Intellektual mulk va kapital

Intellektual mulk obyektlarni boshqarishda, vujudga kelgan muammolarga huquqiy jihatdan yondashuv borasida huquqiy kategoriyalarning o‘rni katta. Moddiy mol-mulkka egalik qilishda bo‘lgani kabi intellektual mulkka ham egalik qilish, undan foydalanish

va tasarruf etish huquqi mavjudligini belgilaydi. Biroq, himoya obyektlarining nomoddiyligi intellektual mulkning o‘ziga xos jihatlarini ko‘rsatadi, ya’ni intellektual mulk qancha iste’mol qilinmasin, u tugamaslik tavsifiga ega bo‘lib qolaveradi. Agar siz biror bir mulkdordan moddiy buyum yoki ashyo olar ekansiz, ushbu vaziyatda u o‘z moddiy mulkidan ayriladi va mulk huquqi bevosita sizga o‘tadi. Mabodo siz o‘zgalarning intellektual faoliyati natijalariga egalik qiladigan bo‘lsangiz, siz o‘zingizga tegishli bo‘lmagan bilimlarga ega bo‘lasiz, bundan mavjud bilimlar kamaymaydi, tugamaydi va hatto o‘zining dastlabki egasini o‘zgartirmaydi ham. Intellektual mulk masalalarini qarab chiqar ekanmiz, ko‘pincha intellektual mulkning bir qismi sifatida sanoat mulki tushunchasidan foydalanishgato‘g‘ri keladi.

Intellektual mulk huquqiga oid qonunchilik tarixan ikki yo‘nalishda rivojlanib kelgan:

1) mualliflik huquqi to‘g‘risidagi qonunchilik;
2) sanoat mulki to‘g‘risidagi qonunchilik.

Sanoat mulkini muhofazalash bo‘yicha Parij konvensiyasiga muvofiq, sanoat mulki tushunchasi nafaqat sanoat yoki savdoga nisbatan qo‘llaniladi, balki keng ma’noda qishloq xo‘jaligi, undiruvchi sanoat va kelib chiqishi tabiiy yoki sanoat ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lgan: sharob, g‘alla, meva, qoramol, foydali qazilmalar, mineral suvlar, gullar, un kabi barcha mahsulotlarga nisbatan ham qo‘llaniladi. Shunday qilib, “sanoat mulki” atamasi yetarlicha shartli hisoblanadi va intellektual mulkning ishlab chiqarishda (faqat sanoatda emas) foydalanilayotgan birqismini ifoda etadi. Bular ixtiro patentlari, foydali modellar, sanoat namunalari, tovar belgilari, xizmat ko‘rsatish belgilari, firma nomlari va tovarlarning kelib chiqish joy nomlari kabilar bo‘lishi mumkin. 1970-yillardan boshlab sanoat mulkining zamonaviy konsepsiyasi “nou-xau” ni o‘z ichiga qamrab ola boshladi, so‘nggi paytlarda seleksiya yutuqlari va integral mikrosxemalar topologiyasini ham ular tarkibiga kiritish holati kuzatilmoqda. Ta’kidlash joizki, sanoat mulki obyektlari va mualliflik huquqi obyektlari innovatsion faoliyat mahsulotlariga bevosita bog‘liqdir.

Iqtisodiyotni innovatsion tarzda rivojlantirishda intellektual salohiyatdan samarali foydalanish bo‘yicha harakatlar rejasiga muvofiq, “Intellektual mulk to‘g‘risidagi qonun hujjatlari takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining

ayrim qonun hujjatlariga qo‘shimcha va o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risida”gi qonun loyihasi ishlab chiqildi. Ushbu qonun loyihasini tayyorlashning zaruriyati bir necha sabablarga asoslangan. Birinchidan, foydali modellar sifatida muhofaza qilinadigan patentga layoqatli obyektlar doirasini kengaytirish. Ikkinchidan, muallifning patent olish uchun talabnoma topshirishi hamda sanoat mulki obyektidan foydalanish tartibini aniqlashtirish. Uchinchidan, talabnoma beruvchiga uning istagi bo‘yicha talabnomani ko‘rib chiqish muddatlarini qisqartirish imkoniyatini berish. To‘rtinchidan, talabnoma beruvchining seleksiya yutug‘iga patent berish jarayonini tezlashtirish hamda patent berish muddatlarini qisqartirish. Beshinchidan, talabnoma beruvchiga seleksiya yutug‘iga patent amal qilish muddatini tiklash imkoniyatini berish hamda intellektual mulk muhofazasini ta’minlash. Oltinchidan, tovar belgisiga doir guvohnomani berish muddatlarinianiqlashtirish.

Intellektual mulk instituti mazkur mulk obyektlariga intellektual mulk huquqlarining mavjudligini nazarda tutadi. Ushbu huquqlar qonunchilik tomonidankafolatlanadi va quyidagilar:

- uchinchi shaxslarga nisbatan mutlaq tavsifga ega bo‘lishi;
- u muhofaza qilinuvchi mamlakat chegaralari bilan cheklanishi;
- amal qilish muddatlarining cheklanganligi bilan tavsiflanadi.

Intellektual mulk huquqining mutlaq tavsifga ega bo‘lishi shunda ko‘rinadiki, u mulkdorning roziligisiz o‘zgalarning intellektual mulk obyektlaridan foydalanishga yo‘l qo‘yib bergan har qanday shaxsning harakatlariga nisbatan qarshi chiqadi. Intellektual faoliyat natijalariga bo‘Igan intellektual huquqlar mutlaq (mulk) huquqi, shaxsiy nomulkiy huquqlar va boshqa huquqlarni o‘z ichiga qamrab oladi. Moddiy naf olish imkonini beruvchi mutlaq huquq:

- eng avval intellektual faoliyat natijalarining muallifida vujudga keladi;
- qonunga muvofiq shu huquqni qo‘lga kirituvchida paydo bo‘ladi;
- davlat ro‘yxatiga olingan taqdirda u himoyalanadi;
- Fuqarolik Kodeksida ko‘zda tutilgan hollardan tashqari ma’lum bir muddat davomida amalda bo‘ladi;

– huquq egasiga intellektual faoliyat natijalaridan qonunga zid bo‘lmagan tarzda va o‘z xohishiga ko‘ra foydalanish, boshqa shaxslar tomonidan intellektual faoliyat natijalaridan foydalanilishiga ruxsat berish yoki foydalanishni taqiqlash imkoniyatini beradi;

– huquq egasiga litsenziya shartnomasi asosida intellektual faoliyat natijalaridan boshqa shaxsning foydalanishi uchun ruxsat berish huquqini beradi;

– intellektual faoliyat natijalari ifodalangan moddiy tashuvchilarga mulk huquqi bilan bog‘liq emas.

Shaxsiy nomulkiy huquqlar doimo muallif bilan qoladi, ular ko‘chirilmaydi, meros qoldirilmaydi va abadiy himoyalanadi. Shaxsiy nomulkiy huquqlar qatoriga mualliflik huquqi, nomga mualliflik huquqi, asarning daxlsizlik huquqi va boshqalar kiradi. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 99-moddasida shaxsiy nomulkiy huquqlar to‘g‘risida quyidagilar keltirib o‘tiladi: “Shaxsning hayoti va sog‘ligi, sha’ni va qadr-qimmati, shaxsiy daxlsizligi, ishchanlik obro‘si, shaxsiy hayotining daxlsizligi, xususiy va oilaviy siri, nomga bo‘lgan huquqi, tasvirga bo‘lgan huquqi, mualliflik huquqi, boshqa shaxsiy nomulkiy huquqlar hamda tug‘ilganidan boshlab yoki qonunga muvofiq fuqaroga tegishli bo‘lgan boshqa nomoddiy ne’matlar tortib olinmaydi va o‘zga usul bilan boshqa shaxsga berilmaydi. Vafot etgan kishiga tegishli bo‘lgan shaxsiy nomulkiy huquqlar va boshqa nomoddiy ne’matlar qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibda boshqa shaxslar, shu jumladan huquq egasining vorislari tomonidan amalga oshirilishi va himoya etilishi mumkin”.

Intellektual mulk to‘g‘risida gapirar ekanmiz, muallif va huquq egasi institutlarini farqlab olishimiz talab etiladi. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi tomonidan 2006-yil 23-martda qabul qilingan va senat tomonidan 2006-yil 9-iyunda ma’qullangan “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 3-moddasida muallifga - ijodiy mehnati bilan asar yaratgan shaxs, deb ta’rif berilgan. Huquq egasiga esa, mualliflik huquqiga nisbatan muallif yoki uning merosxo‘rIari, turdosh huquqlarga nisbatan ijrochi yoki uning merosxo‘rlari, fonogrammani tayyorlovchi, efir yoki kabel orqali ko‘rsatuv yoxud eshittirish Mualliflik huquqining muhofaza belgisida ko‘rsatilgan shaxs, agar boshqacha hol isbotlangan bo‘lmasa, mutlaq mualliflik huquqlari egasi hisoblanadi. Mamlakatimizda intellektual mulk sohasida davlat

siyosatini amalga oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi intellektual mulk agentligi tashkil etilgan bo‘lib, mazkur agentlikning nizomi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-noyabrdagi 394-sonli qarori bilan tasdiqlangan. Mazkur nizomga ko‘ra quyidagilar Agentlikning asosiy vazifalari hisoblanadi:

– intellektual mulk sohasida yagona davlat siyosati amalga oshirilishini ta’minlash, ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalari, tovar belgilari va boshqa intellektual mulk obyektlarini huquqiy muhofaza qilish;

– ixtirolar, sanoat namunalari, foydali modellar, tovar belgilari va boshqa intellektual mulk obyektlarini ekspertizadan, ro‘yxatdan o‘tkazish hamda hisobga olishni tashkil etish va amalga oshirish;

– Davlat patent fondini va intellektual mulkning rasmiy ro‘yxatdan o‘tkazilgan obyektlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar bazasini shakllantirish va yuritish, ularning saqlanishini hamda iqtisodiyot real sektorining xo‘jalik yurituvchi subyektlari, ilmiy tashkilotlar, olimlar va mutaxassislar tomonidan samarali foydalanilishi uchun qulayligini ta’minlash;

– intellektual mulk sohasida zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish, tadbirkorlik subyektlariga va aholiga «yagona darcha» tamoyili bo‘yicha davlat interaktiv xizmatlari ko‘rsatish;

– korxonalar va tashkilotlarga chet eldagi milliy intellektual mulk obyektlarini huquqiy himoya qilishni ta’minlash bo‘yicha konsultativ va amaliy ko‘maklashish, shuningdek, intellektual mulk sohasida xalqaro hamkorlikni kengaytirish;

– intellektual mulk sohasida mutaxassislarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish.

Agentlik o‘ziga yuklangan vazifalarni bajarish uchun quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

– intellektual mulk sohasida davlat siyosati va qonunchilikni takomillashtirish masalalari bo‘yicha takliflar ishlab chiqadi hamda ularni ko‘rib chiqish uchun belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga taqdim etadi;

– ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalari, seleksiya yutuqlari, tovar belgilari, xizmat ko‘rsatish belgilari, tovarlarning kelib chiqish joylari nomi, elektron hisoblash mashinalari (keyingi

o‘rinlarda EHM deb ataladi), ma’lumotlar bazalari va integral mikrosxemalar topologiyasi uchun muhofaza qilish hujjatlari berish yuzasidan buyurtmanomalarni ko‘rib chiqishga qabul qiladi;

– ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalari, tovar belgilari, xizmat ko‘rsatish belgilari, tovarlarning kelib chiqish joylari nomlarini davlat ekspertizasidan o‘tkazadi, ko‘rsatilgan obyektlarning ustuvorligini belgilaydi, seleksiya yutuqlari, EHM uchun dasturlar, ma’lumotlar bazalari va integral mikrosxemalar topologiyalarining rasmiy ekspertizasini o‘tkazadi;

– ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni, seleksiya yutuqlari, tovar belgilari, xizmat ko‘rsatish belgilari, tovarlarning kelib chiqish joylari nomlarini ro‘yxatdan o‘tkazishni, EHM uchun dasturlarni , ma’lumotlar bazalarini rasmiy ro‘yxatdan o ‘tkazishni hamda integral mikrosxemalar topologiyalarini ro‘yxatdan o‘tkazishni amalga oshiradi, muhofaza qilish hujjatlarini beradi, O‘zbekiston Respublikasida umumiy ma’lum bo‘lgan tovar belgilarining tegishli reyestrlarini va ro‘yxatini yuritadi;

– ixtiro, foydali model, s*anoat namunasi, tovar* belgisi, xizmat ko‘rsatish belgisi, tovarlarning kelib chiqish joylari nomi, EHM uchun dasturlar, ma’lumotlar bazalari va integral mikrosxemalar topologiyalariga, berilgan buyurtmanomalarning belgilangan tovarlarga muvofiqligini tekshirish natijalari bo‘yicha, muhofaza qilish hujjatlarini berish yoki berishni rad etish to‘g‘risida qaror qabul qiladi;

– ko‘rsatilgan seleksiya yutuqlarining patentga loyiqlik shartlariga muvofiqligini belgilash natijalari bo‘yicha, O‘zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligining ixtisoslashtirilgan tashkilotlari xulosalari asosida muhofaza qilish hujjatlarini berish yoki berishni rad etish to‘g‘risida qaror qabul qiladi;

– muhofaza qilish hujjatlarining va boshqa zarur hujjatlarning yagonashakllarini belgilaydi v.h;

O‘zbekiston Respublikasining tegishli xalqaro shartnomalaridan kelib chiqadigan majburiyatlarning bajarilishini o‘z vakolatlari doirasida ta’minlaydi.

Intellektual faoliyatning natijasi ilmiy-texnologik mahsulotning yuqori iste’mol xususiyatlariga ega bo‘lgan bozorbop tovarga aylanishi amalga oshadigan innovatsion soha yangi bilimlar va

texnologiyalarga asoslangan zamonaviy iqtisodiyotning taraqqiy etishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Aynan, intellektual mulk obyektlari yangi tovarlar va yangi texnologiyalarning asosini tashkil etadi. Innovatsion iqtisodiyotda intellektual mulkning o‘rni va ahamiyatiuning ko‘p funksionalligi bilan belgilanadi.

Intellektual mulk:

- qiymat yaratishning hal qiluvchi omillaridan biri sanaladi;
- egalariga va foydalanuvchilariga sezilarli iqtisodiy foyda keltiradi;
- kompaniyaning uzoq muddatli raqobat afzalliklarini shakllantiradi;
- kompaniya kapitallashuv darajasining oshishiga xizmat qiladi;
- biznesni raqiblardan himoya qiladi;
- litsenzion daromad olish imkoniyatini beradi;
- ishlab chiqarish va sotishni nazorat qilish imkonini beradi;
- standartlarni yaratishga yordam beradi.

Ushbu funksiyalar, agar intellektual mulk samarali himoya qilingan bo‘lsagina, o‘z natijasini ko‘rsatishi mumkin. Tadbirkorlarning intellektual mulkka bo‘lgan qiziqishi asosan yangi texnik yechimlardan foydalanish yoki patentlar va litsenziyalarni sotishdan daromad olish imkoniyatlari bilan ko‘p jihatdan bog‘liq. Odatiy mahsulotlardan farqli o‘laroq, intellektual faoliyat mahsulotlari, davlat tomonidan maxsus huquqiy himoya bilan ta’minlanmagan bo‘lsa, ularning egalariga kafolatli daromad keltira olmaydi. Intellektual mulkni himoya qilishning ishonchli mexanizmlari mavjudligi:

- raqobat ustunligini saqlab qolishni ta’min etadi;
- investitsion iqlimni sezilarli darajada yaxshilash imkonini beradi;
- qaroqchilik va kontrafakt mahsulotlarga qarshi kurashishda samaralivosita hisoblanadi;
- texnologiyalar transferi jarayonlarini jadallashtirishadi;
- korxonaning nomoddiy aktivlaridan ruxsatsiz foydalanishning oldini

oladi.

Raqobat ustunligini saqlab qolish. Tashkilot innovatsion faoliyatni amalga oshirish natijasida innovatsiyalarni intellektual

mulk obyektlari sifatida himoya qilish jarayonida belgilab qo‘yilgan raqobat ustunligiga ega bo‘ladi.

Investitsion iqlimning sezilarli darajada yaxshilanishi.

Innovatsion iqtisodiyot uchun zarur bo‘lgan investitsiyalar oqimi ko‘p jihatdan intellektual mulkning samarali huquqiy himoyasi mavjudligiga bog‘liq. Investorlar xatarlilik darajasi yuqori bo‘lgan korxonalarga sarmoya kiritmaydilar. Zero, bunday korxonalarning menejerlari hali uzoq muddat raqobatchilar kirib bora olmaydigan bozorda korxona ulushining barqaror bo‘lishini ta’minlash uchun zarur darajada himoyalanishi lozim bo‘lgan intellektual mehnat natijalarini himoya qila olmaydilar. Asosiy maqsadi u yoki bu masalalarni hal etish uchun yangi bilimlarning uzatilishi bo‘lgan texnologiyalar transferiga intellektual mulkni himoya qilish mexanizmining samaradorligi to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatadi.

Intellektual mulk huquqlarini himoya qilish, innovatsiyalarni himoya qilish innovatsion jarayonlarni boshqarishning muhim vazifasidir. Ushbu muammoning hal etilishi texnologiyalarni uzatish jarayoni, innovatsiyalar diffuziyasi, xuddi boshqa tovar va xizmatlar kabi ularning sotilishi va sotib olinishi jarayonlarini jadallashtirish imkonini beradi. Intellektual faoliyat mahsulotlarini almashish natijasida yaratilgan texnologiyalar bozorining ahamiyati bugungi kunda har qachongidan ham o‘sib borayotganligini kuzatishimiz qiyin emas. Intellektual mulk - bu katta foyda keltirishi mumkin bo‘lgan tashkilotning muhim nomoddiy aktivi hisoblanishi bois, tegishli himoyani ta’min etish asosida raqobatchilar tomonidan ruxsatsiz foydalanishning oldini olish juda muhimdir.

Huquq tizimi o‘z ichiga turli huquq sohalarini qamrab oladi, ular o‘z navbatida kichik soha va institutlarga bo‘linadi. Huquqiy tartibga solish predmeti bo‘yicha birlashtirilgan huquqiy me’yorlarning alohida guruhi huquq sohasidir. Huquqning har bir sohasiga uni tartibga solish predmetining xususiyatlaridan kelib chiqadigan huquqiy tartibga solishning o‘ziga mos uslubi xosdir.

Intellektual mulk huquqi yoki intellektual mulk fuqarolik huquqining kichik sohasidir. Patent huquqi va fuqaro munosabatlari ishtirokchiliklarni individuallashtirish vositalarini muhofazalash, shuningdek, noan’anaviy obyektlarni muhofazalashdan iborat bo‘lgan mualliflik huquqi va sanoat mulki shu kichik sohaning institutlaridir.

Mualliflik huquqi va mualliflik huquqi obyektlari

“Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq mualliflik huquqining obyektlari bo‘lib quyidagilar hisoblanadi: mualliflik huquqi ijodiy faoliyat natijasi bo‘lmish fan, adabiyot va san’at asarlariga nisbatan, ularning maqsadi va qadr-qimmati, shuningdek, ifodalanish usulidan qat’i nazar, tatbiq etiladi.

Mualliflik huquqi fan, adabiyot va san’at asariga mualliflik huquqi uni yaratish fakti bo‘yicha yuzaga keladi. Mualliflik huquqining yuzaga kelishi va amalga oshirilishi uchun asarni ro‘yxatdan o‘tkazish yoki biron-bir boshqa rasmiyatchilikka rioya etish talab qilinmaydi. Asarning asl nusxasida yoki nusxasida muallif sifatida ko‘rsatilgan shaxs, agar boshqacha hol isbotlanmagan bo‘lsa, asar muallifi hisoblanadi. Asar imzosiz yoki taxallus ostida chop etilgan taqdirda (muallifning taxallusi uning kim ekanligiga shubha qoldirmaydigan hollar bundan mustasno), asarni chop etgan, asarda ismi-sharifi yoki nomi ko‘rsatilgan noshir, agar boshqa dalillar bo‘lmasa, muallifning vakili hisoblanadi hamda muallifning huquqlarini himoya qilish va ularning amalga oshirilishini ta’minlash huquqiga egadir. Bu qoida bunday asar muallifi o‘z shaxsini oshkor etguniga va o‘zining muallif ekanligini ma’lum qilguniga qadar amalda bo‘ladi.

Amaldagi qonunchilik hujjatlariga ko‘ra, quyidagilar mualliflik huquqining buzilishi deb, e’tirof etiladi:

- mualliflarning shaxsiy nomulkiy huquqlarini buzish;
- ijrochining ismi-sharfiga bo‘lgan va ijroni har qanday tarzda buzib ko‘rsatilishidan yoki har qanday boshqacha tarzda tajovuz qilinishidan himoya qilish huquqlarini buzish;
- huquq egasi yoki mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilot bilan shartnoma tuzmasdan asarlar yoki turdosh huquqlar obyektini takrorlash, tarqatish yoki undan boshqacha tarzda foydalanish;
- haq to‘lash to‘g‘risidagi talablarni buzish;
- asarlardan yoki turdosh huquqlar obyektlaridan huquq egasi yoki mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilot bilan tuzilgan shartnoma bo‘yicha olingan huquqlarni oshirib yuborgan holda foydalanish;
- huquq egalarining mulkiy huquqlarini boshqacha tarzda

buzish mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni buzishdir.

Asarlarning va turdosh huquqlar obyektlarining takrorlanishi yoki tarqatilishi mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni buzgan holda amalga oshiriladigan nusxalar kontrafakt nusxalardir.

Asosiy xulosalar

Inson kapitaliga investitsiyalar bozorining bu va ayrim boshqa kamchiliklari sababli bozor mexanizmlari o‘z-o‘zidan buni eng maqbul tarzda tartibga soladi, degan fikrga olib kelmasligi kerak. Shuning uchun ham davlatning inson kapitaliga investitsiyalar kiritishda bevosita ishtirok etishi nihoyatda muhimdir.

Bu xulosa, bundan oldingi xulosadan mutlaq farq qiladi, chunki oldingi xulosalarga qaraganda Sharqiy Osiyodagi iqtisodiy o‘sishga faqatgina texnologiyani yaxshilash orqaligina erishilgan deb aytilgan. Aslida esa mana shu davlatlardagi iqtisodiy o‘sishning paydo bo‘lishi faqatgina fizik kapitalning to‘planganligidandir. Shuni aytib o‘tish joizki, agar yuqoridagi davlatlarda texnologiyalar takomillashtirilmaganda, kamayib borayotgan daromad qonuni iqtisodiy o‘sishni yo‘qqa chiqarar edi. 1994-yilda Sharqiy Osiyoda ro‘y bergan o‘ta yuqori rivojlanish pasayib ketishini aytgan. Singapurning baxtiga, ishlab chiqarish o‘sish sur’atlari 1986-yildan 1992-yilgacha oshib keldi, va o‘rtacha yiliga 7,4 foizni tashkil etdi. Bu ko‘rsatkichdan faqat 2,6 foizi kapital yig‘ilmasi bilan belgilanadi va 0,6 foizi - ta’lim. Shunday qilib texnologiya bir yilda 4 - foizga oshgan.

Shaxsiy nomulkiy huquqlar doimo muallif bilan qoladi, ular ko‘chirilmaydi, meros qoldirilmaydi va abadiy himoyalanadi. Shaxsiy nomulkiy huquqlar qatoriga mualliflik huquqi, nomga mualliflik huquqi, asarning daxlsizlik huquqi va boshqalar kiradi. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 99-moddasida shaxsiy nomulkiy huquqlar to‘g‘risida quyidagilar keltirib o‘tiladi: “Shaxsning hayoti va sog‘ligi, sha’ni va qadr-qimmati, shaxsiy daxlsizligi, ishchanlik obro‘si, shaxsiy hayotining daxlsizligi, xususiy va oilaviy siri, nomga bo‘lgan huquqi, tasvirga bo‘lgan huquqi, mualliflik huquqi, boshqa shaxsiy nomulkiy huquqlar hamda tug‘ilganidan boshlab yoki qonunga muvofiq fuqaroga tegishli bo‘lgan boshqa nomoddiy ne’matlar tortib olinmaydi va o‘zga usul bilan boshqa shaxsga berilmaydi.

Intellektual faoliyatning natijasi-ilmiy-texnologik mahsulotning yuqori iste’mol xususiyatlariga ega bo‘lgan bozorbop tovarga aylanishi amalga oshadigan innovatsion soha yangi bilimlar va texnologiyalarga asoslangan zamonaviy iqtisodiyotning taraqqiy etishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Aynan, intellektual mulk obyektlari yangi tovarlar va yangi texnologiyalarning asosini tashkil etadi.

“Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga muvofiq mualliflik huquqining obyektlari bo‘lib quyidagilar hisoblanadi: mualliflik huquqi ijodiy faoliyat natijasi bo‘lmish fan, adabiyot va san’at asarlariga nisbatan, ularning maqsadi va qadr-qimmati, shuningdek, ifodalanish usulidan qat’i nazar, tatbiq etiladi.

Muhokama uchun savollar

1. Intellektual mulk deganda nimani tushunasiz. O‘z fikrlaringizni misollar yordamida tushuntirib bering?
2. Intellektual huquq nima? Uning asosiy xususiyatlarini sanab bering?
3. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi va “Mualliflik va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining qonunida intellektual mulk huquqining qanday obyektlari ko‘rsatib o‘tilgan.
4. O‘zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligining asosiy vazifalarinimalardan iborat?
5. Innovatsion iqtisodiyotda intellektual mulkning o‘rni va ahamiyati nimalardan iborat?
6. Innovatsion kompaniyaning intellektual mulkni boshqarishi deyilgandanima tushuniladi?
7. Litsenziyalash va patentlash to‘g‘risida batafsil tushuncha bering?

XI BOB. TO‘LIQ BIR TARMOQLI IQTISODIY O‘SISH MODELI

11.1. Iqtisodiy konvergensiya to‘g‘risidagi nazariyalar
11.2. Iqtisodiy o‘sish va rivojlanayotgan mamlakatlar
11.3. Iqtisodiy o‘sishda daromadlarning kamayishi va tafovuti
11.4. O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiy o‘sish va davlat siyosati

Tayanch iboralar: *iqtisodiyot, iqtisodiy o‘sish, konvergensiya, nazariya, model, o‘sish, tendensiya, neoklassik, tarmoq, daromad, divergensiya, yondashuv, konsepsiya, transmilliy korporatsiya, eksport, milliy o‘sish.*

11.1. Iqtisodiy konvergensiya to‘g‘risidagi nazariyalar

Konvergensiya (lotin. convergere - yaqinlashish) va **divergensiya** (divergere uzoqlashish) ma’nosini ifodalab, obyektning rivojlanish jarayonini, uning sifat belgilarini alohida ajratib ko‘rsatish va birlashtirish, tarkibiy tuzilmasini yangilashni tavsiflaydigan fenomeni sifatida baholash mumkin. Shu kabi mos sharoitlarda murakkab tizimning tarkibiy tuzilmasi sifatida rivojlanib, o‘z xususiyatlari bilan ajralib turadi va natijada asta-sekin butun tizim o‘zgaradi va boshqacha faoliyat olib boradi, ya’ni unga nisbatan divergent bo‘lib boradi. Istiqbolda tizimning rivojlanishi sifat sakrashlariga olib keladi, bu esa uni shunga mos dinamik, barqaror rivojlanayotgan tizimlar bilan yaqinlashtiradi. Bu turli xil tizimlarni turkumlash imkonini beradi, va ulardan o‘xshashlik va farq qiluvchi tomonlarni ajratib ko‘rsatibboradi.

Shu bilan birga, iqtisodiyotga nisbatan konvergentlik va divergentlikni aniqlash, ularning iqtisodiy rivojlanish jarayonlarini tavsiflashdagi o‘rni va rolini baholashda turli-xil noaniqliklar mavjud. Shunday qilib, ijtimoiy formatsiyalarning rivojlantirish mantig‘idan kelib chiqqan holda xo‘jalik tizimlarining konvergensiyasining noiqtisodiy tabiati haqidagi fikrlar tushunchasi bilan birga sof iqtisodiy industrial konvergensiya mavjud, sanoati rivojlangan jamiyatlarning obyektiv tendensiyalari sifatida (turli modellar va iqtisodiy tizimlar, turlari, muassasalarining o‘zaro bir-biriga kirishishi va institutlarni

transformatsiyalash va tizimlararo farqlarni tekislash), yoki tarixiy iqtisodiy rivojlanish jarayonidan subyektiv og‘ish sifatida (elitani manfaatlarini amalga oshirish uchun harakatlari natijasida) mavjud.

Iqtisodiy konvergensiya fenomenini tahlil qilish uning tarkibiy tuzilmaviy o‘zgarishlarga nisbatan bir qator yondashuvlarni ajratib tadqiq qilishga imkon berdi.

Birinchi yondashuv XX asming ikkinchi yarmida olib borilgan tadqiqotlar bilan bog‘liq bo‘lib, kapitalistik va sotsialistik ishlab chiqarish usullari konvergensiyasi, sanoat tarmog‘i ekspansiyasini kengaytirish darajasiga qarab (ichki ishlab chiqarish va tarmoq rejalashtirish, tarmoq tarkibiy tuzilmalarni va kapitalni konsentratsiyalashni mustahkamlash) ishlab chiqarishni tashkil etish shakllarida o‘sib borayotgan yaqinlikni, qondoshlikni qayd etadi. Ushbu yondashuvlarning konseptual ifodasi timsoli sifatida “sintezlashgan iqtisodiyot”, ijtimoiy ishlab chiqarishning integral turi, subsidiyalashgan davlat, bu esa iqtisodiyotga zarurat me’yoriga qarab aralashuvchi ishlab chiqarishning yuqori tipiga ega bo‘lgan universal tipdagi iqtisodiyot, “konvergent turdagi aralash iqtisodiyot”da nomoyon bo‘lmoqda.

Shu bilan birga, sotsialistik va kapitalistik ishlab chiqarish usullari konvergensiya nazariyasi mualliflari muammolarni institutsional jihatdan ko‘rish bilan istiqbolda ushbu ukladlarni o‘zaro hamkorlikda bir-biriga kirib borishi bilan cheklangan. Ular sobiq markazlashgan davlat iqtisodiyotining xo‘jalik birlashmalarining foyda olishga intilishi bilan xorijiy xalqaro kompaniyalar faoliyatida rejalashtirishni joriy etish, va adolatli daromadlarni taqsimlash talablaribilan cheklangan.

Shuning uchun ham, xo‘jalik shakllarida konvergensiyaning tarkibiy usullarijihati ochib berilgan emas va tarkibiy tuzilmaviy tahlil nuqtai nazarga ko‘ra bunday konvergensiya xo‘jalik shakllarini bir-biriga yaqinlashishini nazarda tutadi, biroq ularning iqtisodiyot tuzilmasining tarkibiy mazmunan yaqin elementlarining qarindoshlik aloqalari bilan bog‘liq emas. Ushbu mantiqdan kelib chiqib, 1990-yillarda O‘zbekiston Respublikasida olib borilgan bozor islohotlari bilan boshlangan tizimli o‘zgarishlar konvergent (yalpi xususiylashtirish, markazlashgan rejalashtirish tizimini demontaj qilish, ko‘plab raqobatlashadigan firmalarni vujudga keltirish) xususiyatlariga ega edi. Shu bilan birga, deyarli bir vaqtda turli xil

boshqa tendensiyalarga ega bo‘lgan devirgent xususiyatlarga xos bo‘lgan chuquro‘zgarishlar yuz berdi.

Natijada O‘zbekiston iqtisodiyoti zamonaviy sanoatlashgan bozor tizimidan (innovatsion va tadbirkorlik tarmoqlari, xususiy tadqiqot kompaniyalari, yuqori texnologiyali xolding kompaniyalari, innovatsion va zamonaviy firmalar) bilan tavsiflanuvchi ko‘plab elementlaridan maxrum bo‘ldi. O‘zbekiston bilan G‘arbiy yevropa, AQSH, Xitoy iqtisodiyotidagi tarkibiy tuzilmaviy o‘zgarishlardagi farqlar shu qadar chuqurlashib ketdiki, sobiq MDH davlatlari iqtisodiyoti va G‘arbning ilg‘or mamlakatlarining konvergentligi sifatida namoyon bo‘ladigan bozor islohotlari teskari devirgent o‘zgarishlarni keltirib chiqardi.

Iqtisodiy konvergensiyaning tadqiq qilishning **ikkinchi yondashuvi** rivojlanayotgan va rivojlangan mamlakatlarda XX asming ikkinchi yarmida kuzatilgan iqtisodiy o‘sish sur’atlari bo‘yicha yaqinlashish bilan bog‘liq. Iqtisodiy o‘sishning neoklassik nazariyasi (ekzogen - R. Solou va endogen - P. Romer) turli mamlakatlarning konvergent iqtisodiyoti uchun bir qator tavsiyalarni taklif qildi:

- beta-konvergensiya (“boy” rivojlangan mamlakatlarga qaraganda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot bo‘yicha quyi darajaga ega bo‘lgan mamlakatlardayuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini ta’minlashi);
- sigma-konvergensiya (rivojlangan va ayrim rivojlanayotgan mamlakatlar o‘rtasida aholi jon boshiga milliy daromad ko‘rsatkichini bosqichma-bosqich tenglashishi);
- shartli-konvergensiya (rivojlanayotgan mamlakatlarning mehnat va kapitaldan foydalanishda teng msbatlari sharoitida yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlari va ushbu nisbatlarning rivojlangan mamlakatlarning statsionar holatiga yaqinlashgan sari o‘sish sur’atlarini pasayib borishi).

Iqtisodiy o‘sish sur’atlari bo‘yicha mamlakatlar konvergensiyasining sabablari orasida mualliflar: rivojlanayotgan mamlakatlarga to‘g‘ri kelayotgan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmiga qarab, mehnat unumdorligining o‘sishi va bu o‘z navbatida kapitalning yuqori darajadagi chegaraviy qaytimi bilan rivojlanayotgan mamlakatlarning yangi texnologiyalarga bo‘lgan imkoniyatlarni kengayishi ta’kidlab o‘tishadi. Misol sifatida, urushdan

keyingi yillarda Fransiya, Germaniya va Yaponiya iqtisodiyotining tiklanishini keltirish mumkin. Bundan tashqari, mamlakatlarning “chuqur konvergensiya”sini ajratib ko‘rsatishadi. Iqtisodiy o‘sish sur’atlari, hamda boshlang‘ich start holati bo‘yicha juda yaqin bo‘lgan “Osiyo yo‘lbarslari” davlatlari: Gonkong, Janubiy Koreya, Tayvan, Singapur 1990-yillarda (texnologik jihatdan bog‘liq xorijiy investitsiyalarning ommaviy oqimi tufayli tez o‘sishdi), 2000-yillarda BRIK mamlakatlari (jahon xomashyo bozorining juda qulay konyunkturasi) sababli o‘sdi.

Shu bilan birga, ko‘plab iqtisodchilar tomonidan ta’kidlab o‘tiladiki, iqtisodiy o‘sish to‘g‘risidagi xalqaro konvergensiyasida qayd etilgan nazariyasida sezilarli cheklovlar mavjud. Masalan M.Abramovich, F.B.Larren, J.Saks bozor islohotlarining institutsional muammolarini aniqlashadi, A.Gershenkron rivojlanayotgan mamlakatlarda nomukammal sanoat siyosatini, R.Lukas sanoat o‘sishida yangi texnologiyalar va investitsiyalar oqimiga eng asosiy to‘siq bo‘layotgan inson kapitalining past sifati, yetarli darajada bo‘lmagan xususiy jamg‘armalar va investitsiyalarni tadqiq etgan. R.J.Barro, K.Salain Martin bugungi kunda qator texnologik yaqin qondosh bo‘lgan AQSh va G‘avrbiy Yevropa mamlakatlarning o‘sish konvergensiyasini aniqlashdi, shu bilan birga Sharqiy Yevropa mamlakatlarida bu o‘sish nisbatan past darajada amalga oshdi. Umuman olganda, R.J.Barro, Ke.Salain Martinning gipotezasi zamonaviy rivojlangan mamlakatlar iqtisodiy rivojlanishining uzoq muddatli tendensiyasi ularda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotning ma’lum bir statsional holati (eng rivojlangan mamlakatlarda aholi jon boshiga YaIM darajasi) bilan yaqinlashishi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti uchun, texnologik ilg‘or mamlakatlar bilan iqtisodiy o‘sish sur’atlari yaqinlashuvi 2010-2015 yillarda juda cheklangan davrda kuzatilgan. Bu davrda O‘zbekiston jahonda iqtisodiy o‘sish sur’ati bo‘yicha birinchi beshta davlatlar qatoridan o‘rin olgan. Iqtisodiyot tarkibiy tuzilmasida negativ salbiy jarayonlar fonida xomashyo eksportidan hamda byudjetdan olingan daromad o‘sishi hisobidan o‘sish sur’atlarini sezilarli darajada dunyo ko‘rsatkichlariga nisbatan yaqinlashtirish imkonini berdi. Biroq, istiqbolda ushbu samaraning imkoniyatlari cheklanishi natijasida rivojlangan davlatlar bilan makroiqtisodiy trendlardagi farqlar o‘sib

ketishiga olib keldi.

Shunday qilib, iqtisodiy o‘sish konvergensiyasi tashqi kuchlar ta’sirida yuzaga kelgan kapital jamg‘arishda (to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning misli ko‘rilmagan oqimi natijasida) hamda sifatli sakrashdan kelib chiqadigan, sanoat siyosati institutlari va eng yangi texnologiyalarni import qilish va moslashtirishdan kelib chiqadigan ijobiy tarkibiy o‘zgarishning natijasi va kapital daromadlarini oshirish uchun daromad o‘sishini cheklashdan kelib chiqqan.

Uchinchi yondashuv turli mamlakatlarning institutsional tarkibiy tuzilmalari konvergensiyasi bo‘lib hisoblanadi. Uning mohiyati, turli mamlakatlarning iqtisodiytizimlari rivojlanib, bir-biriga mos keladigan institutsional tuzilmalarni shakllantirib, mos iqtisodiy muammolarni hal etib, samarasiz institutlarni bartaraf etib, jahon amaliyotida ijobiy isbotlangan norma va qoidalar bilan vujudga kelgan bo‘shliqlarni to‘ldirib boradi. Natijada, R.J.Barro, K.Salain Martinning xulosasiga ko‘ra, turli mamlakatlarning institutsional tuzilmalarining evolyutsion rivojlanishi ularning identifikatsiyasiga olib keladi. A.M.Libman institutsional konvergensiya jarayonida hal qilinishi mumkin bo‘lgan bozor islohotlarining quyidagi vazifalarni ajratib ko‘rsatadi: transchegaraviy tranzaksion xarajatlar darajasini pasayishi, global institutsional raqobatdagi pozitsiyalarni yaxshilanishi, ichki “islohotlar blokadasini” yengib o‘tishga urinish. Ushbu vazifalarga oraliq sifatida institutlarni import qilish orqali ko‘maklashish mumkin.

Shu bilan birga, biz xalqaro qabul qilingan me’yorlarni qo‘llash natijasida samaradorlikni o‘sishiga sabab bo‘lgan institutlar konvergensiyasi, kuchli yaqinlashish omillari endogen (an’anaviy savdo, moliyaviy, ishlab chiqarish va kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish: G‘arbiy va Sharqiy Yevropa; AQSh, Meksika, Kanada) va ekzogen (harbiy aralashuv, madaniy hamkorlik: Yaponiya, Janubiy Koreya, AQSh, Hindiston, Buyuk Britaniya, sobiq mustaqil mamlakatlar hamdo‘stligi mamlakatlari uchun O‘zbekiston Respublikasi misolida) amalga oshishi mumkin degan mualliflar g‘oyalariga qo‘shilamiz. Shu sababli, islohotgacha bo‘lgan davrda texnologik jihatdan ilg‘or mamlakatlar bilan keng ko‘lamli iqtisodiy va ilmiy-ishlab chiqarish hamkorligi bo‘lmagan O‘zbekiston iqtisodiyoti uchun bugungi kunda xamashyo manbai sifatida global ishlab chiqarish zanjirlarida ishtirok etmoqda. Institutsional nusxa

ko‘chirishlar tajribasi bugungi kunga kelib mamlakatda rivojlangan davlatlar normalari va qoidalari va ularni qo‘llash amaliyoti ham eng rivojlangan mamlakatlar tuzilmalariga mos darajada shakllantira olmadi. Natijada, bozor iqtisodiyotining ko‘plab institutlaridan nusxa ko‘chirish tajribasi bugungi kunda iqtisodiyotda tarkibiy tuzilmaviy o‘zgarishni boshlash uchun yetarli bo‘lmay qoldi.

Iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlar konvergensiyasiga nisbatan tadqiq qilishning **to‘rtinchi yondashuvi**, tarkibiy o‘zgarishlarni vujudga keltiruvchi globallashuv omillarini tahlil qilishga asoslangan bo‘lib, turli mamlakatlarning iqtisodiyotlarini rivojlanishida umumiy, bir xil iqtisodiy jarayonlar tufayli ularning bir-biriga yaqinlashishi tushuniladi.

Iqtisodiy konvergensiyaning “Globallashuv” konsepsiyasi tushunchasi jahon yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarishda eng rivojlangan mamlakatlar ulushini kamayishiga asoslangan bo‘lib 21-asrga kelib unda rivojlanayotgan mamlakatlar ulushi bashoratlarga ko‘ra o‘sib bormoqda.

Agarda 2000-yillarda OBSE mamlakatlar aholisi va ular tomonidan ishlab chiqilayotgan jahon YaIM hajmi bo‘yicha ulushi 20%/ 70% taqsimoti bo‘lgan bo‘lsa 2030-yilga kelib bu nisbat 20%/50% bo‘lishi va 2022-yilda 20%/42% bo‘lishi bashorat qilinmoqda. Bu, bir qator mualliflar xulosalariga ko‘ra, Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlarida chuqur tarkibiy o‘zgarishlarni nazarda tutadi, bu esa, birinchi navbatda, mehnat unumdorligini o‘sishini ta’minlash, ikkinchidan, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning global qiymat zanjirlarida ishtirokini qayta taqsimlash imkonini beradi.

Bunday konvergent tarkibiy o‘zgarishlar bozor va davlat institutlarining nisbati va samaradorligiga, mamlakatlar o‘rtasida ishlab chiqarish va yuqori texnologiyali ishlab chiqarishga investitsiyalarni qayta taqsimlashga, telekommunikatsiya kanallari bo‘yicha ilmiy va texnologik taraqqiyotning ilg‘or yutuqlarini tarqatish orqali texnologik bo‘shliqni bosqichma-bosqich kamaytirishga ta’sir qilishi kerak. Bundan tashqari, transmilliy korporatsiyalarning kengayishi orqali rivojlangan mamlakatlar tarkibiy tuzilmasining elementlarini rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotiga kiritish konvergent ta’sirga ega bo‘ladi.

11.2. Iqtisodiy o‘sish va rivojlanayotgan mamlakatlar

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimi rivojlanishining ahamiyatli tomonlaridan biri, sobiq mustamlaka va qaram territoriyalarning roli va ahamiyatini iqtisodiy jihatdan kuchayib borayotganligidir. Ushbu mamlakatlar avval jahon iqtisodiyotida rivojlanayotgan mamlakatlar yoki ozod etilgan mamlakatlar, «uchinchi dunyo mamlakatlari», «janub» mamlakatlari yoki «periferiya» mamlakatlari sifatida tilga olingan bo‘lsa, hozirgi kunda umumiy tarzda rivojlanayotgan mamlakatlar deya ataladi.

Bu mamlakatlar iqtisodiyoti turli-tumandir, ularning hududida 3,2 mlrd atrofida aholi yashaydi. Ushbu mamlakatlarda hozirgi kunda juda murakab ijtimoiy- iqtisodiy, siyosiy va madaniy jarayonlar kechmoqda.

Jahon xo‘jaligi va xalqaro iqtisodiy munosabatlarda ozodlikka erishganmamlakatlar iqtisodiyotining rivojlanishi XX asrning 1960-yillaridan boshlab tobora o‘sib boruvchi xarakter kasb etmoqda. Ularning eng ilg‘orlari 1950-yilga kelib, rivojlanayotgan mamlakatlarning «o‘rtachalaridan» (54 mamlakat) 2,4 marta, yuksaklikka erishdi. 1950-yillarning o‘rtalaridan boshlab, yuqorida zikr etilganmalakatlar o‘rtasidagi rivojlanish darajasidagi farq sezilarli darajada ortib bordi. 1990-yillarga kelib rivojlanayotgan mamlakatlarning birinchi guruhiga kiruvchi (19 ta mamlakat) mamlakatlardagi aholi jon boshiga «to‘g‘ri keluvchi o‘rtacha foyda» o‘rtachalariga nisbatan 2,9 barobar, quyi guruhlarinikiga nisbatan esa 12,2 yuqori bo‘ldi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarning aynan shu guruhlarining tarkibida ham, rivojlanish darajalari o‘rtasidagi bog‘liqlikda ham o‘zgarishlar vujudga keldi. Jahon iqtisodiyotida ushbu jarayonlar natijasida tabaqalashuv ham ikkita asosiy mintaqada ro‘y bergan edi. Mintaqaning bir tomonida ozodlikka erishgan mamlakatlarning ko‘proq rivojlanganlari, jumladan, fors ko‘rfazidagi bir qator mamlaktlar Qatar, Quvayt, BAA, shuningdek Osiyo–Tinch okeani mintaqasi va Lotin Amerikasidagi yangi industrial mamlakatlar joylashgan bo‘lsa, mintaqaning ikkinchi tomonida esa mutlaqo turg‘unlik holatidagi iqtisodiy kambag‘al mamlakatlar joylashgandir. Bu kategoriyaga 48 ta mamlakat taalluqlidir. Bularga bir qator Afrika mamlakatlarini, jumladan Mozambik (YaIM yiliga kishi boshiga 80

dollar), Efiopiya (100 dollar), Syerra Leone (140 dollar), Burundi (180 dollar), Uganda (190 dollar), Chad va Ruanda (200 dollar) kabi davlatlarni kiritish mumkin. Bu guruhga taalluqli mamlakatlardan tashqari, guruh ro‘yxatining yanada quyi qismida joylashagan bir qator Osiyo mamlakatlarini – Nepal (160 dollar), Butan va Vetnam (170 dollar), Mayanma va boshqa davlatlarni ham ko‘rsatish mumkin.

Ushbu mintaqalar orasida rivojlanayotgan mamlakatlarning qolgan qismlari joylashgandir. Bu ham o‘z navbatida, bir xil tipda bo‘lmagan guruhdir. Uning tarkibiga kiruvchi mamlakatlar ko‘plab ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha farqlanadi. Bu mamlakatlardan eng rivojlanganlari hozirgi kunda iqtisodiy jihatdan «Yangi industrial davlatlar» iqtisodiyotiga yaqinlashib bormoqda. Jumladan, Lotin Amerikasi va Shimoliy Amerika o‘rtasidagi farq sezilarli ravishda qisqarmoqda.

Shimoliy Amerikaning yalpi milliy mahsuloti Lotin Amerikasining yalpi milliy mahsulotidan 4 marta ko‘proqni tashkil etadi (1950-yil oldin bu nisbat 10:1 ni tashkiletgan).

Ushbu iqtisodiy rivojlanishdagi farqlarga qaramasdan rivojlanayotgan mamlakatlarning barchasiga xos bo‘lgan umumiy xususiyatlarni ham alohida ajratib ko‘rsatish mumkin bo‘lib, bular qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- Rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotining ko‘p ukladli xarakterga egaligi.
- Ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi past darajada ekanligi, sanoat, qishloq xo‘jaligi va ijtimoiy infrastrukturaning qoloq ekanligi (birinchi guruh, «yuqori qutb» mamlakatlarini hisobga olmaganda).
- Ularning iqtisodiy rivojlanishi jahon xo‘jaligi tizimiga qaram holatda ekanligi, kapitalizmni periferik xarakter kasb etishi va boshqalar.

Rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyoti ko‘p ukladli ijtimoiy-iqtisodiy tarkibga asoslanadi. Bir qator mamlakatlarda kapitalistik uklad bilan bir qatorda hamon urug‘-aymog‘chilik va patriarxal munosabatlar ham mavjuddir. Rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotida davlat va davlat xo‘jalik ukladi muhim rol o‘ynaydi. Davlat sektorini rivojlantirish bosqichi kapitalistik ishbilarmonlikni kengaytirish siyosati bilan hamohang olib boriladi. Buning natijasida esa davlat kapitalizmi paydo bo‘ladi va rivojlanadi.

Milliy xususiy kapitalistik xo‘jalik ukladning rivojlanishi va shakllanishi jamg‘arish muammolari (ya’ni, pul resurslarining yetishmovchiligi) va jamg‘arilgan mablag‘larning sarflanishi xususiyatlariga bog‘liqdir. Bu mablag‘lar asosan savdoga (ichki va tashki), ko‘chmas mulklarni sotib olishga, mashinalarni ta’mirlashga, sug‘urtaga, benzin qo‘yish shaxobchalariga, taksiga, ya’ni sarmoyalarni aylanishi tezbo‘lgan sohalarga yo‘naltiriladi.

Jahon iqtisodiyotida ozodlikka erishgan rivojlanayotgan mamlakatlarningko‘pchiligida paydo bo‘lgan va rivojlanib borayotgan kapitalizm periferik xarakterga ega. Bu shuni anglatadiki, u sanoati rivojlangan mamlakatlar kapitalizmidan nafaqat rivojlanish darajasi bo‘yicha, balki eng muhimi, ishlab chiqarish usullarning modeli va moddiy ne’matlar taqsimoti bo‘yicha ham tubdan farq qiladi. Kapitalizm markazlari, jamg‘arishning organik va o‘zaro aloqador doimiy o‘sish jarayonida bo‘lgan milliy zaminda paydo bo‘ladi va rivojlanadi. Moslashuvchanlik (imitatsiya) aholi boy qatlamlarining o‘zlari uchun zaruriy bo‘lgan barcha narsalarni qo‘lga kirita oladigan maxsus bozorlarning tashkil topishidan boshlandi. Bunday vaziyatda aholining asosiy qismi kambag‘allikka mahkum etilib, ularni bozorlarda erkin muomalada bo‘lish imkoniyatidan mahrum etadi.

Transmilliy korporatsiyalar tomonidan joriy qilingan yangi texnik texnologiyalar odatda hozirgi kunga mos keladi, ammo ularning bozor narxlari juda yuqori bo‘lib, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun qator muammolarnikeltirib chiqaradi.

Jahon iqtisodiyotida ko‘pchilik rivojlanayotgan mamlakatlarning o‘xshashlik tomonlari, ya’ni ularning qashshoqligi, aholisining qoloqligi, ishsizlik darajasining yuqoriligi, sanoati rivojlangan mamlakatlardan katta miqdorda qarzdorligi hisoblanadi. Rivojlanayotgan mamlakatlarning ko‘pchiligi o‘zining to‘laqonli ijtimoiy–iqtisodiy rivojlanishi va aholisining yashash turmush tarzi darajasi bo‘yicha G‘arbiy Yevropani sanoatlashgan ilg‘or mamlakatlaridan qariyb 20-50 marotaba orqada qolmoqda.

Xalqaro mehnat taqsimotida faol ishtirok etish, jahon xo‘jaligi aloqalarining rivojlanishi, moliyaviy resurslarning mamlakatlar aro oqib yurishi, iqtisodiy taraqqiyotning asosiy shart-sharoitlariga aylanib qoldi. Mustaqil davlat sifatida jahon hamjamiyatida ishtirok etish orqali, rivojlanayotgan mamlakatlarning barchasi 1960-1970-yillardan e’tiboran xalqaro mehnat taqsimotida faol ishtirok etishga

intilib kelmoqda.

Ularning xalqaro mehnat taqsimotida faol ishtirok etish zaruriyati tayyor mahsulot ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan barcha narsalarni yetishtirish imkoniyatiga ega emasligi bilan asoslanadi. Xozirgi kunda rivojlanayotgan mamlakatlar deyarli sanoati rivojlangan mamlakatlar uchun xomashyo yetishtirib beruvchi hamda nisbatan arzon ishchi kuchi manbai bo‘lib qolmoqda.

Xalqaro mehnat taqsimotida xo‘jalik faoliyatining barcha shakllari jamlangan. Eng muhimi, xalqaro savdoning asosini tashkil etuvchi xomashyo va tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarish barcha rivojlanayotgan mamlakatlar bilan dunyoning boshqa rivojlangan davlatlari o‘rtasidagi tovar almashinuvini ta’minlaydi. Xalqaro savdo eng kambag‘al rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ham tashqi daromadning eng muhim manbai bo‘lib hisoblanadi. Ammo, material va energiya sig‘imining keyingi yillarida kamayishi munosabati bilan rivojlangan mamlakatning o‘sishida tabiiy xomashyolarning xalqaro savdodagi tutgan o‘rni pasayib borish tendensiyalari namoyon bo‘lmoqda. Shunga muvofiq u 1991-yilda jahon eksporti umumiy ulushining 25% ni tashkil etgan edi**.** Jahon iqtisodiyotida 1970-1990 yillarda Afrikaning rivojlanayotgan mamalakatlarini umumiy eksport hajmidagi ulushi qisqarib borganligi qayd etiladi. Osiyo mamlakatlaridan jo‘natilayotgan sanoat va qishloq xo‘jalik mollarining doimiy o‘sib borganligiga qaramasdan u 2 barobarga pasayib ketgan edi.

Eksportni asosini tashkil etuvchi xomashyolardan iborat bo‘lgan rivojlanayotgan mamlakatlarda, ularning jahon bozorida egallab turgan pozitsiyalarining yomonlashuvini to‘xtatish imkoniyatiga ega bo‘lgan qo‘shimcha eksport resurslarini izlab topishga bo‘lgan kuchli ehtiyoj sezilmoqda. Buning uchun, eksportning xilma-xilligini ta’minlashga, ya’ni chiqariladigan xomashyolarni qayta ishlash, boshqa turdagi sanoat mahsulotlarining jahon bozoridagi erkin harakatini ta’minlash, eng muhim ustuvor yo‘nalishlardan biri bo‘lib qolmoqda.

An’anaviy tovarlar eksporti hajmini kengaytirish borasidagi ko‘pchilik muammolarga qaramasdan, rivojlanayotgan mamlakatlarning jahon eksportidagi umumiy ulushi asta-sekinlik bilan o‘sib bormoqda. Shuningdek, u 1987-yildagi 22% o‘rniga 1992-yilga kelib 24,7%ga yetgan edi. 1993-yilda rivojlanayotgan mamlakatlarning eksportini fizik hajmi, sanoati rivojlanayotgan

mamlakatlarda 1,2 % ga qisqarganiga qaramasdan, yana 10% ga ortgan edi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda jami eksportni tarkiblashtirish jarayonlari ham sodir bo‘lmoqda. Shuningdek, rivojlanayotgan mamlakatlar eksportidgi sanoat mollarining ulushi (rangli materiallarni hisobga olganda) 1991-yilda 57,7% ga yetgan edi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarning eksportidagi sanoat mollarining ulushi ham o‘sib bordi. Agar u 1970-yilda 7,6%ni tashkil etgan bo‘lsa, 1980-yilda 11%ni, 1991-yilda 19,5%ni, 1995-yilda 25%, 2003-yilda esa 30%ni tashkil etgan edi. Xullas, jahon xo‘jaligida 90-yillar rivojlanayotgan mamlakatlarning jahon eksportidagi ulushi doimiy o‘sishlik tendensiyasiga ega, bo‘lganligi bilan xarakterlanadi.

Sanoat mahsulotlari eksporti hajmining o‘sishida, mashina va asbob–uskunalar eng muhim rol o‘ynamoqda. Ularni eksport qilish 1970-1990-yillarda 85-90 marotabaga o‘sib, sanoatning umumiy ulushi 35-36% ni, tovarlar eksportining umumiy hajmi esa 22% ni tashkil etgan edi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarning ba’zi birlari (Eron, Kongo, Boliviya, Paragvay kabi 12 davlat) 1980-1990-yillar mobaynida xomashyo mahsulotlarini chetga chiqarish hisobiga o‘zlarining xalqaro mehnat taqsimotida qatnashish imkoniyatlarini kuchaytirishga erishdilar. Boshqa mamlakatlar esa, o‘zlarining jahon eksportidagi shaxsiy ulushlarini, sanoatda qayta ishlanadigan mahsulotlarningtashqi bozordagi aktiv harakati hisobiga oshirib borgan edi. O‘z navbatida, mazkur guruhlar o‘rtasidagi alohida mamlakatlar erishgan muvaffaqiyatlarni ham alohida ajratib ko‘rsatish maqsadga muvofiqdir. Jahon iqtisodiyotida oldingi o‘rinlardan birida «Yangi industrial mamlakatlar» borayotgan bo‘lsa, boshqa rivojlanayotgan mamlakatlar esa, eksportning asosini tashkil etuvchi sanoatni kuchaytirish va kengaytirish borasida eng kam ulushni qo‘lga kiritishgan. Ba’zi birlari esa, masalan, Afrikaning eng yirik mamlakati hisoblanmish Nigeriya o‘zining sanoat eksportidagi ulushini tobora qisqartirib bormoqda.

Xalqaro savdo misolida, rivojlanayotgan mamlakatlarning xalqaro mehnat taqsimotida ishtirok etishini baholash orqali jahon xo‘jaligi tizimining butunlay notenglik asosida qurilganligini ko‘rishimiz mumkin. Ba’zi bir rivojlanayotgan mamlakatlar ilmiy texnologik yutuqlardan kam foydalanayotgan bir paytda, rivojlanayotgan dunyoning qolgan qismi oldingidek an’anaviy

industriallashuvga, ba’zi bir qismi esa industriallashuvgacha bo‘lgan texnologik yutuqlarga asoslanib taraqqiy etmoqda.

Rivojlanayotgan mamlakatlarning jahon iqtisodiyotidagi ahvoli bilan bog‘liq bo‘lgan umumiy holatlarni xarakterlash orqali shu narsani ta’kidlab o‘tish lozimki, qoloq rivojlanayotgan mamlakatlar borgan sari xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimidan «ajratib» qo‘yilmoqda. Bunday fikrlar 1996-yilda xalqaro savdoning rivojlanishiga bag‘ishlab o‘tkazilgan BMT ning konferensiyasida (UNCTAD) qilingan ma’ruzalarda keltirib o‘tilgan edi. Doklad avtorlarining fikricha, Urugvay raundi doirasida amal qiluvchi global savdo bitimi maqomini olgan GATT – qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini eksport qilishda subsidiyalarni qisqartirish kerakligini ta’kidlab o‘tadi. Bunday vaziyat, kuchsiz rivojlangan mamlakatlarga nisbatan berilgan kuchli zarba edi. Hozirgi kunda jahon iqtisodiyotida bug‘doy, qand, go‘sht va boshqa turdagi oziq-ovqat mahsulotlarining bozor narxlari oshib bormoqda. 2000-yilda 300-600 mlrd. dollarni tashkil etgan edi.

Dunyo savdosida xomashyo va oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi tobora qisqarib borishi rolini yo‘qotmoqda. Iqtisodiy o‘sishni qo‘llab-quvvatlash maqsadidagi xomashyoviy ixtisoslashuv esa vaqtincha o‘zining yordamchilik rolini bajarishga qodirligini ko‘rsatmoqda xolos. Xalqaro savdoning rivojlanish tendensiyalarini guvohlik berishicha; so‘nggi o‘n yilliklarda turli xildagi xizmatlarning hajmi va ahamiyati beqiyos darajada o‘sib bormoqda.

Rivojlanayotgan mamlakatlar o‘zlarining bu yo‘ldagi imkoniyatlaridan samarali foydalanmoqdalar. Masalan, sayyohlik va mehnat bilan bog‘liq xizmatlar, turli xildagi «iflos» va past maosh to‘lanadigan ishlar uchun ishchi kuchlarini eksport qilish shular jumlasidandir.

Sayyohlik ko‘p yillardan buyon, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun xorijiy valyutalar tushumining asosiy manbalardan biri bo‘lib qolmoqda. Misr uchun turizm sohasidan kelayotgan daromad xorijiy mamlakatlarda vaqtinchalik band bo‘lgan misrlik ishchilar hisobidan keladigan valyutalar va xorijiy yordamlardan keyingi uchinchi o‘rinni egallaydi. So‘nggi yillarda turizm Turkiyada yuqori sur’atlar bilan rivojlanib bormoqda. Bu ko‘rsatkich turizmning umumjahon miqyosidagi 4% li o‘sish ko‘rsatkichi bilan taqqoslanganda, yiliga 8%ni tashkil etadi. Turkiya ko‘proq milliy iqtisodiyotning turizm tarmog‘ini dinamik rivojlanishi bilan farq qiluvchi besh mamlakat

qatoriga kiritilgan. Shu narsa kutilmoqdaki, 2025-yillarning oxiriga borib Turkiya sayyohlikdan tushadigan daromadning o‘lchami bo‘yicha dunyoda uchinchi o‘rinni egallashi bashorat qilinmoqda.

11.3. Iqtisodiy o‘sishda daromadlarning kamayishi va tafovuti

Bir nechta kam rivojlangan davlatlar vaqt o‘tishi bilan o‘z iqtisodiy holatini yaxshilash qobiliyatiga egaligi bilan ajralib turadi. Bir tomondan, yangi industrial mamlakatlar Singapur, Gonkong, Tayvan Janubiy Koreya guruhi bo‘lib, ular 1960-1989-yillar mobaynida real YaMM hajmi yillik o‘sishida yuqori ko‘rsatkichlarga erishgan (6-7 foiz). Buning natijasida ushbu mamlakatlarda aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan real YaMM hajmi 5 barobar o‘sgan. Boshqa tomondan, ko‘pchilik qarzi katta bo‘lgan kam rivojlangan davlatlar, shuningdek, 1980-yillar mobaynida aholi jon boshiga real YaMM kamayishi kuzatilgan Markaziy Afrikaning qashshoq mamlakatlaridir. Birinchi tafovut absolyut hajmining ortishi. Badavlat va qashshoq davlatlar o‘rtasidagi daromadlar tengsizligi darajasi doimiy ravishda ortib bormoqda.

Yuqoridagi fikrni tasdiqlash maqsadida faraz qilaylik, rivojlangan va kam rivojlangan davlatlarda aholi jon boshiga YaMM yillik bir xil ko‘rsatkich 2 foiz bilan o‘sib kelmoqda. Rivojlangan mamlakatlardagi dastlabki daromad katta bo‘lganligi sababli daromadlar tengsizligi yanada ortib boradi. Agar aholi jon boshiga yillik daromad miqdori 400 dollarni tashkil etsa, uning 2 foizga o‘sishi daromadning 8 dollarga ortishiga olib keladi.

Agar aholi jon boshiga yillik daromad miqdori 4000 dollarni tashkil etsa, xuddi shu 2 foizli o‘sish daromadning 80 dollarga ortishiga olib keladi. Shunday qilib daromadlar tengsizligi darajasi 3600 (4000-400)dollardan 3672 (4080- 408) dollarga ortdi. Rivojlangan davlatlarga yetib olish uchun kam rivojlangan davlatlarda iqtisodiy o‘sish darajasi bir muncha yuqori bo‘lishi kerak. Haqiqatdan, boy va kambag‘al mamlakatlar orasida daromadalar darajasidagi tengsizlik sezilarli darajada ortdi. 20 foiz eng boy davlatlar va 20 foiz eng qashshoq davlatlarda aholi yillik daromadlari orasidagi farqning absolyut miqdori 1960-yilgi 1854 dollardan 1989-yilda 15149 dollargacha o‘sgan. Statistika insonlar uchun bizning sayyoramizda ko‘p tarqalgan kambag‘allik haqiqatda nima ekanligini aks ettirmaydi. Biror bir Osiyo mamlakatidagi qishloqda odatiy “katta” oilaga nazar tashlaylik.

Odatda Osiyodagi oila ota-ona, farzandlar va nabiralarni hisobga olganda 10 va undan ortiq kishidan iborat bo‘ladi. Ularning daromadlari pulli va natural ko‘rinishda (ya’ni yetishtirilgan hosilning bir qismini iste’moli) bo‘lib yillik jami 250 dan 300 dollargacha yetadi. Ular egasi yaqin shaharda istiqomat qiladigan, bir xonali ibtidoiy qurilishni ijaraga oladi. Ota-ona va katta farzandlar kuni bo‘yi dalada mexnat qilishadi. Ular na o‘qishni na yozishni biladi. Maktab yoshidagi farzandlardan faqat bittasi maktabga boradi, lekin u ham boshlang‘ich 3-4 sinfdan ortiq o‘qishi gumon. Ular kuniga bir mahal bir xil ovqat iste’mol qilishadi, deyarli doim och qolib yurishadi. Uylarda elektr toki, sanitar-gigiyenik sharoitlar, suv yo‘q.

Kasalliklar keng tarqalgan, malakali shifokorlar shaharda bor, ularning xizmatlaridan faqat boylar foydalanishadi. Jazirama quyosh ostidagi og‘ir mehnat va sharoitlarning yaxshilanishiga hech qanday umid yo‘q. Dunyoning bu qismida tirik qolish uchun doimiy kurashga xalqlarning ma’naviy urf-odatlari yordam beradi. Quyidagi 11.1-jadvalda qoloq davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlari o‘z aksini topgan.

2021-yilda yer yuzi aholisi 7,9 milliard kishiga yetdi. Birgina o‘tgan asrning o‘zida dunyodagi odamlar soni 4,35 milliard kishiga ko‘paygan.

Fuqarolarning normal hayot kechirishi nafaqat daromad miqdori, balki uy- joy, hayot uchun zarur bo‘lgan oziq-ovqat, buyum yoki dori vositalardan foydalanish imkoniyati bo‘lsa-da, ba’zi bir davlatda bir qarashda tabiiy tuyuladigan ushbu sharoitlar yaratilmagan. Masalan, Oksford universiteti mutaxassislaritomonidan olib borilgan tadqiqotlar dunyo aholisining 76 foizi (5,5 milliardan ziyod kishi) istiqomat qiladigan 103 davlatda kamida 26,5 foiz (1,46 milliard) kishi qashshoqlik yoqasida yashashini ko‘rsatdi.

*11.1-jadval***.**

Dunyoning eng qashshoq mamlakatlari

	Dunyoda eng qashshoq 10 ta mamlakat	**Aholi jon boshiga milliy daromadning to‘g‘ri kelishi**
1	Somali davlati	$180 dollar
2	Burundi davlati	$280 dollar
3	Malavi davlati	$380 dollar
4	Mozambik davlati	$490 dollar
5	Madagaskar davlati	$520 dollar
6	MAR davlati	$520 dollar

7	DR Kongo davlati	$530 dollar
8	Afg‘oniston davlati	$530 dollar
9	Serra-Leone davlati	$540 dollar
10	Liberiya davlati	$580 dollar

Eng qashshoq davlatlar asosan avtoritar rejimlar, doimiy harbiy mojarolar, rivojlanmagan iqtisodiyot, umumiy korrupsiya, jinoyatchilik, ekologik qiyinchiliklar va boshqa ko‘plab muammolar hukmronlik qiladigan Afrikada joylashgan. Jahon banki mezonlariga ko‘ra aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot - yiliga 1 025 AQSh dollaridan past bo‘lgan mamlakatlarni juda kambag‘al deb tasniflash mumkin. Dunyoning eng boy mamlakatlarida bu ko‘rsatkich 12 475 dollardan oshadi.

Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar uchun iqtisodiy o‘sishnirivojlantirish yo‘llari mohiyatan bir xildir.

1. Samaradorlikning oshishi. Tabiiy boyliklarning zaxiralari samaraliroq sarf etilishi darkor. Bu o‘z navbatida nafaqat ishsizlikni bartaraf etish, shu bilan birga resurslarning samarali taqsimotiga olib keladi.

2. Ishlab chiqarish resurslarining ortishi. Ishlab chiqarish resurslari zaxiralari orttirilishi kerak. Xomashyo va ishlab chiqarish vositalari zaxirasini orttirish natijasida mehnat va texnologiyalardan samarali foydalaniladi, ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig‘i o‘ng tomonga suriladi.

Nima uchun ba’zi mamlakatlar juda orqada qolgan holda, boshqa mamlakatlariqtisodiy o‘sishni jadallashtirish yo‘lida o‘lkan natijalarga erishdi? Sababi, quyida ko‘rsatiladiganidek turli mamlakatlardagi mavjud moddiy va ijtimoiy-madaniy shart-sharoitlardir.

11.4. O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiy o‘sish va davlat siyosati

Respublikamizda fan-texnika yutuqlaridan samarali foydalanishni ta’minlash maqsadida ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini rivojlantirish va natijalarni ishlab chiqarishni zudlik bilan qo‘llash maqsadida yirik-yirik loyihalar ishlab chiqilgan va amalga oshirilmoqda.

Bundan tashqari respublika ta’lim tizimida keskin yangiliklar qilinmoqda. Ya’ni, respublikada ko‘p bosqichli «Kadrlar tayyorlash

milliy dasturi» qabul qilindi. Ushbu dasturga asosan yoshlarni xalqaro talablarga javob beradigan darajada o‘qitishni ta’minlash bo‘yicha ishlar amalga oshirilmoqda.

Iqtisodiy o‘sishga mamlakatning soliq tizimi ham sezilarli ta’sir qiladi. Soliqqa tortish stavkalarini kamaytirish va amortizatsiya ajratmalari me’yorining o‘sish tomon o‘zgarishi investitsiyalar hajmini ko‘paytiradi va shu orqali iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantiradi.

Umuman, ijtimoiy va ekologik muammolar kuchaygan deyarli barcha mamlakatlarda iqtisodiy o‘sishga eng avvalo aholi farovonligini ta’minlashning sharti sifatida qaralmoqda. Chunki, iqtisodiy o‘sish sur’atlarini ta’minlash zarurligi sababli rivojlangan mamlakatlarda amal qilgan iqtisodiy o‘sishning miqdoriy nazariyasi o‘z o‘rnini iqtisodiy o‘sishning sifat nazariyasiga bo‘shatib berdi. Uning asosiy mohiyati kelajak avlodlar ehtiyojini va aholining kambag‘al qatlamlari ehtiyojini hisobga olishdadir.

Davlat siyosati iqtisodiy o‘sishning quyidagi muammolarini hal etishga yo‘naltirilgan:

- iste’mol darajasi yuqori bo‘lgan, iqtisodiyotning barqaror holatini ta’minlashga qaratilgan omonat jamg‘arish me’yorlarini tanlash;
- aholi o‘sishini tartibga solish;
- fan-texnika taraqqiyotining ekologik jihatdan xavfsiz yutuqlarini joriyetish va mehnat unumdorligini oshirish.

Iqtisodiy o‘sishning ijtimoiy yo‘naltirilganligi kuchayib borishi bilan iqtisodiy nazariya va amaliyotda xalq farovonligi tushunchasi jamiyat ijtimoiy- iqtisodiy taraqqiyotining eng muhim mezonlari sifatida yanada aniqlashmoqda va kengaytirilmoqda.

Agarda ilgarilari uni moddiy ta’minlanganlikning miqdoriy ko‘rsatkichlari aks ettirgan bo‘lsa, hozirda birinchi o‘ringa o‘rtacha umr ko‘rish, o‘lim darajasi, shu jumladan, bolalar o‘limi, ishsizlik darajasi, daromadlar tengsizligi, ta’lim darajasi, atrof-muhitning ifloslanishi va boshqa shu kabi ko‘rsatkichlar qo‘yilmoqda. Ya’ni, iqtisodiy o‘sish shaxsning rivojlanib borishi uchun sharoit yaratib berishi lozim.

2021-yilda O‘zbekistonda yalpi ichki mahsulot (YaIM) ishlab chiqarish hajmi 7,4 foizga o‘sdi.

Yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlari iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida tizimli va islohotlarning izchil amalga oshirilishi

hisobiga erishilmoqda.

Xususan;

– tashqi va ichki bozor talablari asosida iqtisodiyotni chuqur tarkibiy o‘zgartirish va diversifikatsiyalash jarayonlarining izchil amalga oshirilayotganligi;

– ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan yangilashni jadallashtirish, yo‘l-transport va kommunikatsiya infratuzilmasini jadal rivojlantirish hisobiga iqtisodiyotning raqobatdoshligini oshirish;

– bozor islohotlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni erkinlashtirish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, raqobatni kuchaytirish, hududlarni ijtimoiy- iqtisodiy rivojlantirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash hamda ish o‘rinlarini tashkil etish va aholi bandligini ta’minlashga qaratilgan dasturiy vazifalarning o‘z vaqtida bajarilayotganligi;

– ichki talabni aholi bandligi va real daromadlarining oshishini ta’minlash hisobiga rag‘batlantirish va mahalliy ishlab chiqaruvchilarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilishi;

– qishloq xo‘jaligini isloh etish bo‘yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilishi, qishloqda bozor munosabatlarini joriy etish va xususiy mulkchilik shakllarini rivojlantirish, fermerlik harakatini qo‘llab-quvvatlash uchun huquqiy, tashkiliy hamda moliyaviy shart-sharoitlarning yaratib berilishi, qishloq xo‘jaligida ilg‘or ishlab chiqarish texnologiyalarini joriy qilish ko‘lamining kengaytirilishi;

– respublika moliya-bank tizimini yanada rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, uning faoliyatini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish borasida keng ko‘lamli chora-tadbirlarning amalga oshirilishi iqtisodiyotning yuqori sur’atlarda o‘sishiga zamin yaratmoqda.

2021-yil yakuni bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining yalpi ichki mahsuloti hajmi 734,6 trln. so‘mni tashkil etib, 2020-yilga nisbatan
7,4 foizga o‘sdi.

YaIM deflyatori 13,6 foizni tashkil etdi. Aholi jon boshiga YaIM hajmi 21,04 mln. so‘mga yetdi. 2021-yilda tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati tarkibida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

26,9 %ni, qurilish 6,7 %ni, xizmatlar38,5%ni tashkil etdi.

O‘tgan yilning yakunlariga ko‘ra, mamlakatimizda tashqi savdo aylanmasi 42,07 mld. dollarni tashkil qilib, 2020-yilga nisbatan 16 foizga o‘sdi. Shu jumladan, eksport hajmi 16,61 mld. dollarni, import hajmi esa 25,46 mld. dollarni tashkil etdi. 2020-yilga nisbatan mos ravishda 10 foizga va 20,4 foizga o‘sdi (11.1-rasm).



11.1-Rasm. **O‘zbekiston Respublikasining asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari**[13]

Iqtisodiy o‘sishning salbiy oqibatlaridan biri aholi ijtimoiy, mulkiy tabaqalanishining kuchayishi hisoblanadi. Shuning uchun ham davlat aholi turli qatlamlarini himoya qilish maqsadida ijtimoiy siyosatlarni olib boradi.

Daromadlar darajasi bo‘yicha tabaqalanishni aniqlash uchun, dastlab, aholi daromadlari miqdori aniqlanadi. Aholi daromadi ish haqi, dividentlar va foizlardan, shuningdek, transfert to‘lovlaridan tashkil topadi. Daromadlar kengroq ma’noda pulsiz yoki imtiyozli narxlarda aholi oladigan tovarlar va ta’lim, sog‘liqni saqlash, uy-joy kommunal xo‘jaligi, transport va boshqa xizmatlar bo‘yicha imtiyozlarko‘rinishidagi to‘lovlarni ham o‘z ichiga oladi.

[13] www.stat.uz

Ish haqi, dividentlar va foizlarni ishlab chiqarishda bevosita qatnashganlar daromadlar taqsimlanishi natijasida oladilar. Davlat daromadlarning taqsimlanishiga ish haqining eng kam miqdorini qonuniy ravishda o‘rnatish orqali ta’sir ko‘rsatadi. Eng kam ish haqi ushbu mamlakatda tarkib topgan turmush sharoitiga bog‘liq bo‘lib, eng kam iste’mol byudjeti asosida aniqlanadi.

Davlat daromadlarning qayta taqsimlanishini asosan ikki xil tayanch vositalaryordamida amalga oshiradi:

1. Soliq tizimi;
2. Transfert dasturlari.

Davlat transfert dasturlaridan tashqari yana bir qator nodavlat va jamoat dasturlari ham mavjud. Davlat va nodavlat tashkilotlari transfert dasturlarining barcha turlari yagona maqsadga, ya’ni, aholi daromadlarini tenglashtirishga yo‘naltirilgan.

Daromadlar taqsimlanishining tengsizligini ifodalash uchun ko‘p hollarda Lorents egri chizig‘i grafigidan foydalaniladi.



11.2-Rasm. **Lorents egri chizig‘i**

Grafikning gorizontal o‘qida aholi hissasi (foizi), vertikal o‘qida daromad hissasi (foizi) ko‘rsatilgan. Agar jamiyatda daromad mutlaq baravar taqsimlangan deb faraz qilsak, ya’ni 20 foiz aholi jami daromadning 20 foiziga, 40 foiz aholi 40 foiziga ega bo‘lsa, unda mutlaq tenglikning bu vaziyatini ifodalovchi chiziq bissektrisa ko‘rinishiga ega bo‘lar edi. Ammo, hayotda aholi o‘rtasida daromadlarning taqsimlanishi bir xil emas. Masalan, agar aholining 20 foizi A nuqta bilan belgilangan daromadlarning ozgina qismini olsa, aholining 40 foizi B nuqta bilan belgilangan qismini oladi va hokazo.

Bunday holatda daromadning haqiqatda taqsimlanishini bildiruvchi chiziq Lorents egri chizig‘i deb ataladi.

Bissektrisa va Lorents egri chizig‘i o‘rtasidagi uzilish yoki maydon qancha katta bo‘lsa, daromad taqsimlanishining tengsizlik darajasi shuncha yuqori bo‘ladi. Bu uzilish kattaligi tengsizlik darajasini ifodalaydi. O‘zbekistonda eng past va eng yuqori daromad oladigan aholi guruhlari o‘rtasidagi tafovut darajasi so‘nggi yillarda 8 barobarga to‘g‘ri kelmoqda. Ko‘pgina, shu jumladan, qo‘shni davlatlarda bu raqam mamlakatimizdagi ko‘rsatkichdan bir necha barobar yuqori ekani, ya’ni o‘ta kambag‘al va nochor aholi guruhlari va o‘ta boylar guruhi orasidagi tafovut oshib borayotganini ta’kidlash lozim.

Asosiy xulosalar

1. **Konvergensiya** (lotin. convergere - yaqinlashish) va divergensiya (divergere uzoqlashish) ma’nosini ifodalab, obyektning rivojlanish jarayonini, uning sifat belgilarini alohida ajratib ko‘rsatish va birlashtirish, tarkibiy tuzilmasini yangilashni tavsiflaydigan fenomeni sifatida baholash mumkin

2. Iqtisodiy konvergensiya fenomenini tahlil qilish uning tarkibiy tuzilmaviy o‘zgarishlarga nisbatan bir qator yondashuvlarni ajratib tadqiq qilishgaimkon berdi:

- **birinchi yondashuv** XX asming ikkinchi yarmida olib borilgan tadqiqotlar bilan bog‘liq bo‘lib, kapitalistik va sotsialistik ishlab chiqarish usullari konvergensiyasi, sanoat tarmog‘i ekspansiyasini kengaytirish darajasiga qarab (ichki ishlab chiqarish va tarmoq rejalashtirish, tarmoq tarkibiy tuzilmalarni va kapitalni konsentratsiyalashni mustahkamlash) ishlab chiqarishni tashkil etish shakllarida o‘sib borayotgan yaqinlikni, qondoshlikni qayd etadi.
- **ikkinchi yondashuvi** rivojlanayotgan va rivojlangan mamlakatlarda XXasrning ikkinchi yarmida kuzatilgan iqtisodiy o‘sish sur’atlari bo‘yicha yaqinlashishbilan bog‘liq.
- **uchinchi yondashuv** turli mamlakatlarning institutsional tarkibiytuzilmalari konvergensiyasi bo‘lib hisoblanadi.

3. Ushbu iqtisodiy rivojlanishdagi farqlarga qaramasdan rivojlanayotgan mamlakatlarning barchasiga xos bo‘lgan umumiy xususiyatlarni ham alohida ajratib ko‘rsatish mumkin bo‘lib, bular qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

– Rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotining ko‘p ukladli xarakterga egaligi.

– Ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi past darajada ekanligi, sanoat, qishloq xo‘jaligi va ijtimoiy infrastrukturaning qoloq ekanligi (birinchi guruh, «yuqori qutb» mamlakatlarini hisobga olmaganda).

– Ularning iqtisodiy rivojlanishi jahon xo‘jaligi tizimiga qaram holatda ekanligi, kapitalizmni periferik xarakter kasb etishi va boshqalar.

4. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar uchun iqtisodiy o‘sishni rivojlantirish yo‘llari mohiyatan bir xildir.

5. Samaradorlikning oshishi. Tabiiy boyliklarning zaxiralari samaraliroq sarf etilishi darkor. Bu o‘z navbatida nafaqat ishsizlikni bartaraf etish, shu bilan birga resurslarning samarali taqsimotiga olib keladi.

6. Ishlab chiqarish resurslarining ortishi. Ishlab chiqarish resurslari zaxiralari orttirilishi kerak. Xomashyo va ishlab chiqarish vositalari zaxirasini orttirish natijasida mexnat va texnologiyalardan samarali foydalaniladi, ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig‘i o‘ng tomonga suriladi.

7. Davlat siyosati iqtisodiy o‘sishning quyidagi muammolarini hal etishga yo‘naltirilgan:

– iste’mol darajasi yuqori bo‘lgan, iqtisodiyotning barqaror holatini ta’minlashga qaratilgan omonat jamg‘arish me’yorlarini tanlash;

– aholi o‘sishini tartibga solish;

– fan-texnika taraqqiyotining ekologik jihatdan xavfsiz yutuqlarini joriy etish va mehnat unumdorligini oshirish.

Muhokama uchun savollar

1. Konvergensiya nima?
2. Divergensiya mohiyatini tushintiring
3. Iqtisodiy konvergensiya fenomenini tahlil qilishning necha bosqichimavjud?
4. Konvergent turdagi aralash iqtisodiyot nima?
5. «Periferiya» mamlakatlariga qaysi davlatlar kiradi va sababi nimadaniborat?
6. «Yangi industrial davlatlar» qaysi davlatlar kiradi?

7. Transmilliy korporatsiyalar tomonidan joriy qilingan yangi texnik texnologiyalarning rivojlanayotgan mamlakatlar uchun qanday jihatlari bor

8. Tafovut absolyut hajmining ortishi nima?

9. Samaradorlikning oshishi mohiyati nimani anglatadi?

10. Davlat siyosati iqtisodiy o‘sishning qanday muammolarini hal etishgayo‘naltirilgan?

11. Iqtisodiy o‘sishning ijtimoiy yo‘naltirilganligi nima?

12. 2021-yilda O‘zbekistonda yalpi ichki mahsulot (YaIM) ishlab chiqarishhajmi necha foizga o‘sdi va qaysi tarmoqlarda qanday natijalar ko‘rsatildi?

13. O‘zbekistonda YaIM deflyatori necha foizni tashkil etdi?

14. Iqtisodiy o‘sishning salbiy oqibatlari

15. Davlat daromadlarning qayta taqsimlanishini asosan ikki xil tayanchvositalar yordamida amalga oshiradi va ular qaysilar?

XII BOB. O‘SISH VA RIVOJLANISHNING SODDA MODELI

12.1. Rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar o‘rtasidagi iqtisodiy o’sish
12.2. Faoliyat jarayonidagi ta’limning Pol Romer modeli
12.3. Lukas modeli
12.4. Mahsulot sifatining o‘zgarish modeli
12.5. Iste’mol tovarlar turlarini kengaytirish asosida endogen iqtisodiy o‘sish modeli

Tayanch so‘z va iboralar: *Iqtisodiy o‘sishning sodda, endogen modeli, faoliyat jarayonidagi ta’limning pol romer modeli, ta’lim va endogen iqtisodiy o‘sish, lukas modeli, ishlab chiqarish mahsulotlari turlarini kengaytirishda texnologik o‘zgarishlar, mahsulot sifatining o‘zgarish modeli, iste’mol tovarlar turlarini kengaytirish asosida endogen iqtisodiy o‘sish modeli, iqtisodiy o‘sish va notekis taqsimlanish nisbatlarining empirik tadqiqotlari, globallashuv sharoitida iqtisodiy o‘sishning xususiyatlari, rivojlangan mamlakatlar gegimonligi, chegaralangan resurslarning iqtisodiy o‘sishga ta’siri.*

12.1. Rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar o‘rtasidagi iqtisodiy o‘sish

Dunyo mamlakatlarida so‘ngi 25 yil davomida (1990-2014 yillar) iqtisodiy o‘sish va innovatsion investitsiyalar hajmi o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil qilganimizda quyidagi natijalarni olish mumkin.

Birinchidan, yuqori va o‘rta daromadli mamlakatlarda YaIM va innovatsion investitsiyalar hajmining yillik o‘rtacha o‘sishi o‘rtasida yaqin bog‘liqlik mavjud. Quyi daromadli davlatlarda esa bu holat kuzatilmaydi.

Ikkinchidan, o‘rta daromadli mamlakatlarda innovatsion investitsiyalar hajmining YaIM dagi ulushi muttasil oshib bormoqda. Past daromadli davlatlarda ham ushbu ulush o‘sib bormoqda, lekin o‘sish sur’ati o‘rta daromadli davlatlarnikidan sekinroq. Yuqori daromadli davlatlarda esa aksincha innovatsion investitsiyalar ulushi ozroq tushsada, barqaror 20% dan bo‘lib turibdi. Shu o‘rinda turli davrlarda jadal rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasi, jumladan, janubiy sharqiy Osiyo davlatlari tajribasi diqqatga sazovor. “Osiyo yo‘lbarslari” debataluvchi to‘rt davlatdan (Singapur, Gonkong,

Janubiy Koreya, va Tayvan) ikkitasi Koreya va Singapur tajribasining ko‘rsatishicha iqtisodiy rivojlanishning ma’lum bosqichiga chiqquncha innovatsion investitsiyalar hajmi, shuningdek YaIM yuqori sur’atlarda o‘sgan.

Yangi industrlashgan (sanoatlashgan) davlatlar, Malayziya va Taylandda Osiyodagi moliyaviy tanazzulgacha (1997—1998) innovatsion investitsiyalar va YaIM jadal sur’atlarda o‘sganligi kuzatildi. Hozirgi kunda jadal Rivojlanayotgan davlatlar sifatida ko‘rsatiladigan Xitoy va Vetnamda esa innovatsion investitsiyalar hajmi muttasil uzoq muddatda yuqori sur’atlarda o‘sib kelmoqda. Xitoy iqtisodiyotining yana bir ajralib turadigan jihati shuki, innovatsion investitsiyalarning YaIMdagi hajmi tobora o‘sib bormoqda.

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki tadqiq qilinayotgan davrda jahon iqtisodiyoti o‘rtacha yillik 3,5% o‘sishni tashkil etmoqda. Jahon iqtisodiyotini rivojlanishida, uni moliyaviy-iqtisodiy inqirozdan chiqishida va uning iqtisodiy ko‘rsatkichlarini o‘sishida asosiy dvigatel sifatida harakatlantiruvchi kuch, Xitoy iqtisodiyoti hisoblanadi. Xitoy iqtisodiyoti 1993-2007-yillarda mamlakat YaIM hajmini yillik o‘sish sura’tini o‘rtacha 10,4% ta’minlashi natijasida iqtisodiy qaloq davlatdan 2014-yilga kelib AQShni ortda qoldirib jahonda XQP bo‘yicha baholangan YaIM hajmi bo‘yicha birinchi o‘ringa chiqib oldi.

Jahon iqtisodiyotida uning muhim mintaqaviy ittifoqlaridan biri bo‘lgan yevrozona davlatlari tarkibiga qator rivojlanayotgan davlatlarni kirib qo‘shilishi va 2009-yilgi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Globallashuv sharoitida yevrozona mintaqasi davlatlari YAIM hajmini o‘sish sur’atlari jahonning eng rivojlangan davlati bo‘lgan AQSHdan ortda qoldi va yillik o‘rtacha o‘sish sur’ati2%ni tashkil etdi.

2013-yilga kelib bu salbiy ta’sir natijasida yevrozona mintaqasi davlatlarining YaIM hajmi -0,4%ga pasaydi. Masalan 2014-yilga kelib 2000-yilga nisbatan YaIM Germaniyada 114%ga, Buyuk Britaniyada 121%ga, Belgiyada 117%ga, Fransiyada113%ga o‘sdi.

Bu davrda AQSh Yevrozona davlatlariga nisbatan jahon moliyaviy- iqtisodiy inqirozidan chiqib oldi va iqtisodiy o‘sish sur’atlarini 2,2%dan 3,1% ga o‘sishiga erishdi. Natijada AQShda YaIM 2014-yil 2000-yilga nisbatan 128%ga o‘sdi. Rossiya

Federatsiyasi iqtisodiyoti jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozidan katta ta’lofat ko‘rgan davlatlardan biri hisoblanadi. Globallashuv sharoitida uning iqtisodiyoti 2014-yilga kelib jahonning rivojlangan davlatlari AQSh va yevrozona davlatlari tomonidan amalga oshirilgan iqtisodiy raqobat kurashi va iqtisodiy sanksiyalar natijasida iqtisodiy pasayish davrini boshidan o‘tkazmoqda. Natijada Rossiya Federatsiyasi YaIM 2014-yil 2000-yilga nisbatan 176%ga o‘sdi.

12.1-jadval.

O‘zbekiston va jahonning ayrim mamlakatlari va mintaqaviy guruhlarida iqtisodiy o‘sish sur’atlarini o‘zgarishi (oldingi yilga nisbatan % hisobida)

Jahon	**1998-2007 yillar**	**2008 -yil**	**2010 -yil**	**2012 -yil**	**2014 -yil**	**2015 -yil**	**Prognoz**		
							2016 -yil	**2017 -yil**	**2021 -yil**
Rivojlangan mamlakatlar	4,0	3,0	5,4	3,5	3,4	3,1	3,2	3,5	3,9
	2,8	0,2	3,1	1,2	1,8	1,9	1,9	2,0	1,8
AQSh	3,0	-0,3	2,5	2,2	2,4	2,4	2,4	2,5	2,0
Yaponiya	1,0	-1,0	4,7	1,7	0,0	0,5	0,5	-0,1	0,7
Yevrozona	**2,4**	**0,5**	**2,1**	**-0,9**	**0,9**	**1,6**	**1,5**	**1,6**	**1,5**
Germaniya	1,7	0,8	3,9	0,6	1,6	1,5	1,5	1,6	1,2
Buyuk Britaniya	3,0	-0,5	1,5	1,2	2,9	2,2	1,9	2,2	**2,1**
Rivojlanayotgan mamlakatlar	**5,8**	**6,8**	**7,4**	**5,3**	**4,6**	**4,0**	**4,1**	**4,6**	**5,1**
Braziliya	3,0	5,1	7,5	1,9	0,1	-3,8	-3,8	0,0	2,0
Xitoy	9,9	9,6	10,6	7,7	7,3	6,9	6,5	6,2	6,0
Hindiston	7,1	3,9	10,3	5,6	7,2	7,3	7,5	7,5	7,8
Rossiya	5,8	5,2	4,5	3,5	0,7	-3,7	**-1,8**	0,8	**1,5**
O‘zbekiston	5,6	9,0	8,5	8,2	**8,1**	8,0	5,0	5,5	6,0

Tadqiq etilayotgan davrda jahon iqtisodiyotida rivojlangan davlatlarda iqtisodiy o‘sish sur’atlarini pasayishi va aksincha rivojlanayotgan davlatlarda ayniqsa Hindiston va Xitoyda o‘sish sur’atlarini yuqori darajada ekanligi bilan tavsiflanadi. Natijada Hindiston YaIM 2014-yilga kelib 2000-yilga nisbatan 266%ga, Xitoy YaIM 369%ga o‘sdi. Buning asosiy omili bo‘lib tadqiq etilayotgan davrda globalizatsiyaning ta’siri natijasida jahon mamlakatlari guruhlari bo‘yicha to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni taqsimlanishida rivojlangan davlatlar ulushi 2005—2007-yillarda

66%dan 2014-yilga kelib 41%ga tushib qolganligi va aksincha rivojlanayotgan davlatlarning ulushi 30%dan 55%gacha o‘sganligi bilan baholash mumkin.

Tadqiq etilayotgan davrda jahon iqtisodiyotining muhim mintaqaviy guruhlari bo‘lgan rivojlangan, rivojlanayotgan va MDH davlatlarining iqtisodiy ko‘rsatkichlariga nisbatan O‘zbekiston Respublikasi YaIM hajmini yuqori sur’atlarda o‘sish tendensiyasiga ega ekanligi bilan xarakterlanadi. Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki 1993—2007-yillarda MDH mamlakatlari bo‘yicha YaIMni yillik o‘rtacha o‘sish sur’atlari l,9%ni tashkil etgan holda O‘zbekistonda bu o‘sish ikki marta yuqori 4,09%ni tashkil etmoqda. O‘zbekistonning 2013-2014- yillarda iqtisodiy o‘sish sur’atlarini 8% va undan ortiq darajada ta’minlagan holda va 2015-yilgi YaIM hajmini 8% o‘sish sur’ati bo‘yicha jahonda birinchilar qatoriga chiqib oldi. Natijada O‘zbekiston Respublikasida YaIM 2014-yil, 2000-yilga nisbatan eng yuqori darajada 267%ga o‘sdi.

O‘zbekiston Respublikasi YaIMning jahon YaIMni ishlab chiqarishdagi o‘rnini ko‘rsatish va uning aholi jon boshiga ishlab chiqarish hajmini dunyoning barcha mintaqalari va mamlakatlari bilan taqqoslash imkonini ham yaratadi. Ishlab chiqarish ko‘lamlari va shu asosda iqtisodiy rivojlanish darajalari ko‘p jihatdan milliy valyutalarda aks ettirilgan YaIM miqdorini aniqlashning qaysi uslubi asos qilib olinganligiga bog‘liqligini ko‘rsatadi. Agar valyuta kursi bo‘yicha baholanganYaIMning miqdorlari taqqoslansa unda mamlakat YaIM tarkibida innovatsion mahsulotlar ulushi kam bo‘lgan va natijada ichki narxlar jahon narxlaridan past bo‘lgan va ularning mahsulotiga jahon bozorida talab nisbatan kam bo‘lgan davlatlarning YaIM miqdori kamayib boradi.

Aksincha, yuqori texnologik rivojlanish darajasiga ega bo‘lgan va YaIM tarkibida innovatsion mahsulotlar ulushi yuqori bo‘lgan, ichki narxlar jahon narxlaridan yuqori yoki teng bo‘lgan va eksport mahsulotiga talab yuqori bo‘lgan mamlakatlarda ularning YaIM miqdori ko‘payib boradi.

Tadqiqotlarga ko‘ra jahon YaIMda turli mintaqalar va mamlakatlar valyuta kurslarida baholangandagi ulushi, ularning valyutalarining HQP bo‘yicha baholangan ulushiga nisbatan katta farqlar mavjud. Shu bilan birga rivojlanayotgan va bozor iqtisodiyotiga o‘tayotgan mamlakatlarning valyuta kurslari

bo‘yicha hisoblangan YaIMning jahon YaIMdagi ulushi kamaymoqda va aksincha rivojlangan mamlakatlar bo‘yicha bu farq deyarli 2 martagacha o‘smoqda. Buning asosiy sababi jahon darajasiga nisbatan bu rivojlanayotgan mamlakatlarda tovarlar narxlarining pastligidir.

Masalan, jahonning yuqori texnologik rivojlanish darajasiga ega bo‘lgan mamlakatlarda valyuta kursi bo‘yicha baholangan Jahon YaIM ishlab chiqarishdagi ulushi 60,16% ni va XQP bo‘yicha baholanganda 42,8% ni (dunyo aholisining 14,27% to‘g‘ri kelgan holda) tashkil etmoqda. Shu bilan birga rivojlanayotgan qator davlatlar va shu bilan birga MDH mintaqasi davlatlarida (dunyo aholisining 3,94% to‘g‘ri kelgan holda) valyuta kursi bo‘yicha baholangan Jahon YaIM ishlab chiqarishdagi ulushi 4.8%ni, XQP bo‘yicha baholangan YaIM esa 3,7%ni tashkil etmoqda.

Jahon bankining ma’lumotlariga ko‘ra 2014-yilda O‘zbekistonda YaIMni aholi jon boshiga ishlab chiqarish ko‘rsatkichi Bangladeshga nisbatan 2,3 barobar, Pokistonga nisbatan 1,4 va Hindistonga nisbatan 1,25 baravar yuqori bo‘lgan. Ayni vaqtda aholi jon boshiga ishlab chiqarish hajmi O‘zbekiston Respublikasiga nisbatan Xitoyda 3,5 barobarga, Turkiyada 5,8, barobarga va Rossiya 7,7 barobarga yuqoridir.

Xulosa qilib aytilganda, turli mintaqalar va mamlakatlarning ishlab chiqarish hajmi va iqtisodiy rivojlanish darajalarini va YaIMni XQP bo‘yicha baholash, voqelikka eng real baho beruvchi, samarali uslub bo‘lib hisoblanadi. Bu barcha omillar ularning valyuta kurslari nisbatlari bo‘yicha YaIMni baholaganda yuqori texnologik rivojlanish darajasiga ega bo‘lgan mamlakatlarning ishlab chiqarish hajmi anchagina oshishi, o‘rtacha rivojlanish va ayniqsa kam rivojlanish darajasidagi mintaqalar va mamlakatlarda uning anchagina kamayishiga olib keladi. Jahon iqtisodiyotini iqtisodiy o‘sishida so‘nggi yillarda asosiy iste’mol omili talabni rag‘batlantirish bo‘lgan bo‘lsa, bugungi globalizatsiya sharoitida bu omillar imkoniyatlari cheklanib yangi innovatsion texnologiyalarga asoslangan omillar birinchi o‘ringa chiqmoqda. Natijada bugungi globalizatsiya sharoitida yuqori texnologik rivojlanish darajasiga ega bo‘lgan davlatlarda innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish shart-sharoitlari va imkoniyatlari yuqori bo‘lganIigi sababli bu davlatlarda iqtisodiy o ‘sish sifatida katta imkoniyatlarga ega bo‘lmoqda.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozidan chiqish uchun ko‘plab mamlakatlar, shu jumladan, O‘zbekiston ham iqtisodiyotni modernizatsiyalash va innovatsion rivojlantirish yo‘lini tanlagan. Innovatsion rivojlanish yo‘li sanoat ishlab chiqarishini texnologik jihatdan yangilash, mahsulotni va ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash, iqtisodiyotni xomashyo va oraliq mahsulotlar ishlab chiqarish yo‘nalishidan voz kechish va qo‘shilgan qiymat ulushi yuqori bo‘lgan mahsulotlar ishlab chiqarishga o‘tish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirishda ifodalanadi. Ammo, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish va rivojlantirish, yuqori texnologik mahsulotlar bozoriga kirib borish, innovatsion texnologiyalar bozorida o‘z o‘rnini egallash, uzoq bozor davrini va katta miqdordagi moliyaviy mablag‘larni talab etadigan murakkab jarayondir.

12.2. Faoliyat jarayonidagi ta’limning Pol Romer modeli

***Xj = X> Pa* = L (12.4.);**

Bu yerda, *px* - oraliq mahsulot narxi

Fizik kapitallar tengligi holatida, u quyidagi tenglikka ega bo‘ladi:

***k = N *x* (12.5.);**

Simmetriya sharti asosida yakuniy mahsulot texnik taraqqiyot xarod modelidek neytral bo‘lgan holda Kobb-Duglas ishlab chiqarish funksiyasidan foydalansakquyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi.

***Y = Al] 4’Nxa = K “AL N»* (12.6);**

Milliy hisoblar tizimidan kelib chiqib investitsiya quyidagicha ifodalaniladi:

***K =Y-C* (12.7.);**

Modelni soddalashtirish maqsadida bir dona ishlab chiqarilgan mahsulot narxi Y-p birga teng deb olamiz.

Yakuniy ishlab chiqarish sektorida sog‘lom raqobat muhiti holatida. Yakuniy mahsulot foydasi umumiy daromad va xarajatlar farqi bilan topiladi:

***j[y = Y - w L - p sNx* (12.8);**

Bu yerda, *w* - ish haqi

Raqobat sharoitida firmaning foydasini maksimallashtirish uchun, yakuniy mahsulot ishlab chiqarish sektorida ish haqqi va oraliq mahsulot narxi quyidagicha ifodalaniladi:

iv=(i-<*)-■(12.9);

***p* = a* \(12.10);**

9 tenglikdan kelib chiqib, ish haqqi va yakuniy mahsulot o‘sishi *gw= gy* orqali ifodalaniladi. 6-6 tenglik yordamida 10 teng quyidagi ko‘rinishga keltiramiz:

Cy = *A a C -x» ‘* = p, *8xj* (12.11);

9 tenglikdan kelib chiqib j oraliq mahsulotga bo‘lgan talab hajmini topamiz:

Oraliq mahsulot - yakuniy mahsulotning bir qismi bo‘lib, ishlab chiqarishda investitsion iste’mol xarakteriga ega. Oraliq mahsulot ishlab chiqarish ushbu modelda monopol hisoblanadi; u ilmiy-tadqiqot sektoridan patent sotib olish yo‘li bilan monopol bo‘ladi. Oraliq mahsulot ishlab chiqarish foydasi quyidagicha ifodalanadi:

Oraliq mahsulot ishlab chiqaruvchisining foydasini maksimallashtirish uchun, u monopol narxni o‘rnatadi *px* = 1->i. Barcha oraliq *a* mahsulotlar narxi tenglikdan summetriya shartining bajarilganligidan, oraliq mahsulotga bo‘lgan talab o‘zgarmas songa teng deb olamiz *= LA>:’aa ‘-a = const).*

Bu holda yakuniy mahsulot hajmi quyidagicha aniqlanadi:

Tenglikdan ko‘rinib turibdiki yakuniy mahsulot hajmi o‘sishi texnologik taraqqiyot o‘sishiga teng:g, *=g,,.* Oraliq mahsulot ishlab chiqaruvchisi foydasi esa quyidagi tenglik bilan ifodalanadi.

Il+ «*7ix* ~ (J *—a)LA]~”a l~a = const* (12.12);

Innovatsion mahsulot ishlab chiqarish ushbu mahsulotga egalik qilish huquqini beruvchi patentga ega bo‘ladi. Patent narxi kelajakda patent egasiga keltiradigan daromad qiymati bilan belgilanadi. Vaqt o‘tishi bilan patent narxining o‘zgarishi quyidagicha ifodalaniladi:

***q = z x] e ^ d s -* , (12.13);**

12.3. Lukas modeli

Inson kapitali nazariyasining rivojlanishi inson kapitalining iqtisodiy o‘sishdagi roli,ulushi va o‘sishdagi hissasini o‘rganish 1980-90-yillarda ko‘plab iqtisodchi olimlarning o‘rganish obyekti bo‘lib qoldi.

Birinchilardan bo‘lib *R. Lukas* 1988-yilda inson kapitali zaxirasi va uning oqibatlarini inobatga olishga harakat qilgan. U quyidagi ishlab chiqarish funksiyasidan foydalangan:

Y(t) = K(t)laluh(t)L(t)lla(ha(t)f (11.14.);

Bu yerda, *i* - inson kapitalini yaratishda mehnatning ulushi*h(t)* — inson kapitali zaxirasi

ha(t) —t vaqt ichida inson kapitalining o‘rtacha darajasi Shu bilan bir qatorda yig‘ilishining 2 sharti mavjud:

1) Inson kapitali uchun: h*=Ah(l-u) 2)Fizik kapital uchun: k*=akah(l-a+v|/)

Faraz qilaylik iqtisodiyot dinamik muvozanat holatda bo‘lsa, bu yerda k*/k(=yk) va h7h(=yb) ya’ni doimiy fizik kapital (yt) va inson kapitali (yh) o‘sadi. Dinamik muvozanat holatda kapital bilan qurollanish darajasini o‘sish sur’ati (a-1)k*/k+(1-a+’)/)h*/h=0 ga teng bo‘ladi. (a-1) shartida dinamik muvozanat

yh= D(1-i) Uk=[(1 -a+\|/) D(1 - u)]/(1 - a) Ekstral mavjud emas holda (y=0) yh=yk=A(l-u) Bu holda o‘sish sur’ati butunlay inson kapitali o‘sish surati bilan o‘lchanadi.

Izoh. Ekstrenal bu - ichki samara bo‘lib, tarmoq ichida samara mavjudligida boshqa tarmoqda xarajatlarning ko‘payishiga olib keladi. i|/>0, Yh>Yk holatda inson kapitali fizik kapitalga nisbatan ko‘proq o‘sadi. Inson kapitalini ekstrenalligi sababli “Lukas iqtisodiyoti” samarasi past hisoblanadi.

12.4. Mahsulot sifatining o‘zgarish modeli

Oldingi bo‘limda iqtisodiy o‘sishga ilmiy-texnik taraqqiyotning gorizontal turini va vertikal turini ta’sirini ko‘rib chiqdik. Ushbu holatni yakuniy mahsulotda ham ko‘rib chiqish mumkin. Bu holda ilmiy texnik taraqqiyotning gorizontal ta’siri mahsulot turini (assortment) ko‘payishiga, vertikal ta’siri mahsulot sifatini o‘zgarishiga olib keladi. Ushbu jarayonni o‘rganishda Grosman va Xelpman modelidan foydalanish mumkin. Grosman va Xelpman ushbu jarayonni “Jahon iqtisodiyotida innovatsiya va o‘sish” (1991) nomli kitobida keng yoritgan.

Modelning asosiy jihati shundaki, unga iste’molchi nafliligi funksiyasi kiritilgan. Ushbu jihat modeldan xulosa chiqarishga yordam beradi. Iste’molchi nafliligi nafaqat hajmidan, balki uning tarkibidagi mahsulot turi, sifatini o‘zgarishini o‘z ichiga oladi. Shuning uchun, modelga iste’mol tovarlari hajmini o‘rniga, mahsulot turini inobatga oluvchi iste’mol indeksi kiritilgan.

Modelning asosiy g‘oyasi shundaki, iste’molchi iste’mol tovarlari turini ko‘paytirish orqali nafliligini oshiradi. Natijada

iste’molchi iste’mol tovarlari turini oshirishi bilan iste’mol indeksi bilan bir qatorda iste’molchi nafliligi oshishiga olib keladi.

Ushbu holat iste’molchi o‘zini tanloviga asoslanadi, ya’ni: yangilik xohishi, alohida belgilarga e’tibor berishi, originallik va boshqalar. Bu esa mahsulot turini ko‘payishiga olib keladi. Hattoki mahsulot sifatini yaxshilanishini inobatga olmagan holda tovar va xizmatlarning turi iqtisodiy o‘sishga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Bu holda, iste’mol hajmi 2-3 xil navdagi tovar va xizmatlar bilan chegaralanib qolmay,50-10 xil navli tovar xizmatlar bo‘lishi nazarda tutiladi.

Oddiy iste’molchining malum vaqt oralig‘idagi naflilik funksiyasi *a* doimiy o‘zgaruvchan elastiklik bilan ifodalaniladi, u esa *N,* turdagi har kunlik iste’mol tovarlari turiga bog‘liq bo‘ladi.

f *ep, V(t)dt* — > *U(v)* = - v 1- «—>*V*= j *x,* (*i)di* ‘ *r* >I (12.15.);

Bu yerda *r* - iste’molchining vaqt oralig‘idagi tanlovi subyektiv diskont stavkasi; *V*-mahsulot turini inobatga olgan holda iste’mol indeksi; *r*-mahsulotlarning iste’mol qilinishi elastikligi; *t*-tovar miqdori, vaqt o‘tishi bilan ko‘payib boruvchi 0 dan N gacha; N-t vaqtda mavjud tovarlar turi.

Bu holda iste’mol indeksi tovar turiga bog‘liqligi uzluksiz deb olinadi. Bu shart tovarlar turining katta miqdorda deb olingandan kelib chiqqan va har bir tovar umumiy miqdorda kichik ulushga ega deb olinadi. Modelga iste’mol indeksini tovar miqdori bilan tadqiq qilinsa xato bo‘lmaydi. Bu holda iste’mol indeksini quyidagicha ifodalash mumkin:

***Z(c-)s>ei* (12.16);**

Iste’molchi oldida ikki muammo yuzaga kelishi mumkin:

birinchidan, iste’molchi *N*< iste’molni maksimallashtirish kerak, statistik maksimallashtirish: nafliligi eng yuqori mahsulotni tanlashi kerak; ikkinchidan, shu vaqtda naflilikni maksimallashtirish uchun optimal hajmda mahsulot sotib olishi kerak, dinamik maksimallashtirish. Bu holda iste’molchi byudjet chegarasi quyidagicha ifodalaniladi:

***N, V=R,B,- ^p,(i)xt{i)di + w,L* (12.17);**

Bu yerda, *V*-iste’molchi nominal aktivlari, *R,*-nominal foiz stavkasi, *p,(i)*-bir birlik mahsulot narxi, *w,*-nominal ish haqi, *L*-mehnat hajmi.

Iste’molni statistik optimallashtirish uchun ma’lum vaqt oralig‘ida o‘zgaruvchilar belgilab olinadi va ushbu vaqtdagi *z*

daromadning byudjet chegarasi quyidagicha ifodalaniladi:

***N,* J *p(i)x(i)di* < *z* (12.18);**

O niy naflilik funksiyasi ushbu budjet chegarasiga qarab quyidagichamaksimallashtirish mumkin:

***y*> l (12.19);**

Natijada Lagranj usuli orqali quyidagicha ifodalash mumkin:

1- 1jx(z) *1= Ap(i)* (12.20);

i-tovarga bo‘lgan istemolchi nafliligiga optimizatsion shartini qo‘ysak, u holdaquyidagi natijaga erishamiz:

***x(i)= P(iYr ^ y* (12.21)**

Bu yerda, *u - i* tovarga bo‘lgan talabning narx bo‘yicha elastikligi. Modelga ilmiy tadqiqot sektorini kiritishda Grossman va Xelpman ishlab chiqarish funksiyalariga Pol Romer modelidagi yangi ishlanmalarning oqimni tashqi samarasidan foydalangan. Tadqiqot sektori modelda quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

***ff=b2NlL2t* (12.22);**

Bu yerda, 2-tadqiqot sektorining samaradorlik ko‘rsatkichi, *N,* - mavjudtovarlarning ko‘paygan qismi, *L,* =tadqiqot sektoridagi mehnat hajmi. Jumladan *S,* yakuniy sektordagi mehnat hajmi.

Iqtisodiyotdagi umumiy mehnat hajmi doimiy bo‘lib, u quyidagicha ifodalaniladi:

***L* = Z„ +L„ = *const* (12.23);**

Modelda mehnat yagona o‘zgaruvchi ishlab chiqarish omili sifatida olingan. Mavjud mahsulot hajmining oshishi tadqiqot sektori samaradorlik ko‘rsatkichiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Modelda oldingi ilmiy texnik ishlanmalar yangi jarayonga ta’sir ko‘rsatishi inobatga olingan. Raqobat muhitida patentdan foyda olish chegaralanganligi deb faraz qilingan.

12.5. Iste’mol tovarlar turlarini kengaytirish asosida endogen iqtisodiy o‘sish modeli

Vertikal innovatsiyaning iqtisodiy o‘sishga ta’sirini quyidagicha ifodalash mumkin, yangi kashfiyotlar oldingi texnologiya va mahsulotlarning eskirishiga yoki umuman iste’moldan chiqib ketishigacha olib keladi. Ushbu holatlar natijasida ijobiy va normativ oqibatlarga olib keladi.

Ijobiy oqibatlar deganda hozirgi va kelajakdagi tadqiqotlar o‘rtasidagi bog‘liqligi, buning natijasida kelajakda muvofiqlashgan

barqaror va siklli o‘sishga olib kelishi nazarda tutiladi.

Hozirgi innovatsiya kelajakda tadqiqot va ishlanmalar uchun ijobiy ta’sir ko‘rsatgani bilan, ular ayni paytdagi ishlab chiqarishga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Biznesning qisqarish samarasini yaratib, natijada erkin bozor sharoitida o‘sishortiqchaligi sharoitini yaratadi.

Ushbu holatlarni modellashtirishda Pol Romer iqtisodiy o‘sish modelidan foydalanamiz. Modelda kapital yig‘ilishi mutlaq deb olinadi. Aholi (L) doimiy va u mehnat taklifiga teng. Har bir individ ma’lum vaqt oralig‘idagi tanlovi quyidagicha

ifodalaniladi:

***u(y) —j yre~r’ dr* (12.24);**

Bu yerda, *r*-iste’molchining ma’lum vaqt oralig‘ida tanlovi normasi (subyektivdiskon stavka), bu esa foiz stavkaga teng.

Iste’molchi yutug‘i oraliq ishlab chiqarish jarayonida foydalanilgan (l) mahsulotlarga bog‘liq va u quyidagicha ifodalaniladi:

***y=Axa* bu yerda, *o<«<i* (12.25);**

Oraliq mahsulotlar yaratilishi eskilarni ishlatmaslikka va A parametrning doimiy *u* > l martaga oshishiga olib keladi.

***4 = 4)/, t=od,2,3,* (12.26.);**

Bu yerda A boshlang‘ich daraja. Oraliq mahsulot chiziqli texnologiya asosida ishlab chiqariladi *x = Lf.* Mehnat ishlab chiqarish yoki tadqiqot (*n*) olib borish uchunfoydalaniladi:

***L = LF+n = x +n* (12.27);**

Innovatsiya, tadqiqotda mehnat miqdori Puasson taqsimoti holati yuzaga keladi *An,* bu yerda, ya-tadqiqot texnologiyasining samaradorligi, l>o. Innovatsiyada muvaffaqiyat qozongan firma boshqa innovatsiya yaratilmagunga qadar oraliq mahsulot ishlab chiqarishda monopol bo‘lib qoladi. Bu yerda tadqiqot faoliyatining A parametrga ijobiy ta’siri namoyon bo‘ladi. Ya’ni: bozordagi monopolligi, mahsulotlarni omborda qolmasligi, eng asosiysi keyingi yangilik yaratish uchun daromadlarning yo‘naltirilganligi sababli. Lekin innovatsiyaning salbiy oqibatlari ham mavjud, bu esa “biznes qisqarish effekti”, bu holda monopolist eskirgan oraliqmahsulot ishlab chiqaruvchilarni yo‘q qiladi.

Tadqiqot sektorida mehnat hajmi *uą = IVH* tenglik asosida aniqlanadi (/-innovatsiya tartib raqami (yoki innovatsiya oralig‘i), *v/,*-ish haqi, *VM*-t+1 innovatsiyadan kutilayotgan daromad). Tenglikning

chap tomoni bir soat qiymati, o‘ng tomoni tadqiqotga ketadigan vaqt qiymati ifodalangan. Kutilayotgan innovatsiyadan daromad quyidagi formula orqali aniqlanadi:

j^+ = ^ n'*i ^ rVM = -M+Zm **(12.28.);**

Bu yerda, 1 - yangilikdan olinadigan daromadning olinish muddati ehtimoli. Tenglikdan ko‘rinib turibdiki, t+1 litsenziyadan bir birlik vaqt intervalida monopolistning (t+1) chi vaqtda *nt+]* daromadidan kapitalning qiymatisizlanishni ayirmasiga teng. Qadrsizlanish Ll!+, kattalik kattalashgan sari oshib boradi. *VHi* bu aktivlarning ya'ni -|+, daromad keltiradigan sof qiymati. Eski aktivlarning qadrsizlanishi ehtimolligiga teng.

Yuqoridagilardan kelib chiqib innovatsiyaning qiymati quyidagicha aniqlanadi:

Modelda daromad oqimi (*,) va ishchi kuchiga bo‘lgan talab *{*,)* dan tashqari barcha omillarni model o‘zida qamrab oladi. Ikkalasi ham t innovatsiyani ishlab chiqish uchun oraliq mahsulot daromadini maksimallashtirishga xizmat qiladi. Bu holda, daromad innovator, vositachi yoki innovatsiya uchun patent sotib olgan ishlab chiqaruvchiniki bo‘lishi mumkin. Istalgan holda innovator barcha monopol daromadlarni o‘zining innovatsiyasi orqali uning umr davomida *(Vt)* o‘zida mujassamlashtirish imkoni mavjud bo‘ladi.

Innovator o‘z foydasini maksimallashtirishga intiladi va bu innovatsiyani yaratish uchun ketadigan mehnat hajmi va innovatsiyaning yakuniy mahsulotga bo‘lgan talabni maksimallashtirishga intiladi. Ushbu jarayonda innovator (t) daromadi va mehnatga bo‘lgan talabi quyidagi formula orqali aniqlanadi:

n, = max[p, [x)x - w x] **(12.29);**

Bu yerda *w*-ish haqi, p(x)-x oraliq mahsulotni yakuniy mahsulot ishlab chiqaruvchisiga innovatorning sotish narxi. Bu yerda yakuniy mahsulot sektori to‘liq raqobat muhiti sharoiti deb olinadi. Shuning uchun, sektorning mahsulot narxi oraliq mahsulotga talab va daromadning maksimallashtirish sharti quyidagi tenglik ko‘rinishga keltiriladi:

Asosiy xulosalar

1. Turli mintaqalar va mamlakatlarning ishlab chiqarish hajmi va iqtisodiyrivojlanish darajalarini va YaIMni XQP bo‘yicha baholash, voqelikka eng real baho beruvchi, samarali uslub hisoblanadi. Bu barcha omillar ularning valyuta kurslari nisbatlari bo‘yicha YaIMni

baholaganda yuqori texnologik rivojlanish darajasiga ega bo‘lgan mamlakatlarning ishlab chiqarish hajmi anchagina oshishi, o‘rtacha rivojlanish va ayniqsa kam rivojlanish darajasidagi mintaqalar va mamlakatlarda uning anchagina kamayishiga olib keladi.

2. Modelning asosiy jihati shundaki, unga iste’molchi nafliligi funksiyasi kiritilgan. Ushbu jihat modeldan xulosa chiqarishga yordam beradi. Iste’molchi nafliligi nafaqat hajmidan, balki uning tarkibidagi mahsulot turi, sifatini o‘zgarishini o‘z ichiga oladi. Shuning uchun, modelga iste’mol tovarlari hajmini o‘rniga, mahsulot turini inobatga oluvchi iste’mol indeksi kiritilgan.

3. Vertikal innovatsiyaning iqtisodiy o‘sishga ta’sirini quyidagicha ifodalash mumkinligi, yangi kashfiyotlar oldingi texnologiya va mahsulotlarning eskirishiga yoki umuman iste’moldan chiqib ketishigacha olib keladi. Ushbu holatlar natijasida ijobiy va normativ oqibatlarga olib keladi.

4. Ijobiy oqibatlar deganda hozirgi va kelajakdagi tadqiqotlar o‘rtasidagi bog‘liqligi, buning natijasida kelajakda muvofiqlashgan barqaror va siklli o‘sishgaolib kelishi nazarda tutiladi.

Muhokama uchun savollar

1. Mamlakatimizda tashkil etilgan Innovatsion rivojlanish vazirliginingasosiy vazifalari nimalardan iborat?
2. Davlat innovatsion siyosatining mohiyati va uni amalga oshirishdanko‘zlangan asosiy vazifalarni tushuntirib bering?
3. Bugungi kunda mamlakatimizda innovatsion faoliyatni samarali tashkiletish borasida to‘siq bo‘layotgan asosiy muammolar nimalardan iborat?
4. Iqtisodiy o‘sish omili bo‘lib nima hisoblanishi mumkin?
5. Janubiy Koreyaning samarali rivojlanish tajribasini aytib bering?
6. Chebolalar nima tushintirib bering?
7. Koreya mo‘jizasi qanday sodir bo‘ldi?
8. Iqtisodiy o‘sishning sekinlashish sabablarini yoritib bering?
9. Iqtisodiy o‘sishda “Oxirgi zamon modeli” nima?
10. Eng qashshoq mamlakatlar o‘ntaligini keltiring va nima sababdanqashshoqligini tushuntirib bering
11. Eng rivojlangan mamlakatlar hamda ularning

muvaffaqiyatlarini asoslang.

XIII BOB. IQTISODIY O'SISHDA TUGALLANGAN IKKI TURDAGIIQTISODIYOTNING JAHON TAJRIBASI

13.1. Iqtisodiy o‘sishda jahonda yetakchi davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiymodellari
13.2. Janubiy Koreyaning samarali rivojlanish tajribasi
13.3. Jahon iqtisodiyotida iqtisodiy o‘sishning sekinlashish sabablari

Tayanch iboralar: *iqtisodiy o‘sish, ijtimoiy rivojlanish, iqtisodiyotning tarmoq tarkibi, turmush darajasi, turmush sifati, inflatsiya, jahon bozori, jismoniy ehtiyojlar, aholi jon boshiga milliy daromad, ijtimoiy ta’minot, ijtimoiy davlat, Koreya mo‘jizasi, chebolalar, ish ko‘nikmalarini yo‘qolishi, ishchi kuchi, ta’lim saviyasi, texnika taraqqiyoti, davlat boshqaruvi, import tovarlari, oxirgi zamon modeli bozor belgilari, aholi daromadlari tarkibi.*

13.1. Iqtisodiy o‘sishda jahonda yetakchi davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy modellari

Iqtisodiy o‘sishda shunday omillar ham borki, ularning iqtisodiy o‘sishga ta’sirini aniqlash qiyindir. Masalan, AQShning boy tabiiy zaxiralari davlatning iqtisodiy o‘sishga katta hissa qo‘shgan. AQShda mo‘l hosil yetishtirish uchun tabiiy sharoitlar, energetik zaxiralar, mineral va boshqa resurslar ko‘p. Ushbu zaxiralarni hajmi jihatdan AQShga faqatgina Rossiya yoki Kanadani tenglashtirish mumkin.

Lekin tabiiy resurslarning o‘zigina iqtisodiy o‘sishni ta’minlab berolmaydi. Tabiiy resurslari kam bo‘lgan davlatlarda ham iqtisodiy o‘sish tez sur’atlarda bo‘lishi mumkin. Masalan Yaponiya cheklangan resurslarga ega bo‘lib, ikkinchi jahon urushidan keyin tez sur’atlarda rivojlandi. Bundan tashqari shunday omillar ham borki ularni baholashning umuman iloji yo‘q, masalan AQShning iqtisodiy o‘sishiga davlatdagi umumiy ijtimoiy, madaniy va siyosiy muhit ham munosib o‘rin egallagan. AQShda boshqa davlatlarga nisbatan ijtimoiy, ma’naviy cheklashlar deyarli yo‘q, rivojlanish uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Amerikaliklar orasida biznesmen, novator, kashfiyotchilar katta hurmatga ega.

Amerikaliklar orasida tadbirkorlik mehnat va tavakkalchilik munosabati o‘zgacha. Amerikadagi bozor iqtisodiyoti tizimi iqtisodiy

o‘sishga olib keluvchi har qanday harakatni rag‘batlantiradi. AQSh iqtisodiyoti barqaror siyosiy tizimga asoslanadi, bundan tashqari demokratik qat’iy, xususiy mulk huquqi va boshqalar davlat tomonidan himoya qilinadi. Kuzatishlar shuni ko‘rsatdiki, erkinliklar ko‘proq davlatda o‘sish rivojlanishi yuqoriroq bo‘ladi. Ushbu barcha omillar birgalikda AQShda iqtisodiy o‘sish uchun zamin yaratmoqda.

Iqtisodiy o‘sishga eng katta salbiy ta’sir AQShda 1930-yillarda Buyuk depressiya davri bo‘lgan 1929-33-yillar oralig‘ida AQShda YaIM 823 mlrd. dollardan 587 mlrd. doll, tushgan va 1929-yil ko‘rsatkichiga qaytgan. 1980-1982-yillardagi iqtisodiy tushkunlik AQShda 600 mlrd. dollar mahsulot va daromadni yo‘qotishga olib keldi.

13.1-Jadval.

YaIM va aholi soniga nisbatan ishlab chiqarish sur’atlarining o‘sishi, 1948 -1994-yillar (%)

Davr	Ishlab chiqarish yillik o‘sish sur’atlari	YaIM yillik o‘sish sur’ati jon boshiga
1948-1966	3.2	2.2
1966-1973	2.0	2,0
1973-1981	0.7	1.1
1981-1990	1.3	1,8
1990-1994	2.0	1,2

Ishlab chiqarish o‘sishining pasayishi. 1970-80 va 1990-yillar boshida ishlab chiqarish sur’atlarining pasayishi kuzatildi, buni jadvaldagi ko‘rsatkichlardan ko‘rish mumkin. Jadvalning 2 ustunida ko‘rsatilganidek ikkinchi jahon urushidan so‘ng (1948-1966) ishlab chiqarish sur’atlarining o‘sishi kuzatilgan va o‘rtacha 3,2 %, 1 yilda biroq 1966-73-yillarda ushbu o‘sish pasaygan. Undan keyin pasayishi yanada sezilarli bo‘ldi (1973-1981-yillar). Ishlab chiqarishning pasayishi jahonning barcha davlatlarida kuzatilsa ham AQShda uning ta’siri boshqa davlatlarga nisbatan sezilarli bo‘ladi.

Ishlab chiqarishning pasayishi bir qator sabab oqibatlarga sabab bo‘ladi. *Turmush darajasi.* ishlab chiqarish darajasining o‘sishi turmush darajasi va ish haqini ko‘tarish mumkin bo‘lgan asosiy omillardan biridir. Bir ish soatida qancha ko‘p mahsulot ishlab chiqarilsa bir soatlik real daromad ham shuncha oshadi. Bir ish soatida

qancha ko‘p ko‘rsatilganidek turmush darajasini belgilovchi asosiy ko‘rsatkich bu real YaIM aholi jon boshiga nisbatan o‘sishi hisoblanadi.

Inflatsiya. Ishlab chiqarish sur’atlarining oshishi inflatsiyaning pasayishi yoki umuman bartaraf etilishiga olib keladi. Shunga ko‘ra ishlab chiqarish o‘sishining pasayishi inflatsiyaning sur’atini yuqori bo‘lishiga olib keladi. Ko‘pchilik iqtisodchilarning fikriga ko‘ra aynan ishlab chiqarish sur’atining pasayishi 1970-yillarda inflatsiyaning keskin ko‘tarilishiga olib kelgan.

Jahon bozori. AQSHda ishlab chiqarish sur’atlarining boshqa davlatlarnikiga nisbatan pasayishi mahsulotlar narxining oshishiga olib keladi. Bu esa o‘z navbatida AQSh tovarlariga jahon bozoridagi talab tushib ketishiga sabab bo‘ladi. Amerika tovarlari bozordagi raqobatbardosh bo‘la olmadi.

Bizga davlatdagi iqtisodiy o‘sish omili bo‘lib nima hisoblanishi qiziqtiradi, chunki, ba’zi davlatlardagi iqtisodiy o‘sish yuqori bo‘ladi, ba’zilarda esa past. Masalan, iqtisodiyot yuqori o‘sish sur’atlari bilan rivojlanishi mumkin. Ammo investitsiyani oshirib borayotgan davlat iqtisodiy o‘sishi kamayib borishi ehtimoldan holi emas. Ammo boshqa tomondan iqtisodiyot rivojlanishni davom ettiraveradi, agar ishlab chiqarish unumdorligi ko‘payishi, bilim cheksizligi bunga yana bir isbot bo‘lishi mumkin.

Buni ko‘rsatishimiz uchun bizga, texnologiya rivojlanishining o‘sish sur’atini hisoblab shiqishimiz kerak. Ammo, texnologiyani hisoblash qiyin bo‘lganligi uchun, biz u holda texnik taraqqiyoti o‘sish sur’atlarini hisoblab chiqamiz. Buning uchun YaIMning o‘sish sur’atini quyidagi tenglama orqali hisoblab chiqamiz:

$$A\,u\,/u = AA/A + aAk/k + (1 - a)\,Ay/y. \quad \textbf{(13.1);}$$

Tenglama shuni bildiradiki, YaIMni o‘zgarishi uchta asosiy qismlarga bog‘liqligi, ya’ni texnologiya rivojlanishi, bir ishchiga to‘g‘ri keladigan kapitalning o‘sish sur’atlari va malaka yoki ta’lim darajasini oshirishning o‘sish sur’atlaridir. Biz uchrayotgan muammo shundan iboratki A o‘sish sur’atlari ko‘rsatkichi o‘lchash imkoniyati yo‘qligidir. Boshqa tenglamalar esa juda oddiy: A u/u bu bir ishchiga to‘g‘ri keladigan yalpi o‘sish sur’atlari ko‘rsatkichi (milliy hisoblar tizimida hisoblanadi), Ak/k -kapital o‘sish sur’ati ko‘rsatkichi (bu bu ham milliy hisoblar tizimida hisoblanadi), hamda Ay/y -ishchi kuchi malakasi (bilimi) o‘sish sur’atlari ko‘rsatkichi (yoki malakasini

bildiradigan boshqa ko‘rsatkich) buni ham hisoblash mumkin.

Yuqorida aytib o‘tilganidek a koyeffitsenti, ishchilar tomonidan daromad bo‘lib, bu milliy daromadning bir qismi hisoblanadi va u ish haqi fondi ko‘rsatkichibo‘lgan, shuning uchun, a bu - milliy daromad bir qismi hisoblanadi.

(1) tenglamadagi biz hisoblay olmaydigan birdan bir o‘zgaruvchi ko‘rsatkich A o‘sish sur’atlar ko‘rsatkichidir. Robert Solouning (Robert Solow) asosiy fikrlaridan biri bu AA/A ko‘rsatkichini qiyosiy hisoblash imkoniyatiga ega bo‘lamiz, agar tenglamadagi ko‘rsatkichlarni quyidagicha tuzib chiqsak:

AA/A = A u/u-aA k/k-(1 -a) Ay/y. (13.2);

Shunday qilib, ishlab chiqarish ko‘rsatkichi quyidagicha hisoblanishi mumkin, ya’ni YaIM o‘sish sur’atidan ayirilgan ishlab chiqarish omilining ikki omili o‘sishsur’atlari.

13.2. Janubiy Koreyaning samarali rivojlanish tajribasi

Janubiy Koreya 1960-yillarning boshlarida Zimbabve yoki Angola kabi qashshoq davlat edi. Bugungi kunda esa uning aholisining daromadlari Ispaniya yoki Chexiyanikidan yuqori bo‘lib, dunyoda Yaponiya bilan birgalikda innovatsiyalarga eng ko‘p mablag‘ kiritadigan mamlakatdir.

1960-yildan so‘ng Burundi yoki Uganda singari mamlakatlar yuqori texnologiyalar bo‘yicha yetakchi davlatlarga aylanadi, bu mamlakatlarda qashshoqlik deyarli bo‘lmaydi va o‘rtacha umr ko‘rish yoshi Shvetsiya yoki Norvegiyaga qaraganda yuqoriroq bo‘ladi. Janubiy Koreyaning 1960-yildagi aholi jon boshiga daromadi, Afrikadagi Namibiya yoki Mozambiknikidan kam bo‘lgan, ammo, 2020-yilga kelib, Janubiy Koreya juda tez fursatlarda uchinchi dunyodan birinchisiga o‘tdi. Bugungi kunda, uning aholi jon boshiga daromadi Ispaniya va Italiyanikidan ko‘p, Buyuk Britaniya bilan esa deyarli teng. Mamlakatda qashshoqlik taxminan 5% ni tashkil etadi, boylar va kambag‘allar o‘rtasidagi farq, Yevropa ittifoqidagi o‘rtacha ko‘rsatkichlarga yaqin. Bundan tashqari, hozirgi vaqtda Janubiy Koreya, aholining o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi bo‘yicha dunyoning birinchi o‘ntaligiga kiradi (83,5 yosh, bu Fransiya va Kanada kabimamlakatlardan yuqori).

Janubiy Koreya eksportining katta qismini murakkab tarmoqlar (elektronika, avtomobillar, yuk mashinalari, yuqori texnologiyalar)

tashkil etadi. Shu bilan birga, Janubiy Koreya, innovatsiya sohasiga dunyoda eng katta kuch sarflayotgan mamlakatdir: u o‘zining yalpi ichki mahsulotining 4,3 foizini ilmiy tadqiqot va ishlanmalarga sarflaydi, bu hatto rivojlangan mamlakatlarning ham o‘rtacha ko‘rsatkichlaridan ancha yuqori hisoblanadi. (Misol uchun, O‘zbekistonda bu ko‘rsatkich 0,5% ga teng va 2020-yildan 0.8 foizga ko‘targan) Mamlakatdagi Samsung, LG yoki Hyundai kabi yirik kompaniyalarning ta’sirchan muvaffaqiyati ham aynan shunga bog‘liqdir. Bular Janubiy Koreyadagi ishlab chiqarish tuzilmasining yadrolaridir.

Koreyada “mo‘jiza” qanday sodir bo‘ldi? 1960-yillar Janubiy Koreya tarixida katta burilish davri edi. Dahshatli o‘n yilliklardan so‘ng (1910-45-yillarda Yaponiyaning bostirib kirishi va undan keyin 1950-53-yillarda Koreyadagi qonli urush), 1961-yildan boshlab Janubiy Koreya, davlat to‘ntarishini amalga oshirgan general Pak Chon Xi boshchiligida rivojlanish bosqichiga kirishdi. 1979-yil Pak Chon Xining o‘limigacha bo‘lgan 18 yil mobaynida Koreyada aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan YaIM -yiliga 7,1 foizdan o‘sib bordi. Agar 1961-yilda Janubiy Koreyaning aholi jon boshiga YaIM Namibiya yoki Mozambiknikidan kam bo‘lganbo‘lsa, 1979-yilga kelib u Misr va Yugoslaviyaga tenglashib oldi. General Pak siyosatining ta’siri XXI asrda ham davom etdi. 2013-yildan 2017-yilgacha uning qizi korrupsiya uchun lavozimidan chetlatilgunga qadar mamlakat prezidenti edi.

Yaponiya rivojlanish modelidan ilhomlangan Janubiy Koreya strategiyasi,davlat tomonidan sanoatga yo‘naltirilgan katta kuchga ega edi, davlatning iqtisodiy sohaga aralashuvi sanoat sohalarini to‘g‘ri tanlab rivojlantirish choralari orqali ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish va murakkablashtirish uchun zarur edi, shuning uchun, 1960-yillarda sanoatning asosiy yo‘nalishlarida birinchi sektor ustunlik qildi.

Koreyada ishlab chiqilgan iqtisodiy va sanoat siyosatlari quyidagilar edi:

1. Strategik sohalarga cheklangan vaqt davomidagi bojxona himoyasi;
2. Sanoat mahsulotlari eksporti uchun subsidiyalar;
3. Arzon iste’mol kreditlari;
4. Ma’lum bir hashamatli tovarlarning ichki marketingini

taqiqlash;

5. Texnologik ta’limni rivojlantirish va iqtisodiyotning ayrim sohalarida xorijiy investitsiyalarni tartibga solish.

Janubiy Koreyadagi transmilliy korporatsiyalarning o‘zaro bog‘liqligi shundaki, sanoatlashtirish jarayonining eng dinamik ishtirokchilari asosan mahalliy kompaniyalar bo‘lgan. Bular LG, Samsung yoki Hyundai kabi oilaviy kelib chiqishga ega bo‘lgan yirik xususiy konglomeratlar (chebollar) edi. 1990-yilga kelib Janubiy Koreyada sanoatlashtirish jarayoni avjiga chiqqan pallada to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning YaIMga nisbatan ulushi 1,9% tashkil etardi xolos, bu esa xalqaro standartlarga nisbatan juda past edi. Taqqoslash uchun, o‘sha yili rivojlanish strategiyasi sifatida chet el investitsiyalari uchun asosiy nuqta bo‘lgan Singapurda bu ko‘rsatkich 78,5%ga chiqqan.

Janubiy Koreyada davlat ishchilar sinfiga nisbatan repressiv ta’sir ko‘rsatgani rost, ammo u intizomli xususiy kapitalni ham o‘zining rivojlanish rejalariga moslashtira oldi. Chunki, 1960-yillarning boshlarida Janubiy Koreyaning mahalliy elitalari nisbatan zaif bo‘lgan (bu masalan, daromadlarni o‘rtacha teng taqsimlashda aks etgan), bu yer egalari sinfi yo‘q qilinishiga olib kelgan

1940-yillarda amalga oshirilgan agrar islohotlarning natijasi edi. Shunday qilib, mahalliy elitaning zaifligi va davlatning to‘lov qobiliyatining yuqoriligi *sanoat* ishlab chiqarishida yaxshi ko‘rsatkichlarni berdi, natijada davlat va xususiy sektor kompensatsiyasiz subsidiyalar o‘rniga o‘zaro kelishuvga erishib ishlashda davom etishdi.

Boshqacha qilib aytganda, davlat xususiy sektorlarga resurslar va daromadlarni qayta taqsimladi va ularning samaradorligini oshirishni texnologik tayyorgarlik, innovatsiya va albatta jazolanish tahdidi orqali amalga oshirishga muvaffaq bo‘ldi.

Yaponiya va Tayvan singari Janubiy Koreyaning ham rivojlanishidagi yana bir hal qiluvchi omil AQShning yordami edi. Sharqiy Osiyo ham sovuq urushning katta sahnalaridan biri bo‘lgan, bu yerda ikki Koreya o‘rtasidagi kelishmovchiliklar, kommunistik Xitoy va kapitalistik Tayvan o‘rtasidagi qarama-qarshiliklar va Vetnam urushi Sharqiy Osiyo mamlakatlarining rivojlanish bosqichlarida katta ahamiyatga ega.

Mintaqada kommunistik g‘oyalarni tarqalishini oldini olish

uchun AQSh Janubiy Koreyaning rivojlanishini faol ravishda qo‘llab-quvvatladi, masalan, Janubiy Koreya ishlab chiqaruvchilariga o‘z bozorini ochib, valyuta va texnologiya taqdim etdi va o‘z transmilliy kompaniyalarining ishlab chiqarish faoliyatidagi ishtirokini kamaytirishga rozi bo‘ldi. Janubiy Koreyadagi savdo balansi defitsiti faqat 80 yillarga kelibgina to‘xtadi. O‘sha paytgacha va ayniqsa, 60 yillarda AQShning tashqi yordamlari, to‘lov balansi muvozanatini saqlashda va iqtisodiy o‘sishni sekinlashtirgan dollar taqchilligini oldini olishda muhim ahamiyat kasb etgan.

Bir qarashda, Janubiy Koreya tajribasi “davlat faqat o‘yin qoidalarinigina kafolatlashi kerak” degan liberal postulatga qarshi chiqayotganidek ko‘rinadi. Janubiy Koreya-boshqarish qobiliyatiga ega bo‘lgan kuchli davlat mexanizmlari tufayli, jamlangan katta sarmoyalar rivojlanish uchun asos bo‘lishi mumkinligini isbotlagan mamlakatga yaqqol misoldir. Pak Chon Xi kichik va o‘rta korxonalarni emas, balki chebollarni afzal ko‘rishiga bir nechta sabablar bor.

Birinchidan, kichik va o‘rta korxonalar bilan o‘zaro munosabat, yuqori atomizatsiyalangan subyektlar bilan ishlashni anglatadi, bu esa muvofiqlashtirishni qiyinlashtiradi; ikkinchidan, kichik va o‘rta korxona subyektlari tezkor texnologik o‘zgarishlar uchun unchalik katta potensialga ega emasligi seziladi. Janubiy Koreyaning “chebollar”i qanday o‘ziga xos xususiyatlarga ega edi? Birinchidan, ularning egalari odatda oilalardir.

Ikkinchidan, chebollar turli faoliyat sohalarida (sanoat, qurilish, yuqori texnologiyalar) ko‘plab korxonalarni o‘z ichiga oladi. Birgina Samsung kompaniyasi ekskavator va kemalardan tortib bugungi kundagi eng ilg‘or texnologiyalarga asoslangan smartfonlargacha ishlab chiqaradi. Tabiiyki, ular Janubiy Koreyaning iqtisodiy tuzilishida katta ahamiyatga ega bo‘lganligi sababli, mamlakat siyosatiga ham kuchli ta’sir ko‘rsatishgan. 1960 va 1970-yillarda davlat ularni tartibga solishga muvaffaq bo‘ldi, ammo, 1980-yillardan boshlab, o‘tgan o‘n yilliklarda katta kapital to‘planishi tufayli, chebollar o‘z kuchini oshirdilar va davlatning iqtisodiy tartiblarga aralashuvlarini kamaytirishni talab qila boshladilar. 1990-yillarning oxirida sobiq iqtisodiy tizimni isloh qilish jarayoni boshlandi.

Xalqaro valyuta jamg‘armasi va boshqa xalqaro tashkilotlar ko‘magi bilan moliya sektori mustahkamlandi va an’anaviy oilaviy

biznes tuzilmalarining zamonaviy aksionerlik jamiyatlariga o‘tish jarayoni sodir bo‘ldi. 2000-yillarda Janubiy Koreya yirik sanoat korxonalarini tashkil etish uchun soliqlar va ma’muriy ruxsatnomalarni kamaytirdi, buning natijasida Janubiy Koreya iqtisodiyotida Daewoo Shipbuilding, Marine Engineering, Hyundai Rotem, Times Aerospace Korea kabi o‘nlab yirik kompaniyalar paydo boidi.

O‘zbekiston Respublikasida ham juda ko‘p sohalarda Koreya Respublikasining tajribalaridan foydalanishga harakat qilinadi ammo, bu harakatlar doim ham samaradorligini ko‘rsata olmadi. Chunki, davlat boshqaruvi mexanizmlarida sudlarning erkinligi, korrupsiyaga qarshi murosasiz kurash olib bormasdan turib iqtisodiy rivojlanish haqida o‘ylashni foydasi yo‘q. Sharqiy Osiyo mamlakatlaridagi davlat intervensionizmining O‘rta Osiyo kabi boshqa rivojlanayotgan mamlakatlardagi intervensionizmdan ajratib turadigan omillardan biri intensiv avtoritarizmning bir qismi sifatida olib borilgan davlat siyosatining yuqori sifati edi.

13.3. Jahon iqtisodiyotida iqtisodiy o‘sishning sekinlashish sabablari

Amerikalik iqtisodchilar, mutaxassislar orasida AQShning ishlab chiqarish sur’atlari o‘sishi sekinlashuvi va Yaponiya, G‘arbiy yevropa mamlakatlaridan ortda qolganligi sabablarini tushuntirishda yagona bir xulosa yo‘q. Chunki, ishlab chiqarishga ko‘plab omillar ta’sir etadi, shu omillardan ba’zilarini ko‘rib chiqamiz. *Ishchi kuchi sifati.* O‘sishning sekinlashuvi sabablaridan biri bu ishchi kuchi sifatining sekin rivojlanishi, bunga uch omil ta’sir etmoqda. Ish ko‘nikmalari yo‘qolishi, yetarli malaka va ko‘nikmaga ega bo‘lgan ishchilar asta-sekin ishlab chiqarishdan chetlashmoqda ularning o‘rnini bosuvchi kadrlar esa yetarli malaka va ko‘nikmaga ega emas. Bu esa ishlab chiqarish sur’atlariga ta’sir etmoqda. Bundan tashqari ishlab chiqarishda ayollarning soni ortib bormoqda. Ular ham yetarli malakaga ega emas va ish saviyasi ham pastroq.

Ishchi kuchi saviyasining pasayishi. Amerikada qator yillar davomida imtihon baholarini pasaytirilishi ta’lim olayotganlarning saviyasi pasayganligidan dalolat beradi.

Ta’lim saviyasi o‘sishining keskinlashganligi. Agar 1970-yilda o‘rta ta’lim 12,1 yilni tashkil etgan bo‘lsa, 1993-yilda 12,7 yil bo‘lgan va deyarli o‘smagan.

Texnika taraqqiyoti. Ishlab chiqarishga ta’sir etuvchi texnika taraqqiyotining biroz susayishi. Texnika taraqqiyoti ilmiy tadqiqotlar (NIOKR) bilan bevosita bog‘liq. Ilmiy tadqiqotlarga ajratiladigan mablag‘ AQShda tushkunlik kuzatiladi. Bunday sharoitda korxonalarning to‘la quvvat bilan ishlamaganligi ham ishlab chiqarilgan mahsulot hajmining pasayishi va umuman ishlab chiqarish sur’atlariningpasayishiga olib keldi.

Ishlab chiqarishdagi o‘zaro munosabatlar. Yana bir xulosaga ko‘ra ishlab chiqarish sur’atlarining pasayishi sababi rahbar va xodimlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar keskinlashuvi deb hisoblashmoqda. AQShga xos xususiyat bu ishchilar orasidagi keskin raqobat. Ishchilar orasida ijodiy fikrlash yo‘q chunki, tashabbuskorlik ko‘p korxonalarda rag‘batlantirilmaydi. Menejerlar ham kerakli, tashabbuskorlikni ko‘rsatmaydilar, strategik rejalashtirish ham yetarli rag‘batlantirilmaydi. Ishchilarning ish joyi kafolatlanmagan.

Masalan, Yaponiyada aksincha ko‘pincha malakali ishchilar, menejerlar ish o‘rni kafolatlangan va ular har qanday holatda ham ishsiz qolmaydilar. Bu ishchilarni ijodiy fikrlashga, tashabbuskorlik ko‘rsatib o‘z korxonasi faoliyati uchun jon kuydirishga rag‘batlantiradi. Yana bunday tizim ortiqcha nazoratchilarning sonini kamaytiradi va shu tejalgan mablag‘ 3%dan l%ga kamaytirildi (YaIMga nisbatan). Lekin ko‘pchilik iqtisodchilar NIOKRga ajratilayotgan mablag‘ miqdorining ilmiy taraqqiyotga ta’siri kam deb hisoblashadi.

Investitsiyalar YaIMning jamg‘ariladigan qismi bilan ishlab chiqarish o‘sishi orasida bog‘liqlik mavjud. Bugungi kunda YaIMning kamroq qismi bevosita investitsiya qilinmoqda bunga bir necha sabab bor.

1. Omonat me’yorini pastligi.
2. Import tovarlari raqobati.
3. Davlat boshqaruvi.
4. Infratuzilmaga qilinadigan xarajatlarning kamaytirilishi.

Yoqilg‘i mahsulotlari narxi. Ishlab chiqarish pasayishiga katta ta’sir 1973-1975 va 1975-1980-yillarda neft mahsulotlari narxining 4 barobar oshishi. Bunday holat butun jahonda kuzatiladi. Ushbu ikki davrda neft narxining keskin ortib ketishi stagnatsiya iqtisodiy tushkunlik va inflatsiyaga sabab bo‘ldi. Davlatning inflatsiyani pasaytirishga qaratilgan mikroiqtisodiy siyosati aksincha iqtisodiy

tushkunlikni avj oldirdi. Bunday tushkunlik davrida ishlab chiqarishda ishchilarni rag‘batlantirishga va o‘rinbosar kadrlar tayyorlashga yo‘naltirildi.

1981-yildan so‘ng ishlab chiqarish dinamikasida o‘sish kuzatildi. Ishlab chiqarish sur’ati 1973-1981-yillarda 0,7% dan 1981-1990-yillarda 1,3% ga o‘sgan. 1991-yilda 1% lekin 1993-yil 3% ni tashkil etdi. Demak o‘rtacha o‘sish 1990-1994-yillar oralig‘ida 2 %ni tashkil etgan. Bu davrda ishlab chiqarish sur’atining o‘sishiga salbiy ta’sir etuvchi ko‘p omillar bartaraf etildi. Yoqilg‘i narxlari barqarorlashib stagflyatsiya bartaraf etildi. 1977-yildan so‘ng NIOKRga ajratmalar so‘mmasi ko‘payib bordi. Kompyuter va elektron texnologiyalarda ulkan rivojlanish sezildi. Oliy ma’lumotli mutaxassislar maoshi oshirildi va ularni rag‘batlantirishga katta e’tibor berildi. Bu o‘z navbatida oliy ma’lumot olishga qiziqishni oshirdi. Ishchi kushining malakasi va saviyasi 1960-1970-yillarga nisbatan oshdi. O‘zaro munosabatlar yaxshilanib ishchilarni qaror qabul qilishdagi, ishtiroki oshdi va rag‘batlantirildi. Lekin bunday ijobiy o‘zgarishlar vaqtinchalik yoki doimiymi aniq emas.

Iqtisodiy o‘sishda “Oxirgi zamon modeli”. Rivojlangan mamlakatlarning ishlab chiqarish sur’ati yillik 2-7 % o‘sishi qachongacha davom etadi degan savol tug‘iladi. Loyihachilar xuddi shu savolga javoban “oxirgi zamon” deb nom olgan modellarni ishlab chiqishdi. Unga ko‘ra yer resurslari keskin kamayib bormoqda aholi soni esa geometrik progressiya bo‘yicha ko‘paymoqda. Neft ko‘mir mis kabi bir qator resurslar tugamoqda. Bundan tashqari ishlab chiqarish va iste’mol davomida hosil bo‘lgan chiqindilar jahon ekologik holatini izdan chiqarishi mumkin. Ushbu model loyihachilari fikriga ko‘ra hozirgi hayot bu model to‘g‘riligini isbotlamoqda. 1980-yildan keyingi ishlab chiqarish o‘sishi resurslarni tez sarflanishiga olib keldi. Jahon okeanidan ovlanadigan baliq hajmi oshib bu mahsulotlar regeneratsiyasi (qayta to‘lishi) dan yuqori bo‘ldi

Jahonda barqaror jamiyat barpo etish uchun keskin qarorlar qabul qilish shart. Barqaror jamiyat o‘z hayotini ta’minlovchi moddiy va ijtimoiy ne’matlar tizimi bo‘lib uni asrab izdan chiqishiga yo‘l qo‘ymasligi kerak. Buning uchun quyidagilartaklif etiladi.

- aholi va ishlab chiqarish sur’atlari o‘sishini pasaytirish;
- qayta topilmaydigan resurslardan ishlab chiqarishda foydalanishnikamaytirish;

– qayta tiklanuvchi resurslardan foydalanishni ularning regeneratsiya(qayta to‘lishi) davrini hisobga olgan holda ishlatish;

– chiqindilar chiqarishni chegaralash tabiatni muhofaza qilish. “Oxirgi zamon” imitatsion modellari ko‘p bahslarni va noroziliklarni keltirib chiqardi.

Raqamlar o‘yini. Loyihachilar modelni ishlab chiqarishda aholi va ishlab chiqarish hajmi eksponenta bo‘yicha ko‘payib boradi deb taxmin qilishgan. Aslida esa bunda bir qator ijobiy omillar hisobga olinganda raqamlar nisbatan ijobiy sur’atkasb etadi.

Texnologiya va resurslar ko‘payishi. Yana bir norozilik sababi shuki texnika taraqqiyoti resurslar ko‘payishiga, resurslarning yangi turlarini kashf etilishiga resurslarni qayta ishlashning yangi yanada samaraliroq usullarini qo‘llanilishiga olib keladi. Masalan, bugungi kunda neft konlarini ochish va neftni qayta ishlash bo‘yicha texnologiyalar 1900-yilgiga nisbatan bir necha o‘n barobar o‘sdi.

Bundan tashqari yangi texnologiyalar tugab borayotgan resursning o‘rinbosarini topishga va ishlatishga yordam beradi. Bu resurslarning qayta tiklanishi uchun sharoit yaratadi. Masalan, quyosh, shamol, suv energetika sanoatda neft ko‘mir va tabiiy gaz ko‘mirni ma’lum darajada bosishi mumkin.

Umuman olganda texnika taraqqiyoti cheklangan resurslarning tejamiga yordam beradi. Imitatsion modelda esa buning aksi ko‘rsatilgan. Bozor belgilari. Bozor narxlarining o‘zgarishi kutilayotgan falokatning oldini olishga qodir bo‘lgan belgilaridan hisoblanadi. Agar neft, alyuminiy, mis zaxiralari haqiqatdan kamayib borsa ularning narxi keskin oshib boradi. Bu o‘z navbatida ikki xodisaga sabab bo‘ladi.

Birinchidan, ushbu mahsulot foydalanuvchilari mahsulotlarni tejashga yoki ko‘proq o‘rinbosar mahsulotlardan foydalanishga harakat qilishadi. Masalan, uy-joykommunal xo‘jaligida mis quvurlari o‘rniga plastmassadan tayyorlangan quvurlardan foydalanishga o‘tiladi.

Ikkinchidan, narxlar oshishi resurslarni qayta ishlash texnologiyasini takomillashtirishni talab etadi. Xullas narx mexanizmi resurslar defitsitini bartaraf etishi mumkin bo‘lgan xususiyatga ega.

“Zamonoviy” loyiha qanchalik to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligidan qat’i nazar o‘sish chegaralanganligi bir qator xulosalarni keltirib chiqardi. Agar biz bugun cheklangan resurslarni ishlatsak ertaga ushbu resurslar

bo‘lmasligi ham mumkin. Resurslarni taqsimlashning optimal usuli qanday degan savol tug‘iladi?

Bu boradagi bahslarda iqtisodiy o‘sish unchalik ham katta ijobiy xodisa emasligi o‘sish foydalimi? deb ta’kidlanadi. Kelajakdagi iqtisodiy o‘sishni baholashda ishlab chiqarishning atrof-muhitga va inson turmushiga ta’sirini hisobgaolish shart.

Iqtisodiy o‘sishga qarshi chiquvchilar fikri. Iqtisodiy o‘sishga qarshi chiquvshilar fikriga ko‘ra sanoatlashish va iqtisodiy o‘sish atrof-muhit zararlanishi, yer harorati global ko‘tarilishi, ozon qatlami yemirilishi ekologik falokatlarga olib kelishi mumkin. Bunga sabab tugab borayotgan resurslar ishlab chiqarishda foydalanilib atrof-muhitga chiqindi sifatida qaytadi. Bundan tashqari iqtisodiy o‘sish bu farovonlikni ta’minlab beruvchi omil deyishga hech qanday asos yo‘q. Iqtisodiy o‘sishning yetakchi bo‘lgan texnika taraqqiyoti ishchilarda ertangi kunga ishonchni so‘ndiradi va ba’zida ishsizlikning ko‘payishiga sabab bo‘ladi. Rivojlanish (o‘sish) sur’ati yuqori bo‘lgan iqtisodiyot katta iqtisodiy stresslarga olib kelishi mumkin.

O‘sish tarafdorlari fikri. Tarafdorlar fikriga ko‘ra faqatgina iqtisodiy o‘sish turmush farovonligini ta’minlashi mumkin. Ishlab chiqarish hajmining o‘sishi daromadni oshiradi: bu esa ko‘proq bo‘sh vaqt, ta’minlay olish imkoniyati, sifatli mahsulotlar sotib olish imkoniyati va shu kabi ko‘plab imkoniyatlarni tug‘diradi.

Asosiy xulosalar

1. Ishlab chiqarishning pasayishi bir qator sabab oqibatlarga sabab bo‘ladi. Turmush darajasi. ishlab chiqarish darajasining o‘sishi turmush darajasi va ish haqini ko‘tarish mumkin bo‘lgan asosiy omillardan biridir. Bir ish soatida qancha ko‘p mahsulot ishlab chiqarilsa bir soatlik real daromad ham shuncha oshadi. Bir ish soatida qancha ko‘p ko‘rsatilganidek turmush darajasini belgilovchi asosiy ko‘rsatkich bu real YaIM aholi jon boshiga nisbatan o‘sishi hisoblanadi.
2. Koreyada ishlab chiqilgan iqtisodiy va sanoat siyosatlari quyidagilar edi:
   - strategik sohalarga cheklangan vaqt davomidagi bojxona himoyasi;
   - sanoat mahsulotlari eksporti uchun subsidiyalar;
   - arzon iste’mol kreditlari;

– ma’lum bir hashamatli tovarlarning ichki marketingini taqiqlash;

– texnologik ta’limni rivojlantirish va iqtisodiyotning ayrim sohalarida xorijiy investitsiyalarni tartibga solish.

3. O‘zbekiston Respublikasida ham juda ko‘p sohalarda Koreya Respublikasining tajribalaridan foydalanishga harakat qilinadi ammo, bu harakatlar doim ham samaradorligini ko‘rsata olmadi. Chunki, davlat boshqaruvi mexanizmlarida sudlarning erkinligi, korrupsiyaga qarshi murosasiz kurash olib bormasdan turib iqtisodiy rivojlanish haqida o‘ylashni foydasi yo‘q. Sharqiy Osiyo mamlakatlaridagi davlat intervensionizmining O‘rta Osiyo kabi boshqa rivojlanayotgan mamlakatlardagi intervensionizmdan ajratib turadigan omillardan biri intensiv avtoritarizmning bir qismi sifatida olib borilgan davlat siyosatining yuqori sifati edi.

4. Iqtisodiy o‘sishga qarshi chiquvchilar fikri. Iqtisodiy o‘sishga qarshi chiquvshilar fikriga ko‘ra sanoatlashish va iqtisodiy o‘sish atrof-muhit zararlanishi, yer harorati global ko‘tarilishi, ozon qatlami yemirilishi ekologik falokatlarga olib kelishi mumkin. Bunga sabab tugab borayotgan resurslar ishlab chiqarishda foydalanilib atrof-muhitga chiqindi sifatida qaytadi. Bundan tashqari iqtisodiy o‘sish bu farovonlikni ta’minlab beruvchi omil deyishga hech qanday asos yo‘q. Iqtisodiy o‘sishning yetakchi bo‘lgan texnika taraqqiyoti ishchilarda ertangi kunga ishonchni so‘ndiradi va ba’zida ishsizlikning ko‘payishiga sabab bo‘ladi. Rivojlanish (o‘sish) sur’ati yuqori bo‘lgan iqtisodiyot katta iqtisodiy stresslarga olibkelishi mumkin.

5. O‘sish tarafdorlari fikri. Tarafdorlar fikriga ko‘ra faqatgina iqtisodiy o‘sish turmush farovonligini ta’minlashi mumkin. Ishlab chiqarish hajmining o‘sishi daromadni oshiradi: bu esa ko‘proq bo‘sh vaqt, ta’minlay olish imkoniyati, sifatli mahsulotlar sotib olish imkoniyati va shu kabi ko‘plab imkoniyatlarni tug‘diradi.

Muhokama uchun savollar

1. Iqtisodiy o‘sish omillarini sanab bering?
2. AQShda 1930-yillardagi Buyuk depressiya davrida bo‘lgan iqtisodiy-ijtimoiy jarayonlarni yoritib bering?
3. AQShda Buyuk depressiya davrida inqirozning ta’siri boshqadavlatlarga nisbatan nima uchun sezilarli bo‘ladi?
4. Ishlab chiqarishning pasayishi qanday sabab oqibatlarga

olib keldi?

5. Innovatsion rivojlanish va novatorlik g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlashjamg‘armasining asosiy vazifalarini sanab bering?

6. Innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash borasida jahonning yetakchimamlakatlari tajribasi haqida gapirib bering?

7. Koreyada “mo‘jiza” qanday sodir bo‘ldi?

8. Koreyaning “chebollar”i qanday o‘ziga xos xususiyatlarga ega edi?

9. Ishchi kuchi saviyasining pasayishi qanday salbiy oqibatlar keltiribchiqaradi?

10. Ishlab chiqarishdagi o‘zaro munosabatlar

11. Iqtisodiy o‘sishda “Oxirgi zamon modeli”

12. Texnologiya va resurslar ko‘payishida iqtisodiy o‘sish

13. Iqtisodiy o‘sishga qarshi chiquvchilar fikri

14. Iqtisodiy o‘sish tarafdorlari fikri

15. Iqtisodiy o‘sishda raqamlar o‘yini

XIV BOB. AHOLI VA MUSTAHKAM IQTISODIY O‘SISHNING MANBALARI

14.1. Ijtimoiy rivojlanish nazariyasiga asoslangan metodologik manbalar
14.2. Tomas Robert Maltusning iqtisodiy g‘oyalari
14.3. Aholi daromadlari, tarkibi, turmush darajasi va uning ko‘rsatkichlari
14.4. Daromadlar tengsizligi va uning darajasini aniqlash
14.5. O‘zbekistonda davlat ijtimoiy siyosatining asosiy yo‘nalishlari

Tayanch iboralar: *iqtisodiy rivojlanish, ijtimoiy rivojlanish, aholi turmush darajasi, turmush sifati, lorens egri chizig‘i, farovonlik, normal daraja, kambag‘allik, qashshoqlik, ijtimoiy ehtiyojlar, jismoniy ehtiyojlar, aholi jon boshigamilliy daromad, ijtimoiy ta’minot, ijtimoiy davlat, aholi daromadi, yalpi daromad, daromadlar tengsizligi koeffitsiyenti, aholi daromadlari tarkibi, yollanma mehnatdan olingan daromad, transfertdan olingan daromad, mustaqil band bo‘lishdan olingan daromad.*

14.1. Ijtimoiy rivojlanish nazariyasiga asoslangan metodologik manbalar

Ijtimoiy rivojlanishning butun tarixi davomida “jamiyat” kategoriyasiga turlicha konseptual yondashuvlarni kuzatish mumkin. Ijtimoiy, falsafiy, iqtisodiy nazariyalar ushbu tushunchaning turlicha talqinlarini taklif etadilar. Masalan, atomistik nazariya “jamiyat”ga shaxslar va ular o‘rtasidagi munosabatlarning jamlanmasi sifatida qaraydi: “Oxir-oqibat butun jamiyatni shaxslar aro hissiyotlar yoki ko‘rsatmalarning nozik to‘ri sifatida tasavvur etish mumkin.

Har bir muayyan shaxsga uning o‘zi tomonidan to‘qilgan to‘rning markazidan joy olib, ayrim odamlar bilan bevosita, butun jahon bilan esa bilvosita bog‘liq holda ekanligi sifatida qaralishi mumkin. M.Veber talimotiga ko‘ra, jamiyat-shaxslar jamlanmasi bo‘lib, ularning har biri o‘z maqsadlariga erishishga intiladi. Umuman olganda, jamiyat-odamlarning jamoaviy faoliyatiga asoslangan murakkab, keng ko‘lamli, ko‘p darajali ochiq tizimdir. Jamiyatning mohiyati-ijtimoiy organizm- ijtimoiy institut asosidagi tizimdir.

Ijtimoiy institut-o‘zini takror hosil qilish va rivojlantirishni ta’minlash maqsadida jamoaviy faoliyatda ishtirok etayotgan odamlarning barqaror uyushmasi bo‘lib, u jamiyatni takror hosil qilish va rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan qadriyatlarni yaratadi.

Qadriyatlar-odamlar ehtiyojlarini qondiradigan narsalardir. Ular, ehtiyojlar kabi, moddiy, ma’naviy va ijtimoiy bo‘ladi.

Jamiyatni iqtisodiy rivojlantirish iqtisodiy o‘sish, iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlar, aholi turmushining sharoitlari va sifatini takomillashtirish kabi tushunchalarni qamrab oladigan keng ko‘lamli jarayondir. Iqtisodiy rivojiantirishning turli AQSh, Germaniya, Xitoy, Janubiy-Sharqiy Osiyo, Yaponiya, O‘zbekiston va boshqa modellari mavjud. Ularning turlichaligi va milliy xususiyatlarga egaligiga qaramasdan mazkur jarayonni aks ettiradigan umumiy qonuniyatlar va mezonlar mavjuddir.

Umuman olganda esa jamiyatni iqtisodiy rivojlantirish ziddiyatli va o‘lchash murakkab bo‘lgan jarayon hisoblanadi. Bu jarayonda iqtisodiyotda o‘sish va pasayish, miqdor va sifat o‘zgarishlari ijobiy va salbiy tendensiyalar kuzatiladi.

XXI asrda ham ko‘pgina nazariyotchilar rivojlantirish jarayonini har birmamlakat bosib o‘tishi kerak bo‘lgan iqtisodiy o‘sishning qator bosqichlari sifatida ta’riflaganlar. Ular ishlab chiqarish jamlanma hajmining ko‘payishi (masalan, aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan yalpi ichki mahsulotning o‘sishi) aholi umumiy farovonligini oshiradi, deb hisoblaganlar. Buning asosida ishlab chiqarish daromadini keltiradi, daromadning ortishi esa moddiy yoki iqtisodiy farovonlikni yaxshilaydi degan fikr yotardi.

Bu borada U.U.Rostouning “Iqtisodiy o‘sish bosqichlari” (1961-yil) kitobida o‘zining yaqqol ifodasini topgan. Mazkur muallifning konsepsiyasiga ko‘ra jamiyatning iqtisodiy o‘sishi asosida bir bosqichdan ikkinchisiga tarixiy o‘tishida quyidagi prinsipial farqlar mavjud:

- iqtisodiyotning tarmoq tarkibi;
- texnika taraqqiyotining darajasi;
- jamg‘armaning milliy daromaddagi salmog‘i (jamg‘arma normasi);
- iste’mol tarkibi va darajasi.

U.U.Rostou rivojlanishning 5 ta asosiy bosqichlarini ajratib ko‘rsatgan:

1. *An’anaviy jamiyat*. Bu qo‘l mehnat qurollariga asoslangan ibtidoiy va turg‘un qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi, iyerarxik ijtimoiy tuzilma, yer egalarining hukmronligi, fan va texnika darajasi Nyutondan avvalgi davrga xos bo‘lgan jamiyatdir. Mazkur bosqichda ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish imkoniyatlari cheklanganligi, bir tarafdan, iqtisodiy o‘sish sur’atlarining pastligi, ikkinchi tomondan, tug‘ilish darajasining yuqoriligi sababli daromadlar kamaygan. Shundan so‘ng aholi soni va daromadlar miqdori barqarorlashadigan xususiyatlar paydo bo‘lgan. Mazkur bosqichda milliy mahsulotni takror hosil qilishni kengaytirish uchun amalda shart-sharoit bo‘lmagan.

2. *O‘tish jamiyati yoki “parvozga tayyorgarlik”.* Mazkur bosqich iqtisodiy o‘sish sur’atlarini keskin oshirishga zamin yaratgan. Bu paytda ishlab chiqarishda yangi texnologiyalar qoplana boshlangan, kapital qo‘yilmalar ko‘paygan, “tadbirkorlarning yangi toifasi” paydo bo‘lgan, markazlashgan davlat tarkib topgan. Ushbu bosqichda ishlab chiqarishga fan yutuqlari joriy etilishi natijasida iqtisodiy yuksalish tezlashgan, kommunikatsiyalar va xalqaro savdo rivojlangan, qishloq xo‘jaligi va kon sanoatiga investitsiyalar kiritish ko‘paygan.

3. *“Parvoz”*. Bu kapital jamg‘arilishi salmog‘ning ortishi (kapital qo‘yilmalar miqdori milliy daromadning 5,0 % dan 10,0% gacha ortadi) va jadal iqtisodiy o‘sish (ayniqsa, sanoatda), ishlab chiqarish usullarida tub o‘zgarishlar sodir bo‘ladigan sanoat inqilobi bosqichidir. Bevosita ana shu, uzoq muddat davom etmaydigan, lekin nihoyatda jo‘shqin bo‘ladigan bosqich sanoat rivojlanishidan avvalgi davrdan sanoat rivojlanishi jamiyatiga o‘tishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

4. *“Yetuklik”.* Ushbu bosqich sanoatning jadal rivojlanishi, kapital qo‘yilmalar darajasi yanada ko‘payishi (milliy daromadning 20,0 % gacha), fan va texnika yutuqlarini keng joriy etilishi, shahar aholisi salmog‘i aholi umumiy sonining 60,0-90,0% gacha yetishi, malakali mehnat ulushining ortishi xususiyatlariga egadir.

5. *“Yuqori darajadagi ommaviy iste’mol davri”.* Mazkur bosqichda jamiyatda avvalgi bosqichlardagidek ishlab chiqarish emas, balki iste’mol asosiy muammo bo‘ladi. Shu sababli xizmat ko‘rsatish va keng iste’mol mollari ishlab chiqarish iqtisodiyotning asosiy tarmoqlariga aylanadi, yangi o‘rta sinf hamda “umumiy farovonlik

davlati” shakllanadi. U.U.Rostou o‘zining 1971-yilda nashr etilgan “Siyosat va o‘sish bosqichlari” yangi asarida bu besh bosqichga oltinchi “turmush sifatini izlash” bosqichini ham qo‘shgan. Ushbu bosqichda insonning ma’naviy kamol topishi birinchi darajali ahamiyat kasb etadi.

U.U.Rostouning hisoblashicha, rivojlanishning bu bosqichlari jahondagi barcha mamlakatlar uchun bir xil bo‘lishiga qaramasdan, ularni bosib o‘tish har bir davlat uchun o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘ladi. Taraqqiyotda orqada qolgan mamlakatlar ilg‘or davlatlar tajribasini o‘zlashtirish va ularni quvib yetish, hatto ulardan o‘zib ketish imkoniyatlariga ega bo‘ladilar. Masalan, AQShda “parvoz” bosqichi Buyuk Britaniyaga nisbatan yarim asr keyin boshlangan bo‘lsa ham Amerika “yuqori darajadagi ommaviy iste’mol davri”ga Buyuk Britaniyadan bir necha o‘n yil ilgari yetib keldi.

Yoki XX asrning ikkinchi yarmida Osiyo eng jadal rivojlanayotgan mintaqaga aylandi. Ushbu davrda Yaponiya, keyin Xitoy hamda Janubiy-Sharqiy Osiyoning yangi industrial mamlakatlari iqtisodiy rivojlanishda yuqori natijalarga erishdilar. Ushbu davlatlarda YaIMning o‘sish sur’atlari rivojlangan mamlakatlarning ko‘rsatkichlaridan ikki barobar ortdi. Natijada taraqqiy etgan davlatlarning jahon iqtisodiyotidagi ulushi 63,0 % dan 52,0 % ga pasaygan bo‘lsa, rivojlanayotgan mamlakatlarning ulushi 21,7 % dan 31,4 % ga yetdi.

O‘sish bosqichlari nazariyasi insoniyot rivojlanishi tarixiy jarayonlarini asoslashda olg‘a qarab qo‘yilgan jiddiy qadam bo‘lishiga qaramasdan, u qator kamchiliklardan holi emas. Bu kamchiliklarning eng asosiysi mazkur konsepsiyada rivojlanish avvalgidek o‘sishning yuqori sur’atlari bilan almashishidir. Bunda chuqur ijtimoiy institutsional o‘zgarishlar soyada qolib, investitsiyalar hajmining nisbati va yalpi milliy mahsulot o‘sishining sur’atlari birinchi o‘ringa ko‘tarilgan.

XX asming 70-yillarida iqtisodiy nazariya yangi klassik yo‘nalishining tarafdorlari iqtisodiy o‘sishning ma’lum bo‘lgan tizimlariga o‘zlarining modernizatsiya konsepsiyasini qarshi qo‘ydilar. Ma’lumki, yangi klassik nazariyada iqtisodiyotni modernizatsiyalash uchun resurslarni agrar sektordan sanoat ishlab chiqarishiga qayta taqsimlash zarurligi asoslangan. Bunda, birinchidan, jamg‘arish muammosini (ya’ni, jamg‘armalarni jalb etish va ularni

investitsiyalarga aylantirish) muammosi, ikkinchidan, ish bilan bandlik (ya’ni ish kuchini mehnat taklifi yuqori

bo‘lgan sohadan mehnat taklifi kam sohalarga qayta taqsimlash) muammosini hal etish talab etilardi. Shu sababli modernizatsiyaga, eng avvalo, moddiy va mehnat resurslarini qayta taqsimlash, sektorlar o‘rtasida ayirboshlash (mehnat unumdorligi past bo‘lgan sektorlarni qisqartirib, mehnat unumdorligi yuqori bo‘lgan sektorlarni kengaytirish) vositasi sifatida qaralar edi.

Aholining turmush darajasi va turmush sifati ko‘rsatkichlari mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar rivojlanishining darajasini aks ettiradi. Aholi turmush darajasi deyilganda, odamlarning zarur moddiy va ma’naviy ne’matlar bilan ta’minlanganligi, ular iste’moli va ehtiyojlari qondirilganligi darajasi tushuniladi. Turmush darajasi:

– tor ma’noda - aholining iste’mol ehtiyojlari qondirilganligi, iste’molning topilgan daromad va qilingan xarajat orqali qondirilishi;

– keng ma’noda - inson rivojlanish darajasi (salomatlik, ehtiyojlarni qondirish imkoniyatlari) va uning yashash shart-sharoitlari (atrof-muhit, xavfsizlik)anglatadi.

Odatda aholi turmush darajasi quyidagicha tasniflanadi:

– farovonlik (inson barkamol rivojlanishini ta’minlovchi ne’matlardanto‘liq foydalanish imkoniyati);

– normal daraja (inson jismoniy va intellektual qobiliyatlarini takror hosil qilishni ta’minlovchi ilmiy asoslangan oqilona iste’mol darajasi);

– kambag‘allik (ishchi kuchini takror hosil qilish uchun moddiy ne’matlardan ularning quyi chegarasi doirasida foydalanish imkoniyati);

– qashshoqlik (moddiy ne’matlardan biologik me’zonlar asosida minimaldarajada foydalanish).

Iqtisodiy adabiyotda aholi turmush darajasi insonlarning moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini qondirish darajasi sifatida talqin etiladi. Jumladan, V.N.Salin, Ye.P.Shpakovskaya “Aholi turmush darajasi bu inson hayoti faoliyatining, eng avvalo, real ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar yig‘indisini ifodalovchi murakkab va ko‘p qirrali kategoriya bo‘lib, ijtimoiy taraqqiyotning muhim tavsifi hisoblanadi”, deb ko‘rsatadilar.

Turmush darajasini belgilashda Birlashgan Millatlar Tashkiloti konsepsiyasi, shved va fransuz modellari farqlanadi.

Aholi turmush darajasi ko‘rsatkichlari qatorida asosiy oziq-ovqat mahsulotlariga talabning qondirilishi va ularning iste’moli, turar joylarning umumiymaydoni, ularning muhandislik va kommunikatsiya tizimlari, tabiiy gaz, toza ichimlik suv bilan ta’minlanganligi, xonalarning o‘rtacha kattaligi, oilalarning madaniy-maishiy va xo‘jalik buyumlari bilan ta’minlanganligi, aholiga pullik xizmatlar ko‘rsatish hajmi, tarkibi va sifati ham kiradi.

Aholi turmush darajasining ma’naviy ehtiyojlarni qondirilishi bo‘yicha ko‘rsatkichlari aholining savodxonligi, nashr etilayotgan adabiyotlar, davriy nashrlar hajmi, fuqarolarning televizor, axborot vositalari va kompyuterlar bilan ta’minlanganligi, maktab yoshigacha (0-6 yosh) bo‘lgan bolalarning maktabgacha tarbiya ta’lim muassasalari bilan qamrab olinishi, maktab yoshidagi bolalarning maktablar bilan ta’minlanganligi, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari va oliy o‘quv yurtlari, ularda tahsil olayotganlar soni va qabul miqdorini aks ettiradi.

Aholi turmush darajasining ijtimoiy ehtiyojlar qondirilishini hisobga oladigan ko‘rsatkichlariga esa ishlab chiqarishda ish vaqti yo‘qotilishi (bir xodimga o‘rta hisobda), xodimlar mehnat sharoiti o‘zgarishi, shikastlanish (bir ish kuni va bundan ko‘proq muddatga shikastlanganlar, mehnat qobiliyatini yo‘qotganlar, shikastlanishilar soni), sport-sog‘lomlashtirish, madaniy-istirohat maskanlari, pensiyalar, nafaqalar, o‘rtacha va eng kam ish haqi miqdorlari, ishsizlar soni, atrof-muhit, jinoyatchilikning ahvoli, aholining pul daromadlari hamda xarajatlari va hokazolar kiradi.

Aholining turmush darajasi insonning yuqorida qayd qilingan asosiy ehtiyojlarining qondirilishi indikatorlar asosida aniqlanadi.

Aholi turmush darajasi va turmush sifati miqdor va sifat ko‘rsatkichlariga ajratilishi mumkin. Turmush darajasi va turmush sifatining integral ko‘rsatkichi sifatida turli davrlarda quyidagilarni qo‘llash taklif etilgan edi:

- aholi jon boshiga milliy daromad;
- uy xo‘jaliklaridagi umumiy xarajatlarda ovqatlanish uchun chiqimlarning ulushi;
- o‘limning nisbiy koeffitsiyenti (u 50 yosh va undan bo‘lgan shaxslar o‘limining o‘limlar umumiy soniga nisbati sifatida

aniqlangan);

- aholi umr ko‘rishning o‘rtacha davomiyligi;
- bo‘sh vaqt ko‘rsatkichi.
- ijtimoiy ta’minot;
- inson erkinligi.

BMT Statistika komissiyasi tomonidan yuqorida qayd etilgan guruhlardan tashqari turmush sifatini baholash uchun zarur bo‘lgan, lekin BMT ekspertlari fikricha, ularning asosiy xususiyatlarini aks ettirmaydigan, umumiy bo‘lim ajratib ko‘rsatilgan. Bu bo‘limga quyidagi ko‘rsatkichlar kiritilgan:

- milliy daromad, aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan YaIM va uo‘sishining o‘rtacha yillik koeffitsiyenti;
- ijtimoiy xizmat hajmi va turlari;
- aholining shaxsiy iste’moli uchun xarajatlari, ularning tarkibi va o‘rtachayillik o‘sish koeffitsiyenti, aholining zichligi;
- aholiga transport xizmati ko‘rsatilishi;
- aloqa vositalari, matbuot va hokazolarning amal etishi.

Iqtisodiy rivojlantirishning ijtimoiy mezonlari shu qadar muhim ahamiyat kasb etmoqdaki, ular ko‘pgina siyosiy tuzilmalar dasturiy maqsadlari hamda iqtisodiy rivojlanish milliy modellarining ajralmas qismiga aylandi. Yangi tendensiyalar ta’sirida davlatlarning ijtimoiy siyosatida ham jiddiy o‘zgarishlar ro‘y berdi. Bu esa o‘z navbatida “ijtimoiy davlat”, “umumiy farovonlik davlati” modellari to‘g‘risida xulosalar chiqarishga xizmat qildi. Ko‘pgina davlatlar siyosatidagi bunday o‘zgarish ko‘p jihatdan inson omili, inson bilimlari, axborot ijtimoiy ishlab chiqarishni rivojlantirishda o‘ynayotgan nihoyatda muhim roli bilan izohlanadi.

“Ijtimoiy davlat” siyosati davr talabiga javob bo‘ldi va ijtimoiy sohada tub o‘zgarishlarni boshlab berdi. Shu maqsadda aholi turmush darajasini oshirish dasturlari ishlab chiqildi. Ular ta’lim, sog‘liqni saqlash, turar joy qurilishi, ijtimoiy ta’minot davlat tizimlarini yaratish, eng kam ish haqi miqdorini tartibga solish va hokazolarni nazarda tutadi. Ushbu o‘zgarishlar shu qadar jiddiy ediki, tadqiqotchilar bozor kapitalistik xo‘jaligining sifat jihatdan yangi holatga aylanishi to‘g‘risida fikrbildira boshladilar.

14.2. Tomas Robert Maltusning iqtisodiy g‘oyalari

Tomas Robert Maltus (1766-yil 13-fevral, 1834-yil 29-dekabr)

Britaniyalik demograf va siyosiy iqtisodchi, aholining ko‘payishiga ta’sirli qarashlari bilan yaxshi tanilgan. Maltus zamonaviy demografiyaning asoschisi sifatida keng tarqalgan. Uning bashorat qilishicha, aholi oziq-ovqat ta’minotidan oshib ketadi, bu esa odam boshiga oziq-ovqat kamayadi va ocharchilikka olib keladi. Shunday qilib, u jinsiy rivojlanishdan saqlanish va kech turmush qurishni aholi o‘sishini nazorat qilish usuli sifatida targ‘ib qildi.

Maltusning flkricha, populyatsiyaning o‘sishi oziq-ovqat ta’minotidan oshib ketadi, bu esa aholining nazoratini talab qiladi. Maltusning yondoshuvi to‘liq emas edi va shuning uchun yetarli emas edi, ammo uning ta’siri sezilarli edi. Globallashuv va texnologik yutuqlar tufayli insoniyat jamiyati tobora ko‘proq o‘zaro bog‘liq bo‘lib borar ekan, barcha odamlarning ham jismoniy, ham ma’naviy ehtiyojlarini qondirish zaruriyati katta ahamiyatga ega. Bunga javob topmasdan, Maltus populyatsiyaning o‘sishini o‘sib borayotgan aholining ehtiyojlari bilan muvozanatlash zarurligi to‘g‘risida xabardor qildi.

Maltusning qarashlari, asosan, Russo tomonidan ta’sirlangan otasi va sheriklarining optimistik qarashlariga javoban ishlab chiqilgan; uning ishi ham Marqus de Condorcetning qarashlariga javoban edi. Uning mashhur asari, aholi tamoyiliga bag‘ishlangan insho ayniqsa Uilyam Godvinning “jamiyatning mukammalligi” haqidagi optimistik qarashlariga qarshi hujum edi. Aslida Maltus iqtisodiy pessimist edi.

Uning populyatsiya prinsipi ilgari, yuqori hosildorlik iqtisodiy ustunlik deb hisoblanar edi, chunki bu iqtisodiyotda mavjud bo‘lgan ishchilar sonini ko‘paytirdi. Biroq, Maltus hosildorlikka yangicha nuqtai nazardan qaradi va ko‘pchilik iqtisodchilarning fikriga ko‘ra, yuqori hosildorlik yalpi mahsulotni ko‘paytirishi mumkin bo‘lsa-da, aholi jon boshiga ishlab chiqarishni kamaytirmoqda. Aholi tamoyiliga bag‘ishlangan insho, birinchi marta 1798-yilda nashr etilgan Maltus aholining oziq-ovqat ta’minotidan oshib ketishini bashorat qildi, bu bir kishiga oziq- ovqat mahsulotlari kamayishiga olib keldi. U hatto bu voqea XVII asr o‘rtalarida ro‘y berishi kerakligini oldindan taxmin qilish uchun shu qadar uzoqlashdi:

Uning aholi prinsipi tekshirilmagan aholi soni geometrik stavkada ko‘payadi (2, 4, 8, 16 va hokazo), oziq-ovqat ta’minoti esa arifmetik stavkada o‘sadi (1,2, 3, 4 va hokazo) oldinga). Ushbu taxmin

bilan faqat tabiiy sabablar (baxtsiz hodisalar va qarilik), baxtsizliklar (urush, ta’sirli qarashlari bilan yaxshi tanilgan. Maltus zamonaviy demografiyaning asoschisi sifatida keng tarqalgan. Uning bashorat qilishicha, aholi oziq-ovqat ta’minotidan oshib ketadi, bu esa odam boshiga oziq- ovqat kamayadi va ocharchilikka olib keladi. Shunday qilib, u jinsiy rivojlanishdan saqlanish va kech turmush qurishni aholi o‘sishini nazorat qilish usuli sifatida targ‘ibqildi.

Maltus aholi sonining ko‘payishini tekshirish uchun axloqiy tiyilishni (shu jumladan kech nikoh va jinsiy aloqadan voz kechishni) afzal ko‘rdi. Biroq, shuni ta’kidlash kerakki, Maltus buni faqat ishlaydigan va kambag‘al sinflar uchun taklif qildi. Shunday qilib, uning nazariyasiga ko‘ra, quyi ijtimoiy sinflar ijtimoiy kasalliklar uchun katta mas’uliyatni o‘z zimmalariga oldilar. Uning “Aholi tamoyiliga bag‘ishlangan insho” asarida sust qonunlarni bosqichma-bosqich bekor qilishni taklif qildi. Aslida buning natijasi Angliyada kambag‘allarning ahvolini yomonlashtirgan, aholisini kamaytirgan, ammo umuman qashshoqlikni samarali ravishda kamaytiradigan qonunchilikni rivojlantirish edi.

Maltusning ta’kidlashicha, ko‘p odamlar uning nazariyasini noto‘g‘ri talqin qilishgan va u shunchaki kelajakdagi falokatni bashorat qilmaganiga ishora qilishgan. Davriy qashshoqlikning doimiy sababi, bizda insoniyat tarixiga ega bo‘lgan paytdan beri mavjud bo‘lib, hozir ham mavjud va mavjud bo‘lib qoladi, agar tabiatan jismoniy konstitutsiyasida biron bir o‘zgarishni amalga oshirmasa (Maltus 1789). Shunday qilib, Maltus o‘zining populyatsion tamoyiliga insoniyatning o‘tmishi va hozirgi holatini tushuntirish hamda kelajakni bashorat qilish sifatida qaradi.

Maltus hech bo‘lmaganda o‘z matnining birinchi nashrida yevropada davom etadigan ocharchiliklar haqida bashorat qilgan, bu yolg‘on bo‘lib chiqdi. Biroq, ba’zilar Maltusning kelajak haqida aniq bashorati yo‘qligini ta’kidlaydilar, ba’zi taxminlar shunchaki Maltusning oziq-ovqat ishlab chiqarishning arifmetik o‘sishi bilan taqqoslaganda populyatsion geometrik (yoki eksponent) o‘sish kuchini tasvirlashidir.

Kelajak haqida bashorat qilish o‘rniga, 1798-yil “*Im ho”* evolyutsion ijtimoiy nazariya. Unda sakkizta muhim fikrlarni topish mumkin:

- aholi soni yashash darajasi bilan cheklangan;

– agar yashash imkoniyati oshsa, aholi soni ko‘payadi;
– aholi bosimi samaradorlikni oshirishni rag‘batlantiradi;
– hosildorlikning o‘sishi aholining yanada o‘sishini rag‘batlantiradi;
– ushbu unumdorlik hech qachon uzoq vaqt davomida populyatsion o‘sish potensialini ushlab tura olmasligi sababli, populyatsiyani uning yuk ko‘tarish qobiliyatiga mos kelishi uchun qattiq tekshiruvlar o‘tkazilishi kerak;
– jins, ish va bolalarga nisbatan individual xarajatlar foyda to‘g‘risida qarorlar orqali aholi soni va ishlab chiqarish kengayadi yoki shartnoma tuziladi;
– tekshirishlar aholi yashash darajasidan yuqori bo‘lganligi sababli amalgaoshiriladi;

Ushbu tekshirishlarning mohiyati Maltus ijtimoiy-madaniy tizimining qolgan qismiga, xususan, qashshoqlik, nochorlik va qashshoqlikka jiddiy ta’sir ko‘rsatadi.

Garchi Maltusning ishi nazariy jihatdan kuchli bo‘lgan bo‘lsa-da, keyinchalik ko‘plab tanqidchilar ta’kidlaganidek, faktlar xulosalarni chiqarmadi. Shunga qaramay, uning populyatsion nazariyasi nafaqat iqtisodiy nazariyalarga, balki ijtimoiy siyosatga ham katta ta’sir ko‘rsatdi.

Maltus va Maltus tafakkurining ko‘plab nazariy va siyosiy tanqidlari birinchi insho nashr etilishidan ko‘p o‘tmay paydo bo‘ldi. *Aholi haqidagi insho,* eng e’tiborlisi, islohotchi sanoatchi Robert Ouyen, Uilyam Xazlitt va iqtisodchilar Jon Styuart Mill va Nassau Uilyam Senior, shuningdek, axloqshunos Uilyam Kobbett. Maltus g‘oyalariga qarshi kurashning eng yuqori nuqtasi XVIII asr o‘rtalarida Karl Marksning asarlari bilan keldi (*Poytaxt,* 1867) va Fridrix Engels *(Siyosiy iqtisod tanqidiy ta’riflari,* 1844), Maltus aholining ishlab chiqarish vositalariga bosimi muammosi aslida ishlab chiqarish vositalarining populyatsiyaga bo‘lgan bosimi bilan bog‘liq deb hisoblagan. Boshqacha qilib aytganda, Maltus qashshoqlarning tug‘ma ko‘rinishidan kelib chiqib, ularning imkoniyatlaridan tashqarida ko‘payishi natijasida paydo bo‘lgan aholining haddan tashqari ko‘payishi aslida kapitalistik iqtisodiyotning juda jadal rivojlangan «ishsizlar zaxirasi armiyasi» mahsuli edi.

Evolyutsionistlar Jon Maynard Smit va Ronald Fisher ikkalasi ham Maltusning gipotezasini tanqid qilishgan, ammo o‘sish sur’atini

Fisher aytib o‘tgan.(mantiqiy funksiya kabi tenglamalarda ishlatiladi) Maltusian parametr sifatida. Fisher “barkamollik falsafasi” ni tabiatning boyligini kuzatish va (shu bilan Charlz Darvin singari) tabiiy seleksiyani keltirib chiqargan degan xulosaga keltirishga ishora qildi. Smit ocharchilik Maltusning ta’kidlashicha buyuk darajadagi ekanligiga shubha qildi.

Julian Linkoln Saymon singari XX asming ko‘plab iqtisodchilari ham Maltusning xulosalarini tanqid qilishgan. Ular Maltus va Neo-Maltusiylarning bashoratiga qaramay, XX asrda aholining massiv geometrik o‘sishi, asosan texnologik taraqqiyot va bozor iqtisodiyotining kengayishi, mehnat taqsimoti va hokazolar ta’siri tufayli Maltus falokatiga olib kelmadi.

Maltusning ta’kidlashicha, mamlakatda ish haqining oshishi bilan tug‘ilish darajasi oshadi, o‘lim darajasi pasayadi. Uning fikriga ko‘ra, yuqori daromadlar odamlarga o‘z farzandlarini tarbiyalash uchun yetarli mablag‘, masalan ovqatlanish va kiyim-kechak berish imkoniyatiga ega bo‘ladi, natijada ko‘p bolali bo‘lish istagi kuchayib, aholi soni ko‘paymoqda. Bundan tashqari, yuqori daromadlar odamlarga zararli kasalliklarga qarshi kurashish uchun kerakli dori-darmonlarni olish imkoniyatini yaratdi va shu bilan o‘lim darajasini pasaytirdi. Natijada, ish haqining oshishi tug‘ilishning ko‘payishi va o‘limning pasayishi bilan aholi sonining ko‘payishiga olib keldi. Shuningdek u, ishchi kuchi taklifining ko‘payishi va doimiy mehnat talabida aholining o‘sishi bilan, ish haqi oxir-oqibat yashash darajasiga kamayadi, bu yerda tug‘ilish darajasi o‘lim darajasiga teng bo‘ladi, natijada aholi o‘smaydi.

Biroq, dunyo umuman Maltus taxmin qilganidan butunlay boshqacha natijani ko‘rdi. O‘n to‘qqizinchi asrning oxiri va yigirmanchi asming boshlarida sanoat inqilobi tarqalishi bilan aholi ish haqi miqdorida ko‘paydi. Maltus Angliyani baholashda doimiy ishchi kuchiga ehtiyoj sezar edi va shu bilan sanoatlashtirishning ta’sirini e’tiborsiz qoldirdi. Dunyo sanoati rivojlanib borgan sari texnologiya va ishlab chiqarish darajasi o‘sib bordi va bu ishchi kuchiga talabning oshishiga olib keldi. Shunday qilib, ishchi kuchi taklifi oshgan bo‘lsa ham, ishchi kuchiga talab oshdi. Aslida, ishchi kuchiga talab oshdi. Bu ko‘proq tarixiy ravishda real ish haqining o‘sishi bilan aholining o‘sishi bilan o‘lchanadigan taklifga nisbatan qo‘llanildi. Shu bilan bir qatorda, qishloq xo‘jaligidagi texnologik

yutuqlar oziq- ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishni keskin ko‘paytirdi va bu aholining o‘sishini qondirish va hatto undan ham yuqori bo‘lishini ta’minladi. Shunday qilib, ocharchilik darajasi kamaygan, zamonaviy davrda ocharchilik umuman oziq-ovqat yetishmasligidan emas, balki urush yoki hukumat siyosati tufayli yuzaga kelgan.

Maltus zamonaviy demografiyaning asoschisi sifatida keng tarqalgan. Maltus o‘zining populyatsion prinsipini nafaqat insonlar uchun, balki barcha turlar uchun universal tabiiy qonun sifatida taklif qilgan. Biroq, bugungi kunda uning nazariyasi keng tarqalgan, deb hisoblanadi taxminiy barcha turlar uchun populyatsion dinamikaning tabiiy qonuni. Buning sababi shundaki, hech narsa ekspansional o‘sishni doimiy chegarada cheksiz darajada ushlab turolmasligi isbotlanishi mumkin.

Maltus nazariyalarining ta’siri katta edi. Boshqalar qatorida, u “gluts” deb nomlagan talab va taklifning nomutanosiblik nazariyasini ishlab chiqdi. O‘sha paytda kulgili hisoblangan, chunki u ta’minot o‘z talabini keltirib chiqaradi deb aytadigan Sayning qonunini buzgan, uning nazariyasi “Buyuk depressiya” haqidagi keyingi nazariyalarga va muxlis va iqtisodchi Jon Maynard Keynsning asarlariga asos bo‘lgan. Maltus, shuningdek, bir qator taniqli iqtisodchilar, jumladan, Devid Rikardo bilan uzoq vaqtdan beri do‘stona munosabatda bo‘lgan, ammo iqtisod haqida qarama-qarshi fikr yuritganlarga qoyil qoldi va ta’sir ko‘rsatdi.

Maltus nazariyasi bilan bog‘liq xavotirlar Buyuk Britaniyada milliy aholini ro‘yxatga olish g‘oyasini ilgari surishga yordam berdi. Hukumatning amaldagi xodimi Jon Rikman 1801-yilda o‘tkazilgan birinchi zamonaviy Buyuk Britaniyada o‘tkazilgan aholini ro‘yxatga olishda muhim rol o‘ynadi.

14.3. Aholi daromadlari, tarkibi, turmush darajasi va uning ko‘rsatkichlari

Aholi daromadlari deyilganda ularning ma’lum vaqt davomida (masalan, bir yilda) pul va natural shaklda olgan barcha daromadlari miqdori tushuniladi. Aholi iste’mol darajasi to‘g‘ridan-to‘g‘ri ularning daromadlari darajasiga bog‘liq bo‘ladiki, bu uning aholi turmush darajasidagi rolini belgilab beradi.

Aholi pul daromadlari ish haqi, tadbirkorlik faoliyatidan

olinadigan daromad, nafaqa, pensiya, stipendiya shaklidagi barcha pul tushumlarini, mulkdan foiz, dividend, renta shaklda olinadigan daromadlarni, qimmatli qog‘ozlar, ko‘chmas mulk, qishloq xo‘jalik mahsulotlari, hunarmandchilik buyumlarini sotishdan va har xil xizmatlar ko‘rsatishdan olinadigan pul mablag‘lardan iborat bo‘ladi. Natural daromad mehnat haqi hisobiga olinadigan va uy xo‘jaliklarining o‘z iste’mollari uchun ishlab chiqargan mahsulotlardan iborat bo‘ladi.

Jamiyat a’zolari daromadlari darajasi ular turmush farovonligining muhim ko‘rsatkichi hisoblanib, shu bilan birga alohida shaxslarning dam olishi, bilim olishi, sog‘ligini saqlashi, eng zarur ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlarini belgilab beradi. Aholi daromadlari darajasiga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi omillar orasida ish haqidan tashqari chakana narx dinamikasi, iste’mol bozorini tovarlar bilan to‘yinganlikdarajasi kabilar muhim o‘rin tutadi.

Aholi daromadlari darajasiga baho berish uchun nominal, ixtiyorida bo‘lgan va real daromad tushunchalaridan foydalaniladi.

Nominal daromad - aholi tomonidan ma’lum vaqt davomida pul shaklida olingan daromad hisoblanadi.

Ixtiyorida bo‘lgan daromad — shaxsiy iste’mol va jamg‘arma maqsadlarida foydalanish mumkin bo‘lgan daromad. Bu daromad nominal daromaddan soliqlar va majburiy to‘lovlar miqdoriga kam bo‘ladi.

Real daromad - narx darajasi o‘zgarishini hisobga olib, aholining ixtiyorida bo‘lgan daromadga sotib olish mumkin bo‘lgan tovar va xizmatlar miqdorini ko‘rsatadi.

Aholining nominal pul daromadlari turli manbalar hisobiga shakllanadi va ularni quyidagicha umumlashtirish mumkin:

- ishlab chiqarish omillari hisobiga olinadigan daromad;
- davlat yordam dasturlari bo‘yicha to‘lov va imtiyozlar shaklidagi pultushumlari;
- moliya-kredit tizimi orqali olinadigan pul daromadlari.

Respublikamizda mehnatni rag‘batlantirish maqsadida ish haqini oshirish natijasida aholi daromadlari muttasil o‘sib bormoqda. Aholining yollanib ishlovchi qismi oladigan daromadlarning asosiy turi ish haqi istiqbolda ham pul daromadlari umumiy hajmining shakllanishida o‘zining yetakchi rolini saqlab qoladi. Mamlakatimizda aholi daromadlarining oshib borishi bilan uning tarkibi o‘zgarib,

mustaqil ravishda band bo‘lishdan olingan daromadlar barqaror o‘sib borayotgani alohida e’tiborga molikdir. 2022-yilning yanvar-iyun holatiga ko‘ra, aholining umumiy daromadlari 282,6 trln. so‘mni tashkil etdi. Aholi daromadlari bo‘yicha real o‘sish sur’atlarini hisoblashda narx omillari ta’sirini chiqarib tashlash maqsadida, inflyatsiya ko‘rsatkichlarining asosiy turlaridan biri – iste’mol narxlari indeksidan (INI) foydalaniladi. Iste’mol narxlarining o‘zgarishi sababli o‘tgan yilning mos davriga nisbatan aholi umumiy daromadlarining real o‘sish sur’ati 110,8 % ni tashkiletdi (14.1-rasm va 14.2 rasm).

O‘zbekistonda yaqin istiqbolda ham aholining real daromadlarini bosqichma- bosqich oshirib borish ko‘zda tutiladi. Bu quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshiriladi. Aholi pul daromadlari darajasiga davlat yordam dasturlari bo‘yicha to‘lovlar sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Bu manbalar hisobiga pensiya ta’minoti amalga oshiriladi va turli xil nafaqalar to‘lanadi.



14.1-Rasm. **Aholi umumiy daromadlarning real o‘sish sur’atlari[18]**



14.2-Rasm. **Aholi jon boshiga umumiy daromadlarning real o‘sishsur’atlari[14]**

O‘zbekistonda yaqin istiqbolda ham aholining real daromadlarini bosqichma- bosqich oshirib borish ko‘zda tutiladi. Bu quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshiriladi.

– aholining real pul daromadlarini va xarid qobiliyatini

[14] www.stat.uz

oshirish;

– kam ta’minlangan oilalarni va aholining daromadlari bo‘yicha farqlanishi darajasini yanada qisqartirish;

– byudjet muassasalari xodimlarining ish haqi, pensiya, stipendiya va ijtimoiy nafaqalarning hajmini inflatsiya sur’atlariga nisbatan jadal miqdorda bosqichma-bosqich oshirish.

Aholining moliya-kredit tizimi orqali oladigan pul daromadlari quyidagilardaniborat:

– sug‘urta bo‘yicha to‘lovlar; shaxsiy uy qurilishiga va matbuot jamiyatia’zolariga bank ssudalari;

– qo‘yilmalar bo‘yicha foizlar;

– aksiya, obligatsiya bahosining ko‘payishidan olinadigan daromad vazayom bo‘yicha to‘lovlar;

– lotereya bo‘yicha yutuqlar;

– tovarlarni kreditga sotib olish natijasida tashkil topadigan vaqtinchabo‘sh mablag‘lar;

– har xil turdagi kompensatsiya to‘lovlar va h.k.

14.3-Jadval.

O‘zbekiston Respublikasida aholi umumiy daromadlari tarkibi va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati *2022- yilning yanvar-iyun holatigako‘ra*[15]

Ko‘rsatkichlar	*Jamiga nisbatan, % da*		*O‘sish sur’ati*
	2021- y.	*2022- y.*	
Umumiy daromadlar – jami (I+II)	**100,0%**	**100,0%**	**122,5%**
I. Birlamchi daromadlar	74,6%	70,3%	115,5%
I.1. Ishlab chiqarishdan olingan daromadlar	72,3%	67,8%	114,9%
I.1.1. Mehnat faoliyatidan olingan daromadlar	65,1%	61,3%	115,4%
I.1.1.1. Yollanma ishchilarning daromadlari	28,1%	28,0%	122,4%
I.1.1.2. Mustaqil ravishda band bo‘lishdan olingan daromadlar	37,0%	33,3%	110,1%
I.1.2. Shaxsiy iste’mol uchun o‘zida ishlab chiqarilgan xizmatlardan olingan daromadlar	7,2%	6,5%	110,4%
I.2. Mol-mulkdan olingan daromadlar	2,3%	2,5%	136,9%
II. Transfertlardan olingan daromadlar	25,4%	29,7%	142,9%

[15] www.stat.uz

Jamiyat a’zolari daromadlari darajasi ular turmush farovonligining muhim ko‘rsatkichi hisoblanishi bilan birga alohida shaxslarning dam olishi, bilim olishi, sog‘lig‘ini saqlashi, eng zarur ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlarini belgilab beradi.

O‘zbekistonda aholining pul daromadlari tarkibida ijtimoiy transfert daromadlari 2020-yilda 25,5% ni tashkil qiladi. MDH mamlakatlari ichida faqatgina Belorussiyada bu ko‘rsatkich nisbatan yuqori (18,8%), boshqa MDH davlatlarida esa u 8% dan oshmaydi.

Aholi turmush darajasi tushunchasini ularning hayot kechirishi uchun zarur bo‘lgan moddiy va ma’naviy ne’matlar bilan ta’minlanishi hamda kishilar ehtiyojining bu ne’matlar bilan qondirilishi darajasi sifatida aniqlash mumkin.

Shu sababli, aholi turmush darajasi va sifatini baholashda aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromad bilan bir qatorda, ular hayot darajasini belgilaydigan bir qator muhim ko‘rsatkichlar hisobga olinadi. Bular quyidagilar:

- yashash sharoitlari va standartlari;
- qulay va zamonaviy uy-joylar bilan ta’minlanganligi;
- kishilar yashash muhiti rivojlanganligi va obodonlashtirilganligi;
- zaruriy infratuzilma mavjudligi va uning samarasi;
- aholining sifatli iste’mol tovarlari, xususan mamlakatda ishlabchiqarilgan tovarlar bilan ta’minlanganligi;
- zamonaviy ta’lim hamda sog‘liqni saqlash tizimidan bahramand bo‘lishi. Kishilar ehtiyojlarini qondirish darajasi jamiyat a’zolarining alohida olgan va oilaviy daromadlari darajasiga bog‘liq. Turmush darajasini mamlakat darajasida butun aholi uchun va tabaqalashgan mikro darajada aholining alohida guruhi uchun qarab chiqish mumkin. Birinchi yondashuv turli mamlakatlarda aholining turmush darajasini aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan yalpi ichki mahsulot ko‘rsatkichi bo‘yicha aniqlab, qiyosiy tahlil qilish imkonini beradi.

Aholi guruhlari bo‘yicha daromadlar taqsimlanishi dinamikasini taqqoslash, iste’molchilik budjeti asosida amalga oshiriladi. Qator iste’molchilik budjetlari mavjud bo‘lib, ulardan o‘rtacha oila uchun, yuqori darajada mo‘l-ko‘l budjet, minimal moddiy ta’minlanganlar budjeti, nafaqaxo‘rlar va aholining boshqa ijtimoiy guruhlari budjeti shular jumlasidandir.

Farovonlikning eng quyi chegarasini oila daromadining shunday

darajasi bilan belgilash mumkinki, undan keyin ishchi kuchini takror hosil qilishni ta’minlab bo‘lmaydi. Bu daraja moddiy ta’minlanganlik minimumi yoki kun kechirish darajasi ya’ni qashshoqlikning boshlanishi sifatida chiqadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida o‘rtacha daromad «o‘rtacha sinf» deb ataladigan tabaqalar daromadlari bo‘yicha aniqlanadi. Bunday guruh iste’molchilik savati to‘plarni ga uy, avtomashina, dala hovli, zamonaviy uy jihozlar, sayr qilish va bolalarni o‘qitish imkoniyati, qimmatli qog‘ozlar va zeb-u ziynatlar kiradi.

Bozor iqtisodiyoti aholining yuqori ta’minlangan yoki “boy” qatlarni mavjud bo‘lishini taqozo qilib, ularga aholining yuqori sifatli tovarlar xarid qilishga layoqatli bo‘lgan juda oz qatlami kiradi. AQShda aholi bu qismining shaxsiy imkoniyati 8-10 mln. dollar deb baholanadi.

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar muvafifaqiyati, aholi turmush darajasi va hayot sifatini oshirish bo‘yicha erishilgan yutuqlar yetakchi xalqaro tashkilot hamda ekspertlar tomonidan xolisona baholangan.

14.4. Daromadlar tengsizligi va uning darajasini aniqlash

Dunyodagi barcha mamlakatlar aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha daromadlar darajasi bilan bir-biridan keskin farqlanishi. Ular aholisining daromadlari darajasi o‘rtasida tengsizlik mavjudligini bildiradi. Shu bilan birga alohida olingan mamlakatlar aholisining turli qatlam va guruhlari o‘rtacha daromadlari darajasida ham farq mavjud bo‘ladi. Mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasi ham daromadlardagi farqlarni bartaraf qila olmaydi.

O‘z-o‘zidan aniqki, iqtisodiy o‘sish Daromadlarning ko‘payishiga olib keladi. Bunda butun aholi daromadlari mutlaq miqdorda asta-sekin o‘sib boradi. Daromadlarning mutlaq miqdori ko‘payib borsada, har doim ham daromadlar

tengsizligi darajasiga ta’sir ko‘rsatmasligi mumkin.

Daromadlar tengsizligini keltirib chiqaruvchi sabablar:

- kishilarning aqliy va jismoniy qobiliyatidagi farqlar;
- yangidan yaratilgan qiymatning taqsimotidagi notenglik;
- ayrim kishilarning merosga egaligi, tasodifiy omadi kelishi;
- kishilarning tadbirkorlik layoqatidagi farqlar;
- mehnat bozoridagi monopoliya va turli xil kamsitishlar.

Daromadlar tengsizligi darajasini miqdoriy aniqlash uchun jahon amaliyotida Lorens egri chizig‘idan foydalaniladi.

Nazariy jihatdan daromadlarning mutlaq teng taqsimlanish imkoniyati burchakni teng ikkiga bo‘luvchi bissektrisa o‘qida ifodalangan bo‘lib, u oilalarning har qanday tegishli foizi daromadlarning mos keluvchi foizini olishini ko‘rsatadi. Oilalarning 20%, 40% va 60%i mos ravishda barcha daromadlarning 20%, 40% va60% ni olishi lozim bo‘ladi va h.k.

Mutlaq tenglikni ifodalovchi chiziq va Lorens egri chizig‘i o‘rtasidagi farq daromadlar tengsizligi darajasini aks ettiradi. Bu farq qanchalik katta bo‘lsa, daromadlar tengsizligi darajasi ham shunchalik katta bo‘ladi. Agar daromadlarning haqiqiy taqsimlanishi mutlaq teng bo‘lsa, bunda Lorens egri chizig‘i va bissektrisa o‘qi bir-biriga mos kelib farq yo‘qoladi.

Bizning misolda AV yoysimon chiziq bilan AV to‘g‘ri chiziq o‘rtasidagi farqqa qanchalik kattalashsa daromadlarda tengsizlik shunchalik kuchli bo‘ladi. Tengsizlikning haddan oshib ketishiga yo‘l bermaslik uchun uning me’yori kiritilgan. Bunga ko‘ra boylar qo‘lida jami daromadlarning 25-35 foizi to‘planishi mumkin. Boshqa bir me’yorga ko‘ra 10 foiz boylar va 10 foiz kambag‘allar daromadi o‘rtasidagi farq 13-15 martadan oshmasligi talab qilinadi. O‘zbekistonda bu farq oxirgi yillarda 11 dan 8 martagacha qisqargan. Buni davlatning faol ijtimoiysiyosati ta’minlagan (14.3-Rasm).



14.3-Rasm. **O‘zbekistonda daromadlar tengsizligi ko‘rsatkichi**

Daromadlar tabaqalanishini aniqlashning ko‘proq qo‘llaniladigan ko‘rsatkichlaridan bir ditsel koeffitsiyenti hisoblanadi. Bu ko‘rsatkich 10% eng yuqori va 10% eng kam ta’minlanganlar o‘rtacha daromadi o‘rtasidagi nisbatni ifodalaydi.Yalpi daromadning

aholi guruhlari o‘rtasida taqsimlanishini xarakterlash uchun aholi daromadlari tengsizligi indeksi (Jini koeffistiyenti) ko‘rsatkichi qo‘llaniladi. Bu ko‘rsatkich Italiya iqtisodchisi va statistigi Korrado Jini (1889-1965-yillar) nomi bilan ataladi. Mazkur ko‘rsatkich qanchalik katta bo‘lsa, (ya’ni 1,0 ga yaqinlashsa) tengsizlik shuncha kuchli bo‘ladi. Jamiyat a’zolari daromadlari tenglashib borganda bu ko‘rsatkich 0 (nol)ga intiladi.

Larens egri chizig‘i bilan bog‘liq daromadlarining tengsizligi darajasini aniqlashning usullaridan biri Shvetsariya iqtisodchisi Paretoga tegishli. U daromadlar taqsimlanishini tadqiq qilib eng kam va eng yuqori darajada daromad oladigan tabaqalar ulushi aholining kamchilik qismini tashkil etishini ko‘rsatadi. Jumladan, AQSh da barcha aholiga nisbatan eng kam daromad oluvchilar 13,5 foizni, eng yuqori daromad oladiganlar 5-20 foizini tashkil etgan. Daromadlarning asosiy qismi o‘rtahol qatlamlarga to‘g‘ri kelgan. Daromadlarning taqsimlanishidagi bu bog‘lanish iqtisodiy nazariyada Pareto qonuni deb yuritiladi.

Aholi daromadga qarab guruhlanishini daromadlar piramidasi orqali tasavvur qilish oson bo‘ladi. Daromadlar tengsizligida katta farqlar mavjud bo‘lishining asosiy sababi, bozor tizimiga asoslangan iqtisodiyotning o‘z xususiyatlaridan kelib chiqadi. Respublikamizda ham bozor iqtisodiyotiga o‘tish, daromadlar tengsizligi muammosini keskinlashtiradi. Bu yerda asosiy rolni mol-mulkka uy-joy, ko‘chmas mulk, aksiya (va boshqalar)ga ega bo‘lish omili o‘ynay boshlaydi. Daromadlarning tabaqalanish jarayoni yetarli darajada tez boradi, minimal darajadan bir necha o‘n baravar yuqori daromadga ega bo‘lgan ijtimoiy qatlam shakllanadi. Daromadlarning tabaqalanishi mulkiy tabaqalanishni keltirib chiqaradi. Vaqt o‘tishi bilan oilalarning to‘plagan mol-mulki meros qoldirilishi sababli daromadlar tabaqalanishining kuchayishi ro‘y beradi. Har xil oilalar uchun turlicha iste’mol muhiti yaratiladi. Ijtimoiy tenglik va daromadlar taqsimotida adolatlilikni ta’minlab borish muammolari yuzaga chiqadi.

Bunday sharoitda davlatning daromadlarni qayta taqsimlash vazifasi daromadlar tengsizligidagi farqlarni kamaytirish va jamiyat barcha a’zolari uchun ancha qulay moddiy hayot sharoitini ta’minlashga qaratiladi. Daromadlar tengsizligi kamayishining taxminan 80 foizini asosan transfert to‘lovlari taqozo qiladi. Aniqroq aytganda davlat transfert to‘lovlari eng past daromad oluvchi kishilar

guruhi daromadining asosiy qismi (70-75%)ni tashkil qiladi va tengsizlikni yumshatishningeng muhim vositasi hisoblanadi.

14.5. O‘zbekistonda davlat ijtimoiy siyosatining asosiy yo‘nalishlari

Davlatning ijtimoiy siyosati tegishli markazlashgan daromadlarni tabaqalashgan soliq solish yo‘li bilan shakllantirish va uni byudjet tizimi orqali aholi turli guruhlari o‘rtasida qayta taqsimlashdan iborat. Davlat daromadlarini qayta taqsimlashda ijtimoiy to‘lovlar bilan birga bozor narxlarini o‘zgartirish (masalan, fermerlarga narxlarni kafolatlash) va ish haqining eng kam darajasini belgilash usullaridan foydalanadi. Bundan ko‘zlangan maqsad “iqtisodiyot va ijtimoiy sohadagi, eng muhimi, odamlarning hayot darajasidagi jiddiy tafovutni bartaraf etishdir” O‘zbekistonda davlatning ijtimoiy siyosatini amalga oshirish maqsadlaridan kelib chiqib, budjetning ijtimoiy yo‘naltirilganlik tavsifi saqlab qolinadi. Davlat byudjeti xarajatlar qismining 60 foizdan ortig‘i ijtimoiy ehtiyojlarni moliyalashtirishga qaratiladi.

Mustaqil ravishda band bo‘lishdan olingan daromadlarning asosiy ulushi Toshkent – 11,3 %, Samarqand – 10,3 %, Qashqadaryo – 9,6 %, Farg‘ona – 9,4 %, va Andijon – 9,2 % viloyatlari hissasiga to‘g‘ri keldi. Aksincha Sirdaryo viloyati – 2,3 %, Qoraqalpog‘iston Respublikasida – 3,1 %, Navoiy va Jizzax viloyatlarida – 4,7 % kamroq ulushni tashkil etdi (14.4-Rasm).



14.4-Rasm. **Jami mustaqil ravishda band bo‘lishdan olingan daromadlardahududlarning ulushi**

2022- yilning yanvar-iyun holatiga ko‘ra[16]

[16] www.stat.uz

Ijtimoiy to‘lovlar – kam ta’minlanganlarga pul yoki natural yordam ko‘rsatishga qaratilgan tadbirlar tizimi bo‘lib, bu ularning iqtisodiy faoliyatda qatnashishi bilan bog‘liq bo‘lmaydi. Ijtimoiy to‘lovlarning maqsadi jamiyatdagi munosabatlarni insonparvarlashtirish hamda ichki talabni ushlab turish hisoblanadi. Aholi real daromadlari darajasiga inflatsiya sezilarli ta’sir ko‘rsatishi sababli daromadlarni davlat tomonidan tartibga solishning muhim vazifasi iste’molchilik tovarlariga narxning o‘sishini hisobga olish va daromadlarni indeksatsiyalash, ya’ni nominal daromadlarni narxlar o‘sishiga bog‘liqlikda oshirib borish hisoblanadi.

Shaxsiy daromadni himoya qilishga qaratilgan ijtimoiy siyosatning muhim yo‘nalishi aholi kambag‘al qatlamlarini qo‘llab-quvvatlash hisoblanadi.

Amaliy hayotda qashshoqlikning o‘zi hayot kechirish minimumi yordamida aniqlanadi. Bu ijtimoiy va fiziologik minimumda ifodalanadi. Ijtimoiy minimum jismoniy ehtiyojlarni qondirishning eng kam me’yori bilan birga ijtimoiy talabning eng kam xarajatlarini ham o ‘z ichiga oladi. Fiziologik minimum esa faqat asosiy jismoniy ehtiyojlarni qondirishni ko‘zda tutadi.

Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda aholining ijtimoiy yordamiga muhtoj qismini aniqlashda turli xil mezonlar asos qilib olinadi. Ular jumlasiga daromad darajasi, shaxsiy mol-mulki miqdori, oilaviy ahvoli va shu kabilar kiritiladi.

Ijtimoiy siyosat - bu davlatning daromadlar taqsimotidagi tengsizlikni yumshatishga va bozor iqtisodiyoti qatnashchilari o‘rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf qilishga yo‘naltirilgan siyosatdir.

Respublikada bozor munosabatlariga o‘tish davrida ijtimoiy siyosat aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va himoya qilishga qaratiladi hamda alohida yirik yo‘nalishlarda amalga oshiriladi.

Aholini ijtimoiy himoyalash chora-tadbirlari tizimidagi eng asosiy yo‘nalish bu narxlar erkinlashtirilishi va pulning qadrsizlanish darajasi ortib borishi munosabati bilan daromadlarning eng kam va o‘rtacha darajasini muntazam oshirib borish hisoblanadi. Bunda respublikaning o ‘ziga xos yondashuvi ishlab chiqilib, daromadlar nisbatini o‘zgartirish, ish haqi, pensiyalar, stipendiyalarning, jamg‘arma banklardagi aholi omonatlari stavkalarining eng oz miqdorini bir vaqtning o‘zida qayta ko‘rib chiqish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Daromadlar nisbatini o‘zgartirishda respublikada joriy

etilgan yangi yagona ta’rif setkasi katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Bu barcha toifadagi xodimlarning mehnat haqi miqdorlarini tarif koeffitsiyentlari orqali, eng kam ish haqi vositasi bilan bevosita o‘zaro bog‘lash imkonini berdi.

Aholini ijtimoiy himoyalashning ikkinchi yo‘nalishi ichki iste’mol bozorini himoya qilish, hamda oziq-ovqat mahsulotlari va nooziq-ovqat mollari asosiy turlari iste’molini muayyan darajada ushlab turish hisoblanadi. Bunga erishishda muhimi mahsulotlar eksportini bojxona tizimi orqali nazorat qilish va ularga yuqori boj to‘lovlari joriy etish, kundalik zarur tovarlarni me’yorlangan tarzda sotishni tashkilqilish kabi tadbirlar katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Milliy valyuta joriy etilishi bilan oziq-ovqat mahsulotlarini me’yorlangan tarzda sotishdan voz kechish erkin narxlarga o‘tish imkoniyatini yaratadi.

Iqtisodiy islohotlarning ilk bosqichida ijtimoiy siyosatni amalga oshirishning uchinchi yo‘nalishi aholining kam ta’minlangan tabaqalarini ijtimoiy himoyalash vaqo‘llab-quvvatlash borasida kuchli chora-tadbirlar o‘tkazilganligi bo‘ldi. Bu yo‘nalishda aholining ijtimoiy jihatdan nochor qatlamlari pensionerlar, nogironlar, ko‘p bolali va kam daromadli oilalar, ishsizlar, o‘quvchi yoshlar hamda qayd etilgan miqdorda daromad oluvchi kishilar turli xil yo‘llar bilan himoya qilib boriladi.

Yalpi ijtimoiy himoyalash tizimidan ishonchli ijtimoiy kafolatlar va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimiga izchillik bilan o‘tish ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda, ijtimoiy himoya vositasini kuchaytirishda sifat jihatdan yangi bosqich boshlashini bildiradi.

Ijtimoiy ko‘maklashishning yangi tizimida bolalar va kam daromadli oilalar yordamdan bahramand bo‘luvchilar hisoblanib, ular uchun hamma nafaqa va moddiy yordamlar faqat mahalla orqali yetkazib beriladi. Shu maqsadda mahallalarda byudjet mablag‘lari, korxona va tashkilotlar, tadbirkorlik tuzilmalari vaayrim fuqarolarning ixtiyoriy o‘tkazgan mablag‘lari hisobidan maxsus jamg‘armalar hosil qilindi.

Ijtimoiy ko‘maklashishning yangi tizimi mehnatga rag‘batlantiradigan omillar va vositalar yangi tuzilmasi paydo bo‘lishini ham taqozo qiladi.

Respublika Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev qayd qilib o‘tganidek “...islohotlarning asosiy maqsadi-aholi uchun munosib hayot darajasi

va sifatini ta’minlashdir”[17].

Davlatning ijtimoiy siyosati ijtimoiy sohani rivojlantirishni ham o‘z ichiga oladi. “Harakatlar strategiyasi” da uning ustuvor yo‘nalishlari sifatida quyidagilar ko‘rsatiladi:

– aholining bandligi va real daromadlarini bosqichma-bosqich oshirish;

– aholini ijtimoiy himoya qilish va sog‘liqni saqlash tizimini takomillashtirish;

– arzon uy-joylar qurish bo‘yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, aholining hayot sharoitlari yaxshilanishini ta’minlovchi yo‘1-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish;

– ta’lim va fan sohasini rivojlantirish;

– yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish.

Shunday qilib, islohotlar davrida davlat aholining muhtoj tabaqalarini qo‘llab-quvvatlash bilan birga, o‘z mehnat faoliyati orqali oilasining farovonligini ta’minlashga intiluvchi kishilar uchun teng sharoit va qulay imkoniyat yaratishga harakat qiladi.

Asosiy xulosalar

1. “Ijtimoiy davlat” siyosati davr talabiga javob berdi va ijtimoiy sohada tub o‘zgarishlarni boshlab berdi. Shu maqsadda aholi turmush darajasini oshirish dasturlari ishlab chiqildi. Ular ta’lim, sog‘likni saqlash, turar joy qurilishi, ijtimoiy ta’minot davlat tizimlarini yaratish, eng kam ish haqi miqdorini tartibga solish va hokazolarni nazarda tutadi. Ushbu o‘zgarishlar shu qadar jiddiy ediki, tadqiqotchilar bozor kapitalistik xo‘jaligining sifat jihatdan yangi holatga aylanishi to‘g‘risida fikr bildira boshladilar.

2. Maltus nazariyalarining ta’siri katta edi. Boshqalar qatorida, u “gluts” deb nomlagan talab va taklifning nomutanosiblik nazariyasini ishlab chiqdi. O‘sha paytda kulgili hisoblangan, chunki u ta’minot o‘z talabini keltirib chiqaradi deb aytadigan Sayning qonunini buzgan, uning nazariyasi “Buyuk depressiya” haqidagi keyingi nazariyalarga va muxlis va iqtisodchi Jon Maynard Keynsning asarlariga asos bo‘lgan. Maltus, shuningdek, bir qator taniqli iqtisodchilar, jumladan, Devid Rikardo bilan uzoq vaqtdan beri do‘stona munosabatda bo‘lgan, ammo iqtisod haqida qarama-qarshi

[17] Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев “2022—2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг Тараққиёт стратегияси тўғрисида” ПФ-60-сон Фармони. Тошкент ш., 2022 йил 28 январь, www.lex.uz

fikr yuritganlarga qoyil qoldi va ta’sir ko‘rsatdi.

3. Kishilar ehtiyojlarini qondirish darajasi jamiyat a’zolarining alohida olgan va oilaviy daromadlari darajasiga bog‘liq. Turmush darajasini mamlakat darajasida butun aholi uchun va tabaqalashgan mikro darajada aholining alohida guruhi uchun qarab chiqish mumkin. Birinchi yondashuv turli mamlakatlarda aholining turmush darajasini aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan yalpi ichki mahsulot ko‘rsatkichi bo‘yicha aniqlab, qiyosiy tahlil qilish imkonini beradi.

4. Davlatning daromadlarni qayta taqsimlash vazifasi daromadlar tengsizligidagi farqlarni kamaytirish va jamiyat barcha a’zolari uchun ancha qulay moddiy hayot sharoitini ta’minlashga qaratiladi. Daromadlar tengsizligi kamayishining taxminan 80 foizini asosan transfert to‘lovlari taqozo qiladi. Aniqroq aytganda davlat transfert to‘lovlari eng past daromad oluvchi kishilar guruhi daromadining asosiy qismi (70-75%)ni tashkil qiladi va tengsizlikni yumshatishningeng muhim vositasi hisoblanadi.

5. Davlatning ijtimoiy siyosati ijtimoiy sohani rivojlantirishni ham o‘zichiga oladi. “Harakatlar strategiyasi” da uning ustuvor yo‘nalishlari sifatida quyidagilar ko‘rsatiladi:

- aholining bandligi va real daromadlarini bosqichma-bosqich oshirish;
- aholini ijtimoiy himoya qilish va sog‘liqni saqlash tizimini takomillashtirish;
- arzon uy-joylar qurish bo‘yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, aholining hayot sharoitlari yaxshilanishini ta’minlovchi yo‘1-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish hamda modemizatsiya qilish;
- ta’lim va fan sohasini rivojlantirish;
- yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish.

Muhokama uchun savollar

1. Ijtimoiy rivojlanish nima?
2. Ijtimoiy institut nima?
3. “Yuqori darajadagi ommaviy iste’mol davri” deganda nimanitushinasiz?
4. Nominal daromad deganda nimani tushinasiz?
5. Ixtiyorida bo‘lgan daromad deganda nimani tushinasiz?
6. Real daromad daromad deganda nimani tushinasiz?

7. Aholi daromadlari tushunchasini va uning darajasiga ta’sir ko‘rsatuvchiomillarni sanab ko‘rsating.

8. Daromadlar tengsizligining asosiy sabablarini sanab ko‘rsating vatushuntirib bering.

9. Lorens egri chizig‘i nimani anglatadi? Uning mazmunini misollaryordamida bayon qiling.

10. Jini koeffitsiyenti qanday aniqlanadi?

11. Rivojlangan mamlakatlarda mazkur koeffitsiyent qiymatining o‘zgarishtendensiyalari nima bilan izohlanadi?

12. Keyingi yillarda O‘zbekistonda aholi daromadlarini oshirish borasidaqanday natijalar qoiga kiritilmoqda?

13. Mamlakatimizdagi aholi daromadlari tarkibining o‘zgarishida qandaytendensiyalar kuzatilmoqda?

XV BOB. ENDOGEN O‘SISH NAZARIYASI VA KAPITAL JAMLANISHITA’SIRI. BILIMLAR DIFFUZIYASI

15.1. Endogen o‘sish nazariyalarining vujudga kelishi
15.2. Endogen o‘sish nazariyasida “Pol Romer modeli”ni o’rni vaahamiyati
15.3. Asosida yangi bilimlar yotadigan innovatsiyalar va bilimlardiffuziyasining tasnifi

Tayanch iboralar: *endogen, iqtisodiy o‘sish, nazariyalar, “Pol Romer modeli”, bilim, bilimlar iqtisodiyoti, yangi bilimlar, innovatsiyalar, bilimlar diffuziyasi, tasnif, nazariyalarni vujudga kelishi.*

15.1. Endogen o‘sish nazariyalarining vujudga kelishi

Hozirgi kunda jamiyat hayotida innovatsion sohaning jadal rivojlanishi, iqtisodiyotda intellektual mahsulot, axborot va ilmiy-texnik va innovatsion faoliyat ulushining o‘sishi shunga olib keldiki, innovatsiyalar xuddi foydali qazilmalar, ishlab chiqarish quvvatlari va intellektual salohiyat kabi, mamlakatning boyligi hisoblana boshladi. Mamlakatimiz va uning har bir fuqarosi manfaatlari yo‘lida innovatsion va ilmiy-texnik salohiyatdan samarali foydalanishning mamlakatda kompleksli innovatsion siyosatni shakllantirish va uni amalga oshirish uchun qonunchilik asoslari yaratmasdan turib hech ham imkoni yo‘q edi. Bozor islohotlarining amalga oshirilishi, mamlakatning jahon hamjamiyatida integratsiyalashuvi, jahon iqtisodiy tizimining bilimlar va axborot rolining o‘sishi tomon o‘zgarishi, yangi texnologiyalar va kapital bozori o‘rtasidagi aloqalar kuchayishi bilan mamlakatimiz iqtisodiyotining innovatsion rivojlanish yo‘liga o‘tishi dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Innovatsion sohada strategik va taktik choralar tizimini ishlab chiqish faqat ilmiy asosda amalga oshirilishi mumkin. Shu sababli faol harakat qilayotgan har bir shaxs, u qaysi faoliyat sohasida band bo‘lmasin, fan va texnikaning rivojlanish umumiy qonuniyatlari, yangiliklarni samarali qo‘llash usullari haqida tasavvurga ega bo‘lishi, yangiliklar kiritish nazariyasi, innovatsion faoliyatni tashkil etish va boshqarish amaliyotini, ya’ni innovatsion strategiyaning asosiy qoidalarini, shuningdek, mos keluvchi darajada innovatsion siyosatni shakllantirish va amalga oshirish xususiyatlarini bilishi zarur.

Jamiyatda 3–10 yillik davomida, 1950-yil o‘rtalaridan boshlab, 1980-yil o‘rtalarigacha g‘arb iqtisodiy fanida, iqtisodiy sistemaga chetdan olib kelingan, ya’ni ekzogen texnologik taraqqiyot konsepsiyasi hukmron edi. U Y. Tinberk, R. Salou, R. Xaroda, Dj. Xiksa va bir qator taniqli iqtisodchilar asarlarida asoslab berilgan.

Y(t)=[K(t), (15.1);

L(t), t] ko‘rinishli ishlab chiqish funksiyasiga ega bo‘lgan uch faktorli neoklassik modeli ramkasida olib borilgan turli tadqiqotlar, AQSH iqtisodiy rivojlnish dinamikasining statistik massiv ko‘rsatkichlarida, turli davlatda, ilmiy texnologik taraqqiyotni iqtisodiy o‘sishga bo‘lgan ulushining mos kelmaydigan, lekin yuqori bahosini bergan. Buning hammasi zamonaviy iqtisodiyotda texnologik taraqqiyotning muhim roli haqida dalolat beradi. Ammo nazariyotchilarning ko‘p yillik mehnatiga qaramay, ilmiy-texnik taraqqiyotning o‘zi neoklassik modellar doirasida eng asosiy mehnat va kapitaldan tashqari ishlab chiqarish faktorlarining ta’sirini izohlovchi ishlab chiqarish funksiyasining yig‘ma argumenti sifatida namoyon etilgan. Teng o‘sish sharoitida mehnat samaradorligining bu kabi modellarda neytral ilmiy texnologik taraqqiyoti evaziga ta’minlangan va maqsadning doimiy sarmoyadorligi sharoitidagi mehnat sarmoyadorligini oshirish bilan parallel yurgan.

Neoklassik model holatidan shu kelib chiqqanki, zamonaviy texnologiyalarga teng huquqqa ega bo‘lgan barcha mamlakatlar teng o‘sish traektoriyasiga chiqish uchun o‘rta me’yorda mehnat unumdorligining bir-biri bilan bog‘laydigan rivojlanish sur’atlariga ega bo‘lishi kerak. Lekin R. Solou takidlaganidek, real rivojlangan mamlakatlar misolida ko‘rinishidir, ammo Lotin Amerikasi, Afrika va Osiyo mamlakatlari misolida ko‘rish o‘rinli bo‘lmaydi. Mazkur holat, **inson kapitalining ko‘payishi g‘oyasiga asoslangan endogen ilmiy-texnik taraqqiyot modelini** yaratish bo‘yicha urinishlarini hal qilishda muhim rol o‘ynaydi. Albatta bu kabi urinishlar avval ham amalga oshirilgan. Bunga misol qilib, mashhur bo‘lgan “ishlab chiqarish jarayonida o‘qitish” modelini yodga olish mumkin (K. Errov, X. Uzava modellari). 1980-yil o‘rtalarida muhim nazariy burilish yuz berdi. P. Romer,

R. Lukas, F. Agion, P. Xovuit, Dj. Gressman, E. Xelpmen va bir qator izdoshlari texnologik o‘zgarishga ega bo‘lgan, o‘rganilayotgan makroiqtisodiy sistema generatsiyasi imkoniyatlarini nazarda tutuvchi iqtisodiy o‘sish modelini yaratishga qaratilgan, ya’ni sa’y-

harakatlarini qo‘llashgan. Natijada, modellashgan tizim mehnat va kapital ishlab chiqarishning an’anaviy faktorlar xarajatining tengligi sharoitida o‘sishga nisbatan qo‘shimcha impulsga ega bo‘ladi. Umumiy ko‘rnishda bu ishlab chiqarish hajmidan kelib chiqadigan samaraning ortishini induksiya qiladigan, inson kapitalining yig‘ilishi hisobiga sodir bo‘ladi.

Endogen texnologik progress bilan iqtisodiy o‘sish modelining yangi sinfi paydo bo‘lishi iqtisodiy dinamika muammolariga bo‘lgan qiziqishning ortishiga olib keldi. Bunda asosiy rolni, jiddiy amaliy ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin bo‘lgan, mazkur modellarning uch muhim oqibati o‘ynadi. So‘z quyidagilar haqida boradi:

1. Yangi bilim olish sharoitida ishtirok etadigan, zaxiralar o‘sishidan kelib chiqqan bashorat qilingan masshtab effekti haqida.
2. Inson kapitalining ko‘payishini nazorat qiladigan, mamlakatning tegishlisiyosati yordamida iqtisodiy o‘sish sur’atlariga ta’sir etish imkoniyati haqida.
3. Iqtisodiy muhit o‘lchami roli, xususan, xalqaro savdo ahamiyati,isobalizatsiya va dizintegratsiya jarayonlari haqida.

Shu usulda Dj. Grossman va E. Xelpmen ikki mamlakat o‘rtasida inson kapitalini taqsimlashga yo‘l qo‘yiladigan 3 sektorli modellar (ilmiy tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlanma (ITTKI) muhiti oraliq mahsulotlar ishlab chiqarishi, ko‘rsatishganki, teng traektoriyasiga yaqinlashgan sari transnatsional korporatsiyalar shakllanishi mumkin bo‘ladi. Mazkur model asosida bir qator qiziqarli va jadal xulosalar qilindi. Xususan, bundan kelib chiqadiki, ITTKIni qo‘shish subsudiya qilish, tadqiqot va izlanishlar olib borish ishlarida birmuncha hukmron bo‘lgan mamlakatda, modellanayotgan tizimning iqtisodiy o‘sish umumiy sur’atlarining ortishiga olib keladi. Shunga o‘xshash subsudiyalar innovatsion faoliyatga nisbatan yakuniy mahsulot ishlab chiqarish ko‘proq rivojlangan mamlakatda zid natija berishi mumkin. Proteksionistik savdo-sotiq faqatgina ITTKI muhiti rivojlanish darajasi nisbatan pastroq bo‘lgan mamlakat tomonidan amalga oshirilganidagina iqtisodiy o‘sishga yordam beradi. Lekin tadqiqot va o‘rganish ishlari nisbatan ustunlikka ega bo‘lgan mamlakat tomonidan amalga oshirilsa, natija beradi. Mazkur xulosalar modellanayotgan gipotetik tizimga aloqador. Taqdim etilgan o‘sish modelidan kelib chiqqan nazariy xulosalar endogen texnik jarayon bilan birga, globalizatsiya jarayonlarining chuqurlashuvi bilan bog‘liq bo‘lgan jahon iqtisodiyoti rivojlanishining bir qator tendensiyalarida

aniq tasdiqqa ega bo‘ladi. Shunday qilib, ITTKI xarajatlarining 18–14% Buyuk Britaniyada xorijiy kapital evaziga qoplanadi. Ikki taraflama va ko‘p taraflama asosidagi xalqaro ilmiy hamkorlik dasturlarini amalga oshirish bilan birga, korporativ darajadagi xalqaro texnologik kooperatsiyaning yangi tashkiliy shakllarini intensiv rivojlantirish ham bunga yordam beradi. Ammo endogen texnologik jarayonga ega bo‘lgan o‘sish modelini yaratish asosiga qo‘yilgan bir qancha nazariy yo‘nalishi, shuningdek, bu modellardan olingan xulosalarning impirestik tasdig‘i bilan bog‘liq bo‘lgan yana bir talay savollar mavjud. Misol tariqasida P. Romer va F. Agion, P. Xouvtit ishlarida o‘rganilayotgan yondashuvlarini ko‘rib chiqamiz.

15.2. Endogen o‘sish nazariyasida “Pol Romer modeli”ning o’rni va ahamiyati

Endogen iqtisodiy o‘sishda P. Romer moduli asosida 3 ta asosiy qism yotadi:

1) iqtisodiy o‘sishnng muhim faktorlaridan biri – jamiyat qo‘l ostida bo‘lgan nisbatan mukammal instruksiyalar kabi namoyish etila oladigan texnologik o‘zgarishlardir.

2) shunga o‘xshash texnologik o‘zgarishlar va olib chiqayotgan bozor rag‘batlariga ta’sir etadigan insonlar faoliyatiga ko‘ra ko‘p hollarda sodir bo‘ladi.

3) xomashyo materiallarining turli ko‘rinishlarini qo‘llashga oid yo‘l-yo‘riqlar, prinsipial ravishda boshqa iqtisodiy tovarlarda farq qiladi.

Yangi texnologiyalarni yaratish doimiy ishlab chiqarishning to‘xtashiga ekvivalent bo‘ladi. Bu texnologiyalarning keyingi qo‘llanilishi ishlab chiqaruvchi tomonidan hech qanday sarf-xarajatni talab qilmaydi.

Romer iqtisodni uchta asosiy sektorga bo‘ladi. Birinchi, tadqiqot sektorida inson kapitali N_A va mavjud bilimlar zaxirasi (A)dan foydalanish natijasida yangi bilim olinadi. Yangi bilim qo‘shilishini quyidagi formula bilan ta’riflash mumkin:

$$A=\delta N_A A, \quad (15.2);$$

Bu yerda:

δ-ilmiy mahsuldorlik parametri.

Mazkur formula borasida Romerning ta’kidlagani shunisi bilan qiziqki, injenerlik oliy o‘quv yurti bitiruvchilari 100 yil avval ham hozirgilar kabi inson kapitaliga ega bo‘lishgan, chunki bir xil vaqt

davomida o‘qishgan va shuning uchun amaliy mexanikasiga ega bo‘lishmagan. Ammo hozirgi davr muhandisining ish unumdorligi nisbatan yuqori bo‘lishi kerak, chunki u ko‘proq bilim zaxirasi (A)ga ega bo‘ladi. Ikkinchi, oraliqlar sektor firmalari texnologik asbob-uskuna ishlab chiqarish uchun tadqiqot sektoridagi ilmiy bilimlarni olishadi. Bu sektordagi har bir firma monopolist hisoblanadi: u o‘z mahsulotini ishlab chiqarish patentiga ega bo‘ladi va uni ayirboshlashdan foyda olishi mumkin. Taxmin qilinishicha patent uzoq vaqt amal qiladi. Ishlab chiqarish vositalari – mehnat xarajati L va inson kapitali asosidagi iqtisodiy uchinchi sektor (Y) mijozga mo‘ljallangan yakuniy mahsulot ishlab chiqarishini ta’minlaydi.

Xususan, Romer taqdim etayotgan formula huddi o‘sha Kobba-Dushas ishlab chiqarish funksiyasini beradi, faqat bir tafovuti bilan kapital K bu yerda bitta

Shu bilan asosiy kapital strukturasining prinsipial ahamiyatiga urg‘u beriladi. Agar

R_A – ya’ni texnologik ishlab chiqarish narxi, W_H- esa inson kapitali birligining tadqiqot sektorida qo‘llash narxi bo‘lsa, u holda ular o‘rtasida bog‘liqlik o‘rnatiladi.

$$W_H = R_A \bullet \delta A \quad (15.3);$$

Model shuni takidlaydiki, inson kapitali tadqiqot sektori va yakuniy mahsulotishlab chiqaruvchi sektor o‘rtasida taqsimlanadi.

$$H = Hy + H_A \quad (15.4);$$

Oraliq sektor firmalari yuqorida so‘z ketgan modelga asosan o‘z inson kapitaliga ega emaslar. Ular birinchi sektorga yangi texnologiya ishlab chiqarishni yaratish uchun omillar mehnatiga haq to‘laydilar va uchinchi sektor yakuniy mahsulotini ishlatadi.

Romer modelidagi erishilgan bilim darajasi (A)ga texnologik rivojlanishning aniq darajasi to‘g‘ri keladi. Uning ko‘rsatkichi esa qo‘llanilayotgan texnologiyalar sonidir. Bu ko‘rsatkich ham (A) orqali ifodalanadi. (A) kattaligi yangi bilimlar hajmi oshishi va yangi texnologiyalar paydo bo‘lishiga qarab o‘zgaradi. Shu bilan bir qatorda ishlab chiqarish vositalarining turli xil ko‘rinishlari soni ham o‘zgaradi. Bundan kelib chiqqan holda doim (A)ning shunday maqsadini belgilash mumkinki bu yerda, X_1 =0, barcha i ≥ A

Modelga asosan A bilimining texnologik komponenti bu – bilimning raqobatchi komponenti – H inson kapitalidan farqliroq noraqobat tovardir. Ammo agar birinchi sektorda har bir mutaxassis A bilim hajmining to‘lig‘iga ega bo‘lsa, u holda II va III sektorlarda u

yoki bu g‘oyani qo‘llash amaldagi patent qonuni tomonidan nazorat qilinadi. II sektor firmasi yangi perespektiv texnologik g‘oyaga ega bo‘lishi va uni qabul qilganidan so‘ng, u uni qo‘llashga bo‘lgan monopol huquqini patent orqali himoya qiladi va yakuniy mahsulot ishlab chiqarishga moslashgan, III sektor firmalari uchun mazkur ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yadi.

Model taxmin qilishicha ishlab chiqarish asbob-uskunasini ishlab chiqarish uchun yakuniy mahsulotning η–o‘lchovi sarflanadi.

Uskuna sotilmaydi, balki qiziqqan firmalarga ijaraga beriladi p(i). Agar i– texnologiyasi uchun II sektorning hech bir firmasi uskuna ishlab chiqarmasa, unda p(i)q∝ ga teng deb hisoblanadi. U holda barcha uch sektorli sistema umumiy kapital o‘zgarishi quyidagi formula bilan ifodalanadi:

$$K(t)=Y(t)-C(t)=n\sum_{i=1}^{\infty}x_i \quad (15.5);$$

Bu yerda: c(t)–iste’molning agregat funksiyasini namoyish etadi.

YeI universitetidan amerikalik Uilyam Nordhaus hamda uning vatandoshi, Jahon bankining sobiq bosh iqtisodchisi Pol Romerga 50-yubiley mukofoti topshirildi. Bu mukofot rasman Nobel mukofoti hisoblanmasa ham, lekin xuddi o‘sha marosimda aynan o‘sha qo‘mita tomonidan beriladi.



15.1-Rasm. **Uilyam Nordhaus va Pol Romer.**

Ushbu laureatlar o‘nlab yillar davomida global yondashuvni talab qiladigan global muammolarga yondashdi. Shuning uchun ham Shvetsiya Fanlar Akademiyasi ularni Nobel mukofotiga loyiq deb topdi.

Romer va Nordhaus asosiy savolga qarab yana bir qadam tashladi nima uchun iqtisod o‘sadi? O‘sishni barqarorlashtirish va har tomonlama rivojlantirish uchun nima qilish kerak? Bu esa o‘z

navbatida kambag‘allik va tengsizlikka barham beradi. Romer iqtisodiy o‘sishning asosida texnologik rivojlanish yotadi degan nazariyani ishlab chiqdi. Shuningdek, texnologiya vujudga kelishining eng yaxshi muhiti bozor iqtisodiyoti ekanligini ham isbotlab berdi.

Nordhaus esa issiqxona gazlarining chiqindilari iqtisodiy rivojlanish bilan qanday bog‘langanini tushuntirib berdi. Shu bilan birga, iqlim o‘zgarishi oqibatida odamlarning yaxshi hayoti qay darajada yomonlashishini ham hisoblab ko‘rsatib berdi.

Jahon iqtisodiy o‘sishining jumbog‘i haligacha yechilmagan. Biroq, Romer va Nordhaus jumboqning qismlarini birlashtirib, turmush darajasini yaxshilashga qaratilgan siyosiy qarorlar uchun ilmiy asos yaratdi.

Romer va Nordhaus iqtisoddagi uzoq muddatli tendensiyalarni o‘rganyapti: bu tendensiyalar qisqa davriy o‘zgarishlarni emas, balki juda uzoq vaqtni talab qiladi. Ular hukumatga zarardan qochishi uchun siyosatni vaqtida o‘zgartirishga imkon beradigan model yaratadi.

1920-yilda ingliz iqtisodchisi Artur Pigu “Farovonlikning iqtisodiy nazariyasi” asarida “yirtqich” kapitalizm va erkin bozor umumiy boylik va farovonlikning o‘sishi uchun maqbul muhit emasligini yozgan. Barcha moliyaviy muammolar davlat tomonidan tartibga solinishi kerak.

Lekin, kasallikning tashxisini aniqlash va vaqtida e’tibor berilmasa jiddiy kasallikka aylanib ketishi haqida ogohlantirish bir masala. Davolash usullarini aniqlash esa boshqa bir masala. Nordhaus va Romer aynan shu narsadan foydalandi. Ular o‘z sohasiga qarab alohida ilmiy modellarni yaratdilar. Ushbu ilmiy modellar bozor bilan tartibga solinmaydigan iqtisoddagi kamchiliklarni qanday bartaraf etish, va buning uchun siyosatchilar va mansabdor shaxslarga nima qilish kerakligi haqida aniq ma’lumotg`a ega bo‘lishga imkon beradi.

Nordhausning ixtisosligi–iqtisodiyotga zarar keltiradigan va hayot darajasini pasaytirib yuboradigan tabiiy faktorlar. U issiqxonadan chiqayotgan gaz va iqlim o‘zgarishi rivojlanishni qanchalik ortga surishini baholash uchun model yaratdi. Endi bu modellar hamma joyda qo‘llaniladi.

Romer esa aksincha, ijobiy omillarni baholash bilan shug‘ullanadi: u qanday sharoitda yangi g‘oyalar va texnologiyalarning tez-tez paydo bo‘lishi va iqtisodiy o‘sish ular qanday ta’sir qilishiga javob beradi.

Texnologik rivojlanish iqtisodiy o‘sishning manbai sifatida xizmat qilishini 1950-yillarda amerikalik Nobel mukofoti sovrindori Robert Solou aytgan edi. Romer uning nazariyasidagi chala joylarni to‘ldirdi. U nima uchun barcha mamlakatlar ham bir xil foyda ko‘rmasligini tushuntirdi va texnologik yutuqlar bozor iqtisodiyotiga hissa qo‘shishini isbotladi.

Shu bilan birga, u yangi texnologiyalardan nafaqat ularning ishlab chiquvchilari emas, balki hamma foyda ko‘rishini aytdi.

Xususan, yutuqqa erishish uchun moliyaviy kuch kerak. Katta pul esa faqat yirik kompaniyalar va monopoliyalarda bor. Bundan tashqari, asosiy tadqiqotlar foyda keltirmaydi, chunki ular eng yaxshi bozor firmalari emas, balki universitetlartomonidan amalga oshiriladi.

Bundan quyidagicha xulosa chiqadi: mutlaqo erkin bozorda texnologik rivojlanish samarasiz bo‘ladi. Uni mamlakat va butun dunyo darajasida tartibga solish kerak. Monopoliyani cheklash, mualliflik huquqlarini himoya qilish, universitetlarning rivojlanishini rag‘batlantirish, tadqiqotlar va rivojlanishga sarmoya kiritganlarga imtiyozlar berish kerak.

Romer g‘oyalar va texnologiyalar yig‘indisiga asoslangan iqtisodiy o‘sishni jismoniy kapitalga asoslangan o‘sishdan ko‘ra barqaror ekanligini isbotladi.

“Rivojlangan iqtisodiyot sarmoya eng maqbul darajada bo‘lganida, ammo aholi ko‘paymagan paytda tez o‘sib boraveradi,” — deydi iqtisodchi Konstantin Sonin o‘z blogida Romerning mukofotiga izoh berar ekan.

15.3. Asosida yangi bilimlar yotadigan innovatsiyalar va bilimlar diffuziyasining tasnifi

Asosida yangi bilimlar yotadigan innovatsiyalar juda qiyin nazorat qilinadigan bo‘lishi mumkin. Ular uchun, masalan, ishlab chiqish muddatining eng uzoqligi xarakterli yangi bilimlar paydo bo‘lgan vaqtdan ularni amaliyotda qo‘llash mumkin bo‘lgan texnologiyaga aylantirishgacha ancha katta muddat talab qilinadi. Bu texnologiya muayyan jarayon, mahsulot yoki xizmat timsolida amalga oshirilishi uchun ham kam vaqt sarflanmaydi. Bu turdagi innovatsiyalar odatda birdaniga turli sohalarda bir nechta kashfiyotni uyg‘unlashtirishga tayanadigan hollarda muvaffaqiyatga uchraydi. Yuqorida sanab o‘tilgan omillar vaqt bo‘yicha kesishishi mumkin, demak, bir vaqtning o‘zida kompaniyada o‘z kuchlarini sarflash uchun

birdaniga bir nechta yo‘nalish tanlash imkoniyati paydo bo‘lishi mumkin. Asosida yangi bilimlar yotadigan innovatsiyalar bu – tadbirkorlikning «super yulduzlari»dir. Ular eng katta e’tibor qaratiladigan obyektlarga aylanadi va eng ko‘p daromad keltiradi. Aynan ular jamiyat nigohida asl yangiliklar hisoblanadi. Asosida yangi bilimlar yotadigan innovatsiyalarni amaliyotga joriy qilinishi va ommalashtirilishi **bilimlar diffuziyasi**ni ifodalaydi. Bunday yangiliklar kiritishning hammasi ham keng miqyosli va ahamiyatli emasligiga qaramay, ularning eng muhim (epoxal) yangiliklar kiritish umumiy hajmidagi ulushi juda katta. Ular boshqalardan asosiy xislatlari: vaqt bo‘yicha qamrovi, muvaffaqiyatsizliklar ulushi, oldindan aytish mumkinligi, ularni amalga oshiradigan subyektlarga qo‘yiladigan talablar darajasi va hakozalar bo‘yicha farq qiladi.

Shu bilan bir paytda aynan shu yangiliklar eng qiyin boshqariladigan hisoblanadi, yangi bilim paydo bo‘lishi va uni amaliy foydalanish, bozorda taklif etiladigan mahsulot (xizmat) ko‘rinishiga keltirish o‘rtasidagi uzilishlar tufayli uzoq vaqt davom etishi bilan farqlanadi. Ular eng ko‘p ilm talab qiladi ham. Boshqa yangiliklardan ko‘ra muvaffaqiyatli amalga oshirish aynan shu turdagi yangiliklar uchun ko‘proq darajada ko‘zlangan maqsadni aniqroq tushunishni, aniqroq strategik yo‘nalishni, mos keladigan siyosat tanlashni, risk darajasini pasaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar tizimi ishlab chiqish va amalga oshirishni talab qiladi.

Innovatsion jarayon innovatsiyalar diffuziyasi bilan yakun topadi. **Innovatsiyalar diffuziyasi** bir marta o‘zlashtirilgan innovatsiyani yangi mintaqalar,yangi bozorlar va yangicha moliyaviy-iqtisodiy sharoitlarda tarqatishni ifodalaydi. Diffuziya moliyaviy innovatsiya tavsifnomasi yoki uni harakatlantirish shartlarining o‘zgarishi (bank foiz stavkasi, depozit muddati va h.k.ning o‘zgarishi), yangi sotuv

bozoralarini egallab olish va hakozolar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Innovatsion faoliyat, ayniqsa fundamental va amaliy tadqiqotlarni bajarishda noaniqlik va

xatarning yuqori darajasi bilan ta’riflanadi. Yangilik kiritish loyihasini tanlash va qarorlar qabul qilishda ham xatar elementi juda katta. U axborotlarning to‘liqligi ko‘zda tutilgan loyihaning sifati, qarorlar qabul qilish usullari va yondashuvlarga bog‘liq. Yangi tovarni seriyali ishlab chiqarish zarurati eng kam bo‘ladi. Ammo bozorga chiqish va yangilik kiritish diffuziyasida yangiliklarning noaniqlik va

xatar elementlari yana o‘sadi, yangiliklarni sotishning barqaror hajmi va yuqori raqobatbardoshligida esa kamaya boshlaydi. Keyingilar innovatsiyalar yashash davrlarining har xil bosqichlarida ularni boshqarish xususiyatlaridir. Ko‘pgina ijodiy g‘oyalar bilimlar o‘sishining mantiqiy izchil jarayoni va tafakkurning an’anaviy sharhi bo‘lmaydi. Tijorat novatorlik tashkilotlari hamma vaqt ham beixtiyor ijodiy hodisalarga bog‘liqdir. Korxonaning oddiy, an’anaviy faoliyatida “boshqarish usullari va yondashuvlari tasodifga juda kam joy qoldiriladi, ammo tadbirkorlik loyihalarining muvaffaqiyati ko‘proq darajada bu loyihalar, asoslangan g‘oyalar va kontseptsiyalarning sifatiga bog‘liq”, - deb yozadi yangiliklar bo‘yicha mashhur mutaxassis

Brayn Tviss. **Yangilik diffuziyasi.** Yangilik kolilersializatsiyasi jarayoni ularning iqtisodiyot sistemasida tarqalishi bilan kuzatiladi. Avval bu kabi tarqalish bir necha tashkilot doirasida bo‘lib o‘tadi, lekin keyinroq keng quloch oladi. Bu jarayon diffuziya deyiladi. Yangilik diffuziyasi – iqtisodiyotda ularning tarqalish jarayoni. Yanada aniqroq aytganda bu jarayon eski texnologiyalarni siqib chiqarilishi orqali, shuningdek, mijozlar tomonidan anologi bo‘lmagan yangi texnologiyalarni qabul qilish orqali ifodalanadi. Diffuziya jarayonlari, texnologiya rivojlanish jarayonlari kabi egri chiziq orqali ifodalanishi mumkin. Bu holatda ular almashtiruvchi egri chiziqlar deb atalishi mumkin. Almashtiruvchi egri chiziq parametrlari yangilik xususiyati, shuningdek, bir qator iqtsodiy parametrlarga bog‘liq. Bu kabi egri chiziq parametrlarni aniqlashning turli xil usullari mavjud. Tadqiqotlar jarayonida S shakl egri chiziq xususiy holati o‘rganiladi – bu Perla egrichizig‘i deyiladi. Bu egri chiziq quyidagi ko‘rinishga ega:

$$Y_t = L/(1 + ae^{-kQbt}) \quad (15.6);$$

Bu yerda:

Yt – t vaqt nuqtasida o‘zgaruvchanlik hajmit – vaqt faktori

a, k, b – son parametrlari (konstantalar)

L – u o‘zgaruvchanlikning yuqori chegarasie-son, natural logarifm

Mashhur amerikalik innovatsiyalar targ‘ibotchisi E. Mensfild yangilik diffuziyasi jarayoni modulini AQSh iqtisodyotining bir necha tarmoqlarida ishlab chiqish uchun mazkur egri chiziqni qo‘llagan. O‘rganilayotgan diffuziya ko‘rsatkichi sifatida t-vaqtida bo‘lgandagi yangilikni qabul qilgan firmalar o‘rganib chiqilgan. Yuqori chegara sifatida yangilik qabul qila olgan tarmoq firmalar soni nazarda

tutilgan. Misol uchun “Shishalarni tezkor to‘ldirgich” yangiligi uchun pivo sanoatida Perla egri chizig‘i Mensfildga ko‘ra quyidagi ko‘rinishga ega:

$$Y_t = 16/(1 + ae^{-(-28\ 58Q0\ 36t)}) \quad (15.6);$$

Parametr o‘lchovi b(0,36), iqtisodiy faktorlar bog‘liqligiga tayanadi, sotib olish muddati yangilik sotib olish muddati bilan munosabat, shuningdek, o‘rta birlamchi sarmoyaning tarmoq firmalar fondlari o‘rtacha hajmiga bo‘lgan munosabatidir. Innovatsiyalar diffuziyasi bir marta o`zlashtirilgan innovatsiyani yangi mintaqalar, yangi bozorlar va yangicha moliyaviy-iqtisodiy sharoitlarda tarqatishni ifodalaydi.

Asosiy xulosalar

1. Endogen texnologik progress bilan iqtisodiy o‘sish modelining yangi sinfining paydo bo‘lishi iqtisodiy dinamika muammolariga bo‘lgan qiziqishining ortishiga olib keldi. Bunda asosiy rolni, jiddiy amaliy ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin bo‘lgan, mazkur modellarning uch muhim oqibati o‘ynadi.

2. Endogen iqtisodiy o‘sishda P. Romer moduli asosida 3 ta asosiy qism yotadi:

– iqtisodiy o‘sishnng muhim faktorlaridan biri – jamiyat qo‘l ostida bo‘lgan xomashyo materiallarining turli chatishuvini ishlatishga imkon yaratadigan,

nisbatan mukammal instruksiyalar kabi namoyish etila oladigan texnologik o‘zgarishlardir;

– shunga o‘xshash texnologik o‘zgarishlar va olib chiqayotgan bozor rag‘batlariga ta’sir etadigan insonlar faoliyatiga ko‘ra ko‘p hollarda sodir bo‘ladi;

– xomashyo materiallarining turli ko‘rinishlarini qo‘llashga oid yo‘l-yo‘riqlar, prinsipial ravishda boshqa iqtisodiy tovarlarda farq qiladi.

3. **Innovatsiyalar diffuziyasi** bir marta o‘zlashtirilgan innovatsiyani yangi mintaqalar, yangi bozorlar va yangicha moliyaviy-iqtisodiy sharoitlarda tarqatishni ifodalaydi.

4. Yangi bilimlar yotadigan innovatsiyalarni amaliyotga joriy qilinishi va ommalashtiilishi **bilimlar diffuziyasi**ni ifodalaydi. Bunday yangiliklar kiritishning hammasi ham keng miqyosli va ahamiyatli emasligiga qaramay, ularning eng muhim (epoxal) yangiliklar kiritish umumiy hajmidagi ulushi juda katta. Ular boshqalardan asosiy xislatlari: vaqt bo‘yicha qamrovi,

muvaffaqiyatsizliklar ulushi, oldindan aytish mumkinligi, ularni amalga oshiradigan subyektlarga qo‘yiladigan talablar darajasi va hakozalar bo‘yicha farq qiladi.

5. **Yangilik diffuziyasi** – iqtisodiyotda ularning tarqalish jarayoni. Yanada aniqroq aytganda bu jarayon eski texnologiyalarni siqib chiqarilishi orqali, shuningdek, mijozlar tomonidan anologi bo‘lmagan yangi texnologiyalarni qabul qilish orqali ifodalanadi.

Muhokama uchun savollar

1. Endogen iqtisdiy o‘sish nima?
2. Endogen o`sish nazariyalari qachon vujudga kelgan?
3. Endogen o`sish nazariyalari mualliflari kimlar?
4. Endogen ilmiy-texnik taraqqiyot modeli haqida nimalar bilasiz?
5. Endogen texnologik progress nima?
6. Inson kapitalini taqsimlashga yo‘l qo‘yiladigan 3 sektorli modellar mualliflari kimlar va qanday asoslab berishgan?
7. “Pol Romer modeli”ni gapirib bering.
8. “Pol Romer modeli” nechta tarkibiy qismdan iborat?
9. “Farovonlikning iqtisodiy nazariyasi” asoschisi kim?
10. Bilimlar diffuziyasi nima?
11. Innovatsiyalar diffuziyasi xususiyatlari
12. Yangilik diffuziyasi mohiyatini tushintiring

XVI BOB. IQTISODIY O‘SISHDA URBANIZATSIYA

16.1. Urbanizatsiya jarayonining global va regional jihatlari
16.2. O‘zbekistonda iqtisodiy o‘sish va urbanizatsiya
16.3. Aholining takror hosil qilinishi va uning turlari
16.4. Aholi migratsiyasi va uning tasnifi
16.5. Mehnat migratsiyasini iqtisodiy o‘sishga ta’siri

Tayanch iboralar: *urbanizatsiya, ijtimoiy, iqtisodiy, geosiyosiy, global, shahar aholisi, qishloq aholisi, shakllanayotgan urbanizatsiya, rivojlangan urbanizatsiya, yetuk urbanizatsiya, suburbanizatsiya, konsepsiya, aholini takror hosil qilish, aholini kengaytirilgan takror hosil qilish, depopulyatsiya, demografik inqiroz, yashovchanlik koeffitsiyenti, tabiiy o‘sish, aholi migratsiyasi, migratsiyaning demografik nazariyasi, migratsiyaning funksiyalari.*

16.1. Urbanizatsiya jarayonining global va regional jihatlari

Bugungi keng miqyosli ijtimoiy-iqtisodiy va geosiyosiy o‘zgarishlar davrida shaharlarning o‘sishi va taraqqiy etishi tezlashib, benihoya murakkab, serqirrali urbanizatsiya jarayonining jamiyat hayotidagi o‘rni va ahamiyati kundan-kunga oshib, kengayib borishini ta’minlamoqda. Shuning uchun ham ushbu jarayonni har tomonlama o‘rganish nafaqat nazariy nuqtai nazardan, balki ayrim regional va global miqyosdagi amaliy masalalar, jumladan aholi va u tarqalgan, joylashgan manzilgohlarning hududiy tarkibini hamda undan ham muhim va miqyosli vazifasi jamiyatni hududiy tashkil etilganligini takomillashtirish bilan aloqador muammolarni hal qilishda zarurdir.

Urbanizatsiya global xususiyatga ega, uning qamrovi doirasiga u yoki bu darajada jahondagi barcha mamlakatlar tushib qolgan. Lekin buning oqibati jahonning turli mintaqalarida turlicha bo‘lmoqda. Mamlakatlarning bir qismida shaharlar soni va ularda mavjud katta va yirik shaharlar hamda shahar aglomeratsiyalarining rivojlanishi natijasida shahar turmush tarzi tez va katta miqyoslarda hayotga singayotgan bo‘lsa, boshqa guruh mamlakatlarida mazkur jarayon endi-endi boshlanmoqda. Ma’lumki, **urbanizatsiya (lotincha urb - “shahar”)** - *bu shaharlar va shahar aholisining o‘sish, shahar turmush tarzining keng tarqalish jarayonidir*. Shaharlar eng qadimgi davrlarda vujudga kelib, qishloqlar bilan birgalikda aholi

manzilgohlarining ikkita asosiy turidan birini tashkil qiladi. Shaharlar tarixan ijtimoiy mehnat taqsimoti natijasida paydo bo‘lgan va rivojlangan. Qadimgi davrlarda shaharlar hunarmandchilik, savdo-sotiq, ma’muriy boshqaruv, mudofa ishlari, diniy ibodatxona va ziyoratgohlar negizida vujudga kelgan.

Tarixdan ma’lumki, bir necha ming yillar avval yer yuzida Fiva, Bobil (Vavilon), Ur, Afina, Rim, Iskandariya, Karfagen, Moxenjo-daro, Samarqand (Marokand) kabi yirik shaharlar mavjud bo‘lgan. Ammo haqiqiy shaharlashuv jarayoni qizg‘in sur’atlar bilan faqat XVIII asrda, dastlab Yevropada, keyinchalik esa Shimoliy Amerikada boshlandi. Bu hodisa G‘arb davlatlarida o‘sha paytda ro‘y bergan sanoat inqilobining natijasi bo‘ldi. Dunyoning rivojlanayotgan mamlakatlarida esa urbanizatsiya jarayonlari XX asming o‘rtalarida ijtimoiy- iqtisodiy va siyosiy sohalardagi ijobiy o‘zgarishlar tufayli boshlandi va hozirgi kungacha yuqori sur’atlar bilan davom etmoqda.

So‘nggi 200 yil davomida dunyo aholisida shahar aholisining ulushi muntazam ravishda o‘sib borgan. 1800-yilda insoniyatning taxminan 3 % i shahar joylarida istiqomat qilgan edi. 1900-yilga kelib bu raqam 14 % gacha ko‘tarildi. Yarim asrdan so‘ng, 1950-yilda jahon urbanizatsiya darajasi 29 % ni tashkil etdi, 1990-yilda bu ko‘rsatkich 45 %, 2001-yilda - 47 % ga yetadi. 2010-yilga kelib shaharliklarning jahon aholisi tarkibidagi ulushi 50 % dan ortdi va hozirgi kunda u54 % ga teng.

Urbanizatsiya jarayoni 3 ta asosiy bosqichdan o‘tib rivojlanadi.

Shakllanayotgan urbanizatsiya bosqichida shahar aholisining ulushi 50% dan past bo’lib, yangi shaharlar vujudga keladi, ayrim qishloq joylar shahar manzilgohlari toifasiga o‘tib ketadi. Ayniqsa, yirik shaharlar tez o‘sishni boshlaydi. Bunda eng yirik shahar boshqalarga nisbatan ancha ilgarilab ketadi. Eng yirik shaharlarning o‘sishi ayrim hollarda “soxta” urbanizatsiya tarzida, ya’ni shahar chekkalarida qishloqdan ko‘chib kelgan past daromadli aholi uy-joylarining zichlashib borishi ko‘rinishida kechadi. Hozirda Osiyo va Afrikadagi qator rivojlanayotgan mamlakatlar urbanizatsiyaning ana shu bosqichini kechirmoqdalar. Rivojlangan urbanizatsiya bosqichi “millioner” shaharlarning yuqori sur’atlar bilan o‘sishi hamda yirik shaharlar atrofida aglomeratsiyalarning vujudga kelishi bilan tavsiflanadi. Shaharliklarning jami aholidagi ulushi 50 % dan ortib ketadi, yangi shaharlar deyarli vujudga kelmaydi, mavjud shaharlar esa, ayniqsa, yiriklari tez rivojlanadi, shahar manzilgohlarining

tizimlari shakllanib boradi. Urbanizatsiyaning bu bosqichi Sharqiy Yevropa, MDH davlatlari, Lotin Amerikasi, Shimoliy Afrika, Janubi-g‘arbiy Osiyo, Okeaniyadagi ko‘p mamlakatlarga xos.

Yetuk urbanizatsiya bosqichi Yevropaning eng rivojlangan davlatlari, AQSH, Kanada, Avstraliya, Yaponiya, Isroilda kuzatilmoqda. Bunda aholi yirik shaharlarning markazlaridan asta-sekin shahar atrofiga ko‘chib boradi, lekin shaharda ishlash, o‘qish, turli faoliyat yuritishni davom ettiradi. Natijada shaharlar markazlari, asosan, tadbirkorlik, bank-moliya sektori, boshqaruv sohalarining rivojlanish maskanlariga aylanib, aholi yashash massivlari esa tobora markazdan uzoqlab o‘tib boraveradi. Bunday ijtimoiy-geografik jarayon suburbanizatsiya deb ataladi.

16.1-Jadval.

Dunyo va yirik regionlarning urbanizatsiya darajasi (2020-yil)

№	Hududlar	Urbanizatsiya
1	Dunyo	54
2	Rivojlangan davlatlar	78
3	Rivojlanayotgan davlatlar	49
4	Yevropa	74
5	Osiyo	48
6	Afrika	41
7	Shimoliy Amerika (AQSH va Kanada)	81
8	Lotin Amerikasi	80
9	Avstraliya va Okeaniya	70

Transport va aloqaning zamonaviy texnologiyalari rivojlangan sari urbanizatsiyaning bu bosqichida shahar iqtisodiyoti tarmoqlari va shahar turmush tarzi qishloq joylarda ham keng tarqalib boradi, natijada shahar va qishloqlardagi yashash sharoiti tobora yaqinlashadi, ya’ni, qishloq joylar rasman o‘zining qishloq maqomini saqlab tursada, aslida, tub ma’noda shaharlashib ketadi. Shahar bilan qishloq joylar orasidagi ijtimoiy-iqtisodiy farq va chegaralarning yo‘qolib borish jarayoni urbanizatsiya atamasi bilan yuritiladi. Demak, jahon mamlakatlarida urbanizatsiya jarayoni turli bosqichlarida rivojlanib bormoqda va bu, birinchi navbatda, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi bilan belgilanadi. Yevropa, Shimoliy Amerika, Lotin Amerikasi, Avstraliya va Okeaniya kabi yirik mintaqalardagi

davlatlarda urbanizatsiya ko‘rsatkichi o‘rtacha hisobda 70 foizdan oshgan. Bu borada, ayniqsa, Islandiya, Buyuk Britaniya, Belgiya, Daniya, Niderlandiya, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Argentina, Venesuyela kabi shaharlar darajasi 90 foizdan yuqori bo‘lgan davlatlar ko‘zga tashlanadi.

Jahon aholisining 60 foizi va dunyodagi shaharliklarning yarmi yashaydigan Osiyo qit’asida urbanizatsiyaning umumiy darajasi birmuncha pastroq, 50 foiz atrofida bo‘lib, o‘sishi davom etmoqda. Afrikada esa urbanizatsiya ko‘rsatkichi 40 foizdan sal ko‘proq. Lekin har ikkala qit’ada ham yuqori urbanizatsiyalashgan mamlakatlar bor. Jumladan, Osiyoda bu borada Yaponiya, Janubiy Koreya, Isroil, Fors qo‘ltig‘i arab mamlakatlari, Tailand, Afrikada esa Liviya, Jazoir, Misr, Marokash, JAR kabi davlatlar ajralib turibdi. Shu bilan birga, Butan, Burundi, Malavi, Uganda, Chad, Afg‘oniston va boshqa mamlakatlarda urbanizatsiya darajasi 25 foizga ham yetmaydi. Ammo oxirgi yillarda shahar aholisining umumiy soni va jahon aholisidagi ulushi aynan Osiyo va Afrika davlatlarida kechayotgan urbanizatsiya jarayonlari hisobiga ko‘paymoqda. Bunda eng salmoqli hissa shaharlari ancha yuqori sur’atlar bilan o‘sib borayotgan Xitoy va Hindiston davlatlariga tegishli.

Jahon urbanizatsiyasining hozirgi bosqichida xalqaro savdo-iqtisodiy va bank-moliya munosabatlari rivojlanishi, transmilliy korporatsiyalar faoliyati doirasining kengayishi, zamonaviy transport va aloqa tarmoqlari vujudga kelganligi hisobiga ayrim juda yirik shaharlarning ta’sir doirasi joylashgan davlati bilan chegaralanib qolmasdan, boshqa mamlakat va mintaqalar, ba’zan esa jahonni qamrab olmoqda. Bunday shaharlarning aholisi soni bir necha million kishiga teng bo‘lib, yirik transmilliy korporatsiyalar va xalqaro tashkilotlar qarorgohlari, dunyodagi eng yirik port, sanoat korxonalari, bank, moliyaviy jamg‘arma va birjalar joylashganligi bilan boshqa shaharlardan ajralib turadilar. Shu toifadagi shaharlarganisbatan global (yoki jahon) shaharlari atamasi qo‘llaniladi.

Global shaharlar qatoriga, eng avvalo, Nyu-York, London, Tokio, Shanxay, Gonkong, Parij, Dubay, Singapur kabi savdo-moliyaviy va transport salohiyati o‘takatta shaharlar kiritiladi. Global shaharlar safi borgan sari kengaymoqda, ularning ta’sir doirasi esa barcha qit’a va ularning yirik qismlarini qamrab olishga intilmoqda. Urbanizatsiya jarayonlari ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning ajralmas qismi va ularning bevosita hosilasi bo‘lib, qator muammolarni ham

keltirib chiqarmoqda. Bu muammolarning qamrovi keng bo‘lib, ekologik, iqtisodiy, ijtimoiy, tibbiy, madaniy,ma’naviy-axloqiy jihatlar bilan tavsiflanadi. Bunda ishlab chiqarish atrof-muhitga o‘tkazadigan bosimning kuchayishi, suv ta’minotidagi kamchiliklar, transport tarmoqlariga me’yoridan ortiq yuk tushayotgani, shahar turmush tarzi bilan bog‘liq kasalliklarning tarqalishi, jinoyatchilikning ortishi va boshqa muammolar eng dolzarb hisoblanadi. Demak, jahon urbanizatsiyasining zamonaviy bosqichi miqdor va sifat xususiyatlari, shuningdek, turli ko‘rinishdagi muammoli jihatlari bilantavsiflanadi.

16.2. O‘zbekistonda iqtisodiy o‘sish va urbanizatsiya

Urbanizatsiya jarayonining O‘zbekistondagi holati XX asrning ikkinchi yarmida deyarli kam o‘zgardi. Urbanizatsiyaning umumiy darajasi yangi asrgacha bo‘lgan davrda 36,5-37,5 foiz o‘rtasida saqlanib qoldi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yildagi 66-son qaroriga binoan respublikada qator qishloq fuqarolari yig‘inlari va katta qishloqlar shaharchalar qatoriga o‘tkazildi. Buning natijasida shaharchalar soni 113 tadan 1085 taga yetkazildi yoki 972 taga ko‘paytirildi. Urbanizatsiya darajasi 2009-yilda 51,6 foizni tashkil etdi. Keyinchalik ushbu ko‘rsatkich qisqarib 2017-yilda 50,6 foizga tushib qoldi. Bir qaraganda O‘zbekistonda urbanizatsiya darajasi talab darajasiga yetganday bo‘lib tuyuladi. Biz urbanizatsiyaga bergan ta’rifimizning birinchi qismida shaharlar soni va shahar aholisining o‘sishi deb ta’kidlagan edik. Haqiqatan ham shunday bo‘lyapti, lekin ta’rifning ikkinchi qismi bajarilgani yo‘q. Shahar aholisining ulushi 50,6 foizga yetgan bo‘lsa ham, 972 ta aholi punkti shaharchalar sonini 1085 taga yetishini ta’minlagan bo‘lsa ham, aholi punktlarining ichida bitta ham «urbanizatsiya eltuvchi» shahar vujudga kelmadi. Yangi aholi punktlarining barchasi shaharchalar qatoriga qo‘shildi. Shaharlar soni esa chorak asr oldin qancha bo‘lsa, shunchaligichaqoldi.

Urbanizatsiya odamlar o‘rtasida muloqot o‘rnatish uchun qulay hisoblangan hayot turmush tarzini shakllantiradi, kasbiy yo‘nalishni o‘zgartiradi, aholining ijtimoiy faoliyatini keskin oshiradi. O‘zbekistonda urbanizatsiya jarayonining hozirgi holatini yana ham O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 10- yanvardagi «Urbanizatsiya jarayonlarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-5623-son Farmoni yurtimizdagi urbanizatsiya jarayonlarining asosiy yo‘nalishlarini belgilab berdi. Farmonda

mamlakatda urbanizatsiya jarayonlarining birinchi yo‘nalishi sifatida mutlaqo yangi uy-joy siyosatini amalga oshirish, shu jumladan, kam va o‘rta daromadli oilalar uchun arzonlashtirilgan turar joylarni qurishga yo‘naltirilgan investitsiyalarni qo‘llab-quvvatlash belgilandi. Farmonning yana bir muhim jihati, oxirgi yillarda qishloq joylarda yashayotgan aholining shaharlarga ko‘chishiga bo‘lgan ma’muriy to‘siqlarni bartaraf etishga qaratilganligidir. Farmonda mamlakatimizda urbanizatsiya jarayoni rivojlanishini ta’minlash bilan aloqador masalalarning deyarli barchasi o‘zining yechimini topmoqda.

Shu bilan birga shaharlarning hududiy tashkil etilganligi, hududiy tarkibi ularning samarali faoliyat ko‘rsatishini ko‘p jihatdan belgilab beradi. Shaharlar sonining ko‘payib, urbanizatsiya jarayonining chuqurlashishi ularning ichida katta va yirik shaharlar soni va ulushining o‘sishi bilan bog‘langan. Bunday shaharlar urbanizatsiya jarayoni rivojlanishini belgilab berishi bilan birga atrof-muhitning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida «o‘sish qutblari» vazifasini ham bajaradi. Bu o‘rinda yirik rus shaharshunos olimi G.M.Lapponing quyidagi so‘zlari o‘rinlidir «Shaharlar hududining iqtisodiy karkasi, aholi punktlari tizimida rahbar, qo‘mondon bo‘lib xizmat qiladi. Eng muhimi yakka shahar emas, balki shahar aglomeratsiyalarining atrof-muhit bilan o‘zaro aloqadorligi uning bajarayotgan vazifalarini ham, unda yashayotgan odamlarning yurish-turishiga ham juda katta ta’sir ko‘rsatadi. Agar u «urbanizatsiya eltuvchi» hisoblansa, ta’sir samaradorligi yana ham oshadi, kuchayadi. Chunki, unda mamlakat iqtisodiy salohiyatining katta qismi to‘planganligi sababli, uni «rivojlanish qutbi» deb ham atash mumkin».

Bir qaraganda poytaxt mintaqasiga xos ko‘rsatkichlar unchalik katta emasdek tuyuladi. Aslida urbanizatsiya jarayonida miqdor emas, balki sifat, yana ham aniqroq qilib aytganda «shahar turmush tarzi»ni eltuvchi katta va yirik shaharlarning mavjudligi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Bunday shaharlar esa Toshkent mintaqasida ancha serob. Mazkur holat yuqorida ta’kidlangan fikrlarimizni yana bir bor tasdiqlaydi.

Urbanizatsiya agentligi tomonidan ishlab chiqilgan va 2019-yilning 13-avgust kuni qabul qilingan “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalarini xususiylashtirish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni muhim ahamiyatga ega. Ushbu qonunning maqsadi xususiy mulk institutini rivojlantirish, qishloq

xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalarini fuqarolik muomalasiga kiritish, fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining investitsion imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan.

Agentlik 120 ta shahar, 1070 shahar tipidagi posyolka va 11 mingta qishloq aholi punkti tabiiy-iqtisodiy salohiyatini aniqlash, tizimli urbanizatsiya jarayoni amalga oshirilishini, yangi sanoat korxonalarining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasi obyektlari bilan kompleks joylashtirishni hisobga olgan holda o‘rta muddatli davrda yo‘ldosh-shaharlarga aylantiriladigan aholi punktlari ro‘yxatini shakllantirish maqsadida xatlovdan o‘tkazildi. Guliston, Yangiyer, G‘ijduvon, Qorako‘l, Kogon shaharlari, Xovos va Marhamat tumanlari markazlarini rivojlantirish, Angren, Bekobod, Olmaliq, Chirchiq, Shirin, Zarafshon, G‘ozg‘on, Sharg‘un shaharlari maqomini o‘zgartirish, Yangiyo‘l, Toshkent, Namangan shaharlariga tutash hududlar chegaralarini qo‘shish orqali ularning chegaralarini kengaytirish, Samarqand va Jizzax viloyatlarida sanoat klasterlarini tashkil qilish, ijtimoiy infratuzilma qurilishi va muhandislik-kommunikatsiya tizimlarini yaxshilash bo‘yicha takliflar ishlab chiqildi.

Shuningdek, mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev 20-dekabr kuni parlament va xalqqa yo‘llagan murojaatnomasida Samarqand va Namangan shaharlari alohida ma’muriy-hududiy birliklar sifatida respublika bo‘ysunuviga o‘tkazilishini taklif qildi. Ularni rivojlantirish dasturi Vazirlar Mahkamasida tasdiqlanishi belgilandi. Davlatimiz rahbari ikkala shaharda ham ulkan bunyodkorlik ishlari amalga oshirilayotgani, Samarqand shahri dunyo taniydigan megapolisga, xalqaro turizm va biznes markaziga aylangani, Namangan ham sanoat, tadbirkorlik, ta’lim, madaniyat sohalarida mintaqaviy markaz sifatida o‘z o‘rnini topayotganini qayd etdi. Xususan, «Ma’muriy islohotlar doirasida yana bir muhim tashabbusni ilgari surmoqchiman. Hozirga kelib Markaziy Osiyoda aholisi milliondan ortiq shaharlar 7 taga yetdi. Mintaqamizda poytaxtlar bilan bir qatorda, boshqa yirik shaharlar ham «o‘sish nuqtalari»ga aylanmoqda. Bular orasida Samarqand va Namangan shaharlari ham bor. Ularning har birida aholi soni bir millionga yetmoqda», — dedi prezident o‘z nutqida[18].

O‘zbekiston Respublikasida 2030-yilgacha urbanizatsiyani rivojlantirish konsepsiyasining asosiy maqsadi shaharlar va shahar

[18] https://www.gazeta.uz/oz/2022/12/20/samarkand-and-namangan/

aglomeratsiyalarini kompleks rivojlantirish hisobiga barqaror iqtisodiy o‘sish va aholi farovonligini ta’minlashdir. Bugungi kunda respublika bo‘yicha ichimlik suvi ta’minoti 64,4 foiz, kanalizatsiya tizimi 17 foiz, shaharlarda issiq suv ta’minoti 25 foiz va isitish tizimi 20 foizni tashkil etadi.

Konsepsivada ijtimoiy, muhandislik-kommunikatsiyalari, yo‘l-transport infratuzilmalarini rivojlantirish, shahar aholisini markazlashgan suv va gaz bilan ta’minlashni 90 foizga, kanalizatsiya tizimini 68,9 foizga, jon boshiga o‘rtacha uy- joy bilan ta’minlanganlikni hozirgi yo‘l qo‘yilayotgan sanitar me’yorlardagi 16 metr kvadratdan 20 metr kvadratga, aholini oliy ta’lim bilan qamrovini 50 foizga yetkazish kabi ko‘rsatkichlar bilan to‘ldirilgan mutlaqo yangi uy-joy siyosatini amalga oshirish ko‘zda tutilgan.

16.3. Aholining takror hosil qilinishi va uning turlari

Aholining takror hosil qilinishi - inson tug‘ilishi va vafot etishi orqali avlodlar almashishi jarayonida aholi soni va tarkibining muntazam yangilanib turishidir. Shuning uchun har bir kishi umr ko‘rishining chegarasi bo‘lishiga qaramay aholi o‘z soni va tarkibini saqlab yoki o‘zgartirib mavjud bo‘lishda davom etadi. “Aholining takror hosil qilinishi” tushunchasi keng ma’noda o‘z ichiga aholi tarkibining yoshi, jinsi, ijtimoiy guruhlari, millati, oilaviy holati, ta’lim darajasi, kasbiy tarkibi bo‘yicha rivojlanishi va yangilanishini qamrab oladi. Tor ma’noda esa, aholining takror hosil qilinishi — bu avlodlarning tug‘ilish va o‘lim natijasida yangilanib borishidir. Jamiyatning tarixiy rivojlanishi ma’nosida aholining takror hosil qilinishi ijtimoiy taraqqiyot bilan birgalikda o‘zgarib borgan. Bu, ayniqsa, turli jamiyatlarda ko‘p bolalikning kam bolalik bilan almashinuvida yaqqol ko‘zga tashlangan. Aholining takror hosil qilinishidagi bunday tub o‘zgarishlar ijtimoiy- iqtisodiy rivojlanishi turlicha bo‘lgan davlatlarda, shuningdek, turli millat va elatlardan tashkil topgan jamiyatlarda bir vaqtda sodir bo‘lmagan. “Aholini takror hosil qilish” kategoriyasi ilmiy muomalaga asming boshlarida kirib keldi, holbuki buni o‘rganishga XIX-XX asrtarda jahonda ro‘y berayotgan demografik o‘zgarishlarni idrok etishga ijtimoiy ehtiyojning ortishi natijasida kirishilgan. Aholi takror hosil qilinishini tug‘ilish va o‘lim mushtarakligi sifatida tadqiq etishga dastlabki urinishlar XVIII asrdayoq matematik L. Eyler tomonidan qilingan. Ammo uzoq vaqt davomida aholining tabiiy harakati ayrim

tomonlarini tahlil etishga qiziqish umuman aholi takror hosil qilinishini o‘rganishdan ustun turgan.

Aholining tor takror hosil qilinishi. Mohiyat jihatidan aholi takror hosil qilinishining bu turida hayotni tark etayotgan avlodning mutlaq soni hayotga kirib kelayotgan avlod sonidan ortiq bo‘ladi. Aholi tor takror hosil qilinishining bunday turi aholisining tabiiy o‘sishi nolga teng yoki o‘lim tug‘ilishdan ko‘p bo‘lgan mamlakatlar uchun xos. Demografiyada bu ***“depopulyatsiya”*** (fransuzcha “depopulatin” so‘zidan) yoki ***“demografik inqiroz”,*** deb ataladi. Aholining tor takror hosil qilinishi xos bo‘lgan mamlakatlarga fuqarolarining qirilib ketish xavfi tahdid soladi. Iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarda aholining tor takror hosil qilinishi, odatda, urbanizatsiya oqibatlari sifatida ko‘riladi. Chunki ana shunday jamiyatlarda farzandlar ota-onalar uchun “ortiqcha” bo‘ladi. Ma’lumki, iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda sanoat ishlab chiqarishi taraqqiy etgan. Ushbu ishlab chiqarishlar uchun yuqori malakali mutaxassislar talab qilinadi. Ana shunday xodimlarni tayyorlashga ularni 21-23 yil davomida o‘qitish lozim. Shu bilan birga oilada ikkinchi yoki uchinchi farzand ko‘rishga ayollarning ishlab chiqarish va ijtimoiy faoliyatga keng jalb etilganligi “halaqit” beradi.

Aholining oddiy takror hosil qilinishi. Aholining bunday takror hosil qilinishida ota-onalari avlodini almashtirayotgan farzandlar avlodining mutlaq soni bab-baravar bo‘ladi. Bunday jamiyatda barqaror jins-yosh tarkibi shakllanadi. Shuning uchun u “muqim tur”, deb ham ataladi. Aholining mazkur takror hosil qilinishi uchun tug‘ilish va o‘limning, shuningdek, aholi tabiiy o‘sishining past ko‘rsatkichlari xos bo‘ladi. Bunday holatda aholining umumiy soni ko‘paymaydi, ayrim noqulay vaziyatlar yuzaga kelsa, jamiyat aholining tor takror hosil qilinishi turiga o‘tib ketishi ehtimoli katta. Ushbu holatni hozirgi vaqtda Yevropa va Shimoliy Amerikaning rivojlangan davlatlarida kuzatish mumkin. Ular uchun quyidagilar xos:

- ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning yuqori darajasi;
- oilalarda daromadning ortib borishi, farzandlar sonining kamayishi;
- urbanizatsiya darajasining yuqoriligi (75,0 %gacha);
- jamiyatda ayollar maqomi va rolining ortishi;
- jamiyatda yangi qadriyatlar shakllanishi;
- aholi tarkibida katta yoshdagi aholining ko‘payishi va

boshqalar.

Aholining bunday takror hosil qilinishida hayotni tark etayotgan avlodning mutlaq soni hayotga kirib kelayotgan avlod sonidan ortiq bo‘ladi. Natijada aholining jins-yosh tarkibining taraqqiy etuvchi turi shakllanadi, uning mutlaq soni ortib boradi. Bunday tur uchun tug‘ilishning va aholi tabiiy o‘sishining yuqori, o‘limning nisbatan past ko‘rsatkichlari xos bo‘ladi. Aholining kengaytirilgan takror hosil qilinishi, eng avvalo rivojlanayotgan (Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi) mamlakatlarda kuzatilmoqda. Aholining kengaytirilgan takror hosil qilinishining ijtimoiy-iqtisodiy sabablari quyidagilardan iborat:

– iqtisodiy rivojlanish suratlarining pastligi, iqtisodiyotda qishloq xo‘jaligining katta salmoqqa egaligi;

– urbanizatsiya darajasining nisbatan pastligi (41,0 %gacha, qishloq joylarida tug‘ilish yuqoriroq darajada bo‘ladi);

– ijtimoiy munosabatlarning o‘ziga xosligi, ko‘p farzandlikni rag‘batlantiradigan diniy aqidalar;

– ayollarning kamsitilishi, nikohlarning erta tuzilishi;

– zamonaviy tibbiyot yutuqlaridan epidemiya kasalliklariga qarshikurashda foydalanish, sanitariya madaniyatining ortishi;

Musulmon mamlakatlarida oila rejalashtirilishining man etilishi va boshqalar. Rivojlanayotgan mamlakatlarda zamonaviy tibbiyot yutuqlaridan samarali foydalanish o‘lim darajasini pasaytirdi, lekin tug‘ilish, asosan, yuqoriligacha saqlanib turibdi.

Aholi takror hosil bo‘Iishining asosiy ko‘rsatkichlari

Aholining takror hosil bo‘lishini o‘rganishda qator demografik ko‘rsatkichlardan foydalaniladi. Ular jumlasiga tug‘ilganlar va o‘lganlarning mutlaq miqdorini taqqoslash asosida hisoblab chiqilgan quyidagi ko‘rsatkichlar kiradi:

Yashovchanlik koeffitsiyenti yoki Pokrovskiy-Pirl indeksi. Ushbu indeks 1897-yilda rus olimi V.I. Pokrovskiy va 1921 yilda amerikalik olim R. Pirl tomonidan taklif qilingan. Yashovchanlik koeffitsiyenti quyidagi formula bo‘yicha hisoblanadi.

$$K*N = I*M \quad \textbf{(16.1);}$$

bu yerda: *N* —ma’lum bir davrda tug‘ilganlar soni; *M*- muayyan joyda ma’lum bir davrda o‘lganlar soni. Mazkur koeffitsiyentda aholining tabiiy o‘sishidan farqli ravishda tug‘ilganlar *(N)* bilan o‘lganlar (*M)* farqini emas, balki nisbatini ko‘rsatadi va o‘lgan bir kishi soniga to‘g‘ri keluvchi tug‘ilganlarning soni hayotni tark

etayotgan avlodlarning hayotga kirib kelayotgan yangi avlod o‘rnini bosishini baholash uchun foydalaniladi. Yuqoridagilardan aholi umumiy aylanmasida tabiiy o‘sish sur’atining hissasi 30 yil ichida (1960-yildan 1991-yilgacha) 0,04, 2009-yilgaesa 0,07 %ga kamaygan, ya’ni aholi o‘sishining foydaliligi borgan sari kamayib borgan.

Ushbu barcha ko‘rsatkichlar hisoblashning oddiyligi bilan farqlanadi, lekin aholining takror hosil bo‘lishi haqida to‘liq tasavvurga ega bo‘lish imkonini bermaydi, chunki ularga quyidagi kamchiliklar xosdir: tug‘ilish va o‘lim darajalari turlicha bo‘lishiga qaramay, koeffitsiyentlarning bir xil kattaliklari qo‘shiladi. Masalan, tabiiy o‘sish sur’ati koeffitsiyenti 10,0 % bo‘lganida, u quyidagicha hisoblanishi mumkin:

JC,,_m **= 2 0 % 0 - 1 0 % 0 = 1 0 % 0 v a** **C,,_m = 40%a - 30%0* = 10%o, bunda birinchi holatdagi aholi aylanmasi koeffitsiyenti 30,0 %ni tashkil qilsa, ikkinchi holatda u 70,0 %ga teng bo‘ladi; tug‘ilgan va o‘lganlarning mutlaq miqdori kattaligini yashovchanlik koeffitsiyentiga hisoblab chiqilayotganda, tug‘ilish va o‘limlarning umumiy koeffitsiyentlari kattaligiga aholining yosh-jins tarkibi ta’sir ko‘rsatadi. Aholining takror hosil bo‘lish xususiyatlari haqida to‘la tasavvurga ega bo‘lish uchun yosh-jins tarkibiga bog‘liq bo‘lmagan ko‘rsatkichlardan foydalanish lozim. Aholining takror hosil bo‘lish ko‘rsatkichlariga quyidagilar kiradi:

- tug‘ilishning yig‘indi koeffitsiyenti;
- aholi takror hosil qilinishining brutto koeffitsiyenti;
- aholi takror hosil qilinishining netto koeffitsiyenti;

Aholi takror hosil qilinishining brutto-koeffitsiyenti. Bu koeffitsiyent har bir ayolning reproduktiv davrida nechta qiz bola ko‘rishi va har yosh guruhida uni tug‘ilishning hozirgi davr darajasida saqlab qolishi mumkinligini aniqlab beradi

Tug‘ilishning yig‘indi koeffitsiyenti bir ayol hisobiga bolalarning o‘rtacha sonini ko‘rsatib beradi. Mazkur koeffitsiyent aholi takror hosil qilinishining birlamchi umumiy tavsiflaridan hisoblanadi, lekin u qator kamchiliklarga ega.

Xususan:

- tug‘ilishning yig‘indi koeffitsiyenti yangi avlodning takror hosil bo‘lishida, keyinchalik ayollar o‘zidan so‘ng qoldiradigan qizlar miqdorini ko‘rsatibbermaydi;
- tug‘ilish paytidagi bolalarning onasining yoshiga yetmasdan, o‘zidan avlod qoldirmasdan va bola tug‘ish yoshiga

yetgan tengdoshlariga nisbatan bolalar sonini qisqartirgan holda qanchasi o‘lib ketishi mumkinligini e’tiborga olmaydi.

Bu birinchi kamchilikdan aholini takror hosil qilishning brutto-koeffitsiyenti,birinchisi va ikkinchisidan netto-koeffitsiyenti holidir.

Aholi takror hosil qilinishining netto-koeffitsiyenti. Agar reproduktiv yoshdagi har bir ayol o‘rtacha *R* qiz farzandlar ko‘rsa, bu hali qiz farzandlar avlodi soni onalar avlodi sonidan *R* darajada ko‘p yoki kam bo‘lishini bildirmaydi. Chunki bu barcha qizlarning hammasi ham onalari farzand ko‘rgan yoshgacha tirik qolmasliklari mumkin. Bundan tashqari, hamma qizlar ham reproduktiv yoshgacha hayot qolmasliklari mumkin. Bu, ayniqsa, o‘lim darajasi yuqori bo‘lgan mamlakatlarga taalluqlidir. Shuning uchun o‘limni ham hisobga oladigan koeffitsiyent bo‘lishi talab qilinadi. Bu aholi takror hosil qilinishining netto- koeffitsiyenti (sof) yoki ***Beka-Kuchinski koeffitsiyentidir.*** Aholi takror hosil qilinishining netto-koeffitsiyenti ayol hayotligi davrida tug‘ilgan va reproduktiv davr oxirigacha (bu davrda tug‘ilish va o‘lim darajasi saqlanib turganida) hayot bo‘lgan qizlarning o‘rtacha soniga teng. Aholi takror hosil qilinishining netto-koeffitsiyenti quyidagi formula bo‘yicha (besh yillik yosh guruhlari uchun) quyidagiformula bo‘yicha aniqlanadi:

brutto-koeffitsiyentdagi belgilarning hammasi saqlanib qolgani holda 5*Lx* va /o-tegishli ravishda ayollar hayot jadvalining *(x+5)* yosh oralig‘ida yashayotganlardir, /o - uning ildizi. Aholi takror hosil qilinishining netto- koeffitsiyenti formulasida ayollar hayot jadvalining *(x+p)* yosh guruhlarida hayot bo‘lganlar sonidan foydalaniladi. Ko‘rinishi murakkab bo‘lsa ham ushbu formula anchayin sodda va tegishli, masalan Excel elektron jadvallarining kompyuter dasturlaridan foydalangan holda aholi takror hosil qilinishining netto- koeffitsiyentini hisoblab bera oladi. Jumladan, AQShning senzlar byurosi Xalqaro dasturiy markazi (IPC of U.S. Bureau of the Census) PAS (Population Spreadsheets Analysis) elektron jadvallar tizimini ishlab chiqqan. Bu jadvallardan biri - SP tug‘ilishning yosh guruhlari va *(x+p)* yosh guruhlar oralig‘ida hayot bo‘lganlar to‘g‘risidagi ma’lumotlardan foydalangan holda aholi takror hosil qilinishining brutto va netto-koeffitsiyentlarini hisoblab bera oladi.

Fransiyalik demograf J.P. Sardon aholining tegishli jips saflaridagi tug‘ilish va o‘lim ma’lumotlaridan foydalangan holda G‘arbiy Yevropa mamlakatlarining aniq avlodlari uchun aholi takror

hosil qilinishining netto-koeffitsiyentlarini hisoblab berdi. Uning tadqiqotlari natijalari hayratga soladi. Belgiya, Shvetsiya, Shveysariya, Germaniya, Italiya va Gretsiyada 1901-1955-yillarda tug‘ilgan avlodlarning birortasi ham miqdor jihatidan o‘zlarini takror hosil qila olmagan. Faqat Islandiya va Irlandiyada ushbu avlodlarning netto-koeffitsiyenti 1,0 dan yuqori bo‘lgan. Avstriya, Buyuk Britaniya, Daniya, Fransiya, Gollandiya, Portugaliya va Ispaniyada faqat I va II jahon urushlari o‘rtasida tug‘ilgan ayrim avlodlardagina tug‘ilish darajasi aholini kengaytirilgan takror hosil qilishni ta’minlay olgan. Amalga oshirilgan tahlillar XIX asrda tugilganlarda jips saflarni takror hosil qilishning netto-koeffitsiyenti 1,4-1,5 bo‘lganligini, ya’ni bu avlodlar ota-onalariga qaraganda 1,4-1,5 baravar ko‘p farzand ko‘rganliklaridan dalolat beradi. 1880-1900-yillarda tug‘ilganlarning avlodlari o‘zlarini takror hosil qilishni 10,0- 20,0 %ga ko‘paytira olgan (netto-koeffitsiyentlar 1,1-1,2 ga teng), ammo ularning aholining tabiiy o‘sishiga hissasi avvalgi avlodlarnikidan keskin kamaygan. Bu jips saflarning reproduktiv davri I jahon urushi va keyingi inqiroz yillariga to‘g‘ri kelgan. XIX asrning boshida tug‘ilgan avlodlarda netto-koeffitsiyent ko‘rsatkichlari yanada kamayib ketgan. Xususan, 1915-1920-yillarda tug‘ilganlarda u 0,65-0,70 ni tashkil qilgan. Faqat II jahon urushidan keyin tug‘ilgan avlodlarning ayrimlarida aholini kengaytirilgan takror hosil qilish holatlari kuzatiladi.

16.4. Aholi migratsiyasi va uning tasnifi

Aholi migratsiyasi (lotincha “migratio”-“ko‘chish”)-odamlarning bir mintaqa(mamlakat, shahar, qishloq)dan boshqasiga, qator hollarda katta guruh holida va uzoq masofaga ko‘chishidir. Demografiyada aholi migratsiyasiga aholining mexanik harakati sifatida qaraladi. “Aholi migratsiyasi” tushunchasiga turli tadqiqotchilar turlicha yondashadi. Ammo migratsiya sohasida dastlabki chuqur nazariy tadqiqot muallifi, ingliz olimi Y.G. Ravenshteynning Buyuk Britaniya va Shimoliy Amerikadagi migratsiya jarayonlarining tahlili asosidagi 11 ta migratsiya qonuni jahonda umume’tirof etilgan. Bu qonunlar migratsiya sohasidagi boshqa ko‘pchilik nazariyalar uchun asos bo‘lib xizmat qilgan. Ular quyidagilardan iborat:

- migratsiya eng ko‘p qisqa masofalarga amalga oshiriladi;
- migratsiya asta-sekin, bosqichma-bosqich ro‘y beradi;
- katta masofalarga migratsiya, asosan, yirik savdo va

sanoat markazlariyo‘naltirilgan bo‘ladi;

– har bir migratsiya oqimiga uning teskari oqimi muvofiq keladi;

– migratsiya sohasida shaharliklar qishloq joylaridagi aholiga nisbatankam harakatchan bo‘ladi;

– ichki migratsiyada ayollar, xalqaro migratsiyada esa erkaklar faolroqdir;

– muhojirlarning ko‘pchiligi katta yoshdagi aholidan iborat, oilalar o‘zmamlakatlari tashqarisiga kamroq migratsiya qiladi;

– yirik shaharlarning tarkib topishi aholining tabiiy o‘sishiga qaragandako‘proq migratsiya bilan bog‘liqdir;

– sanoat va savdo, ayniqsa transport rivojlanishi bilan migratsiyako‘lamlari ortadi;

Migratsiyaning iqtisodiy sabablari hal qiluvchi ahamiyatga ega. E.G.Ravenshteynning “Migratsiya hayot va taraqqiyotni, aholining kam harakatchanligi turg‘unlikni anglatadi”, degan xulosasi amaliyotda o‘z tasdig‘ini topdi.

Igratsiyaning demografik nazariyasi sotsiolog D. Messi nomi bilan bog‘liq. Uning ***migratsiyaning tarmoq (sintetik) nazariyasi*** nomini olgan g‘oyasi asosini iqtisodiy bozorning, ijtimoiy va siyosiy integratsiyaning globallashuvi, buning oqibatida mehnat bozorining globallashuvi tashkil etadi. Uning fikricha, xalqaro migratsiyaga taalluqli bo‘lgan joriy jarayonlar bir yo‘la bir necha darajada amal qilishi mumkin. Xalqaro migratsiya, D.Messining hisoblashicha, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy o‘zgarishlar natijasida paydo bo‘ladi va rejali iqtisodiyot amal qiladigan hamda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishiga asoslangan jamiyatlarda kapitalistik munosabatlarning ustunlik qilishiga olib keladi.

Umumiy bozor va kapitalistik munosabatlarga global o‘tish natijasida an’anaviy iqtisodiy va ijtimoiy aloqalar uziladi, bu odamlarni o‘z odatiy turmush tarzidan siqib chiqaradi va iqtisodiy boyishning yangi yo‘llarini izlashga majbur qiladi. Shuning uchun migratsiya oqimlari zich joylashgan mintaqalarda emas, balki bozor transformatsiyasi sodir bo‘layotgan va uning global iqtisodiyotga qo‘shilayotgan joylarda paydo bo‘ladi. Ya’ni “migratsiya bozorning kamchiligi emas, aksincha, uning o‘zgarishi natijasidir”. Yuqorida qayd qilingan nazariyalar bilan birga 1960-yillarda E.Li tomonidan ishlab chiqilgan ***migratsiyaning ekonometrik modeli*** ham mavjud. Uni ***Lining jalb etuvchi va turtib chiqaruvchi omillari,*** deb ham

nomlangan. Ushbu modelga muvofiq har bir hududda jalb etuvchi va turtib chiqaruvchi, ko‘chib kelishva ko‘chib ketishga sabab bo‘ladigan migratsiyaning turli omillari guruhi amal qiladi. Bunda ularning ayrimlari ko‘pchilik odamlarga, boshqalari faqat alohida shaxslarga ta’sir ko‘rsatadi. E.Li birinchi bo‘lib migratsiya jarayonlariga ta’sir ko‘rsatadigan omillarni aniqlab berdi.

Turtib chiqaruvchi omillarga iqtisodiy (ishsizlik, daromad darajasining pastligi, soliq darajasining yuqoriligi), ijtimoiy va siyosiy (kambag‘allik, kamsitish, vijdon va e’tiqod erkinligining cheklanishi, urushlar) xususiyatga ega ayrim omillar, noqulay tabiiy va ob-havo sharoitlari va boshqalar taalluqli bo‘lishi mumkin. Jalb etuvchi omillarga iqtisodiy rivojlanish, daromadlar darajasining yuqoriligi, xavfsizlik, mehnat bozorida (shu jumladan, ayniqsa noqonuniy muhojirlar uchun muhim hisoblangan norasmiy sektorda) ish topish imkoniyati va boshqalar kiradi. Migratsiya jarayonlariga jalb etuvchi va turtib chiqaruvchi omillar bilan birga oraliq omillar ham ta’sir ko‘rsatadi.

Oraliq omillari hududlar o‘rtasidagi masofa uzoqlashishi bilan ortadi va migratsiya oqimlariga to‘siq vazifasini o‘tashi mumkin. Ularga transport xarajatlari, migratsiya jarayonlarini tartibga soladigan qonun hujjatlari, ko‘chib borish mo‘ljallanayotgan hudud to‘g‘risida ma’lumotlar mavjudligi va boshqalar kiradi. E. Li migratsiya saralash xususiyatiga ega ekanligini ta’kidlar ekan, bir xil omillar turli odamlarga turlicha ta’sir ko‘rsatishi mumkinligiga e’tibor qaratadi. U jalb etuvchi omillar yuqori ma’lumotga ega shaxslarga kuchliroq ta’sir ko‘rsatishini uqtiradi. Ular yashab kelayotgan joylarida muayyan mavqega ega bo‘lishlariga qaramay, boshqa mintaqada yanada manfaatliroq taklif olishlari mumkinligini biladi. Shuning uchun yuqori harakatchanlik yuqori malakali xodimlarga xos, ular migratsiya natijasida o‘z qobiliyatlarini to‘laroq namoyon etish va ko‘proq daromad topishlariga ishonadi. Past malakali shaxslarga esa, aksincha, turtib chiqaruvchi omillar ko‘proq ta’sir ko‘rsatadi.

Qayta taqsimlash. Migratsiyaning ushbu funksiyasi muhojirlarga o‘z hayotiy vazifalarini hal etishga ko‘maklashadi. Odamlar boshqa hududga ko‘chish orqali turmushlarini yaxshilashga intiladi. Migratsiya ushbu ma’noda muhojir aholi turmush darajasini oshirishning integratsiyaviy jarayoni hisoblanadi. Dunyodagi ko‘p mamlakatlarda o‘tkazilgan sotsiologik tadqiqotlar buni tasdiqlaydi. Muhojirlarning asosiy qismi ko‘chib borgan joyda ko‘proq daromad

ishlab topadi. To‘g‘ri, bu ixtiyoriy migratsiyaga taalluqlidir. Majburiy migratsiya boshqa, qoida bo‘yicha, iqtisodiy bo‘lmagan qonuniyatlarga bo‘ysunadi.

Saralash. Migratsiyaning bu funksiyasi mohiyati shundan iboratki, aholi turli ijtimoiy-demografik guruhlarining unda notekis ishtirok etishi turli hududlar aholisining sifat tarkibini o‘zgartirishga olib keladi. Amaliyot erkaklar va mehnatgalayoqatli yoshdagi shaxslar migratsiyada mehnatga *layoqatli bo‘lmaganlar va ayollarga* qaraganda faolroq ishtirok etishidan dalolat beradi. Migratsiya harakatchanligida turli millat vakillarining, shuningdek, boshqa joylardan ko‘chib kelgan tub aholining tafovuti juda katta.

Jadallashtirish. Rossiyalik olima T.I.Zaslavskayaning fikricha, aholining hududiy ko‘chib yurishi odamlarning ruhiy xususiyatlarini o‘zgartirishga, ularning dunyoqarashini kengaytirishga, hayotning turli sohalaridagi bilimlarini kengaytirishga, mehnat ko‘nikamalari va ishlab chiqarish tajribasi bilan ayirboshlashga, shaxsni, uning moddiy, ijtimoiy va ma’naviy ehtiyojlarini rivojlantirishga, milliy madaniyatlarning integratsiyasiga xizmat qiladi. Harakatchanroq aholi, qoidaga ko‘ra, ijtimoiy jihatdan ham faolroqdir. Aholi migratsiyasi, yuqorida qayd qilinganidek, ***siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va maishiy sabablarga*** ko‘ra bo‘lishi mumkin.

Migratsiya yo‘nalishi bo‘yicha esa ichki va tashqi migratsiya farqlanadi.

Ichki migratsiya - aholining bir mamlakat ichidagi harakatidir. Bunda qishloq (qishloq - shahar), shahar (shahar - qishloq), qishloqlararo (qishloq - qishloq), shaharlararo (shahar - shahar) migratsiyasi nazarda tutiladi.

Tashqi migratsiya - aholining mamlakat davlat chegarasining kesib o‘tishidir.Tashqi *migratsiya xalqaro migratsiya*, deb ham ataladi. Bunda qit’alararo va qit’alarichidagi migratsiya farqlanadi.

Xalqaro migratsiyaga immigratsiya va emigratsiya tushunchalari xosdir.

Immigratsiya - aholining boshqa mamlakatga doimiy yoki vaqtinchalik (Birlashgan Millatlar tashkiloti qoidalariga binoan 1 yildan uzoq muddatga) ko‘chibkelishidir.

Emigratsiya esa aholining o‘z mamlakatini doimiy yoki vaqtinchalik tark etishidir. Aholi migratsiyasi davomiyligiga qarab quyidagi turlarga bo‘linadi:

- doimiy (qaytib kelmaydigan) - bunda odamlarning doimiy

turar joyini bir umrga almashtirishi ko‘zda tutiladi;

– vaqtinchalik (qaytib keladigan) — odamlarning uzoq, lekin cheklangan vaqtga boshqa joyga ko‘chib borishidir. Vaqtinchalik migratsiyaga boshqa joyga bir necha yilga kontrakt bo‘yicha ishga borish misol bo‘la oladi;

– mavsumiy - odamlarning har yili muayyan muddatga bir joydan boshqa joyga, masalan qishloq xo‘jaligi sohasida ishlashga yoki kurort, sanatoriylargaborishidir;

– tebranuvchan (tez-tez takrorlanib turadigan) - odamlarning muntazam ravishda boshqa joyga ishga yoki o‘qishga qatnashidir.

Migratsiya shakli bo‘yicha quyidagicha farqlanadi:

– tashkiliy - bunda migratsiyaning davlat yoki jamoat tashkilotlariyordamida amalga oshirilishi ko‘zda tutiladi;

– tashkillashtirilmagan - bunda odamlar o‘zlari va o‘z mablag‘lari hisobigamigratsiyani amalga oshiradi;

– ixtiyoriy - odamlarning migratsiya to‘g‘risida o‘zlarining qaror qabulqilishidir;

– majburiy - odamlarni boshqa joyga ko‘chirish ularning ixtiyorisizamalga oshirilishidir.

Tarixiy manbalar hozirgi O‘zbekiston hududida ham migratsiya jarayonlari jadal bo‘lganligidan guvohlik beradi. Ko‘chmanchi qabilalar muntazam turar-joylarini o‘zgartirib turgan, Buyuk ipak yo‘li bo‘ylab savdo karvonlari beto‘xtov qatnagan, behisob urushlar ham aholi migratsiyasiga sabab bo‘lgan. Birinchi ming yillik o‘rtalarida turk qabilalari janub tomon yo‘nalgan. Amir Temur saltanatida ulkan bunyodkorlik ishlarini amalga oshirish uchun Iroq, Suriya, Turkiya, Gruziya va boshqa o‘lkalardan me’morlar, quruvchilar, zargarlar,to‘quvchilar, boshqa kasb egalari ko‘chirib kelingan.

Mintaqadagi migratsiya jarayonlari rivojlanishida XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiyaning Turkistonni mustamlaka qilishi bilan tub o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Chorizmning o‘lkaga kirib kelishi aholi ko‘chishi miqyoslarini kengaytirdi. Mustamlakachilar bu yerda o‘z mavqelarini mustahkamlash uchun rus millatiga mansublarni Rossiyadan Turkistonga ommaviy ko‘chirib kelish siyosatini amalga oshirdi. Natijada 1911-yilga kelib aholi tarkibida rus millatiga mansublarning ulushi Andijonda - 15,0 %, Samarqandda - 20,0%, Toshkentda - 25,0%, Marg‘ilonda - 30,5% ga yetdi.

Birlashgan Millatlar tashkilotining so‘nggi ma’lumotlariga ko‘ra, 2019-yilda xalqaro muhojirlarining soni 2631,0 mln. kishiga

Potentsial (umumiy) resurslar - mavjud resurslardan tashqari, nazariy hisob- kitoblar va tadqiqotlar asosida tuzilgan, shu jumladan texnik yoki iqtisodiy sabablarga ko‘ra hozirda o‘zlashtirilishi mumkin bo‘lmagan resurslar (masalan, katta chuqurlikdagi qo‘ng‘ir ko‘mir konlari, chuchuk suv zaxiralari). muzliklarda). Bundan tashqari, tabiiy resursga bo‘lgan ehtiyojni bugungi kunda ularni ishlab chiqishning texnologik imkonsizligi, masalan, boshqariladigan termoyadro termoyadroviy sinteziga asoslangan energiya ishlab chiqarish butunlay to‘sib qo‘yishi mumkin. Shuning uchun potentsial resurslar majoziy ma’noda «kelajak resurslari» deb ataladi.

Ilmiy-texnika taraqqiyotining rivojlanishi bilan potentsial resurslar mavjud bo‘lganlar toifasiga o‘tmoqda. Tabiiy resurslarning bir qancha tasniflari ishlab chiqilgan va qo‘llanilmoqda: tabiiy kelib chiqishiga ko‘ra, iqtisodiy foydalanish turlariga ko‘ra, tugashiga ko‘ra. Kelib chiqishi tasnifi. Ko‘rsatilgan xususiyatga ko‘ra tabiiy resurslar mineral, iqlim, suv, er, tuproq, biologik (o‘simlik va hayvon) ga bo‘linadi. Ushbu tasnif resurslarning iqtisodiy rolini va ularning iqtisodiy ahamiyatini aks ettirmaydi, shuning uchun foydalanish yo‘nalishlari va shakllari bo‘yicha tasniflash ko‘proq qo‘llaniladi.

Iqtisodiy foydalanish turlari bo‘yicha tasnifi.

Materiallardan foydalanishning ma’lum bir sohasiga yo‘naltirilishiga qarab, tabiiy resurslar sanoat va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish resurslariga bo‘linadi. Sanoat ishlab chiqarish resurslariga sanoat tomonidan ishlatiladigan barcha turdagi xomashyo kiradi; energiya (yonuvchi foydali qazilmalar, gidroenergetika resurslari, biokonversiya energiyasi, atom energiyasi) va noenergetika (metallurgiya, kimyo va neft kimyosi, yog‘ochni qayta ishlash va boshqalar).

Yaroqlilik asosida tasniflash. Yaroqlilik asosida barcha tabiiy resurslar, xuddi biosfera resurslari kabi, tugaydigan va tugamaydiganlarga bo‘linadi. Kosmosning bitmas-tuganmasligi, quyosh energiyasi, tortishish va biosferadagi inson evolyutsiyasi shartlari miqyosida boshqa ko‘plab narsalar aniq.

Tez qayta tiklanadigan tugaydigan resurslar katta biotik potentsialga (atrof- muhit cheklovlari mavjud bo‘lmaganda turlarning ko‘payish qobiliyatiga) va yuqori o‘sish sur’atlariga (otsimon o‘simliklar, hayvonlar) ega bo‘lgan populyatsiyalar tomonidan qayta tiklanadi. Nisbatan (sekin yoki to‘liq bo‘lmagan) qayta tiklanadigan resurslar murakkab ko‘p komponentli ekotizimlar (tuproq, o‘rmon). Shunday qilib, tuproq-tuproq mikroorganizmlari, o‘simliklar, zamburug‘lar va hayvonlarning faoliyati natijasi unumdorligini tiklashga qodir, ammo bu juda sekin sodir bo‘ladi. Urug‘li tuproq qatlarnining 1 sm qalinligini tiklash uchun o‘rtacha 150 yil kerak bo‘ladi. Turli iqlim va landshaft zonalarida bu jarayon har xil sur’atlarda davom etadi. Yetuk ignabargli o‘rmonni tiklash uchun taxminan 100 yil kerak bo‘ladi (barqaror klimaks jamoasi). Barqaror jamoa bo‘lmagan yosh o‘rmonlar tezroq tiklanadi.

Biosferaning qayta tiklanmaydigan resurslari (masalan, qazilma rudalar, cho‘kindi jinslar va boshqalar) okean tubida, shuningdek, y er qobig‘i yuzasida geokimyoviy jarayonlar hali ham shakllanmoqda, lekin ularning tezligi yer qobig‘ida yoki landshaft sferasida hosil bo‘lishi ularni odamlar tomonidan iste’mol qilish darajasidan qiyoslab bo‘lmaydigan darajada kamdir. Jamiyat resursining tugamasligi, hech bo‘lmaganda unga bo‘lgan ehtiyoj bilan solishtirganda, uning cheksizligini anglatadi. Shunday qilib, yerning hududi, masalan, ibtidoiy odamlar uchun shartli ravishda tugamaydigan manba edi. Biroq, bugungi kunda inson populyatsiyasi xavfli sur’atlarda o‘sib borayotganligi va sayyora juda aniq

cheklangan o‘lchamga ega bo‘lganligi sababli, ikkita aniq cheklovlar paydo bo‘ldi:

1. Bir butun sifatida cheklangan Yerda cheksiz hech narsa bo‘lishi mumkinemas (qism butundan katta bo‘lishi mumkin emas) va shuning uchun inson uchun tuganmas tabiiy resurslar yo‘q;
2. Sayyoramizning eksponent ravishda o‘sib borayotgan qismi - insoniyat o‘zining tobora ortib borayotgan ehtiyojlari bilan har qanday imkoniyatlarning resurslarini osongina tugatadi.

Insoniyatning energiya iste’moli bilan solishtirganda, ba’zida hali ham tugamaydigan bo‘lib ko‘rinadigan resurslar (masalan, quyosh energiyasi oqimi va boshqa kuchli tabiiy hodisalar) iste’mol chegaralari tufayli haqiqatda keskin cheklangan bo‘lib chiqadi. Tabiiy ne’matlar - hozirgi vaqtda foydalanilayotgan yoki yaqin kelajakda foydalanish mumkin bo‘lgan tabiiy resurslar va jamiyatning tabiiy sharoitlari yig‘indisi. Shunga ko‘ra, ostida tabiiy boyliklar mehnat vositalari (er, suv yo‘llari, shamol va daryo energiyasi), xomashyo va materiallar (yog‘och, rudalar), to‘g‘ridan-to‘g‘ri tovarlar (yog‘och, rudalar), insonning iqtisodiy faoliyatida foydalanish uchun potentsial mos keladigan tabiiy imtiyozlarni (atrof-muhitning tabiiy tarkibiy qismlari va xususiyatlari) tushunish.

Tabiiy sharoitlar - ishlab chiqaruvchi kuchlarning ma’lum bir rivojlanish darajasida jamiyat hayoti va faoliyati uchun muhim bo‘lgan, lekin moddiy ishlab chiqarishda bevosita ishtirok etmaydigan tabiat jismlari va kuchlari (masalan, hududning relefi, iqlimi). , uning geografik joylashuvi). Tabiiy resurslar- bu moddiy ishlab chiqarishda bevosita foydalaniladigan tabiat jismlari va kuchlari (masalan, foydali qazilmalar).

Tabiiy resurs salohiyati - bu fan-texnika taraqqiyoti tendentsiyalarini hisobga olgan holda ma’lum bir hududning tabiiy resurslari, xo‘jalik faoliyatida foydalaniladigan yoki ishlatilishi mumkin bo‘lgan sharoitlar, hodisalar va jarayonlar to‘plami. Mintaqaning ekologik (tabiiy resurs) salohiyati - bu hududdagi maqbul (ruxsat etilgan maksimal) antropogen yukni hisobga olgan holda texnologiyalar va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar rivojlanishining ma’lum darajasida foydalanish uchun nazariy jihatdan mavjud tabiiy resurslar.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ba'zi ko'rsatkichlari

Davlatlar	(1) 1992-yil aholi jon boshiga YAIM (dol)	(2) 1992-yil umr ko'rish (yil)	(3) 199- yil har 1000 chaqaloqqa o'lim soni	(4) 1990-yil yoshi katta aholining savodsizlik darajasi (%)	(5) 1990-yil aholi jon boshiga kaloriya iste'moli	(6) 1992-yil aholi jon boshiga energiya iste'moli
Yaponiya	28190	79	5	5 dan kam	2848	3586
AQSH	23240	77	9	5 dan kam	3666	7662
Braziliya	2770	66	57	19	2730	681
Mavritaniya	530	48	117	66	2450	108
Gaiti	470	69	31	27	2640	600
Hindiston	310	61	79	52	2230	235
Bangladesh	220	55	91	65	2040	59
Efiopiya	110	49	122	-	1700	21
Mozambik	60	44	162	67	1810	32

Tabiiy resurslar **-** bu moddiy boyliklar yaratish, insoniyatning yashash sharoitlarini saqlash uchun ishlatiladigan tabiatning tarkibiy qismlari. To'g'rirog'i, bular tabiatda mavjud bo'lgan odamlarning mehnati bilan yaratilmagan, yashash vositalaridir. Ular haqiqiy va potentsial bo'lishi mumkin. Ishlab chiqaruvchi kuchlarrivojlanishining ma'lum bir bosqichida insonning ishlab chiqarish faoliyatida foydalaniladigan tabiiy resurslar haqiqiy hisoblanadi va og'ir iqlim sharoiti, texnik jihozlarning yetishmasligi va boshqa sabablarga ko'ra ishlab chiqarishga jalb etilmaydi. Ulardan ba'zilari insonning yashashi uchun bevosita shart - sharoitlar bo'lib xizmat qiladi (masalan, atrof-muhit havo va suv, shuningdek, dam olish, sog'lomlashtirish, ta'lim va axborot va boshqa resurslardir).

Boshqalari esa ishlab chiqarishni rivojlantirishning manbasi va omili - bu moddiy ishlab chiqarish tomonidan bevosita iste'mol qilinadigan xomashyo manbai va ishlab chiqaruvchi kuchlarni joylashtirishning fazoviy asosi sifatidagi tabiatdir. Tabiiy resurslar foydalanish xususiyatiga ko'ra (ishlab chiqarish, sog'lomlashtirish, estetik, kognitiv-axborot, rekreatsion va boshqalar), tabiatning ayrim tarkibiy qismlariga (tuproq, yer, suv, biologik – o'simlik va hayvonot dunyosi resurslari) mansubligiga ko'ra guruhlarga bo'linadi:

- mineral resurslar
- atmosfera resurslari

Energiya qayta tiklanish darajasiga ko'ra (tugaydigan va tugamaydigan). Tugallanadigan tabiiy resurslar qayta tiklanadigan va tiklanmaydiganlarga bo'linadi.

Asosiy xulosalar

Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar uchun iqtisodiy o‘sishnirivojlantirish yo‘llari mohiyatan bir xildir.

Samaradorlikning oshishi. Tabiiy boyliklarning zaxiralari samaraliroq sarf etilishi darkor. Bu o‘z navbatida nafaqat ishsizlikni bartaraf etish, shu bilan birga resurslarning samarali taqsimotiga olib keladi.

Ishlab chiqarish resurslarining ortishi. Ishlab chiqarish resurslari zaxiralari orttirilishi kerak. Xomashyo va ishlab chiqarish vositalari zaxirasini orttirish natijasida mexnat va texnologiyalarning samarali foydalaniladi, ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig‘i o‘ng tomonga suriladi. Nima uchun ba’zi mamlakatlar juda orqada qolgan holda, boshqa mamlakatlar iqtisodiy o‘sishni jadallashtirish yo‘lida ulkan natijalarga erishdi? Sababi, quyida ko‘rsatiladiganidek turli mamlakatlardagi mavjud moddiy va ijtimoiy-madaniy shart-sharoitlardir.

Muhokama uchun savollar

1. Iqtisodiy resurslar va ularning turlari haqida malumot bering.
2. Iqtisodiy rivojlanishning muhim omillari nima?
3. Iqtisodiy o‘sish omli bo‘lib nima hisoblanishi kerak?
4. Axborot manbalari deganda nimani tushunasiz?
5. Iqtisodiy o‘sish omillari va tiplari haqida ma’lumot bering?
6. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ko‘rsatkichlari haqida tushuncha bering.
7. Tabiiy resurslar baholash jarayonini tasvirlab bering.

XVIII BOB. IQTISODIY O‘SISHNI TUSHUNISH

18.1. Iqtisodiy o‘sish va iqtisodiyot tarkibidagi o‘zgarishlar
18.2. Iqtisodiy o‘sish va rivojlanish
18.3. Asosiy makroiqtisodiy nisbatlar va ularni tahlili
18.4. Iqtisodiy o’sishda inson kamoloti indeksi va inson kapiatalining

Tayanch iboralar: *iqtisodiy o‘sish, iqtisodiy rivojlanish, makroiqtisodiy o‘sish, mikroiqtisodiy o‘sish, YaIM, aholi jon boshiga YaIM, o‘sish suratlari, o‘sish sifati, turmush farovonligi, miqdoriy ko‘rsatkichlar, taqsimlash omillari, taklif omillari, ekstensiv va intensiv omillar.*

18.1. Iqtisodiy o‘sish va iqtisodiyot tarkibidagi o‘zgarishlar

Iqtisodiy o‘sish jarayoni jamiyatdagi bir qator miqdoriy va sifat jihatdagi o‘zgarishlar bilan kuzatiladi. SHulardan birinchi navbatda iqtisodiyotning tarkibiy transformatsiyasini alohida ko‘rsatish kerak. Iqtisodiy o‘sishni ko‘zlagan mamlakatlarda birinchi navbatda qishloq xo‘jaligining milliy mahsulot va bandlikdagi ulushini kamayishi bilan tavsiflanadi.

Mavjud ma’lumotlarga ko‘ra, AQShda 1920-yilda ishchi kuchining 70 %i qishloq xo‘jaligida band bo‘lgan, bu ulush 1941-yilga kelib 20 %dan kamni va 1987-yilga kelib atigi 3 %ni tashkil qilgan. Yaponiyada qishloq xo‘jaligida band bo‘lgan ishchi kuchining ulushi 1879-yildagi 72%dan, 1930-yillarga kelib 30 %gachani, 1980-yillarning oxirlarida 8 %ni tashkil qilgan. Belgiyada 1846-yilda qishloq xo‘jaligida ishchi kuchining 51 % ishtirok etgan bo‘lsa, 1947-yilda 12,5 %, 1970-yilda 7 %ni tashkil qilgan.

Ushbu ko‘rsatkichlar iqtisodiy o‘sish nafaqat qishloq xo‘jaligining umumiy milliy ishlab chiqarishdagi ulushi qisqarishi bilan, balki ushbu jarayonning tezlashuvi bilan ham kuzatiladi. Agar, qishloqdagi band bo‘lganlarning ulushini 50 %gacha kamaytirish uchun bir necha yuz yilliklar talab qilinsa, ko‘pgina rivojlangan mamlakatlarda so‘nggi 100 yil ichida 40-50 %ga qisqarishi tarkibiy transformatsiyaning yuqori tezligiga guvohlik beradi.

Bunday holatning asosiy sababi, avvalambor, iqtisodiyotning agrar sohasidagi mehnat samarasi o‘sishi uchun ko‘p miqdorda

zaxiralarning jamlanganligi, ya’ni bir xil sharoitda ma’lum bir turdagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini kam ishchi kuchi sarflagan holda ishlab chiqarish imkonini beradi. Boshqa tomondan, oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tovarlarini iste’mol qilinishi chegaralangan bo‘lib, bu aholi jon boshiga daromadlarning o‘sishi bilan iste’mol talabi tarkibidagi oziq-ovqatga qilinadigan xarajatlar ulushi kamayishini anglatadi.

Bunday xulosa o‘tgan asrda nemis statistigi Engel tomonidan berilgan va Engel birinchi qonuni nomini olgan.(Engelning ikkinchi qonuni sanoat iste’mol tovarlari va qimmatbaho buyum)larga taalluqli bo‘lib, aholining jon boshiga bo‘lgan daromadi ko‘paygan sari, uy xo‘jaliklarining ushbu tovar guruhiga xarajatlarining ulushi ham ortadi). Keyinchalik ingliz iqtisodchisi K.Klark yangi empirik ma’lumotlar asosida Engel xulosalarini tasdiqladi va agrar sohasi ulushining kamayishi boshida sanoat ulushining ko‘payishi hisoblanib, keyin esa xizmat ko‘rsatish sohasining o‘sishi hisoblanadi. Ushbu sohalardagi, avvalambor xizmat ko‘rsatish sohasidagi ishlab chiqarishni rivojlantirish xarajatlarining elastik o‘sish koeffitsiyenti yalpi ichki mahsulotning o‘sishiga bog‘liq holda 1 dan yuqori bo‘ladi. Bu YaIM o‘sishiga bog‘liq holda xizmat ko‘rsatish sohasidagi xarajatlar iqtisodiyotning boshqa sohalaridagi xarajatlarga nisbatan tez sur’atlar bilan o‘sadi.

Misol uchun, AQShda YaIMda ularning ulushi 1929- yilda (joriy narxlarda) 34,7%, 1960- yilda 38,1%, 1976-yilda 45,6%ni tashkil qilgan. Shu bilan birga, xizmat ko‘rsatishning ulushi shaxsiy iste’mol xarajatlarida ham ko‘payadi: AQShda 1950- yilda 51,5%, 1960-yilda 50,4%, 1975-yilda 60,2%dan iborat bo‘lgan. 1990-yillarda rivojlangan mamlakatlarda xizmat ko‘rsatish sohasining YaIMdagi ulushi 55%gacha va shaxsiy iste’mol xarajatlaridagi ulushi 70%gacha ko‘paydi. Jamiyat tomonidan ishlab chiqariladigan va iste’mol qilinadigan xizmatlar turli kategoriyalarga bo‘linadi:

- maxsus bilimlarni talab qiluvchi intellektual xizmatlar (ta’lim berish,vositachilik, reklama faoliyat turlari);
- sog‘liqni saqlash, ta’lim bilan bog‘liq xizmatlar;
- mehmonxona va restoranlar faoliyati bilan bog‘liq xizmatlar;
- aloqa vositalari (transport, pochta, telekommunikatsiya);
- moliyaviy xizmatlar (banklar tomonidan taqdim qilinadigan;

– -kredit va boshqa xizmatlar, sug‘urtalash);

– jamiyat himoyasini ta’minlovchi va uning a’zolari o‘rtasidagi aloqalarni tartibga solib turuvchi umumiy xizmatlar (mamIakat mudofaasi, jamoat tartibini saqlash, adliya, milliy va mahalliy darajadagi umumiy boshqaruv).

Iqtisodiyot jabhalaridagi o‘zgarishlar ijtimoiy institutlar, insonlar xatti- harakatlari va mafkuralarida sezilarli o‘zgarishlarga olib keladi. Mazkur o‘zgarishlar modernizatsiya deb yuritiladi. Shved iqtisodchisi G. Myurtal «uchinchi dunyo» mamlakatlari iqtisodiy taraqqiyotiga bag‘ishlangan «Osiyo dramasi» nomli kitobida modernizatsiyaning quyidagi tamoyillarini ko‘rsatib o‘tgan:

1. Ratsionalizm. An’anaviy fikrlash tarzi va ishlab chiqarish shaklini o‘zgartirish, jamoatchilik va inson faoliyatining barcha sohalarida yangi metod va modellarni qo‘llash.

2. Iqtisodiy rejalashtirish. Xo‘jaliklar taraqqiyotini oshirish maqsadida qoilaniladigan iqtisodiy siyosat.

3. Tenglik. Barcha uchun yanada teng ijtimoiy va huquqiy mavqeyi, daromadlar va hayot tarzining yaratilishini ta’minlash. Ijtimoiy institutlar va aql-idrokdagi o‘zgarishlar. Bu yerda mehnat unumdorligini oshiradigan, raqobatni rivojlantirib tadbirkorlikka yo‘l ochadigan, ma’lum ma’noda insonlar xohish va imkoniyatlaridan foydalanishga zamin yaratadigan o‘zgarishlar to‘g‘risida fikr yuritiladi. Institutsional o‘zgarishlar yer islohotlari, monopoliyaga qarshi kurash, ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimini takomillashtirish va davlat boshqaruvining o‘zgarishini o‘z ichiga oladi. Xulosa qilib aytganda, jamoa mafkurasini modernizatsiyalash mehnatsevarlik, samaradorlik, haqiqatparvarlik, oqillik va o‘z kuchiga tayanish, o‘zgarishlarga tayyorlik va shu kabi xislatlarni kuchaytirish demakdir.

18.2. Iqtisodiy o‘sish va rivojlanish

Iqtisodiy adabiyotda “Iqtisodiy o‘sish” va “Iqtisodiy rivojlanish” tushunchalari mavjud. Turli iqtisodiy maktab va yo‘nalishlarning vakillari bir necha bor o‘sish va rivojlanishning o‘zaro bog‘liqligi muammolariga murojaat qilishgan. Mazkur tushunchalar ba’zan birbiriga tenglashtirilgan bo‘lsa-da, ammo ko‘pchilik hollarda ular bir-biriga mos mazmun mohiyatni bermaydi. Iqtisodiy rivojlanish iqtisodiy o‘sishning jabhalaridan biri hisoblanadimi, yoxud aynan “rivojlanish”, “o‘sish”ni o‘z ichiga oluvchi keng tushuncha sifatida qabul qilish lozimmi? Bugungi kunda mazkur savolga berilayotgan

javoblar ichida umumqabul qilingan, yakdil fikrlar mavjud emas. Yozef Shumpeter iqtisodiy o‘sish va iqtisodiy rivojlanish o‘rtasidagi tafovutlarni ko‘rsatib beradi. Buning ifodasi sifatida u o‘zining “Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi” asarida pochta karetalari va temir yo‘lardan foydalanishni taqqoslagan holda, misol keltiradi.

3. Y. Shumpeter iqtisodiy o‘sishni miqdoriy o‘zgarishlar - bir vaqtning o‘zida ayni bir xil tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish va iste’mol qilishning o‘sishi, iqtisodiy rivojlanishni esa, ishlab chiqarish, mahsulot va xizmatlar, boshqaruv, iqtisodiy faoliyat turlari va hayot faoliyatining boshqa sohalaridagi yangiliklar va ijobiy sifat o‘zgarishlari sifatida izohlaydi. Bir vaqtning o‘zida iqtisodiy o‘sish borasidagi tadqiqotlarda “iqtisodiy o‘sish” va “iqtisodiy rivojlanish” tushunchalari o‘xshash qarashlar ham, keng tarqalganligini inobatga olish zarur. Masalan, professor K.X, Oppenlender o‘z fikrini quyidagicha shaklda ifoda etadi: “Biz o‘sish va rivojlanishni sinonimlar sifatida tushunamiz. O‘sish va rivojlanish o‘rtasidagi farqlanishlar sun’iydir”.

4. Iqtisodiy o‘sish muammolarini tadqiq qilayotgan tadqiqotchi olim uchun iqtisodiy o‘sish va iqtisodiy rivojlanishning o‘zaro nisbati kabi jihatlarni chetlab o‘tish ancha mushkuldir. Ushbu tushunchalar aynan bir xil emas, ularning mazmun- mohiyati turlicha deb, hisoblovchilar fikriga qo‘shilamiz. Iqtisodiy o‘sish haqida gapirar ekanmiz, hatto intuitiv tarzda ham iqtisodiy o‘sish salbiy bo‘lishini, iqtisodiy rivojlanish uchun esa qandaydir bir ijobiy holat, oldinga qarab qandaydir harakatlanish xosligini tasavvur etishimiz mumkin. Biroq buning o‘zi yetarli emas, iqtisodiy o‘sish va iqtisodiy rivojlanishni tushunish borasidagi chalkashlikni yo‘qotish uchun bir muncha aniq mezonlar zarur. Iqtisodiy o‘sish odatda biror bir aniq son bilan ifodalanuvchi aniq bir qiymatga masalan, yalpi ichki mahsulot (yalpi qo‘shilgan qiymat)ga “bog‘lab” qo‘yilgan bo‘ladi. Iqtisodiy rivojlanish esa, ushbu yo‘sinda jamiyat farovonligi (uning biror bir jihati yoki barcha moddiy, ma’naviy - axloqiy kabi jihatlarining umumiyligi) ko‘rinishida aks etadi. Iqtisodiy o‘sish va iqtisodiy rivojlanish - keng qamrovli kategoriyalardir, ammo tadqiqot maqsadidan kelib chiqib ularing asosiy jihatlarini ajratib olish biz uchun muhim hisoblanadi. Iqtisodiy o‘sishni talqin etishda iqtisodiy jihat, iqtisodiy rivojlanishni tushunishda esa ijtimoiy jihat ustuvorlik qiladi, deb hisoblaymiz. Shuning uchun “Milliy iqtisodiyotda iqtisodiy rivojlanish qiyin aniqlanadigan jarayon bo‘lganligi sababli, uning

mezonlaridan biri bo‘lgan iqtisodiy o‘sish ko‘proq tahlil qilinadi”- deydi.

5. F.Egamberdiyev. Shu asnoda shartli tarzda yalpi ichki mahsulot dinamikasini iqtisodiy o‘sish, jamiyat farovonligi dinamikasini esa iqtisodiy rivojlanish deb hisoblashimiz mumkin. Mazkur talqin yetarlicha sodda bo‘lib ko‘rinsada, umuman olganda bu talqin fanda allaqachon o‘z tasdig‘ini topib ulgurgan.

6. Har qanday ishlab chiqarishning pirovard maqsadi - bu jamiyat ehtiyojlarini qondirishdan iboratdir, deb ta’kidlash albatta adolatdan bo‘lar edi. Ammo bu o‘rinda ehtiyojlarni yuqori darajada qondirish, bu farovonlikning asosiy maqsad va vazifasi ekanligini unutishimiz mumkin emas. Shunday qilib, iqtisodiy farovonlik-iqtisodiyot va takror ishlab chiqarishning pirovard maqsadi bo‘lsa, iqtisodiy o‘sish esa oraliq maqsad, ya’ni yalpi ichki mahsulot yaratish zaruriyatidir. Mahsulot yaratish - bu sof ishlab chiqarishga xos masaladir, ammo takror ishlab chiqarishning barcha bosqichlarini hisobga olgan holda farovonlikning o‘sishi.

Ta’minlash - bu pirovard maqsad hisoblanadi va shu yo‘sinda biz iqtisodiy rivojlanishni talqin etishimiz mumkin. Shu tariqa, biz iqtisodiy o‘sish va iqtisodiy rivojlanish kategoriyalarini talqin etish borasida tez-tez uchrab turadigan ko‘pgina chalkashliklarni bartaraf etishga harakat qilamiz. Buning uchun iqtisodiy o‘sish va iqtisodiy rivojlanish kategoriyalarini farqlashning quyidagi me’zonlarini taklif etamiz:

– iqtisodiy o‘sish ko‘proq yalpi ichki mahsulotning o‘sishi bilan, iqtisodiy rivojlanish esa - farovonlikning o‘sishi bilan uyg‘unlashadi;

– iqtisodiy o‘sishga iqtisodiy jihat (oraliq tavsifga ega bo‘lgan mahsulot ishlab chiqarish) xos bo‘lgani holda, iqtisodiy rivojlanishga ijtimoiy jihat xosdir, bunda jamiyat farovonligining o‘sishi pirovard maqsad sifatida namoyon bo‘ladi.

Yalpi ichki mahsulot jamiyat farovonligini shakllantirishda qanchalik ishtirok etishiga qarab iqtisodiy o‘sishning sifati namoyon bo‘ladi deb, aytishimiz mumkin bo‘ladi. Iqtisodiy o‘sish sifatida yo‘qotilishlar imkon qadar kam bo‘lishi lozim Bu yalpi ichki mahsulotning jamiyat farovonligiga transformatsiya jarayonini yuqori darajada bo‘lishiga bog‘liqdir, zero ijobiy tavsifga ega bo‘lgan turli jarayonlar bilan birgalikda salbiy tavsifga ega bo‘lgan jarayonlar ham yuz berishi tabiiydir. Bunday jarayonlarga insonlar sog‘ligining

yomonlashuvi, atrof-muhitning ifloslanishi, aholining turli - xil tabaqalanishlar (daromadlar, savodxonlik darajasi, hududlar va shu kabilar bo‘yicha) iqtisodiy o‘sish sifati bilan doimo birga kechadigan jarayonlarni ta’kidlab o‘tish mumkin.

Bu turdagi salbiy jarayonlar pirovardida yalpi ichki mahsulotning to‘laligicha jamiyat farovonligiga transformatsiya jarayonini samaradorligini pasaytirib yuboradi va unda yo‘qotishlarni ko‘payishiga olib keladi. Ya’ni iqtisodiy o‘sishning sifati farovonlikning o‘sib borishi bilan birgalikda kechadigan destruktiv jarayonlarni minimallashtirishda ham namoyon bo‘ladi. Iqtisodiy o‘sish sifati deyilganda, keng ma’noda salbiy jarayonlarni minimallashtirishga erishilgan holda, yalpi ichki mahsulotning jamiyat farovonligiga to‘liq tarzda transformatsiyalanishini eng yuqori darajada ta’min etilishiga yo‘naltirilgan pirovard maqsad sifatida farovonlikka yo‘naltirilgan rivojlanishni tushunamiz. Iqtisodiy o‘sishning sifati - bu ijobiy jarayonlarning ta’sir doirasini kengaytirish salbiy jarayonlar ta’sirini kamaytirish asnosida yalpi ichki mahsulotning jamiyat farovonligiga transformatsiyalanishi jarayonlarining amalga oshish tavsifidir. Sifat me’zonlari - bu yalpi ichki mahsulotning farovonlik ehtiyojlariga to‘laligicha aylanish darajasidir. Shuni ta’kidlash muhimki, asosiy narxlarda yalpi ishlab chiqarish tushunchasiga tayangan holda biz umumiy holatda yalpi ichki mahsulotning jamiyat farovonligiga transformatsiyalanishining quyidagi uchlamchi maqsadlarini shakllantirishimiz mumkin bo‘ladi: sarflangan mehnat predmetlari va eskirgan ishlab chiqarish vositalari o‘rnini qoplash, turmush darajasi va sifatini oshirish, davlat boshqaruvi idoralarining me’yorida faoliyat ko‘rsatishini ta’minlash.

18.3. Asosiy makroiqtisodiy nisbatlar va ularni tahlili

Iqtisodiyotni erkinlashtirish va bozor munosabatlarini shakllantirish bosqichida ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonida ro‘y berayotgan o‘zgarishlarni, iqtisodiy jarayonlarni o‘rganish va tahlil etishda YaIMning makroiqtisodiy ko‘rsatkich sifatidagi roli va ahamiyati ortib bormoqda. YaIM mamlakat milliy iqtisodiyotining faoliyati natijasini pirovard, umumlashtiruvchi ko‘rsatkichi bo‘lib, u iqtisodiyotning holati, ishlab chiqarishning hajmi, uning tarkibi, rivojlanish yo‘nalishlari, ko‘lami va darajasi sifatida tavsiflanadi. Undan resurslarning doiraviy aylanishini barcha bosqichlarini tahlil qilishda foydalanish mumkin. Ishlab chiqarish bosqichida uning

miqdori, tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarishning miqyosini, bozorning hajmini ifoda etadi.

Pirovard ishlatilishi bosqichida uning yalpi investitsiyaga va iste'molga bo'linishi, ularning mutanosibligi aks etadi. YaIMda import va eksport o'rtasidagi nisbat iqtisodiyotning ochiqligi darajasi, u yoki bu mamlakatning jahon hamjamiyati bilan o'zaro aloqasini tavsiflaydi. YaIMni aholi jon boshiga ishlab chiqarishning hajmi iqtisodiy rivojlanish darajasini, aholi jon boshiga iste'mol qilish esa moddiy farovonlik darajasini ifodalaydi.

YaIMning o'sish sur'atlari, u yoki bu iqtisodiy tizimning ilg'orligi va alohida davlatlar rivojlanishining xususiyatlarini aks ettiradi. YaIMning o'sish sur'atlari, jamiyat ehtiyojlari asosida uning tarmoq tuzilishi o'zgarishi u yoki bu davlatlar rivojlanishi xususiyatlarini aks ettiradi. Alohida mamlakatlar yoki ularning guruhlarining iqtisodiy rivojlanish miqyoslari va darajalari nisbatini tahlil qilishda YaIM muhim o'rin egallaydi. Buning uchun ikki yoki bir necha mamlakatlar YaIMni bir valyutada, bir xil xarid qilish pariteti (XQP)da aks ettirish talab qilinadi. Fan va amaliyotda bunday taqqoslashning bir qancha uslublari ma'lum.

Bular quyidagilar:

1. Ma'lum turkumlardagi tovarlar va xizmatlarni baholash milliy valyutalarda, bu bir valyutani boshqa valyutaga almashish koeffitsiyentini topish orqali aniqlanadi. Bunday fikrni o'z davrida akademik S.Strumilin bildirgan edi.

2. Milliy valyutalarning valyuta kurslari nisbatlari bo'yicha turli mamlakatlarning YaIMlarini qayta qiyosiy baholash.

3. BMT va Xalqaro valyuta Fondi (XVF) tomonidan amalga oshiriladigan xalqaro taqqoslashlar uslubi. Buning asosida o'z ichiga turli guruhlardagi iste'mol tovarlari, xizmatlar va investitsion tovarlarni oluvchi "iste'mol savatini" baholash yotadi. Bunda milliy valyutalarning XQP aniqlanadi. Keltirilgan uch uslubdan eng ishonchlisi va qulayi uchinchi usul bo'lib, unda valyutalarning XQP usulidan foydalaniladi. Bunda xalqaro taqqoslashlarni tashkil qilish uchun barcha mamlakatlar uchun bir xil "iste'mol savati" tuziladi. Unga iste'mol tovarlari va xizmatlar, investitsion tovarlar va qurilish ishlari kiritiladi.

4. Har bir tovarlar, xizmatlar va qurilish ishlari har bir mamlakat YaIMda o'z salmog'iga egadir. Masalan 1994-yildagi HQPni hisoblash "iste'mol savati"ga 412 ta iste'mol tovarlari va

xizmatlari, 136 ta investitsion tovarlari va 7 ta qurilish ishlari kiritilgan. Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan tovar, xizmat va ish birliklarining narxlari dastavval har bir mamlakatda o‘z milliy valyutasida qayd qilinadi. Mamlakatlarda ishlab chiqarilgan tovarlar, ko‘rsatiladigan xizmatlar va bajariladigan qurilish ishlari turli sifatlarga ega bo‘lgani uchun, barcha mamlakatlar 3 ta guruhga ajratilgan.

1-guruh rivojlangan mamlakatlar,

2-guruh o‘rtacha rivojlangan mamlakatlar,

3-guruh rivojlanayotgan mamlakatlar.

Masalan, O‘zbekiston 3-guruhga kiritilgan. Taqqoslash ishlarini tashkil qilish maqsadida ba’zi o‘xshash mamlakatlar bir vaqtning o‘zida har 2 ta guruhda qatnashadi. Masalan, Turkiya 2 va 3 guruhda, Avstriya esa 1 va 2 guruhlarda qatnashadi. Dastavval O‘zbekistondagi narxlar Turkiyadagi narxlar bilan taqqoslanadi va har bir tovarlar, xizmatlar va qurilish ishlarining YaIMda tutgan o‘niga qarab, avval O‘zbekiston ko‘rsatkichlarida, so‘ngra Turkiya ko‘rsatkichlarida taqqoslanadi va ulani umumlashtirish uchun o‘rtacha geometrik miqdori topiladi.

Turkiya o‘z navbatida Avstriya bilan yuqorida qayd qilingan usulda taqqoslanadi.

Avstriya o‘z navbatida 1-guruhdagi AQSh bilan taqqoslanadi. Natijada, mahsulot, xizmat va qurilish ishlarining sifatlariga tuzatishlar kiritilgan holda, O‘zbekiston ko‘rsatkichlarini AQSh ko‘rsatkichlarida, ya’ni AQSh dollarida hisoblash imkoniyati tug‘iladi. Bunday usulda mamlakatlarning YaIMlarini AQSh dollarida hisoblash ko‘p vaqt, mehnat va mablag‘ni talab qiladi.

18.4. Iqtisodiy o’sishda inson kamoloti indeksi va inson kapiatalining o’rni

Raqamli iqtisodiyotga o‘tish sharoitida butun dunyoda shuningdek, mamlakatimizda inson kamolati indeksiga alohida e’tibor berilmoqda. Bu o‘z navbatida yurtimizda erkin demokratik muhitning takomillashishi, ijtimoiy-iqtisodiy sohani rivoji, aholining turmush farovonligining yuksalishida o‘zining salmoqli hissasini qo‘shishi bugungu kunda namoyon bo‘lmoqda. Aslida, inson kamoloti indeksi (Human Development Index) to‘xtalar ekanmiz bu indikator BMT Taraqqiyot Dasturi tomonidan 1990-yildan beri yuritilib kelinmoqda hamda har yilning oxirida dunyo davlatlari tamonidan hisobot berilib tahlil qilinib boriladi.

Jumladan, inson kamolati indeksi 189 ta davlatlarning iqtisodiy va siyosiy o‘sishi, inson kapitalining (uzoq umr, ta’lim, farovon hayot ko‘rsatkichlari orqali) rivojlanishiga ta’sirini hamda jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini tahlil qiladi. Hozirda inson kamoloti indeksi odamlar uchun zarur bo‘lgan uchta ko‘rsatkich orqali hisoblanadi. Bular:

1. Umr ko‘rish davomiyligi indeksi;
2. Ta’lim indeksi;
3. Aholi jon boshiga YaMD indeksi[26]

Inson kamolati indeksining asosiy funksional vazifalaridan biri bo‘lib inson kapitalini takomillashtirishda tahlillar olib borishni nazarda tutadi. Inson kapitali hozirgi davrga kelib ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohasida muhim ahamiyat kasb etganligi bois, dunyoda inson kamolati indeksiga alohida e’tibor berilmoqda.

Inson kamolati indeksi hozirgi davrda mamlakatimizda hamda butun dunyoda BMT tamonidan qabul qilingan normativlarga ko‘ra uchta mezon bo‘yicha o‘lchanadi. Avvalo yakuniy indeks ko‘rsatkichini aniqlash uchun dastavval har bir mezonning indeksi hisoblab chiqilishi kerak. Ko‘rsatkichlarni 0 dan 1 (3 ta o‘nlik aniqlik bilan o‘lchanadigan ma’lumot)gacha bo‘lgan miqdorini indekslarga aylantirish uchun mezonlarning eng kam va eng ko‘p miqdorlarini tahlil qilish talabetiladi.

Yakuniy indeks ko‘rsatkichini hisoblab chiqish uchun o‘rtacha geometrik miqdorlar usulidan foydalaniladi va shuning uchun eng ko‘p miqdor har qanday ikki mamlakat yoki vaqt davrlari o‘rtasidagi taqqoslash davomida nisbiy ko‘rsatkichlar ta’sir ko‘rsatmaydi. Shuningdek, inson kamolati umr ko‘rish davomiyligi indeksi quyidagi ko‘rsatkich orqali aniqlanadi:

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki barcha yoshdagi aholining o‘lim ko‘rsatkichlari ko‘rib chiqilayotgan yil bilan bir xil bo‘ladi, deb taxmin qilish mumkin bo‘lgan kelajakda o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi qiymati nazarda tutishimiz lozim.

Keying ko‘rsatkich sifatida ta’lim indeksini ham ma’lum formulalar asosida aniqlanib hisoblanib boriladi. Ta’lim indeksini aniqlashtirib olishimizda o‘rtacha ta’lim davomiyligi, kutilayotgan ta’lim davomiyligi, aholining oliy ma’lumotli darajasi, ta’limga kiritiladigan investitsiya miqdorlari kabi ko‘rsatkichlar orqali holatlar aniqlanib, inson kamolatini yuksaltirish uchun zaruriy vazifalar amalga oshirilib boriladi. Bu jarayon albatta aholining ijtimoiy, ilmiy

ehtiyojlariga bo‘lgan talabni qondirib kelajakda mamlakat rivojiga munosib hissa qo‘shishi mumkin. Inson kamolatining ta’lim indeksi quyidagi formula orqali aniqlanadi;

$$\boldsymbol{Aholining\ ta'lim\ indeksi} = \frac{\boldsymbol{MYS - EYS}}{\boldsymbol{2}} \quad \boldsymbol{(18,1)}$$

Bu yerda:

MYS (Mean years of schooling) – o‘rtacha ta’lim davomiyligi (UNESCO ma’lumotlari asosida shakllantiriladi);

EYS (Expected years of schooling) – kutilayotgan ta’lim davomiyligi (UNESCO ma’lumotlari asosida shakllantiriladi)[28];

Shuningdek, inson kamolati indeksining uchinchi ko‘rsatkichi aholi jon boshiga YaMD (Yalpi milliy daromad)ni to‘g‘ri kelishi bo‘yicha mezon quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$\boldsymbol{Aholi\ jon\ boshiga\ YaMD} = \frac{\boldsymbol{Ln(GNIpc) - Ln(100)}}{\boldsymbol{Ln\ (75000) - Ln\ (100)}} \quad \boldsymbol{(18.2);}$$

Bu yerda:

GNI pc (Gross National Income per capita) – YaMDning aholi jon boshiga nisbati, xarid qobiliyati pariteti bo‘yicha AQSh dollarida. Ushbu paritet jahon amaliyotida “World Bank, International Monetary Fund, United Nations Statistics Division”[29] ma’lumotlari asosida shakllantiriladi.

Xususan, minimal ko‘rsatkichlar – indikator ko‘rsatkichlarining boshlang‘ich nuqtalarini misol uchun, o‘rtacha ta’lim davomiyligini 0 ga tenglab olinishi, bu rasmiy ta’limsiz mamlakatlarni ifodalaydi, maksimal ko‘rsatkichlar – tegishli yillarga mo‘ljallangan eng yuqori ko‘rsatkichni misol uchun, o‘rtacha ta’lim davomiyligini 15 ga tenglab olinishi, bu ko‘rsatkichning maqsad qilingan eng yuqori qiymat bo‘lishini anglatadi.

Indeks ko‘rsatkichi yuqorida keltirilgan formulalar asosida hisoblab chiqilgandan so‘ng, mamlakatlarning reyting ko‘rsatkichlari tuziladi hamda reytingga ko‘ra mamlakatlarda inson rivojlanishining to‘rtta darajasiga ko‘ra mamlakatlar guruhlarga ajratiladi (18.1-jadval).

Hozirgi davrda mamlakatimizda amalga oshiriladigan strategik rejalarning asosiy maqsadi bu yaqin davr ichida inson taraqqiyotining yuqori darajasi ko‘rsatkichiga, keying 15 yil ichida esa inson

taraqqiyotining eng yuqori darajasigaerishishdir[21].

18.1-Jadval.

Inson kamolati indeksining reyting ko‘rsatkichlari[22]

Tasnifi	Darajasi
Inson taraqqiyotining eng yuqori darajasi	0,800-1,000
Inson taraqqiyotining yuqori darajasi	0,700-0,799
Inson rivojlanishining o‘rtacha darajasi	0,550-0,699
Inson taraqqiyotining past darajasi	0,550 dan past

Xususan “Inson kamoloti” hisoboti natijalariga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi yuqori inson kamoloti darajasiga ega davlatlar qatoridan joy oldi hamda indeksda 0,720 ko‘rsatkichi bilan 102-o‘rinni egallab, avvalgi qayd etgan natijasiga nisbatan 4 pog‘ona yuqoriga ko‘tarilgan.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki ko‘plab taraqqiy etgan mamlakatlar inson kapitalini shakllantirishda investitsiyalar kiritib kelinmoqda. Bu borada mamlakatimizda ham ilg‘or maqsadlar belgilanib, bosqichma-bosqich hayotga tadbiq e’tilmoqda. Xususan, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tamonidan qabul qilingan “Taraqqiyot strategiyasi”ning to‘rtinchi yo‘nalishini “Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish”[23] deb nomlagani hamda ushbu yo‘nalish kesimida o‘ttiz to‘rtta maqsad belgilaganligi muhim ahamiyat kasb etishini bildirmoqda.

Jumladan, inson kamolati indekslari ichida ta’lim indeksining rivojlantirish, inson kapitalini shakllanishda muhim indikatorlardan biri bo‘lib ta’lim darajasi, sifati, qamrovi, infratuzilmalarining zamonaviy holati hamda ta’limga kiritiladigan investitsiyalar kabi ko‘rsatlar asosida baholanilib tahlil etiladi. Hozirgi vaqtda eng samara beruvchi investitsiya bu ta’limga kiritiladigan investitsiya ekanligi jahon

tajribasidan namoyon bo‘lmoqda. Bu borada AQSH dunyoda yetakchi mamlakatlarqatoridan o‘rin egallagan (18.2-jadval).

[21] M.X.Saidova “O‘zbekiston mehnat bozorida yoshlar ishsizligi: muammolar va ularning ayrim yechimlari” IQTISOD VA MOLIYA. UDK: 331.526 2019, 9(129

[22] https://old.mineconomy.uz/

[23] www.lex.uz

18.2-Jadval.

Ta’limga kiritiladigan investitsiyalar

№	Davlatlar	3-22 yoshgacha davrda ta’limga sarflanadigan kapital (dollar)	23-60 yoshgacha davrda yaratiladigan qiymatning miqdori (dollar)
1	AQSH	231000	3100000
2	Germaniya	156000	2465000
3	Janubiy Koreya	130000	2100000
4	Singapur	125000	2050000
5	O‘zbekiston	19000	78000

Jadval ma’lumotlariga qaraydigan bo‘lsak dunyoda yetakchi o‘rinlarda AQSH turibdi. AQSH uch yoshdan, yigirma ikki yoshgacha bo‘lgan davrda 231000 ming AQSH dollari ta’limga investitsiya kiritilar ekan, bu yigirma uch yoshdan, oltmish yoshgacha bo‘lgan davrda mamlakatga 3100000 AQSH dollari miqdorida samara olib kelar ekan. Bundan keying ko‘rsatkichlarda Germaniya, Janubiy Koreya, Singapur kabi mamlakatlarda ham ijobiy natijalarni ko‘rishimiz mumkin. Bu borada mamlakatimiz natijalariga e’tibor beradigan bo‘lsak farzandlar ta’lim- tarbiyasi, ularni inson kapitali sifatida shakllanishida 19000 ming AQSH dollari sarflanib, kelajakda bu 78000 ming AQSH dollari atrofida qaytib kelarkan. Hozirgi globallashuv davrda bu ko‘rsatkich miqdoran kamligi hamda natijasi ham shunga muvofiqligini ko‘rishimiz mumkin.

Davlatimiz tamonidan olib boriladigan islohotlar, qabul qilingan normalar, dasturlar miqdorini yil sayin oshib borishi yaqin kelajakda inson kapitaliga kiritiladigan investitsiya miqdorini ortishiga va buning natijasida qiymat miqdorini ham yuksalishini bashorat qilishimiz mumkin.

Shuningdek, inson kapitalini rivojida davlatimiz tamonidan imtiyozli kreditlar ajratish, iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida turli yo‘nalishlarda grant dasturlarni joriy etish, mamlakatimiz yoshlarini milliy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash maqsadida faol loyihalarni amalga oshirish va ta’lim-tarbiya berish jarayonida yangi milliy qadriyatlarga mos keladigan usullarni amalga tadbiq etish orqali yaqin davr ichida davlatimiz inson kapitalini rivojlantirish mumkindir.

Xulosa o‘rinda mamlakatimizda inson kapitalini rivojlantirish

yaqin davrlar ichida ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar tez sur’atlarda hayotga tadbiq etishni talab qilmoqda. Shuningdek, ishsiz fuqarolarni mintaqalar aro bosqichma-bosqich kasb- hunarga o‘qitish dasturini ishlab chiqish, maktabgacha nodavlat tashkilotlar sonini oshirish va ularda ta’lim berish metodikasini ishlab chiqish hamda vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, xususiy maktab ta’lim faoliyatini takomillashtirish va uning ta’lim xizmatlarini diversifikatsiya qilish, ta’lim berish jarayonida o‘quvchilarga faqat dars mashg‘ulotlarini “yod olish” emas muammoli vaziyatni bartaraf etishga yo‘naltirish ishlarini olib borishimiz darkor. Zero, hozirgi vaqtda eng katta muammomiz bu maktab, oliy ta’limdagi ta’lim tarbiya berish jarayonlari asosan bizda ta’lim oluvchilar mashg‘ulotlarni yod olishga mo‘ljallanganligi, buning natijasida bo‘lajak kadrlarga kelajakda kerakli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilolmayotganligi muammo bo‘lib qolmoqda.

Yuqorida keltirilgan tashqivotlarni tez sur’atlarda amaliyotga joriy etilishi, davlat tamonidan qo‘llab-quvvatlanishi mamlakatimizni ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy jabhalarda rivojlanishi, natijada yaqin davrlar ichida mamlakatimiz ham rivojlangan mamlakatlar qatoriga kirishi, inson kapitali eksportida jahon bozorlarida yetakchi davlatlar qatoriga kirishiga xizmat qiladi.

Asosiy xulosalar

1. Iqtisodiy o‘sish - to‘liq bandlik bilan mujassamlashgan ishlab chiqarish real hajmining uzoq muddat mobaynida o‘sishidir.
2. Barqaror iqtisodiy o‘sish - bu uzoq vaqt davomida iqtisodiyotni yuqori sur’atlar bilan o‘sib borishidir
3. Makroiqtisodiy o‘sish - butun jamiyat miqyosidagi, masalan, mamlakat miqyosidagi iqtisodiyotni o‘sishidir. U jamiyat ishlab chiqarish faoliyatining natijasi bo‘ladi, turli korxona va tarmoqlardagi makroiqtisodiy o‘sishning mazmuni sifatida yuzaga keladi. Mikroiqtisodiy o‘sish bu korxona, xo‘jalik firma va tarmoq doirasidagi o‘sishdir, shu doiradagi mehnat qiluvchilar iqtisodiy aniqrog‘i guruhiy faoliyatning natijasidir.
4. Mamlakatimizda inson kapitalini rivojlantirish yaqin davrlar ichida ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar tez sur’atlarda hayotga tadbiq etishni talab qilmoqda. Shuningdek, ishsiz fuqarolarni mintaqalar aro bosqichma-bosqich kasb-hunarga o‘qitish dasturini ishlab chiqish, maktabgacha nodavlat tashkilotlar sonini oshirish va ularda ta’lim berish metodikasini ishlab chiqish hamda vatanparvarlik ruhida

tarbiyalash, xususiy maktab ta’lim faoliyatini takomillashtirish va uning ta’lim xizmatlarini diversifikatsiya qilish, ta’lim berish jarayonida o‘quvchilarga faqat dars mashg‘ulotlarini “yod olish” emas muammoli vaziyatni bartaraf etishga yo‘naltirish ishlarini olib borishimiz darkor.

Muhokama uchun savollar

1. Iqtisodiy o‘sishni qanday tushunasiz?
2. Makroiqtisodiy o‘sish haqida fikringiz?
3. Mikroiqtisodiy o‘sish haqida fikringiz?
4. Iqtisodiy o‘sish sur’atlari qo‘shimcha o‘sish sur’atlaridan nima bilanfarqlanadi?
5. Iqtisodiy rivojlanishni iqtisodiy o‘sishdan farqi nimada?
6. Makroiqtisodiy darajada iqtisodiy o‘sishning qiymat ko‘rsatkichlariniizohlang.
7. Iqtisodiy o‘sishga ta’sir etuvchi taklif omillarini izohlang.
8. Iqtisodiy o‘sishdagi taqsimlash omillarini izohlang.
9. Iqtisodiy o‘sishni ekstensiv omili haqida fikringiz.
10. Iqtisodiy o‘sishni intensiv omili haqida fikringiz.
11. Iqtisodiy o‘sishga iqtisodiyotdagi tarkibiy o‘zgarishlarning ta’siri.
12. Inson kamoloti indeksining ahamiyati
13. Inson resurslarining iqtisodiy o‘sishga ta’siri
14. Inson kapitali nima?
15. Inson kapitalining qanaqa turlarini bilasiz?

GLOSSARIY

Agrar inqirozlar	Agrariancrises	Аграрные кризисы	– qishloq xo‘jaligida ro‘y beradigan iqtisodiy inqirozlar bo‘lib, siklli tavsifga ega bo‘lmaydi va sanoat sikllariga qaraganda ancha uzoq davr davom etadi.
Agrar munosabatlar	Agrarian relations	Аграрные отношения	– yerga egalik qilish, tasarruf etish, undan foydalanish va ishlab chiqarish natijalarini o‘zlashtirish jarayonida vujudga keladiganmunosabatlar.
Agrosanoat majmuasi	Agro-industrial complex	Агропромышленныу комплекс	– qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirish, uni saqlash, qayta ishlash va iste’molchilarga yetkazib berish bilan bog‘liq xo‘jalik tarmoqlarining birligi.
Aksiyadorlik jamiyati	Joint-stock company	Акционерное общество	– ko‘proq foyda olishmaqsadida aksiyalar chiqarish orqali mehnat, mehnat qurollari va boshqa ishlab chiqarish vositalari hamda pul resurs (kapital)larini birlashtirgan uyushma.
Amortizasiya normasi	Depreciation rate	Норма амортизации	– amortizasiya ajratmalari yillik summasining asosiy kapital qiymatiga nisbatining foizdagi ifodasi.
Aholining tabiiy o‘sishi	Natality	Естественныу прирост населения	– bu aholining emigratsiya va immigratsiyadan tashqari harakati.
Aholi daromadlari	Incomes	Доходы населения	– aholining ma’lum vaqt davomida pul va natural shaklda olgan daromadlari miqdori.
Ayirboshlash	Exchange	Обмен	– jamiyat a’zolarining iqtisodiy faoliyat turlari yoki ishlab chiqarish natijalari bo‘yicha o‘zaro almashish jarayoni.

Bank	Bank	Банк	– iqtisodiyotning me’yorda amal qilishi uchun zarur bo‘lgan pul massasi harakatini tartibga soluvchi moliya-kredit muassasasi, kredit munosabatlariga xizmat qilib, kredit tizimining negizini tashkil qiluvchi maxsus muassasalar.
Bank krediti	Bank loan	Банковский кредит	– pul egalari (banklar va maxsus kredit muassasalari) tomonidan qarz oluvchilarga (tadbirkorlar, davlat, uy xo‘jaligi sektori) beriluvchi pulssudalari.
Bank operasiyalari	Bank operations	Банковские операции	– mablag‘larni jalb qilish va ularni joylashtirish bo‘yicha amalga oshiriladigan operasiyalar.
Bank foydasi (marja)	Bankingprofit (margin)	Банковская прибыл (маржа)	– olingan va to‘langan foiz summalari o‘rtasidagi farq.
Bank foyda normasi	Bankingprofit margins	Банковская норма прибыли	– bank sof foydasining uning o‘z kapitaliga nisbatining foizdagi ifodasi.
Bevositausullar	Direct methods	Прямыеметоды	– iqtisodiyotni tartibga solishning taqiqlash, ruxsat berish va majbur qilish tavsifidagi ma’muriyvositalari.
Bilvositausullar	Indirect methods	Косвенные методы	– iqtisodiyotni tartibga solishning iqtisodiy vosita va dastaklari.
Birja	exchange	Биржа	– namuna (yoki standart)lar asosida ommaviy tovarlarning muntazam savdo-sotiq ishlarini o‘tkazuvchi tijorat muassasasi.
Bozor	Market	Рынок	– ishlab chiqaruvchilar va iste’molchilar (sotuvchilar va xaridorlar) o‘rtasida pul orqali ayirboshlash jarayonida bo‘ladigan munosabatlar yig‘indisi.
Bozor iqtisodiyoti	Market economy	Рыночная экономика	– tovar ishlab chiqarish, ayirboshlash va pul muomalasi qonun-qoidalari asosida tashkil etiladigan va boshqariladigan iqtisodiy tizim.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tish davri	The transition toa market economy	Переходныу период к рыночноу экономике	– ma’muriy-buyruqbozlik tizimini bartaraf etish yoki tubdan o‘zgartirish hamda bozor iqtisodiyoti tizimining asoslarini shakllantirish jarayonlari amalga oshiriluvchitarixiy davr.
Bozor infratuzilmasi	Market infrastructure	Инфраструктура рынка	– bu bozor aloqalarini o‘rnatish va ularning bir maromda amal qilishiga xizmat ko‘rsatuvchi muassasalar tizimidir.
Bozor mexanizmi	Market mechanism	Рыночныу механизм	– bozor iqtisodiyotining faoliyat qilishini tartibga solishni va iqtisodiy jarayonlarni uyg‘unlashtirishni ta’minlaydigan dastak va vositalar.
Bozor obyekti	Marketobjects	Объектырынка	– ayirboshlash munosabatlariga jalb qilingan iqtisodiy faoliyat natijalari va iqtisodiy resurslar, tovar, pul va unga tenglashtirilgan moliyaviy aktivlar.
Bozor subyekti	Market participant	Субъектрынка	– ayirboshlash munosabatlari qatnashchisi.
Bozor narxi	Market price	Рыночнаяцена	– bir tomondan, tovarlarning sotilishi ta’minlovchi, boshqa tomondan, bozorda tovarlar taqchilligini yuzaga keltirmaydigan muvozanatlashgan narx.
Bozor islohotlari	Marketreforms	Рыночные реформы	– bozor iqtisodiyotini va bozor iqtisodiyoti munosabatlarini shakllantirishga qaratilganchora-tadbirlar majmui.
Davlat byudjeti	The state budget	Государственныу бюджет	– Davlat daromadlari va xarajatlari hamda ularni moliyaviy ta’minlash manbalarining tartiblashtirilgan rejasi.
Davlatning iqtisodiy vazifalari	The economic functions ofthe state	Экономические функции государства	– iqtisodiy tizimning amal qilishiga shart-sharoit yaratish va iqtisodiyotni tartibga solish hamda iqtisodiy o‘sishni ta’minlashga qaratilgan chora-

			tadbirlar.
Davlat tassarrufidan chiqarish	Privatization	Разгосударствление	– mulkni davlat hisobidan chiqarilib, boshqa nodavlat mulk shakllarining vujudga keltirilishi.
Davlat tashqi qarzi	The external debt of the state	Внешниу долг государства	– xorijiy davlatlardan, ulardagi jismoniy va yuridik shaxslardan, shuningdek, xalqaro moliyaviy tashkilotlardan olingan qarz.
